

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA’LIM VAZIRLIGI  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI  
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**



**HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI**

fanidan

o‘quv-uslubiy majmua

Bilim sohasi: 110000- Pedagogika

Ta’lim sohasi: 120000- Gumanitar fanlar

Ta’lim yo‘nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

**GULISTON -2022**

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Fanning ishchi o‘quv dasturi Guliston davlat universiteti Ilmiy metodik Kengashining 2021 yil “29” avgustdagi 1-sonli yig‘ilishining 5-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘zbek leksikografiyasi va terminologiyasi” fani dasturi asosida tayyorlangan.

**Mualliflar:** f.f.d. (PhD), dotsent I.Ermatov, katta o‘qituvchi G.Dushayeva

**Taqrizchilar:** filologiya fanlari nomzodi, dotsent J.Abdullayev  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent I.Pardayeva

O‘quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan 2021 yil “\_\_\_”\_\_\_\_dagi \_\_\_-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## **1-modul. “O‘zbek leksikografiyasi va terminologiyasi” fanining predmeti, shakllanish bosqichlari.**

**1-MAVZU. “O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASI VA TERMINOLOGIYASI” FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALAR.** O‘zbek tili so‘z boyligida sohaviy terminlar va ularning til xususiyatlari. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi shakllanishining uch bosqichi. Soha terminologiyasining o‘zbek tili lug‘at fondidagi o‘rni.

### **Reja**

1. “O‘zbek leksikografiyasi va terminologiyasi” fanining predmeti, maqsad va vazifalar.
2. O‘zbek tili so‘z boyligida sohaviy terminlar va ularning til xususiyatlari.
3. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi shakllanishining uch bosqichi.
4. Soha terminologiyasining o‘zbek tili lug‘at fondidagi o‘rni.

**Tayanch iboralar:** *O‘zbek terminologiyasi tizimi, termin, istiloh, atama, o‘zbek terminologiyasini davrlashtirish, asl turkiycha, so‘g‘dcha, sanskritcha, xitoycha, eroncha, arabcha, ruscha-baynalmilal terminlar, o‘zbek lug‘atshunosligi bosqichlari, tarjima lug‘atlar. terminologiya, termin, notermin, terminologik leksika, terminologik maydon, umumadabiy til, terminlar sistemasi, fan tili, texnika terminlari, ta’rif, nomenklatura, nomenlar, ilmiy nomenlar, savdo-sotiq nomenlari, kodlash, indeksatsiya.*

### **1.1. “O‘zbek leksikografiyasi va terminologiyasi” fanining predmeti, maqsad va vazifalar.**

**Fanning maqsad va vazifalari.** “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmonda ta’kidlanganidek: “Eng avvalo, ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, uning tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganish va ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish bugungi kunda o‘ta dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda, fundamental fanlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish va shu kabi o‘ta muhim tarmoqlarda o‘zbek tili o‘zining haqiqiy o‘rnini egallashiga erishish, shu maqsadda zamonaviy darsliklar, etimologik va qiyosiy lug‘atlar yaratish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish oldimizda muhim vazifa bo‘lib turganini qayd etish lozim”.

Mazkur vazifalardan kelib chiqqan holda fanni o‘qitishning maqsadi terminologiya sohasining predmeti, obyekti va vazifalarini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, o‘zbek terminologiyasining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili, hozirgi o‘zbek adabiy tili va mustaqillik davri o‘zbek tili terminologiyasining shakllanish va rivojlanishiga turtki bo‘lgan ijtimoiy shart-sharoit va omillar, terminlar sistemasining taraqqiy etishida o‘zbek tili qatori boshqa tillarning salmoqli o‘rni, terminlarning yasalish qoliplari, terminologik

izlanishlar, istiqlool yillari o'zbek terminologiyasida yuz bergan jarayonlar haqida ma'lumot berishdan iborat.

Fanni o'qitishda "O'zbek terminologiyasi" fanining vujudga kelishi va rivojlanishi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, talabalarda o'zbek terminologiyasi bo'yicha boshlang'ich bilim ko'nikmalarini hosil qilish, jamiyatda ro'y beradigan har qanday o'zgarishlarning terminologiyada yaqqol ifodasini topishi, o'zbek terminologiyasi sistemasining dastlab qadimgi turkiy til bitiklarida ko'zga tashlanishi, uning eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tilida miqdor va sifat jihatdan o'sib borishi, hozirgi o'zbek adabiy tilida tub o'zgarishlarga uchragani, uning sof turkiy (o'zbekcha) hamda o'zlashma qatlamlardan iboratligi, terminlarning struktur-grammatik qurilishi haqida bilim berish singari vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Ushbu qo'llanma terminologiya sohasida nafaqat respublika, balki chet el tilshunoslari tomonidan yaratilgan lug'atlar, monografiyalar, qo'llanmalar, yoqlangan dissertatsiyalar asosida tayyorlangan bo'lib, terminshunoslikka oid bilim, xususiyat va ko'nikmalarni egallashga qaratilgan. Mavzularni xronologik izchillik va tartib bilan joylashtirishda talabalarning malakasi hamda fikrlash qobiliyatlari e'tiborga olingan.

Qo'llanmada berilgan savol va topshiriqlar, testlar mavzularni interfaol metodlar hamda innovatsion texnologiyalar yordamida mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

## **1.2. O'zbek tili so'z boyligida sohaviy terminlar va ularning til xususiyatlari.**

Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiya til lug'at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g'oyaga ko'ra terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e'tirof etilsa, ikkinchi ta'limotga muvofiq u adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajratiladi, "alohida turuvchi" obekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so'zlashuv)ga tenglashtiriladi.

V.P.Danilenkoning ta'kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi (Danilenko 1977; 8). Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so'zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi.

Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasi tashkil qiladi.

X.Xyuellning qayd etishiga ko'ra terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo'llanadigan so'zlar yig'indisidir. Biz terminlar ma'nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz (Whewell 1967).

Termin so'zini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunos (logik)lar uchun termin-aniiq obektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig'indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so'z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so'z termin bo'lishi mumkin.

Fan va texnikada termin-sun'iy o'ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so'z sanaladi. Bunday so'zlarning qo'llanish sohasi u yoki bu ilmiy maktab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi yoxud chegaralanadi. Umumtil terminlaridan farqli o'laroq ilm-fan, texnikaga xos terminlar iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga birlashadi, ular o'z ma'nolariga faqat ayni sistema ichida erishadi, bu sistemada ularga mantiqiy (tushunchaga oid) terminologik maydon mos keladi.

Fandagi har qanday rivojlanish, taraqqiyot ilmiy terminlarning yuzaga chiqishi yoki oydinlashishidan darak beradi.

Tamg'alangan (markerlangan) va tamg'alanmagan (markerlanmagan) birliklar nazariyasi mantiqiy (logik) bo'linishning rivojlanish va takomillashishida yangi qadam sanaladi. XX asrning 30-yillarida ushbu masala bilan yaqindan shug'ullangan Praga lingvistik maktabi (PLM) a'zolari (N.Trubetskoy, R.Yakobson) g'oyalarining 60-yillarda matnga mashina (EHM) yordamida ishlov berish, ya'ni matnlarni kodlash va qaytakodlash, ma'lumotlarni mashina yordamida axtarish, matnni bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish singari jarayonlarda o'ta mahsuldor ekanligi isbotlandi. Tamg'alanmagan birliklarning nol ko'rsatkichli, tamg'alangan birliklarning esa tamg'alanmagan birliklarga nisbatan qo'shimcha ma'lumot tashishi jihatidan farqlanishi aniqlandi.

Termin va terminologik leksika tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur. Terminlarning qo'llanish, tarqalish ko'lam muayyan terminologik sistema bilan cheklangan bo'lib, ular insonning faoliyati doirasidagi aniq uslubda harakat qiladi, voqelanadi.

Terminologik leksika o'z tarkibiga tor mutaxassislik doirasidan ommaviy muloqot doirasiga ko'chgan noprofessional nutqiy kontekstda keng qo'llanadigan so'z va so'z birikmalarini qamrab oladi.

Umumadabiy til doirasiga o'tgan termin o'z terminologiyasi, terminologik maydoni va sistemasidan yiroqlashadi, terminlik xarakteristikasidan ajralib qoladi.

Termin ta'rif xususida ilmiy adabiyotlarda ko'pdan-ko'p mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha ta'riflarda termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi tarzida tavsiflanadi.

O.Vinokurning fikricha, termin - har doim aniq va ravshan. Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o'z-o'zidan, stixiyali tarzda paydo bo'lmaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi.

A.S.Gerdning mulohazasiga ko'ra termin ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniq va to'laligicha aks ettiruvchi maxsus terminologik ma'noga ega tabiiy va sun'iy til birligi, ya'ni so'z yoki so'z birikmasidir (Gerd 1991;1-4). O.S.Axmanovanning ta'kidlashicha, terminologiya qaysidir fan o'z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya'ni termin muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb etgandan so'ng tan olinadi. Terminni notermindan farqlashning muhim vositasi uni ilmiy asosda ta'riflashning mumkin emasligidadir. V.G.Gak terminning ta'rifini berish qatori, uning mohiyatini ochadi va terminning biror bir til so'z boyligidagi o'rnini belgilaydi. U ilmiy ishlarda terminga lug'aviy birliklarning alohida turi tarzida

qaralishiga e'tiroz bildiradi hamda termin-funksiya, leksik birliklar qo'llanishining bir ko'rinishi, degan g'oyani ilgari suradi (Gak 1972;68 -71).

V.P.Danilenkoning e'tirof etishicha, jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday jarayonning in'ikosi dastavval terminologiyada o'z ifodasini topadi yoki muayyan terminlarning transformatsion o'zgarishi oqibatida voqelanadi (Danilenko 1971;9).

D.S.Lotening ishlarida terminga alohida belgi sifatida emas, balki aniq sistemaning a'zosi shaklida qarash, munosabatda bo'lish zarurligi ta'kidlangan. Uning fikriga muvofiq mazmun planidagi sistemli munosabatlar terminlarning sistem xarakterga egaligini belgilaydi. Terminlarning terminlar sistemasidagi o'rni, mavqei muayyan tushunchaning tushunchalar sistemasidagi o'rni, mavqei bilan aniqlanadi.

Terminologiya turli-tuman maktab, ilmiy yo'nalish va aniq fikrlarga xos ketegorial apparatni ifodalovchi, terminlar sistemasiga birlashgan maxsus tushunchalar yig'indisi, majmui tarzida qaraladi (Lotte 1961).

Hozirgi tilshunoslikda yangi terminlarning paydo bo'lishi, ularning hayotga tatbiq qilinishidagi to'siqlar, yasaliş prinsiplari va usullari xususida turfa g'oyalar, nuqtai nazarlar ko'zga tashlanadi.

Termin so'zi *interpretatsiyasining substansional, funksional, dervatsion, semantik va pragmatik prinsiplari* e'tirof etilmoqda.

Substansional nuqtai nazar vakillariga ko'ra termin maxsus so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, boshqa nominativ birliklarga nisbatan birma'niligi, aniqligi, sistemliliği, kontekstdan xoliligi va emotsional jihatdan neytralligi bilan ajralib turadi.

Funksional nuqtai nazarga binoan terminlar maxsus so'z emas, balki maxsus funktsiyaga ega so'zlardir; terminning o'rni(rolini)ni istalgan so'z bosishi, o'ynashi mumkin.

Derivatsion nuqtai nazar terminlarning yasaliş jarayonlari bilan chambarchas bog'langan. Ushbu g'oya tarafdorlarining fikricha, termin nafaqat oddiy so'zning varianti, shuningdek, yangi, o'ziga xos spetsifik belgilarga ega maxsus yasalgan birlik sifatida ham tan olinadi. Yangi terminlarning yuzaga chiqish sabablari yangi realiyalarni ifodalash ehtiyoji bilan baholanadi.

Terminga muayyan talablar qo'yiladi, ushbu jihat uni umumtil va lahja hamda shevalardagi oddiy so'zlardan ajratib turadi.

*Nomenklatura* terminologiyaga nisbatan yangi kategoriya hisoblanadi. Har qanday soha nomenklaturasi shu sohaga oid barcha tur nomlarini o'zida mujassam etadi. Ularning miqdori haddan ortiq darajaga yetganda, maxsus *strukturani* taqozo etadi. Masalan, hozirgi kunda 200 mingdan ortiq o'simlik turlarining har biriga alohida nom qo'yishga urinish befoйда, buning imkoni ham yo'q.

Insoniyatning tabiatni bilish, anglash bosqichlarini o'zida aks ettiruvchi tabiiy fanlar nomenklaturasidan inson tomonidan kashf etiladigan, yaratiladigan(ishlab chiqarish nomenklaturasi) *texnik nomenklatura*, shuningdek, xaridorbop tovarlar bilan ta'minlash, ularni sotish maqsadida maxsus yuzaga chiqariladigan *savdo-sotiq nomenklaturasini* farqlash lozim bo'ladi.

Garchi har uchala nomenklatura ham manfaatdor subyektlar tomonidan yaratilsa-da, biroq ular turli asos, turli maqsad va turli prinsiplar negizida voqelanadi.

Ilmiy bilish nomenlarining inson tomonidan yaratilgan ilmiy-texnikaviy nomenlardan farqi shundaki, ilmiy nomenlar tabiatda mavjud bo'lsa, ikkinchisi tabiatda mavjud emas. Kashfiyotchi tomonidan yaratilgan narsa-buyumlar uchun nom xalq tilidan olinmaydi (samolyot, vezdexod, samokat kabi birliklar bundan mustasno). Ushbu kategoriyalar, ya'ni nomenlarni ifodalovchi so'zlar o'z yoki chet tillardagi leksemalarga tayanilib, sun'iy ravishda yaratiladi, bunda harf va raqamlar indeksatsiyasi alohida ta'kidlanadi: Moskvich-412, MAZ 15, Tu-144, Mig-29, Su-34, T-90 va h.k.

Inson tomonidan yasaladigan narsa-buyum ham ishlab chiqarish, ham savdo-sotiqqa doir nomlarga ega bo'ladi. Masalan, Volga yengil avtomashinasi GAZ-21, GAZ-24, GAZ-32 kabi ishlab chiqarish nomenlariga ega bo'lgan. Moskva shahridagi Lixachev nomli korxonada ishlab chiqarilgan yuk mashina (gruzovik) (tur nomi) ZIL-130 ishlab chiqarish raqami bilan yuritilgan.

Ayrim hollarda davlatlararo ishlab chiqarilgan ayni mahsulot yoki tovar turli ma'no kasb etishi mumkin. Chunonchi, sobiq sho'rolar davlatida ishlab chiqarilgan M-20 yengil avtomashina Pobeda, Polshada esa Varshava nomlari bilan atalgan.

Nomenklatura va terminologiya o'rtasidagi prinsipial farqlardan biri – nomenlar, odatda, terminologik lug'atlarda qayd etilmaydi yoxud o'ta cheklangan miqdorda lug'atlardan o'rin oladi. Ma'lumki, rasmiy ilmiy nomenga ega *atsetilsalitsil kislota* dorisi tijoriy *aspirin* nomi bilan keng ommalashgan va h.k.

Fan turli sohalarining rivojlanishi jarayonida ayrim nomenlar terminlar tizimiga o'tishi, sof leksik nominativ birliklardan mantiqiy (logik) axborot, ma'lumot elementi, ya'ni ilm-fan terminiga aylanishi mumkin.

Nomenklatura, garchi, tushunchaga aloqador bo'lsa-da, biroq u hisobsizdir. Muayyan fan terminologiyasining esa miqdori, soni aniq, zotan, ular tushunchalar sistemasini og'zaki tarzda ifodalaydi.

Ma'lumki, terminologiyada polisemiya va sinonimiya hodisalarining mavjud bo'lishi ma'qullanmaydi. Biroq shunga qaramasdan, qator terminologik sistemalarda muayyan narsa-buyum yoki tushunchani ifodalashda ba'zan ikki yoki undan ortiq sinonim(dublet)lardan foydalanish ko'zga tashlanadi. Chunonchi, terminologiya masalalariga qaratilgan ayrim ishlarda *termin-atama-istiloh* so'zlaridan sinonimik uya tarzida foydalaniladi. Sir emaski, o'zbek tiliga davlat maqomi berilgandan keyin ba'zi subyektiv nuqtai nazarlar natijasida termin o'rnida atama derivatini qo'llash faollashdi. Bir qaraganda, baynalmilal o'zlashmaga har jihatdan mos tushgan o'z so'zning qo'llanishi ma'quldek tuyuladi. Lekin termin o'zlashmasining ta'rifi bilan atama yasamasi qamrovini qiyoslash har ikki leksemani sinonim tarzda ishlatishning maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatadi. O'z vaqtida A.Hojiyev *termin* so'zini atama yasamasi bilan almashtirishning noto'g'ri ekanligi, uning sabab va oqibatlari xususida jiddiy mulohaza yuritgan edi (Hojiyev 1996; 22-25). Shularni hisobga olgan holda, termin o'zlashmasini ilm-fan, texnika sohaları yoki tarmoqlarida qo'llanuvchi so'z va so'z birikmalari, *atama* so'zini shartli ravishda qo'yilgan nomlar (nomenklatura, nomenlar),

xususan, geografik obyektlar, joy nomlari (toponimlar), arabcha *istiloh* o'zlashmasini esa tarixiy terminologiya aspektidagi izlanishlar, tarixiy manbalar matnidagi tushunchalarga nisbatan ishlatish (Madvaliyev 2017; 28-30) o'zini oqlaydi.

Xullas, terminlar umumadabiy so'zlardan tubdan farqlanuvchi leksik qatlamni o'zida mujassam etadi. Ushbu farq quyidagi asosiy xususiyatlarda aksini topadi: semiotik (terminlarda belgi va ifodalovchi o'zaro simmetrik munosabatga kirishadi); vazifaviy (terminlar nafaqat nominativ, balki definitiv funksiyaga egaligi bilan ham xarakterlanadi); semantik (terminlar faqat maxsus tushunchalarni ifodalaydi, ularning har biri o'z ma'nosiga ko'ra unikaldir); tarqalish, ommalashish (faqat fan tiliga oid terminlar muayyan qismining umumadabiy tilga kirishi ularning boshqa sistemaga xosligiga to'sqinlik qilmaydi); shakllanish yo'llari va vositalari (terminologiyada umumadabiy til so'z yasalishi vositalarining harakati maxsuslashgan, standart, turg'un modellarni ishlab chiqishga bo'ysunadi) (Danilenko 1977; 208).

**1.3. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi shakllanishining uch bosqichi.** Muayyan adbiy tilning so'z boyligi o'z tarkibida maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminologik leksikani u yoki bu darajada qamrab olishi lingvistikada e'tirof etilgan voqelik hisoblanadi. O'zbek terminologiyasi tizimi ham bundan mustasno emas.

Umumiste'mol so'zlardan farqli ravishda doim maxsus tushunchalarni anglatish, ifodalash uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan terminlar o'zbek adbiy tilining shakllanish va taraqqiy etish bosqichlari zaminida tarkib topdi va takomillashdi.

O'zbek adbiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkiy til (UP-X) terminologiyasi, eski turkiy til (X1-X1U) terminologiyasi, eski o'zbek adbiy tili (XU-XX asr boshi) terminologiyasi, sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi va istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi tarzida davrlashtirish salkam o'n to'rt asrlik vaqt mobaynida terminologik leksika tizimida ekstralingvistik va intralingvistik omillar negizida sodir bo'lgan jarayonlarni anglab etish imkonini beradi.

Hozirgi qardosh turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili leksik xazinasida muayyan darajada qo'llanishda davom etayotgan yoki bugun iste'moldan butunlay chiqib ketgan qadimgi turkiy tilga taalluqli leksik birliklar tarkibida terminologik leksika ham sezilarli o'rinni egallaganligi bilan xarakterlidir. Qadimgi turkiy til manbalarida qayd etilgan turfa soha terminologiyasi asosan sof turkiycha tub hamda yasamalardan hamda buddizm va moniyzm ta'sirida so'g'd, sanskrit, xitoy tillaridan kirib kelgan o'zlashmalardan tashkil topgan edi. Jumladan, *barg'u* "o'lja", *qarg'u* "soqchi, dozor", *tamg'a* "mug'r", *ko'rug* "ayg'oqchi", *elchi* "elchi; hukmdor, yurtboshi", *yo'lchi* "sardor", *chig'ay* "yo'qsil, kambag'al", *qishlag'(q)* "qo'shinning qishki qarorgohi", *ayg'uchi* "davlat maslahatchisi" singari asl turkcha, *cherigG'cherik* "qo'shin, armiya", *sart* "tojir, savdogar" kabi sanskritcha, *xatunG'qatun* "malika", *kent* "qishloq; shahar" singari so'g'dcha, *qag'an* "hukmdor", *xan* "hokim", *tegin* "xonzoda, shahzoda", *yabg'u* "xoqondan keyingi oliy lavozim egasi", *sengun* "xitoy generali", *tarqan* "tarxon", *tutug'* "tuman



hokimi” kabi xitoycha, *shad* “Turk xoqonligida oliy lavozim” , *shadapit* singari eroncha terminlar faol qo‘llanishda bo‘lganligini manbalar so‘z boyligi yaqqol ko‘rsatadi.

Ayni chog‘da e’tirof etish joizki, sanskrit, eron, xitoy tillarida bitilgan asarlarning turkiy tilga qilingan tarjimalarida qayd etilgan ijtimoiy-siyosiy, harbiy, iqtisodiy, sotsial, hayvonot dunyosi-fauna, o‘simlik dunyosi-flora, ilmi nujum-astoronimiya va h.k. sohalarga xos terminlar keyinchalik deyarli qo‘llanmadi, turkiy tillar, chunonchi, o‘zbek tili ularni qabul qilmadi.

Sakkizinchi asrdan e’tiboran arab tili, arab xati va islom mafkurasining Turonzaminda qaror topishi, bir qator mahalliy sulolar (qorxoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar)ning birin-ketin siyosat sahnasiga chiqishi singari ob’ektiv jarayonlar ostida o‘zligini yo‘qotmagan eski turkiy til (X1-X1U)da terminologik leksika ko‘laminig bir qadar kengayganini kuzatish mumkin. Eski turkiy til terminologiyasi mavjud lisoniy qonun-qoidalar doirasida shakllandi va rivojlandi. Uning qadimgi turkiy til davriga nisbatan yanada taraqqiy etishida jonli so‘zlashuv tili, turfa sheva materiallari qatori so‘z yasash andozalari – modellari asosida yuzaga chiqqan istilohlar muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi turkiy tildan farqli o‘laroq eski turkiy tilda sanskrit, so‘g‘d, xitoy tiliga oid o‘zlashmalarning ishlatilish sur’ati pasaydi, aksincha, arabcha va forsha-tojikcha o‘zlashmalarning qo‘llanish chastotasi va ko‘lami ancha kengaydi. Biroq eski turkiy til terminologiyasining o‘zagini asl turkiy qatlam tashkil qilishda davom edi. *Alim* “qarz, kredit”, *berim* “to‘lov, qarzni qaytarish”, *beglig* “beklik”, *bitigchi* “mirza, munshiy, kotib”, *yatg‘aq* “tungi soqchi”, *yarisha* “ko‘rshapalak”, *yarg‘u* “ajrim”, *yarg‘uchi* “qozi, sudya” kabi turkiycha, *rabat* “karvonsaroy”, *malik* “hukmdor”, *siyasat* “siyosat”, *omil* “ish yurituvchi”, *tib* “meditsina, tibbiyot”, *nujum* “astrologiya”, *handasa* “geometriya” singari arabcha, *lashkar* “qo‘shin”, *mayfurush* “may ichuvchi; may sotuvchi” singari forsha-tojikcha, *darug‘a* “qal‘a, qo‘rg‘on komendanti”, *muran* “daryo”, *nukarG‘navkar* “navkar, askar” kabi mo‘g‘ulcha terminlar bu davr terminologik tizimida nisbatan keng ko‘lamda ishlatilgan.

Eski o‘zbek adabiy tili terminologiyasining takomillashuvida, uning yanada yuqoriroq bosqichga ko‘tarilishida tilning ichki qonuniyatlari qatori tashqi ta’sirning, ya’ni ekstralingvistik omillarning roli salmoqli bo‘lgan. O‘zbek adabiy tilining asoschi Alisher Navoiy, uning Lutfiy, Otoi, Sakkokiy, Yaqiniy singari salafлари, Bobur, Muhammad Solih, Ogahiy, Munis kabi izdoshlari tomonidan ta’lif etilgan badiiy, tarixiy, ilmiy asralar leksik boyligi tahlilidan kelib chiqqan holda aytish joizki, o‘zbek tili ichki imkoniyatlaridan keng foydalanilgan tarzda termin yaratish bu davr uchun ancha sermahsul usul hisoblangan. Ona tiliga millatning bosh ko‘zgusi tarzida munosabatda bo‘lish zaruriyatining Alisher Navoiy tomonidan ziyolilar, olimlar, shoiru yozuvchilar oldida kun tartibiga qat’iy va ro‘y-rost qo‘yilishi o‘z ijobiy aksini terminlar tizimida ham topgan edi. Aniq fanlar qatori ijtimoiy-gumanitar fan sohalarning shakllanib borish jarayoni ularga taalluqli maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminlar yaratilishi bilan parallel kechdi. Bunda birinchi galda eski o‘zbek adabiy tili, jonli so‘zlashuv tili, lahja va shevalarda mavjud leksik birliklar terminlar safini kengaytirdi, o‘zbek tilda so‘z

yasashda keng qoʻllangan affikslar yordamida katta adadda terminlar hosil qilindi. Arab, fors-tojik, moʻgʻul tillaridan oʻzlashgan terminlar miqdori shiddat bilan oshib bordi. Xorijiy tillardan kirib kelgan soʻz yasovchi qoʻshimchalar ham terminlar yasashda muhim oʻrin egalladi. Harbiy qurol-yarogʻ, texnika bilan bogʻliq *toʻp* “zambarak”, *qazan* “ogʻir toʻp”, *tufang* “miltiq” kabi asl oʻzbekcha terminlar bilan yonma-yon arabcha *raʼd* “yonib turgan neftni dushman tomon irgʻituvchi toʻp”, *arroda* “paloqmon”, *manjaniq* “katapult”, forsha-tojikcha *zarbzhan* “zambarak turi”, *farangiy* “Evropa, Kichik Osiyoda quyilgan toʻp”, *zanburak* “zambarak” kabi terminlar jamiyat aʼzolarining maʼlum qatlami tilidan oʻrin oldi.

**1.4. Soha terminologiyasining oʻzbek tili lugʻat fondidagi oʻrni.** Har qanday tilning soʻz boyligi u tarixiy yoki zamonaviy tusda boʻlmasin, insonlar tomonidan tuziladigan rang-barang lugʻatlarda maʼlum darajada aksini topadi. Lugʻat til soʻz boyligini oʻzida saqlovchi akkumulyator vazifasini bajaradi. Bugun muayyan tilshunoslikning qay darajada rivojlangani, takomil topgani ayni tilda yaratilgan lugʻatlarning turi, miqdori va sifati bilan oʻlchanmoqda.

Oʻzbek lugʻatchiligi tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Hozirga qadar etib kelgan lugʻatlar ichida 1074-1075 yili atoqli lugʻatnavis Mahmud Koshgʻariy tomonidan tuzilgan “Turkiy soʻzlar devoni”, yaʼni “Devonu lugʻotit turk” ulkan ahamiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. Zotan, arab millati vakillari uchun juda katta hududda istiqomat qiluvchi turkiy xalqlar til xususiyatlari, chunonchi, alifbosi, tovush qurilishi, lugʻat boyligi, soʻz turkumlari va gap qurilishi haqida maʼlumot berish uchun moʻljallangan mazkur asarning ilmiy ahamiyati shu kunga qadar dunyo olimlari qalamiga mansub 1800 atrofidagi ilmiy izlanishlarda eʼtirof etilgan. Arab lugʻatchiligi anʼanalari va qoidalari asosida tuzilgan bu lugʻatdan taxminan sakkiz minga yaqin soʻzlar, birikmalar, iboralar, maqol va matallar, xalq ogʻzagi ijodi namunalari joy olgan. “Devonu lugʻotit turk”, garchi, lugʻat deb nomlansa-da, biroq unda qoraxoniylar davri eski turkiy tilning oʻziga xos xususiyatlari yaxshi tahlil qilingan.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, “Devon”dan oʻrin olgan leksik birliklar qatori, qoraxoniylar saltanatining ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, harbiy, maishiy turmush tarzida mavjud tushunchalarni ifodalovchi istilohlar son jihatdan salmoqli hisoblanadi. Bu kabi soha istilohlari bilan yonma-yon onomastika, jumladan, atoqli otlar, joy nomlari, geografik obʼektlar nomi, gidronimlar, hayvonot (fauna) va oʻsimlik dunyosi(flora)ga oid talaygina leksemalar qiyomiga etgan holda izohlangan.

Oʻzbek leksikografiyasining shakllanishida Mahmud Zamaxshariyning (18.03.1075 -1144) “Muqaddimat ul-adab”(Adab ilmiga muqaddima) asari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Otsiz Xorazmshohga bagʻishlab tuzilgan asardagi arabcha soʻzlar ostida forsha va turkiycha tarjimalarning berilishi oʻzbek tarixiy leksikologiyasi va leksikografiyasi uchun qimmatli hisoblanadi. Lugʻat besh qismdan iborat boʻlib, ot, feʼl, bogʻlovchi hamda ot oʻzgarishlari va feʼl oʻzgarishlari haqida fikr yuritiladi. Lugʻat muallifi asarda oʻsha davr arab tilida qoʻllanishda boʻlgan hamma soʻzlarni, iboralarini qamrab olgan holda izohlashga harakat qilgan, ularning etimologiyasini aniqlashga intilgan. Lugʻat arabchadan

fors, eski o'zbek tili (chig'atoy tili), mo'g'ul hamda turk tillariga ilk bor 1706 yilda Xoja Ishoq afandi tomonidan usmonli turk tiliga tarjima qilingan. Zamaxshariyning mazkur asarida she'rshunoslik, uslubshunoslik xususida ham baxs yuritilgan. Badiiy tasvir vositalariga aniq, lo'nda izohlar keltirilgan. Chunonchi, kinoya va tarz badiiy san'atlari orasidagi farq ko'rsatib berilgan.

O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasining qaror topishida XIU asrga oid arab tilida yozilgan grammatik(filologik) risolalarning sezilarli o'rni borligi turkologiyada allaqachon e'tirof etilgan. Turkiy tilning grammatikasi haqida baxs yurishishga yo'naltirilgan Abu Hayyonning (vafoti 1344 yil) "Kitob ul-idrok lil-lison ul-atrok", M.T. Xoutsma fikricha, 1245 yilda Mamlyuklar davlati(1250-1517)da Halil bin Muhammad bin Yusuf al-Ko'nyaviy tomonidan yaratilgan "Kitobi majmuai tarjumoni turki va ajami va mug'ali", muallifi noma'lum "Kitobi at-tuhfat uz-zakiya fi-l-lug'atit turkiya", Jamoluddin Turkiyning "Kitob bulg'at al-mushtoq fi-l-lug'atat- turk va-l-qifchaq", XU1 asr boshida Qohirada ta'lif etilgan "Al-qavoninu-l kulliya li-zabtil-lug'atit-turkiya" singari asrlarda turkiy tilning so'z boyligi,alalxusus, terminlar tizimi ma'lum darajada ifodasini topgan. Mazkur davr asarlarida qayd etilgan turkiy til leksikasi, chunonchi, terminlar siistemasini "Tarjumoni turki va ajami va mug'ali"da keltirilgan quyidagi mavzuiy guruhlarning ajratilganini qayd etish bilan cheklanamiz: *kishi nomlari* – Alaqush, Aqtay, Altuntash, Baybars, Sonqur va h.k.; *Astronimlar* : Ulkar; *geografik nomlar*: Sham, Misr; *zoonimlar*: at, okuz, qatir, bog'a, ayg'ir va h.k.; *yirtqich hayvonlar*: aslan, sirtlan, bori, tulku va h.k.; *qush va hashoratlar*: qartal "burgut", sarcha "chumchuq", qaz, qarlag'ach, qarg'a va h.k.; *harbiy asbob-anjomlar*: ya, kirish "yoy ipi(tetiva)", sungu "nayza", qalqan, choqmar va h.k.; *tibbiy terminlar*: yig'ik "kasallik, illat", ag'ri "og'riq", soka "bemor, kasal", isitma, oturmak "yo'tal" va h.k.; *musiqiy terminlar*: duduk "musiqqa asbobi", tomru "do'mbira", yaqliq "rubob", sibizg'u "sivizg'a" va h.k.

O'zbek leksikografiyasining shakllanishida Alisher Navoiy va o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari asarlariga tuzilgan lug'atlarning roli sezilarlidir. Jumladan, Husayn Boyqaro mirzo ko'rsatmasiga binoan 1405 yilda Toli Imoni Hiraviy tomonidan tuzilgan "Badoe ul-lug'at", Turkiya (Rum)da yaratilgan muallifi noma'lum chig'atoycha(eski o'zbekcha)-usmonli turkcha "Abushqa" (XU1 asr), Muhammad Mahdiyxonning eski o'zbekcha-forscha "Sanglox" (1748), Fathali Kojar Qazvinining 1862 yilda tuzilgan "Lug'ati atrokiya", Ya'qub Chingiyning "Kelurnoma", Shayx Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy" kabi asrlar o'zbek lug'atnavisligining durdonalari safidan o'rin olgan.

XIX asrning 70-yillaridan e'tiboran o'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi rus tili orqali G'arbiy Evropa tillaridan kirib kelayotgan o'zlashmalar ta'sirida rivojlanish pallasiga qadam qo'ydi. Sobiq sho'rolar hukmronligi vaqtida o'zbek tili terminologiyasi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi haddan tashqari ko'p miqdordagi o'zlashmalar terminlar hisobiga kengaydi. Soha terminologiyasi tizimining vujudga kelishida sof o'zbekcha leksik birliklar qatori ruscha-baynalmilal terminlarning roli yuqori bo'ldi. Bu jihat ayniqsa, tabiiy fanlarga xos terminologik tizimda yaqqol ifodasini topdi. Mustaqillik davri o'zbek

terminologiyasi Globallashuv va Internetga qadam qo'yilgan XXI asrda har tomonlama takomillashuv jarayonini boshidan kechirmoqda.

Xullas, o'zbek terminologiyasi va lug'atshunosligi bir necha asrlik shakllanish va tarqqiy etish bosqichlarini bosib o'tdi. Bu bosqichlarda o'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi na faqat o'z resurslari, shuningdek qarindosh bo'lmagan tillar boyliklaridan o'rni bilan foydalangan holda o'z rivojlanish yo'lida davom etdi.

### **Nazorat savollari**

1. Terminning so'zdan nima farqi bor?
2. Leksikografiyaning tilshunoslikdagi o'rni qanday?
3. O'zbek terminologiyasining nechta shakllanish va rivojlanish bosqichlarini bilasiz?
4. O'zbek lug'atchiligiga asos bo'lgan qanday asarlarni keltira olasiz?
5. O'zbek terminologiyasi qaysi manbalar hisobiga shakllangan?
6. O'zbek terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida o'z qatlamning roli qanday?
7. O'zbek terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishida qaysi chet tillarining ta'siri kuchli bo'lgan?
8. O'zbek leksikografiyasi qanday an'analar va printsiplarga suyangen tarzda shakllandi?
9. O'zbek lug'atchiligining shakllanishida "Devonu lug'otit turk"ning qayday ulushi bor?
10. "Muqaddimat ul-adab" necha tillik lug'at?
11. XIU asrda Mamlyuklar davlatida arab tilida yozilgan risolalarni tavsiflang.
12. XU-XX asr boshi eski o'zbek adabiy tili vakillari asarlariga tuzilgan qanday lug'atlar bor?
13. O'zbek terminologiyasining bugungi ahvoli xususida nima deysiz?
14. Mustaqillik davrida o'zbek lug'atshunosligi qanday yutuqlarni qo'lga kiritdi?

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Terminologiyaning til lug'at boyligidagi o'rni qanday?
2. Terminga berilgan ta'riflarning mohiyati nimadan iborat?
3. Terminning nomenklaturadan qanday farqi bor?
4. Tamg'alangan va tamg'alanmagan til birliklari nazariyasi qaysi maktab vakillariga tegishli?
5. Terminologik leksika deganda nima nazarda tutiladi?
6. Ilmiy adabiyotda terminga berilgan ta'riflarni o'rganing.
7. Termin so'ziga oid interpretatsiyalarga diqqat qarating.
8. O'zbek tilshunosligi terminlari tarkibidagi o'zlashmalarni aniqlang.
9. "Qutadg'u bilig" so'z boyligidan o'rin olgan davlat boshqaruviga doir istilohlarni belgilang.

### **Test**

1. Terminologiya nima asosida shakllanadi?

- A. milliy til
- V. umumadabiy til
- S. elat tili
- D. fan tili

2. Fan va texnikada termin qanday soʻz sanaladi?

- A. sunʼiy yoki tabiiy tildan olingan maxsus soʻz
- V. boshqa tillardan olingan maxsus soʻz
- S. soʻz yasash orqali yuzaga kelgan maxsus soʻz
- D. shevalardan olingan maxsus soʻz

3. Terminlar qay holatda terminlik tabiatidan ajralib qoladi?

- A. umummilliy til doirasiga oʻtganda
- V. arxaiklashganda
- S. umumadabiy til doirasiga oʻtganda
- D. umumadabiy til doirasidan chiqqanda

4. “Terminida muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb etgandan soʻnggina tan olinadi”, - fikri kimga tegishli?

- A. A. Gerd
- V. V. Gak
- S. O. Vinokur
- D. O. Axmanova

5. Termin soʻzi interpretatsiyasining nechta prinsiplari eʼtirof etilgan?

- A. besh
- V. olti
- S. toʻrt
- D. uch

6. Nomenklatura nimani oʻzida mujassam etadi?

- A. sohaga oid jins nomlarini
- V. sohaga oid tur nomlarini
- S. sohaga oid tushunchalarni
- D. sohaga oid belgilarni

7. Qaysi nomenlar tabiatda mavjud emas?

- A. ilmiy-adabiy
- V. ilmiy-falsafiy
- S. ilmiy-texnikaviy
- D. ilmiy-didaktik

8. Kim termin soʻzini atama soʻzi bilan almashtirishning xato ekanligini taʼkidlagan?

- A. Gʻ. Abdurahmonov

V. O.Usmonov  
S. Sh.Rahmatullayev  
D. A.Hojiyev

9. Istilohot soʻzi Alisher Navoiyning qaysi asarida qoʻllangan?

A. Holoti Sayyid Hasan Ardasher

V. Tarixi muluki ajam

S. Majolis un-nafois

D. Tarixi anbiyo va hukamo

### **Adabiyotlar**

1. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. –M., 1966.
2. Vinokur G.O. O nekotoroʻx yavleniyax slovoobrazovaniya v russkoy texnicheskoy terminologii. Trudoʻ MIFLI. T.%. Sbornik statey po yazoʻkoznaniyu. - M., 1961.-S.3-10.
3. Gak V.G. Asimmetriya lingvisticheskogo znaka i nekotoroʻe obhie problemoʻ terminologii (semanticheskie problemoʻ yazoʻka nauki). Materialoʻ nauchnogo simpoziuma. - M.: MGU.1972. - S.68 -71.
4. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opoʻt lingvisticheskogo opisaniya.- M.,: Nauka, 1977.
5. Madvaliev A.Oʻzbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari.T.:Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi. 2017. -B. 28-30.
6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. - Toshkent: Fan, 2002.
7. Abdushukurov B. Eski turkiy til leksikasi. Toshkent, 2015.
8. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. 1-1U. Toshkent: Fan, 1983-1985.
9. Bafoev B. Navoiy asarlari leksikasi. Toshkent,1983.
10. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamallari. Toshkent, 2002.
11. Doniyorov R.Oʻzbek tili ilmiy-texnikaviy terminlar tarixidan.Toshkent, 1974.
12. “Tarjumon”-X1U asr yozma obidasi. Toshkent: Fan. 1980.

### **2-modul. Oʻzbek leksikografiyasining shakllanish bosqichlari.**

#### **2-MAVZU. OʻZBEK LUGʻATCHILIGINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI. LUGʻAT TUZISH TAMOYILLARI. LUGʻAT TURLARI.**

##### **Reja**

1. Oʻzbek lugʻatchiligining shakllanish bosqichlari.
2. Lugʻat tuzish tamoyillari.
3. Lugʻat turlari.

**Asosiy tushunchalar:** *adabiy til, til xususiyatlari, soʻzboylik, runik bitiktoshlar, ijtimoiy-siyosiy terminlar, soliq va boj terminlari, tibbiy terminlar, ekstralingvistik omillar, terminlarning yasalishi, oʻzlashmalar, eski oʻzbek adabiy tili, zoonimlar, anatomik terminlar, astroponimlar, oʻzbek terminologiyasi sistemasi, termin, atama, istiloh, davrlashtirish, intralingvistik va ekstralingvistik omillar, mahalliy sulola, turkiy, sugʻdcha, sanskritcha, xitoycha, forsha-tojikcha, arabcha, ruscha-baynalmilal qatlam, qoʻllanish chastotasi, lugʻatchilik, akkumulyator.*

1. Qadimgi turkiy til terminologiyasining mavzuiy guruhlari.
2. Ijtimoiy-siyosiy terminlar, harbiy terminlar, tijorat, savdo-sotiq terminlari, zoonimlar, astroponim(kosmonim)lar, anatomik terminlar, tibbiy terminlar.
3. Qadimgi turkiy til terminologiyasidagi oʻz va oʻzlashgan qatlam.
4. Oʻzbek tili terminologiyasining boyish manbalari.

Turkiy yozma-adabiy tilning dastlabki namunalarini sirasiga kirmish qadimgi run bitiklari, shubhasiz, turkiy xalqlar ajdodlariga xos yuqori darajada shakllangan lisoniy madaniyatidan darak beruvchi manba vazifasini oʻtaydi. Qadimgi turkiy tilning fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va sintaktik xususiyatlari Oʻrxun-Yenisey (Enasoy) tosh bitiklari va epitafiyalarida oʻz ifodasini topgan. Runik obidalar janr nuqtai nazaridan olti guruhga taqsimlanadi:

tarixiy–biografik bitiklar: Kultegin, Moʻgʻilon (Bilga qagʻan), Kulichur, Toʻnyuquq, Oʻngin, Selenga, Sujun, Qorabalgʻasun bitiktoshlari;  
epitafik bitiklar: Yenisey, Talas, Tuva, Xaqosiya qabr toshlari;  
qoyalar, toshlar va qurilishlardagi (Xoʻytoʻ-temir) bitiklar;  
diniy matnlar: folkitobi “Folnoma”;  
Turfondan topilgan yuridik Gʻhuquqiy hujjatlar;  
Maishiy narsa-buyumlardagi bitiklar.

Runik bitiklar va ilk eski turkiy til obidalari leksikasi tarkibida bir qancha terminologik tizimlarning mavjudligini turkiyshunoslikda olib borilgan izlanish va maxsus tadqiqotlar tasdiqlagan. Xususan, qoʻyidagi mavzuii guruhlarga oid terminologik tizimlar bitiklar matnida faol qoʻllangan:

**Ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi** – *qaran* “Oliy hukmdor, xoqon”, *tegin* “taxt vorisi, xonzoda”, *ṣad* “Turk va Uygʻur xoqonligida oliy harbiy-maʼmuriy unvon”, *yabru* “Gʻarbiy turk xoqonligi hukmdori”, *qatun* “malika”, *tudun* “nazoratchi”, *tutuq* “viloyatning harbiy hukmdori”, *tarqan* “hokim”, *beg* “bek, boshliq”, *eltdbdr* “azlarning sarkardasi”, *sabip* “elchi”, *yolip* “boshliq”, *bara* (sugʻd) “unvon, lavozim”, *pṣbara* (sanskrit) “unvon, mansab” va h.k.

**Harbiy terminlar** – *kxroʻg* “aygʻoqchi, josus”, *ayruip* “harbiy maslahatchi”, *soʻbaṣp* “sarkarda, lashkarboshi”, *yerii* “yoʻl koʻrsatuvchi, qulavuz”, *soʻṇoʻṣ* “jang, urush”, *soʻṇoʻg* “nayza”, *soʻ* “lashkar, qoʻshin”, *buyruqGʻbuyuruq* “farmonbardor”, *qṣṣlaq* “qish mavsumi uchun moʻljallangan lashkargoh, lager”, *qurran* “qoʻrgʻon, istehkom”, *barru* “oʻlja”, *tegiṣ* “jang”, *kedim* “sovut; yopinchiq”, *yelmd* “gʻoratgar askariy guruh”, *bulun* “bandi, tutqun”, *asir* (ar.) “tutqun, asir” va h.k.

**Savdo-sotiq, moliya bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi istilohlar:** *arqpʼ* “savdo-sotiq karvoni”, *sat-* “sotmoq”, *satpr* “savdo-sotiq”, *satprip* “tojir, savdogar”, *berim alpm* “qarz”, *alpm berim* “qarz”, *otar* “qarz”, *otarip* “qarzdor”, *ribat* “rabot, karvonsaroy”, *bergoʻii* “sudxoʻr, qarz beruvchi”, *baqpr* “pul birligi; mis tanga”, *dinar* “dinor (oltin tanga) va h.k.

**Soliq va boj terminlari tizimi** – *berim* “toʻlov”, *qabpn* “tayyor mahsulot bilan toʻlanadigan soliq turi”, *qubipr* “davlat tomonidan fuqarolardan undiriladigan jon soligʻi”, *rabjat* “qullardan undiriladigan soliq” va h.k.

**Zoonimlar** – *burra* “erkak tuya”, *arslan* “arslon, sher”, *at* “ot”, *ud* “qoramol (buqa yoki sigir)”, *qaratpr* “xoʻkiz”, *bxri* “boʻri”, *bars* “yoʻlbars”, *tiʼbi bars* “urgʻochi yoʻlbars”, va h.k.

**Astroponimlar:** *ay* “oy”, *koʻn* “quyosh”, *altun yultuz* “Choʻlpon, Venera”, *Baqpr soqpm* “Mars”, *Iadan//Iazan// Iayan* “Chayon yulduzlar turkumi”, *Yetigdn* “Katta Ayiq”, *nujum* “astronomiya”, *Ot yulduz* “Mars”, *Suv yulduz* “Merkuriy”, *Topraq yulduz* “Saturn”, *Yprai yulduz* “Yupiter”, *yer* “yer, zamin” va h.k.

**Anatomik terminlar** – *yoʻrdk* “yurak”, *qaraq* “koʻz, koʻz gavhari”, *qarpn* “qorin”, *qol* “qoʻl”, *baʼb* “bosh”, *barpr* “jigar”, *xvkdGʻxpkd* “oʻpka” va h.k.

**Tibbiy terminlar** – *buran* “chipqon”, *kaka tau* “yiringli yara, chipqon”, *ig* “dard, kasallik”, *ig arrpr* “kasallik, dard”, *ig kegdn* “dard, kasallik”, *adaq arrpr* “oyoq ogʻrigʻi”, *arpz arrpr ig* “ogʻiz kasalligi”, *burun arrpr ig* “burun kasalligi”, *boruz arrpr ig* “qilizoʻngach, halqum kasalligi”, *yoʻrdk arrpr ig* “yurak kasalligi”, *onuni arrpr ig* “tomogʻ ogʻrigʻi kasalligi”, *qulraq arrr* *ig* “quloq kasalligi”, *arrprip* “kasal, bemor, dardmand”, *tib* “tibbiyot”, *iurnp* (sanskrit) “surgi dori” va h.k.

**Maʼdan nomlarini anglatuvchi terminlar:** *altun* “oltin, tilla, zar”, *koʻmoʻʼb* “kumush”, *temoʻr* “temir”, *baqpr* “mis” va h.k.

**Dunyo (kurra)ning toʻrt tomoni va vaqt (sutka) oʻlchov birligini ifodalovchi terminlar tizimi** – *koʻn ortu* 1) “peshin”; 2) “janub”, *toʻn ortu* 1) “yarim kecha”; 2) “shimol”, *toʻn sarp* “shimol”, *taʼn sarp* “sharq”, *koʻn turspq* “sharq, kuntugʻar”, *koʻn batspq* “gʻarb, kunbotar”, *batar* “Gʻarb”, *turar* “Sharq” va h.k.

**Ilm-fanga oid tushunchalarni ifodalovchi terminlar:** *bilig, bilim* “ilm, bilim”, *baqʼbʼi* (xit.) “ustoz, muallim”, *darb, tadif* (ar.) “koʻpaytirish”, *qismat, tansif* “boʻlish”, *adad* (ar.) “raqam, miqdor, son”, *kuzur, jazr* (ar.) “ildiz”, *misahat* (ar.) “chegara, ildiz chiqarish”, *handasa* “geometriya”, *saqpʼ* “arifmetika”, *davat* (ar.) “siyohdon”, *karid* (ar.) “qogʻoz”, *xat* (ar.) “alifbo, xat” va h.k.

**Diniy tushunchalar nomlari (teonimlar):** *bayat* “Tangri, Xudo”, *baiaq//baiar* “roʻza”, *burxan* (xit.) “budda; paygʻambar, but”, *yalabai //yalavai //yalafar* “paygʻambar”, *savip* “paygʻambar” va h.k.

**Ekologik terminlar:** *soʻzoʻk suv* “tiniq, koʻm-koʻk suv”, *tdrkin suv* “balchiqli suv”, *et yer* “yumshoq yer; yumshoq tuproq”, *tatprlpr yer* “qattiq yer”, *qarqar* “oʻtsiz va suvsiz joy, qaqroq”, *sarran yer* “shoʻrxok yer”, *sarpz topraq* “sogʻ tuproq”, *aiuq kxk* “ochiq havo” va h.k.

Keltirilgan misollar qadimgi turkiy til terminologiyasining mavzu nuqtai nazaridan turfa, miqdor jihatdan ancha koʻpligi, istilohlarning asosini asl turkiy



soʻzlar tashkil etganini tasdiqlaydi. Ayni paytda *sanskrit, xitoy, soʻgʻd, arab, fors-tojik tillariga* xos oʻzlashmalarning ham oʻrni bilan qoʻllangani kuzatiladi

Oʻrta Osiyoning arablar tomonidan fath qilinishi oqibatida islom dini, arab tili va madaniyati, arab xati shu mintaqada azaldan istiqomat qiluvchi xalqlar, millatlar, qabilalar, qavmlar, urugʻlar intellektual hayotidan mustahkam oʻrin oldi. Arablar hukmronligidan keyin eron madaniyati, ayniqsa, Somoniylar hukmronligi yillarida taraqqiy etdi va uning turkiy tillar tabiati, xarakteriga maʼlum darajada taʼsiri koʻzga tashlandi.

X asr oxiriga kelib Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Koshgʻarda Qoraxoniylar saltanati tashkil topdi. Shu davrdan eʼtiboran turkiy adabiy tillarning shakllanishida jiddiy ijodiy jarayonlar sodir boʻldi. Qoraxoniylar vaqtida jonli tillar adabiy tildan farqli oʻlaroq chet tillar elementlariga nisbatan oz taʼsirda boʻlgan. Fors-tojik tili aksariyat hollarda rasmiy-idoralarda eski turkiy til bilan yonma-yon qoʻllangan u bilan raqobatga kirishgan. Bu kezlarda eski turkiy til soʻz boyligi, xususan, terminlar tizimi umumtil leksikasi tarkibida shakllandi va taraqqiy etdi. Bunda ekstralingvistik omillar qatori intralingvistik faktorlarning ham roli katta boʻlgan edi. Matematika, geografiya, falakiyot, tibbiyot, minerologiya, zoologiya, geometriya kabi aniq fanlar singari falsafa, filologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik, dinshunoslik kabi gumanitar fan sohalarining jadal rivojlanishi asosida eski turkiy til terminologiyasining qadimgi turkiy til terminlar tizimidan koʻp jihatdan farqlanishi yaqqol koʻzga tashlanadi. Ayni chogʻda, qadimgi turkiy til soʻz boyligida mavjud boʻlgan asl turkiy terminlarning salmoqli qismi bu davr terminologiyasida ham isteʼmolda qolavergan.

Qoraxoniylar davri terminologiyasi tizimi eski turkiy tilning oʻz resurslari hamda arab va fors-tojik tillaridan oʻzlashgan birliklar hisobga kengayib borgan.

Eski oʻzbek tili terminologiyasi (XV-XIX asr oxiri) sistemasi qadimgi turkiy til va eski turkiy til terminologiyasidek oʻz ichki imkoniyatlari hamda oʻzlashmalar hisobiga shakllandi va rivojlandi. Eski oʻzbekcha terminlar yasash jihatdan tub va derivatlardan tashkil topgan edi. Terminlar yasashida qatnashgan affikslarni leksik-grammatik xarakteriga koʻra quyidagicha tasniflash mumkin:

**Ism-oʻzaklardan ot-terminlar yasovchi affikslar:** *yurt-* ip, *yulduz-* ip, *ierig-* ii, *tura-lpq*, *jibd-lik*, *kejim-lik* va h.k;

**Feʼl –oʻzaklardan ot-terminlar hosil qiluvchi affikslar:** *pus-ur*, *bxl-dk//bxl-* oʻk, *yur-ur*, *iap-qun*, *quv-run//qav-run*, *yasa-vul*, *tosqa-vul*, *tata-vul*, *nikd-voʻl*, *yasa-l*, *qaba-l*, *tunqa-l*, *suyurra-l*, *yasa-q*, *tolra-ma*, *yasa-v*, *baʼla-maq* va h.k.;

**Ot(ism)lardan feʼl-terminlar yasovchi affikslar:** *yarp -la-*, *oq-la*, *ierik-ld -*, *jibd-ldn-*, *qplpi-lan-*, *at-lan-*, *ya-la-//yay-la-* va h.k.;

**Feʼl-oʻzaklardan feʼl-termin hosil qiluvchi qoʻshimchalar:** *sava-ur*, *ur-ur* -, *tala-t-*, *evr-il-*, *ypr-pl-*, *bas- pl-*, *qpr- pl-*, *ypr-pʼtur-*, *bas-tur-*, *qai-ur*, *toʻr-oʻr-*, *tut-ul-* va h.k.

Terminlarning sintaktik (kompozitsiya) yoʻl bilan yasashiga tubandagi faktik materiallar misol boʻladi: *kxktemoʻr* “zirh, sovut”, *kuiaband* “toʻsiq, gʻov, barrikada”, *yatpʼ tavaipsp* “askarlarni yotoq bilan taʼminlovchi harbiy mansab egasi”, *ulur urur* “dahshatli jang”, *divanbegi* “devonbegi”, *onbegi* “oʻnbegi”,

*yuzbaʼp* “yuzbashi”, *minʼbegi* “ming askardan iborat harbiy qism sarkardasi” *toʼmdnʼbegi* “oʻn ming kishidan tashkil topgan qism, diviziya qoʻmondoni”, *qoʻlunʼbegi* “kichik harbiy boʻlinma boshligʻi” va h.k.

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshida oʻzbek adabiy tili xalq turmush tarzida alohida, oʻzga xos oʻrinni egalladi. Bu davr adabiy tili va uslubida jiddiy va muhim jarayonlar yuzaga keldi. Ushbu jarayonlar oʻzbek xalqi hayotida sodir boʻlgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning oʻzgarishi natijasida maydonga chiqdi. XIX asrning 70-yillaridan eʼtiboran Oʻrta Osiyo Rossiyaga qaram boʻlib qoldi. Natijada mahalliy millat vakillari, xususan, ziyolilar orasida rus madaniyati ommalasha boshladi. Kapitalistik munosabatlar oʻzbek xalqi hayotiga oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Ayni davrda keyinchalik progressiv-demokratik, deb nom olgan oʻzbek adabiyoti shakllandi.

### **Oʻzbek tili leksikasi va terminologiyasi uch manba asosida boyib bordi:**

oʻzbek tilining ichki imkoniyatlari va qonunlari zahirida yuzaga kelgan terminlar: *bosmaxona*, *nizomnoma* “ustav”, *nishontosh* “yodgorlik”, *yigʻilish* “majlis” va h.k.;

oʻzbek tili terminologiyasining jonli xalq tili soʻzlari hisobiga kengayishi yaqqol namoyon boʻldi: *boʻzchi*, *bezgak*, *iskaptopar*, *arava* va h.k.;

ruscha-baynalmilal terminlarning oʻzbek tilida oʻzlashishi:

a) ijtimoiy-siyosiy terminlar – *uyezd*, *pristav*, *soldat*, *volost*, *duma* va h.k.;

b) transport bilan bogʻliq tushunchalarni anglatuvchi terminlar – *poyezd*, *vagon*, *vokzal*, *stansiya*, *depo* va h.k.;

v) sanoat, tijorat va moliya tizimida qoʻllanuvchi terminlar – *zavod*, *fabrika*, *vistavka*, *magazin*, *kredit* va h.k.;

g) madaniyat, fan, maorif sohasi terinlari – *gimnaziya*, *teatr*, *gazeta*, *muzey*, *universitet*, *kafedra* va h.k.;

d) tibbiy terminlar – *gospital*, *lazaret*, *feldsher*, *doktor* va h.k.;

e) hujjat va mukofotlar nomlari – *medal*, *pasport*, *orden*, *attestat*, *diplom* va h.k.;

y) sudlov terminlari – *sud*, *sudya*, *zakon* va h.k.;

j) oʻlchov birliklari nomi – *pud*, *minuta*, *sajen* va h.k.;

z) harbiy terminlar – *general*, *korpus*, *konvoy*, *kapitan*, *leytenant*, *polkovnik*, *mayor* va h.k.

Zikr etilgan oʻzlashma terminlarning muayyan qismi keyinchalik ular anglatgan tushunchalarning turmushdan chiqib ketgani bois isteʼmoldan qoldi, baʼzilari esa oʻzbek tili soʻz xazinasida mavjud muqobillari bilan almashtirildi, salmoqli qismi esa oʻzbek tili terminologiyasi tizimida faol qoʻllanishda davom etdi.

## **ESKI TURKIY TIL TERMINOLOGIYASI.**

1. Qoraxoniylar davri yozma manbalari leksikasidagi terminlar tizimi.
2. Oʻzbek terminologiyasi shakllanishining uch bosqichi.
3. Oʻzbek terminologiyasining koʻhna manbalarda aks etishi.
4. Soha terminologiyasining oʻzbek tili lugʻat fondidagi oʻrni.

5. Matematika, geografiya, falakiyot, tibbiyot, minerologiya, zoologiya kabi aniq fanlar qatori falsafa, filologiya, tilshunoslik, tarixshunoslik, dinshunoslik kabi fan sohalarning jadal rivojlanishi oqibatida eski turkiy til ilmiy terminologiyasining tarkib topishi.

Muayyan adbiy tilning soʻz boyligi oʻz tarkibida maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminologik leksikani u yoki bu darajada qamrab olishi lingvistikada eʼtirof etilgan voqelik hisoblanadi. Oʻzbek terminologiyasi tizimi ham bundan mustasno emas.

Umumisteʼmol soʻzlardan farqli ravishda doim maxsus tushunchalarni anglatish, ifodalash uchun xizmat qilishga yoʻnaltirilgan terminlar oʻzbek adbiy tilining shakllanish va taraqqiy etish bosqichlari zaminida tarkib topdi va takomillashdi.

Oʻzbek adbiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkiy til (VII-X) terminologiyasi, eski turkiy til (XI-XIV) terminologiyasi, eski oʻzbek adbiy tili (XV-XX asr boshi) terminologiyasi, shoʻrolar davri oʻzbek tili terminologiyasi va istiqlol davri oʻzbek tili terminologiyasi tarzida davrlashtirish salkam oʻn toʻrt asrlik vaqt mobaynida terminologik leksika tizimida intralingvistik va ekstralingvistik omillar negizida sodir boʻlgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi.

Hozirgi qardosh turkiy tillar, jumladan, oʻzbek tili leksik xazinasida muayyan darajada qoʻllanishda davom etayotgan yoki bugun isteʼmoldan butunlay chiqib ketgan qadimgi turkiy tilga taalluqli leksik birliklar tarkibida terminologik leksika ham sezilarli oʻrinni egallaganligi bilan xarakterlidir. Qadimgi turkiy til manbalarida qayd etilgan turfa soha terminologiyasi asosan sof turkiy tub va yasamalar hamda buddizm va moniyizm taʼsirida soʻgʻd, sanskrit, xitoy tillaridan kirib kelgan oʻzlashmalardan tashkil topgan edi. Jumladan, *barru* “oʻlja”, *qarru* “soqchi, dozor”, *tamra* “mugʻro”, *kxroʻg* “aygʻoqchi”, *eli* “elchi; hukmdor, yurtboshi”, *yolip* “sardor”, *ipray* “yoʻqsil, kambagʻal”, *qaralar(q)* “qoʻshinning qishki qarorgohi”, *ayruip* “davlat maslahatchisi” singari asl turkcha, *ierigʻierik* “qoʻshin, armiya”, *sart* “tojir, savdogar” kabi sanskritcha, *xatunGʻqatun* “malika”, *kent* “qishloq; shahar” singari sugʻdcha, *qaran* “hukmdor”, *xan* “hokim”, *tegin* “xonzoda, shahzoda”, *yabru* “xoqondan keyingi oliy lavozim egasi”, *seŋoʻn* “xitoy generali”, *tarqan* “tarxon”, *tutur* “tuman hokimi” kabi xitoycha, *bad* “Turk xoqonligida oliy lavozim”, *badappt* singari eroncha terminlar faol qoʻllanishda boʻlganligini manbalar soʻz boyligi yaqqol koʻrsatadi.

Ayni chogʻda eʼtirof etish joizki, sanskrit, eron, xitoy tillarida bitilgan asarlarning turkiy tilga qilingan tarjimalarida qayd etilgan ijtimoiy-siyosiy, harbiy, iqtisodiy, sotsial, hayvonot dunyosi-fauna, oʻsimlik dunyosi-flora, ilmi nujum-astronimiya va h.k. sohalarga xos terminlar keyinchalik deyarli qoʻllanmadi, turkiy tillar, chunonchi, oʻzbek tili ularni qabul qilmadi.

Sakkizinchi asrdan eʼtiboran arab tili, arab xati va islom mafkurasining Turonzaminda qaror topishi, bir qator mahalliy sulolalar (Qorxoniyalar, Gʻaznaviyalar, Saljuqiylar)ning birin-ketin siyosat sahnasiga chiqishi singari obyektiv jarayonlar ostida oʻzligini yoʻqotmagan eski turkiy til (XI-XIV)da terminologik leksika koʻlaminin bir qadar kengayganini kuzatish mumkin. Eski

turkiy til terminologiyasi mavjud lisoniy qonun-qoidalar doirasida shakllandi va rivojlandi. Uning qadimgi turkiy til davriga nisbatan yanada taraqqiy etishida jonli soʻzlashuv tili, turfa sheva materiallari qatori soʻz yasash andozalari – modellari asosida yuzaga chiqqan istilohlar muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi turkiy tildan farqli oʻlaroq eski turkiy tilda sanskrit, soʻgʻd, xitoy tiliga oid oʻzlashmalarning ishlatilish surʼati pasaydi, aksincha, arabcha va forsha-tojikcha oʻzlashmalarning qoʻllanish chastotasi va koʻlami ancha kengaydi. Biroq eski turkiy til terminologiyasining oʻzagini asl turkiy qatlam tashkil qilishda davom edi. *Alpm* “qarz, kredit”, *berim* “toʻlov, qarzni qaytarish”, *beglig* “beklik”, *bitigii* “mirza, munshiy, kotib”, *yatraq* “tungi soqchi”, *yarpʼla* “koʻrshapalak”, *yarru* “ajrim”, *yarruip* “qozi, sudya”, *qalpʼq* “havo”, *obuz* “qattiq yer”, *tirgʻdʼ* “koʻlmak suv” kabi turkcha, *rabat* “karvonsaroy”, *malik* “hukmdor”, *siyasat* “siyosat”, *amil* “ish yurituvchi”, *tib* “meditsina, tibbiyot”, *nujum* “astrologiya”, *handasa* “geometriya” singari arabcha, *laʼkʼar* “qoʻshin”, *mayfurʼuʼ* “may ichuvchi; may sotuvchi” singari forsha-tojikcha, *darura* “qalʼa, qoʻrgʻon komendanti”, *moʻran* “daryo”, *noʻkdrGʻndvkdr* “navkar, askar” kabi moʻgʻulcha terminlar bu davr terminologik tizimida nisbatan keng koʻlamda ishlatilgan.

Eski oʻzbek adabiy tili terminologiyasining takomillashuvida, uning yanada yuqoriroq bosqichga koʻtarilishida tilning ichki qonuniyatlari qatori tashqi taʼsir, yaʼni ekstralingvistik omillarning roli salmoqli boʻlgan. Oʻzbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy, uning Lutfiy, Otoiy, Sakkokiy, Yaqiniy singari salafarlari, Bobur, Muhammad Solih, Ogahiy, Munis kabi izdoshlari tomonidan taklif etilgan badiiy, tarixiy, ilmiy asrlar leksik boyligi tahlilidan kelib chiqqan holda aytish joizki, oʻzbek tili ichki imkoniyatlaridan keng foydalanilgan tarzda termin yaratish bu davr uchun ancha sarmahsul usul hisoblangan. Ona tiliga millatning bosh koʻzgusi tarzida munosabatda boʻlish zaruriyatining Alisher Navoiy tomonidan ziyolilar, olimlar, shoiru yozuvchilar oldida kun tartibiga qatʼiy va roʻy-rost qoʻyilishi oʻz ijobiy aksini terminlar tizimida ham topgan edi.

Aniq fanlar qatori ijtimoiy-gumanitar fan sohalarining shakllanib borish jarayoni ularga taalluqli maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminlar yaratilish bilan baqamti kechdi. Bunda birinchi galda eski oʻzbek adabiy tili, jonli soʻzlashuv tili, lahja va shevalarda mavjud leksik birliklar terminlar safini kengaytirdi, oʻzbek tilda soʻz yasashda keng qoʻllangan affikslar yordamida katta miqdorda terminlar hosil qilindi. Arab, forsh-tojik, moʻgʻul tillaridan oʻzlashgan terminlar soni shiddat bilan oshib bordi. Chet tillardan kirib kelgan soʻz yasovchi qoʻshimchalar ham terminlar yasashda muhim oʻrin egalladi. Xususan, harbiy qurol-yarogʻ, texnika bilan bogʻliq *top* zambarak”, *qazan* “ogʻir toʻp”, *toʻfdʼ* “miltiq” kabi asl oʻzbekcha terminlar bilan yonma-yon arabcha *raʼd* “yonib turgan neftni dushman tomon irgʻituvchi toʻp”, *arrada* “paloqmon”, *manjaniq* “katapult”, forsha-tojikcha *zarbzʼan* “zambarak turi”, *farangiy* “Yevropa, Kichik Osiyoda quyilgan toʻp”, *zanburak* “zambarak” kabi istilohlar jamiyat aʼzolarining maʼlum qatlami tilidan oʻrin oldi.

Ijtimoiy-siyosiy terminologiyada ham muayan oʻzgarishlar yuz berdi. Chunonchi, davlat boshqaruvida yangidan-yangi rutba, lavozim va mansablarning joriy qilinishi natijasi oʻlaroq *yasavulbaʼp*, *tabibbaʼp*, *qoʻlbegi*, *naqib*, *pnaq*, *biy*,

*divanbegi, toqsaba, parvanaip, muhassil, mirab* singari istilohlar keng qo'llanishga kirib keldi.

Har qanday tilning so'z boyligi u tarixiy yoki zamonaviy tusda bo'lmasin, insonlar tomonidan tuziladigan rang-barang lug'atlarda ma'lum darajada aksini topadi. *Lug'at til so'z boyligini o'zida saqlovchi akkumulyator vazifasini bajaradi.* Bugun muayyan tilshunoslikning qay darajada rivojlangani, takomil topgani ayni tilda yaratilgan lug'atlarning turi, miqdori va sifati bilan o'lchanmoqda.

O'zbek lug'atchiligi tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Hozirga qadar yetib kelgan lug'atlar ichida 1074-1075 yili atoqli lug'atnavis Mahmud Koshg'ariy tomonidan tuzilgan "Turkiy so'zlar devoni", ya'ni "Devonu lug'otit turk" ulkan ahamiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. Zotan, arab millati vakillari uchun juda katta hududda istiqomat qiluvchi turkiy xalqlar til xususiyatlari, chunonchi, alifbosi, tovush qurilishi, lug'at boyligi, so'z turkumlari va gap qurilishi haqida ma'lumot berish uchun mo'ljallangan mazkur asarning ilmiy ahamiyati shu kunga qadar dunyo olimlari qalamiga mansub 1800 atrofidagi ilmiy izlanishlarda e'tirof etilgan. Arab lug'atchiligi an'analari va qoidalari asosida tuzilgan bu lug'atdan taxminan sakkiz minga yaqin so'zlar, birikmalar, iboralar, maqol va matallar, xalq og'zaki ijodi namunalari joy olgan. "Devonu lug'otit turk", garchi, lug'at deb nomlansa-da, biroq unda Qoraxoniylar davri eski turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlari juda yuqori tahlil qilingan (Dadaboyev, 2017).

Shuni alohida ta'kidlash joizki, "Devon"dan o'rin olgan leksik birliklar qatori, Qoraxoniylar saltanatining ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, harbiy, maishiy turmush tarzida mavjud tushunchalarni ifodalovchi istilohlar va leksik birliklar son jihatdan salmoqli hisoblanadi. Turfa soha istilohlari bilan yonma-yon onomastika, jumladan, atoqli otlar-antroponimlar, joy nomlari-toponimlar, geografik obyektlar nomi, gidronimlar, ekologiya, hayvonot (fauna) va o'simlik dunyosi(flora)ga oid talaygina leksemalar qiyomiga yetgan holda izohlangan.

O'zbek terminologiyasining qaror topishida XIV asrga oid arab tilida yozilgan grammatik (filologik) risolalarning sezilarli o'rni borligi turkologiyada allaqachon e'tirof etilgan. Turkiy tilning grammatikasi haqida bahs yurishishga yo'naltirilgan Abu Hayyon (vafoti 1344 yil)ning "Kitob ul-idrok li-lison ul-atrok", M.T. Xoutsmaning fikricha, 1245 yilda Mamluklar davlati (1250-1517)da Halil bin Muhammad bin Yusuf al-Ko'nyaviy tomonidan yaratilgan "Kitobi majmuai tarjumoni turki va ajami va mug'ali", muallifi noma'lum "Kitobi at-tuhfat uz-zakiya fi-l-lug'atit turkiya", Jamoluddin Turkiyning "Kitob bulg'at al-mushtaq fi-l-lug'atat- turk va-l-qifchaq", XVI asr boshida Qohirada ta'lif etilgan "Al-qavoninu-l kulliya li-zabtil-lug'atit-turkiya" singari asarlarda turkiy tilning so'z boyligi, alalxusus, istilohlar tizimi ma'lum darajada ifodasini topgan. Mazkur davr asarlarida qayd etilgan turkiy til leksikasi, chunonchi, istilohlar sistemasini "Tarjumoni turki va ajami va mo'g'aliy"da keltirilgan quyidagi mavzuiy guruhlarining ajratilganini qayd etish bilan cheklanamiz:

kishi nomlari – *Alaquʼb, Aqtay, Altuntaʼb, Baybars, Sonqur* va h.k.;

astroponimlar : *O'lkdr*;

geografik nomlar: *ʼBam, Misr*;

uy hayvonlari: *at, xko'z, qatpr, bora, ayrpr* va h.k.;

yirtqich hayvonlar: *aslan*, *sprtlan*, *bxri*, *to'lko'* va h.k.;

qush va hashoratlar: *qartal* "burgut", *saria* "chumchuq", *qaz* "g'oz", *qarlarai* "qaldirg'och", *qarra* va h.k.;

ekoterminlar: *topraq* "tuproq", *qaypr* "shag'al", *yaban* "cho'l, yobon", *oy* "chuqurlik", *qol* "vodiy" va h.k.;

harbiy asbob-anjomlar: *ya* "yoy, kamon", *kiri/b* "yoy ipi", *so'no'* "nayza", *qalqan*, *ioqmar* va h.k.;

tibbiy terminlar: *yigG'ig* "kasallik, illat", *arrp* "og'riq", *sxkdl* "bemor, kasal", *isitmd* "harorat, isitma", *xto'rmak* "yo'tal" va h.k.;

musiqiy terminlar: *duduk* "musiqi asbobi", *txmro'* "do'mbira", *yaqlpq* "rubob", *spbpzru* "sivizg'a" va h.k.

O'n to'qqizinchi asrning 70-yillaridan e'tiboran o'zbek terminologiyasi rus tili orqali G'arbiy Yevropa tillaridan o'zlashgan terminlar asosida rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. Bu davrda rus tilining o'zbek tili leksikasi, xususan, terminologiyasi rivojiga ta'siri masalasi hozirgacha har tomonlama chuqur ilmiy tadqiqot obyektiga aylanmagan.

Vaholanki, manbalarda qayd qilingan faktik materiallar o'zbek terminologiyasining zikr etilgan paytdagi taraqqiyotini bevosita ifodalagani bois muammoni ijobiy hal etishda o'ta qo'l kelishi aniq. O.Usmonov, Sh.Hamidovlar tomonidan 1981 yilda "Fan" nashriyotida e'lon qilingan "O'zbek tili leksikasi tarixidan materiallar (XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari)" nomli asarda *atishma*, *atishuv* "otishma", *axtarish* "tintuv", *ariq* "kanal", *ashula oyuni* "konsert", *basma* "bosma, nashr etilgan", *bash vazir* "bosh vazir" kabi asl o'zbekcha istilohlar qatori *barja* "yuk kema", *prizident* "prezident", *pratakol* "bayonnoma", *sayuz* "ittifoq", *iliktir* "elektr", *ikiskursiya* "sayohat", *fonograf*, *samavar*, *sod//sud* "sud" singari o'zlashmalar aksini topgan. Ashyoviy misollar o'zlashmalarning o'zlashtiruvchi o'zbek tili tovush tizimiga moslashtirilganidan dalolat beradi.

Sobiq sho'rolar hukmronligi vaqtida o'zbek tili terminologiyasi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi haddan tashqari ko'p miqdordagi o'zlashma terminlar hisobiga kengaydi. Soha terminologiyasi tizimining vujudga kelishida sof o'zbekcha leksik birliklar qatori ruscha-baynalmilal terminlarning roli yuqori bo'ldi. Bu jihat ayniqsa, tabiiy fanlarga xos terminologik sistemada yaqqol ifodasini topdi. Mustaqillik davri o'zbek terminologiyasi globallashuv va internetga qadam qo'yilgan XXI asrda har tomonlama takomillashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. Hozirgi o'zbek terminologiyasining shiddat bilan taraqqiy etishi til lug'at tarkibining boyishi va takomillashuviga olib keldi.

Terminga xos belgilardan biri uning izohi va ta'rifiga oydinlik kiritish, terminning ma'noviy qurshovida mavjud qo'shimcha semalarni yuzaga chiqarish ilm-fan tilining rivojlanishida, o'zga soha terminologik tizimlar tarkibida yaqqol seziladi. Bugungi o'zbek terminologiyasining boyishida yuqorida zikr etilgan jihatlar hamon ustunlik qilmoqda. O'z qatlamning salmoqli o'rni qatori, o'zlashmalarning ham sezilarli mavqei saqlanib qolmoqda. O'zlashmalarning til terminologiyasi boyishidagi o'rnini birgina internet terminlari misolida ko'rish mumkin. Olib borilgan izlanishlar o'zbek tili internet terminologiyasining 54%

o'zlashmalar, chunonchi, rus tilidan o'zlashgan internet terminlari 31%, ingliz tilidan aynan o'zlashgan baynalmilal internet terminlari 23% tashkil etishini ko'rsatgan (Saidqodirova 2018).

Xullas, o'zbek terminologiyasi bir necha asrlik shakllanish va tarqqiy etish bosqichlarini bosib o'tdi. Bu bosqichlarda o'zbek terminologiyasi na faqat o'z ichki resurslari, shuningdek qarindosh bo'lmagan tillar boyliklaridan o'rni bilan foydalangan holda rivojlanish yo'lida davom etdi.

Terminlarning shakllanish hamda yasaliş yo'llari xususida so'z ketganda quyidagi jihatlarni inobatga olish taqozo etiladi: o'z milliy tilning tayyor leksik boyliklaridan unumli foydalanish; boshqa tillarning so'z boyliklaridan o'rni bilan istifoda etish (o'zlashtirish); tayyor standart terminelementlar (o'zbekcha va baynalmilal)ni qo'llash; morfologik (affiksatsiya, abbreviatsiya), sintaktik (kompozitsiya) va semantik so'z yasalişhi vositalariga murojaat qilish.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Qadimgi turkiy til terminologiyasi qanday qatlamlardan tashkil topgan?
2. "Devonu lug'otit turk"da eski turkiy til terminologiyasi ifodasini topganmi?
3. "Kitobi at-tuhfat uz-zakiya fi-l-lug'atit turkiya"da qayd etilgan terminlarni izohlang.
4. "Tarjumoni turki va ajami va mo'g'aliy"da keltirilgan fitonimlarni guruhlashtiring.
5. Qadimgi turkiy til va eskiy turkiy tillarga xos terminlar tizimi xususida mulohaza yuriting.
6. Eski o'zbek adabiy tili terminologiyasi manbalarini aniqlang.
7. O'n to'qqizinchi asrning 70-yillaridan e'tiboran o'zbek terminologiyasida sodir bo'lgan o'zgarishlar xususida mulohaza yuriting.
8. Hozirgi o'zbek terminologiyasining holati borasida fikr bering.
9. Internet terminologiyasi haqida bahs yuriting.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Bitiktoshlar matnida qanday mavzuiy guruhlariga oid terminlar qayd etilgan?
2. Eski turkiy til terminologiyasining shakllanish manbalarini belgilang.
3. Eski o'zbek tili terminologiyasi rivojiga bois bo'lgan qanday omillarni bilasiz?
4. XIX asrning ikkinchi yarmidan o'zbek terminologiyasi tizimi qanday manbalar hisobiga rivojlandi?
5. O'zbek tili terminologiyasining shakllanishida o'z qatlamning o'rni xususida bahs yuriting.
6. Eski o'zbek adabiy tili terminologiyasining yasaliş yo'llariga e'tibor qarating.
7. Mo'g'ulcha o'zlashmalar eski o'zbek tilining qaysi fan sohasida miqdoran aksariyatni tashkil qiladi?

**Test:**

O'zbek terminologiyasi leksikasi shakllanishi necha davrni qamrab oladi?

A. besh

V. to'rt

**S. uch**

D. olti

2. Qaysi adabiy tilda sanskritcha o'zlashmalarni qo'llash sur'ati pasaygan?

A. qadimgi turkiy til

V. eski turkiy til

S. eski o'zbek adabiy tili

D. chig'atoy adabiy tili

3. Darug'a istilohi qaysi tildan o'zlashgan?

A. xitoy

V. so'g'd

S. mo'g'ul

D. fors-tojik

4. Ra'd istilohi ilk bor qaysi til manbalarida qo'llangan?

A. qadimgi turkiy til

V. eski turkiy til

S. eski o'zbek adabiy tili

D. hozirgi o'zbek tili

5. Eski turkiy til ekoterminalari qayd etilgan manbani aniqlang.

A. Qutadg'u bilig

V. Devonu lug'otit turk

S. Hibatul-haqoyiq

D. O'g'uznoma

6. Lug'at aksariyat nimaga qiyos qilinadi?

A. sandiq

V. ombor

S. akkumulyator

D. barometr

7. "Tarjumon turki, ajami va mug'ali" da qanday lug'atning prinsiplari aksini topgan?

A. izohli.

V. ideografik

S. ensiklopedik

D. etimologik

8. "O'zbek tili leksikasi tarixidan materiallar" asari qachon nashr qilingan?



- A. 1980
- V. 1981
- S. 1982
- D. 1983

9. O‘zbek tili internet terminologiyasining necha foizi o‘zlashmalar sanaladi?

- A. 52%
- V. 53%
- S. 54%
- D. 55%

### Test:

1. Runik bitiklar janr jihatdan nechta guruhga bo‘linadi?

- A. yetti
- V. besh
- S. to‘rt
- D. olti

2. Qadimgi turkiy tilda “mis tanga” ma’nosini ifodalagan termini aniqlang.

- A. aqcha
- V. birinj
- S. baqir
- D. dirham

3. *Rabjat* termini eski turkiy tilda qanday ma’noni ifodalagan?

- A. joriyalardan olinadigan soliq
- V. savdogarlardan olinadigan soliq
- S. qullardan olinadigan soliq
- D. boylardan olinadigan soliq

4. *Yatish tavachisi* termini Alisher Navoiyning qaysi nasriy asarida aks etgan?

- A. Muhokamat ul-lug‘atayn
- V. Mahbub ul-qulub
- S. Tarixi muluki ajam
- D. Tarixi anbiyo va hukamo

5. *Volost, дума, uyezd, pristav* terminlari o‘zbek tiliga qachon o‘zlashgan?

- A. XIX asrning 60-yillari
- B. XIX asrning 50-yillari
- C. XIX asrning 70-yillari
- D. XX asr boshi

6. O‘zbek terminologiyasi nechta manba asosida taraqqiy etdi?

- A. ikki
- V. to'rt
- S. besh
- D. uch

7. *sajen* o'zlashmasi qanday ma'noni anglatgan?

- A. sudlov
- V. fan-ta'lim
- S. qishloq xo'jaligi
- D. o'lchov birligi

### Adabiyotlar

1. Dadabaev X. Voennaya leksika v starouzbekskom yazo'ke. Dadabaev X., Naso'rov I., Xusanov N. Problema' leksiki starouzbekskogo yazo'ka. -Tashkent: Fan, 1990. –S.3-83.
2. Dadabaev X. Obhestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazo'chno'x pismenno'x pamyatnikax XI-XIV vv. Tashkent: Yozuvchi.1991.
3. Dadaboev H. “Devonu lug'otit turk”ning til xususiyatlari.-Toshkent, 2017.
4. Drevnetyurkskiy slovar.-L., 1969.
5. Izo'skanno'y dar tyurkskomu yazo'ku (Grammaticheskiiy traktat XIV v. na arabskom yazo'ke). Vvedenie, leksiko-grammaticheskiiy ocherk, perevod, glossariy, grammaticheskiiy ukazatel E. I. Fazo'lova i M.T.Ziyaevoy. – Tashkent: Fan, 1978.
6. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I-III.-Toshkent, 1960-1963.
7. Saidqodirova D. Ingliz va o'zbek tillarida internet terminlarining lingvistik tadqiqi. Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. avtoref. Toshkent, 2018.
8. “Tarjumon”- XIV asr yozma obidasi. Nashrga tayyorlovchi A.Yunusov. – Toshkent: Fan, 1980.
9. Usmonov O., Hamidov Sh. O'zbek tili leksikasi tarixidan materiallar (XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari).-Toshkent: Fan, 1981.
10. El-Kavaninul-Kulliyye Li-Zabtil-Lugatit-Turkiyye. Prof. Dr. R. Toparli, Prof. Dr. M. Sadi Cocenli, Doc. Dr. N.H.Yanik.-Ankara, 1999.
11. Kitab-i Mecmu-i Tercuman-i Turki ve Acemi ve Mugali. Prof. Dr. R.Toparli, Prof. Dr. M. Sadi Cocenli, Doc. Dr. N.H.Yanik.-Ankara, 2000.

**3-MAVZU. ESKI TURKIY TIL VA ESKI O'ZBEK ADABIY TILI SO'Z BOYLIGINING LEKSIKOGRAFIK ASARLARDA AKS ETISHI.** Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlar. Alisher Navoiy va boshqa o'zbek adiblari asarlariga bag'ishlangan mumtoz lug'atlarning tuzilish printsiplari.

#### Reja

1. Eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tili so'z boyligining leksikografik asarlarda aks etishi.

2. Navoiy asarlariga tuzilgan lugʻatlar.
3. Alisher Navoiy va boshqa oʻzbek adiblari asarlariga bagʻishlangan mumtoz lugʻatlarning tuzilish printsiplari.

**Tayanch iboralar:** *eski turkiy til, ilk eski turkiy til, tovush oʻzgarishi, inlaut, fonema, leksik fond, rudiment shakl, oʻz qatlam, leksikografik manbalar, ismlar, feʼllar, feʼllardan yasalgan ismlar, isteʼmoldan chiqqan soʻzlar, eskirgan soʻzlar, istiloh, kategoriya, tur, anʼanaviy terminlar, termin-oʻzlashmalar, soʻz yasovchi qolip, terminologik leksika, noterminologik leksika, maxsus nom, umumilmiy, zoonim, fonetik oʻzgarish, terminologik material, qardosh turkiy tillar, diplomatik terminologiya.*

### **Eski turkiy til terminologiyasidagi oʻz va oʻzlashma qatlam paradigmasi.**

1. Eski turkiy til terminologiyasi tarkibidagi tub va derivativ terminlar tizimi.
2. Eski turkiy til ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiyasi.
3. Eski turkiy til harbiy terminologiyasi.
4. Oʻzbek terminologiyasining shakllanish manbalari.
5. Oʻzbek terminologiyasi tizimida qadimgi qatlamning oʻrni.

Oʻzbek tilida hozirgi ilmiy-texnikaviy terminologiya oʻz aksini keng qamrovda topgan.

Oʻzbek adabiy tili leksikasining ajralmas boʻlagi hisoblanmish terminologiya hozirgi oʻzbek tilshunosligi fanining oʻta shahdam va dinamik tarzda taraqqiy etayotgan kategoriyalardan biri boʻlib, til lugʻat boyligining muttasil oʻsib hamda kengayib borishida tuganmas manba rolini bajaradi.

Oʻzbek tili ilmiy terminologiyasida terminlarning uch turi farqlanadi (Begmatov 1988; 140):

**tarixiy-anʼanaviy terminlar.** Ushbu turga taalluqli leksemalar juda qadimdan termin vazifasida qoʻllanib keladi va oʻzbek terminologiyasining oʻzagini tashkil qiladi. Masalan, *toʻsiq, yulduz, soliq, kirim, pul, oldi-sotti, soʻroq, tomir* (tib. arteriya), *oqsillar* (tib. belok, belki), *isitma* (tib. lixoradka) singari koʻpgina terminlar shular sirasidandir;

**terminologik tizimning boyishiga bois boʻlgan nisbatan yangi termin-oʻzlashmalar:** *skaner, sayt, karate, internet, auksion, tomografiya, spektr, respirator, psixolingvistika, pragmatika, lingvokulturologiya, semema, parodontoz, bakteriya, videotelefon, katapult, radiolokator, tatami, pley-off, gravatizatsiya, spagetizatsiya, transgender, freym, geshtalt, konsept, diskurs, lemmatizatsiya* va h.k.;

**oʻzbek tili soʻz yasovchi qoliplari negizida hosil qilingan terminlarni** ikki guruhga taqsimlash mumkin:

- a) ona tili materiallari negizida paydo boʻlgan terminlar: *bogʻlovchi, toʻldiruvchi, kesim, tenglik, qayta saylov, toʻlov, boshqaruv, boʻgʻilish* (tib. asfiksiya), *titrash* (tib. trepetaniya), *boshqarma, yasama* (til. derivat), *qoʻnish*,

*qurilma, ko'chish* (til. transpozitsiya), *suzg'ich, yutgich* (harb.), *ikkilamchi bozor, qo'shimcha qiymat solig'i, terma jamoa* va h.k.;

b) o'zlashmalar ishtirokida yuzaga kelgan terminlar: *raketaeltgich* (raketanosets), *avtomobilsozlik* (avtomobilostroyeniye), *raketasozlik* (raketostroyeniye), *eshelonlashtirish* (eshelonirovaniye), *shturmchi* (shturmovik), *shifrlash* (shifrovaniye), *fotohujjat* (fotodokument), *kompyutirlashtirish* (kompyuterizatsiya), *kateterlash* (kateterizatsiya), *bombaqidirgich* (bomboiskatel), *dzyudochi* (dzyudoist), *signalchi* (signalist; signalshik), *minalashtirish* (minirovaniye), *dislokatsiyalash* (dislokatsiya) va h.k.

O'zbek terminologik leksikasining shakllanish manbasi ma'lum va mashhur qadimgi turkiy til (VII-X), eski turkiy til (XI-XIV) va eski o'zbek adabiy tili obidalariga borib taqaladi. Ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy (Dadabayev 1991), harbiy (Dadabayev 1990; 3-83), huquqiy (Tursunova 2009), zoologik (Abdushukurov 1998), kitobat (Yuldashev 2005) va boshqa terminologik leksikaning shakllanish va rivojlanish ibtidosi aynan mana shu yodgorliklardan boshlangan.

Matematika, geometriya, geodeziya, geografiya, tibbiyot, astronomiya kabi aniq fanlarning taraqqiyoti oqibatida maxsus nomlarni ifodalovchi xilma-xil terminologik tizimlar shakllana boshlagan.

Shubhasiz, o'zbek terminologiyasi ilmiy-texnikaviy inqilob davri deb nom olgan XX asrda ham miqdor, ham sifat tomondan jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Bunday o'zgarishlar intralingvistik va ekstralingvistik omillar ta'siri ostida umum o'zbek adabiy tilida sodir bo'lgan jarayonlar yordamida aniqlanadi.

Mubolag'asiz ta'kidlash lozimki, o'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi (1989) hamda O'zbekiston Respublikasining Istiqlolni qo'lga kiritishi (1991) ilm-fan va texnika tilining keng qamrovli taraqqiyotini ta'minladi.

O'zbek tili terminologik leksikasining faollashish jarayoni respublikaning davlat qurilishi, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyoti, shuningdek, ijtimoiy turmushning turfa jabhalariga doir talaygina yangi hodisa va tushunchalarni ifodalash zaruriyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli hozirgi paytda o'ta tezlik bilan to'lishib borayotgan qator terminologik tizimlarni yana ham takomillashtirish, yuqori bosqicha ko'tarish o'zbek terminologiyasi oldida turgan dolzarb, kechiktirib bo'lmaz masalalardan hisoblanadi.

Sir emaski, har qanday tilning lug'at tarkibi **uch** nisbatan mustaqil, ya'ni **noterminologik** (mustaqil ma'noli so'zlar va yordamchi so'zlar), **umumilmiy** (ilmiy soha vakillariga xos maxsus leksemalar) hamda **terminologik** (aniq terminologik tizimlarga oid maxsus leksemalar) qatlamdan tashkil topadi (Mol 1973; 41; Danilenko 1977; 27-20).

Boshqa tillarda kuzatilgani kabi o'zbek tili terminologik leksikasi asl *o'zbekcha* (turkcha), *o'zlashma* (sug'dcha, xitoycha, arabcha, forsha – tojikcha, mo'g'ulcha, ruscha-baynalmilal), sodda, oddiy, barcha tomonidan kunda ishlatiladigan va azaldan qo'llanishda bo'lgan umumadabiy til so'z yasash modellari hamda termin yasash qoliplari asosida shakllangan.

Shuni alohida urg'ulash kerakki, o'zbek tilining hozirgi soha terminologiyasi sistemasida nisbatan ancha keyin yuzaga chiqqan terminlar

safida qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tilida qayd etilgan leksik birliklarning mavjudligi muhim ahamiyatga molikdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial-siyosiy jabhalarga doir hodisa va tushunchalarni ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiya xalq kundalik hayotida sodir bo'luvchi turfa voqea va hodisalar bilan yaqindan bog'langan.

Davlatning siyosiy-ma'muriy qurilishi, tashqi siyosiy faoliyati, ijtimoiy tuzilishi va sinfiy tabaqalanishi, jamiyat a'zolariaro savdo-moliyaviy munosabatlar bilan mustahkam aloqaga ega ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiya tizimidagi leksik-semantik guruhlariga kiruvchi termin hamda termin-birikmalar o'zbek tili lug'at tarkibini to'ldirgan va boyitgan.

XI-XII asrlar, ya'ni Qoraxoniylar davriga oid qo'lyozma manbalar qarindosh turkiy tillar, chunonchi, o'zbek, uyg'ur, turkman, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va h.k. tillar tarixi bilan bevosita bog'liq.

XI-XIV asrlarda Markaziy Osiyo, Dashti Qipchoq, Volgabo'yi, Qirim hamda mamluklar hukmronlik qilgan Misrning keng mintaqalarida turfa mazmun hamda rang-barang janrdagi turkiy yozma yodgorliklar yaratilgan va shuhrat topgan. Mazkur nodir yozma obidalarining tili ulkan hududa istiqomat qiluvchi turkiy xalq (o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz, tatar, turk, ozarbayjon va h.k.)lar adabiy tilining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etganligi turkologiyada isbotini topgan.


Qoraxoniylar davlati, Jo'ji ulusining sharqiy qismi, ya'ni Xorazm, shuningdek, Chig'atoy ulusi adabiy tillari zaminida shakllangan, hozirgi o'zbek adabiy tilining o'tmishdoshi hisoblanmish eski o'zbek adabiy tili lisoniy xususiyatlari nuqtai nazaridan XI-XIV asr turkiy yozma manbalari tiliga juda yaqinligi bilan xarakterlanadi. Kezi kelganda buyuk Alisher Navoiy, uning Lutfiy, Otoi, Sakkokiy, Yaqiniy singari salaflari, Husayniy, Bobur, Muhammad Solihga o'xshash zamondoshlari, Abulg'oziy Bahodurxon, Munis, Ogahiy kabi izdoshlari shakllantirgan va rivojlantirgan eski o'zbek adabiy tilining ba'zi turkologlar tomonidan *chig'atoy tili bilan ayni bir xil*, ikkinchi guruh olimlar tomonidan *chig'atoy adabiy tilidan farqlanuvchi jonli xalq tili*, uchinchi mutaxassislar tomonidan esa *chig'atoy adabiy tilining varianti*, deb qaralishini takroran ta'kidlamogchimiz.

Biz tomondan o'z vaqtida eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tilida qo'llanishda bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlarni qiyosiy-statistik tahlili amalga oshirilgan edi. Tahlil XI-XIV asr turkiy obidalar tilida qayd etilgan 700 ta ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlardan 645 tasi o'zbek adabiyoti klassiklari asarlari tilida deyarli fonetik va semantik o'zgarishlarsiz qo'llanishda davom etganini ko'rsatgan edi.

Eski turkiy til hamda eski o'zbek adabiy tiliga xos ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlarning salmoqli miqdori hozirgi qarindosh turkiy tillarning terminologik leksikasiga mutanosib tushadi.

Turkiy leksik (terminologik) materialning umumiyligi haqida aniq-ravshan tasavvurga ega bo'lish maqsadida biz tomondan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlardan 503 tasi ajratib olingan va ular ba'zi qarindosh turkiy

tillarning muvofiq leksik (terminologik) birliklari bilan qiyoslangan edi. Taqqoslash natijasida XI–XIV asr yozma manbalari tilida ishlatilgan 503 *termin*dan 348 tasi **uyg‘ur tilida**, 230 tasi **qozoq tilida**, 244 tasi **qirg‘iz tilida**, 370 tasi **turk tilida**, 390 tasi **o‘zbek tilida** qo‘lanishda qolayotgani aniqlandi.



Hatto ushbu taxminiy tahlil ham eski turkiy til davri qo‘lyozma manbalari o‘zbek tili qatori boshqa turkiy tillar terminologiyasining shakllanishi va qaror topishida asos vazifasini o‘taganligidan dalolat beradi.

Muayyan ashyoviy materiallarga murojaat etamiz.

*Harbiy leksika* o‘zbek tilining qadimiy qatlamlaridan biri bo‘lib, uning hamma rivojlanish bosqichlarida kuzatiladi. Umumadabiy leksikaning faol ishlatilgan qatlamlaridan sanalmish harbiy terminlar tizimida ichki va tashqi omillar ta’siri ostida standartlashgan o‘zbek tilining shakllanish xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari o‘z ifodasini topgan.

O‘zbek tilining ko‘p asrlik taraqqiyoti davomida harbiy terminlarning ba’zilari eskirgan va tilning leksik xazinasidan tushib qolgan. Ularning o‘rnida o‘zbek tilining leksik tarkibini boyitgan o‘z hamda o‘zlashma istilohlar qo‘llangan. Harbiy terminologiyaning tarixiy-etimologik tahlili uning shakllanishi va rivojlanishida asl o‘zbek(turkiy)cha leksik birliklar qatori *arab, fors-tojik, mo‘g‘ul* va *rus* tillaridan o‘zlashgan so‘zlarining ham salmoqli o‘rni borligidan guvohlik beradi.

Hozirgi o‘zbek tili harbiy terminologiyasi qadimiyligi VII-XIX asrlarga borib taqaluvchi ko‘pgina so‘zlarni o‘z tizimida saqlab qolishga erishgan. Bunday terminlar sirasiga:

1) askariy qism va qo‘shilmalar, jangchilar, asosiy harbiy harakat va amaliyotlar nomlarini ifodalovchi *qamal, yurish, kechuv, ko‘rik, pistirma, qo‘shin* (eski shakli: qo‘shun), *ilg‘or, soqchi, qorovul, ayg‘oqchi, to‘pchi, dengizchi, chopar, mergan, qochoq* va h.k.;

2) qurol-yarog‘ va aslahalar nomini anglatuvchi *to‘p, qurol-yarog‘, kema, o‘q, qo‘ndoq, qalqon, sol, kiyim, quloqchin* va h.k.;

3) *urush, tinchlik, g‘alaba, mag‘lubiyat, sulh, ta‘qib* kabi mavhum ma’noni ifodalovchi leksik birliklar oiddir.

Tarixiy qadimiyligi bir necha yuz yillar bilan o‘lchanuvchi zoologik terminologiya ham hozirgi kunlarga qadar ma’lum sondagi so‘zlarni tizimida asrab qolishga muvaffaq bo‘lgan. Sinchkovlik bilan qilingan tahlilga muvofiq XI-XIV

asr eski turkiy til yozma obidalarida tilida qo‘llangan **432 ta zoonimning** 365 tasi asl *turkcha*, 33 tasi *forscha-tojikcha*, 26 tasi *arabcha*, 5 tasi *mo‘g‘ulcha*, 3 tasi esa *hind-yevropacha* ekanligi aniqlangan.



Sof turkiy 365 ta zoonimlar tub (158) hamda yasamalarga (207) taqsimlanadi. Yasama zoonimlarning 132 tasi *morfologik*, 59 tasi *sintaktik*, 5 tasi esa *semantik* yo‘l bilan hosil qilingan. Chunonchi, *to‘ng‘iz*, *bo‘rsiq*, *biya*, *kiyik*, *quyon*, *shunqor*, *g‘oz*, *o‘rdak*, *burga*, *qo‘ng‘iz*, *ot*, *tovuq* singari talay leksik birliklar hozirgi o‘zbek zoologik terminologiyasi tarkibida faol qo‘llanmoqda (Abdushukurov 1998; 1).

VII-XIV asrlar yozma yodgorliklari matnlarida qayd etilgan *elchi*, *elchilik*, *elchixon*a, *yorliq*, *sulh*, *sulhnoma*, *xabar*, *jusus*, *tashrif*, *ijozat*, *qabul*, *noma*, *muhr*, *dushmanlik*, *nishon* va boshqa asl o‘zbekcha (turkiy) hamda o‘zlashma so‘z va so‘z birikmalari zamonaviy o‘zbek diplomatik terminologiyasi tizimida keng ishlatilmoqda (Dadabayev 1994 ;4-13.).

Ayni chog‘da, hozirgi o‘zbek diplomatik terminologiyasi taraqqiyotini uning tarkibiga kirib kelayotgan, bugungi jahon diplomatiyasi sohasida mavjud tushuncha va mazmunlarni ifodalovchi leksemalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hozirgi o‘zbek diplomatik terminologiyasi genetik jihatdan turli-tumandir. Uning safida azaldan qo‘llanishda bo‘lgan umumturkiy terminlar qatori, sharq va Yevropa (rus, ingliz, nemis) tillaridan turli zamonlarda kirib kelgan o‘zlashmalar ham o‘z aksini topgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” materiallari asosida qilingan statistik tahlil diplomatik terminlarning umum o‘zbek adabiy tilida qo‘llanish darajasi chastotasining pastligini ko‘rsatdi. Xususan, nomi tilga olingan izohli lug‘atdan o‘rin olgan 60.000 so‘zlarning bor-yo‘g‘i 410 tasi, yani 0,7% ini diplomatik terminlar tashkil qiladi, xolos (Abdullayeva 2003;160).

Ma‘lumki, juda qadim zamonlardan insonlarning vaqtni aniqlash, bir makondan boshqa joyga harakat qilish, sayohatlarga borish ehtiyoji natijasida osmon va undagi jismlar, sayyoralar, yoritqichlar harakatini o‘rganuvchi maxsus fan, ya‘ni astronomiya shakllangan. Astronomiya fanining asrlar mobaynidagi taraqqiyoti natijasida ushbu sohaga tegishli terminologik mikrotizim shakllandi.

Hozirgi o‘zbek tili astronomik terminologiyasi tizimi X-XIV asrlardan e‘tiboran muomalaga kirgan *nujum ilmi* (astrologiya), *munajjim* (astrolog), *yulduz*, *sayyora*, *usturlob*, *Hulkar*, *Arslon*, *burj*, *Qovg‘a*, *Yetagan* (Katta Ayiq), *Cho‘lpon*

(Venera), *Mushtariy* (Yupiter) singari qadimiy astroponim (kosmonim)larni saqlab qolishga erishgan (Dadabayev 1994; 32-43).

Astronomiya va kosmonavtika fanlarining so'nggi vaqtlarda jadal rivojlanishi, tabiiy, o'z ifodasini hozirgi o'zbek adabiy tili so'z boyligida ham topdi.

*Uran, Neptun, Pluton, asteroid, Ulug'bek asteroidi, Osiyo asteroidi, Galley kometasi, Neuymin kometasi, selenonim, Kirill krateri* kabi astroponimlar ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda faol ishlatilmoqda, darslik, qo'llanma hamda turli xarakterdagi lug'atlarda qayd etilmoqda (Primov 2009).

Xulllas, genetik ko'rinishi nuqtai nazaridan o'zbek tilida qo'llanuvchi terminlar: a) terminologiya tizimiga tayyor til birligi sifatida qabul qilingan so'zlar; b) maxsus nom tarzida yasalgan so'zlarga taqsimlanadi. Bunday ko'rinishni muayyan lisoniy hodisa va vaziyatlarning mahsuli, deb baholash kerak bo'ladi.

Tarixiy manbalarda muayyan narsa-predmet, tushunchani ifodalashda ba'zan sinonimik qatorlarning ishtirok etgani kuzatiladi. Masalan: *bek-amir, tuman-nohiya, o'ng qo'l-burang'ar, mang'lay – hiravul, yalavach-rasul-qosid* va h.k. Terminologiyadagi sinonimlar o'zgacha tabiat va boshqa funksiyalarga ega bo'lgani bois (stilistik vazifa bajarmaydi) ayrim tilshunoslar tomonidan dubletlar deb nomlanadi (Reformatskiy 1987.91).

Sinonimiya (variantdorlik) terminologik sistema shakllanishining boshlang'ich davrlariga xos, bu davrda variantlar miqdoran ko'p bo'lib, eng maqbul termini tanlash hodisasi hali reallashmagan edi (Danilenko, 1977,73).

**Eski o'zbek adabiy tili terminologiyasi tizimi va uning shakllanish omillari. Eski o'zbek adabiy tili terminologiyasining ichki imkoniyatlar va o'zlashmalar hisobiga shakllanishi va rivojlanishi.**

1. Eski o'zbek adabiy tili terminologiyasi tizimi va uning shakllanish omillari.
2. Eski o'zbek adabiy tili terminologiyasining ichki imkoniyatlar va o'zlashmalar hisobiga shakllanishi va rivojlanishi.
3. Umumadabiy so'zlarning terminologiyaning shakllanish va rivojlanishidagi roli.
4. Terminologiya tarqqiyotida sheva elementlarining o'rni.

Terminologiyaning shakllanish va taraqqiy etish jarayoni tilga xos so'z yasalishi qonuniyatlari hamda tilning leksik fondi asosida sodir bo'ladi. Umumiste'molga oid leksikaning terminlashuvi voqeasi tarixiy hisoblanadi. Bu hodisa til va terminologiya orasidagi ikki tomonlama munosabatning mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur jarayon shuningdek, umumadabiy leksika va terminologik leksika o'rtasidagi jips aloqalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Umumadabiy so'zlar so'zlashuv tili, dialektlar, lahjalar va sotsial jargon, argolarning leksik boyligi va meyorini tashkil qiladi. Ayni zamonda, umumxalq so'zlari har qanday milliy til terminologiyasini hamisha to'ldirib, kentaytirib boruvchi manbalardan biri tarzida e'tirof etiladi.



Umumadabiy soʻzlarning terminologik leksika tizimiga koʻchishi, yaʼni transterminlashuv (Ismailov 2011)ning ikki turi mavjudligi aniqlangan:

terminologiyaga koʻchgan umumadabiy leksik birliklarning maʼlum qismi oʻz maʼnosini saqlab qolgan holda ishlatiladi: *ildiz, suv, shamol, dengiz, daryo, oy, quyosh, bugʻdoy, tol, uzum, shimol, janub, yer, aygʻir, baliq* va h.k. Bu oʻta keng qamrovli leksika qatlami boʻlib, mavzu jihatdan jamiyat, inson, tabiat, ekologiya, hayvonot (fauna) va oʻsimlik dunyosi (flora) bilan mustahkam aloqaga kirgan. Qayd etilgan soʻzlar keng umumadabiy hamda oʻz navbatida, tor, maxsus sohaga taalluqlidir. Mazkur soʻzlarning ifodalanuvchisi va ifodalovchisi turli sohalarda mos tushadi, ammo ular maʼno obyekti, axborot koʻlami, mazmun-maʼno turi bilan farqlanadi (Danilenko 1977; 23).

Umumadabiy leksikaning boshqa boʻlagi yuz bergan maʼnoviy oʻzgarish oqibatida terminlar safiga oʻtadi. Qoidaga koʻra umumadabiy tildan terminologik tizimga olingan soʻzlar muayyan ilmiy tushunchani ifodalash uchun xoslanadi, ilmiy termin maqomiga ega boʻladi.

Masalan, oʻzbek tili texnik terminologiyasi tizimida detallar, mexanizmlar, mashina qismlari hamda turli buyum-asboblarni anglatish uchun xoslangan *koʻz, oyoq, qadam, barmoq, qoʻlitiq, toʻsiq, qobirgʻa, ogʻiz, tirnoq, quloq, pichoq, quti, taroq, qozon, qoshiq, panja, musht, tuynuk, til, tish* singari soʻzlar talay miqdorni tashkil qiladi. Ilmiy matnlarda bu soʻzlar oʻzlarining birlamchi (denotativ) maʼnosini yoʻqotib, yakka maʼnoli ilmiy terminga aylanadi.

Ushbu maxsus tushunchalarni atash usuli anʼanaviy, obyektiv hamda juda sermahsul hisoblanadi.

Yangi terminlarni hosil qilish hisobiga mavjud ehtiyojlarni qondirish mushkul kechgan hollarda majburiy chora sifatida til lugʻat fondidagi soʻzlarga murojaat etiladi (Danilenko 1977; 23). Mazkur guruha tegishli soʻz-ot va termin-otlar har xil denotatlarni ifodalashi bilan oʻzaro farq qiladi. Baʼzi bir leksik birliklar misolida maxsus maʼnoning shakllanish jarayonini kuzatish mumkin.

Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida *ianaq* soʻzi 1) oʻyib yasalgan kichik hajmdagi yogʻoch idish; 2) kosa, tovoq, lagancha maʼnolarida qoʻllanagan (DTS 1969; 138). Bu leksema eski oʻzbek adabiy tilida “hayvonlar suv ichadigan idish”(ANATIL, III, 1984; 450) maʼnosini anglatgan. Fanning keyingi rivoji bosqichlari davrida kuzatilayotgan soʻz tibbiyot terminologiyasi tizimiga maxsus maʼnoni ifodalovchi termin sifatida kirgan hamda “tos suyagi, dumgʻaza suyagi” va “kosasimon oʻyiqli suyak” maʼnolarini ifodalashga yoʻnaltirilgan.

Yuqorida qayd etilgan vaziyatda hozirgi oʻzbek adabiy tilida oʻzining dastlabki maʼnosini yoʻqotgan umumisteʼmol soʻz maʼnosidan metaforik koʻchim asosida maxsus terminning yasaliish jarayoni yaqqol namoyon boʻladi. Chunonchi, *chanoq* tibbiy termini quyidagi sintagmatik birikmalar tarkibida faol qoʻllanishi bilan diqqatni tortadi: *katta chanoq* («taz bolshoy»), *bolalar chanogʻi* («taz detskiy»), *infantil chanoq* («taz infantilniy»), *kichik chanoq* («taz maliy»), *karlik chanoq* («taz karlikoviy»), *yassi chanoq* («taz ploskiy»), *yorilgan chanoq* («taz razsheplenniy»), *keng chanoq* («taz shirokiy»), *tor chanoq* («taz uzkiy») va h.k. (RLOʻTTIL 1999; 62).

Qoraxoniylar davri eski turkiy tilga sof turkcha *kuch* leksemasining sinonimi sifatida arab tilidan o'zlashgan *quvvat* so'zi mavhum "kuch, qudrat, mador" ma'nosini ifodalash uchun kirib kelgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ushbu o'zlashma umum tomonidan qo'llanuvchi so'z sifatida nafaqat o'z o'rnini mustahkam saqlab qolishga erishgan, balki fizika fani sohasida "energiya, quvvat" ma'nosini anglatuvchi termin tarzida ham keng ishlatiladi. Asl turkiy *kuch* so'ziga kelsak, u ko'lam chegaralari keng ko'pma'noli so'z sifatida "kuch-qudrat, quvvat" ma'nosida umumadabiy tilda hamon qo'llanib kelmoqda.

Umumilmiy leksika tarzida *kuch* fizika, texnika, harbiy ish, iqtisodiyot, huquqshunoslik sohalarida "qudrat", "kuchlar, qo'shinlar", "quvvat, qonuniy huquqqa egalik" kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qilmoqda - *iroda kuchi; Yerning tortish kuchi; ish//ishchi kuchi; mamlakatning harbiy kuchlari; yangi qonun kuchga kirdi* va h.k.

Umumadabiy leksik birlikning terminlashuv jarayoni natijasida omonimlashish sodir bo'ladi, ya'ni yangi ifodalanmish uchun ilgaridan ma'lum bo'lgan qobiqdan foydalaniladi (Danilenko 1977;27). Mana shunday usulda, masalan, *burun, qo'ltiq, bo'g'oz, qo'l, barmoq* kabi terminlar shakllangan.

Terminologik lug'atlarning salmoqli ulushini tashkil qiluvchi transterminlar o'z ifodasini shuningdek izohli, ensiklopedik hamda tarjima (umumiy va xususiy) lug'atlarda ham topadi.

Terminologik leksika va umumadabiy leksika o'rtasidagi munosabat ikki yoqlama kechadi. Terminlarning umumadabiy leksika doirasiga o'tishi ham ikki belgiga ega:

a) bir qism terminlar umumiy kundalik hayotga o'zlarining denotativ ma'nosida kiradi – *kompyuter, internet, kosmos, kosmik kema, kosmik apparat, SMS, bayonnoma, mavze, viloyat, tuman, fermer, birja, deputat, fakultet, audit, depozit, biznes, megabayt, investor* va h.k.;

b) boshqa guruh terminlar tub ma'noviy o'zgarishlar bilan o'zlashtiriladi. Masalan, botanikada qo'llanuvchi *bo'tako'z* («vasilek priplyusnutiy, vasilek siniy») termini umumadabiy tilda ham "ulkan chiroyli ko'zlar" ko'chma ma'noni, ham katta chiroyli ko'zli erkak yoki ayol kishini anglatadi (URSI 1988; 90).

Azaldan *bez* anatomik termini umumiy adabiy tilda "o'jar, qaysar" insonga nisbatan qo'llanib keladi (URSI, 1988; 56). Bo'ta zoologik termini umumiy adabiy tilda "o'g'il, bola, o'g'lon" majoziy ma'nosini ifodalaydi (URSI 1988; 90) va h.k.

Bu xildagi terminologik leksikaning umumiy qo'llanuvchi til tomonidan o'zlashtirilishi subyektiv omil hisoblanib, u nutqda ekspressivlikka oid muayyan ehtiyojni qondirishga qaratilgan bo'ladi. Terminologiyada faqat fan tili leksikasi tarkibida o'zining asl, nominativ-denotativ vazifasida istifoda etilishi aniqlangan. Ba'zi bir terminlarning umumadabiy leksikaga suqilib kirishi (va umumadabiy til lug'atlarida qayd etilishi), turli adabiyotlarda ommabopligi, yoyilganligi, qo'llanuvchanligi ularning adabiy til tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlaydi (Danilenko 1977;202).

O'zbek milliy tilining ikki turi hisoblanmish adabiy til va dialektlar o'zaro chambarchas bog'langan. Ma'lumki, qarindosh turkiy tillar orasida o'zbek tili sheva va lahjalarining ko'pligi va turfaligi jihatidan yaqqol ajralib turadi. O'zbek

milliy tilining uch mustaqil, ya'ni – a) qorluq-uyg'ur; b) qipchoq; v) o'g'uz dialektlari zaminida shakllanganligi ayni haqiqat (Polivanov 1933; Doniyorov 1979; Shoabdurahmonov 1962; Shoabdurahmonov 1976).

O'zbek tilining leksik boyligi ushbu dialektlardagi so'zlar hisobiga asrlar osha to'lib borgan. Kasb-hunar leksikasi, maishiy leksika, kiyim-kechak nomlari, qarindoshlik istilohlari, oziq-ovqat nomlari bevosita ko'p sonli shevalarning lug'at zahirasi yordamida shakllangan. Chunonchi, geografiyaga xos *arna*, *bo'g'oz*, geologiyaga oid *quv* va h.k. so'zlar shular jumlasidandir.

1100 dan ortiq mahalliy o'simlik nomlari o'zbek shevalari va lahjalari vakillari tilida faol qo'llanadi. Bular sirasiga *igir*, *qumarchiq*, *suvsumbul*, *ho'kiztili*, *g'ozyaproq*, *ko'kmaraz*, *oqsasir*, *randak* singari fitonimlarni kiritish mumkin. Keyingi vaqtlarda adabiy tilga dialektlardan *yelvizak*, *tangi* (tog'dagi tor so'qmoq), *sukchak*, *sinchalak*, *soz* (qamishli botqoq) kabi so'zlarning kirib kelishi oddiy holatga aylandi (Ishayev 1986,16-17). *Pilla*, *sizlog'ich*, *sachratqi*, *qorason*, *qizilcha*, *tirsak* singari sheva elementlarining tibbiy terminologiyada tez-tez ishlatilishi kuzatiladi.

Alohida shevaga oid so'zning adabiy tilga kirish tarixi har doim individual, o'ziga xos bo'lib, har xil lingvistik va ekstralingvistik omillarga bog'liq.

O'zbek adabiy tili tomonidan otlarning turfa nomlari xalq - sheva tilidan o'zlashtirilgan edi. Otlarning nomlanishida ularga xos belgilar:

tashqi ko'rinish- *qamishquloq*, *qilich oyoq*, *echki oyoq* va h.k.,

nasl – *laqayi*, *yovmuti*, *bayir* va h.k.,

rang turi va tuslar - *bo'z*, *qo'ng'ir*, *chipor*, *to'riq*, *g'irko'k* va h.k.,

yosh – *g'o'nan*, *do'nan*, *tallon*, *to'lon*, *kaltatoy* va h.k.,

odat, qiliq – *gajir*, *gijing*, *juyrug* va h.k. o'z in'ikosini topgan (Usmonov 1986; 89-910). Ayni shunday holatni o'zbek chorvachilik terminologiyasi tizimida ham kuzatish mumkin (O'rino'va 2007).

Sheva elementlarining tanlanishi va o'zbek tili terminologik leksikasi tarkibiga kiritilishining bosh sababi, shubhasiz, adabiy tilda kerakli ekvivalent so'zning mavjud bo'lmasligidir.

**3.1. Eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tili so'z boyligining leksikografik asarlarda aks etishi.** Turkiyshunoslikda eski turkiy til tushunchasi ostida X1-X1U asrlarda turkiy til xususiyatlarini aks ettirishga yo'naltirilgan nafaqat turkiy, balki noturkiy tillarda yaratilgan manbalar ham nazarda tutiladi. Eski turkiy til manbalari muayyan til qoidalari, ularda yuz bergan jarayonlar, qolaversa yozilish tarixi nuqtai nazaridan ilk eski turkiy til (X1-XP) va XSh-X1U asrlarda qo'llangan eski turkiy til tarzida tasniflanadi. Ilk eski turkiy til obidalari sirasiga asosan qoraxoniylar sulolasi hukmronlik qilgan vaqtda yuzaga kelgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Ahmad adib Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Ahmad Yassavining "Hikmatlari", Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimat ul-adab", muallifi noma'lum "O'g'uznoma" singari asrlar taalluqlidir. Bu asarlar shuningdek **dz** tilli manbalar deb yuritiladi. Ma'lumki, qadimgi turkiy tilning o'ziga xos jihatlaridan biri *yadag* "yayov, piyoda", *adag* "oyoq", *adgu* "ezgu", *qadg'u* "qayg'u, alam, iztirob" singari leksemalarning inlautida d fonemasi ishlatilgan. X-X1 asrlardan

e'tiboran mazkur fonemaning *dz* shakliga o'tishi qonuniyat tusini ola boshlagan va keltirilgan so'zlar *yadzag'*, *adzag'*, *adzgu*, *qadzg'u* tarzida qo'llanishda bo'lgan. XSh-XIU asrga kelib *dz* tovushining sekin-asta *y* tovushi bilan almashilish jarayoni kuzatiladi. Ushbu jarayon taxminan XU asr boshlariga qadar davom etgan. Ya'ni *yadzag'*, *adzag'*, *adzgu*, *qadzg'u* kabi sof turkiy so'zlar *yayag'*, *ayag'*, *ezgu*, *qayg'u* shakllari dam qo'llanavergan. Ba'zi manbalar matnida har uchala shaklli so'zlarning ishlatilganining guvohi bo'lamiz, Masalan: Nosiruddin Rabg'uziyning 1310 yilda Raboto'g'uz beki Nosiruddin To'qbo'g'abek iltimosiga ko'ra yaratilgan "Qisas Rabg'uziy" asari tilida "quduq" ma'nosini ifodalash uchun nafaqat so'zning asar yaratilgan davrga oid *qudzuq*, *quyuq* shakllari balki qadimgi *quduq* shakli ham ifodasini topgan. Mazkur ashyoviy material XIU asrda Xorazmda *d* tovushining *dz* tovushiga o'tish jarayoni to'la-to'kis yakunlamaganligi, ayni chog'da tilda etakchilik qilgan *dz* tovushining *y* tovushiga o'rini bo'shatib bera boshlaganidan dalolatdir. Ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tilida yuqorida tahlilga tortilgan leksemanining *quduq* rudument shakli saqlanib qolgan.

Nazariy m ashg'ultning birinchi mavzusida ta'kidlanganidek, o'zbek leksikografiyasi o'zoq shakllanish va rivojlanishning uch bosqichini kechirgan.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida foh arablar hamda salkam yuz yil taxt tepasida turgan somoniylar vaqtida qaddi dol holatiga tushib qolgan turkiy tilning qomati ma'lum darajada rostlandi, unda bir qator badiiy, didaktik, diniy, tarixiy asarlar yaratildi. Bizning kunimizga etib kelgan obidalar matnidan eski turkiy til so'z boyligining o'ta rang-barang, miqdor jihatdan salmoqli, asosan, o'z qatlamdan iborat bo'lganligini ilg'ash qiyinchilik tug'dirmaydi. Ayni chog'da eski turkiy til so'z boyligining rivojlanishda arab, fors-tojik tillarining ham sezilarli ta'siri bo'lganligini inkor etish mumkin emas, albatta. Eski turkiy til leksikasining o'ziga xos jihatlari o'sha davrlarda tuzilgan leksikografik manbalarda ravshan aksini topgan. Boy madaniy merosga ega bo'lgan turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining tarixida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari alohida ahamiyatga molik. "Devon" o'z davridagi turkiy qabilalarning so'z boyligi, lug'atini izohlashga, so'zlarning ma'no va ma'no nozikliklarini ochib berishga, turli qabila tillari o'rtasidagi xarakterli fonetik va morfologik farqlarni ko'rsatishga mo'ljallangan. Bu jihatdan lug'at S.Mutallibov ta'kidlaganidek, faqat izohli lug'atgina bo'lib qolmay, XI asr tilining fonetika va grammatikasi hamdir.

"Devon" XI asrda Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turkiy qabilarlar, urug'lar, qavmlar va ularning til xususiyatlarini o'rganishda, izlanishlar olib borishda hamda hozirgi turkiy xalqlarning shakllanish va qaror topishini belgilashda muhim siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga ega. Mahmud Koshg'ariyning sa'y harakati, ona tiliga bo'lgan cheksiz muhabbati, qolaversa, elga, yurtga bo'lgan fidoyligi natijasi o'laroq dunyo yuzini ko'rgan bu lug'at qadimgi turkiy til, eski turkiy va eski o'zbek adabiy tili obidalarini tushunish va o'rganish yo'lida qimmatli qo'llanma vazifasini o'tadi, o'tamoqda va o'taydi ham.

"Devon" Muqaddima va Lug'at qismidan iborat bo'lib, muqaddimada muallif turk tilining ahamiyati va xususiyatlari, o'z oldiga qo'ygan maqsadi, asarning strukturasi va tartibi, qo'llanilgan yozuv-alifbo, fe'llardan yasalgan

ismlar, soʻzlarning tuzilishi va oʻzgarishi, tilga olinmagan sifatlar, masdarlar xususida, turk tabaqalari va qabilalari borasida qisqacha maʼlumot keltiradi, ularning yashash joylarini doira(xarita)da tasvirlaydi.

Lugʻat qismida lugʻatnavis oʻsha davrda qoʻllanishda boʻlgan barcha turkiycha soʻzlarni qamrab olishga, izohlashga harakat qilgan, ularni etarli darajada ilmiy, tarixiy aspektlarda keng va toʻliq yoritib bergan. Lugʻatchining taʼkidlashicha, tilda isteʼmodan chiqqan soʻzlar lugʻatga kiritilmagan, Zero, ishlatishdan qolgan *raqa*, *aquz*, *ziqu*, *ziq* kabi soʻz(istorizm)larni izohlashga hojat boʻlmagan. Ayni paytda Mahmud Koshgʻariy eskirgan (arxaizm) soʻz namunasini koʻrsatib, ularning adad jihatdan koʻpligini eʼtirof etgan. Bu holat “Devon”da izohlangan tilning juda qadimiyligini belgilaydi.

Lugʻatdadan oʻrin olgan soʻzlar ikki, yaʼni ism va feʼllarga taqsimlangan holda izohlangan. Dastlab ismlar, soʻngra feʼllar berilgan. Ismlarda ham, feʼllarda ham oldin hamza (u, O, a) harflari bilan boshlagan soʻzlar, keyin maxsus alifbo tartibida b, t ba h.k. harflar bilan boshlangan leksemalar izohini topgan. “Devonda” oz harfli soʻzlar oldin, koʻp harfli soʻzlar esa keyin berilgan. Lugʻat muallifi eng kam harfli ism ikki, eng koʻp harfli ism etti harfli deb koʻrsatadi. Mahmud Koshgʻariy lugʻat materiallarini yigʻish asnosida nafaqat jonli soʻzlashuv tili materiallari, shuningdek eski turkiy til terminologiyasi tizimiga doir koʻpdan-koʻp istilohlarni ham toʻplagan va izohlagan. Chunonchi, *su* “lashkar, armiya”, *oq* “oʻq”, *im* “parol”, *alp* “qahramon, botir”, *sungu* “nayza”, *urush* “jang”, *atligʻ* “suvoriylar”, *tutgʻaq* “aygʻoqchi qism” va h.k., *qagʻan* “xoqon”, *xan* “xon”, *yafgʻu* “oliy lavozim egasi”, *tutuq* “harbiy gubernator singari ijtimoiy-siyosiy istilohlar shular jumlasidandir va h.k.

Eski turkiy va eski oʻzbek adabiy tili soʻz boyligini oʻzida mujassam etgan leksigrafik manbalar sirasiga avvalgi mavzuda taʼkidlaganidek arab tilida yaratilgan bir qator risolalarni kiritish oʻzini oqlaydi. Zotan, “Kitob ul-idrok”, “Tarjumon”, “At-tuhfa”, “Kitob –ul-bulgʻot”, “Al-qavonin” singari filologik risolalar asosan turk tilini oʻrgatish uchun moʻljallangan qoʻllanma vazifasini oʻtagan boʻlsa-da, biroq bu asarlarda turkiy tillarning soʻz boyligi, ularning strukturasi, tematik guruhlariga oid qimmatli maʼlumotlar aksini topgan.

Ashyoviy materiallarga murojaat qilamiz. Turkiy-qipchoq tili fonetikasi, leksik boyligi, morfologiyasini arab millati vakillariga tanishti rish uchun yuzaga chiqqan “Tarjumon turki va ajami va moʻgʻali” risolasi toʻrt qismdan iborat boʻlib, birinchi qismda ismlar, ikkinchi qismda feʼl masdari buyruq mayli, uchinchi qismda soʻzlarning turlanishi va feʼllarining tuslanishi, toʻrtinchi qismda soʻzlarning qoʻllanish qoidalar haqida mulohaza yuritigan. Asarning birinchi ismlar haqidagi qismi 26 faslni oʻz ichiga olgan. Bular: oson va unga tegishli narsalar, er va undagt joylar, daraxtlar, mevalar, oʻsimliklar, ekin va donlar, qushlar va ularga oʻxshash narsalar, yirtqich hayvonlar, hashorotlar, otlar va ularning turlari, ot abzali, qurol-aslaha va urush asboblari, tuya va qoramollar, qoʻy va echkilar, oziq-ovqat va sutlar, uy asbob-anjomlari, palos, ayollarga xos narsalar, kiyim-kechak, gazmol, uning xillari, insonning tashqi va ichki aʼzolari, son va sanoq sonlar, hunar turlari, martabalar, kishilarning sifatleri, har bir narsaning nomi va ularning zidi, vaqt, turki va turkiy boʻlmagan ismlarning izohi, ranglar va

ularning orttirma darajalari, ma'danlar, qarindosh urug'lar, xo'jayin, qul-cho'ri, tanish-bilishlar va darl-kasalliklar, dori-darmonlar va o'lim haqidagi fasllardan tashkil toptirilgan. Risolada turkiy til so'z boyligining qayd etilgan usulda taqdim etilishi bugungi kunda shakllangan tezaurus lug'atlari tuzish printsiplargi mos tushadi.

Ayni shunga yaqin fikrni "At-tuhfa"ning tuzilishi borasida ham bildirish mumkin. Harflar bo'limidan keyin bevosita so'zlarning izohi, ma'nosi ochilgan. Izohlanayotgan so'zlar qanday harf bilan boshlanishi jihatidan guruhlashtirilgan: hamza hafi bilan boshlanuvchi so'zlar-*tangri* "Olloh", *kichi* "kishi", *qadash* "aka", *tul* "tul", yalmag'ay, *saqalsiz* "saqolsiz", *solagay* "chapaqay", *tumav*, *tumag'* "tumov" va h.k., bG'p harfli so'zlar *qarin* "egov", *qizliq* "qizlik, bokiralik", *qut* "baxt", *qizg'ansh* "baxil", *abdal* "ahmoq", *kol* "ko'l" va h.k. Asar boy leksik materialni qamrab olgan bo'lib, unda katta miqdordagi sinonimlar, antonimlar, omonimlar qatori boshqa filologik risollarda qayd etilmagan leksemalarning ham mavjudligi bilan ahamiyat kasb etadi. Asarning leksik tarkibi taxminan 8000ga yaqin so'zlardan iborat bo'lib, 1729 tasi ot, 1185 tasi fe'l, 313 tasi sifat, 92 tasi son, 53 tasi olmosh, 34 ravish, 22 tasi bog'lovchi, 32tasi ko'makchi, 7 tasi yuklama, 6tasi undovlardir. Asarning lug'at qismi 36 tematik guruhni tashkil qiladi. Asar muallifi va boshqa tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "At-tuhfa"ning til materiallari turkiy tillar va shevalarga xos bo'lib, aralash tilning qipchoq-o'g'uz tipi xususiyatlarini ifodalaydi.

### **3.2. Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlar. 3.3. Alisher Navoiy va boshqa o'zbek adiblari asarlariga bag'ishlangan mumtoz lug'atlarning tuzilish printsiplari.**

XV asrning boshlaridan eski o'zbek adabiy tili to'raligicha y tiliga aylandi, ya'ni oldingi asrlarda qo'llangan bir qator so'zlarning inlautidagi *dz* tovushining y tovushiga o'tish jarayoni uzil-kesil yakuniga etdi. Ayni hodisaning yuz berganini eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan dastlabki asar hisoblanmish Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostoni yaqqol namoyish etadi.

Eski o'zbek adabiy tilining shakllanish va rivojlanishiga bebaho ulush qo'shgan Yaqiniy, Lutfiy, Otoiy, Sakkokiy, Muqimiy, Gadoiy singari shoirlarning nazamiy asarlarida XV asr o'zbek adabiy tili so'z boyligi ma'lum darajada ifodasini topgan. Biroq o'zbek tilining bundan taxminan besh asr muqaddam qo'llanishda bo'lgan lug'at xazinasini, mubolag'asiz, tilimizning tom ma'nodagi asoschisi, ulug' shoir va mutafakkir, yirik davlat arbobi, el-yurt homiysi hazrat Nizomuddin Mir Alisher Navoiyning ham nazm, ham nasrda bitilgan 32dan ortiq badiiy, tarixiy, ilmiy, didaktik asarlarida qayd etilgan. Turli janrlarda ijod qilgan Navoiy o'zbek tilining jozibasi, qudrati, imkoniyatlaridan istifoda etgan holda 26 mingdan ortiq so'z, so'z birikmalari, iboralarni qo'llab, tilimizning na qadar boy, serqirra, har qanday tushunchani ifodalash imkoniyatiga ega ekanligini jahon afkor ommasiga ro'y-rost ko'rsatdi. Alisher Navoiy eski o'zbek tili so'z fondida mavjud bo'lgan, kundalik turmush tarzida faol ishlatilgan so'zlarni asarlarida ishlatish, ularga turli ma'naviy vazifalar yuklash bilan cheklanib qolmadi, balki ona tilining keng imkoniyatlarini ishga solib ko'pdan-ko'p yangi so'zlar yaratdi, til lug'at

tarkibining boyishiga salmoqli xissa qo'shdi. Ta'kidlash joizki, Navoiy asarlarida omma uchun ma'nosi tushunarli bo'lgan so'zlar qatori, mazmun-mohiyatini anglash murakkab yoki qiyin hisoblangan leksik birliklar ham anchagina edi. Mana shu vaziyatdan chiqib ketish maqsadida shoir vafotidan so'ng uning asarlariga lug'atlar tuzish masalasi kun tartibidan o'rin olgan edi. Ushbu yo'nalishdagi dastlabki ish sifatida 1505 yili shaxsan Sulton Husayn Boyqaro mirzo tashabbusi bilan Toli Imoni Hiraviy tomonidan tuzilgan "Badoe ul-lug'at" sanaladi. Mazkur lug'atning tuzilish printsiplari, unda izohlangan so'zlar, tasdiqlovchi faktik materiallar xususida turkologiyada A.K.Borovkov, B.Hasanov, E.Umarov kabi olimlarning izlanishlarida kerakli ma'lumotlar berilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, lug'at asosan Navoiy asarlarida ishlatilgan sof turkiy(eski o'zbek)cha, mhg'ulcha va juda oz miqdorda arabcha so'zlarning forscha-tojikcha izohini berishga qaratilgan. Shu jihati bilan "Badoe ul-lug'at" ikki tilli lug'atlar turiga mansubdir. Bu davrga kelib ikki tilli lug'atlar tuzish borasida muayyan tajribaga erishilgan edi, arabcha-forscha, forscha-turkcha, turkcha-arabcha lug'atlar tuzigan bo'lib, leksikografik an-anganing mavjudligi Toli Imoni Hiraviyga sifatli lug'at yaratish imkonini berdi. Asardan jami 854 so'z o'rin olgan.

Ushbu lug'at maqolalarining tuzilish sxemasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan:

1. Lug'at maqolaning bosh so'zi – u fe'l, ot, sifat, son, olmosh, ravish, sifat-dosh, undovlar, yuklama va qo'shimchalar bo'lishi mumkin.
2. So'zning yozilishi va o'qilishiga oid fonetik qaydlar.
3. So'zning forscha tarjimasi yoki kengaytirilgan izohi . Bu erda so'zning etimologiyasi, ishlatilishiga doir turli ma'lumotlar keltiriladi.
4. So'zning shakli bo'yicha grammatik qaydlar.
5. Bosh so'z va undan yasalgan so'z shakllarining har biri ma'nosini tasdiqlash uchun keltirilgan she'riy parchalar.

"Badoe ul-lug'at"ning 1705-1706 yilda ko'chirilgan yagona nusxasi Sank-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin kutubxonasida saqlamoqda.

Rumiy tomonidan tuzilgan "Abushqa" lug'atining hozir 8 ta qo'lyozma nusxasidan 5tasi Sankt-Peterburgda, 32tasi O'zFA Sharqshunoslik ilmiy-tekshirish markazida saqlanmoqda. Lug'atning keng tarqalgan nomi uning ichiga kirgan so'zlarning birinchisi, ya'ni "Abushqa" (qariya, keksa) dan olingan. Lug'at dastlab H. Vamberi, undan keyin V.Velyaminov-Zernov tomonidan 1869 yildi Peterburgda nashr qilingan.

"Abushqa" o'z ichiga 2054 so'z va so'z shakllarini qairab olgan. So'zlar boshlanish harflariga ko'ra 21 bobga ajratilgan. Boblar o'z ichiga kirgan so'zlarining birinchi harfi nomi bilan, masalan, *al-harf al-alif*, *al-harf al-bo* tarzida nomlangan. Boshlanish harfi p va g bo'lgan so'zlar b va k boblariga kiritilgan. Boyi arabits (b), boyi ajami (p), kofi arabiy (k) va kofi ajamiy (g) ishoralari bu harflarning jarangli yoki jarangsizligini bildi radi. Ch harfi bilan boshlanuvchi so'zlar j bobida va ular uch nuqtasi bilan yozilani uchun fonetik qaydsiz keltirilgan. 21 bobning har biri o'z navbatida 3 qismga bo'lingan. Avvlg qismda birinchi harfi fathali, so'ng kasrali va bob oxirida birinchi harfi dammali

soʻzlar keladi. Quyidagi jadvalda “Abushqa” boblari, ularning tartibi va boblariga kirgan soʻzlar aksini topgan:

Boblar tartibi	alif	bo	to	jim	ho	xo	dol	ro	zo	sin	shin	Soʻzlar soni
560	204	350	122	1	4	61	5	1	165	12		

Boblar tartibi	to	gʻayn	fo	qof	kof	lom	mim	nun	ho	yo
----------------	----	-------	----	-----	-----	-----	-----	-----	----	----

Soʻzlar soni	3	10	11	187	144	6	45	21	4	138
--------------	---	----	----	-----	-----	---	----	----	---	-----

Shuni qayd etish zarurki, lugʻatda alifbo tartibi qatʼiy saqlangan emas. Masalan, lugʻat boshlanishida soʻzlarning ketma-ketldigi tubandagicha: *abushqa*, *abagʻa*, *ataldi*, *atqadi*, *atap*, *atagʻil*, *atip* va h.k. Bu soʻzlarni joylashti rishda alife tartibi saqlanganda ular *abagʻa*, *abushqa*, *at*, *atap*, *atagʻil* tartibida kelishi lozim boʻlar edi.”Abushqa” leksik materialni qamrab olishi nuqtai nazaridan “Badoe ul-lugʻat”ga nisbatan ancha boyligi bilan ahamiyat kasb etadi. Lugʻatda illyustrativ materiallar ruboiy boʻlsa toʻlaligicha, qazallandan esa faqt bir bayt keltirilgan.

“Abushqa”dan soʻng ikki asr davomida Alisher Navoiy va mumtoz oʻzbek adiblari, shoirlari asarlariga bagʻishlab tuzilgan lugʻatlar koʻzga tashlanmaydi. Eski oʻzbeksa-forsicha lugʻatnavislik anʼanalarining XUSH asrdagi taraqqiyoti Mirza Muhammad Mahdiyxon nomi bilan bogʻliq. Mahdiyxon Nodirshoh(1688-1747)ning shaxsiy munshiysi va saroy tarixchi sifati faoliyat yuritgan. Stilist yozuvchi, shoir ham boʻlgan Mahdiyxon keyinchalik Taxmosp P xizmatiga kirgan. 1748 “Tarixi Nodiriy” asarini bitadi. Ordan 11 yil oʻtgach, yaʼni 1759 yilda “Sanglox” ni poyoniga etkazadi. Lugʻatning moʻtabar nusxalari Britaniya muzeyi va Bodlen kutubxonasida saqlanadiyu Ayni nusxalar asosida 1960 yili J.Klason asarni nashr qilgan edi. “Sanglox” tarkib jihatdan Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan boshqa lugʻatlardan farq qiladi. Unining tarkibiga diqqat qaratamiz: Sanglox: Muqaddima va Maboni al-lugʻat (1b -26a), -lugʻat (27a-353a) - Tushunilmagan soʻz va baytlar- tazyil (353a-367a).Muallif lugʻatning kirishida Navoiy asarlari leksikasi va iboralarining salobati va qiyin (qattiqligi) bois kitodga “Sanglox” (toshloq) nom qoʻygani aytadi. “Badoe ul-lugʻat”, “Abushqa”dan tashqari ikkinchi Rumi, Farogʻiy, Nadr Ali, Mirzo Abduljalil Nasriylarning bizgacha etib kelmagan lugʻatlari boʻlganligi xususida maʼlumot beradi.

Asarnig “Maboni al-lugʻat” qismi eski oʻzbek tilining grammatikasiga bagʻishlangan. Navoiy asarlaridagi baʼzi qiyin arabiy va forsiy soʻz va iboralarni tushunishda lugʻat soʻnggida ilova qilingan “Zayl” koʻm ak beradi. Kitobning asosiy lugʻat qismi 5 juzvga taqsimlangan. Juzm(qism)lar kitodlar boʻlingan. Bularning ichiga kirgan har bir harf mustaqil kitobni tashkil etadi.

Har bir kitob ichiga kirgan soʻzlar birinchi harflarining harakasiga koʻra avval maftuhot, soʻng m azmumot va nihoyat maksurot boblariga yigʻilgan. Birinchi harfi alif, vov yoki yo harfli soʻzlar ham mazkur bob nomlari bilan nomlangan. Lugʻatdan jami 6181 lugʻat maqolasi oʻrin olgan. Lugʻat maqolalarining kengligi, soʻz shakllarini lugʻat maqola ichida va ularning maʼnolarini mumkin qadar toʻla va misollar bilan izohlash jihatidan “Sanglox” Navoiy asarlariga tuzilgan boshqa lugʻatlardan beqiyos darajada ustun turadi. Unda arab va fors leksikografiyasining uzoq vaqtlar davomida erishgan yutuqlarining tatbiqini koʻramiz.

Fathali Kojar tomonidan tuzilgan “Lugʻati atrokiya”ning hozirga qadar faqat ikki qoʻlyozma nusxasi etib kelgan. Bir nusxasini A.Romaskevich 1914 yilda



Tehronida sotib olgan. “Romaskevich nusxasi “deb ataluvchi bu nusxa Saltikov-Shchedrin kutubxonasida 1177 raqmi ostida saqlanmoqda.

Lug‘at 4 qismdan iborat: Muqaddima (1-12 varaqlar), Lug‘at (13-104 varaqlar), “Sanglox” muallifi Mahdiyxon echib bera solmagan 12 so‘z izohlari (405-407 varaqlar). Lug‘at jami 28 bobdan iborat bo‘lib, 7694 so‘zni qamrab olgan. Bu so‘zlarning uchdan bir (3G‘1) qismi bir o‘zakdan yasalgan so‘z shakllaridan iborat. Masalan, *ko‘rmak* fe‘lidan yasalgan *ko‘rar*, *ko‘rasiz*, *ko‘rding*, *ko‘rgali*, *ko‘rgan*, *ko‘ring*, *ko‘rmaduk*, *ko‘rmason*, *ko‘rmaydur* shular jumlasidandir. Lug‘atda so‘zlarni alifbe tartibiga solishda printsiplari yo‘q: *asrabani*, *andaq*, *abag‘a*, *avuchlabani*, *ara*, *altun tamg‘a* va h.k.

Lug‘atda nafaqat turkiycha, shuningdek 429 ta arabcha, forschani va 200 chamasi mo‘g‘ulcha so‘zlarning ham ma‘nosi izohlangan. Muallif ajar, ulta, edur, bayag‘, chapun, sanatin, qarimchi kabi so‘zlarning ma‘nosini tushunmaganini aytib o‘tgan.

### **Nazorat savollari:**

1. Qaysi asarlar ilk eski turkiy til manbalari sirasiga kiradi?
2. Dz tilli lug‘atlar deyishning ma‘nosini tushuntirib bering.
3. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asari qanday printsiplar asosida yaratilgan?
4. “Devonu lug‘otit turk”da asosasn qanday va qancha so‘z izohlangan?
5. “Devonu lug‘otit turk”ning o‘zbek lug‘atnavisligidagi o‘rni qanday?
6. “Muqaddimat ul-adab” necha tillik lug‘at?
7. Arab tilida yaratilgan filologik risolalarning o‘zbek leksikografiyasi shakllanishidagi roli qanday?
8. “Tarjumon turki va ajami va mo‘g‘ali”da leksemalarning qanday tematik guruhlari aks etgan?
9. “At-tuhfa” da so‘zlarning nechta mavzuiy guruhiga e‘tibor qaratilgan?
10. Alisher Navoiy asarlariga lug‘at tuzishning ob‘ektiv sabablari nimadan iborat edi?
11. Nima uchun Sulton Husayn Boyqaro Toli Imoni Hiraviy zimmasiga Alisher Navoiy asarlari lug‘itini tuzish vazifasini yukladi?
12. “Badoe ul-lug‘at”ning tuzilish printsiplari qanday edi?
13. “Sanglox”ni tuzishda Mahdiyxon qanday yo‘ldan bordi?
14. “Sanglox”ning struktursi xususida qanday fikr berasiz?
15. “Sanglox”da nechta so‘z- maqola mavjud?
16. “Lug‘ati atrokiya”ning nechta qo‘lyozma nusxasi bizgacha etib kelgan?

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O‘zbek tili ilmiy terminologiyasi necha turdan iborat?
2. O‘zbek terminologiyasining shakllanishi qachon boshlangan?
3. O‘zbek terminologiyasining rivojlanishida eski o‘zbek adabiy tilining roli qanday?
4. Ko‘hna manbalarda qo‘llangan istilohlarning o‘zbek terminologiyasida saqlanish darajasi qanday?

5. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida ishlatilgan harbiy istilohlar tizimini aniqlang.
6. “Boburnoma”da qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy istilohlar xususida mulohaza yuriting.
7. Ogahiy tarix asarlaridagi diplomatiya terminlarini belgilang.
8. Nujum ilmiga oid istilohlarning “Xamsa”da ifodalanishiga diqqat qiling.
9. Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarida qo‘llangan sinonim istilohlarni toping.

**Test:**

1. O‘zbek ilmiy terminologiyasida terminlarning nechta turi farqlanadi?  
A. 4  
V. 5  
S. 3  
D. 2
2. Har qanday tilning lug‘at boyligi nechta qatlamga taqsimlanadi?  
A. 2  
V. 3  
S. 4  
D. 5
3. Eski turkiy til manbalarida qo‘llangan 503 ta ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminning 390 tasi qaysi tilda saqlanib qolgan?  
A. o‘zbek  
V. turk  
S. ozarbayjon  
D. turkman
4. Elchi termini ilk bor qaysi adabiy tilda ishlatilgan?  
A. eski turkiy  
V. qadimgi turkiy  
S. eski o‘zbek  
D. so‘g‘d
5. O‘zbek tili terminlari genetik ko‘rinish nuqtai nazardan nechta guruhga bo‘linadi?  
A. 3  
V. 4  
S. 2  
D. 5
6. Terminologiyada stilistik vazifa bajarmaydigan leksik-sementik hodisani aniqlang.  
A. omonimiya

- V. antonimiya
- S. polisemiya
- D. sinonimiya

7. Qumbul//qunbul istilohi Alisher Navoiyning qaysi asarida qo‘llangan?

- A. Hayratu-ul-abror
- V. Farhod va Shirin
- S. Saddi Iskandariy
- D. Lison ut-tayr

8. –vul affiksi bilan yasalgan *nikavul* istilohi qaysi adib tomonidan qo‘llangan?

- A. Bobur
- V. Alisher Navoiy
- S. Ogahiy
- D. Muhammad Solih

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Transterminlashuvning nechta turi mavjud?
2. Umumadabiy so‘z qachon termin maqomiga ega bo‘ladi?
3. Terminologiya tizimining boyishida shevalarning roli qanday?
4. Qanday paytlarda terminlar tizimi sheva elementlari hisobiga kengaytiriladi?
5. Terminologik lug‘atlarda qayd etilgan sheva elementlaridan misollar keltiring.
6. Maxsus ma’noning shakllanishiga misol keltiring.
7. Terminologik leksika va umumadabiy leksika orasidagi munosabat xususida mulohaza yuriting.

### **Test:**

1. Transterminlashuvning nechta turini bilasiz?

- A. uch
- V. ikki
- S. to‘rt
- D. besh

2. “Tos suyagi, dumg‘aza suyagi” ma’nosini ifodalavchi terminni ko‘rsating.

- A. tovoq
- V. chanoq
- S. tuvoq
- D. quloq

3. Leksik birliklarning terminlashuvi jarayoni nimaga olib keladi?

- A. polisemiya
- V. antonimiya
- S. paronimiya

## S.omonimiya

4. Terminologik leksika va umumadabiy leksika o'rtasidagi munosabat qanday kechadi?

- A. ko'p tomonlama
- V. ikki tomonlama
- S. har tomonlama
- D. bir tomonlama

5. Terminlarning umumadabiy leksika doirasiga o'tishi nechta belgiga ega?

- A. ikki
- V. uch
- S. to'rt
- D. besh

6. *Quv* termini qaysi sohada qo'llanadi?

- A. zoologiya
- V. biologiya
- S. geologiya
- D. psixologiya

7. Pilla termini qaysi fan sohasida ishlatiladi?

- A. biologiya
- V. tibbiyot
- S. zoologiya
- D. botanika

8. *bayir* zoonimi otning qanday belgisini ifodalaydi?

- A. tashqi ko'rinish
- V. nasl
- S. odat, qiliq
- D. rang-tus.

## Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. I-IV.-Toshkent: Fan, 1983-1985.

2. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opo't lingvisticheskogo opisaniya.- M.,: Nauka, 1977.

3. Drevnetyurkskiy slovar.-L., 1969.

4. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi.-Toshkent: Fan, 1979.

5. Ismailov G'. O'zbek tili terminologik tizimida semantik usulda termin hosil bo'lishi. Filol.fan.nomz.diss.avtoref.-Toshkent, 2011.

6. Ismoilov M., Sharapov A. Tarix atamalari lug'ati.-Toshkent: «Akademnashr», 2013.

7. Ishaev A. Terminologiyamizning rivojlanishida o'zbek shevalarining o'rni. O'zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari. 1-respublika terminologiya konferentsiyasi materiallari.-Toshkent: Fan, 1986).
8. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I-III.-Toshkent, 1960-1963.
9. Ruscha-lotinja-o'zbekcha tibbiy terminlar izohli lug'ati.-Toshkent: Kamalak-Hamshira, 1999.
10. Ruscha-o'zbekcha lug'at. Ikki tomli. Tom I.-Toshkent, 1983.
11. Uzbeksko-russkiy slovar. O'zbekcha-ruscha lug'at. –Tashkent:1988.
12. Usmonov S. Yilqichilik terminlarini o'rganishning ayrim masalalri. O'zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari. 1-respublika terminologiya konferentsiyasi materiallari.-Toshkent: Fan, 1986.
13. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. - Toshkent, 1962.
14. O'zbek tilining izohli lug'ati. I-II. - M.: Russkiy yazo'k. 1981.
15. O'rinova O. O'zbek tilidagi qoramolchilik terminlarining leksik-semantik tadqiqi. Filol. fan. nomz. diss. avtoref.

### **3-modul. XX asr o'zbek terminologiyasining taraqqiyot tamoyillari, metodologik asoslari.**

#### **4-MAVZU. TERMINOLOGIYADA YUZAGA KELGAN MUAMMOLAR, ULARNING OMILLARI VA SABABLARI. MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK TERMINOLOGIYASI VA LEKSIKOGRAFIYASI. SOBIQ SHO'ROLAR DAVRI O'ZBEK TERMINOLOGIYASI.**

##### **Reja**

1. Terminologiyada yuzaga kelgan muammolar, ularning omillari va sabablari.
2. Mustaqillik davri o'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi.
3. Sobiq sho'rolar davri o'zbek terminologiyasi.

**Asosiy tushunchalar:** *“Davlat tili haqida”gi Qonun, baynalmilal terminlar, tub lug'at boylik, noilmiy terminlar, taraqqiy etish yo'li, yangi tushunchalar, so'z yasash imkoniyatlari, semantik usul, sintaktik usul, morfologik usul, arabcha o'zlashmalar, forsha-tojikcha o'zlashmalar, Atamashunoslik qo'mitasi.*

#### **4.1. Terminologiyada yuzaga kelgan muammolar, ularning omillari va sabablari.**

Sobiq sho'rolarlar davri o'zbek terminologiyasi. O'zbek terminologiyasining baynalmilal istilohlar hisobiga boyishi. Terminologiyada yuzaga kelgan muammolarni hal etish uchun bo'lgan harakatlar.

Hozirgi vaqtda o'zbek terminologiyasi har tomonlama shahdam qadamlar bilan taraqqiy etmoqda. Fan va texnika, siyosat, iqtisodiyot va madaniy hayotga doir asosiy tushunchalar mutanosib terminologiya tizimi bilan ta'minlangan. Mustaqillik yillari mamlakatda turfa ikki tilli, ko'p tilli hamda izohli lug'atlar

dunyo yuzini ko'rdi. Ayni paytda turli sohaga oid terminologik lug'atlar tuzish borasida jadal ishlar amalga oshirilmoqda, terminologiyaga oid o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyot nashrdan chiqmoqda. O'zbek terminologiyasining yanada rivojlanishida ommaviy axborot vositalarining o'rni salmoqli bo'lmoqda.

Hozirgi o'zbek tili muayyan terminologik tizimi boyishi, to'ldirilishi va takomillashishining bosh manbasi, boshqa tillarda kechayotganidek, shubhasiz, o'z lug'at boyligi ekanligi ayni haqiqat.

O'zbek terminologiyasining o'z boyliklari hisobiga taraqqiy etishi ikki yo'l bilan voqelanadi: a) tilda mavjud, tayyor so'zlardan yangi narsa-predmet va yangi tushunchalarni ifodalashda foydalanish: b) o'zbek adabiy tili so'z yasash imkoniyatlari ishtirokida yangi terminlar yaratish.

Yangi terminlarni ro'yobga keltirishda so'z yasashning morfologik, semantik va sintaktik usullaridan unumli istifoda etiladi. Terminlar yaratishda kalkalash usulining sezilarli roli bor.

O'zbek tili terminologiyasining ulkan ulushini ruscha-baynalmilal fond asosida yuzaga chiqqan nomlar tashkil etadi. Boshqa noturkiy tillardan o'zlashgan terminlar o'zbek xalqi faoliyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, sotsial, madaniy, ma'naviy jabhalarini qamrab olishi bilan xarakterlidir.

O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1989 yilning 21 oktyabrida "Davlat tili haqidagi" Qonunning qabul qilinishi o'zbek tili so'z boyligining asosiy qatlamlaridan hisoblanmish terminologik leksikaga yangicha munosabatda bo'lishni taqozo etdi.

Ushbu jahonshumul ahamiyatga molik Qonunning qabul qilinishidan so'ng, taxminan, 3-5 yil davomida ilgari tilda qo'llanishda bo'lgan terminlarni, ayniqsa, ruscha-baynalmilal qatlamni qaytadan qarab chiqish tendentsiyasi kuchayib ketdi. So'zsiz, bunday sa'y-harakatlar o'zbek tilining sofligini saqlash, uning asl tabiatini qayta tiklashga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etdi. Sobiq sho'rolar hukmronligi davrida o'zbek tili lug'at tarkibining shakllanishi va rivojlanishida alohida rolga ega bo'lgan ko'pdan-ko'p ko'hna so'zlar asossiz ravishda eskirgan leksik birliklar kategoriyasiga, ya'ni arxaizmlar sirasiga kiritilgan edi.

O'zbek ziyolilari, chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida tashkil qilingan Atamashunoslik qo'mitasining samarali mehnati evaziga *muxtoriyat, ma'muriyat, ma'mur, muqobil, hakam, tashrif, insonparvarlik, xususiy lashtirish, boshboshdoqlik, qoldiq (saldo), iqtisodiyot, ma'lumotnoma, reja, dastur, kengash* singari juda ko'p ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar qaytadan qo'llanishga kiritildi.

Biroq bu kezlarda terminlarni almashtirish va ishlatishda ma'lum chalkashlik hamda xatoliklarga ham yo'l qo'yildi. Terminologiyaga xos me'yorlarga har doim ham amal qilinmadi. Ilgari mavaffaqiyatli qo'llangan terminlarni muomaladan zo'rma-zo'raki siqib chiqarish, ularni so'z yasash qonuniyatlariga javob bermaydigan leksik birliklar bilan almashtirish harakati avj oldi.

Vaqtinchalik eyforiya natijasida totalitar tuzumga nisbatan yillar davomida shakllangan sovuqlik oqibatida qator ruscha-baynalmilal terminlarni almashtirish

harakati koʻzga yaqqol tashlandi. Masalan, *aeroport* termini oʻrnida *qoʻnalgʻa*, *tayyoragoh*, *bandargoh* terminlari ishlatila boshlandi, *institut* termini *oliygoh*, *ilmgoh*, *bilimgoh* soʻzlari bilan almashtirildi, *jurnal* termini oʻrnida *oynama*, *majalla*, *jarida*, *oybitik* soʻzlarini ishlatish tavsiya etildi va h.k. *Chetpul* (valyuta), *pultopar* (biznes), *hujjatasrov* (arxiv), *nusxakash* (notarius), *naqliyot* (transport), *malakasinov* (attestatsiya) singari yangi yasamalar sunʼiyligi, termin yasash meʼyorlarigi javob bermasligi bilan ajralib turar edi (Bektemirov 2002; 34). Bunday shoshqaloqlik oqibatida oʻzbek terminologiyasi tizimida noilmiy terminlar paydo boʻldi, terminlar tarkibida sinonimiyaning kuchayishiga olib keldi.

Maʼlumki, har qanday til, avvalambor, oʻz imkoniyatlari zaminida rivojlanadi. Ayni chogʻda, mamlakatlar, xalqlararo rang-barang munosabatlar har qanday tilda oʻzlashmalarning vujudga kelishida muhim omil hisoblanadi. Mazkur hodisa oʻzbek tili uchun ham yot emas.

Oʻzbek tilida katta miqdordagi arabcha va forsha-tojikcha oʻzlashmalarning qoʻllanishda qolayotgani sir emas. Bularning muayyan qismi ilmiy terminologiya tarkibida oʻz faolligini yoʻqotmagan. Xususan, *maktab*, *sinf*, *muallim*, *maʼruza*, *muvozanat*, *vazn*, *tijorat*, *bojxona*, *viloyat*, *falak*, *huquq*, *tarkib*, *matn*, *mavzu*, *hokim* va h.k. termin va soʻzlar nafaqat mutaxassislar, shuningdek aholining keng qatlamlari nutqida hech qanday qiyinchiliklarsiz faol ishlatiladi. Garchi, hozirgi vaqtda oʻzbek tilida terminlar yasash jarayonida arab va forsha-tojik tillari manba sifatida deyarli ishtirok etmasa-da, ammo oʻzga qarindosh turkiy tillarda boʻlgani singari oʻzbek tili lugʻat tarkibidagi terminlarning aksariyati shu qadimiy tillarga mansubdir. Bu oʻzlashmalar oʻzbek tilining fonetik va grammatik qoidalariga boʻysungan holda yangi mazmun kasb etgan va yangi voqelangan tushunchalarni ifodalashda xizmat qilmoqda.

Ruscha-baynalmilal soʻzlarning oʻzbek tiliga kirib kelishi XIX asrning birinchi yarmidan boshlangan boʻlib, uning haddan tashqari kuchayishi oʻlkaning Chor Rossiyasi tomonidan zabt etilishi, keyinchalik bu erda shoʻrolar hukmdorligining qaror topishi davriga toʻgʻri keladi.

Bu jarayon oʻzbek tili terminologiyasi dinamikasini kuzatishda yorqin namoyon boʻladi.

Oʻzbek tiliga xos ilmiy-texnikaviy terminlarning juda ulkan qismini boshqa tillardan oʻzlashgan leksik birliklar tashkil qiladi.

#### **4.2. Mustaqillik davri oʻzbek terminologiyasi va leksikografiyasi.**

Mustaqillik davrida oʻzbek terminologiyasi va leksikografiyasining oʻzbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda taraqqiy etishi.

Globallashuv va kompyuterlashtirish asrida Oʻzbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati safidan oʻrin olishi davlatlararo iqtisodiy, siyosiy, madaniy va h.k. aloqalarning qizgʻin, jadal oshishiga olib keldi.

Bunday munosabatlarning ijobiy natijalari nafaqat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy hayotda, shuningdek tilda ham oʻz ifodasini topmoqda. Soʻnggi yillarda oʻzbek terminologiyasi tayyor xorijiy leksik birliklar hamda ular anglatuvchi *akademik litsey*, *kollej*, *magistr*, *magistratura*, *bakalavr*, *tender*, *preferentsiya*, *investitsiya*, *litsenziya*, *diler*, *megapolis*, *ekologiya*, *ekspert*, *demping*, *inflyatsiya*, *kliring*, *supermarket*, *mini market*, *giper market*, *chat*, *paynet*,

*elektorat, narkobiznes, milliy aviakompaniya* va h.k. mutlaqo yangi tushunchalar va realiyalar hisobiga boyib bordi.

O'zbekiston Respublikasi olimlarining dunyoning rivojlangan mamlakatlari etakchi olimlari bilan o'rnatgan ilmiy-texnik munosabatlarning jadallashuvi, hamkorlikda dolzarb ilmiy masalalar ustida izlanishlar olib borishning yo'lga qo'yilishi, yosh iste'dod egalarining nufuzli chet el universitetlari va institutlarida o'qishi yoxud malaka oshirishi mos terminlarning yaqinlashuviga ko'mak beradi. Hozirgi o'zbek terminologiyasi uchun G'arb tillaridan, ayniqsa, ingliz tilidan ko'plab terminlarning quyilib kelishi diqqatga sazovordir.

Shu bilan bir qatorda, o'zbek tili terminlarining boshqa tillar tomonidan o'zlashtirilayotgani ajablanarli hol emas. Zero, so'z o'zlashtirish hodisasining ikki tomonlama sodir bo'lishi tilshunoslikda allaqachon tasdig'ini topgan.

Ta'kidlash joizki, 1999 yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusiga muvofiq o'zbek kurashi bo'yicha jahon birinchiligi o'tkazildi. Keyinchalik bu sport turining ommalashuvi va dunyo arenasiga chiqishi natijasida *kurash, yonbosh, chala, halol, g'irrom* kabi terminlar xalqaro sport terminologiyasining mulkiga aylandi (Bektemirov 2002;10). *Sharq taronalari* (vostochno'e melodiy), *o'zbek modeli* (uzbekskaya model) singari terminlar jahonga mashhur bo'ldi. Mahalla institutining qayta tiklanishi *fuqarolar yig'ini, fuqarolar yig'ini raisi, oqsaqol* va h.k. terminlarning o'zga tillar so'z boyligidan mustahkam o'rin olishiga yoki tarjima qilinishiga bois bo'ldi.

Qayd etish lozimki, o'zbek terminologiyasi tizimida xorijiy tillarga taalluqli tushunchalarni o'z ichki imkoniyatlar asosida ifodalash tamoyili etakchilik qilmoqda. Bunday jarayon paytida chetdan kelayotgan o'zlashmalarning bir qismi o'zbekcha mutanosiblari bilan almashtiriladi yoki tarjima qilinadi. Ushbu usul yangi tushunchalarni atashda o'ta qulayligi va mahsuldorligi bilan ajralib turadi.

Masalan, *aktsiyadorlik jamiyati* (aktsionernoe obshchestvo), *erkinlashtirish* (liberalizatsiya), *tijorat banki* (kommercheskiy bank), *muzyorar* (ledokol), *kichik biznes* (malo'y biznes), *soliq stavkasi* (nalogovaya stavka), *tadbirkor* (predprinimatel), *xususiy sektor* (chastniy sektor), *infratuzilma* (infrastruktura), *ekologik xavfsizlik* (ekologicheskaya bezopastnost), *siyosiy ekstremizm* (politicheskiy ekstremizm), *potentsial xavf-xatar* (potentsialnaya ugroza), *mintaqaviy mojaro* (regionalno'y konflikt) va h.k. shular jumlasidandir.

Chet tili terminlarini so'z yasash usullari (so'z yasovchi modellar) asosida yangidan yuzaga kelgan yasamalar bilan almashtirish jarayonida o'zbek tili lug'at fondida *oluvchi* (adresat), *jo'natuvchi* (adresant), *tavsiyanoma* (xarakteristika), *buyurtma* (zayavka), *narxnoma* (preyskurant), *ma'lumotnoma* (spravka), *fuqarolik* (poddanstvo), *daxlsizlik* (immunitet), *ishbilarmon* (predprinimatel), *ta'mirchi* (restavrator) singari ko'pgina terminlar mustahkam o'rnini topdi.

O'zbek tili terminologiyasi tizimida muayyan tushunchalarning muqobili bo'lmaganligi bois ularni bitta so'z bilan ifodalashning imkoniyati cheklangan. Kirib kelayotgan tushunchani bir qancha so'zlar yordamida izohlash yoki tavsiflash terminologiya talablariga ziddir. Mana shunday holatlarda ruscha-baynalmilal terminlar donor tilda qanday shaklda bo'lsa o'zbek tiliga ayni shu shaklda tayyor tarzda qabul qilinadi. Masalan: *byudjet* – byudjet, *kredit* - kredit,



*atom* - atom, *gidrolokatsiya* – gidrolokatsiya, *deduktsiya* - deduktsiya, *gerb* – gerb, *auditor* – auditor, *repatriatsiya* – repatriatsiya, *kommunikatsiya* – kommunikatsiya, *fraktsiya* – fraktsiya, *profitsit* – profitsit, *integratsiya*-integratsiya, *diplomatiya*-diplomatiya, *texnologiya*-texnologiya va h.k.

O'zbek tili terminologiyasining hozirgi holatida o'z hamda o'zlashma paralellarning yonma-yon qo'llanayotganiga shohid bo'lamiz. Ushbu jarayon avvalgi terminologiya tizimidagi me'yor va yangi leksik birlik o'rtasidagi qarama-qarshilikdan guvohlik beradi. Tabiiy, bulardan qaysi biri o'zbek tili terminologiyasi tizimidan munosib o'rin egallashini lisoniy hayot, nutqiy amaliyot va vaqt ko'rsatadi. Hozircha ikki variantli terminlar jumlasiga aktsiya - *harakat*, *aktsiya*, arxeolog– *qadimshunos*, *arxeolog*, blok - *ittifoq*, *blok* (deputatskiy), veto - *veto*, *ta'qiq*, ofitser – *zobit*, *ofitser*, reanimatsiya – *jonlantirish*, *reanimatsiya*, termin - *atama*, *termin*, embargo – *embargo*, *ta'qiqlash*, tsivilizatsiya – *tsivilizatsiya*, *tamaddun*, kollegiya – *hay'at*, *kollegiya*, denonsatsiya - *denonsatsiya*, *bekor qilish* singarilar kiritilmoqda.

Ba'zi vaziyatlarda, mabodo biror bir tushuncha ikki, ya'ni o'z va o'zlashma termin bilan ifodalansa, shubhasiz, afzallik o'zbekcha variantga beriladi – *tilshunoslik* (lingvistika), *nazoratchi* (inspektor), *qalam haqi* (gonorar), *nizom* (ustav), *giyohvandlik* (narkomaniya), *zahira* (rezerv), *tenglik* (paritet), *hokim* (mer), *jarroh* (xirurg) va h.k.

O'zlashma terminlarning ma'lum guruhi o'zbek tili qonunlariga bo'ysungan tarzda uning fonetik va grammatik xususiyatlariga moslashadi. Chunonchi, o'zlashma terminlarning o'zbek tili fonetikasiga moslashuvi quyidagi jihatlari bilan oydinlashadi:

- 1) fonemalarning qisqarishi: *avianosets* – *avinos*, *raketanosets* - *raketanos*;
- 2) fonemalardagi tovush almashinuvi: *mayak* – *mayoq*, *ochag* – *o'choq*, *plah-palatka* - *plashch-palatka* va h.k.

O'zbek tilida qurilishi jiddiy o'zgarishlarga uchragan o'zlashma terminlar kategoriyasiga komitet - *qo'mita*, bombardirovka – *bombardimon*, komanduyuhiy – *qo'mondon*, podryad – *pudrat* kabilarni kiritish o'rinlidir.

Hozirgi o'zbek terminologiyasi tizimida o'zlashmalardan o'zbekcha so'z yasovchi affikslar ishtirokida yangi hosil qilingan terminlar keng miqyosda qo'llanishga kirib kelmoqda. Xususan, bombardirovhik – *bombardimonchi*, dozimetrist – *dozimetrchi*, generalskiy- *generallik*, komissariat – *komissarlik*, patronno'y – *patronli*, gusenichniy – *gusenitsali*, betonirovanie – *betonlash*, ionizatsiya – *ionlanish*; *ionlash*, modernizatsiya – *modernizatsiyalash* kabi ashyoviy misollar qayd etilgan fikrni tasdiqlashga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillari o'zbek tili lug'at fondining boyib borishida respublika xalq xo'jaligi uchun mutlaqo yangi sohalarning shiddat bilan shakllanishi va rivojlanishi kabi favqulotda muhim omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 1996 yilda Andijon viloyati Asaka shahrida Janubiy Koreyaning DEU (DAEWOO) avtomobil korporatsiyasi bilan hamkorlikda "O'zDEU Avto" qo'shma korxonasi ishga tushirilishi natijasida O'zbekiston dunyodagi 28 ta avtomobilsozlik davlatlari qatoridan munosib o'rin oldi. 1999 yilda Samarqand shahrida "SamKochAvto" o'zbek-turk qo'shma korxonasi avtobuslar va yuk mashinalarni ishlab chiqarishga

kirishdi. Hozirgi paytda Yaponiya va Germaniya avtokompaniyalari hamkorligida "Isuzu" avtobuslari hamda "Man" yuk mashinalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

"O'zDEU Avto" qo'shma korxonasining amerika avtomobil ishlab chiqarish giganti "Jeneral Motors"(General Motors) tarkibiga singdirilishi oqibatida bugungi talablarga to'la javob beradigan, yuqori tezlikka ega, har tomonlama qulay hamda yoqilg'ini tejaydigan engil avtomobillarning yangi rusumlarini ishlab chiqarish maqsad qilib qo'yilgan. Buning natijasida o'zbek tilida ushbu soha terminologiyasi tubdan takomillashdi. O'zbek terminologiyasi *Tiko (Tiko), Damas (Damas), Nektsiya (Neksia), Lasetti (Lacetti), Matiz (Matiz), Spark (Spark), Epika (Epika), Kaptiva (Kaptiva), Malibu (Malibu), Kobolt (Cobolt)* singari Respublikada konveyerga qo'yilgan engil avtomobillarning tijoriy nomini anglatuvchi terminlar hisobiga yana ham boyidi.

Sobiq sho'rolar davlatining tanazzulga uchrashi va qulashidan keyin kommunistik mafkura bilan bog'liq barcha tushunchalar, ularni ifodalovchi so'z hamda terminlar o'zbek tili lug'at tarkibidan batamom barham topdi.

O'zbekiston mustaqil va suveren davlat sifatida jamiyatni tom ma'nodagi demokratiya asosida taraqqiy toptirish yo'lini tanladi. Demokratik jamiyatni va davlatni barpo etishda milliy davlatchilik an'anlariga aloqida e'tibor qaratildi. Milliy tiklanish va o'zlikni anglash yo'nalishi ustuvor, deb e'lon qilindi.

Turmushda tubdan sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy o'zgarishlar yangi tushunchalar, yangi nomlanishlarning voqelanishiga olib keldi. O'zbek tilining leksik xazinasini mustaqil mamlakat yuritayotgan milliy siyosatni aks ettiruvchi rang-barang so'zlar va terminlar bilan kengaydi. Bunday terminlar safiga tubandagi faktik misollarni kiritamiz: *milliy o'zlik, milliy davlatchilik, milliy siyosat, siyosiy islohot, ma'naviy qadriyat* (duxovnoe nasledstvo) va h.k.

Bo'linish tamoyillari negizida yangi davlat boshqaruvi organlarining tuzilishi va faoliyat olib borishi pirovard natijada *Oliy Majlis, senat, Vazirlar Mahkamasi, qonun chiqaruvchi organ, ijro etuvchi organ, sud hokimiyati, departament, kontsern, xolding, kompaniya, hokimlar instituti, nodavlat ijtimoiy birlashma, mas'uliyati cheklangan jamoa* kabi ko'pdan –ko'p terminlarning muomalaga kirishiga turtki berdi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tilishi asosida terminologik leksika *milliy valyuta, kichik biznes, o'rta biznes, xususiy tadbirkorlik, qimmatli qog'ozlar bozori, tadbirkorlar palatasi, konsalting, injiniring, lizing firma, biznes-inkubator* singari qator yangi terminlar bilan tag'in ham kengaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston kamdan-kam uchraydigan ulkan yoqilg'i-energetik mabalariga egligi bilan dong chiqargan. Neft, gaz va kondensatning g'oyat katta zahiralarini nafaqat ichki ehtiyojni to'la qondirish, balki ularni xorijga eksport qilish imkonini yaratdi.

Ushbu sohaga taalluqli *neft zaxirasi, neft koni, neft maxsulotlari, gaz kondensati, metan, propan, butan, polimer materiallar, polietilen, polivinilxlorid, nitrilakril kislota, suyultirilgan gaz, xom neft* singari turfa terminlar darsliklar,

o'quv qo'llanmalari, ilmiy-ommabop adabiyot hamda mahalliy matbuot sahifalarida faol qo'llanib kelmoqda.

Milliy istiqloldan so'ng O'zbekistonda kechgan agrar islohat, so'zsiz, qishloq xo'jaligini qayta qurishda etakchi ahamiyatga ega bo'ldi. Sobiq sho'rolardan qolgan kolxoz va sovxozlar tugatildi. Qabul qilingan Er kodeksiga muvofiq dehqon va fermer er mulkdoriga aylandi. Fermer xo'jaliklari o'zlariga bildirilgan umid va ishonchni sharaf bilan oqladilar. Respublika agrar sektorida olib borilgan islohatlar *mulkdor, mulkdorlar sinfi, fermer xo'jaligi, ko'p ukladli iqtisodiyot, tomorqa xo'jaligi, subsidiya, pay, investitsiya* singari mutlaqo yangi tushuncha va realiyalarning yuzaga chiqishini ta'minladi.

Hozirgi vaqtda fan va texnika sohlarida yuz berayotgan shiddatli rivojlanish respublika aholisi faoliyatining turli qirralariga samarali ta'sir o'tkazmoqda. Fan va texnika qo'lga kiritgan eng oxirgi muvaffaqiyat va yutuqlar asosidagi yangi texnika vositalariga egalik qilinmoqda. Ushbu texnika vositalari nomlarini anglatuvchi terminologik leksika o'zbek tili lug'at tarkibining kundan-kunga boyib, kengayib borishida munosib ulush bo'lib qo'shilmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda ta'kidlash lozimki, Mustaqillik davri o'zbek terminologiyasi o'z qaror topish yo'lining boshlanish nuqtasida turibdi. U o'zbek tilshunosligining muhim sohasi sifatida yillar davomida yig'ilgan tajribalar zaminida taraqqiy etmoqda va kengaymoqda.

### **3. Sobiq sho'rolar davri o'zbek terminologiyasi.**

1. Sobiq sho'rolar davri o'zbek terminologiyasi.
2. Fan va texnikaga oid terminlar tizimining shakllanishi.
3. O'zbek terminologiyasining ro'yobga chiqishi.
4. Ilmiy-texnikaviy va boshqa soha terminlarining o'zbek tiliga kalka qilinishi.
5. O'zbek terminologiyasining baynalmilal terminlar hisobiga kengayishi.

Hozirgi vaqtda o'zbek terminologiyasi har tomonlama shahdam qadamlar bilan taraqqiy etmoqda. Ilm, fan va texnika, siyosat, iqtisodiyot va madaniy hayotga doir asasiy tushunchalar mutanosib terminologiya tizimi bilan ta'minlangan. Mustaqillik yillari mamlakatda turfa ikki tilli, ko'p tilli hamda izohli lug'atlar dunyo yuzini ko'rdi. Ayni paytda turli sohaga oid terminologik lug'atlar tuzish borasida jadal ishlar amalga oshirilmoqda, terminologiyaga oid o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyot nashrdan chiqmoqda. O'zbek terminologiyasining yanada rivojlanishida ommaviy axborot vositalarining o'rni salmoqli bo'lmoqda.

Hozirgi o'zbek adabiy tili muayyan terminologik tizimi boyishi, to'ldirilishi va takomillashishining bosh manbasi, boshqa tillarda kechayotganidek, shubhasiz, o'z lug'at boyligi ekanligi ayni haqiqat.

O'zbek terminologiyasining o'z boyliklari va imkoniyatlari hisobiga taraqqiy etishi ikki yo'l bilan voqelanadi:

a) tilda mavjud, tayyor so'zlardan yangi narsa-predmet va tushunchalarni ifodalashda foydalanish:

b) o'zbek adabiy tili so'z yasash imkoniyatlari ishtirokida yangi terminlar yaratish.

Yangi terminlarni ro'yobga keltirishda so'z yasashning morfologik, semantik va sintaktik usullaridan unumli istifoda etiladi. Terminlar yaratishda kalkalash usulining ham sezilarli o'rni bor.

O'zbek tili terminologiyasining ulkan ulushini ruscha-baynalmilal fond asosida yuzaga chiqqan nomlar tashkil etadi. Boshqa noturkiy tillardan o'zlashgan terminlar o'zbek xalqi faoliyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, sotsial, madaniy, ma'naviy jabhalarini qamrab olganligi bilan xarakterlidir.

O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1989-yilning 21-oktabrida "Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi o'zbek tili so'z boyligining asosiy qatlamlaridan hisoblanmish terminologik leksikaga yangicha munosabatda bo'lishni taqozo etdi. Qonunning 7-moddasida ta'kidlanganidek, "Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi".

Ushbu jahonshumul ahamiyatga molik Qonunning qabul qilinishidan so'ng, taxminan, 3-5 yil davomida ilgaridan tilda qo'llanishda bo'lgan terminlarni, ayniqsa, ruscha-baynalmilal qatlamni qaytadan ko'rib chiqish tendensiyasi kuchayib ketdi. So'zsiz, bunday sa'y –harakatlar o'zbek tilining sofliğini saqlash, uning asl tabiatini qayta tiklashga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etdi. Sobiq sho'rolar hukmronligi davrida o'zbek tili lug'at tarkibining shakllanishi va rivojlanishida alohida rolga ega bo'lgan ko'pdan-ko'p ko'hna so'zlar asossiz ravishda eskirgan leksik birliklar kategoriyasi, ya'ni arxaizmlar sirasiga kiritilgan edi. Ayni nohaqlikni o'nglash, tarixiy haqiqatni tiklash muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan edi.

O'zbek ziyolilari, chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida tashkil qilingan Atamashunoslik qo'mitasining samarali mehnati *evaziga muxtoriyat, ma'muriyat, ma'mur, muqobil, hakam, tashrif, insonparvarlik, xususiy lashtirish, boshboshdoqlik, qoldiq (saldo), iqtisodiyot, ma'lumotnoma, reja, dastur, kengash* singari juda ko'p ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar qaytadan qo'llanishga kiritildi.

Biroq bu kezlarda terminlarni almashtirish va ishlatishda ma'lum chalkashlik hamda xatoliklarga ham yo'l qo'yildi. Terminologiyaga xos meyorlarga har doim ham amal qilinmadi. Ilgari muvaffaqiyatli qo'llangan terminlarni muomaladan zo'rma-zo'raki siqib chiqarish, ularni so'z yasash qonuniyatlariga javob bermaydigan leksik birliklar bilan almashtirish harakati avj oldi.

Vaqtinchalik eyforiya natijasida totalitar tuzumga nisbatan yillar davomida shakllangan sovuqlik oqibatida qator ruscha-baynalmilal terminlarni almashtirish harakati ko'zga yaqqol tashlandi. Masalan, *aeroport* termini o'rnida *qo'nalg'a, tayyoragoh, bandargoh* terminlari ishlatila boshlandi, *institut* termini *oliygoh, ilmgoh, bilimgo'h* so'zlari bilan almashtirildi, *jurnal* termini o'rnida *oynama, majalla, jarida, oybitik* so'zlarini ishlatish tavsiya etildi va h.k.

*Chetpul* (valyuta), *pultopar* (biznes), *hujjatasrov* (arxiv), *nusxakash* (notarius), *naqliyot* (transport), *malakasnov* (attestatsiya) singari yangi yasamalar sun'iyli, termin yasash meyorlariga javob bermasligi bilan ajralib turar edi

(Bektemirov 2002; 34). Bunday shoshqaloqlik oqibatida o'zbek terminologiyasida noilmiy terminlar paydo bo'ldi, terminlar tizimida sinonimiyaning kuchayishi yuz berdi.

Ma'lumki, har qanday til, avvalambor, o'z ichki imkoniyatlari zaminida rivojlanadi. Ayni chog'da, mamlakatlar va xalqlararo rang-barang munosabatlar har qanday tilda o'zlashmalarning vujudga kelishida muhim omil hisoblanadi. Mazkur hodisa o'zbek tili uchun ham yot emas.

O'zbek tilida katta miqdordagi arabcha va forsha-tojikcha o'zlashmalarning qo'llanishda qolayotgani sir emas. Bularning muayyan qismi ilmiy terminologiya tarkibida o'z faolligini yo'qotmagan. Xususan, *maktab, sinf, muallim, ma'ruza, muvozanat, vazn, tijorat, bojxona, viloyat, falak, huquq, tarkib, matn, mavzu, hokim, narx, payvand* singari termin hamda terminologik leksika nafaqat mutaxassislar, shuningdek, aholining keng qatlamlari nutqida hech qanday qiyinchiliksiz faol ishlatiladi. Garchi, hozirgi vaqtda o'zbek tilida terminlar yasash jarayonida arab va forsh-tojik tillari manba sifatida deyarli ishtirok etmasa-da, ammo o'zga qarindosh turkiy tillarda bo'lgani singari o'zbek tili lug'at tarkibidagi terminlarning aksariyati shu qadimiy tillarga mansubdir. Bu o'zlashmalar o'zbek tilining fonetik va grammatik qoidalariga bo'ysungan holda yangi mazmun kasb etgan va yangi voqelangan tushunchalarni ifodalashda xizmat qilmoqda.

Ruscha-baynalmilal so'z va terminlarning o'zbek tiliga kirib kelishi XIX asrning birinchi yarmidan boshlangan bo'lib, uning haddan tashqari kuchayishi o'lkaning Chor Rossiyasi tomonidan zabt etilishi, keyinchalik bu yerda sho'rolar hukmdorligining qaror topishi davriga to'g'ri keladi.

Bu jarayon o'zbek tili terminologiyasi dinamikasini kuzatishda yorqin namoyon bo'ladi.

O'zbek tiliga xos ilmiy-texnikaviy terminlarning ulkan qismini boshqa tillar (rus tili orqali lotin, yunon, german, roman va h.k.)dan o'zlashgan leksik birliklar tashkil qiladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O'zbek terminologiyasining ichki imkoniyatlari hisobiga rivojlanishi qanday holatda?
2. O'zbek terminologiyasining yasaliush usullari xususida bahslashing.
3. "Davlat tili haqada"gi Qonun terminologiyani monitoring qilishda qanday ahamiyatga ega?
4. O'tgan asrning 90-yillari o'zbek terminologiyasida sodir bo'lgan jarayonlar xususida fikr yuriting.
5. Hozirgi o'zbek terminologiyasi tarkibidagi arabcha o'zlashmalarga misollar keltiring.
6. Hozirgi o'zbek terminologiyasida qo'llanayotgan forsha-tojikcha o'zlashmalarga to'xtaling.
7. Hozirgi o'zbek tibbiy terminlar sirasida qo'llanayotgan lotincha o'zlashmalarni aniqlang.

### **Test:**

1. O'zbek terminologiyasining o'z boyliklari hisobiga taraqqiy etishi necha yo'l bilan voqelanadi?

- A. uch
- V. ikki
- S. to'rt
- D. besh

2. Termin yasashning nechta usulidan unumli istifoda etiladi?

- A. ikki
- V. uch
- S. to'rt
- D. besh

3. "Davlat tili haqida"gi Qonunning qaysi moddasida ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy terminlarni joriy etish hisobiga o'zbek tilining boyitilishi nazarda tutilgan?

- A. to'rtinchi
- V. beshinchi
- S. oltinchi
- D. yettinchi

4. 90-yillarda *pultopar* leksemasini qaysi termin o'rnida ishlatishga harakat qilingan edi?

- A. biznesmen
- V. biznes
- S. makler
- D. tojir

5. 90-yillarda *attestatsiya* o'zlashmasi o'rnida qaysi so'zni ishlatish tavsiya etilgan edi?

- A. malakaqog'oz
- V. malakapatta
- S. malakasinov
- D. malakaimtihon

6. "Yo'l xaritasi" birikma termini qanday usul bilan yasalgan?

- A. kompozitsiya
- V. affiksatsiya
- S. semantik
- D. kalkalash

7. *naqliyot* yasamasi nega ommalashmadi?

- A. sun'iyligi
- V. o'zga tilga oidligi

- S. ilgari qo‘llanmagani
- D. so‘z boyligida yo‘qligi

8. 90-yil boshlarida *bandargoh* o‘zlashmasi qaysi termin o‘rnida ishlatilgan edi?

- A. qo‘numgoh
- B. sayyorgoh
- S. bandargoh
- D. lashkargox

### **Nazorat savollari**

1. O‘zbek terminlar tizimining o‘z boyliklari hisobiga kengayishining nechta yo‘li bor?
2. Termin yasashning qanday usullaridan unimli foydalaniladi?
3. Terminlar yasashda kalkaning o‘rniga baho bering.
4. O‘zbek terminlar tizimida arabcha o‘zlashmalarning ahamiyati qanday?
5. Terminologiya maslalarining mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishini izohlang.
6. Istiqloldan keyin qanday terminlar jamiyat a‘zolari uchun xizmat qila boshladi?
7. Mustaqillik boshlarida noilmiy terminlarning paydo bo‘lishi qanday omillar bilan bog‘liq edi?
8. Qaysi o‘zbek sporti turi terminlari jahon tillari tomonidan o‘zlashtirilgan?
9. Qanday chet tili terminlari o‘zbekcha mutanosiblari bilan almashtirilmoqda?
10. Xorijiy o‘zlashmalarning o‘zbekcha tarjimalariga baho bering.
11. Qanday xorijiy o‘zlashma terminlar aynan, tayor qabul qilinadi?
12. O‘zbek milliy siyosati qaysi terminlarda ifodasini topgan?
13. Davlat boshqaruvi tizimi qanday terminlar hisobiga yanada boyidi?

### **Foydalanilgan adabiyot**

1. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1988.
2. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamalari. Toshkent: Fan, 2002.
3. Dadabaev X.A. Obhestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazo‘chno‘x pismenno‘x pamyatnikax XI-XIU vv. - Tashkent: Yozuvchi, 1991.
4. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opo‘t lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.
5. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.

**5-MAVZU. O‘ZBEK TERMINOLOGIYASINING BAYNALMILAL ISTILOHLAR HISOBIGA BOYISHI. TERMINOLOGIYADA YUZAGA KELGAN MUAMMOLARNI HAL ETISH UCHUN BO‘LGAN**

## **HARAKATLAR. MUSTAQILLIK DAVRIDA O‘ZBEK TERMINOLOGIYASI VA LEKSIKOGRAFIYASINING O‘ZBEK TILI TABIATIDAN KELIB CHIQQAN HOLDA TARAQQIY ETISHI.**

Reja

1. O‘zbek terminologiyasining baynalmilal istilohlar hisobiga boyishi.
2. Terminologiyada yuzaga kelgan muammolarni hal etish uchun bo‘lgan harakatlar.
3. Mustaqillik davrida o‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasining o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda taraqqiy etishi.

**Asosiy tushunchalar:** *adabiy til, til xususiyatlari, so‘zboylik, ijtimoiy-siyosiy terminlar, soliq va boj terminlari, tibbiy terminlar, ekstralingvistik omillar, terminlarning yasalishi, o‘zlashmalar, eski o‘zbek adabiy tili, zoonimlar, anatomik terminlar, astroponimlar, ijtimoiy-siyosiy hayot, termin yasash modellari, motivlangan terminlar, motivlanmagan terminlar, metonimik ko‘chim, affiksial termin yasash, sermahsul affiks, kammahsul qo‘shimcha, mutaxassislik terminlari, zoonimlar, texnikaviy terminlar, sohaviy terminologiya, guruhlashtirish, tizim, sheva va lahja materiallari, tilning ichki imkoniyatlari, ekstralingvistik omillar, texnologiya.*

### **XIX asr oxiri – XX asr boshi o‘zbek tili terminologiyasi.**

1. XIX asr oxiri – XX asr boshi o‘zbek tili terminologiyasi.
2. XIX asrning 70-yillarida jamiyatda sodir bo‘lgan siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlarning o‘zbek terminologiyasiga ta’siri.
3. O‘zbek tili terminologiyasining boyish manbalari.

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshida o‘zbek adabiy tili xalq turmush tarzida alohida, o‘zga xos o‘rinni egalladi. Bu davr adabiy tili va uslubida jiddiy va muhim jarayonlar yuzaga keldi. Ushbu jarayonlar o‘zbek xalqi hayotida sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning o‘zgarishi natijasida maydonga chiqdi. XIX asrning 70-yillaridan e’tiboran O‘rta Osiyo Rossiyaga qaram bo‘lib qoldi. Natijada mahalliy millat vakillari, xususan, ziyolilar orasida rus madaniyati ommalasha boshladi. Kapitalistik munosabatlar o‘zbek xalqi hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Ayni davrda keyinchalik progressiv-demokratik, deb nom olgan o‘zbek adabiyoti shakllandi.

#### **O‘zbek tili leksikasi va terminologiyasi uch manba asosida boyib bordi:**

o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari va qonunlari zahirida yuzaga kelgan terminlar: *bosmaxona, nizomnoma* “ustav”, *nishontosh* “yodgorlik”, *yig‘ilish* “majlis” va h.k.;

o‘zbek tili terminologiyasining jonli xalq tili so‘zlari hisobiga kengayishi yaqqol namoyon bo‘ldi: *bo‘zchi, bezgak, iskaptopar, arava* va h.k.;

ruscha-baynalmilal terminlarning o‘zbek tilida o‘zlashishi:

a) ijtimoiy-siyosiy terminlar – *uyezd, pristav, soldat, volost, дума* va h.k.;



b) transport bilan bog‘liq tushunchalarni anglatuvchi terminlar – *poyezd, vagon, vokzal, stansiya, depo* va h.k;

v) sanoat, tijorat va moliya tizimida qo‘llanuvchi terminlar – *zavod, fabrika, vistavka, magazin, kredit* va h.k.;

g) madaniyat, fan, maorif sohasi terinlari – *gimnaziya, teatr, gazeta, muzey, universitet, kafedra* va h.k.;

d) tibbiy terminlar – *gospital, lazaret, feldsher, doktor* va h.k.;

e) hujjat va mukofotlar nomlari – *medal, pasport, orden, attestat, diplom* va h.k.;

y) sudlov terminlari – *sud, sudya, zakon* va h.k.;

j) o‘lchov birliklari nomi – *pud, minuta, sajen* va h.k.;

z) harbiy terminlar – *general, korpus, konvoy, kapitan, leytenant, polkovnik, mayor* va h.k.

Zikr etilgan o‘zlashma terminlarning muayyan qismi keyinchalik ular anglatgan tushunchalarning turmushdan chiqib ketgani bois iste’moldan qoldi, ba’zilar esa o‘zbek tili so‘z xazinasida mavjud muqobillari bilan almashtirildi, salmoqli qismi esa o‘zbek tili terminologiyasi tizimida faol qo‘llanishda davom etdi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidlarning o‘zbek tili va madaniyati taraqqiyoti uchun kurash g‘oyasi keng yoyila boshladi. Bu harakat “Chig‘atoy gurungi” harakatining vujudga kelishi va uning yo‘lboshchisi, ta’lim, ma’naviyat, madaniyat jonkuyari Abdurauf Fitrat faoliyati bilan bog‘liq.

Turkistonlik jadidlar ona vatanlarini mustaqil, ozod holda ko‘rishni o‘zlarining bosh maqsadlari deb bildilar. Natijada jadidlarning xalqqa hamma narsadan oldin ma’rifat berish lozim, degan g‘oyasi yuzaga keldi. Xususan savod chiqarish, ona tilini har tomonlama puxta o‘rganish va shu orqali istiqloлга erishish birdan bir to‘g‘ri yo‘l ekanligini anglab yetganlar.

XIX asrning 50-yillaridan boshlab ma’naviy uyg‘onish sari yuz tutgan turkiy xalqlar millatning ko‘zgusi, taraqqiyot omili bo‘lgan til masalasiga jiddiy e’tibor bera boshladilar. Matbuotning yuzaga kelishi, nashr ishlarining yo‘lga qo‘yilishi natijasida maktab va maorifga e’tibor kuchaya bordi. Ma’rifatparvarlarning dunyoviy ilmu fan va madaniyat sari intilishlari ta’lim-tarbiya, ilmu fanni o‘rganish dolzarb masala ekanligi kun tartibiga kiritila bordi. Onda o‘zgarish bo‘lmaguncha, turmushda o‘zgarish bo‘lmashligini tushunib yetgan jadidchilar, ommani savodli qilmay turib istiqloлга erishib bo‘lmashligini angladilar.

XX asr boshlarida Turkistonda ochilgan usuli jadid maktablarida ona tili o‘qitish o‘quv rejasiga kiritilgan bo‘lib, muallimlar shogirdlariga til qoidalarini turk va tatar tillari uchun tuzilgan grammatikadan olib o‘qitmoqqa majbur bo‘ladilar. Chunki bu davrda o‘zbek tilining ilmiy qoidalari yoritilgan asarlar bo‘lmagan. Garchi XX asr boshlarida rus olimlari tomonidan o‘zbek tiliga oid bir qancha grammatik lug‘atlar tuzilgan bo‘lsa-da, ularda til qoidalari rus tili grammatikasi asosida izohlanganligi sabab o‘zbek o‘quvchilari ehtiyojini qondirolmagan.

Azaldan fan va madaniyat o'chog'iga aylangan Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlarida o'zbek tilini tadqiq etuvchi tilshunos olimlar guruhi faoliyat ko'rsata boshladi. Ular harf, alifbo, imlo muammolari ustida izlanishlar olib borib, o'zbek tilining ilmiy grammatikasini tuzishga kirishdilar. Natijada, bu davrga kelib grammatikaga oid bir qancha asarlar yuzaga keldi. Fitrat boshchiligidagi Chig'atoy gurungi a'zolari ilk bor o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganishga kirishadi. Ular til qoidalarini rus yoki arab tili grammatikalari asosida emas, balki shu tilning ichki xususiyatlari asosida yoritish kerakligini tushunib yetganligi sababli tarixiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, shevalar asosida material to'plab, ularni ilmiy jihatdan o'rgana boshladilar.

Istiqlolga bo'lgan intilish, xalqning ong-u tafakkuriga ma'rifatni singdirish yo'lida qilingan dastlabki ishlardan biri yangi maktablar ochish va ilmi toliblarga darslik-saboqliklar yaratish bo'ldi.

XX asrning boshlarida yurtimizda milliy uyg'onish harakatining boshlanishi munosabati bilan jadidlarning ma'rifiy, badiiy va publitsistik asarlarida turk tiliga xos bo'lgan so'z, fonetik va morfologik shakllarini qo'llash rusumga aylandi. Bu davrning mashhur pedagog va tilshunos nazaryotchilari Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Saidrasul Saidazizov, Elbek va boshqalar o'zbek tilini omma savodini chiqarish maqsadida isloh qilishga kirishdilar. Yangicha o'qitish, savod chiqarish uchun bo'lgan kurashlarning natijasi o'laroq darslik-saboqliklar yuzaga keldi.

O'rta Osiyoda birinchi marta o'zbek tilida tovush usulida xat-savod o'rgatish ishiga toshketlik Saidrasul Saidazizov kirishib, tovush usulida yaratgan kitobini "Ustodi avval" deb nomlagan va bu alifbe darsligi 1902 yildan har yili qayta-qayta nashr qilinib turgan. Muallif "Ustodi avval"ning "alifbe davri" oxirida bunday yozgan edi: "Alhamdulillah, bizlar ushbu bitilgan 33 saboqda harf o'qimoqni tamom qildik, 32 harf, 109 surat". (Surat deyilganda arab alifbosidagi harflarning yozuvda hosil qiladigan shakli nazarda tutilgan). XIX asrning oxiridan boshlab jadidchilik harakatlarida faol ishtirok eta boshlagan adib, murabbiy, muharrir, ma'rifatparvar, jamoat arbobi Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li (1878-1931) 1901 yilda o'z hovlisida, keyinchalik Toshkentning turli dahalarida jadid maktablarini ochadi. Bu maktablar uchun 1907 yilda "Adibi avval", "Adibi soniy" darsliklarini yaratadi. Bolalar uchun qator she'riy va nasriy hikoyalar yozadi. Is'hoqxon To'ra Ibrat (1862 – 1937) ma'rifatparvar shoir, zabardast tarixshunos olim, ilk o'zbek matbaachilaridan bo'lib, 1901 yilda "Lug'ati sitta alsina" asarini bosmadan chiqaradi. Muzkur lug'at jadid maktablarida sharq va rus tillarini o'rganishda birdan – bir qo'llanma sifatida foydalanib kelindi.

Abdurauf Fitrat ma'rifatparvar sifatida yangi maktablar uchun yangi darsliklar yozdi. Boshqa bir qator ma'rifatparvarlar ham bu davrda o'zbek tilining turli masalalariga bag'ishlangan asarlarini e'lon qildilar. M.M.Faxriddinovning "Turkcha qoida" (Toshkent, 1913), Elbekning "Bitik yo'llari" (Toshkent, 1919) va "Yozuv yo'llari" (Toshkent, 1921), Shorasul Zununning "O'zbekcha til qoidalari" (Toshkent, 1925), Munavvar Qori, Qayum Ramazon, Shorasul Zununning "O'zbekcha til saboqlig'i" (Toshkent, 1925) va boshqalar. Lekin ular orasida Fitratning "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba" nomli kitobi alohida

qimmatga ega va u o'zbek tilshunosligi tarixida o'zbek tilining fonetikasi sarf va nahvni izchil ravishda tavsiflovchi birinchi grammatika bo'lib qoldi.

20-yillarga kelib matbuot sahifalarida Elbek, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zununlarning o'zbek tili tovushlari masalalaridan bahs yurituvchi maqolalari ko'rina boshladi. Bular o'zbek tilshunosligidagi dastlabki jajji ilmiy maqolalar edi. 1919 yil Fitrat va Q.Ramazon o'zbek tili nazariy masalalariga bag'ishlangan "Bitim yo'llari" qo'llanmasini tuzdilar. Bu asar keyingi til saboqliklarining yuzaga kelishiga ijobiy ta'sir qildi. Elbekning birinchi "Yozuv yo'llari" darsligi ham "Bitim yo'llari" zahirida yaratildi. "Bitim yo'llari" o'qituvchilarga qo'llanma sifatida yaratilgan bo'lsa, Elbekning "Yozuv yo'llari" saboqlik-darslik shaklida tuzilgan edi. Unda boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallanganligi sababli faqat imlo qoidalariga e'tibor qaratilgan. Elbekning "Yozuv yo'llari" darsligi 1921 yil til-imlo qurultoyi to'xtamlari asosida, sodda tilda yozilgan. Tilshunos mazkur darslikni tuzishda imkon qadar sof o'zbekcha terminlardan foydalanishga harakat qilgan. 20-yillarda o'zbek tilining ilmiy grammatikasini tuzish o'zbek tilshunoslari oldida turgan asosiy muammolardan biri edi. Shu munosabat bilan Turkiston Maorif komissariyati huzuridagi bilim kengashida majlis o'tkaziladi. Kengashda o'zbek tilining grammatikasini tuzishda qanday yo'l tutilishi kerakligi haqida munozara bo'lib o'tgan. A.Sa'diy shu kunga qadar tuzilgan grammatikalar rus, arab tillariga taqlid tariqasida yozilganligi tufayli o'z ruh va tabiati istagan mantiqiy sarf-nahv emas, balki turk tillari uchun ahamiyati bo'lmagan shakliy sarf-nahvlar maydonga chiqib qolayotganligini ta'kidlaydi. Elbekning "Turk tillarining qonunlari to'g'risida mulohazalar" maqolasi shu kengash munosabati bilan yozilgan bo'lib, unda olim o'zbekcha bir kalima bilmasdan uning grammatikasini tuzmoqchi bo'lgan professorlarni tanqid qiladi. Bu vazifani o'zbek tilida so'zlashuvchi, uning butkul ruhi bilan tanish bo'lgan kishilargina bajarishga loyiqdir,- deb yozadi.

O'zbek tili grammatikasiga oid asarlarning yuzaga kelishida Fitrat, Munavvar Qori, SH.Rahimiy, Elbeklarning alohida xizmatlari bor. XX asrning 20-va 30-yillari boshida hozirgi o'zbek tili va terminologiyasi hamda imlosining nazariy asoslarini ishlashda, o'sha davrdagi yangi sho'ro maktablariga mo'ljallangan mukammal darslik va qo'llanmalar yaratishda Abdurauf Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" to'garagi, keyinchalik uning a'zolari ishtirokida O'zmaorifqo'm (O'znarkompros) qoshida tuzilgan O'zbek bilim hay'ati, O'zbek yangi alifbo markaziy qo'mitasi, Til-termin davlat qo'mitasi singari tashkilotlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Ularda faoliyat ko'rsatgan bir qator ma'rifatparvar va vatanparvarlarning g'ayratu tashabbuslari natijasida asosiy fan sohalari bo'yicha bir necha o'nlab darsliklar, o'quv qo'llanmalari, terminologik lug'atlar maydonga keldi.

Yangi tipdagi maktablar ochishda Abdulla Avloniy, Ibrat, Munavvar Qori, So'fizoda, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Ashurali Zohiriy, Abdurauf Fitrat singari vatanparvarlarning jonbozlik ko'rsatdi. Ularning ko'pchiligi yangi maktablar uchun darsliklar ham yozdilar.Xususan, Behbudiyning "Risolai asbobi savod", "Risolai jo'g'rofiyai umroniy", "Risolai jo'g'rofiyai Rusiy", "Kitobat ul-atfol"

(1905), “Amaliyoti islom”. “Tarixi islom”; Hamzaning “Qizil gul”, “Pushti gul”, Fitratning “Sarf”, “Nahv” singari asarlari ana shunday asarlardandir.

Yuqoridagi say-haraktlarning natijasi o‘laroq, 1930 yilda Fitrat o‘zining “Sarf” va “Nahv” asarlarini yozib o‘quvchilarga taqdim etadi. Ushbu asarining muqaddimasida A.Fitrat shunday deb yozgan edi: “...hanuz tilimizning belgili qoidalarini maydong‘a qo‘ya olmadiq. Yozuvlarimizning shakliga “birlik”, yangi yozg‘uchilarimizg‘a qulayliq bermak uchun tilimizning qat‘iy qoidalarini bildirish kerak. Hamadan burun u qoidalarni o‘zimizning-da bilishimiz lozimdir. Ilmiy axtarishlar bo‘lmag‘uncha bunlarning birtasi ham bo‘lajaq emasdir”.

Ma'lumki, o‘tib kelayotgan avlodning shakllanishida o‘quv-tarbiya jarayoni muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayon ona tili darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari yordamida amalga oshiriladi. XX asrning boshidanoq Turkistonda to‘qqiz oylik maktablar jadid (arabcha so‘z bo‘lib “yangi” ma’nosini bildiradi) lar orqali tashkil etilgan. O‘sha davrda ona tili darsliklari yaratilgan bo‘lib, o‘qituvchilar arab terminlari, tatar va turk tili grammatikasidan to‘liq foydalanishga majbur bo‘lishgan. Shuni ta’kidlash zarurki, bu va boshqa darsliklarning paydo bo‘lishidan oldin lingvistik terminlarning paydo bo‘lishi va ishlatilishi borasida qizg‘in bahslar olib borilgan. Ba’zilar arab-fors va rus tili terminlari tarafdori bo‘lsa, jadidchilar sof o‘zbek tili tomonida bo‘lgan. Ushbu masalaning yechimida Fitrat va Elbek kabi olimlarimiz muhim rol o‘ynadi. Abdurauf Fitrat o‘zining grammatikga oid “Sarf” asarini yozishdan maqsad haqida to‘xtalib shunday yozadi: “...man til qoidalari to‘g‘risida qo‘lda bo‘lgan narsalarni tuzib, terib shu bilikchani chiqardim. U, bir saboq bitigi emas, mutalaqa kitobidir. Tilimiz to‘g‘risida tugal, bir narsa emas, boshlang‘ichdir; ta’lif emas tajribadir. Buni saralamoq, tuzatmak, kengaytmak ishlari yigit kuchlarimizni jonli tebranishlarini kutadir.” Fitratning o‘zbek tilshunosligi sohasidagi eng katta xizmati shundaki, u ilk bor o‘zbek tilining milliy grammatikasining keyingi shakllanishi va rivojiga asos soldi, tamal toshini qo‘ydi. U birinchilardan bo‘lib, o‘zbek tilining grammatik qoidalarini ishlab chiqdi. Fitrat darsliklarida qo‘llangan terminlarning ko‘pchiligi hozirda ham qo‘llab kelinmoqda.

### **XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHI O‘ZBEK TERMINOLOGIYASI**

1. Terminlarning o‘zbek tili ichki imkoniyatlari va qonunlari zamidida voqelanishi.
2. Terminlar tizimining xalq jonli tili hisobiga kengayishi.
3. Ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy sohalarga xos chet terminlarning o‘zbek tili terminologik tizimiga ko‘p miqdorda kirib kelishi.
4. Terminlarning yasallashida faol modellarning o‘rni.

Ma'lumki, terminlar oddiy so‘zlar singari umumadabiy va maxsus leksikada bor bo‘lgan so‘z va o‘zaklardan yasalladi.

O‘zbek tili terminlari sistemasi o‘zga qarindosh turkiy tillardagi singari mavjud struktur turlar, ya’ni sodda, yasama, qo‘shma, qisqartma va so‘z birikmalarini qamrab oladi.

*-lash* affiksli so‘z yasovchi model.

Jarayon, xatti-harakat nomini ifodalovchi terminlar yasaydi: *akkreditlash, kurtaklash, payvandlash, standartlash, liofillash, parmalash, xromlash, frezerlash, alyuminlash, geperinlash, toblash, presslash, mexanizatsiyalash, ionlash, paypaslash* (tib.palpatsiya), *skanerlash* (tib.skanirovaniye), *betonlash, dezaktivatsiyalash, kodlash, trallash* va h.k.

-*lashtirish* affiksli soʻz yasovchi model.

-*lash* affiksli soʻz yasovchi model singari asosan ruscha-baynalmilal oʻzlashmalardan “hosil qiluvchi asosning nomi bilan atalgan taʼminot, asbob-uskuna, jihoz” (Danilenko 1977; 155) umumiy maʼnosini ifodalovchi terminlarni vujudga chiqaradi: *avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, telefonlashtirish, elektrlashtirish, pasportlashtirish, gazlashtirish, robotlashtirish, formallashtirish, liberallashtirish, atomlashtirish, kodlashtirish, niqoblashtirish, mexanizatsiyalashtirish* va h.k.

-*cha* affiksli soʻz yasovchi model.

Oʻzbek tili grammatikasiga doir asarlarda –*cha* ot turkumli soʻzlarning kichraytirish – erkalash shaklini yasovchi mahsuldor, urgʻuli affiks tarzida baholanadi (Kononov 1960;162; Mirzayev 1978;112).

Baʼzi bir ishlarda mazkur affiksning soʻz yasovchi qoʻshimcha ekanligi faktik materiallar koʻmagida isbotlangan. Kuzatilayotgan affiks (*oʻziyurar*) *aravacha, shponka ariqchasi, havo yostiqchasi, koʻchma vagoncha* (Doniyorov 1977; 96), *sichqoncha, (saf) maydoncha(si), zarracha* kabi bir qator fan-texnika sohasi terminlarini hosil qilishda qatnashadi.

Biologiya terminlari sistemasida -*cha* ishtirok etgan ayrim terminlar faol qoʻllanadi: *miyacha, qalpoqcha, katakcha, tangacha, tayoqcha, pufakcha, teshikcha, qiltiqcha, kokilcha* va h.k. (Olimxoʻjayeva1990; Rahimova; 2007).

-*boz* affiksli soʻz yasovchi model.

Ushbu model ilmiy terminologiya tizimida asl oʻzbekcha (turkiy), arabcha, forsha-tojikcha hamda ruscha-baynalmilal leksik birliklardan juda oz holatlarda biror-bir narsa bilan qiziquvchi shaxs nomini anglatuvchi terminlarni yuzaga chiqaradi: *buyruqboz, mushakboz, safsataboz, miltiqboz, ishqiboz, xotinboz, guruhboz* va h.k.

- *goh* affiksli soʻz yasovchi model.

Oʻzbek adabiy tili tarkibiga fors-tojik tilidan juda barvaqt oʻzlashgan –*goh* affiksi ishtirokida yuzaga kelgan bu model asosdan anglashilgan voqea-hodisa sodir boʻluvchi oʻrin, joy nomini ifodalaydi: *janggoh, askargoh, lashkargoh, qoʻnimgoh, oʻrdugoh, qarorgoh* va h.k.

-*don* affiksli soʻz yasovchi model.

Fors-tojik tilidan oʻzlashgan suffiksli ushbu model:

1) asosdan ifodalangan tarzda biror narsa saqlanadigan idish, narsani ifodalaydi: *tuxumdon, olovdon, oʻqdon, kuldon, siyohdon, bachadon* va h.k;

2)shaxsga xos sifat, xususiyat, fazilatni tavsiflovchi sifat-terminlarni hosil qiladi: *hisobdon, bilimdon* va h.k. Baʼzi bir ilmiy asarlarda oʻzbek tilida ikkita -don affiks-omonimining mavjudligi haqida fikr bildirilgan (Tursunov 1965).

-*dor* affiksli soʻz yasovchi model.

Fors-tojik tilining elementi bo'lmish *-dor* suffiksli nisbatan sermahsul model:

1) shaxs nomi: *bayroqdor, nishondor*;

2) mavjudlik, egalik sifatlarini yasashda qatnashadi: *zarbdor; mahsuldor, chiqimdor* (Usmonov O. 1975; 51-56), *hissador, aybdor, qarzdor, mansabdor, puldor, mulkdor va h.k.*

*-dosh* affiksli soʻz yasovchi model.

Mazkur qolip terminlar hosil qilishda mahsuldor boʻlib:

ijtimoiy sharoit, umumiy turmush, hamkorlik, hamdoʻstlik maʼnoli shaxslar nomini ifodalovchi ot-terminlar yasaydi: *yurtdosh, maslakdosh, quroldosh, kursdosh, polkdosh, frontdosh, sinfdosh* va h.k.;

boshlangʻich, dastlabki asosdan kelib chiqqan sifat, xususiyatni anglatuvchi terminlarni shakllantiradi: *jinsdosh, ohangdosh, yoʻldosh (tib. platsenta)* va h.k.;

baʼzi bir tilshunoslik terminlarini voqelantiradi: *sifatdosh, ravishdosh, undosh, shakldosh, oʻzakdosh, uyadosh, maʼnodosh, turdosh* va h.k.

Mazkur model oʻzbek tili texnika terminlarini yasashda qatnashmaydi. Ammo botanika terminlari tizimida oʻta sermahsulligi bilan ajralib turadi: *chinniguldosh, ayiqtovondoshlar, boshoqdosh, chuchmomadoshlar, ziradosh, raʼnodosh, tokdosh, gulnavshodadosh* va h.k.

*-doʻz* affiksli soʻz yasovchi model.

Forscha-tojikcha *-doʻz* suffiksli mazkur kammahsul model biror-bir narsa, buyumni tikuvchi shaxs nomini bildiradi: *moʻynadoʻz, etikdoʻz, kavushdoʻz, yelkandoʻz* va h.k.

*-kar, -kor // -garGʻ -gor* affiksli soʻz yasovchi model.

Fors-tojik tilidan kirib kelgan ushbu suffiksli model yordamida muayyan kasb-hunar egalarini anglatuvchi terminlar yasaladi: *chilangar, zargar, daʼvogar, sholikor, javobgar, tadbirkor, tajovuzkor* (Usmonov 1975; 51-56), *bastakor, qasoskor, hamkor* va h.k.

*-kash* affiksli soʻz yasovchi model.

Kelib chiqishi forscha-tojikcha hisoblanuvchi *-kash* affiksi ishtirokida yasalgan terminlar maʼlum kasb-hunar bilan mashgʻul shaxsni ifodalaydi: *chizmakash, arrakash, koʻchirmakash, tarafkash* va h.k. Oʻzbek tili texnika terminlarini hosil qilishda oʻta kammahsuldir.

– *noma* affiksli soʻz yasovchi model.

Forscha-tojikcha soʻz-affiksli ushbu model asosan hujjat, yozuv, xat, hujjat nomi namunasi maʼnosini anglatadigan terminlarni yasaydi (URSI 1988;723): *bayonnoma, vasiyatnoma, guvohnoma, ahdnoma, shartnoma, maʼlumotnoma, axborotnoma, shahodatnoma, sulhnoma, pandnoma, aybnoma, dalolatnoma* va h.k.

*-parast* affiksli soʻz yasovchi model.

Fors-tojik tiliga tegishli suffiks yordamida voqelangan ushbu model shaxsni nomlovchi terminlarni hosil qiladi: *amalparast, butparast, insonparast, shaxsiyatparast, xudoparast, aqidaparast, shahvatparast, qonunparast, hokimiyatparast* va h.k.

*-parvar* affiksli soʻz yasovchi model.

Fors-tojik tilidan o'zlashgan *-parvar* suffiksi ishtirokida reallashgan bu kammahsul model shaxs otini anglatuvchi oz sonli terminlarni yasaydi: *yetimparvar, vatanparvar, insonparvar, xalqparvar, sulhparvar, yurtparvar* va h.k.  
-soz affiksli so'z yasovchi model.

Forscha-tojikcha *-soz* suffiksli mazkur so'z yasovchi model shaxs nomini ifodalovchi ot-terminlar yasashda nisbatan faolligi bilan ajralib turadi. *-soz* suffiksi qatnashuvi bilan hosil qilingan qator derivatlarning o'zbek tili texnikaviy terminologiyasi tizimida nisbatan faol qo'llanishi kuzatiladi: *samolyotsoz, kemasoz, ko'piriksoz, soatsoz, traktorsoz, raketsoz, vertolyotsoz, metallsoz, asbobsoz, vagonsoz, stanoksoz, qurolsoz, robotsoz* va h.k.

-*furush* affiksli so'z yasovchi model.

Fors-tojik tiliga xos *-furush* suffiksi ko'magida voqelangan mazkur kammahsul model o'rni bilan shaxs otini anglatuvchi terminlar yasashda ko'zga tashlanadi: *vatanfurush, og'ufurush, tamakifurush, odamfurush, nashafurush, nosfurush, xotinfurush, valyutafurush* va h.k.

-xo'r affiksli so'z yasovchi model.

Bu kammahsul model ba'zan:

1) shaxsni: *odamxo'r, araqxo'r, tekinxo'r*;

2) hayvonlarni ifodalovchi termin(zoonim)larni yasashda qatnashadi: *arixo'r(lar), asalxo'r, morxo'r, chumolixo'rlar, go'shtxo'r, o'txo'r* va h.k.

-*shunos* affiksli so'z yasovchi model.

Kelib chiqishi nuqtai nazaridan forsha-tojikcha hisoblanuvchi *-shunos* suffiksli bu qolip o'zbek tili terminologiyasi tarkibida aksariyat rus tilidagi ikkinchi komponenti *-ved* suffiksli yasamalarga mos tushuvchi, mazmunan shaxs nomini ifodalovchi terminlarni shakllantiradi (Kononov 1960; 110): *qonunshunos* (pravoved), *sharqshunos* (vostokoved), *mashinashunos* (spetsialist po mashinam), *ruhshunos* (psixolog), *xitoyshunos* (kitayeved), *tilshunos* (yazikoved), *eronshunos* (iranist), *matnshunos* (tekstolog), *siyosatshunos* (politolog), *huquqshunos* (yurist), *hayvonshunos, tabiatshunos* va h.k.

2. Fe'l asoslardan yasalgan ot-terminlar.-g'*ichG'gich*//*-qich*—*kich* affiksli model.

-g'*ichG'gich* (jarangli undoshlardan keyin) // *-qichG'-kich* (jarangsiz undoshlardan keyin) affiksi yordamida yasalgan ot-terminlar.

Azaldan mazkur ko'hna tub affiksning bosh vazifasi o'timli fe'llar o'zagidan sodir bo'ladigan ish-harakat vositasi yoki qurol-aslahani ifodalovchi terminlar hosil qilish hisoblangan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridayoq *orkuch* "uch oyoqlik qozon" (DLT,1,121), *yerguch* "qilichsimon tayoq" (DLT,1,422), *bichg'uch* "qaychi" (DLT,1,421) kabi terminlar o'z ifodasini topgan.

Hozirgi o'zbek tili terminologiyasi tizimida -g'*ichG'-gich*//*-qichG'-kich* affiksi o'ta mahsuldor bo'lib, uning ishtirokida ulkan miqdordagi terminlar hosil qilinmoqda. Masalan, "Mexanizatorlar uchun lug'at-ma'lumotnoma"da mashina, asbob-uskuna, mexanizmlar va ularning detellari hamda qismlari nomlarini anglatadigan 422 termin o'z aksini topgan. Qayd etilgan terminlardan 78 tasi ko'rilyotgan affiks (variantlari bilan)ning faol qatnashuvida yasalgan (Doniyorov 1977; 90-91).

Binobarin, -g'ichG'-gich//-qichG'-kich affiksli model quyidagi mazmundagi terminlarni hosil qiladi:

ish-harakatni bajaruvchi qurol-aslaha yoxud vosita nomini bildiradi: *ajratqich, qorg'ich, ag'darg'ich, bug'latgich, qisqich, purkagich, to'plagich, to'sqich, kuchaytirgich, tishcharxlagich, chizg'ich, sovutgich* (1. biol. «oxladitel»; 2. maxs. «xolodilnik»), *o'tkazgich, suzg'ich, suzgich, qirg'ich, o'lchagich, sug'orgich, to'g'rilagich, qaytargich (mayoq), portlatgich, o'lchagich* va h.k;

ba'zan: a) ish-harakat subyekti (o'timli fe'llardan)- *yirtqich*; b) ish-harakat o'rini, joyi: *bosqich*; v) ish-harakat sifati, xususiyatini ifodalaydi: *tishlong'ich* (tishla-moq) (Kononov 1960; 119-120).

-(i)sh affiksli so'z yasovchi model.

Mazkur sermahsul model hozirgi o'zbek adabiy tilida tubandagi terminlarni hosil qiladi:

ish, harakat nomini bildiradi – *siljish, otish, tutish, quturish, achish, bijg'ish, so'rilish, yoyilish, minalashtirish* (harb.) va h.k.;

hodisa, jarayon, ba'zan natija yoki harakat nomini uning aniq moddiy ifodasidan kelib chiqqan tarzda ifodalaydi (Kononov 1960; 116): *urush, urish (tib. yurak urishi), quyilish, bukish, purkash, g'umbaklashish, urug'lanish, changlanish, chekinish, qo'riqlash, shishish, yaralanish* va h.k.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida katta ko'lamdagi texnika terminlarining aynan – (i)sh affiksli model yordamida yasalayotganini alohida ta'kidlash zarur.

Biz tomondan olib borilgan kuzatuv –(i)sh affiksining ayniqsa hozirgi o'zbek tili harbiy terminologiyasi tarkibiga kiruvchi terminlarni yasashda faol va mahsuldor ekanligini ko'rsatdi. Ushbu affiks fe'l asoslarga qo'shilib talay motivlangan terminlarni hosil qiladi: *og'ish, tutish, uchish, qo'nish, portlash, saflash, qo'riqlash, niqoblash, tekshirish, kodlashtirish, tisarilish, pelenglash, bazalashtirish, panalash, qirish, chekinish* va h.k.

Tahlilga tortilayotgan model shuningdek, huquqiy terminlarni ham yasashda faolligi va mahsuldorligi bilan xarakterlanadi: *undirish, takomillashtirish, aniqlash, tugatish, almashtirish, qonunlashtirish* va h.k.

Ayni holatni jismoniy tarbiya va sport terminologiyasida ham kuzatamiz: *sakrash, suzish, chopish, yiqitish, urish (gol), uzatish* va h.k.

-ma affiksli so'z yasovchi model.

XIV asrdan e'tiboran faol qo'llanashga kirgan urg'u tushuvchi –ma affiksli sermahsul model quyidagi turfa ma'no-mazmunlarni ifodalovchi terminlarni yuzaga keltiradi:

1) natija, voqea-hodisa, jarayon, kamdan-kam hollarda esa ish-harakat nomini ifodalaydi (Kononov 1960;118): *otishma, payvandlama, ko'chirma, aylanma* (1.suv o'rami; 2. doira), *ko'rgazma, tenglama* (mat.), *qo'chma* (til.ma'no), *yollanma* (harb. armiya), *aylanma* (harb. harakat), *qo'shilma* (harb.), *uzatma* (sport) va h.k.;

2) kasallik turlarni bildiradi: *toshma, bo'g'ma, terlama, qichima, o'sma* va h.k.;

3) taom, ovqat nomlarini anglatadi: *dimlama, qiyma, suzma, o'rama, qatlama, qaynatma* va h.k.;



4) narsa-predmet, buyum nomini ifodalaydi: *tortma, chizma, chatishma, tirkama, to'shama, moslama* (asbob), *quyma, bosma* (qo'l richagi), *to'qima, eritma, qorishma, aralashma, ag'darma, qurilma, sochma* (harb. o'q), *yig'ma* (harb. ko'prik), *ko'tarma* (harb. ko'prik; tex. kran), *tirkama* va h.k.

Xullas, yuqorida keltirilgan ashyoviy materiallar *-ma* affiksli modelning ham ilmiy, ham texnikaviy ma'noni anglatuvchi terminlar yasashdagi mahsuldorligidan dalolat beradi.

*-(u)v//-(o)v* affiksli so'z yasovchi model.

O'zbek adabiy tili grammatikasiga xos mavjud adabiyotlarning ba'zi birlarida *-(u)v //-(o)v* affiksi kammahsul deb e'tirof etilsa (Kononov 1960; 117; Begmatov 1985; 140), boshqa birida mahsuldor tarzida baholangan (Karimov 1985; 22). Bizning kuzatishlarimiz tahlil etilayotgan so'z yasovchi affiksning harbiy, ijtimoiy-siyosiy, yuridik va h.k. terminologik tizimlarda haqiqatdan ham sermahsulligini tasdiqladi.

*-(u) v//-(o) v* affiksi (*-i* fonemali asoslar ushbu affiks bilan birkkanda *-i* ning *-u* fonemasiga o'tishi kuzatiladi):

a) jarayon, voqea, hodisani ifodalaydi— *siquv, tintuv; qurshov* (*-a* fonemali fe'l asoslari bu qo'shimcha bilan munosabatga kirishganda undagi *-a* fonemasining *-o* fonemasiga o'tishi voqelanadi), *kechuv, qidiruv, ishlov, surishtiruv, cheklov, almashuv, singuv, o'rnashuv, yemiruv, kemiruv* va h.k.;

b) ish-harakatning nomi yoxud natijasini anglatadi: *to'qnashuv, tergov, to'lov, o'lchov* va h.k.

Demak, *-(u)v//-(o)v* affiksli modelning hozirgi o'zbek adabiy tilida ot-terminlar hosil qilishdagi vazifasi ancha faollashgan. Ta'kidlangan jihatni mazkur affiks ko'magida yuzaga chiqqan turfa xarakterdagi terminlar ham tasdiqlaydi: *tortishuv* (fiz.; tib.) *saylov, to'lov, kelishuv, bitishuv* (til.), *so'rov, aralashuv, kuzatuv* (harb.) va h.k.

*-(i)m//-(a)mG'-G'(u)m* affiksli so'z yasovchi model.

Bu model nisbatan kammahsul hisoblanib, quyidagi ma'nolarni ifodalovchi terminlarni hosil qiladi:

a) natija, voqea-hodisa, jarayon yoki ish-harakat nomini anglatadi - *bosim, chiqim, kirim, bitim, ajrim* (ajra-moq), *bo'lim, qatlam, yuqum, cig'im, otim, oqim, tizim* va h.k.;

b) kam hollarda narsa, buyum otini bildiradi (Kononov 1960;140; Begmatov 1977;117) - *to'plam, to'qim, so'qim* (so'q-moq "urmoq"), *sig'im, qoplam* va h.k.

*-g'iG' - giG' -g'u//qiG' - ki* affiksli so'z yasovchi model.

Mazkur *-g'iG' -gi//u//qiG' -ki* affiksi nisbatan keyingi davrlarda shakllangan *-(u)v* varianti qatori muayyan ma'noga ega ot-terminlar yasaydi (Kononov 1960;121; Shoabdurahmonov 1980):

a) ish-harakat vositasini ifodalaydi: *tepki* 1 (1. harb.; 2.maxs.), *tepki* II (tib.), *chopqi, chalg'i, chalg'u* (mus.), *burg'i, burg'u* va h.k.;

b) onda-sonda ish -harakatni ataydi: *urg'u*;

v) natija, ish - harakat predmetini bildiradi: *achitqi, yoqilg'i, yonilg'i, ko'chki, kuydirgi* (tib.), *sachratqi* 1 (bot.); *sachratqi* II (tib.) va h.k.

*-(a)q, -/(i)q, - (i)k* affiksli so'z yasovchi model.

Tarixan -g'oq//-qoq affiksali shaklga borib taqaluvchi -(a)q//-(i)q affiksi (Kononov 1960;121; Shoabdurahmonov 1980; 183) nisbatan mahsuldor bo'lib, bir qancha ma'noni ifodalovchi ot-terminlarni hosil qilishda qatnashadi:

a) ish-harakat nomini yoki uning amalga oshganligini bildiradi: o'toq, guldurak, buyruq (buyur-moq), chaqiriq, ko'rik, so'roq, tarqoq (harb.) va h.k.;

b) ish-harakat natijasi yoxud jarayonini anglatadi: to'siq, yoriq, qavariq, chirik, soliq, yoyiq (harb. saf) va h.k.;

v) obyekt, o'rin, joy nomini ifodalaydi: yo'lak, kechik, toshloq (toshla-moq), qamoq (qama-moq) va h.k.;

g) ish-harakat vositasini ataydi: o'roq, pichoq, tuzoq, taroq;

d) o'xtin-o'xtin ish-harakat egasi (subyekti)ni anglatadi: qochoq va h.k.

-qon//-ganG'-kan affiksli so'z yasovchi model.

Mazkur kammahsul model yordamida ish-harakatning vositasi, narsa-predmeti ma'nosini ifodalovchi ot (sifat) turkumiga xos terminlar yasalgan bo'lib, ular azaldan o'zbek adabiy tili so'z xazinasida o'z aksini topgan: bosqon, qopqon, yelkan, o'pqon va h.k.

-qoq//-g'oq affiksli so'z yasovchi model.

Ushbu -qoq//-g'oq affiksli kammahsul model ba'zi bir terminlarni yasashdagina qatnashganligi bilan xarakterlanadi: qazg'oq (qazi-moq), qadoq (qada-moq), yorg'oq (anat.), tutqoq (1.epilepsiya; 2. epileptik), botqoq va h.k.

-dak//-doq affiksli so'z yasovchi model.

Faqat sanoqli ot (sifat) - terminlarga ushbu kammahsul affiks ko'magida yasalganligini o'zbek tili lug'at boyligida bor bo'lgan faktik materiallar tasdiqlaydi: qo'ndoq, kekirdak, yugurdak, qovurdoq, likildoq (likilla-moq) va h.k.

-di affiksli so'z yasovchi model.

Ba'zi bir miqdordagi terminlarning mazkur -di affiksli kammahsul so'z yasovchi qolip ishtirokida voqelanishi hamda ish-harakat natijasi ma'nosini ifodalashi kuzatiladi: yig'indi (mat.), qirindi, chirindi, chiqindi, cho'kindi, oqindi va h.k.

-diq/-dik affiksli so'z yasovchi model.

Barmoq bilan sanarli terminlar ushbu o'ta kammahsul -diq//-dik affiksli model ishtirokida yuzaga kelgan: qoldiq (mat.), siydik.

-ich affiksli so'z yasovchi model.

Ushbu -ich qo'shimchali model ishtirokida narsa-predmet, buyum nomini ifodalovchi ba'zi bir terminlarga yasalgan: cho'kich, cho'mich.

-qin / -kin affiksli so'z yasovchi model.

Bu kammahsul model jarayon, natija nomini anglatuvchi terminlarni yasashda qatnashgan: otqin (geol.), toshqin, qochqin, sotqin, to'lqin (to'l-moq), bosqin, chirkin, chopqin va h.k.

### Savol va topshiriqlar:

Struktur-semantik jihatdan o'zbek terminologiyasining asosini qanday so'zlar tashkil qiladi?

Chet tilidan o'zlashayotgan terminlarni aynan qabul qilish maqsadga muvofiqmi?

Terminologiyada polisemiyaning mavjud bo'lishi ma'qulmi?  
 Termin yasashda qaysi usul eng sermahsul hisoblanadi?  
 O'zbek tili terminlarini yasashda qaysi so'z turkumlari ishtirok etadi?  
 Ot turkumli termin(turdosh ot)larning affiksali usul bilan yasalishi haqida baxs yuriting.  
 –chi affiksli model bilan yasalgan tarixiy terminlarni tavsiflang.  
 –lik affiksli model qanday ma'noli ot-terminlarni hosil qiladi?  
 –g'ichG'-gich//-qichG'-kich affiksli model qanday ma'noli terminlarni yasaydi?  
 O'zbek tili terminlarining yasashida o'zlashma qo'shimchalarning o'rnini belgilang.  
 –ma affiksli yasama terminlarning ma'no-mazmuniga diqqat qarating.

### **Test:**

1. Termin yasashning eng mahsuldor usulini belgilang.  
 A. kompozitsiya  
 V. kal'kalash  
 S. affiksatsiya  
 D. konversiya
  
2. Qaysi so'z turkumiga oid terminlar o'zbek terminologiyasining asosini tashkil etadi?  
 A. fe'l  
 V. ot  
 S. sifat  
 D. ravish
  
3. Alisher Navoiyning qaysi asarida so'z yasalishi xususida fikr yuritilgan?  
 A. Mezon ul-avzon  
 V. Tarixi muluki ajam  
 S. Muhokamat ul-lug'atayn  
 D. Tarixi anbiyo va hukamo
  
4. *paxsachi, yag'chi, chag'irchi, bichaqchi* terminlari qaysi olimning asarida qayd etilgan?  
 A. Alisher Navoiy  
 V. Mahmud Koshg'ariy  
 S. Mahmud Zamaxshariy  
 D. Ulug'bek
  
5. –chi affiksli terminlar semantik strukturasiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?  
 A. uch

- V. to‘rt
- S. besh
- D. ikki

6. qiltiqcha, kokilcha, pufakcha terminlari qaysi fan sohasiga oid?

- A. tibbiyot
- V. biologiya
- S. zoologiya
- D. anatomiya

7. “Qaychi” ma’nosidagi bichg‘uch motivlangan termini eski turkiy tilga xos qaysi manbada qo‘llangan?

- A. Xusrav va Shirin
- V. Muhabbatnoma
- S. Qutadg‘u bilig
- D. Devonu lug‘otit turk

8. –ma affiksi qachondan e’tiboran faol qo‘llanishga kirgan?

- A. VIII asr
- V. XI asr
- S. XIII asr
- D. XIV asr

9. Ish-harakatning nomini anglatuvchi terminlar qatorini belgilang.

- A. Siquv, tintuv
- V. tergov, to‘lov
- S. o‘lchov, kelishuv
- D. bitishuv, qurshov

10. Ish-harakt vositasini ifodalovchi terminni aniqlang.

- A. qochoq
- V. o‘toq
- S. o‘roq
- D. yo‘lak

### Test:

1. *Volost, duma, uyezd, pristav* terminlari o‘zbek tiliga qachon o‘zlashgan?

- A. XIX asrning 60-yillari
- B. XIX asrning 50-yillari
- C. XIX asrning 70-yillari
- D. XX asr boshi

2. O‘zbek terminologiyasi nechta manba asosida taraqqiy etdi?

- A. ikki
- V. to‘rt
- S. besh

D. uch

3. *sajen* o'zlashmasi qanday ma'noni anglatgan?

A. sudlov

V. fan-ta'lim

S. qishloq xo'jaligi

D. o'lchov birligi

### Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Muhokamatul-lug'atayn. O'n besh tomlik. O'n to'rtinchi tom.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.

2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1985.

3. Gulyamov A. Problema istoricheskogo slovoobrazovaniya uzbekskogo yazo'ka.1. Affiksatsiya. Ch. 1. Slovoobrazuyuhie affikso' imen. Avtoref. diss. dok. filol. nauk. – Tashkent, 1955.

4. Dadabaev X. Voennaya leksika v starouzbekskom yazo'ke. Dadabaev X., Naso'rov I., Xusanov N. Problema leksiki starouzbekskogo yazo'ka. - Tashkent: Fan, 1990. –S.3-83.

5. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opo't lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.

6. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.

7. Drevnetyurkskiy slovar.-L., 1969.

8. Karimov G'. Sovet davrida o'zbek adabiy tili taraqqiyoti.-Toshkent: Fan, 1985.

9. Kononov A.N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazo'ka.-M.-L., 1960.

10. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I-III.-Toshkent, 1960-1963.

11.Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili-Toshkent: O'qituvchi, 1978.

12. Raximova X.M., Ibadov K.I., Kvitkova E.M. Anglo-russko-uzbekskiy slovar biologicheskix terminov. - Tashkent, 2007.

13. Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazo'kov. Morfologiya.-M.: Nauka, 1988.

14. Tursunov U, Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfologiya, leksikologiya. Qo'llanma. –Toshkent,1965.

15. Usmonov O. -*dor* affiksi haqida//O'zbek tili va adabiyoti.1976, 1-son,-B.51-56.

16. Usmonov O. -*kor* affiksi haqida// O'zbek tili va adabiyoti.1976.1-son.-B.51-56.

17. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1 qism. Darslik.-Toshkent: O'qituvchi, 1980.

18. Herbak A.M. Ocherki po sravnitel'noy morfologii tyurkskix yazo'kov (Imya).-L.: Nauka, 1977.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. XIX asrning ikkinchi yarmidan o'zbek terminologiyasi tizimi qanday manbalar hisobiga rivojlandi?

2. O'zbek tili terminologiyasining shakllanishida o'z qatlamning o'rnini xususida bahs yuriting.

**4-modul. Istiqlol davrida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, ma'naviy hayotda sodir bo'lgan tub o'zgarishlarning o'zbek terminologiyasi va lug'atchiliga ta'siri.**

**6-MAVZU. MUSTAQILLIK DAVRIDA HAYOTDA YUZ BERGAN TUB O'ZGARISHLARNING O'ZBEK TERMINOLOGIYASIGA TA'SIRI. TERMIN YASASHDA FAOL MODELLARNING O'RNINI. ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK LUG'ATSHUNOSLIGI ERISHGAN YUTUQLAR.**

### **Reja**

1. Mustaqillik davrida hayotda yuz bergan tub o'zgarishlarning o'zbek terminologiyasiga ta'siri.

2. Termin yasashda faol modellarning o'rnini.

3. Istiqlol davri o'zbek lug'atshunosligi erishgan yutuqlar.

***Tayanch iboralar:** ijtimoiy-siyosiy hayot, termin yasash modellari, motivlangan terminlar, motivlanmagan terminlar, metonimik ko'chim, affiksial termin yasash, sermahsul affiks, kammahsul qo'shimcha, mutaxassislik terminlari, zoonimlar, texnikaviy terminlar, mustaqillik davri, globallashtirish, internet davri, realiyalar, o'zbek kurashi, donor til, mutanosib, almashtirish, tarjima qilish, so'z yasash usullari, dublet, davlat boshqaruvi, lug'at fondi, moslashish, milliy siyosat, ekotermi, kimyo terminologiyasi, til qonunlari, yangi nomlanishlarning voqelanishi, ismlardan yasalgan sifat-terminlar, fe'llardan yasalgan sifat-terminlar, prefiks, sermahsul, kammahsul, gibrid termin, fe'l-terminlar, qo'shma terminlar, model, komponent, termin-birikmalar, termin-element.*

**6.1. Mustaqillik davrida hayotda yuz bergan tub o'zgarishlarning o'zbek terminologiyasiga ta'siri.**

Mustaqillik davri o'zbek terminologiyasi. Istiqlol davrida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, ma'naviy hayotda yuz bergan tub o'zgarishlarning o'zbek terminologiyasiga ta'siri.

1. Globallashtirish va integratsiya davrida tillararo munosabatlarning terminologiyada aks etishi.

2. O'zlashma terminlarning o'zbek adabiy tili qonunlariga bo'yundirilishi.

3. Xalq xo'jaligidagi yangi sohalarining o'zbek terminologiyasi rivojida roli.

Globallashtirish, internet va kompyuterlashtirish asrida O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati safidan o'rin olishi davlatlararo iqtisodiy,

siyosiy, ijtimoiy, madaniy va h.k. aloqalarning qizg'in, jadal suratlar bilan rivojlanishiga olib keldi.

Bunday munosabatlarning ijobiy natijalari nafaqat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy hayotda, shuningdek, tilda ham o'z ifodasini topmoqda. So'nggi yillarda o'zbek terminologiyasi tayyor xorijiy leksik birliklar hamda ular anglatuvchi *akademik litsey, kollej, magistr, magistratura, bakalavr, tender, preferensiya, investitsiya, litsenziya, diler, megapolis, ekologiya, ekspert, demping, inflyatsiya, kliring, supermarket, minimarket, giper market, chat, paynet, elektorat, narkobiznes, milliy aviakompaniya, klasster, robot-taksi, drayver, elektron viza, tranzit biznes, trend, brend, logistika, vatsapp, rouming, instagram, telegram, mikrozaym, investor, onlayn, oflayn, onlayn-broker, onlayn rejim, keys-stadi, innovatsion texnopark* singari mutlaqo yangi tushunchalar va realiyalar hisobiga boyib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi olimlarining dunyoning rivojlangan mamlakatlari yetakchi muassasalari ilm ahli bilan o'rnatgan ilmiy-texnik munosabatlarning jadallashuvi, hamkorlikda dolzarb ilmiy masalalar ustida izlanishlar olib borishning yo'lga qo'yilishi, yosh iste'dod egalarining nufuzli chet el universitetlari va institutlarida o'qishi yoxud malaka oshirishi terminlar sistemasining yaqinlashuvi, boyishiga ko'mak beradi. Hozirgi o'zbek terminologiyasi uchun G'arb tillari, ayniqsa, ingliz tilidan ko'plab terminlarning quyilib kelishi diqqatga sazovordir.

Shu bilan bir qatorda, o'zbek tili terminlarining boshqa tillar tomonidan o'zlashtirilayotgani ajablanarli hol emas. Zero, so'z o'zlashtirish hodisasining ikki tomonlama sodir bo'lishi tilshunoslikda allaqachon tasdig'ini topgan.

Ta'kidlash joizki, 1999 yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusiga muvofiq o'zbek kurashi bo'yicha jahon birinchiligi o'tkazildi. Keyinchalik bu sport turining ommalashuvi va dunyo sahnasiga chiqishi natijasida *kurash, yonbosh, chala, halol, g'irrom* kabi terminlar xalqaro sport terminologiyasining mulkiga aylandi (Bektemirov 2002;10). *Sharq taronalari* (Vostochniye melodi), *o'zbek modeli* (Uzbekskaya model) singari terminlar jahonga mashhur bo'ldi. Mahalla institutining qayta tiklanishi *fuqarolar yig'ini, fuqarolar yig'ini raisi, oqsaqol* va h.k. terminlarning o'zga tillar so'z boyligidan mustahkam o'rin olishi yoki tarjima qilinishiga bois bo'ldi.

Qayd etish lozimki, o'zbek terminologiyasi tizimida xorijiy tillarga taalluqli tushunchalarni o'z ichki imkoniyatlar asosida ifodalash tamoyili yetakchilik qilmoqda. Bunday jarayon paytida chetdan kelayotgan o'zlashmalarning bir qismi o'zbekcha mutanosiblari bilan almashtiriladi yoki tarjima (kalka) qilinadi. Ushbu usul yangi tushunchalarni atashda o'ta qulayligi va mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Masalan, *aksiyadorlik jamiyati* (aksionernoye obshestvo), *erkinlashtirish* (liberalizatsiya), *tijorat banki* (kommercheskiy bank), *muzyorar* (ledokol), *kichik biznes* (maliy biznes), *soliq stavkasi* (nalogovaya stavka), *tadbirkor* (predprinimatel), *xususiy sektor* (chastniy sektor), *infratuzilma* (infrastruktura), *ekologik xavfsizlik* (ekologicheskaya bezopastnost), *siyosiy ekstremizm* (politicheskiy ekstremizm), *potensial xavf-xatar* (potensialnaya ugroza), *mintaqaviy mojaro* (regionalniy konflikt), *nevrojarohat* (tib.nevrologiya),

*tabofalajlik* (tib.taboparalich), *ekspert kengashi* (ekspertnaya komissiya), *yuridik shaxs* (yuridicheskoye litso), *plastik kartochka* (plastikovaya kartochka), *kichik biznes subyektlari* (subyekti malogo biznesa), *moliyaviy organlar* (finansoviye organi), *raqamli tarmoq* (digital network), *manzil niqobi* (address mask), *alfa-sinov* (alpha testing), *yashil kompyuter* (green computer), *elektron hamyon* (electronic purse) va h.k. shular jumlasidandir.

O‘zlashma terminlarni muqobili bilan almashtirish ham faol sanaladi: *burun chig‘anog‘i* (tib. nosovaya rakovina), *miya oyoqchalari* (tib. nojki mozgoviye), *logistik markaz* (logisticheskiy sent), *suyaklanish* (tib.okosteneniye), *betoblik* (tib.nedomoganiye), *so‘roq* (komp.polling), *tuynuk* (komp.hatch), *sukut* (komp.default) va h.k.

Chet tili terminlarini so‘z yasalishi usullari (so‘z yasovchi modellar) asosida yangidan yuzaga kelgan yasamalar bilan almashtirish jarayonida o‘zbek tili lug‘at fondidan *oluvchi* (adresat), *jo‘natuvchi* (adresant), *tavsiyanoma* (xarakteristika), *buyurtma* (zayavka), *narxnoma* (preyskurant), *ma‘lumotnoma* (spravka), *fuqarolik* (poddanstvo), *daxlsizlik* (immunitet), *ishbilarmon* (predprenimatel), *ta‘mirchi* (restavrator), *tiriltirish* (tib. ojivleniye), *jismoniy shaxs* (fizicheskoye litso), *g‘aznachi* (kassir), *aqlli tarmoq* (komp. smart network), *kalitli nomlash* (komp. indexing) singari ko‘pgina terminlar mustahkam o‘rnini topdi.

O‘zbek tili terminologiyasi tizimida muayyan tushunchalarning muqobili bo‘lmaganligi bois ularni bitta so‘z bilan ifodalashning imkoniyati cheklangan. Chetdan kirib kelayotgan tushunchani bir qancha so‘zlar yordamida izohlash yoki tavsiflash terminologiya talablariga ziddir. Mana shunday holatlarda ruscha-baynalmilal terminlar donor tilda qanday shaklda bo‘lsa o‘zbek tiliga ayni shu shaklda tayyor tarzda qabul qilinadi. Masalan: *budjet* – budjet, *kredit* - kredit, *atom* - atom, *gidrolokatsiya* – gidrolokatsiya, *deduksiya* - deduksiya, *gerb* – gerb, *auditor* – auditor, *repatriatsiya* – repatriatsiya, *fraksiya* – fraksiya, *profitsit*–profitsit, *integratsiya*–integratsiya, *diplomatiya*–diplomatiya, *texnologiya*–texnologiya, *solyari*–solyari, *stomatologiya*–stomatologiya, *timidin*–timidin, *gersgers*, *volt*–volt, *amper*–amper, *mentalitet*–mentalitet, *kislorod*–kislorod, *uglerod*–uglerod va h.k. Ayni holatni tilshunoslik terminlari sistemasida ham kuzatamiz: *aksent*, *artikulyatsiya*, *fonetika*, *fonema*, *diftong*, *reduksiya*, *metateza*, *dissimilyatsiya*, *logografiya*, *affiks*, *pragmatika*, *sintagmatika*, *semantika*, *idioma*, *infinitiv*, *gerundiy*, *semiotika*, *sinergetika*, *mentalingvistika*, *morfologiya*, *konsept*, *geshtalt*, *biolingvistika*, *diskurs* va h.k.

Ilm-fan, texnika va ishlab chiqarishning shiddat bilan rivojlanayotganligi, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida sodir bo‘layotgan globallashuv va integratsiya jarayonlari tillarning o‘zaro jips aloqalarga kirishi ularga xos leksik fondning boyishiga zamin yaratdi. Chunonchi, bugungi hayotni zamonaviy axborot kommunikatsiya tarmoqlari, xususan, internet va ushbu sohada qo‘llanuvchi terminlar sistemasiz tasavvur etishning aslo imkoni yo‘q. O‘zbek tili terminologiyasi tarkibiga kirib kelayotgan internet terminlari asosan o‘zlashmalardan iborat bo‘lib, ularni ikki, ya‘ni ingliz tilidan aynan o‘zlashgan *overley*, *paket*, *peydjing*, *trakt*, *petebayt*, *ping*, *piksel*, *plugin*, *gigabayt*, *terabayt*, *exabayt*, *kross-brauzer* va h.k. hamda rus tilidan o‘zlashgan *yakor*, *massiv*,



*magistral, shlyuz, shrift, adaptatsiya* kabi guruhlarga ajratish o'zini oqlaydi. Shu jouda *yakor* o'rnida *langar*, *shlyuz* o'rnida *to'g'on*, *shrift* o'rnida *harf*, *magistral* o'rnida *shohyo'l* leksemalarini qo'llashni tavsiya etish mumkinligini qayd etamiz.

O'zbek tili terminologiyasining hozirgi holatida o'z hamda o'zlashmalarning yonma-yon qo'llanayotganiga shohid bo'lamiz. Ushbu jarayon avvalgi terminologiya tizimidagi meyor va yangi leksik birlik o'rtasidagi qarama-qarshilik, "yashash uchun kurash"dan guvohlik beradi. Tabiiy, raqobatalashayotgan terminlardan qaysi biri o'zbek tili terminologiyasi tarkibidan munosib o'rin egallashini *lisoniy hayot, nutqiy amaliyot va vaqt ko'rsatadi*. Hozircha ikki dubletli terminlar jumlasiga *aksiya - harakat, aksiya; arxeolog - qadimshunos, arxeolog; blok - ittifoq, blok (deputatlik); veto - veto, ta'qiq; ofitser - zobit, ofitser; reanimatsiya - jonlantirish, reanimatsiy; termin - atama, termin; embargo - embargo, ta'qiqlash; sivilizatsiya - sivilizatsiya, tamaddun; kollegiya - hay'at, kollegiya; denonsatsiya - denonsatsiya, bekor qilish; tif - tif, terlama; transplantatsiya-transplantatsiya, ko'chirib o'tkazish; mikrocredit-mikrocredit, mikroqarz; terapiya-terapiya, davolash; smeta-smeta, xarajatlar loyihasi; kliyent-server - kliyent-server, mijoz-xodim; agent-vakil, agent; anketa - so'rovnoma; anketa, apellyatsiya - shikoyat, apellyatsiya; akklamatsiya-olqish, akklamatsiya (yur.) va h.k.lar kiritilmoqda.*

Ba'zi vaziyatlarda, mobodo biron bir tushuncha ikki, ya'ni o'z va o'zlashma (ruscha-baynalmilal) termin bilan ifodalansa, shubhasiz, afzallik o'zbekcha terminga beriladi – *tilshunoslik* (lingvistika), *nazoratchi* (inspektor), *qalam haqi* (gonorar), *nizom* (ustav), *giyohvandlik* (narkomaniya), *zahira* (rezerv), *tenglik* (paritet), *hokim* (mer), *jarroh* (xirurg), *sil* (tuberkulez), *dorishunos* (farmatsevt), *dorishunoslik* (farmatsevtika), *tasnif* (klassifikatsiya), *imlo* (orfografiya), *qatag'on* (repressiya), *sayyora* (planeta), *tirkama* (pritsep), *tovon* (reparatsiya) va h.k.

Kimyo terminologiyasida faol qo'llanuvchi *oltin-aurum, kumush-argentum, margimush-arsen, oltingugurt-sulfur, temir-ferrum* singari terminlarning lotincha dubletlaridan kimyoviy reaksiyalar formulalarini o'qishda istifoda etiladi (Madvaliyev 2017, 22).

O'zlashma terminlarning ma'lum guruhi o'zbek tili qonunlariga bo'ysungan tarzda uning fonetik va grammatik xususiyatlariga moslashadi. Chunonchi, o'zlashma terminlarning o'zbek tili fonetikasiga moslashuvi quyidagi jihatlari bilan oydinlashadi:

1) fonemalarning qisqarishi: *avinos* (avianosets), *raketanos* (raketanosets), *minanos* (minonosets), *farmatsevtik* (farmatsevticheskiy, *akustik* (akusticheskiy));

2) fonemalardagi tovush almashinuvi: *mayoq* (mayak), *o'choq* (ochag), *plashch-palatka* (plash-palatka) va h.k.

O'zbek tilida qurilishi jiddiy o'zgarishlarga uchragan o'zlashma terminlar kategoriyasiga *qo'mita* (komitet), *bombardimon* (bombardirovka), *qo'mondon* (komanduyushiy), *puadrat* (podryad) kabilarni kiritish o'rinlidir.

O'zbek terminologiyasi tizimida o'zlashmalardan o'zbekcha so'z yasovchi affikslar ishtirokida yangi hosil qilingan terminlar keng miqyosda qo'llanishga kirib kelgan. Xususan, *bombardimonchi* (bombardirovshik), *dozimetrchi* (dozimetrist), *generallik* (generalskiy), *raketasozlik* (raketostroyeniye), *patronli*

(patronniy), *gusenitsali* (gusenichniy), *betonlash* (betonirovaniye), *ionlanish* (ionizatsiya); *modernizatsiyalash* (modernizatsiya), *kodlash* (kodiroyvaniye), *kompyuterlashtirish* (kompyuterizatsiya), *avtomatlashtirish* (avtomatizatsiya) kabi ashyoviy misollar qayd etilgan fikrni tasdiqlashga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillari o'zbek tili lug'at fondining boyib borishida respublika xalq xo'jaligi uchun mutlaqo yangi sohalarining shiddat bilan shakllanishi va rivojlanishi kabi favqulotda muhim omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 1996-yilda Andijon viloyati Asaka shahrida Janubiy Koreyaning DEU (DAEWOO) avtomobil korporatsiyasi bilan hamkorlikda "O'zDEUAvto" qo'shma korxonasi ishga tushirilishi natijasida O'zbekiston dunyodagi 28 ta avtomobilsozlik davlatlari qatoridan munosib o'rin oldi. 1999-yilda Samarqand shahrida "SamKochAvto" o'zbek-turk qo'shma korxonasi avtobuslar va yuk mashinalarni ishlab chiqarishga kirishdi. Hozirgi paytda Yaponiya va Germaniya avtokompaniyalari hamkorligida "Isuzu" avtobuslari hamda "Man" yuk mashinalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

"O'zDEUAvto" qo'shma korxonasi amerika avtomobil ishlab chiqarish giganti "Jeneral Motors"(General Motors) tarkibiga singdirilishi oqibatida bugungi talablarga to'la javob beradigan, yuqori tezlikka ega, har tomonlama qulay hamda yoqilg'ini tejaydigan yengil avtomobillarning yangi rusumlarini ishlab chiqarish maqsad qilib qo'yilgan. Buning natijasida o'zbek tilida ushbu soha terminologiyasi tubdan takomillashdi. O'zbek terminologiyasi Tiko (Tiko), Damas (Damas), Neksiya (Neksia), Lasetti (Lacetti), Matiz (Matiz), Spark (Spark), Epika (Epika), Kaptiva (Kaptiva), Malibu (Malibu), Kobolt (Cobolt) singari Respublikada konveyyerga qo'yilgan yengil avtomobillarning tijoriy nomini anglatuvchi atamalar hisobiga yana ham boyidi.

Sobiq sho'rolar davlatining tanazzulga uchrashi va qulashidan keyin kommunistik mafkura bilan bog'liq barcha tushunchalar, ularni ifodalovchi so'z hamda terminlar o'zbek tili lug'at tarkibidan batamom barham topdi.

O'zbekiston mustaqil va suveren davlat sifatida jamiyatni tom ma'nodagi demokratiya asosida taraqqiy toptirish yo'lini tanladi.

Demokratik jamiyatni va davlatni barpo etishda milliy davlatchilik an'analariga alohida e'tibor qaratildi. Milliy tiklanish va o'zlikni anglash yo'nalishi ustuvor, deb e'lon qilindi.

Turmushda tubdan sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy o'zgarishlar yangi tushunchalar, yangi nomlanishlarning voqelanishiga olib keldi. O'zbek tilining leksik xazinasini mustaqil mamlakat yuritayotgan milliy siyosatni aks ettiruvchi rang-barang so'zlar va terminlar bilan kengaytdi. Bunday terminlar safiga tubandagi faktik misollarni kiritamiz: *milliy o'zlik*, *milliy davlatchilik*, *milliy siyosat*, *siyosiy islohot*, *ma'naviy qadriyat*, *Harakatlar strategiyasi*, "*Obod mahalla*", *Ma'naviyat va ma'rifat markazi*, *yo'l xaritasi* va h.k.

Bo'linish tamoyillari negizida yangi davlat boshqaruvi organlarining tuzilishi va faoliyat olib borishi pirovard natijada *Oliy Majlis*, *senat*, *Vazirlar Mahkamasi*, *qonun chiqaruvchi organ*, *ijro etuvchi organ*, *nazorat qiluvchi organ*, *sud hokimiyati*, *departament*, *konsern*, *xolding*, *kompaniya*, *hokimlar instituti*, *nodavlat*

*ijtimoiy birlashma, mas'uliyati cheklangan jamoa, Yoshlar ittifoqi, Xotin-qizlar qo'mitasi* kabi ko'pdan-ko'p terminlarning muomalaga kirishiga turtki berdi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tilishi asosida terminologik leksika *milliy valyuta, kichik biznes, o'rta biznes, xususiy tadbirkorlik, qimmatli qog'ozlar bozori, tadbirkorlar palatasi, konsalting, injiniring, lizing firma, biznes-inkubator, biznes-reja, diller, makler, demping, davlat boji, mulk dahlsizligi, likvid aksizlar, fyuchers bitimlar, majburiy ijro* singari qator yangi terminlar bilan tag'in ham kengaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston kamdan-kam uchraydigan ulkan yoqilg'i-energetik mabalariga egaligi bilan dong chiqargan. Neft, gaz va kondensatning g'oyat katta zahiralari nafaqat ichki ehtiyojni to'la qondirish, balki ularni xorijga eksport qilish imkonini yaratdi.

Ushbu sohaga taalluqli *neft zaxirasi, neft koni, neft maxsulotlari, gaz kondensati, metan, og'ir neft, propan, butan, polimer materiallar, polietilen, polivinilxlorid, nitrilakril kislota, suyultirilgan gaz, xom neft* singari turfa terminlar darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-ommabop adabiyot hamda mahalliy matbuot sahifalarida faol qo'llanib kelmoqda.

Milliy istiqloldan so'ng O'zbekistonda kechgan agrar islohat, so'zsiz, qishloq xo'jaligini qayta qurishda yetakchi ahamiyatga ega bo'ldi. Sobiq sho'rolardan qolgan *kolxoz* va *sovxozlar* tugatildi. Qabul qilingan "Yer kodeksi"ga muvofiq dehqon va fermer yer mulkdoriga aylandi. Fermer xo'jaliklari o'zlariga bildirilgan umid va ishonchni sharaf bilan oqladilar.

Respublika agrar sektorida olib borilayotgan islohatlar *mulkdor, mulkdorlar sinfi, fermer xo'jaligi, ko'p ukladli iqtisodiyot, tomorqa xo'jaligi, subsidiya, pay, investitsiya, investor, innovatsiya, ijara pudrati, yangicha xo'jalik yuritish* singari mutlaqo yangi tushuncha va realiyalarning yuzaga chiqishini ta'minladi.

Ma'lumki, o'tgan asrning oxiri-yangi XXI yuzyillikning boshida jahon ahli o'ta jiddiy va xavfli bir jihat, ya'ni inson va tabiat o'rtasidagi asimmetrik munosabat, to'g'rirog'i, insonning tabiat qonuniyatlariga bepisandlik bilan aralashuvi natijasi o'laroq tabiatdagi muvozzantning izdan chiqishi, azon qatlamining yemirilishi, haroratning meyordan ko'tarilishi, muzliklarning erishi bilan chambarchas bog'liq ekologik hodisalarga o'z diqqatini qaratishga majbur bo'ldi. Chunonchi, nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yevropa mamlakatlari uchun ham katta xavf tug'dirayotgan Orol fojiasi shular jumlasidandir. Orol dengizining hozirgi sathini saqlab qolish, suvning qochishi oqibatida dengiz o'zanidan osmonga ko'tarilayotgan tuz va qum bo'ronlarining oldini olish, suv qochgan yerlarga turli daraxtlar ekish, ihotalar barpo etish orqali dengiz bo'yida hayot kechirayotgan aholi turmush tarzini yaxshilash, sog'ligini himoyalash singari ustuvor maqsadlarni hayotga tatbiq etish maqsadida mamlakatimizda Ekologiya harakati tashkil etildi.

Ushbu ekstralingvistik omil, tabiiy, ijtimoiy xarakterga ega tilda ham aksini topdi, ya'ni boshqa tillarda bo'lgani kabi o'zbek tili ekologik terminologiyasi o'z taraqqiyotining navbatdagi bosqichiga qadam qo'ydi. Bir necha asrlik shakllanish jarayonini boshidan kechirgan ekologik terminlar sistemasi ayni vaqtda *ekologik vaziyat, ekologik fojia, ekopoyezd, ekosistema, global ekologiya, geoekologiya,*

*biosfera, antropogen ifloslanish, agroekologiya, chang konsentratsiyasi, chiqindilarni qayta ishlash, chuchuk suv* singari nisbatan yangi termin yoki termin-birikmalar hisobiga kengayib bormoqda.

Hozirgi vaqtda fan va texnika sohlarida yuz berayotgan shiddatli rivojlanish, innovatsiya respublika aholisi faoliyatining turli qirralariga samarali ta'sir o'tkazmoqda. Fan va texnika qo'lga kiritgan eng oxirgi muvaffaqiyat va yutuqlar asosidagi yangi texnika vositalariga egalik qilinmoqda. Ushbu texnika va texnologiya vositalari nomlarini anglatuvchi terminologik leksika o'zbek tili lug'at tarkibining kundan-kunga boyib, kengayib borishida munosib ulush bo'lib qo'shilmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda ta'kidlash lozimki, Mustaqillik davri o'zbek terminologiyasi o'z qaror topish yo'lining boshlanish nuqtasida turibdi. U o'zbek tilshunosligining muhim sohasi sifatida yillar davomida yig'ilgan tajribalar zaminida taraqqiy etmoqda, takomillashmoqda va kengaymoqda.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O'zbek tili terminlar tizimining o'z boyliklari hisobiga kengayishining nechta yo'li bor?
2. Termin yasashda qanday usullardan unumli foydalaniladi?
3. Terminlar yasashda kalkaning o'rniga baho bering.
4. O'zbek terminlar tizimida arabcha o'zlashmalarning ahamiyati qanday?
5. Terminologiya maslalarining mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilishini izohlang.
6. Respublika avtomobil sanoatida qo'llanuvchi tijoriy atamalar xususida mulohaza yuriting.
7. "Devonu lug'otit turk"da qayd etilgan ekoterminlarni aniqlang.

### **Test:**

1. O'zbek kurashi bo'yicha ilk jahon birinchiligi qachon o'tkazilgan?  
A. 1996  
V. 1997  
S. 1998  
D. 1999
2. Ruscha okosteneniye terminining o'zbekcha muqobilini belgilang.  
A. suyako'sish  
V. suyaklanish  
S. suyakqaynash  
D. suyaksinish
3. O'zbek tili internet terminlari qayd etilgan qatorni aniqlang.  
A. massiv, yakor, overley  
V. gerundiy, plugin, piksel  
S. idioma, trakt, yakor  
D. paket, metateza, reduksiya

4. Akklamatsiya o‘zlashmasi qaysi o‘zbekcha so‘zning dubleti hisoblanadi?  
A. ulug‘lash  
V. madh  
S. olqish  
D. qo‘llash
5. Strukturasi o‘zbek tilida jiddiy o‘zgargan o‘zlashma terminni aniqlang.  
A. avianos  
V. dozimetrchi  
S. pudrat  
D. betonlash
6. Boshqaruv organi nomini ifodalovchi terminni ko‘rsating.  
A. milliy davlatchilik  
V. kichik biznes  
S. demping  
D. xolding
7. ko‘p ukladli iqtisodiyot termini xalq xo‘jaligining qaysi sektorida qo‘llanadi?  
A. og‘ir sanoat  
V. agrar  
S. harbiy  
D. yengil sanoat
8. Chiqindilarni qayta ishlash termini qaysi sohaga xos?  
A. geologiya  
V. biologiya  
S. eklologiya  
D. geografiya
9. Yashil iqtisodiyot termini qo‘llanadigan sohani ko‘rsating.  
A. agrar  
V. texnika  
S. ekologiya  
D. yengil sanoat

### **Adabiyotlar**

1. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamaları. -Toshkent, 2002.
2. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.

3. Kadirbekova D. Inglizcha-o'zbekcha axborot kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari. Filol. fan. bo'yicha fals. dok. diss. avtoref.-Toshkent, 2017.
4. Lotte D.S. Kratkie formy nauchno-texnicheskix terminov. - M.: Nauka, 1971.
5. Lotte D.S. Ocheredno'e zadachi texnicheskoy terminologii. T.1.-M.: Moskovskiy litsey, 1994.
6. Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari.-Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi.2017.
7. Problemy yazyka nauki i tekhniki.-M.: Nauka, 1970.
8. Saidqodirova D. Ingliz va o'zbek tillarida internet terminlarining lingvistik tadqiqi. Filol. fan.bo'yicha fals. dokt. diss. avtoref. -Toshkent, 2018.
9. O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi Qonuni.

## 6.2. Termin yasashda faol modellarning o'rni.

1. Ismlardan sifat-terminlarning yasalishi.
2. Sifat – terminlarning fe'llardan yasalishi.
3. Fe'l –terminlarning hosil qilinishi.

Ma'lumki, ot so'z turukumiga xos leksik birliklarning termin tarzida qo'llanishi bo'yicha so'z turkumlari qatorida yetakchilikka egaligi hech kim uchun yangilik emas. Shu bilan birga, ilm-fan tilida (ya'ni mavjud ilmiy adabiyotda qo'llangan) maxsus tushunchalarni ifodalaydigan hamda terminologik nomlarga doir barcha talablarga jabob beradigan terminlar o'rnida ham fe'l (fe'ldan yasalgan bir o'zakli ismlar), ham sifat, ham ravishlarning erkin ishlatilishi mumkinligini ta'kidlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Sifat-terminlarning yasalishi.** Morfologik usul bilan hosil qilingan sifat–terminlar quyidagi ikki guruhga taqsimlanadi: 1) ismlardan yasalgan sifat-terminlar; 2) fe'llardan yasalgan sifat-terminlar.

Ismlardan sifat-terminlar yasashda tubandagi modellar qatnashadi:  
-li affiksli so'z yasovchi model.

Sof o'zbek (turk)cha -li affiksli so'z yasovchi model quyidagi ma'noli terminlarni yuzaga chiqaradi:

a) boshlang'ich asosda nomlangan egalik, majudlik, borlikni ifodalaydi: *zaharli, misli, sharikli, kislotali, tuzli, yarog'li, fosforli, dukkakli, to'yimli* va h.k.;

b) dastlabki asosning predmetlik nomini bildiradi: *zararli, muddatli, maqsadli, qimmatli, nuqsonli, foydali* va h.k.;

v) nimagadir yaroqlilikni anglatadi: *yaroqli, yeyimli, yeyishli, xavfli, ichimli* va h.k.

– siz affiksli so'z yasovchi model.

-siz affiksli sifat-terminlar –li affiksli sifat-terminlarning antonimi, ya'ni ziddi (*gilzali-gilzasiz, stvolli-stvolsiz, mo'ynali – mo'ynasiz, gazli – gazzsiz, temirli-temirsiz* va h.k.) bo'lib, quyidagi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi:

a) boshlang'ich asos orqali ifodalangan narsaning mavjud emasligi: *ishsiz, aybsiz, vizasiz, gunohsiz, nikohsiz, xavfsiz, dalilsiz, jarangsiz, qurolsiz, mablag'siz, kreditsiz, tutunsiz, mo'ljalsiz (o'q otish), minasiz* va h.k.;

b) dastlabki asosning oz miqdordaligini ko'rsatadi: *jirsiz (jir ), tuzsiz (tuz), suvsiz (suv )* va h.k.

- *chan* affiksli so'z yasovchi model.

–*chan* qo'shimchali ushbu kammahsul model tub hamda yasama fe'llardan yasalgan ot turkumli so'zlardan “qat'iy ravishda namoyon bo'luvchi fazilat, xarakter belgisi va moyillik”ni ifodalaydagan terminlarni hosil qiladi: *yashovchan, o'zgaruvchan, sezuvchan, uchuvchan* (kimyo. uchuv), *eruvchan, ko'rinuvchan* (harb. ko'rinuv), *tovlanuvchan, sochiluvchan* (fiz. sochiluv), *egiluvchan* va h.k.

- *chil* affiksli so'z yasovchi model.

–*chan* qo'shimchasining fonetik turi bo'lmish kammahsul –*chil* affiksli so'z yasovchi model birorn narsaga bo'lgan “moyillik, berilganlik” ma'nosini anglatuvchi chegaralangan miqdordagi terminlarni yasashda qatnashadi: *dardchil, izchil, xalqchil, epchil* va h.k.

- *simon* affiksli so'z yasovchi model.

Mazkur model hozirgi o'zbek tili zoologiya hamda biologiya terminlari tizimida o'xshashlik, bir xillik ma'nosini ifodalovchi nisbatan salmoqli miqdordagi leksemalarni hosil qilishda o'z ifodasini topgan. –*simon* affiksli sifat-terminlar ma'no jihatidan rus tilidagi ikkinchi komponenti «...podobniy», «...obrazniy», «vidniy» elementlaridan tashkil topgan qo'shma sifatlarga muvofiq kelib, boshqa terminologik tizmlarda ham faol ishlatilishi bilan ajralib turadi: *ivasasimon* (kit), *tumshuqsimon, zanjirsimon* (biol.), *odamsimon, qisqichbaqasimon, kitsimon, krotsimon* (ko'rsichqonlar), *o'rgimchaksimon, maymunsimon, tatinsimon* (masalan, burunduqlar, olasichqonlar), *mushuksimon, itsimon, bug'usimon*. Ba'zan tibbiyot, kimyo va anatomiyaga doir tushunchalarni ifodalashda qatnashadi: *bargsimon* (tib. barg), *gazsimon, qalqonsimon* (anat. bez), *ipsimon, kipriksimon* va h.k.

- *aro* so'z - affiksli so'z yasovchi model.

Asl turkiy –*aro* (“promejutok”) so'z - affiksli ushbu sermahsul model ilmiy va texnikaviy sohaga xos terminlarni yasashda faol ishtirok etadi: *xalqaro, qit'alararo, planetalararo, fanlararo, korxonalararo, millatlararo, xo'jaliklararo, hujayralararo* (biol. hujayra), *qobirg'alararo* (tib. qobirg'a), *turlararo* (biol.tur ), *zonalararo, banklararo* (iq.t.) va h.k.

*be-* prefiksli so'z yasovchi model.

Kelib chiqishi jihatidan fors-tojik tiliga xos *be-* prefiksli ushbu kammahsul model asosdan anglashilgan sifat, fazilatning mavjud emasligi, yo'qligini ifodalaydi: *betaraf, bevosita* (harb. vosita ), *begunoh, bexatar, bevatan* va h.k.

*no-* prefiksli so'z yasovchi model.

Fors-tojik tilidan ancha barvaqt o'zbek adabiy tiliga kirib kelgan *no-* old qo'shimchali mazkur kammahsul model ishtirokida inkor ma'nosini bildiruvchi sifat-terminlar yasaladi: *nomahfiy, noqonuniy, noma'lum* (harb. ma'lum),

*nodavlat, notijorat, noaniq* (lingv. aniq), *nochiziqli, norasmiy, nostandart, nokontakt, nobiologik, nokristallilik* va h.k.

*ser-* prefiksli soʻz yasovchi model.

Forscha-tojikcha *ser* – prefiksli bu mahsuldor model ot soʻz turkumli soʻzlardan asosda voqelangan moʻl-koʻllik maʼnosini ifodalovchi sifat-terminlarni yuzaga chiqaradi: *sersuv, sergoʻsht, seryomgʻir, serildiz, serkepak, sersut, sertola, serchiqit, serunum* va h.k.

*Ser-* prefiksli modelning nafaqat sof oʻzbekcha (turkcha) shuningdek, forscha-tojikcha, arabcha va ruscha-baynalmilal leksik birliklardan ham sifat-terminlar yasashini alohida taʼkidlash kerak boʻladi- *serdaromad, sermahsul* va h.k.

*kam* - prefiksoidli soʻz yasovchi model.

*Kam-* oʻzbek tili grammatikasiga tegishli baʼzi bir asarlarda qoʻshma sifatlarning birinchi komponenti tarzida baholansa, boshqa birlarida esa prefiksoid sifatida belgilanadi. Ilmiy terminologiyada ancha mahsuldor hamda faol hisoblanuvchi *kam-* prefiksoidi qatnashgan model boshlangʻich asosdan anglashilgan miqdorning ozligi maʼnosini ifodalovchi sifat-terminlarni yasaydi: *kamqon, kamsut, kamsuv, kamhosi, kamdaromad, kamxarj, kamxarajat, kamquvvat, kamchiqim, kammahsul* va h.k.

– (v) *iy* affiksli soʻz yasovchi model.

Arab tilidan oʻzlashgan - (v) *iy* affiksli model ot turkumidan sifat-terminlarni yasash uchun xizmat qiladi.

-(v) *iy* affiksli model unli fonemalar bilan tugagan otlardan tubandagi terminlarni hosil qiladi: *konstitutsiyaviy, yadroviy, kimyoviy, fizikaviy, maʼnoviy, fuqaroviy, samoviy, kolliziyaviy* (kolliziya), *oilaviy, fazoviy* va h.k.

Undosh fonema bilan tugagan otlardan nisbiy sifat-terminlar yasaydi: *miqdoriy, maʼmuriy, harbiy, tibbiy, qonuniy, intizomiy, iqtisodiy, majburiy, ixtiyoriy, majoziy, tahliliy, tavsifiy, tanqidiy, turkiy, forsiy* va h.k.

-(v) *iy* affiksi qoʻshilishi natijasida *-a, -at* bilan tugaydigan arabcha otlar ushbu qoʻshimchlarini tushirib qoldiradi: *milliy* (millat), *siyosiy* (siyosat), *ijtimoiy* (ijtimoiyot), *moddiy* (modda), *maʼnaviy* (maʼnaviyat), *maʼrifiy* (maʼrifat), *tijoriy* (tijorat) va h.k.

Yuqorida keltirilgan ashyoviy misollar oʻtgan asrning 60-yillarida kammahsul deb topilgan -(v) *iy* affiksining (Kononov 1960;152) hozirgi vaqtga kelib nisbatan unumli affiksga aylanganligidan dalolat beradi.

Kezi kelganda aniq fanlar terminologiyasida -(v) *iy* affiksi ishtirokida atoqli otlar (kishi ismlari, joy nomlari va h.k.) asosida yuzaga chiqqan *kyuriy, nilsboriy, eynshteyniy, hamroboveviy, poloniy* (Poloniya-Polshaning lotincha nomi), *prometiy* (Prometey-afsonaviy qahramon) kabi familyaviy terminlar (Lotte 1961, 427)ning keng qoʻllanishini taʼkidlash oʻrinli.

Feʼllardan sifat-terminlar yasashda quyidagi modellar faol sanaladi:

– (i) *q Gʻ(i) k* affiksli soʻz yasovchi model.

Mazkur model oʻzbek tilida feʼl turkumli soʻzlardan nafaqat ot-terminlar, balki sifat-terminlarni hosil qilishda ham unumlidir. *-qGʻ-k* (unli asoslardan keyin keladi), *-(i)q/(i)k* (undoshli asoslardan keyin keladi) oʻtimli feʼllardan



passiv ma'nodagi sifat-terminlar, o'timsiz fe'llardan esa shu fe'lga xos leksik-semantik ma'noga ega sifat-terminlar yasaydi (Kononov 1960;155): *yaltiroq* (yaltira-moq), *siqiq*, *ochiq* (til. bo'g'in), *yopiq* (mat.; til.), *cho'ziq* (til.), *qattiq*, *o'lik*, *chaqiriq* (harb.; yur. ) va h. k.

– *ma* affiksli so'z yasovchi model.

Mahsuldorligi chegaralangan ushbu model o'timli fe'llardan passiv ma'noli sifat – terminlarni hosil qilsa: *yozma*, *chizma*, *terma* (sport; mus.), *yasama* (til.), *burama*, *ko'chirma* (til.) va h.k; o'timsiz fe'llardan esa ular boshlang'ich asosiga xos leksik-semantik mazmunni anglatuvchi sifat-terminlarni yasaydi (Kononov 1960; 155): *ko'chma*, *yonlama* (harb.), *og'ma* (mat.), *tug'ma* (tib.) va h. k.

– *qoq//g'oq* affiksli so'z yasovchi model.

Namoyon bo'ladigan xususiyat, xossani ifodalovchi mazkur kammahsul model ayrim sifat-terminlarni yasaydi: *yopishqoq*, *burishqoq*, *ilishqoq*, *qorishqoq*, *qurushqoq*, *qaqroq* va h.k.

– *qirG' - kir//g'irG' - gir* affiksli so'z yasovchi model.

Bu kammahsul model faol namoyon bo'ladigan xususiyat, fazilatni anglatadigan sifat-terminlarni shakllantiradi: *o'tkir*, *uchqir*, *chopqir*, *olg'ir*, *topqir*, *keskir*, *sezgir* (tib.) va h.k.

**Fe'l-terminlarning yasalishi.** O'zbek terminologiyasi tizimida qator affikslar yordamida asosan ot va sifatlardan, ayrim hollarda esa boshqa so'z turkumlardan yasalgan fe'l-terminlarning katta miqdorda qo'llanishi kuzatiladi.

Ism asoslardan fe'l – terminlar yasashda quyidagi modellar ishtirok etadi:

-*la* affiksli so'z yasovchi model.

Ushbu o'ta mahsuldor model quyidagi ma'no-mazmunli fe'l-terminlarni yasashda xizmat qiladi:

a) jarayon, ish-harakat, najijani ifodalaydi: *hisob-la-*, *yiring-la-*, *shamol -la-*, *sud-la-*, *em-la-*, *o'g'ir-la -* (o'g'ri), *payvand-la-*, *dalil-la-*, *litsenziya-la-* va h.k.;

b) boshlang'ich asosdan anglashilgan narsa-predmet, buyum bilan birga qilinadigan harakatni bildiradi: *beton-la*, *asfalt-la*, *tormoz-la*, *shtamp-la*, *egov-la*, *shifr-la*, *press-la*, *kumush-la*, *bomba-la*, *urug'-la*, *kavshar-la*, *parma-la* va h.k.;

v) kimnidir yoxud nimanidir boshlang'ich asosdan anglashilgan narsa-predmet, buyum, modda ta'siriga yo'liqtirish, duchor qilishni bildiradi: *o'q-la-*, *moy-la-*, *lok-la-*, *sement-la-*, *sirka-la-*, *tuz-la-*, *yod-la-*, *sir-la-* va h.k.;

g) dastlabki asosga xos belgi-xususiyat, sifat, fazilat, xossa, shakl, tuzilishga ega bo'lmoq ma'nosini anglatadi: *yax-la-*, *qurt-la-*, *muz-la-*, *sho'ra-la-*, *gul-la-* va h.k.;

d) boshlang'ich asosga oid bo'lgan xususiyat, xossa, fazilat, ko'rinish, tuzilish, shakl haqida kimgadir yoxud nimagadir xabar berish ma'nosini ifodalaydi: *ayb-la-*, *saf-la-*, *dud-la-*, *chegara-la-*, *jazo-la-*, *ko'l-la-*, *kurtak-la-* va h. k.

- *lan* affiksli so'z yasovchi model.

Mazkur sermahsul model tubandagi ma'noli fe'l – terminlarni hosil qiladi:

a) dastlabki asosdan anglashilgan narsa, buyumga egalik qilishni bildiradi: *qurol-lan-, yaroq-lan-, kasal-lan-, xasta-lan-, qopqoq-lan-, kojux-lan-* va h.k.;

b) natijani anglatadi: *qadoq-lan-, kristal-lan-, gaz-lan-, gudron-lan-, botqoq-lan-, osh-lan-, butoq-lan-, tormoz-lan-, davo-lan-* va h.k.;

v) boshlang'ich asosdan anglashilgan biror narsaga duchor bo'lish, uning ta'siri ostida qolish ma'nosini ifodalaydi: *zarar-lan-, foyda-lan-, jazo-lan-, zahar-lan-* va h.k.;

g) jarayon nomini bildiradi: *sur-lan-, sir-lan-, nur-lan-, oziq-lan-, o'g'it-lan-, oksid-lan-, loyiha-lan-, imzo-lan-, sarf-lan-, saf-lan-, xrom-lan-, ion-lan-* (Kononov 1960; 249-250) va h.k.

- *lash* affiksli so'z yasovchi model.

-*lash* affiksli mazkur sermahsul model boshlang'ich asosning leksik ma'nosidan kelib chiqib, qator fe'l – terminlarni yuzaga chiqaradi.

Boshlang'ich asosdan anglashilgan xususiyat, xossa, fazilat, shakl, holat, vaziyatga egalik qiluvchi jarayon yoxud pirovard natija yoki dastlabki asosdan anglashilgan narsaga aylanish, o'tish jarayonini ifodalaydi (Kononov 1960; 251): *xira-lash-, sodda-lash-, o'troq-lash-, chet-lash-, standart-lash-, sust-lash-, konsentratsiya-lash-, demokrat-lash-, radio-lash-, markaz-lash-, kompyuter-lash-* va h.k.

-*lashtir* affiksli so'z yasovchi model.

-*lashtir* (-lash-tir) qo'shimchali bu o'ta unumli model jarayon, natija, belgi-xususiyat, shakl, vaziyat, holat nomini ifodalovchi fe'l– terminlar yasaydi: *gaz-lashtir-, elektr-lashtir-, sikl-lashtir-, chet-lashtir-, chuqur-lashtir-, shablon-lashtir-, ekran-lashtir-, qalbaki-lashtir-, mashina-lashtir-, mexanizatsiya-lashtir-, militarizatsiya-lashtir-, kompyuter-lashtir-, legal-lashtir-, robot-lashtir-* va h.k.

-*lashtiril* affiksli so'z yasovchi model.

-*lashtiril* (-lashQtirQil ) qo'shimchali bu qolip jarayon, natija, belgi-xususiyat nomini anglatuvchi fe'l-terminlarni hosil qiladi: *mashina-lashtiril -, maxsus-lashtiril -, mahalliy-lashtiril-, mexanizatsiya-lashtiril-, kompyuter-lashtiril-, milliy-lashtiril-, ixtisos-lashtiril-, avtomat-lashtiril-, aniq-lashtiril-, demokrat-lashtiril-, yer-lashtiril-, robot-lashtiril-* va h. k.

**Qo'shma terminlarning yasalishi.** Hozirgi o'zbek terminologiyasi sistemasida fan va texnikaning turfa sohalarida voqelanayotgan qator qo'shma terminlar ikki tushunchani ifodalash uchun xizmat qilmoqda. Moziydan o'zbek tili lug'at fondida faol qo'llanib kelayotgan tub (asl) hamda arab va fors-tojik so'zlaridan yasalgan kompozitsialar o'zbek terminologiyasida muayyan salmoqqa ega.

Internet va globallashuv davrida xorjiy tillarning o'zbek tili so'z boyligiga sezilarli ta'siri oqibatida terminlar sistemasi yangi tip va modellardagi qo'shma terminlar hisobiga yanada kengaydi.

Qo'shma terminlar tarkibining genetik nuqtai nazardan tavsifi ularning ikki, ya'ni muayyan tildagi qatlamga oid so'z birikmalaridan yasalgan qo'shma terminlar hamda turli tillarga taalluqli so'z birikmalaridan yuzaga chiqqan qo'shma terminlarga guruhlanishidan guvohlik beradi.

Tarkib (komponent)lari muayyan (bir) leksik qatlamga tegishli so'zlardan tashkil topgan qo'shma terminlar o'z navbatida ikki guruhga taqsimlanadi: 1) o'zbek tilida qadimdan qo'llanishda bo'lgan asl o'zbekcha, arabcha va forsha-tojikcha leksemalarning birikishidan voqelangan qo'shma terminlar: 2) tarkiblari ruscha-baynalmilal termin yoxud termin-elementlardan tashkil topgan, ya'ni o'zlashtirilgan qo'shma terminlar (Madvaliyev 2017.60-66).

Birinchi tip terminlar struktur jihatdan tubandagi modellarga ega:

a) *otQ ot* - texnika, zoologiya, botanika, tibbiyot singari sohalar terminologiyasida faol qo'llanadi: *tuyaqush, boyo'g'li, baqaterak, shohparda, shamolparrak, ohaktosh, g'ozpanja, tishcharxlagich, eshakem, qo'litiqtayoq, tirnoqgul, g'ovqoziq* (harb.), *qorovulboshi, tutunparda, safarxalta* (harb.), *suvto'siq* (harb.) va h.k.;

b) *sifatQot* – aksariyat zoologiya, tibbiy, ilm-fan va texnikaviy terminlar yasashda faol ishlatiladi: *ko'richak, panajoy* (harb.), *qizilo'ngach, qorajigar, sariqsuv, achchiqtosh, sassiqpopishak, qizilishton* va h.k.;

v) *sonQot* - deyarli barcha terminologik sistemalarda aksini topadi: *uchburchak, mingoyoq, uchhad, oltiqirralik, beshyulduz, Yetti ayiq, o'n ikki burj* va h.k.;

g) *otQfe'l* (-ar shaklli sifatdosh): *echkiemar, izquvar, muzyorar, toshkesar, suvsepar, go'ngsochar, yong'into'sar, tankborar* va h.k.;

d) *otQfe'lQ-gich* (-g'ich, -qich-kich) affiksi- asosan texnika, harbiy san'at va fizika sohalarida keng ishlatiladi:

*muzlatgich, tovushtutgich, tutunchiqargich, bombaqidirgich, minaqo'ygich, minaqidirgich, ko'prikqo'ygich* (mostoukladchik), *raketaeltgich, xamirqorgich, changso'rgich, go'shtqiymalagich, suvpurkagich, yashinqaytargich, yo'lqurgich, yo'lbuzgich, chala o'tkazgich* va h.k.;

ye) *ravish Qot* (harakat nomi) –texnaka terminlari sirasida oz bo'lsa-da qayd etiladi: *o'ta qizish, o'ta to'yinish, qisqatutashuv* va h.k.

Qo'shma terminlarning leksik-morfologik nuqtai nazardan quyidagi qoliplari ham bor:

a) *otQot* modeli aniqlovchi qo'shma terminlar–*issiqbardosh, yerosti* (boyliklar), *tillarang* (hashorot), *kulrang* (cho'yan) va h.k.;

b) *ravishQsifat* modeli qo'shma terminlar – *o'taqattiq* (qotishma), *o'tasezgir* (apparat), *o'taingichka* (sim) va h.k.;

v) *ravishQfe'l* (sifatdosh) tipli qo'shma terminlar–*tezuchar* (samolyot), *o'tato'yingan* (eritma), *tezyurar* (poyezd) va h.k.;

g) *olmoshQfe'l* tipli qo'shma terminlar–*o'ziuchar* (apparat), *o'ziyurar* (tank), *o'ziyozar* (asbob), *o'ziag'darar* (mashina), *o'zisljir* (to'p) va h.k.

Ikkinchi tip qo'shma terminlar sirasiga turli tillarga xos (ruscha-baynalmilal) so'zlarning birikuvidan hosil bo'lgan, ya'ni gibril qo'shma terminlar kiradi. A.Madvaliyevning fikriga ko'ra o'zbekcha so'zlar bilan

arabcha yoxud forsha-tojikcha leksik birliklar qo'shilishidan yuzaga chiqqan gibrid qo'shma terminlar tayyor holda umumadabiy tildan o'zlashtirilgan. Ruscha-baynalmilal terminelementlar bilan o'zbekcha, arabcha yoki forsha-tojikcha so'zlarning birikuvidan yasalgan gibrid qo'shma terminlar esa, aksincha, terminologik sistemalardan umumadabiy tilga o'zlashib, uni boyitadi, umumadabiy til uchun neologizm hisoblangan leksik bazani voqelantiradi (Madvaliyev, 2017, 66-67).

Gibrid terminlar o'zbek terminologiyasi tizimida so'nggi yilllarda yuzaga chiqqani bilan xarakterlanadi.

XX asrning o'rtalarida o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti negizida voqelangan gibrid qo'shma terminlar hozirgi paytda deyarli barcha terminologik sistemalarda faolligi bilan ajralib turadi.

*Avia-, avto-, agro-, geo-, gidro-, giper-, infra-, mikro-, makro-, moto-, radio-, tele-, ultra-, foto-* va h.k. terminelementlar ishtirokida yasalgan qo'shma terminlar sanoat, ilm-fan va texnika, harb ishi va boshqa sohalarga doir tushunchalarni ifodalaydi: *aviapurkagich, avtosanoat, avtoyo'l, agrosanoat, agroqoidalar, geosiyosat, gidromarkaz, gipertovush, infraqizil, mikrokredit, mikroto'lqin, makroiqtisodiyot, makromatn, motopoyga, radiourush, radioportlatgich, teleboshqarish, ultratovush, fotohujjat, fotoma'lumot* va h.k. Keltirilgan faktik misollar o'zbekcha gibrid terminlarning aynan ruscha terminlardan nusxa olish asosida voqelanganidan dalolat bermoqda. Baynalmilal elementlar ishtirokida bunday terminlarni yasash jarayonida gibrib terminning baynalmilal komponenti saqlanib, ikkinchi, ya'ni ruscha komponenti o'zbekchalashtiriladi.

Gibrid terminlarning boshqa bir turi ham mavjud bo'lib, bunda gibridlarning har ikkala komponenti mustaqil ma'no va qo'llanishli so'z-terminlardan tashkil topadi: *gazpana, bombapana, gazo'lchagich, kartoshkaqazgich, minaqo'ygich, fenilsirka, elektrarra, yodmoy, atomkema, magnitmaydon* va h.k.

Qo'shma terminlar komponentlari munosabatiga ko'ra ikki turga taqsimlanadi:

*AniqlovchiQaniqlanmish* tipidagi qo'shma terminlar ikki yoki undan ortiq ism turkumli so'zlarning qo'shilishidan hosil bo'ladi va yaxlit ma'noni ifodalaydi. Kompozitsiya usulida yasalgan qo'shma terminlarning mazkur turi terminlar sistemasi, xususan, ilm, fan, texnika, zoologiya, biologiya va boshqa soha terminologiyalarda faol qo'llanayotganligi bilan ajralib turadi. M., *qo'lkuchi, qo'lsoat, to'rtburchak, qirqoyoq, makkajo'xori, balxtut* va h.k.

*To'ldiruvchiQto'ldirilmish* tipidagi qo'shma terminlar nisbatan keyingi davrda voqelangan yangi turdagi terminlar hisoblanadi. Ushbu tipdagi qo'shma terminlarning katta qismi uch elementli birikma terminlarning semantik o'zgarishlar bilan elipsis hodisasiga uchrashi oqibatida paydo bo'lgan: *bombaqidirgich, yo'l buzgich, yo'lqurgich, tutunchiqargich, tovuhtutgich, betonqorgich, asfalyotqizgich, suvpurkagich, betonteshgich.*

Qayd etilgan qo'shma terminalar *bombani qidiradigan apparat, yo'lni quradigan(buzadigan) mashina, tovushni tutadigan apparat, betonni qoradigan*

(*teshadigan*) *mashina* kabi soʻz birikmalarining ixchamlashuvi, yaʼni toʻldiruvchili soʻz birikmalaridagi *-ni* affiksining tushirilib qoldirilishi, kesim qismiga esa *-gich* (*-kich*, *-gʻich*, *-qich*) qoʻshimchasining qoʻshilishi bilan yasalgan.

Hozirgi davrda oʻzbek terminologiyasining termin-birikmalar hisobiga boyib borishi yaqqol koʻzga tashlanmoqda. Termin-birikmlar deyarli barcha terminlogik sistemalarda mavjud boʻlib, ular tarkib nuqtai nazardan bir qancha tiplarga boʻlinadi.

**Ikki tarkibli termin-birikmalar:** *soʻz turkumi, atqoli ot, umumiy summa, axborot maxfiyligi, kodlash usuli, korporativ sayt, aksiz boj, yashirin soliq, yillik daromad, valyuta tushumi, zarbdor aviatsiya, avtomobilchilar rotasi, kosmik texnologiyalar, isitish qozoni, yengil atletika, ot sporti, qoʻl t oʻpi*, *qiyosiy tilshunoslik, kvantitativ urgʻu* va h.k.

**Uch tarkibli termin-birikmalar:** *global kompyuter tarmogʻi, internet xizmati turlari, xalqaro soliq konvensiyasi, yalpi ichki mahsulot, aviatsiyani boshqarish markazi, erkin uchish hududi, taktik jangovar mashgʻulot, chim ustida xokkey* va h.k.

**Toʻrt tarkibli termin-birikmalar:** *axborot muhofazasini sugʻurta qilish, qarzni boʻlib toʻlash muddati, raketa eltuvchi dengiz aviatsiyasi, juft konturli turboreaktiv dvigatel, fiskal xotirali nazorat mashinasi* va h.k.

**Besh va undan ortiq tarkibli termin-birikmalar:** *pul birligi rasmiy darajasining pasayishi, qattiq yoqilgʻi bilan ishlaydigan toʻgʻri oqimli havo-reaktiv dvigatel, suvosti kemasiga qarshi boshqariladigan reaktiv qurol*, *talabning oshib ketishi bilan bogʻliq inflyatsiya, moliyaviy va iqtisodiy hisob-kitoblarda qoʻllanuvchi vaqt birligi* va h.k.

Oʻzbek tili terminologiyasi tizimada semantik yoʻl bilan yasalgan terminlar ham koʻzga tashlanadi. Terminlar sistemasida metaforaning oʻrni va rolini oʻrganish XX asrning 60-yillaridan boshlangan edi. M. Pavlovaning taʼkidlashicha, termin-metaforaning yuzaga kelishi har doim aniq individning ijodiy akti bilan boshlanadi. Metaforik ijod aktida albatta ikkita shaxs, yaʼni metaforani yasovchi va ushbu metaforaning mazmun-maʼnosini idrok etuvchi qatnashishi shart. Aks holda obraz, oʻxshatish, analogiya tom maʼnodagi metafora boʻlmaydi. Zotan, uning asosiy, yaʼni maʼlumot (informatsiya) uzatish va muloqot vositasi sifatida xizmat qilish vazifasi yoʻqolishi mumkin (Pavlova, 1998).

Semantik kalka (metaforalashish)da kelib chiqishi jihatidan chet tiliga xos boʻlgan yangi maʼnoni oʻzbek tili lugʻat tarkibida ishlatilib kelayotgan soʻz oʻzlashtiradi. Globallashuv, internet va kompyuterlashtirish zamonida oʻzbek tili tomonidan oʻzlashtirilayotgan ruscha-baynalmilal terminlar, xalq turmush tarzining turfa jabhalarini qamrab olgan holda, oʻzbek adabiy tili lugʻat tarkibidan mustahkam oʻrin egallamoqda.

Oʻzbek tili terminologiyasi, xususan, ilmiy-texnikaviy terminologiya ham semantik kalkalash yordamida muttasil boyib bormoqda. Maʼnoviy kalkalash jarayonida muayyan ruscha-baynalmilal ilmiy-texnikaviy terminning maʼnosini ifodalash oʻzlashtiruvchi, yaʼni oʻzbek tilidagi mutanosib, mos leksik birlikka

yuklatiladi. Ruscha-baynalmilal ilmiy-texnikaviy terminlarni semantik kalkalash oqibatida yangi ma'no kasb etgan asl o'zbekcha so'zlar til terminologiyasi tizimining taraqqiyotida munosib ulushga ega.

Quyida misol tariqasida keltirilgan terminlar bevosita semantik (metaforik) kalkaning mahsuli hisoblanadi: *barmog* (tex.palets), *oziqlash/oziqlantirish* (tex. pitaniye), *quloq* (tex. uxo), *ko'ylak* (tex. rubashka), *yeng* (tex. rukav), *yostiq* (tex. podushka), *belbog'* (tex. poyas), *cho'ntak* (tex. karman), *qalpoq* (bot. shlyapka), *qalpoqcha* (tex.golovka), *tish* (tex. zub, zubets), *tirsakli* (tex. kolenchatiy), *jism* (mat.;fiz.telo), *tuxumhujayra* (biol. yaytsekletka) va h.k.

Terminlarning meforalashishi quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

tashqi yoki shakliy o'xshashlik asosida: *barmog halqasi*, *yashil kompyuter*, *tumshuq* (kema tumshug'i), *tuynuk*, *quti* (harb. magazin qutisi), *zamburug'* (tib.), *saraton* (tib.) va h.k.;

vazifalarning o'xshashligi asosida: *elektron hamyon*, *elektron armiya*, *manzil niqobi*, *qalpoq qurilmasi* va h.k.;

harakat tarzi o'xshashligi asosida: *sun'iy tafakkur*, *sukut (internet)*, *boshi berk holat*, *ma'lumotlar bo'lagi* va h.k.;

rang-tusdagi o'xshashlik asosida: *yolg'on simvol*, *avvalgi iz*, *qaynoq almashtirish*, *davriy halqa* va h.k.;

amaldagi terminni yangi tushunchani ifodalash maqsadida qo'llash asosida: *tezkor xotira* (main memory), *ko'zgu* (mirror), *tarmoq choki* (network wearing), *elektron aravacha* (shopping cart program) singari terminlar internet terminologiyasida keng qo'llanmoqda (Saidqodirova, 2018, 21).

### **3. Istiqlol davri o'zbek lug'atshunosligi erishgan yutuqlar.**

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va 1991 yilda Mustaqillikning qo'lga kiritilishi o'zbek leksikografiyasi oldida shonli ufqlarni ochib berdi. Mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab o'zbek lug'atchiligi o'tmishda erishilgan tajriba va an'analar negizida turfa turdagi lug'atlar tuzish masalalasini ijobiy hal qilishga kirishdi. Bu borada qo'yilgan jiddiy qadamlardan biri O'zbekiston milliy entsiklopediyasini Istiqlol g'oyalari asosida tuzish, sobiq sho'rolar davrida nohaq kamsitilgan ajdodlar hayoti va faoliyatini ob'ektiv, haqqoniy yoritish, totalitar tuzum siyosati va mavkurasini ifodalovchi tushunchalardan voz kechish singari maqsadlar sari yo'naltirilgan 12 jildan iborat Milliy entsiklopediyaning nashr qilinishi Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim voqea sifatida e'tirof etildi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, o'zining ilmiy jihatdan chuqur, ayni vaqtda ommabopligi bilan keng kitoxonlar orasida obro'-e'tibor topib, jahonning nufuzli qomuslari qatoridan munosib o'rin oldi. 32 dan ortiq fan sohalariga doir tushunchalar qatori umumbashariy ma'lumotlarni ham o'z ichiga qamrab olgan entsiklopediya jildlarida 60 mingdan ortiq maqolalar keltirilgan. Entsiklopediyadan joy olgan maqolalar 9 tahririyat tomonidan tavsiya etilgan. Maqolalarning hajmi ularning mazmun-mohiyati, xarakteridan kelib chiqqan holda o'zaro farqlangan.

Mamlakatlar, davlatlar, geografik ob'ektlar, sulolalar, mashhur tarixiy shaxslar kengroq yoritishni taqozo etgan.

Etimologik lug'at yaratish tuzuvchidan til tarixidan yuqori darajada xabardor bo'lishni, tilda sodir bo'luvchi qonuniyatlar, so'z yasalishi jarayonlarini puxta egallashni taqozo etadi. Etimologik lug'atlar tuzish masalasiga tilshunoslar juda erta diqqat qaratishgan bo'lsa-da, biroq tom ma'nodagi etimologik lug'atlar nisbatan keyingi davrlarda yaratildi. Turkiyshunoslikda etimologik lug'atlar tuzishga qo'l urgan olimlar barmoq bilan sanalarli. Xususan, "Chuvash tilining etimologik lug'ati" Egorov tomonidan o'z vaqtid tuzildi. Sobiq SSSR FA Tilshunoslik institutida E.V.Sevortyan rahbarligida dunyo yuzini ko'rgan "Turkiy tillarning etimologik lug'ati" (Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazo'kov ).1-1U.M., 1974-1989, Hasan Erenning Turkiy tillar etimologik lug'ati shular jumlasiga kirar edi. O'tgan asrning oxirida o'zbek lug'atshunosligi qarshisida etimologik lug'at yaratish masalasi ko'ndalang turar edi. Ushbu o'ta og'ir, ayni paytda, sharaflari vazifani amalga oshirish professor Sh.Rahmatullaev boshchiligidagi ToshDU (hozirgi O'zMU) tilchilari zimmasiga yuklatildi. 1997-1999 yillarda "O'zbek tilining qisqacha etimologik lug'ati" chop etildi. To'rt kitobchadagi maqolalarning talay qismi keyinchalik qaytadan tuzildi, yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanib, bartaraf qilindi. Lug'at 2000 yilda "Universitet" nashriyotida Sh.Rahmatullaev nomi bilan "O'zbek tilining etimologik lug'ati" shaklida nashr qilindi. Mazkur lug'atning birinchi jildi turkiy so'zlar etimologiyasiga bag'ishlangan bo'lib, unda 2400dan ortiq so'z qamrab olingan. Lug'atning 2003 yilda e'lon qilingan P jildida arab so'zlari va ular bilan hosilalar, 2009 yilda dunyo yuzini ko'rgan Sh jildida esa forscha, tojikcha birliklar va ular bilan hosilalarning etimologiyasi berilgan.

O'zbek leksikografiyasi izohli lug'atlar tuzish borasida ham muayyan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Ma'lumki, 1981 yili Moskvadagi "Russkiy yazik" nashriyotida Z.Magrufov tahriri ostida 60000 so'zni ichiga olgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" ikki jild tarzida chop etilgan edi. O'z vaqtida o'zbek lug'atshunosligining ulkan yutug'i siftida baholangan ushbu lug'at Mustaqillikdan keyingi mavjud talablarni qondirishda qo'l kelmay qoldi. Zero, unda izohlangan so'zlarning aksar qismi totalitar tuzum mafkurasi, ma'naviyati bilan bog'liq edi. O'zligini angab etgan, azaliy qadriyatlarini qayta tiklash yo'ligi tushib olgan o'zbek millati vakillari uchun istiqloq, ozodlik, erkinlik, vatanparvarlik, fidoylik g'oyalarini tarannum etuvchi mutlaqo yangi tipdagi izohli lug'at tuzish zarur edi. Ushbu jihatlardan kelib chiqqan holda O'zR FA Til va adabiyot insituti lug'atchilari sa'y harakati natijasida 5 jilddan iborat "O'zbek tilining izohli lug'ati" joriy alifboda nashr qilindi. Lug'atning lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosidagi nusxasi nashr yuzini ko'rish arafasida.

Istiqloq yillarida o'zbek lug'atshunosligi yuqorida qayd etilgan lug'atlardan tashqari ikki tilli, chappa(ters), chastotali,tezaurs va h.k. lug'atlar tuzish borasida ham sezilari ishlarni bajardi. Ayniqsa, ilm-fan, texika sohasiga doir terminologik lug'atlar tuzishdagi ishlarni ta'kidlash lozim bo'ladi. Bu borada tibbiyot fanida qo'llanuvchi terminlarning tarjima, izohli lug'atlarining katta miqdorda nashr yuzini ko'rgani quvanarli hol. Tarixda qo'llangan ijtimoiy, siyosiy, harbiy

terminlar izohiga bag'ishlangan lug'atlar nashr qilindi. Natijada, bugungi kitobxon o'tmish bilan yaqindan oshno bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldi.

### **Nazorat savollari**

1. O'zbek tili terminlarining asosini struktur-semantik jihatdan qanday so'zlar tashkil qiladi?
2. O'zbek tili terminologiyasi qaysi turkumli so'zlardan iborat?
3. Termin yasashda qaysi usul eng sermahsul hisoblanadi?
4. Ot turkumli termin(turdosh ot)larning affiksali usul bilan yasalishi haqida baxs yuriting.
5. –chi affiksli model bilan yasalgan tarixiy terminlarni tavsiflang.
6. “Muhokamat ul-lug'atayn”da –chi affiksi ishtirokida yasalgan qaysi soha istilohlari keltirilgan?
7. –lik affiksli model qanday ma'noli ot-terminlarni hosil qiladi?
8. –chilik affiksli model qanday ma'noli terminlarni yuzaga chiqaradi?
9. –cha, -dosh, -lash,-lashtirish affiksli modellar qanday ma'noli terminlarni yasaydi?
10. O'zbek tilida terminlar yasashda o'zlashma qo'shimchalarning o'rnini qanday?
11. Mustaqillikdan keyin o'zbek leksikografiyasi qanday yutuqlarga erishdi?
12. “O'zbek tilining etimologik lug'ati” xususida fikringiz qanday?
13. “O'zbek tilining izohli lug'ati” (besh tomlik) sizni qoniqtiradimi?

### **Savol va topshiriqlar:**

Morfologik usul bilan yasalgan sifat-terminlar necha guruhga bo'linadi?

Tilning lug'at tarkibi qancha mustaqil qatlamdan tashkil topadi?

Kam-affiksoidi borasida o'zbek tili grammatikasiga oid asarlardagi baholarga e'tibor bering.

Qanday affikslar sifat-terminlar yasashda qatnashadi?

–la affiksli mahsuldor modelning fe'l-terminlar yasashdagi o'rnini baholang.

–(v)iy qo'shimchasining hozirgi paytda termin yasashdagi ishtirokiga to'xtaling.

Qo'shma terminlarning tarixiy xususiyatlarini misollar yordamida oching.

Qo'shma terminlar komponentlari munosabatiga ko'ra necha turga ajratiladi?

Gibrid terminlarni mavjud lug'atlardan toping va izohlang.

Terminlarning metaforalashish yo'llariga diqqat qarating.

### **Test:**

1. Morfologik usul bilan yasalgan sifat-terminlar nechta guruhga bo'linadi?

A. uch

V. ikki



S. to‘rt  
D. besh

2. Nimagadir yaroqlilikni ifodalovchi sifat-terminni ko‘rsating.

A. zaharli  
V. tuzli  
S. qimmatli  
D. yeyimli

3. –simon affiksli sifat-terminlar qaysi fan sohalarida faol ishlatiladi?

A. tilshunoslik va adabiyotshunoslik  
V. geologiya va geografiya  
S. astronimiya va tibbiyot  
D. zoologiya va biologiya

4. O‘tgan asrning 60-yillarida kammahsul bo‘lgan qaysi affiks hozir unumli affiks hisoblanadi?

A. –simon  
V. –(v)iy  
S. ser-  
D. kam-

5. –ma affiksli model qanday fe‘llardan passiv ma’noli sifat-terminlar yasaydi?

A. shaxssiz  
V. o‘timsiz  
S. o‘timli  
D. harakat

6. Genetik jihatdan o‘zbek tili qo‘shma terminlari nechta guruhga bo‘linadi?

A. ikki  
V. uch  
S. to‘rt  
D. besh

7. sonQot strukturali qo‘shma terminlar qaysi terminlar sistemalarda faol qo‘llanadi?

A. tibbiy, biologiya  
V. harbiy, ijtimoiy-siyosiy  
S. barcha  
D. ilmiy-texnikaviy

8. ravishQfe‘l (sifatdosh) tipli qo‘shma terminlar qatorini belgilang.

A. issiqbardosh, o‘ziuchar

V. tezuchar, o'tato'yingan  
S. o'zsiljir, o'taingichka

9. Gibril qo'shma terminlar o'zbek tilida qachon qo'llanishga kirgan?

A. XX asr boshi

V. XX asr o'rtalari

S. XX asr oxiri

D. XIX asr ikkinchi yarmi

10. Qo'shma terminlar komponentlari munosabatiga ko'ra nechta turga taqimlanadi?

A. ikki

V. uch

S. to'rt

D. besh

### **Foydalanilgan adabiyot**

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. - Toshkent: Fan, 1988.

2. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamallari. Toshkent: Fan, 2002.

3. Dadabaev X.A. Obshchestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazo'chno'x pismenno'x pamyatnikax XI-XII vv. -Tashkent: Yozuvchi, 1991.

4. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opo't lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.

5. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masallalari. Toshkent: Fan, 1977.

### **Adabiyotlar**

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1985.

2. Gulyamov A. Problema istoricheskogo slovoobrazovaniya uzbekskogo yazo'ka.1. Affiksatsiya. Ch. 1. Slovoobrazuyuhie affikso' imen. Avtoref. diss. dok.filol. nauk. - Tashkent, 1955.

3. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masallalari. Toshkent: Fan, 1977.

4. Kononov A.N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazo'ka.-M.-L., 1960.

5. Lotte D.S. Osnovo' postroeniya nauchno-texnicheskoy terminologii. - M.: AN SSSR, 1961.

6. Madvaliev A.O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masallalari.T.:O'zbekiston milliy entsiklopediyasi.2017.-B.28-30.

7. Pavlova M. Metaforo' i kognitivno'e nauki. - M.,1998.

8. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1 qism. Darslik.-Toshkent: O'qituvchi, 1980.

**5-modul. O'zbek terminologiyasini takomillashtirish masalalari. Sohaviy terminologiyada amalga oshirilayotgan islohatlar.**

**7-MAVZU. BUGUNGI O'ZBEK LEKSIKOGRAFIYASIDA SEMASIOLOGIYA YUTUQLARINING AKS ETISHI. IZOHLI, ETIMOLOGIK, ENTSIKLOPEDIK VA H.K. LUG'ATLARNING YANGI AVLODI: YUTUQLAR, MUAMMOLAR, VAZIFALAR, YECHIMLAR.**

Reja

1. Bugungi o'zbek leksikografiyasida semasiologiya yutuqlarining aks etishi.
2. Izohli, etimologik, entsiklopedik va h.k. lug'atlarning yangi avlodi:
3. Izohli, etimologik, entsiklopedik va h.k. lug'atlarning yangi avlodi: yutuqlar, muammolar, vazifalar, yechimlar.

**Asosiy tushunchalar:** *monosemantika, polisemiya, paradigmatic munosabatlar, giperonim,-giponim, partonimik munosabatlar, graduonimik munosabatlar, omonimik qatorlar, sinonimiya, antonimiya, antonim juftliklar, kontrar, komplementar, terminologik lug'atlar, izohli lug'at, etimologik lug'at, lug'at tuzilishi, baynalmilal so'zlar, biologik jins, bosh so'z, tarix terminlari, harbiy terminlar, yuridik terminlar, tibbiy terminlar, klinik terminlar, sohaviy terminologiya, o'zbek leksikografiyasi, guruhlashtirish, tizim, sheva va lahja materiallari, internet, tilning ichki imkoniyatlari, ekstralingvistik omillar, texnologiya, elektron lug'atlar, konkordans.*

Atamashunoslik qo'mitasining terminlarni tartibga solish, muvofiqlashtirish, terminologik lug'atlar tuzishni tartibga solish borasidagi faoliyati. O'zbek tili terminologiyasidagi leksik-semantik hodisalar

1. Atamashunoslik qo'mitasining terminlarni tartibga solish, muvofiqlashtirish, terminologik lug'atlar tuzishni tartibga solish borasidagi faoliyati.
2. Terminologik lug'atlar, ularning mazmun va sifatini aniqlash
3. O'zbek terminologiyasi sistemasidagi paradigmatic munosabatlar.
4. O'zbek terminologiyasi sistemasida polisemiya, sinonimiya va antonimiya.

O'zbek terminologik lug'atlari, ta'bir joiz bo'lsa, fan sohalarining deyarli barchasini qamrab olgan deyish mumkin. Aniq fan sohaları kabi ijtimoiy-gumanitar fan sohaları doirasida qo'llanuvchi terminlarning ma'no-mohiyatini ifodalashga yo'naltirilgan lug'atnavislik (terminografiya) ishlari respublika ilmiy-tadqiqot institutlari yetakchi olimlari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari tomonidan tuzilgan. Terminologik lug'atlarning aksariyati rus tilidan o'zlashgan terminlarning o'zbek tilida ifodalanish masalasiga bag'ishlangan. Albatta, o'zbek terminografiyasida mavjud asarlarning ko'lamini hisobga olib, ayrim fan sohaları,

chunonchi, tibbiyot, huquqshunoslik, tarix, tilshunoslik, harbiy ish doirasida yaratilgan ba'zi terminologik lug'atlarga to'xtalamiz.

O.Usmonov va R.Doniyorov tomonidan 1979 yili "O'zbekiston" nashriyotida 15000 adadda tuzatilgan va to'ldirilgan holda ikkinchi marta nashr qilingan "Ruscha internatsional so'zlar izohli lug'ati", mualliflar ta'kidlaganidek, o'zbek tilining keng ma'nodagi izohli lug'ati bo'lmay, uning vazifasiga faqat rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlarni, shuningdek, o'zbekcha gazeta va jurnallarda, ilmiy-ommabop va ijtimoiy-siyosiy asarlarda uchraydigan ruscha-baynalmilal va ilmiy-publitsistik terminlarnigina o'z ichiga olgan va ularga o'zbek tilida o'zlashtirilishi asosida izoh berilgan, izohlanayotgan so'zlarning etimologiyasi (kelib chiqishi) haqida ham ba'zi ma'lumotlar keltirilgan. Lug'atdan joy olgan so'z va terminlar rus tilidan va rus tili orqali qadimgi yunon, lotin hamda Yevropa va qisman Sharq xalqlari tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar va terminlar hisoblanadi. Bu so'z va terminlarning bir qismi sof ruscha o'zlashmalar bo'lib, qolgan qismi esa xalqaro, baynalmilal yoki internatsional xarakterga ega bo'lgan. Mazkur lug'at mutaxassislariga emas, balki keng o'quvchilar ommasiga, xususan, ziyolilar va talabalarga mo'ljallangan edi. Lug'atning tuzilish tartibi tubandagicha ko'rinishni hosil qilgan:

Bosh so'zlarning barcha so'z va terminlari alifbe tartibida berilgan va ular yirik qora harflar bilan terilib, har qaysisi abzatsdan boshlangan.

So'z yoki termin ko'p ma'noli bo'lsa, u holda ma'nolarning har biri arab raqamlari bilan ko'rsatilgan va ular o'zaro nuqta bilan ajratilgan.

Bosh so'z yoki termin boshqa so'z bilan qo'shib ishlatilganda, u holda bosh so'zdan keyin ikki nuqta qo'yilib, ketidan tarkibida o'sha so'z yoxud termin kelgan so'z birikmasi berilgan.

Tarkibida bosh so'z ishlatilgan turg'un so'z bi rikmalari, tarkibli terminlar ham misol tarzida berilgan. Lug'atda ular romba ishorasi bilan ajratilib, qora kursiv bilan belgilangan: *absolyut... absolyut namlik* va h.k.

Biologik jinsni anglatuvchi so'zlarning har ikki shakli ham lug'atga kiritilgan: *laborant – laborantka, stenografist – stenografistka* va h.k.

*Mexanizatsiya, dezinfeksiya, koordinatsiya* kabi so'zlar *mexanizatsiyalash, dezinfeksiyalash, koordinatsiyalash* singari o'zbekcha shakllari bilan yonma-yon berilgan.

*Vuz, zags, dot, dzot, nep, radar* singari qisqartmalar o'zbek tilida mustaqil, yaxlit so'z yoki termin sifatida lug'atdan o'rin olgan.

Omonimlar lug'atda alohida-alohida berilgan, bir-biridan rim raqami bilan ajratilgan. Omoformlar ham rim raqamlari bilan ajratilib, alohida-alohida talqin qilingan.

Sinonimlar mutlaq ma'noniga ega bo'lsa, u holda izoh eng faol qo'llanadigan sinonimga berilib, kam ishlatiladigan yoki eskirgan ma'nodoshi so'z.ayn.o'zi. ishorasi orqali unga havola qilingan: *Lokator. Radiolokator so'z.ayn.o'zi* va h.k.

Antonim so'z yoki terminlar mustaqil tarzda berilgan bo'lsa-da, lekin ular bir-biriga havola qilinmaydi. Mobodo bunday xavola antonim so'zlardan birining

yoki har ikkisining ma'nosini ochishga, izohlashga yordam bersa, unday holatda ular bir-biriga havola qilingan: *mikroskopik...*; *aksi –makroskopik* va h.k.

O'zbek ilmiy terminlogiyasiga mansub bo'lgan qo'shma va murakkab qisqartma so'zlarning tarkibiy qismlari lug'atda bosh so'z tariqasida berilgan: *avia-*, *avto-*, *agro-*, *geo-*, *gidro-*, *mikro-*, *moto-*, *radio-*, *tele-*, *ultra-*, *foto-* kabi.

Lug'atda keltirilgan so'zlarga o'rni bilan *fiz.*, *tex.*, *mat.*, *geol.*, *astr.*, *med.*, *farm.* singari belgilar qo'yilgan.

Ta'kidlash joizki, mazkur lug'atdan o'rin olgan va izohlangan baynalmilal so'z yoki terminlarning muayyan adadi Mustaqillikdan so'ng jamiyatda yuz bergan tub o'zgarishlar oqibatida o'zbek tili so'z boyligidan chiqib ketdi yoki ular moziyda ajdodlar tomonidan qo'llangan leksik birliklar bilan almashtirildi.

Tarixda qo'llangan terminlar izohiga bag'ishlab mamlakatimizda nisbatan katta yoki kichik hajmdagi lug'atlar nashr qilindi. Shunday lug'atlar sirasiga X.Y.Bekmuhamedovning "Tarix terminlari izohli lug'ati" (Pedagogika oliy o'quv yurtlarining studentlari va o'rta maktab tarix o'qituvchilari uchun. Toshkent: O'qituvchi, 1978), M.Ismoilov, A.Sharopovlarning "Tarix atamaları lug'ati".- Toshkent: Akademnashr, 2013, H.Dadaboyevning "Tarixiy harbiy terminlar lug'ati" (Toshkent, 2007) singari asarlarni kiritish o'zini oqlaydi.

Y.Shermuhamedov va A. Umarov hamkorligida tuzilgan, 1981 yilda "Fan" nashriyotida chop etilgan "Ruscha-o'zbekcha harbiy terminlar lug'ati" umumharbiy va harbiy-siyosiy xarakterdagi terminlar, qurolli kuchlar turlari, ularning tuzilishi, qurol-yarog'lari, strategiyasi va taktikasi, ommaviy qirg'in qurollari, ulardan himoyalaniş, zamonaviy harbiy texnika turlari, ustav, harbiy topografiya, shuningdek, harbiy san'at va harbiy ishning boshqa sohalarida qo'llanuvchi terminlarni ichiga olgan.

8000 dan ortiq terminlarni qamragan ushbu lug'atda terminlar qo'llanishda qanday tartibda uchrasa shundayligicha alifbo tartibida berilgan. Undan tub, yasama terminlar qatori tarkibli terminlar ham o'rin olgan.

Ruscha termin o'zbek tilida ikki yoki undan ziyod ma'noda ishlatilsa o'zbekcha variantlar vergul bilan ajratilgan: *ispitaniye – sinov, sinash; poxod – safar, yurish* va h.k.

Rus tilidagi sifat-termin o'zbek tiliga bir necha variantda tarjima qilinganda uning o'zbekcha variantlari yaqqol namoyon bo'lishi maqsadida alohida lug'at maqolasi tarzida berilgan: *boyevoy-jangovor, portlovchi, o'qlangan* va h.k.

Ruscha omonimlar rim raqami bilan belgilanib, alohida maqola sifatida keltirilgan: *armiya I –armiya (jami qo'shin); armiya II-armiya (harbiy qo'shilma)* va h.k.

Ayrim ruscha terminlarning tarjimasini keltirishda termin darajasiga chiqmagan, ammo ba'zan qo'llanadigan variant(dublet)lar qavs ichida qayd etilgan: *kambuz-kambuz (kema oshxonasi), katapultirovaniye-katapultirovaniye (irg'itish)* va h.k.

Ruscha komanda va komandaga oid iboralar, qisqartmalar, harfiy shartli belgilar lug'atga ilova qilingan: *ogon –o't och, nazad-orqaga qayt; BTR – bronetransporter-bronetransporter, VMF-HDF, PVO-HHM* va h.k.

Lugʻatdan *armata-armata, bastion-bastion, bataliya-bataliya, kadet-kadet* singari tarixiy terminlarga ham joy berilgan.

Huquqshunoslik doirasida ham lugʻatlar tuzish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilganini taʼkidlash lozim. Shu oʻrinda Gʻ.Ahmedov va H.Bektemirov tomonidan tuzilgan “Ruscha –oʻzbekcha yuridik atamalar lugʻati”ning “Adolat” nashriyotida A.Saidov maʼsul muharrirligi ostida 2002 yili eʼlon qilinganini eʼtirof etish maqsadga molik. Binobarin, bu lugʻat tuzilishi va unda materiallarning berilishi jihatidan avvalgi lugʻatlardan farq qiladi. Lugʻatga qonunlar, huquqshunoslik, xalqaro huquq sohasi, huquqqa oid darsliklar hamda ish yuritishda ishlatiladigan terminlar kiritilgan. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga oʻtishda ham iqtisodiy, ham huquqiy terminlar bir-biri bilan bogʻlanib ketganligi bois iqtisod va huquqqa oid chegaradosh terminlar ham lugʻatdan oʻrin olgan. Lugʻatning afzalliklaridan biri– unda terminlarning kirill yozuvidan tashqari lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosida ham berilishidir. Ushbu lugʻatni yaratishda F.Bakirovning “Yuridik terminlar lugʻati” (Toshkent, 1959), “Yuridik atamalar va iboralar lugʻati” (Toshkent, 1993)dan foydalanilgan. Bu yoʻnalishda soʻnggi paytlarda eʼlon qilingan ishlardan biri sifatida Z.Muqimov hamda O.Tursunovalar tomonidan tuzilgan va Samarqandda 2007 yilda chop etilgan “Oʻzbek davlatchiligida qoʻllangan tarixiy-huquqiy atamalar”ni keltirish mumkin. Lugʻat oʻzbek davlatchiligi tarixining turli davrlarida, turli tillarda qoʻllangan terminlar, ularning etimologiyasi (qaysi tilga xosligi), til va huquqqa oid maʼnolari izohlarini qamrab olgan.

Oʻzbek lugʻatshunosligida tilshunoslikka oid terminologik lugʻatlar yaratish borasida ayrim ishlar qilindi. Chunonchi, A.Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati” hamda N.Mahkamov va I.Ermatovlar hammuallifligidagi “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati”(Toshkent: Fan, 2013)da bugungi kunda til sohasida faol qoʻllanayotgan terminlarning izohi berilgan.

D.Xudayberganovanning “Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lugʻati” (Toshkent, Turon zamin ziyo, 2015)da tilshunoslikning yangi sohalaridan hisoblanmish lingvokulturologiyaga oid 100 ga yaqin terminlar izohini topgan va h.k.

Respublikamizda tibbiyot sohasida qoʻllanayotgan terminlar lugʻatlarini tuzish borasida ulkan tajriba va yutuqqa erishildi. 1999 yilda Oʻzbekiston FA akademigi Y.X.Toʻraqulov bosh muharrirligi ostida “Kamalak”-“Hamshira” nashriyotida chop etilgan “Ruscha-lotincha-oʻzbekcha tibbiy terminlar lugʻati”da tibbiyot sohalariga oid terminlar alifbo tartibida keltirilgan, ularning oʻzbekcha muqobillari va izohlari berilgan. 2010 yilda A.Usmonxoʻjayev, V.YE.Avakov, E.I.Basitxanova hammuallifligida “Noshir” nashriyotida eʼlon qilingan “Katta tibbiy etimologik lugʻat (ruscha-lotincha-oʻzbekcha) (Bolshoy meditsinskiy etimologicheskiy slovar (russko-latinsko-uzbekskiy) yurtimizda etimologik lugʻatlar yaratish borsidagi harakatlarni yuqoriroq bosqichga olib chiqdi. Shu yilda Usmonxoʻjayev A., Basitxanova E.I., Nazirov P.H., Turaxanova M.S. hamkorligida “Sugʻdiyona” nashriyotida bosilgan “Tibbiy terminlar ensiklopedik lugʻati (Ensiklopedicheskiy slovar meditsinskix terminov)” ikki jildan iborat

bo'lib, hozirgi tibbiyotda qo'llanilayotgan 20000 dan ortiq terminlar va tushunchalarni izohlashga yo'naltirilgan. Lug'atdan o'rin olgan terminlar kirill hamda yangi o'zbek yozuvida keltirilgan. Kezi kelganda, tibbiy terminlar lug'atlarini tuzishda jonbozlik ko'rsatayotgan A.Usmonxo'jayev ishlarining alohida e'tirofga molikligini ta'kidlash lozim bo'ladi. Olimning 2013 yilda "Navro'z" nashriyotida lotin alifbosi asosidagi yangi o'zbek yozuvida dunyo yuzini ko'rgan "Katta tibbiy o'quv lug'ati (ruscha-lotinch-a-o'zbekcha) (Bolshoy meditsinskiy uchebniy slovar (russko-latinsko-uzbekskiy) asari 10000 atrofidagi klinik terminlar va tibbiy tushunchalarni o'z ichiga qamrab olgani bilan qimmatlidir.

Tibbiy terminlarga doir lug'atlar xususida so'z ketganda, A.Qosimovning to'rt jildidan iborat "Tibbiy terminlar izohli lug'ati"ni ham e'tibordan qochirmaslik zarur. Ushbu lug'atda yakka ishlatiladigan o'zbekcha va baynalmilal terminlar alohida-alohida, shuningdek, o'zbekcha va baynalmilal elementlardan yasalgan birlikma terminlar ham alohida-alohida berilgani bois uning hajmi kengayib ketgan (Qosimov 2003-2008).

Keyingi paytlarda o'zbek terminografiyasida diniy, ma'rifiy-irfoniy xarakterdagi lug'atlarni tuzish masalasiga bir muncha diqqat qaratildi. Xususan, 2014 yilda ota-o'g'il Omonturdiyevlar tomonidan 1500 dan ortiq istilohlar jamlangan "Ma'rifiy-irfoniy istilohlar izohli lug'ati" e'lon qilindi. Asardan ruhoni, ma'rifiy va irfoniy yoki mavhum tushunchalarni ifodalovchi terminlar qatori ko'pgina ma'rifiy obyekt, manzil, makon, nabotot va shaxs nomlarini anglatuvchi leksik birliklar, antroponimlar, toponimlar ham joy olgan. Istilohlarning joriy (kirill) hamda arab yozuvlarida berilishi lug'atning ilmiy qimmatini ta'minlagan. Asarga lug'at-maqolalar ilova qilingan, u foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ko'rsatkichlar bilan to'ldirilgan.

Leksikografiya prinsiplariga rioya qilingan holda tuzilgan ushbu lug'atda boshqa lug'atlardan farqli o'laroq ma'rifiy yoxud tasavvufiy ta'limot bilan bog'liq tarzda shakllangan, ijtimoiy ma'no-mazmun kasb etgan, izoh, ta'rif, tavsif talab etadigan, termin xarakteridagi so'z va iboralar izohlangan.

Ma'rifiy-irfoniy mazmundagi obidalarda qayd etilgan bir qancha istilohlarning ma'nosini anglashda qo'l keladigan muzkur lug'atda sezilarli yutuqlar bilan birga ayrim juz'iy kamchiliklar ham yo'q emas. Chunonchi, annotatsiyada asarda 2000 ga yaqin, Muqaddimada esa 1500 dan ortiq istilohlar izohlangani ta'kidlangan. Lug'at-maqolalarni joylashtirishda har doim ham alifbo tartibiga rioya qilinmagan. M., *Azon duosi Azon* dan (9), *Al hazar Alhamdulillah* dan (14), *Amin ul-vahiy Amin* dan (14), *Bayt ul-ma'mur*, *Bayt ul-mag'firat*, *Bayt ul-muqaddas*, *Bayt us-salot* izofalari *Baytulloh* dan (24), *Duoi bad qilmoq* iborasi *Duoi bad* dan oldin joylashtirilgan. *Voqea* (35), *Buruj* (30), *Val-layl* (31), kabi sura nomlari, *Gulsayri* (36), *Jin* (45) kabi leksemalar negadir qo'shtirnoqqa olingan. *Voliy* istilohining izohida kamchilikka yo'l qo'yilgan, ya'ni bu termin "barcha ishlarni tasarruf etuvchi, qudrat bilan boshqaruvchi hakim (34)" emas, balki hokim tarzida izohlanishi zarur edi.

2016 yilda G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan Muxtorxon Umarxo'jayev tuzgan "Diniy atamalar va iboralar. Ommabop qisqacha

izohli lug‘at” e‘lon qilindi. Shayx Abdulaziz Mansurning mas‘ul muharrirligida chop etilgan bu asarda diniy terminlar va iboralarning ma‘nosini sodda, to‘g‘ri, tushunarli va xolis izohlashga alohida diqqat qaratilgan. Keng o‘quvchilar ommasiga zaruriy qo‘llanma sifatida mo‘ljallangan ushbu lug‘atdan o‘rin olgan istilohlar joriy (kirill) yozuvda alifbo tartibida berilgan. Undan nafaqat diniy termin va iboralar, shuningdek, talaygina sura va shaxs nomlari ham izohini topgan. Ulkan mehnat va izlanish evaziga yuzaga chiqqan asarda kelajakda to‘g‘rilanishi lozim bo‘lgan ba‘zi o‘rinlar ham ko‘zga chalinadi. M., “but sindiruvchi, krestlarni chilparchin qiluvchi” ma‘nosini ifodalovchi *Butshikan* istilohi nima uchundir *Butshkan* (46) shaklida keltirilgan. *Va‘z, Voiz* (50), *Jurm, Jurmona* (65) istilohlarining bir lug‘at-maqolada izohlanishi o‘zini oqlamaydi. *Doru ul-fano, Dorulomon, Dorulxilofat, Dorul-islom* kabi terminlar imlosida har xillik mavjud.

Terminologiyada variantdorlikning salbiy hodisa ekanligi hisobga olinib, *Zulfiqor, Zulfaqor* (70), *Inshaalloh, Inshoolloh* (80), *Iymon, Imon* (75), *Nabi, Nabiy* (117) singari shakllardan biri tanlansa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Lug‘at-maqolalarni joylashtirishda ayrim o‘rinlarda alifbo tartibining buzilgani kuzatiladi (75-76; 83; 103; 115). Lug‘atni tuzishda muallif 230 nomdagi adabiyotdan istifoda etgan.

E’tirof etish joizki, terminologik sistemadagi terminlarning salmoqli qismi monosemantik hisoblanadi. Terminning tabiati ham ayni shuni talab qiladi. Turli terminlogik sistemalarda qo‘llanayotgan quyidagi terminlar shu jihati bilan xarakterlanadi: *saylovchi, ko‘chirmakash, qarzdor, hissador, daromad, soliq, qo‘riqxon, parlament, kansler, kompilyatsiya, konstitutsiya, konsul, tintuv, patent, ombudsman, tergov, jinoyatchi, ishonch yorlig‘i, oliy sud* va h.k.

Shu bilan birga u yoki bu sohada qo‘llanayotgan ayrim terminlardan bir nechta ma‘noni ifodalash uchun foydalanilayotgani ham sir emas. Xususan, tilshunoslikda *aksentuatsiya* o‘zlashmasi 1. so‘z yoki gapdagi ma‘lum qismlarni urg‘u yordamida ajratish; 2. tilning urg‘u sistemasi; 3. matnda urg‘uni belgilash ma‘nolarini ifdalash maqsadida ishlatilmoqda (Hojiyev, 2002.24).

Huquqshunoslik sohasida *akt* o‘zlashmasining 1. akt; 2. harakat, ish; 3. dalolatnoma ma‘nolarini ifodalashi qayd etilgan (Ahmedov, Bektemirov. 2002.15).

Harbiy terminlar sirasidan o‘rin olgan *vaxta* termini 1. kemada navbatchilik; posbonlik, soqchilik; 2. kema ekipajining navbatda turgan, posbonlik qilayotgan qismi; 3. muhim obyektlardagi navbatchilik, soqchilik ma‘nolarini ifodalashga yo‘naltirilgan (RO‘L 1,1983.100). Ayni terminologik sistemada faol qo‘llanuvchi *granata* termini 1.portlovchi snaryad hamda 2.irg‘itiladigan gimnastika asbobini anglatishda qatnashadi.

Shaklan o‘xshash terminlarning turli fan sohalari terminlogiyasida qo‘llanib, omonimik qatorlarni yuzaga chiqarishi ehtimoldan xoli emas. Chunonchi, *boks I* – sport. boks; *boks II*- tib. boks, alohida xona; *giperbola I*- til. mubolag‘a; *giperbola II* - mat. giperbola (konus kesimlaridan biri); *morfologiya I* -til. grammatikaning so‘z turkumlari haqidagi bo‘limi; *morfologiya II* -tib.; biol.odam va hayvon tanasidagi organlar va to‘qimalar shakli hamda tuzilishini o‘rganadigan fan; *konvergensiya I*- biol. turli organizmlarda bir xil tashqi muhit ta‘sirida o‘xshash belgilarning paydo bo‘lishi; *konvergensiya II* -fiz. ikkala ko‘z o‘q chizig‘ining bir



nuqtada uchrashuvi; *konvergensiya* III.- tib. o'xshashlik, yaqinlik; *konvergensiya* IV- til.-birdan ortiq tovushning tarixiy taraqqiyot natijasida bir tovushga birlashishi; *bo'z* I- mato turi; *bo'z* II –ot turi (rangi bo'yicha); *bo'z* III- cho'l, dasht, yobon; *bo'z* IV- bot. tukli kovil; *assotsiatsiya* I-psix. muayyan sharoitda psixologik hosilalar orasida paydo bo'ladigan aloqa; *assotsiatsiya* II-biol. tuzilishi va turlari bir xil fitotsenozlar majmui; *assotsiatsiya* III –kimyo. molekulalar yoki ionlarning molekulalararo elektr tabiatli harakat kuchi ta'sirida guruhlariga bo'linishi; *assotsiatsiya* IV-siyos. uyushma, birlashma; *assotsiatsiya* V –til. til birliklarining shakli yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko'ra o'zaro birlashishi va h.k. Shunga o'xshash holat tibbiyot, tilshunoslik va boshqa sohalarda qo'llanayotgan *konversiya*, *substansiya*, *substitutsiya*, *transformsatsiya* kabi omonimlar qatorida ham aksini topgan.

O'zbek terminologiyasi sistemasida paradigmatic munosabatlar ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Turli soha terminologiyasi tilning leksik qatlamlari singari ochiq sistema hisoblanib, unda giper-giponimik, partonimik, graduonimik munosabatlar aksini topgan.

Giper-giponimik munosabatlar deyarli barcha terminologik sistemalarda mavjud bo'lib, tabiat va jamiyatdagi o'ta murakkab munosabatlarni ifodalovchi o'ziga xos xususiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. Chunonchi, "qon aylanish sistemasining markaziy a'zosi" semamali yurak giperonimining *aortal yurak*, *astenik yurak*, *atletik yurak*, *buqoq yurak*, *limfatik yurak*, *litral yurak*, *yo'lbars yurak*, *periferik yurak*, *tireotoksik yurak*, *fibroid yurak*, *o'pka yurak*, *ho'kiz yurak*; "yiring hosil qiluvchi jarayonlarda ajralib chiqadigan moddalardan zaharlanish" semamali *sepsis* giperonimining *ginekologik sepsis*, *kiprik sepsisi*, *kriptogen sepsis*, *kindik sepsisi*, *odontogen sepsis*, *og'iz sepsisi*, *tonzillogen sepsis*, *xirurgik sepsis*, *chilla sepsisi*, *yara sepsisi*, *quloq sepsisi* kabi giponimlari tibbiyotda faol qo'llanadi.

*Aviatsiya* giperonimining *qirg'oq mudofaa aviatsiyasi*, *yaqinga uchadigan aviatsiya*, *hamkorlik aviatsiyasi*, *harbiy-dengiz floti aviatsiyasi*, *yordamchi aviatsiya*, *uzoqqa uchuvchi aviatsiya*, *fuqarolik aviatsiyasi*, *bevosita pana qiluvchi aviatsiya*, *harbiy havo mudofaasi (HHM) aviatsiyasi*, *madadchi aviatsiya*, *aloqa aviatsiyasi*, *maxsus topshiriqlar aviatsiyasi*, *bosh qo'mondonlik zahira aviatsiyasi* singari giponimik qatorlari harbiy terminologiyadan keng o'rin olgan.

Shunga o'xshash munosabatlarning huquqshunoslik terminologiyasida ham bot-bot namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. M., *sir* giperonimi asosida *advokat siri*, *aloqa siri*, *davlat siri*, *kasb siri*, *maslahatxona siri*, *muassasa siri*, *omonat siri*, *yozishmalar siri*, *tashkilot siri*, *farzandlikka olish siri*, *xavfsizlik siri* kabi giponimlar voqelangan.

*Tilshunoslik*//*lingvistika* giperonimi *qiyosiy-tarixiy tilshunoslik*, *chog'ishtirma tilshunoslik*, *tipologik tilshunoslik*, *gender tilshunosligi*, *kognitiv tilshunoslik*, *pragmatik tilshunoslik*, *sotsiolingvistika*, *psixolingvistika*, *kompyuter tilshunosligi*, *etnolingvistika*, *mentalingvistika*, *neyrolingvistika*, *biolingvistika* singari giponimik qatorlarni yuzaga keltirgan.

Ulkan ko'lamli terminologiya giperonimi *arxeologiya terminologiyasi*, *biologiya terminologiyasi*, *botanika terminologiyasi*, *bojxona-soliq*

*terminologiyasi, ijtimoiy-siyosiy terminologiya, kimyo terminologiyasi, musiqa terminologiyasi, sport terminologiyasi, ilmiy- texnikaviy terminologiya, transport terminologiyasi, ekologik terminologiya, harbiy terminologiya, tilshunoslik terminologiyasi, adabiyotshunoslik terminologiyasi, tarixiy terminologiya, zamonaviy terminologiya* va h.k. giponimlardan tashkil topgan.

*Baliq* giperonimi giponimlari qatoriga *mo'ylovdor baliq, moybaliq, oq amur, oqcha, sazan, xumbosh baliq, qizilko'z baliq, do'ngpeshona baliq, laqqa baliq* va h.k. kiritish mumkin.

Kompyuter tilshunosligida keng qo'llanuvchi *modellash* giperonimi *informatsion modellash, imitatsion modellash, iqtisodiy-matematik modellash, lingvistik modellash, kognitiv modellash, kompyuterli modellash, matematik modellash, matematik-kartografik modellash, molekulyar modellash, mantiqiy modellash, pedagogik modellash, psixologik modellash, statistik modellash, struktur modellash, fizik modellash, evolyutsion modellash* kabi giponimlarni qamrab oladi.

Partonimiya tilda xolo-meronimik, ya'ni butun-bo'lak munosabatini reallashtiruvchi hodisa sanalib, u tilning leksik-semantik sathi, ayniqsa, terminologik sistemasida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunonchi, *armiya* xolonimi *korpus, diviziya, brigada, polk, batalyon, rota, vzvod, bo'lim*; anatomiyaga oid *gavda* butunnomi *bosh, ko'z, quloq, og'iz, bo'yin, yelga, ko'krak, bel, chanoq, but, qo'l, bilak, barmoq, oyoq, tizza, panja*; ekologiyaga xos *tog' xolonimi dara, cho'qqi, yonbag'ir, tepalik, o'r, qir, jar, zovur*; botanikaga doir *daraxt* butunnom *o'zak-tana, shox-butoq, novda, barg-yaproq, gul-chechak, tomir-ildiz, po'stloq* kabi meronimlarni o'zida birlashtiradi.

Leksik-semantik sathda keng ifodasini topgan graduonimik munosabatlar terminlar sistemasida ham tez-tez voqelanadi. Xususan, ushbu munosabat yer sathining gorizontallik ko'rinishini anglatuvchi *qir-adir-tepa-tog'*; *dasht-cho'l-biyobon-sahro* terminlari orasidagi darajalanishda namoyon bo'lgan. Ayni munosabatni *mehnat staji- maxsus mehnat staji-uzluksiz mehnat staji-umumiy mehnat staji* kabi yuridik, *zonani qurolsizlantirish-chegarani qurolsizlantirish-hududni qurolsizlantirish-mamlakatni qurolsizlantirish-mintaqani qurolsizlantirish-qit'ani qurolsizlantirish* singari harbiy terminlar darajalanishida ham kuzatamiz.

Tilshunoslik terminlari sistemasida sodir bo'luvchi graduonimiya *so'z-so'z birikmasi-sodda gap-uyushiq kesimli gap-uyushgan gap-qo'shma gap- matn* munosabatida yaqqol aks etadi.

Botanikada *daraxt* terminining graduonimik munosabati *urug'-nihol-ko'chat-daraxt* tarzida voqelanadi.

O'zbek terminologiyasi tilning leksik qatlami singari ochiq sistema hisoblanib, unda yuqorida kuzatilgan paradigmalar qatori sinonimik va antonimik munosabatlar ham voqelanadi.

Sinonimlar boshqa tillardagi kabi o'zbek terminologiyasi sistemasida ham faol qo'llanuvchi leksik birliklar sanaladi. O'zbek terminologiyasining barcha shakllanish va rivojlanish bosqichlarida mavjud bo'lgan termin-sinonimlarning

salmoqli ulushini mutlaq sinonimlar tashkil qiladi: *bilga-bilguchi* “olim”, *satg‘uchi-sart* “savdogar, tojir”, *elchi-rasul* “elchi”, *elchi-rasul-payg‘ambar* “payg‘ambar”, *qarg‘a-quzg‘un* “qarg‘a”, *chayon-aqrab* “Chayon burji”, *yulduz ilmi-nujum ilmi-ilmi nujum* “astronomiya, astrologiya”, *to‘p-zambarak*, *to‘pchi-artilleriyachi*, *attashe-vakil*, *shinak-tuynuk*, *qo‘poruvchi-diversiyachi*, *tilshunoslik-lingvistika*, *graduonimiya-darajalanish*, *mablag‘-budjet*, *hisobchi-buxgalter*, *sotqin-xoin* va h.k.

Stilistik termin-sinonimlar mumtoz asarlar, ayniqsa, nazmda bitilgan obidalar so‘z boyligida bot-bot ko‘zga tashlanadi: *Tir-Munshiy* “Merkuriy”, *Mirrix-Turki falak* “Mars”, *aloqachi-chopar*, *g‘o‘l-qalb* “qo‘shin markazi”, *janggoh-ma‘rakagoh* “jang maydoni”, *urush-ma‘raka* “jang”. Hozirgi o‘zbek terminologiyasi ham stilistik sinonimlardan xoli emas: *gepatit-sariq*, *moychechak-romashka*, *qiynash-azoblash-iskanjaga* olish va h.k. Ilmiy-texnikaviy terminlar tarkibida stilistik terminlar uchramaydi.

Turli terminologik sistemalarda qo‘llanuvchi *ayg‘oqchi-josus*, *implantatsiya-transplantatsiya* “ko‘chirib o‘tkazish”, *maosh-nafaqa*, *miqdoriy ustunlik-miqdoriy ortiqlik*, *narx-baho*, *handaq-choh-o‘ra*, *asir-til*, *hujum-hamla*, *karvon-obozi*, *biyobon-dasht-sahro-cho‘l*, *frazeologiya-idioma-turg‘un* so‘z *birikmasi-turg‘un* *birikma-frazeologik* *birlik-frazeologik* *birikma-frazeologiz-frazema* singari leksik birliklar semantik termin-sinonimlar uyasini yuzaga chiqaradi.

Sir emaski, ikki so‘z yoki termin leksik ma‘nosining o‘zaro qarama-qarshi ifodaga ega bo‘lishi ekstralingvistik hodisa hisoblanmish antonimiyani yuzaga chiqaradi (Mirtojdiyev 2010.233).

Bir semantik maydonda mavjud bo‘ladigan antonim juftliklar o‘zbek terminologiyasi sistemasida azaldan faol qo‘llangan. Qadimgi turkiy til va eski turkiy til leksik boyligida *bay* “boy, badavlat, mulkdor” *G‘chig‘ay* “yo‘qsil”; *qullig‘* “quldor” *G‘qul* “qul, g‘ulom”; *yatg‘aq* “tungi soqchilar” *G‘turg‘aq* “kunduzgi soqchilar”; *asig‘* “foйда, kirim” *G‘yas* “ziyon, chiqim”; *alimchi* “qarz, kredit beruvchi” *G‘berimchi* “qarzdor, kredit oluvchi”; *alim* “kirim, foyda” *G‘berim* “qarz, chiqim”; *yaylag‘* “yozgi qo‘nimgoh” *G‘qishlag‘* “qishki qo‘nimgoh”; *yash* “hayot” *G‘olum* “o‘lim”; *yag‘uq* “qarindosh” *G‘yat* “begona, yot”; *yag‘i* “dushman” *G‘yag‘uq* “do‘st, birodar” singari antonim juftliklar keng qo‘llanishda bo‘lgan.

Eski o‘zbek adabiy tilida ushbu hodisaning yanada rivojlangani kuzatiladi: *foйдаG‘ziyon*; *g‘aniy* “boy, badavlat” *G‘yo‘qsul* “kambag‘al”; *boylikG‘faqrlik*; *do‘stG‘aduv* “dushman”; *burang‘ar* “qo‘shinning o‘ng qanoti” *G‘juvang‘ar* “qo‘shinning so‘l qanoti”; *g‘olibG‘mag‘lub*; *g‘alabaG‘shikast*; *hujumG‘mudofaa* shular jumlasidandir.

*Tezlatgich/‘sekinlatgich*, *ochiq pozitsiya/‘yopiq pozitsiya*, *hujum-chekinish*, *yengil suv/‘og‘ir suv* (kimyo), *og‘ir tank/‘yengil tank* (harb.), *keng front/‘tor front* (harb.), *suv usti kemasi/‘suv osti kemasi* (harb.), *mahfiy/‘nomahfiy*, *qo‘nishG‘uchish* (harb.), *qo‘shuvG‘ayiruv* (mat.), *manfiy-musbat* (fiz.), *fermentlarG‘antifermentlar* (tib.), *assimilyatsiyaG‘dissimilyatsiya* (tib.; til.), *funksiyaG‘disfunksiya* (tib.), *semizlikG‘oriqlik* (tib.), eksport-import (iqt.), *jazoni*

*yengillashtiradigan holatlar-jazoni og'irlashtiradigan holatlar* (huq.), *simmetriyaG'asimmetriya* (til.) singari termin-antonimlar hozirgi o'zbek terminologiyasida istalgancha topiladi.

Keyingi paytlarda leksik-semantik jihatdan zid munosabatda bo'lgan, paradigmatic jihatdan yagona differensiyalovchi belgi orqali farqlanuvchi antonimik birliklar *kontrar*, *kontradiktiv*, *komplementar* va *gradual* turlarga bo'lingan tarzda tasniflanmoqda (Fedorchenko 2004.91).

Komplementar antonimlar ikki termin orasidagi binar munosabatga asoslanadi: *tergovchiG'jinoyatchi*, *minalashtirishG'minasizlantirish*, *ko'tarishG'tushirish* (harb.), *irimG'chiqim*, *kunG'tun*, *implisitlikG'eksplisitlik*, *simmetriyaG'asimmetriya* (til.) va h.k.

Konradiktiv antonimlar sirasiga termin-birikmalar kiritiladi: *barqaror narxG'beqaror narx*; *qadrli valyutaG'qadrsiz valyuta*; *ochiq nishonG'yashirin nishon* (harb.); *suyuq yoqilg'iG'qattiq yoqilg'i*; *yoyilish rayoniG'jamlanish rayoni* (harb.); *og'ir artilleriyaG'yengil artilleriya*; *foizli depozitG'foizsiz depozit*; *ochiq safarbarlikG'yashirin safarbarlik*; *katta leytenantG'kichik leytenant*; *og'ir atletikaG'yengil atletika* va h.k.

Kontrar ziddiyat terner, ya'ni ikkidan ortiq terminlar o'rtasidagi qarama-qarshilik oqibatida yuzaga chiqadi: *hujum*, *hamlaG'chekinish*, *orqaga qaytish*; *shafqatli, rahmdil*, *mehribon*, *ko'ngilchanG'shafqatsiz*, *berahm*, *bag'ritosh* va h.k.

So'z yoki terminlar orasidagi antonimlikni aniqlashda ular o'rtasidagi umumiy belgilarni izlash muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi paytlarda ana shunday umumiy belgilardan biri sifatida antonim juftliklarni voqelantirishda ikki so'z yoxud termin o'rtasida oraliq tushunchaning mavjudligiga e'tibor qaratilmoqda. Qayd etilgan fikrni quyidagi ashyoviy misollar ham dalillaydi: *og'ir tankG'o'rtacha tankG'yengil tank*; *balandlab uchishG'o'rtacha balandlikda uchishG'pastlab uchish* (harb.); *yengil soliq yukiG'o'rtacha soliq yukiG'og'ir soliq yuki* va h.k.

Xullas, umumtilda sodir bo'luvchi leksik-semantik jarayonlar terminologiyada qisqartirilgan ko'lam yoxud o'zgargan tarzda voqelanadi.

Terminologiyadagi polisemiya asosan metaforik va metonimik ma'no ko'chishi oqibatida yuzaga chiqadi.

Omonimiya ko'pma'noli so'zlarning boshqa-boshqa leksemalarga aylanishi jarayoni natijasi bo'lib, fanlararo va sistemalararo omonimiya nomi ostida terminologiyadan joy oladi (Danilenko 1077; 205).

Soha terminologiyasining dastlabki shakllanish bosqichlarida o'ta faol bo'lgan sinonimlarning ma'noviy ko'rinishi ularga xos egalik qilish va aniqlik kiritish singari vazifalar bilan amalga oshadi.

Fan tilida antonimlarning ikki turi, ya'ni leksik hamda so'z yasovchi antonimlar o'z ifodasini topadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Terminlogiyaning voqelanishida qanday jihatlar harakatga keladi?

2. Terminlarning qaror topishida umummilliy qatlamning roli qay darajada?
3. O'zbek terminografiyasining hozirgi holati sizni qoniqtiradimi?
4. Terminlar ma'no-mazmunini anglab yetishda terminologik lug'atlarning qanday roli bor?
5. O'tgan asrda o'zbek tilida qaysi fan sohalari bo'yicha terminologik lug'atlar tuzildi?
6. Istiqlool davrida terminologik lug'atlar yaratish yo'lida qanday ishlar amalga oshirildi?
7. Tarix terminlari lug'atlari nima uchun zarur?
8. Tilshunoslik terminlari lug'atlarini tuzish bo'yicha qilinayotgan sa'y-harakatlardan xabardormisiz?
9. Tibbiy terminlar aksini topgan lug'atlar haqida bahs va munozara yuriting.
10. Tarixiy harbiy terminlar ifodasini topgan lug'atdagi o'zlashmalarga diqqat qaratting.
11. Diniy-irfoniy istilohlar izohlangan lug'atlar xususida bahs yuriting.
12. Terminlar sistemasida polisemiyaning mavjudligiga qanday baho beriladi?
13. O'zbek terminologiyasida monosemantik terminlarning o'rnini ko'rsating.
14. Terminlarda sinonimiya, dubletlikning mavjudligi maqsadga muvofiqmi?
15. Terminologiyada sinonimlarning bo'lmasligi uchun nima qilish kerak?
16. Mutlaq termin-sinonimlarni terminologik lug'atlardan toping.
17. Semantik termin-sinonimlar haqida bahs yuriting.
18. Termin-antonimlarning qanday turlari bor?
19. Turli soha terminologiyasida qo'llanuvchi omonimlar xususida fikr bering.
20. Komplementar antonim-terminlarni terminologik lug'atlardan toping.
21. Kontrar antonim-terminlar mohiyatini misollar yordamida bayon eting.

### **Test:**

1. aksentuatsiya termini nechta ma'noni ifodalashga yo'naltirilgan?  
 A. ikki  
 V. uch  
 S. to'rt  
 D besh
2. granata termini nechta ma'noni anglatadi?  
 A. ikki  
 V. uch  
 S to'rt

D. besh

3. konvergensiya termini nechta fan sohasida omonimlik qatorini yuzaga chiqaradi?

A. ikki

V. uch

S. to'rt

D. besh

4. giper-giponimik munosabat qaysi terminologik sistemada mavjud?

A. harbiy

V. ijtimoiy-siysiy

S. deyarli barcha

D. tibbiy

5. partonimiya tilda qanday munosabatni voqelantiradi?

A. tur-jins

V. butun-bo'lak

S. umumiy-xususiy

D. shakl-mazmun

6. urug'-nihol-ko'chat-daraxt terminlari qanday munosabatda reallashadi?

A. giper-giponimik

V. iyerarxik

S. graduonimik

D. sintagmatik

7. Stilistik termin-sinonimlar qanday janrdagi asarlarda tez-tez ko'zga tashlanadi?

A. nasriy

V. nazmiy

S. roman

D. memuar

8. Differensiyalovchi belgi orqali farqlanuvchi antonimik birliklarning nechta turini bilasiz?

A. ikki

V. uch

S. to'rt

D. besh

9. kirim-chiqim, kun-tun terminlari antonimlarning qaysi turiga mansub?

A. gradual

- V. kontrar
- S. kontratktiv
- D. komplementar

10. Ikkidan ortiq termilar orasidagi qarama-qarshilik oqibatida qanday antonimlar yuzaga kladi?

- A. kontrar
- V. gradual
- S. komplementar
- D. konradktiv

### **Adabiyotlar**

1. Ahmedov G'., Bektemirov H. Ruscha-o'zbekcha yuridik atamalar lug'ati.-Toshkent: Adolat, 2002.
2. Bakirov F. Yuridik terminlar lug'ati. -Toshkent, 1959.
3. Bakirov F. Yuridik atamalar va iboralar lug'ati. -Toshkent, 1993.
4. Bekmuhamedov X.D. Tarix terminlari izohli lug'ati. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining studentlari va o'rta maktab tarix o'qituvchilari uchun. Toshkent: O'qituvchi, 1978.
5. Grinev S.V. Vvedenie v terminografiyu.-M., 1995.
6. Dadaboev H. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati. -Toshkent, 2007.
7. Ismoilov M., Sharapov A. Tarix atamalari lug'ati.-Toshkent: «Akademnashr», 2013.
8. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lugati.-Toshkent: Fan, 2013.
9. Muqimov Z., Tursunova O. O'zbek davlatchiligida qo'llangan tarixiy-huquqiy atamalar.-Samarqand, 2007.
10. Ruscha-lotinch-a o'zbekcha tibbiy terminlar izohli lug'ati.-Toshkent: Kamalak-Hamshira, 1999.
11. Usmonov O., Doniyorov R. Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug'ati.-Toshkent: Fan, 1977.
12. Usmonxo'jaev A., Avakov V.E., Basitxanova E.I. Katta tibbiy etimologik lug'at (ruscha-lotinch-a o'zbekcha). Bolshoy meditsinskiy etimologicheskiy slovar (russko-latinsko-uzbekskiy).-Toshkent: Noshir, 2010.
13. Usmonxo'jaev A., Basitxanova E.I., Nazirov P.H., Turaxanova. Tibbiy terminlar entsiklopedik lug'ati (Entsiklopedicheskiy slovar meditsinskix terminov).-Toshkent: Sug'diyona, 2010.
14. Usmonxo'jaev A. Katta tibbiy o'quv lug'ati (ruscha-lotinch-a o'zbekcha). Bolshoy meditsinskiy uchebno'y slovar (russko-latinsko-uzbekskiy).-Toshkent: Navro'z, 2013.
15. Xudayberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent, Turon zamin ziyo, 2015.
16. Shermuhamedov Ya., Umarov A. Ruscha-o'zbekcha harbiy terminlar lug'ati.-Toshkent: Fan, 1981.

17. Qosimov A. Tibbiy terminlar izohli lug'ati. I-IV.-Toshkent, 2003-2008.
18. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.- Toshkent: Fan, 2002.
19. Ahmedov G'., Bektemirov H. Ruscha-o'zbekcha yuridik atamalar lug'ati.-Toshkent: Adolat, 2002.
20. Mirtojiev M. O'zbek tili semasiologiyasi-Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
21. Ruscha-o'zbekcha lug'at. Ikki tomli. Tom I.-Toshkent, 1983.
22. Tixonov A.N., Kim L.L., Tixonov S.A. Sovremenno'y russkiy yazo'k. Leksikologiya. –Tashkent: O'qituvchi, 1991.
23. Fedorchenko E.A. Stanovlenie i razvitie terminologicheskoy leksiki tamojennogo dela v russkom yazo'ke.-M., 2004.
24. Shukurov R. Terminlar sinonimiyasi xususida. O'zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari: 1-respublika terminologiya konferentsiyasi materiallari.-Toshkent: Fan, 1986,-B.32-34.

### **90-yillar boshida o'zbek jamiyatida kechgan puristik harakatning ijobiy va salbiy tomonlari.**

1. Mustaqillik davri xalq hayotida yuz bergan tub o'zlarishlarining o'zbek terminologiyasi rivojiga ta'siri.
2. O'zbek tili terminologiyasida mutlaqo yangi tushunchalarning ifodalanishi.
3. O'zbek terminologiyasi asosan ikki manba: a) o'zbek tilining o'z imkoniyatlari va b) G'arbiy yevropa tillaridan shiddat bilan kirib kelayotgan ko'pdan-ko'p o'zlashmalar hisobiga yanada takomillashuvi va taraqqiy etishi.
4. Terminlarning yasallishida faol modellarning o'rni.

Ma'lumki, terminlar oddiy so'zlar singari umumadabiy va maxsus leksikada bor bo'lgan so'z va o'zaklardan yasaladi.

O'zbek tili terminlari sistemasi o'zga qarindosh turkiy tillardagi singari mavjud struktur turlar, ya'ni sodda, yasama, qo'shma, qisqartma va so'z birikmalarini qamrab oladi.

O'zbek terminologiyasini takomillashtirish borasida qilinishi lozim bo'lgan vazifalar yetarlicha.

Bugungi kunda o'zbek tili soha terminologiyasi har tomonlama takomillashish jarayonini boshidan kechirmoqda. Terminlarning ular ifodalaydigan narsa-buyum, voqea-hodisa tushunchasi, ma'no-mazmuniga mutanosib, mos tushishi, struktur (shakl) jihatdan ixcham bo'lishi, yakka ma'noni ifodalashi, ma'nodoshlik (sinonimik) qatorlariga kirmasligi kabi talablar terminshunoslar diqqat markazidan joy olganligi yangilik emas. Ayniqsa, chet tillardan shiddat bilan kirib kelayotgan ilm, fan, texnika, texnologiyaga doir terminlarni qanday tarzda qabul qilish, o'zlashtirish xususida har xil yondashuvlar ko'zga tashlanadi. Istiqloldan keyin o'zbek terminologiyasi nafaqat miqdor, shuningdek, sifat



o'zgarishlarga ham yuz qo'ydi. O'zbek tili imkoniyatlaridan foydalangan tarzda terminlar tizimini tartibga solish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, muayyan narsa-buyum, tushuncha, voqea-hodisani ifodalashda ona tili qatori, o'rni bilan, o'zbek tili shevalari va lahjalari so'z xazinasida mavjud tayyor so'zlardan foydalanilmoqda, o'zbek tilida asrlar osha sinovlarga bardosh bergan so'z yasovchi affikslarning termin hosil qilishdagi ishtirokidan unumli istifoda etilmoqda, kalkalashning mavjud turlari yordamida terminlar hosil qilishga jiddiy diqqat qaratilmoqda, mazkur usullarning birortasi ham qo'l kelmagan kezlarda chet tili terminlari aynan, tayyor holda o'zbek terminologiyasi tarkibiga olinmoqda. So'nggi fikrning isbotini AKT va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kompyuter, internet bilan bog'liq terminlarning qo'llanishida ko'ramiz.

Shubhasiz, o'zbek terminologiyasi tizimi sezilarli rivojlanishda bo'lishiga qaramay, ushbu soha ham muayyan qusur va kamchiliklardan holi emas. Bizning nazarimizda ularni quyidagi tarzda guruhlashtirish o'zini oqlaydi:

Ilmiy-texnikaviy terminlarning yanada taraqqiy etishi va takomillashuvida ona tilining ichki manbalari va so'z yasash usullaridan qoniqarli tarzda foydalanmaslik. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot bugungi kunda dunyodagi barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar hayotida lokomativ rolini ado etmoqda. Eng zamonaviy qurol-aslahalar, asbob-anjomlar, dastgohlar, robotlar, axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz kelajak jamiyat taraqqiyotini tasavvur qilish amri mahol. O'zbek modeli asosida o'z rivojlanish yo'lini belgilab olgan mamlakatimizda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari, xususan, og'ir va yengil sanoat, qishloq xo'jaligi, ilm-fan, madaniyat, san'at, sport sohalari ildam qadamlar bilan rivojlanmoqda. Buning natijasi o'laroq O'zbekiston jahon hamjamiyatining faol a'zosiga aylandi. Dunyoning yetakchi davlatlari bilan o'rnatilgan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy, madaniy, diniy va h.k. aloqalar negizida taraqqiyotning yangi pallasini boshidan kechirayotgan xalqimiz chet ellardan olib kelinayotgan eng so'nggi texnika va texnologiyalar bilan oshno bo'lmoqda, ularni kundalik hayotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Vatandoshlarimiz, ayniqsa, iste'dodli yoshlarning xorijning nufuzli oliy o'quv yurtlarida tahsil olishi, yosh mutaxassislarining chet ellardagi universitetlarda malaka oshirishi, zamonaviy axborot texnologiyalarining insonlar turmushidan o'rin olishi kabi omillar oqibatida yangidan-yangi tushunchalar va ular bilan bog'liq terminlar tilimizning so'z xazinasidan o'rin olmoqda. Mubolag'asiz ta'kidlash joizki, ayni kezlarda o'zbek tili terminologik tizimiga G'arbiy Yevropa tillaridan bevosita va bilvosita yopirilib kirib kelayotgan terminlarni *tartibga solish, unifikatsiya qilish*, ularni o'zbek tili qoidalariga bo'ysundirish qiyin kechmoqda. Chetdan kelayotgan axborotning haddan tashqari ko'pligi va serqirraligi terminologiyaga xos jihatlarni har doim ham diqqat markazida ushlab turish imkoniyatini bermayapdi. Bu holat terminlarni o'zlashtirish, kalkalash, izohlash paytida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga chiqarmoqda. O'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanishga zarur e'tibor qaratilmoqda, so'z yasash usullaridan har doim ham unumli iste'foda etilmoqda, deb bo'lmaydi. Chet tilidan o'zlashayotgan terminlarni aynan qabul qilish an'anasi hamon yetakchilik qilmoqda. Masalan, internet tarmog'ida qo'llanayotgan *netabayt, ping, piksel, plugin, rastr, gigabayt, gigabit*,

*interfeys, megabayt, terabayt, exabayt, zettabayt, yottabayt, portativ, additiv, tilshunoslikka doir abzats, agglyutinatsiya, aksent, analogiya, apokopa, grammatika, denotat, diglossiya, jargon, ideogramma, intonatsiya, kalka, konvergensiya, semasiologiya, sotsiolekt, jismoniy tarbiya va sportdagi boks, futbol, xokkey, kikkboksing, konfu, karate, gimnastika, arena, stadion* kabi terminlar shular sirasidandir.

1) Ayni bir termin bilan bir nechta yoki har xil ma'nolarni ifodalash. Terminologiyada salbiy jihat hisoblangan mazkur holat qator terminlar sistemasidagi chalkashliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, *byulleten* leksemasi 1. xabarnoma; 2. *byulleten* (saylov *byulleteni*); 3. varaqa (kasallik varaqasi) ma'nolarida ishlatilmoqda. Terminning faqat yakka ma'noni ifodalashi lozimligini hisobga oladigan bo'lsak, ayni holatni o'nglash borasida jiddiy ishlarni amalga oshirishning zarurligi oydinlashadi.

2) Bir ma'noni ifodalashda ikki, ba'zan bir nechta termin-sinonim (dublet, leksik variant)larning parallel ishlatilishi.

Terminologiyaga oid tadqiqot ishlarining barchasida bir ma'noni ifodalash uchun faqat bitta termin qo'llanishi zarurligi bot-bot takrorlangan. Shunga qaramasdan, nafaqt o'zbek terminologiyasi, balki boshqa til teraminologiyalarida ham muayyan ma'noning bir nechta termin-sinonimlar yoki dubletlar va leksik variantlar yordamida ifodalanishi ko'zga tashlanadi.

**Tibbiy terminlar** tizimida qo'llanayotgan *aqlpastlik- telbalik; zayflik- sustlik; ko'rlik-so'qirlik; tortishish-qisqarish-tarang tortish,*

**iqtisodiy terminlar** sirasidagi *budjet-mablag', hisobchi-buxgalter, homiy-sponsor, bo'nak-avans, hisob varag'i-to'lovnoma, taftish-reviziya, kirim-debit, qarzdor-debitor,*

**soliq va bojxona terminologiyasidagi** *jarima-peniya, dallol-broker, qiymat-tannarx, badal-vznos, daromad-tushum-foyda, xaridor-mijoz-sotib oluvchi, soliqchi-soliq yig'uvchi, bojmon-bojxonachi,*

**ijtimoiy, harbiy, huquqshunoslik terminlari** sistemasidagi *diktator-yakka hokim, aparteid-irqiy ayirmachilik, vazifa- funksiya, ofitser-zobit, gipoteza-faraz-taxmin, prolongatsiya-uzaytirish, konversiya-o'zgartirish-almashtirish, jarayon terminlari qatoridagi boshqarish-boshqaruv, yig'ish-yig'uv, ko'paytirish-ko'paytiruv, siqish-siquv,*

**sport sohasidagi** *penalti-11 metrlik jarima, birinchilik-chempionat, qoshimcha taim-overtaiym* singari terminlar shular jumlasidandir.

O'zbek terminshunoslari oldida yuqorida keltirilgan muammolar qatori tubandagi masalalarni ham hal etish mas'uliyati ko'ndalang turibdi:

umumqo'llanish xarakteridagi ba'zi terminlarning mutanosib variantlarining mavjud emasligi;

ilm-fan va texnika soha terminlarini tartibga solish hamda birxillashtirishning qoniqarsizligi;

terminlarni qo'llashda imloviy chalkashliklarga yo'l qo'yish;

terminografiya masalalariga bugungi talablardan kelib chiqib yondashish, turli turdagi terminologik lug'atlar tuzish va nashr qilish jarayonini boshqarish hamda nazorat qilishning sustligi;

turli sohalarda qo‘llanuvchi terminlar aynanligini ta‘minlaydigan metodik qo‘llanma va davriy byulletenning mavjud emasligi;

terminologik leksika, ayniqsa, Mustaqillik davri ilmiy-texnikaviy terminlar haqida olib borilayotgan nazariy tadqiqotlarning qoniqarli emasligi;

terminologiya masalalari bilan maxsus shug‘ullanadigan boshqaruv hamda monitoring organining yo‘qligi.

O‘zbek terminologiyasi tizimida tub terminlar qatori *derivativ terminlarning* ham roli salmoqlidir. Tub terminlar o‘zbek terminologiyasining barcha shakllanish va rivojlanish bosqichlarida ko‘zga tashlanadi. Xususan: *el, yurt, yoy, o‘q, to‘p, to‘ra, tamg‘a, til, qin, boy, kung* “joriya, kanizak”, *qul, yov, qorin, jag‘, o‘pka, ko‘z, oy, kun* kabi tub terminlar deyarli barcha terminologik sistemalar uchun xosdir.

Yasama terminlar, shubhasiz, o‘zbek terminologiyasining ulkan qismini tashkil etadi. Yasama terminlar morfologik, sintaktik va semantik yo‘l bilan hosil qilinishi jihatidan umumleksikadan farqlanmaydi.

Affiksatsiya termin yasashning eng mahsuldor usuli bo‘lib, bu usul o‘zbek terminologiyasi qaror topishining biz bilgan yuqoridagi bosqichlarida yetakchilik qilgan.

So‘z yasalishi o‘zbek tilshunosligida chuqur va atroflicha tadqiq etilgan masalalardan hisoblanadi. Mazkur muammoga oid bir qancha dissertatsiyalar himoya qilingan, talaygina monografiya hamda maqolalar e‘lon qilingan. Termin yasalishi ham o‘zbek tilshunoslari diqqat markazidan o‘rin olgan sohalardan sanaladi.

Termin yasalishida morfologik, sintaktik hamda semantik usullar o‘ta mahsuldor va faol bo‘lib, ularning ko‘magida terminologik tarkib muttasil boyib, taraqqiy etmoqda.

O‘zbek tili terminlarining aksariyatini motivlangan, ya‘ni so‘z-terminlar (qo‘shimchalar bilan yasalgan), termin-qo‘shma so‘z, termin-birikmalar hamda semantik (asosan metaforik) ko‘chim asosida hosil qilingan terminlar tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda, terminlarning salmoqli qismi motivlanmagan, ya‘ni o‘zbek tilining o‘z sodda so‘zlari, o‘zlashmalar, termin-kalkalar va antrponimlardan metonimik ko‘chim vositasida voqelangan.

So‘z turkumlari nuqtai nazaridan o‘zbek tili terminologiyasi asosan ot, sifat, ravish va fe‘l so‘z turkumlariga xos so‘zlardan iborat. Shak-shubhasiz, ot-terminlar o‘zbek terminologiyasining poydevorini tashkil etadi. Ayni paytda, sifat turkumiga dahldor so‘zlarning terminologik leksika tarkibi taraqqiyotidagi o‘rni salmoqli ekanligini ham yoddan chiqarmaslik lozim. Fe‘l-terminlar ham o‘zbek terminologiyasining sezilarli ulushi sanaladi.

O‘zbek tilida morfologik usul bilan termin yasalishi umumadabiy til leksik birliklarini hosil qiluvchi ayni so‘z yasovchi qo‘shimchalar hamda so‘z yasovchi qolip (model)lar yordamida amalga oshiriladi.

Affiksali termin yasalishi umumadabiy so‘zlarning hosil qilinishi singari juda qadimdan yetakchi va sermahsul usul hisoblanadi. O‘z vaqtida Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Ibn Muqanna lug‘atlarida, XIII-XIV asrlarda turkiy til grammatikasiga doir arab tilida yaratilgan risolalarda, Alisher Navoiyning

“Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida o‘zbek (turkiy) tili so‘z yasaliishi vositalari va yo‘llari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan edi.

Hozirgi paytda o‘zbek tili so‘z yasaliishi masalasiga tegishli ilmiy adabiyotlarda so‘z yasovchi affikslarining to‘la tarkibi ma’lum darajada tartibga solingan.

Affiksatsiya usuli bilan yasalgan ot turkumli termin (turdosh ot)lar.

1. Ot (sifat) turkumli so‘zlardan yasalgan terminlar.

-*chi* affiksli so‘z yasovchi model.

O‘ta sermahsul va turg‘un hisoblanmish –*chi* affiksli model hozirgi o‘zbek terminologiyasi tizimida amaliy qo‘llanishda qolayotgan katta miqdordagi terminlar bilan ifodalangan. Mazkur model turdosh otlar yasovchi modellar qatorida eng mahsuldorligi va faolligi bilan ajralib turadi (Gulyamov 1955; Shoabdurahmonov 1980;175-178; Begmatov 1985;132-133). Mazkur model ot so‘z turkumidan aksariyat shaxs oti, ish - harakatni bajaruvchi, biron kasb bilan shug‘ullanuvchi, ijtimoiy mansublik (Sherbak 1977;103; Sravnitelno-istoricheskaya grammatika 1988;144-146) kabi ma’nolarni ifodalovchi otlarni hosil qiladi.

-*chi* affiksining tarixiy taraqqiyoti jarayonida harakat-holat, kasb-hunar, mutaxassislik ma’nolarni ifodalashi ravshan namoyon bo‘ladi. VII-XIV asr qadimgi turkiy runik hamda eski turkiy til yozma manbalarida ushbu affiks ishtirokida yasalgan *bedizchi* (rezchik po derevu, kamnyu, vayatel) (DTS,90), *bitkachi* (pisets, pisar) (DTS,10), *ayg‘uchi* (sovetnik) (DTS,28), *alimchi* (zaimodavets, kreditor) (DTS,35), *altunchi* (zolotix del master) (DTS,40) singari juda ko‘p terminlar qo‘llangan. Mahmud Zamaxshariy qalamiga mansub “Muqaddimat ul-adab” lug‘atida bu qo‘shimcha ishtirokida yasalgan, turli kasb va hunar egalarini anglatuvchi yigirmadan ortiq nomlar qayd etilgan: *paxsachi* (vozvodyashiy glinobitniye steni), *yag‘chi* (maslodel), *chag‘irchi* (vinodel), *bichaqchi* (nojovnik) va h.k. (Dadabayev 1990; 80).

O‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida –*chi* affiksining vazifasiga alohida diqqat qaratgan holda, uning *qurchi*, *xizanachi*, *yarag‘chi*, *chavganchi*, *nayzachi*, *shukurchi*, *yurtchi*, *shilanchi*, *axtachi*, *qushchi*, *barschi*, *qoruqchi*, *tamg‘achi*, *jibachi*, *yorg‘achi*, *halvachi*, *kemachi*, *qoychi* singari turfa mansab va rutbalarni ifodalashdagi faolligini ta’kidlaydi. Alisher Navoiyning yozishicha, *qazchi*, *quvchi*, *turnachi*, *kiyikchi*, *tavushqanchi* kabi qush ovi bilan bog‘liq ko‘pgina terminlar ham –*chi* affiksi ko‘magida yasalgan (Alisher Navoiy 1967; 116-117).

Ilmiy-texnikaviy inqilob davrida, globallashtirish, internet va kompyuterlashtirish asrida –*chi* affiksli modelning so‘z yasash imkoniyatlari va doirasi bir necha barobar oshib ketdi.

Ushbu modelning so‘z yasashdagi vazifasi o‘zbek tilining terminologik so‘z yasaliish meyorlarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

-*chi* bilan yasalgan otlarning ma’noviy o‘ziga xosliklari u qo‘shilayotgan o‘zakka hamda uning o‘ziga tegishli bo‘lgan xususiyatlar ta’sirida shakllanadi.

-*chi* affiksli ot – terminlar semantik strukturasiga ko‘ra bir qancha guruhlariga bo‘linadi.

1. Biron bir kasb-hunar, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi subyekt nomini ifodalovchi terminlar: *traktorchi, sportchi, vositachi, neftchi, kabelchi, elektrchi, ekskavatorchi, hisobchi, soliqchi, uchuvchi, to'quvchi* va h.k.

Umumiy hodisalar hamda kasb-hunar, mutaxassislik terminlari qatori ularning o'z terminologiyasiga ega bo'lgan turli soha va yo'nalishlari ham mavjuddir.

-*chi* affiksi kasb-hunar, mutaxassisliklarning umumiy ma'nosini bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, ushbu kasb-hunar va mutaxassisliklarga taalluqli ot-terminlarni yasaydi: *xizmatchi, tilchi, jangchi, chorvachi* va h.k.;

muayyan kasb-hunar, mutaxassislikning aniq sohasida band bo'lgan shaxsni anglatuvchi ot-terminlarni hosil qiladi: *tankchi, avtomatchi, dozimetrchi, zenitchi, pontonchi, karatechi, gimnastikachi, voleybolchi, bo'yoqchi, betonchi, montajchi, payvandchi, g'ijjakchi, skripkachi, rubobchi, nog'orachi, dasturchi, raketachi* (tex.) va h.k.

-*chi* affiksli model kasb-hunar, faoliyatning aniq sohasini ifodalovchi nomlardan rang-barang mazmun-ma'noli otlarni yuzaga chiqaradi. Chunonchi:

a) qandaydir narsa-predmet, buyum, ashyo yaratuvchi subyekt nomini bildiruvchi terminlar yasaydi: *taqachi, gilamchi, domnachi, muqovachi, beshikchi, tanburchi, dutorchi* va h.k.;

b) ayni kasb, hunar, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi shaxs nomini anglatuvchi terminlarni hosil qiladi: *ayg'oqchi, qo'poruvchi, ixtirochi, arendachi, auksionchi, surushtiruvchi, taftishchi, sinovchi* va h.k.;

v) muayyan kasb-hunar sohasida qo'llanuvchi asbob-uskuna, jihoz, buyum, texnika vositalari nomlaridan ushbu texnika vositalarini boshqaruvchi shaxslar otini yasaydi: *mototsiklchi, kombaynchi, buldozerchi, to'pchi, granatamyotchi, mashinachi* (tikuvchi), *greyderchi, ekskavatorchi, kompyuterchi, tankchi, tarpedachi* (harb.), *raketachi* (harb.) va h.k.;

g) qandaydir bir obyektga mas'ul, mutasaddi ishchi, xizmatchi, arbob nomini ifodalovchi terminlarni yuzaga keltiradi: *omborchi, do'konchi, korxonachi, dorixonachi, soqchi* va h.k.;

d) aniq faoliyat, kasb-hunar soha yo'nalishini anglatuvchi asoslarga qo'shilib, mazkur soha bilan band shaxslar nomini bildiruvchi terminlar yasaydi: *dengizchi, yo'lchi, atomchi, kimyochi, metallchi, metrochi* va h.k.;

ye) fanning turli sohalarida xizmat qiluvchi mutaxassislar, xodimlar nomini ifodalovchi terminlar yasaydi: *tarixchi, adabiyotchi, folklorchi, lug'atchi, tilchi* va h.k.;

j) muayyan narsa-predmet, buyum, mahsulotni sotuvchi subyekt nomini voqelantiradi: *morschi, gazetachi, holvachi, kompyuterchi, gilamchi, telefonchi* va h.k.

Xuddi shunday yo'l bilan yasalgan ba'zi yasama terminlar ham biron bir mahsulotni tayyorlovchi hamda uni realizatsiya qiluvchi – sotuvchi shaxsni ifodalaydi: *paxtachi, pashmakchi, qalpoqchi, beshikchi, eshikchi, shokoladchi* va h.k.

2. Mehnat, hodisa, ish-harakat bilan mashg'ul shaxslarni ifodalovchi ot-terminlarni yuzaga keltiradi: *isyonchi, bosqinchi, navbatchi, jinoyatchi* va h.k.

Ma'lum bir ish - harakat ishtirokchisi nomini bildiruvchi terminlar yasaydi: *namoyishchi, himoyachi, marofonchi, muzokarachi, sulhchi, iste'molchi* va h.k.

Qaysidir oqim, yo'nalish, yo'l tarafdori, muxlisi nomini anglatuvchi terminlarni hosil qiladi: *monarxiyachi, respublikachi, separatchi, oppozitsiyachi, kantchi, gegelchi* va h.k.

Sport jamiyatlari va klublar nomlarini ifodalovchi so'zlarga qo'shilib, shu jamiyat yoki klublar a'zolarini anglatuvchi terminlar yasaydi: *paxtakorchi, dinamochi, navbahorchi, qizilqumchi, lokomotivchi, nasafchi* va h.k.

Ekstralingvistik omillar ta'siri, chunonchi, so'nggi vaqtlarda fan, texnika, axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi natijasi o'laroq o'zbek tilida *-chi* affiksi ishtirokida narsa-predmet, buyum, apparatlar nomlarini atovchi terminlarning miqdori yanada ortdi.

Bunday hodisa birinchilardan o'zbek harbiy terminologiyasi sistemasida qayd etilgan bo'lib, bular jumlasiga *bombardimonchi* (bombardirovshik), *qiruvchi aviatsiya* (istrebitelnaya aviatsiya), *shturmchi* (shturmovik), *fotorazvedkachi samolyot* (samolyot-fotorazvedchik), niqoblovchi o't ochish (maskirovochniy ogon), *niqoblovchi tutun* (maskiruyushiy dim), *tralchi tank* (tank-tralshik) singari terminlar kiritiladi.

Zoologiya terminlari tarkibida esa *nina* so'zidan yasalgan *ninachi, baliq* zoonimidan hosil qilingan *baliqchi*, shuningdek, *sutemizuvchi*(lar, *kemiruvchi* kabi birliklarning qo'llanayotganini kuzatamiz.

*-lik* affiksli so'z yasovchi model. Ushbu qolip o'zbek tilida o'ta sermahsul so'z yasovchi modellardan biri bo'lib, uning ko'magida nafaqat sof o'zbekcha (turkiy), balki o'zlashma so'zlardan ham quyidagi turdagi ot-terminlar hosil qilinadi:

Holat, sifatning mavhumligi, umumiyligi ma'nosini ifodalovchi ot-terminlarni yuzaga chiqaradi. Mazkur ma'noli otlar asosan o'zakdan anglashilgan holat-sifat, fazilat-sifat yoki muayyan belgiga ko'ra voqelangan hodisani bildiruvchi ismlardan yasaladi. Ayrim faktlarga diqqat qaratamiz: *liberallik, safarbarlik, jangovorlik, ishtahasizlik* (tib.giporeksiya), *mentallik* va h. k.;

belgi - xususiyat, sifat yoxud holatni ifodalovchi ot-terminlar yasaydi: *zichlik, suyuqlik, tenglik, ko'rlik* (tib.ablepsiya), *sarosimalik, gomogenlik, debillik, betoblik, amalparastlik, betaraflik, qo'poruvchilik, barqarorlik. taqiqlanganlik* va h.k.;

qandaydir yumush, mashg'ulot, vazifaga mo'ljallangan narsa, buyum, ashyo nomini ifodalaydi: *urug'lik, qishlik, paxtalik, taglik* va h.k.;

onda-sonda *-lik/-liq* affiksli otlar qatnashchi, ishtirokchi nomini anglatadi: *boshliq*;

ma'lum bir joy, yerni nomlovchi ot(eko)-terminlar yasaydi: *tog'lik, qirlik, jarlik, qumlik, bo'shliq, tuzlik* va h.k.;

shaxsning yashash o'rni, turar joyi, kasb-hunari, biror narsaga moyilligi, mashg'ulot turi, xizmat joyi, maqomi kabi ma'nolarni ifodalovchi ot-terminlarni voqelantiradi: *askarlik, ovchilik, fuqarolik, prezidentlik, rektorlik, jarrohlik, mashinistlik, kosmonavtlik, radistlik, shaharlik, bosh vazirlik, feldsherlik, general-gubernatorlik, prokurorlik* va h. k.;

hosil qiluvchi asosning ko‘lami, hajmi yoki sifati natijasi ma’nolarini ifodalovchi ot-terminlarni shakllantiradi: *yettilik, birlik* (1. gram. birlik; 2. mat. bir), *ko‘plik, ikkilik, to‘rtlik* va h.k;

pul birliklari nomlarini bildiruvchi terminlar yasaydi: *so‘mlik, dinorlik, dollarlik, markalik, liralik, somonlik, tangalik, tiyinlik* va h.k;

texnika bilan band bo‘lgan soha yo‘nalishlari hamda korxonalar nomlarini atovchi terminlarni hosil qiladi: *temirchilik, payvandchilik, chilangarlik, aviasozlik, po‘latsozlik, mashinasozlik, kemasozlik, samolyotsozlik, robotsozlik, raketasozlik* va h.k;

muayyan hodisa, voqea, ko‘rinishni anglatuvchi ot-terminlarni shakllantiradi: *jinoyatchilik, huquqbuzarlik, homiylik, vasiylik, badihago‘ylik, maddohlik, chala tug‘ulganlik* va h.k.

*-lik//liq* affiksi yasama so‘zlar bilan birikib, asl o‘zbekcha terminlarni voqelantiradi. Bunday holatlarda u tubandagi qo‘shimchalar ishtirokida turfa termin – derivatlar yasaydi:

*-siz + lik: vaznsizlik, uyqusizlik* (tib.agripniya), *shuursizlik, daxlsizlik, madorsizlik, ishsizlik, nikohsizlik, malakasizlik, moliyasizlik, daxlsizlik, xavfsizlik* va h.k.;

*-dosh + lik: o‘rindoshlik, quroldoshlik, qarindoshlik, polkdoshlik* va h.k.;

*-mas+lik: chanqamaslik* (tib.adipsiya), *suvo‘tmaslik, yurolmaslik* (med.abaziya), *bitmaslik* (tib.nezarasheniye) va h.k.;

*-chan+lik: eruvchanlik, zirhteshuvchanlik, sezuvchanlik, cho‘ziluvchanlik, oquvchanlik, yashovchanlik, o‘zgaruvchanlik* va h.k.;

*-li+lik: chidamlilik, kalloriyalilik, daromadlilik* va h.k.;

*-qoq+lik: botqoqlik, yopishqoqlik, chanqoqlik, qayishqoqlik* va h.k. ;

*-(i)sh+lik: yanglishlik, cheklanishlik, yemishlik, botishlik* va h.k.;

*-roq+lik: yaltiroqlik, chinqiroqlik, o‘troqlik, baqiroqlik* va h.k.

*-lik// -liq* affiksi chet tillardan kirgan so‘z yasovchi morfemalar yordamida yuzaga chiqqan yasama so‘zlardan ot-terminlar hosil qiladi:

*-boz+lik: multiqbozlik, fohishabozlik, guruhbozlik, qimorbozlik, ichkilikbozlik, xotinbozlik, qilichbozlik* va h.k.

*-bon+lik: posbonlik, bog‘bonlik, qo‘ychibonlik, darvozabonlik* va h.k.;

*-vor+lik: ulug‘vorlik, tantanavorlik* va h.k.;

*-gar+lik: javobgarlik, isyongarlik, fitnagarlik da‘vogarlik, savdogarlik, zargarlik, ig‘vogarlik* va h.k.

*-dor+lik: chorvadorlik, aybdorlik, unumdorlik, quldorlik, hosildorlik, gumondorlik, homiladorlik, hissadorlik, mulkdorlik* va h.k.;

*-do‘z+lik: yelkando‘zlik, etikdo‘zlik, telpakdo‘zlik* va h.k.;

*-kash+lik: chizmakashlik, pillakashlik, suratkashlik* va h.k.;

*-kor(-gor, -kar)+lik: sholikorlik, g‘allakorlik, gunohkorlik, hamkorlik, tadbirkorlik* va h.k.;

*-paz+lik : somsapazlik, oshpazlik, choypazlik* va h.k.;

*-parvar+lik: millatparvarlik, kambag‘alparvarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, yetimparvarlik, yurtparvarlik* va h.k.;

-*parast+lik*: *butparastlik, otashparastlik, mansabparastlik, shaxsiyatparastlik, aqidaparastlik, millatparastlik, huquqparastlik* va h.k.;

-*soz+lik*: *mashinasozlik, avtomobilsozlik, samolyotsozlik, kemasozlik, traktorsozlik, shaharsozlik, robotsozlik, motorsozlik, vagonsozlik, qurolsozlik, ko'priksozlik* va h.k.;

-*furush+lik*: *odamfurushlik, bangifurushlik, terifurushlik, og'ufurushlik, valyutafurushlik* va h.k.;

-*xon+lik*: *dostonxonlik, gazetaxonlik, navoiyxonlik, kitobxonlik* va h.k.;

-*xo'r+lik*: *qonxo'rlik, odamxo'rlik (kannibalizm), tekinox'rlik, poraxo'rlik, qasamxo'rlik*.;

-*chi+lik*: *gegelchilik, neokantchilik, trampchilik* va h.k.;

-*shunos+lik*: *o'lkashunoslik, tuproqshunoslik, metallshunoslik, tilshunoslik, huquqshunoslik, qonunshunoslik, matnshunoslik, odamshunoslik* va h.k.

Yuqoridagi ashyoviy materiallarga asoslanib, bildirilgan mulohazalardan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, *ot (sifat) Q lik/liq* modeli mavhum ma'nosi bilan hozirgi o'zbek adabiy tilda, xususan, termin yasashda juda sermahsul va faol qolip sifatida e'tirof etiladi.

Shu bilan bir qatorda, qilingan tahlil *-lik//-liq* affiksining:

a) qurol, asbob, moslamalar nomlari;

b) hosil qiluvchi so'z asosida shakllangan joy, yer nomlari;

v) pul birliklari nomlarini yasashda nisbatan kammahsulligini ko'rsatdi.

Murakkab tarkibga ega *-chilik (-chiQlik)* qo'shimchali model termin yasash jarayonida nisbatan faol. Ushbu qolip quyidagi terminlarni hosil qiladi:

kasb, hunar, mashg'ulot va soha nomlari: *uzumchilik, qorako'lchilik, me'morchilik, tutchilik, o'qituvchilik, dehqonchilik* va h.k.;

umumlashtiruvchi nomlar: *mo'lchilik, mahalliychilik, partizanchilik* va h.k.;

narsa, buyum yoxud hodisa, voqea oti: *kambag'alchilik, ozchilik, tomorqachilik, qurg'oqchilik* va h.k.

### **7.3. Izohli, etimologik, entsiklopedik va h.k. lug'atlarning yangi avlodi: yutuqlar, muammolar, vazifalar, yechimlar.**

O'zbek terminologiyasini takomillashtirish borasida qilinishi lozim bo'lgan vazifalar. Soha terminologiyasida yangi avlod lug'atlarining yuzaga kelishi.

Bugungi kunda o'zbek tili soha terminologiyasi har tomonlama takomillashish jarayonini kechirmoqda. Terminlarning ular ifodalaydigan narsa-buyum, voqea-hodisa tushunchasi, ma'no-mazmuniga mutanosib, mos tushishi, struktur(shakl) jihatdan ixcham bo'lishi, yakka ma'noni ifodalashi, ma'nodoshlik qatorlariga kirmasligi kabi talablar terminshunoslar diqqat markazidan joy olganligi yangilik emas. Ayniqsa, xorijiy tillardan shiddat bilan kirib kelayotgan fan, texnikaga doir terminlarni qanday tarzda qabul qilish, o'zlashtirish xususida har xil yondashuv ko'zga tashlanadi. Istiqloldan keyin o'zbek terminologiyasi nafaqat miqdor, shuningdek sifat o'zgarishlarga ham yuz qo'ydi. O'zbek tili imkoniyatlaridan foydalangan tarzda terminlar tizimini tartibga solishga alohida e'tiyor qaratilmoqda. Xususan, muayyan narsa-buyum, tushuncha, voqea-hodisani ifodalashda ona tili qatori o'rni bilan o'zbek tili shevalari va lahjalari so'z



xazinasida mavjud tayyor soʻzlardan foydalanilmoqda, oʻzbek tilida asrlar osha sinovlarga bardosh bergan soʻz yasovchi affikslarning termin hosil qilishdagi ishtirokidan unumli istifoda etilmoqda, kalkalashning turlari yordamida terminlar hosil qilishga jiddiy diqqat qaratilmoqda, mazkur usullarning birortasi ham qoʻl kelmagan kezlarda chet tili terminlari aynan, tayyor holda oʻzbek terminologiyasi tizimiga oli nmoqda. Soʻnggi fikrning isbotini AKT va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kompyuter, internet bilan bogʻliq terminlarning qoʻllanishida koʻramiz.

Shubhasiz, oʻzbek terminologiyasi tizimi sezilarli rivojlanishda boʻlishiga qaramay, ushbu soha ham muayyan qusur va kamchiliklardan holi emas. Bizning nazarimizda ularni quyidagi tarzda guruhlashtirish oʻzini oqlaydi:

1) Ilmiy-texnikaviy terminlarning yanada taraqqiy etishi va takomillashuvida ona tilining ichki manbalari va soʻz yasash usullaridan qoniqarli tarzda foydalanmaslik. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot bugungi kunda dunyodagi barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar hayotida lokomativ rolini ado etmoqda. Eng zamonaviy asbob-anjomlar, dastgohlar, robotlar, axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz kelajak jamiyat taraqqiyotini tasavvur qilish amri mahol. Oʻzbek modeli asosida oʻz rivojlanish yoʻlini belgilab olgan mamlakatimizda xalq xoʻjaligining barcha

tarmoqlari, xususan, ogʻir va engil sanoat, qishloq xoʻjaligi, ilm-fan, madaniyat, sanʼat sohalari ildam qadamlar bilan rivojlanmoqda. Buning natijasi oʻlaroq Oʻzbekiston jahon hamjamiyatining faol aʼzosiga aylandi. Dunyoning etakchi davlatlari bilan oʻrnatilgan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy, madaniy, diniy va h.k. aloqalar negizida taraqqiyotning yangi pallasini boshidan kechirayotgan xalqimiz xorijdan olib kelinayotgan eng soʻnggi texnika va texnologiyalar bilan oshno boʻlmoqda, ularni kundalik hayotda qoʻllash imkoniyatiga ega boʻlmoqda. Vatandoshlarimiz, ayniqsa, isteʼdodli yoshlarning xorijning nufuzli oliy oʻquv yurtlarida tahsil olishi, yosh mutaxassislarining chet ellardagi universitetlarda malakasini oshirishi, zamonaviy axborot texnologiyalarining insonlar turmushidan oʻrin olishi kabi omillar oqibatida yangidan-yangi tushunchalar va ular bilan bogʻliq terminlar tilimizning soʻz xazinasidan oʻrin olmoqda. Mubolahasiz taʼkidlash joizki, ayni kezlarda oʻzbek tili terminologik tizimiga Gʻarbiy Evropa tillaridan bevosita va bilvosita yopirilib kirib kelayotgan terminlarni tartibga solish, unifikatsiya qilish, ularni oʻzbek tili qoidalariga boʻysundirish qiyin kechmoqda. Chetdan kelayotgan axborotning haddan tashqari koʻpligi va serqirraligi terminologiyaga xos jihatlarni har doim ham diqqat markazida ushlab turish imkoniyatini bermayapdi. Bu holat terminlarni oʻzlashtirish, kalkalash, izohlash paytida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga chiqarmoqda. Oʻzbek tilining ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanishga zarur eʼtibor qaratilmoqda, soʻz yasash usullaridan har doim ham unumli isteʼfoda etilmoqda, deb boʻlmaydi. Chet tilidan oʻzlashayotgan istilohlarni aynan qabul qilish tendentsiyasi hamon etakchilik qilmoqda.

2) Ayni bir termin bilan bir nechta yoki har xil maʼnolarni ifodalash; Terminologiyada salbiy jihat hisoblangan mazkur holat qator tiziminlar tizimidagi chalkashliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Terminning faqat yakka maʼnoni

ifodalishi lozimligini hisobga oladigan bo'lsak, ayni holatni o'nglash borasida jiddiy ishlarni amalga oshirishning zarurligi oydinlashadi.

3) Bir ma'noni ifodalashda ikki, ba'zan bir nechta termin-sinonim (dublet, leksik variant)larning parallel ishlatilishi;

Terminologiyaga oid tadqiqot ishlarining barchasida bitta ma'noni ifodalash uchun faqat bitta termin qo'llanishi zarurligi bot-bot takrorlangan. Shunga qaramasdan, nafaqt o'zbek terminologiyasi, balki boshqa til teraminologiyalarida ham muayyan ma'ning bir nechta termin-sinonimlar yoki dubletlar va leksik variantlar yordamila ifodalanishi ko'zga tashlanadi va h.k.

O'zbek terminshunoslari oldida yuqorida keltirilgan muammolar qatori tubandagi maslallarni ham hal etish mas'uliyati ko'ndalang turibdi:

4) umumqo'llanish xarakteridagi ba'zi terminlarning mutanosib variantining mavjud emasligi;

5) fan va texnika turli sohalari terminlarini tartibga solish va bir xillashtirishning qoniqarsizligi;

6) terminlarni qo'llashda imloviy chalkashliklarga yo'l qo'yish;

7) turli turdagi terminologik lug'atlar tuzish va nashr qilish jarayonini boshqarish hamda nazorat qilishning sustligi;

8) turli sohalarda qo'llanuvchi terminlar aynanligini ta'minlaydigan metodik qo'llanma va davriy byulletenning mavjud emasligi;

9) terminologik leksika, ayniqsa, Mustaqillik davri ilmiy-texnik terminlar haqida olib borilayotgan nazariy tadqiqotlarning qoniqarli emasligi;

10) terminologiya maslallari bilan maxsus shug'ullanadigan boshqaruv organining yo'qligi va b.

Mustaqillik davri o'zbek tili soha terminologiyasi bo'yicha lug'atlar yaratish nuqtai nazaridan ham maqtovg'a loyiq ba'zi ishlarni amalga oshirdi. Kimyo, matematika, tuproqshunoslik, fizika, tibbiyot, biologiya, geografiya, huquqshunoslik kabi fan sohalari bo'yicha qator tipdagi terminologik lug'atlar yaratildi. Bu holatni ijtimoy-gumanitar fan sohalari, chunonchi, tarixshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslikda ham ko'rish mumkin. O'zbek leksikografiyasi erishgan yutuqlar O'zR FA Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan nashr qilingan "O'zbekcha-ruscha lug'at", "O'zbek tilining imloviy lug'ati", "O'zbek tilining izohli lug'ati", "Tilshunoslik terminlari izohli lug'ati", "Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati", O'zMU tilshunoslari tuzgan "O'zbek tilining etimologik lug'ati", "Tarixiy harbiy terminlar lug'ati", Toshkent davlat sharqshunoslik instituti olimlari tomonidan e'lon qilingan "Alisher Navoiy asarlari konkordansi"ning birinchi jildi, shuningdek, boshqa oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari yaratgan "O'zbek davlatchiligida qo'llangan tarixiy-huquqiy atamalar", "Boburnoma"dagi frazeologik birliklar va paremeyalarning inglizcha tarjimalari lug'ati", "Tarix atamalari lug'ati", "Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug'ati" singari asarlarni kiritish joiz. Kezi kelganda moziyda bitilgan durdona asrlar yoki ularga tuzilgan lug'atlar yaratish yo'nalishida Respublikada olib borilayotgan ishlarning kun tartibidan tushib qolmaganligini ta'kidlash zarur. Zero, o'zbek tili leksik tarkibi, alalxusus, terminologiya tizimida o'tmishda yuz bergan voqea-hodislarni hisobga olmasdan ularning hozirga holati

xususida ob'ektiv fikr yuritish mumkin emas. Shu jihatdan Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asari ruscha tarjimasining akademik A.Rustamov tomonidan Moskvada chop etilishi, 1983-1985 yillarda "Fan" nashriyoti tomonidan to'rt tom tarzida chop etilgan "Alisher Navoiy asarlari tili izohli lug'atining" 2013 yili akademik E.Fozilov tomonidan to'ldirilgan, qayta izohlangan (Alisher Navoiy asarlari lug'ati 1) holda kitobxonlarga taqdim qilingan nashri muhim ahamiyatga ega. Bu lug'atlar nafaqat eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tili so'z boyligi, balki terminlar tizimini ham aks ettirishi bois muhim ilmiy qimmatga egadir.

### **Savol va topshiriqlar:**

Struktur-semantik jihatdan o'zbek terminologiyasining asosini qanday so'zlar tashkil qiladi?

Chet tilidan o'zlashayotgan terminlarni aynan qabul qilish maqsadga muvofiqmi?

Terminologiyada polisemiyaning mavjud bo'lishi ma'qulmi?

Termin yasashda qaysi usul eng sarmahsul hisoblanadi?

O'zbek tili terminlarini yasashda qaysi so'z turkumlari ishtirok etadi?

Ot turkumli termin(turdosh ot)larning affiksali usul bilan yasalishi haqida baxs yuritng.

–chi affiksli model bilan yasalgan tarixiy terminlarni tavsiflang.

–lik affiksli model qanday ma'noli ot-terminlarni hosil qiladi?

–g'ichG'-gich//-qichG'-kich affiksli model qanday ma'noli terminlarni yasaydi?

O'zbek tili terminlarining yasashida o'zlashma qo'shimchalarning o'rnini belgilang.

–ma affiksli yasama terminlarning ma'no-mazmuniga diqqat qarating.

### **Test:**

1. Termin yasashning eng mahsuldor usulini belgilang.

A. kompozitsiya

V. kal'kalash

S. affiksatsiya

D. konversiya

2. Qaysi so'z turkumiga oid terminlar o'zbek terminologiyasining asosini tashkil etadi?

A. fe'l

V. ot

S. sifat

D. ravish

3. Alisher Navoiyning qaysi asarida so'z yasalishi xususida fikr yuritilgan?

A. Mezon ul-avzon

V. Tarixi muluki ajam

S. Muhokamat ul-lugʻatayn  
D. Tarixi anbiyo va hukamo

4. *paxsachi*, *yagʻchi*, *chagʻirchi*, *bichaqchi* terminlari qaysi olimning asarida qayd etilgan?

A. Alisher Navoiy  
V. Mahmud Koshgʻariy  
S. Mahmud Zamaxshariy  
D. Ulugʻbek

5. –chi affiksli terminlar semantik strukturasiga koʻra necha guruhga boʻlinadi?

A. uch  
V. toʻrt  
S. besh  
D. ikki

6. qiltiqcha, kokilcha, pufakcha terminlari qaysi fan sohasiga oid?

A. tibbiyot  
V. biologiya  
S. zoologiya  
D. anatomiya

7. “Qaychi” maʼnosidagi bichgʻuch motivlangan termini eski turkiy tilga xos qaysi manbada qoʻllangan?

A. Xusrav va Shirin  
V. Muhabbatnoma  
S. Qutadgʻu bilig  
D. Devonu lugʻotit turk

8. –ma affiksi qachondan eʼtiboran faol qoʻllanishga kirgan?

A. VIII asr  
V. XI asr  
S. XIII asr  
D. XIV asr

9. Ish-harakatning nomini anglatuvchi terminlar qatorini belgilang.

A. Siquv, tintuv  
V. tergov, toʻlov  
S. oʻlchov, kelishuv  
D. bitishuv, qurshov

10. Ish-harakt vositasini ifodalovchi terminni aniqlang.

A. qochoq  
V. oʻtoq

S. o‘roq  
D. yo‘lak

### Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Muhokamatul-lug‘atayn. O‘n besh tomlik. O‘n to‘rtinchi tom.-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.
2. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1985.
3. Gulyamov A. Problemo‘ istoricheskogo slovoobrazovaniya uzbekskogo yazo‘ka.1. Affiksatsiya. Ch. 1. Slovoobrazuyuhie affikso‘ imen. Avtoref. diss. dok. filol. nauk. – Tashkent, 1955.
4. Dadabaev X. Voennaya leksika v starouzbekskom yazo‘ke. Dadabaev X., Naso‘rov I., Xusanov N. Problemo‘ leksiki starouzbekskogo yazo‘ka. - Tashkent: Fan, 1990. –S.3-83.
5. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opo‘t lingvisticheskogo opisaniya.- M.,: Nauka, 1977.
6. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.
7. Drevnetyurkskiy slovar.-L., 1969.
8. Karimov G‘. Sovet davrida o‘zbek adabiy tili taraqqiyoti.-Toshkent: Fan, 1985.
9. Kononov A.N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazo‘ka.-M.-L., 1960.
10. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I-III.-Toshkent, 1960-1963.
11. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili-Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
12. Raximova X.M., Ibadov K.I., Kvitkova E.M. Anglo-rusko-uzbekskiy slovar biologicheskix terminov. - Tashkent, 2007.
13. Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazo‘kov. Morfologiya.-M.: Nauka, 1988.
14. Tursunov U, Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Morfologiya, leksikologiya. Qo‘llanma. –Toshkent, 1965.
15. Usmonov O. -*dor* affiksi haqida//O‘zbek tili va adabiyoti. 1976, 1-son, -B.51-56.
16. Usmonov O. -*kor* affiksi haqida// O‘zbek tili va adabiyoti. 1976. 1-son. -B.51-56.
17. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1 qism. Darslik.-Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
18. Herbak A.M. Ocherki po sravnitelnoy morfologii tyurkskix yazo‘kov (Imya).-L.: Nauka, 1977.

**8-MAVZU. O‘ZBEK TERMINOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA QILINISHI LOZIM BO‘LGAN**

## **VAZIFALAR. SOHA TERMINOLOGIYASIDA YANGI AVLOD LUG'ATLARINING YUZAGA KELISHI. O'ZBEK ELEKTRON, INTERNET, VIKIPEDIYA LUG'ATLARINI YARATISH MASALALARI.**

### **Reja**

1. O'zbek terminologiyasini takomillashtirish borasida qilinishi lozim bo'lgan vazifalar.
2. Soha terminologiyasida yangi avlod lug'atlarining yuzaga kelishi.
3. O'zbek elektron, internet, vikipediya lug'atlarini yaratish masalalari.

**Asosiy tushunchalar:** *arxaizm, eskirgan so'z, istiloh, motivlangan, motivlanmagan, semantik ko'chim, kalkalash, so'z yasovchi affiks, suffiks, tushuncha, element, almashtirish, fe'ldan yasalgan ot-terminlar.*

O'zbek terminologiyasining bugungi holati. Terminologiyani tadqiq etish metodlari. O'zbek terminologiyasini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar

1. O'zbek terminologiyasi tizimida arxaizmlarning o'rnini.
2. Soha terminologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar.
3. Terminlarni unifikatsiyalash va tartibga solish.

Arxaizmlar ostida o'tmishda faol qo'llangan, biroq vaqt-zamon o'tishi bilan ishlatilish chastotasi o'ta susaygan yoxud o'rnini tub yoki o'zlashmalarga bo'shatib berishga majbur bo'lgan leksik birliklar nazarda tutiladi. Arxaizmlar o'zbek tili so'z boyligining shakllanish va rivojlanishining bizga ma'lum barcha davrlarida mavjud bo'lgan. Sobiq sho'rolar hukmronligi davrida o'zbek tili leksikasida qadimdan faol qo'llanib kelgan ko'pdan-ko'p tub hamda arab va fors-tojik tilidan turli omillar oqibatida o'zlashgan so'z va iboralar ruscha yoki rus tili orqali G'arbiy Yevropa tillaridan kirib kelgan leksik birliklar bilan almashtirilgan edi. Buning natijasida, eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tilida ishlatilgan minglab so'zlar, terminlar eskirgan, ya'ni arxaizmlar sirasiga kirib qolgan edi. O'zbek tilining 1980 yilda Moskvada nashr qilingan ikki tomdan iborat izohli lug'atida talaygina so'zlarga eskirgan belgisi qo'yilgani ma'lum.

O'zbekiston Respublikasi 1991 yilda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, mamlakat rahbariyati va hukumati oldida yuqoridagi nohaqlikka barham berish, moziyda ajdodlar tilida keng ko'lamda ishlatilgan so'z va terminlarga qayta jon ato etib, ularga til so'z boyligidan munosib o'rin berish, ya'ni eskirgan tamg'asi bosilgan leksik birliklarni ruscha va u orqali tilimizga zo'rma-zo'raki olib kirilgan g'arbiy yevropacha so'z va istilohlar o'rnida qo'llash borasida jiddiy harakatlar amalga oshirildi. Buning natijasi o'laroq, o'zbek tilining leksik tarkibi, xususan, terminlar tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan ushbu hodisa oqibatida ko'pdan-ko'p eskirgan so'zlar qaytadan muomalaga olib kirildi, va aksincha, totalitar tuzum va kommunizm qurish g'oyasi, mafkurasi bilan bog'liq tushunchalar insonlar turmush tarzidan chiqib ketgach, ularni ifodalovi ko'pgina so'z va terminlarni ishlatishga ortiqcha hojat qolmadi. Chunonchi, *demokratik sentralizm, sotsializm, tarixiy materializm, ilmiy kommunizm* kabi termin va birikmalar tarix sahifasidan o'rin oldi. Aksincha,

tom ma'nodagi erkin va ozod davlat barpo etish mafkurasi ostida o'z yo'lini tanlab olgan o'zbek xalqi turmish tarzida paydo bo'lgan mutlaqo yangi tushunchalar va realiyalar eski so'zlar qatoriga kiritilgan leksemalar yordamida ifodalandi. Bunday holat ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar tizimida ravshan ko'zga tashlandi. Davlat boshqaruv strukturasi ijrochi, qonun chiqaruvchi va nazorat qiluvchi organlariga taqsimlanishi shu sohalarga oid terminlar tizimining sof o'zbekcha yoki arabcha va forsa-tojikcha so'zlar hisobiga kengayishiga olib keldi. O'zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimidan *vazir, bosh vazir, vazirlik, viloyat, tuman, qo'rg'on, hokim, viloyat hokimi, tuman hokimi, hokimlik//hokimiyat, oqsaqol, qishloq oqsoqoli* singari arxaizmlar mustahkam o'rin oldi. *Jarayon, ma'ruza, mavzu, hujum, hamla, ilg'or, soqchi, malham, shifokor, bosh shifokor, saraton, qorason, hay'at, bo'hron, muhr, yorliq, taftish* singari turfa sohalarga oid terminlar bugungi kunda millat vakillari tilida faol ishlatilmoqda. Xullas, istiqlof tufayli anchagina eskirgan so'z va istilohlar o'zbek tili lug'at tarkibidan qayta o'rin egalladi va ular millat vakillarining kundalik mulqoti uchun zarur vazifani bajarishda xizmat qilmoqda.

Terminologiyaga doir adabiyotlarda ta'kidlanishicha, motivlanmagan, ya'ni belgili terminlar o'z tarkibiga tilda mavjud tub leksik birliklar, boshqa tillardan kirgan o'zlashmalar, kalkalar, shuningdek, o'z so'zlardan semantik (metonimik) ko'chim orqali hosil bo'lgan terminlarni qamrab oladi.

O'zlashmalarning har qanday til taraqqiyoti va boyishi qonuniyatining manbalaridan biri ekanligi sir emas. O'zlashtirish jarayoni murakkab hodisa bo'lib, lingvistik hamda ekstralingvistik omillar bilan chambarchas bog'langan. Ijtimoiy-siyosiy, tijoriy-iqtisodiy, diniy munosabatlar, madaniy aloqalar, bir tildan boshqa tilga qilinadigan adabiy tarjimalar va h.k. natijasida u yoki bu til lug'at tarkibida o'zlashmalar paydo bo'ladi. Tabiiy, ushbu hodisa boshqa qarindosh bo'lmagan tillardan kirgan katta miqdordagi o'zlashmalarga ega o'zbek adabiy tili uchun ham taalluqlidir.

Uzoq muddatli tarixiy taraqqiyot davomida o'zbek xalqi o'zga xalq va millatlar bilan mustahkam siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va lisoniy munosabatlarda bo'lgan. Bunday aloqlar natijasida o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibi yangi tushunchalar hamda realiyalar hisobiga yanada boyidi va boyib bormoqda. O'zbek adabiy tiliga kelib chiqishi nuqtai nazaridan turfa va rang-bararang so'zlar o'zlashgan.

Kalkalash so'z o'zlashtirishning oliy shakli bo'lib, tilning bugungi kundagi lug'at tarkibi kengayishi va boyishida juda faolligi allaqachon aniqlangan.

Kalkalash jarayoni o'zbek tilining barcha terminologik sistemalariga xos bo'lib (Shaaxmedov 1974), asosan ikki ma'lum, ya'ni:

a) struktur (so'z yasash), b) semantik kalka turi orqali reallashadi. Bu tizimda, shubhasiz, struktur kalkalar yetakchilik qiladi. Struktur (so'z yasash) kalkalar sirasiga o'zbek adabiy tili vositalari yordamida boshqa tillarga oid modellardan, ularning morfologik qismlarini tarjima qilish bilan yasalgan terminlar kiradi. Muayyan tilning leksik-so'z yasash materiallari negizida hosil qilingan struktur kalkalar tom ma'nodagi o'zlashma hisoblanmaydi (Tixonov 1991; 136).

Hozirgi o'zbek terminologiyasi tizimida chet tillarga xos elementlarning alohida miqdori mavjud bo'lib, ularni kalkalashga hech qanday hojat yo'q. Masalan, *telefon, telegraf, traktor, tank, izotop, indikator, orden, bolt, arfa, ring, xokkey, departament, parlament, mina, import, eksport, antenna, armatura, prokuror, aerobus, avtobus, metro, ampermetr, motor, dizel, astronavi, mexanik, radiotexnika, proton, neytron, elektron, radioaktiv, distributiv, audiovizual, identifikatsiya, autentifikatsiya, retranslyatsiya, divergensiya, dissimilyatsiya, iyeroglif, diftong* kabi ruscha-baynalmilal xarakterdagi ko'pgina terminlar tarkiban o'ta rang-barang bo'lib, texnika, ilm-fan, madaniyat, san'atning hamma sohalarini qamrab olgan. Bunday yuzaga kelishni ifodalovchi hamda muttasil rivojlanuvchi terminlar qatlami o'zbek tilining mulkiga aylangan. Hozirgi paytda ham tayyor terminlarni o'zlashtirish jarayoni o'z faolligini saqlab qolmoqda.

Ayni chog'da, o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va h.k. sohaları terminologiyasi tizimida o'zbek tili qonunlariga bo'ysungan holda muayyan qismi o'zbek tilining so'z yasovchi elementlari bilan almashtirilgan ulkan miqdordagi ruscha-baynalmilal terminlar qo'llanmoqda.

So'z yasovchi suffiksi o'zbek tili affiksi bilan almashtirilgan o'zlashma-terminlar.

Rus tili terminologiyasi tarkibining salmoqli ulushini so'z yasovchi suffikslar bilan yasalgan, motivlangan terminlar tashkil qiladi (Istoriya leksiki russkogo literaturnogo yazika 1981; 152-166).

So'z o'zlashtirish jarayonida kam miqdordagi terminlar so'z yasovchi suffikslari bilan birga o'zlashtiriladi (*metallist, militarist, motorist, nigilist, sotsialist, oportunist, kommunist* va h.k.). Biroq aksariyat hollarda terminlar yasashda qatnashgan suffikslar o'zbek tilining aynan bir xil, o'xshash affikslari bilan almashtiriladi.

So'z yasovchi suffikslari –chi affiksi bilan almashtirilgan terminlar

a) -ist: tank-chi (tankist), traktor-chi (taktorist), shtanga –chi (shtangist), parashyut-chi (parashyutist), roman-chi (romanist), torpeda-chi (torpedist), radiometr-chi (radiometrist), monarxiya-chi (monarxist), futbol-chi (futbolist), signalchi (signalist) va h. k.;

b) -nik: transport-chi (transportnik), montaj-chi (montajnik), neft-chi (neftyanik), desant-chi (desantnik) va h. k.;

v) -shik: armatura–chi (armaturshik), tunnel-chi (tunnelshik), tramvay-chi (tramvayshik), falsovka–chi (falsovshik; falsovshitsa), postanovka-chi (postanovshik), signal-chi (signalshik) va h. k.;

g) -chik: proxod-chi (proxodchik), raketa-chi (raketichik), razvedka-chi (razvedchik), prokat-chi (prokatchik), parketchi (parketchik) va h. k.;

d) -ovshik// -lshik: kran-chi (kranovshik), seyalka-chi (seyalshik), nivelirovka-chi (nivelirovshik), shtamp-lovchi, shtampovka-chi (shtampovshik) va h.k.;

y) –yor: lift-chi (liftyor), bashnya-chi (bashnyor), eksport-chi (eksportyor), import-chi (importyor), boks-chi (boksyor) va h. k.;



j ) –tor: aviasiya-chi (aviator), eksperiment-chi (eksperimentator), ekspropriasiya-chi (ekspropriator), evakuasiya-chi (evakuator), dekorasiya-chi (dekorator) va h.k.;

i) -sk (iy): gvardiya-chi (gvardeyskiy; gvardeyets), polisiya-chi (politseyskiy) va h. k.;

k) -smen: rekord-chi (rekordsmen), sport-chi (sportsmen), polisiya-chi (polismen), yaxta-chi (yaxtsmen) va h. k.

l) -ant: *diversiya-chi* (diversant) va h. k.

Shunday qilib, shaxs oti, muayyan kasb-hunar egasi nomi hamda shaxsning holati, ahvoli, vaziyatini ifodalovchi ruscha suffikslarni o‘zbekcha (turkiy) –chi affiksi bilan almashtirish natijasida quyidagi jihatlar voqelanadi:

a) ruscha-baylalmilal so‘zning asosi o‘zgarmagan holda yangi termin yasaladi (*respublika-chi*–respublikanets, *dozimetr-chi*– dozimetrist, *medalchi*-medalist);

b) o‘zlashma asos shakli to‘la tiklangandan so‘ng yangi termin yuzaga keladi (*seleksiya-chi* – seleksioner, *seyalka - chi* – seyalshik) va h.k.

O‘zbek tiliga o‘zlashgan fe’ldan yasalgan ot– terminlar. Ma’lumki, rus tilida fe’ldan yasalgan ismlar – *ni(ye)*, *-k(a)*, *-atsi(ya)*, *-izatsi(ya)*, *-fikatsiya* singari suffikslar ko‘magida hosil qilinadi. Mazkur suffiksli terminlar o‘zbek tili terminologiyasi sistemasiga o‘zlari ifodalovchi realiyalar va tushunchalar bilan birgalikda tayyor til birliklari sifatida kirib keladi. Masalan: *amortizatsiya*, *nevrotizatsiya*, *neyrulyatsiya*, *anneksiya*, *assimilyatsiya*, *artikulyatsiya*, *alliteratsiya*, *aeronavigatsiya*, *korporatsiya*, *kriminalistika*, *kriminologiya*, *leksikologiya*, *intonatsiya*, *dissimilyatsiya* va h.k.

Shu bilan bir qatorda, fe’ldan yasalgan ot – terminlar o‘zlashtirish jarayonida o‘zbek tili ta’siriga uchraydi va fe’ldan ot yasovchi suffikslar hech bir qiyinchiliksiz o‘zbekcha –*lash*, - *lashtirish* kabi faol affikslar bilan almashtiriladi. Ba’zi bir ashyoviy materiallarga murojaat qilamiz:

a) *-ni (ye)*: *akkredit-lash* (akkreditovaniye), *kod-lash* (kodiroyvaniye), *asfalt-lash* (asfaltirovaniye) va h.k. *Tormojeniye*, *kooperirovaniye*, *izolirovaniye* singari o‘zlashma terminlarning asosi o‘zbek tilida mustaqil ma’no ifodalamaydi. Bunday vaziyatlarda o‘zbek tilida o‘zlashmaning asosi qayta tiklanadi va unga o‘zbekcha affiks qo‘shiladi. Masalan, *tormoz-lash* (tormojeniye), *abstrakt-lash* (abstragirovaniye), *model-lashtirish* (modelirovaniye) va h.k.;

b) *-atsi(ya)*, *-izatsiya*, *-fikatsiya*, *-k(a)*: *sian-lash* (sianizatsiya), *ion-lash* (ionizatsiya), *mexanika-lash* (mexanizatsiya), *gaz-lashtirish* (gazifikatsiya), *germet-lash* (germetizatsiya), *kondens-lash* (kondensatsiya), *tabul-lash* (tabulyatsiya), *vals-lash* (valsovka), *frezer-lash* (frezerovka), *legal-lashtirish* (legalizatsiya), *passport-lashtirish* (passportizatsiya), *verbal-lashish* (verbalizatsiya), *konseptual-lashish* (konseptualizatsiya) va h.k.

Ba’zan *modernizatsiya*, *elektrofikatsiya* singari o‘zlashmalarga –*lash*, - *lashtirish* qo‘shimchalari qo‘shilishi natijasida *modernizatsiyalash*, *modernizatsiyalashtirish*, *elektrofikatsiyalash*, *elektrofikatsiyalashtirish* singari terminlar ham paydo bo‘ladi.

O'zbek tiliga o'zlashgan ruscha-baynalmilal terminlar. Ruscha so'z *Q* ruscha so'z yoki *baynalmilal so'z Q ruscha so'z* strukturali qo'shma terminlar o'zlashish jarayonida o'zbek tili qonuniyatlariga bo'ysunadi.

Ruscha-baynalmilal qo'shma terminlarning o'zbek tilida o'zlashishi tubandagi usullar bilan amalga oshadi:

1. Ruscha-baynalmilal terminlarning rus tiliga xos ikkinchi komponenti o'zbek tilidagi mos so'z bilan emas, balki so'z yasovchi affiks bilan almashtiriladi. Oqibatda, ruscha-baynalmilal qo'shma termin o'zbek tilida yasama terminga aylanadi:

- *soz*: *mashina-soz* (mashinostroitel), *vagon-soz* (vagonostroitel), *samolyot-soz* (samolyotostroitel), *raketa-soz* (raketostroitel), *shahar-soz* (gradostroitel) va h. k.;

- *sozlik*: *mashina-sozlik* (mashinostroyeniye), *shahar-sozlik* (gradostroitelstvo) *vagon-sozlik* (vagonostroyeniye), *pribor-sozlik* (priborostroyeniye), *raketa-sozlik* (raketostroyeniye) va h. k.;

- *shunos*: *material-shunos* (materialoved), *mashina-shunos* (mashinoved) va h. k.;

2. Ruscha-baynalmilal qo'shma terminlarning ikkinchi komponenti ayni o'zbekcha mutanosibi bilan almashtiriladi yoxud kalka usuli bilan tarjima qilinadi: *bomba-qidirgich* (bomboiskatel), *bomba-pana* (bomboubejishe), *giper-tovush* (giperzvuk), *kino-qurilma* (kinoustanovka), *elektr-hisoblagich* (elektroschetchik), *elektr-sim* (elektroprovod), *radio-niqoblash* (radiomaskirovka), *mikro-qarz* (mikrokredit) *alfa-sinov* (alpha-testing), *kross-brauzerlik* (cross-browser) va h.k.

Ushbu metod ruscha-baynalmilal xarakterdagi qisqartma qo'shma terminlarni o'zlashtirish jarayonida ham qo'l keladi: *aero-chana* (aerosani), *tele-markaz* (teletsentr), *termo-qarshilik* (termosoprotivleniye), *gelio-qurilma* (gelioustanovka), *tele-sharhlovchi* (telekommentator), *avia-sozlik* (aviastroyeniye), *avto-yo'l* (avtodoroga), *veb-hujjat* (veb-dokument), *veb-anjuman* (veb-konferensiya), *motoo'qchi rota* (motostrelkovaya rota) va h.k.

3. Ruscha – baynalmilal terminning har ikki komponenti o'zbekcha mutanosibi bilan almashtiriladi (yoki kalka qilinadi): *ko'prikqo'ygich* (mostoukladchik), *havoisitgich* (vozduxonagrevatel), *havosovutgich* (vozduxooxladitel), *havotozalagich* (vozduxoochistitel) va h.k. So'nggi paytlarda birinchi komponenti qisqartmalardan tashkil topgan ikki komponentli terminlarning o'zbek tili terminlar tizimida faol qo'llanishi kuzatilmoqda. Chunonchi, internet tarmog'ida qo'llanayotgan *DNS serveri*, *BGP bayonnomasi*, *NSFNET tarmog'i*, *ISDN standarti*, *BRI interfeysi*, *CASE tizimi* shular jumlasidandir.

Ruscha-baynalmilal murakkab qo'shma terminlarning o'zlashishi. Hozirgi o'zbek terminologiyasi tizimida haddan ziyod miqdordagi ruscha-baynalmilal murakkab qo'shma terminlar qo'llanmoqda. Ushbu murakkab qo'shma terminlarning ma'lum qismi o'zbek tili tomonidan tayyor, asl holda o'zlashtiriladi: *general-mayor*, *unter – ofitser*, *shtab – kvartira*, *samolyot-snaryad*, *pistolet-pulemyot*, *marsh-parad*, *radiometr-rengenometr*, *shtab-kvartira* va h.k. Bunday o'zlashmalar o'zbek terminologiyasining salmoqli ulushini tashkil etadi.

Boshqa bir guruh murakkab qo'shma terminlarning so'z tartibi o'zbek tiliga o'zlashish asnosida o'zgaradi: *uchuvchi-inspektor* (lyotchik-inspektor), *kosmonavt-uchuvchi* (lyotchik-kosmonavt), *mexanik - injener* (injener – mexanik), *amfibiya - tank* (tank –amfibiya), *buldozer-tank* (tank-buldozer), *urolog- vrach* (shifokor) (vrach –urolog) va h.k .

Ruscha-baynalmilal murakkab qo'shma terminlarning uchinchi guruhi o'zlashish jarayonida qisman yoki to'la o'zbekcha leksik birliklar bilan almashtiriladi:

Murakkab qo'shma terminning komponentlaridan biri o'zbekcha so'z bilan almashtiriladi (yoxud kalkalanadi): *shlem-niqob* (shlem-kaska), *samolyot – nishon* (samolyot –mishen), *havo desanti* (vozdushno-desantniy), *o'qchi-radist* (strelak – radist), *mina – tuzoq* (mina-lovushka), *odam-amfibiya* (chelovek-amfibiya), *kilovatt-soat* (kilovatt-chas), *maktab-internat* (shkola–internat), *alfa-nurlar* (alfa-luchi), *alfa-yemirilish* (alfa –raspad), *gamma-nurlar* (gamma – luchi), *depozit hisobi* (depozitniy schyot), *fyuchers bitimlar* (fyuchersniye sdelki), *elektron to'lovi* (elektronnaya plata) va h.k. Bunga o'xshash terminlarning so'z tartibi o'zbek tiliga o'zlashish chog'ida saqlanib qoladi.

Murakkab qo'shma terminning komponentlaridan biri o'zbek tilidagi mutanosib so'z bilan almashtiriladi (yoki kalka yo'li bilan tarjima qilinadi). Bunday holatda murakkab qo'shma terminlarning so'z tartibi o'zbek tilida o'zgaradi: *tutuvchi-samolyot* (samolyot-perexvatchik), *buzg'unchi-samolyot* (samolyot-narushitel), *raketaeltar-samolyot* (samolyot-raketanosets), *demokrat-shoir* (poet-demokrat) va h.k.

Murakkab qo'shma terminlarning har ikki komponenti o'zbekcha ekvivalenti bilan almashtiriladi (yoxud kalkalanadi). Bunday vaziyatda o'zlashma terminning so'z tartibi o'zgarishga uchramaydi: *o'ra-tuzoq* (yama-lovushka), *uchish-qo'nish* (vzlyotno-posadochniy), *harbiy-havo* (voyenno-vozdushniy), *harbiy-dengiz* (voyenno-morskoy), *harbiy-dala* (voyenno-polevoy), *ijtimoiy-iqtisodiy* (obshestvenno-ekonomicheskii) va h.k. Ayni holat o'zlashma termin-birikmalarni kalkalashda ham aks etadi: *davlat qarzi* (gosudarstvenniy dolg), *to'lov qog'ozi* (platyojnoye izvesheniye), *to'lov tartibi* (platyojniy poryadok), *meyoriy-huquqiy hujjatlar* (normativno-pravoviye dokumenti) va h.k.

O'zlashma murakkab qo'shma terminlarning har ikki komponenti o'zbekcha mutanosibi bilan almashtiriladi (yoxud kalkalanadi), bunda murakkab qo'shma terminlarning so'z tartibi o'zgaradi: *mutaxassis – askar* (soldat-spetsialist), *mo'ljalchi-o'qchi* (strelak-navodchik), *qiruvchi-uchuvchi* (lyotchik-istrebitel), *kuzatuvchi-uchuvchi* (lyotchik-nablyudatel), *sinovchi – uchuvchi* (lyotchik-ispitatel) va h.k.

Hozirgi o'zbek tili terminologiyasida kalkalash yo'li bilan yangi termin yasash masalasiga alohida diqqat qaratiladi. Ruscha-baynalmilal terminlarni to'la yoki qisman tarjima qilish usuli bilan hosil qilingan o'zbek tili terminlari mavjud terminologiya tizimining yana ham kengayishi va boyishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'n to'qqizinchi asrning ikkinchi yarmi – yigirmanchi asr boshida ruscha-baynalmilal leksikaning o'zbek tili so'z boyligi tarkibiga shiddat bilan kirishi

kuzatiladi. O'zbek adabiy tili xorijiy so'z va terminlarni o'zlashtirish jarayonida ularni nafaqat tayyor, asl holda qabul qildi, balki kalkalash usuliga tayangan tarzda to'raligicha yoxud qisman tarjama qilish yo'ldan bordi. XX asrning boshlarida ko'pgina ruscha-baynalmilal terminlar o'zbek tiliga o'girilgan edi. Chunonchi: *uchuvchi* (aviator), *tintuv* (obisk), *ot quvvati*, *ot kuchi* (loshadiynaya sila), *otashxona* (parovoz), *otash kema* (paroxod, korabl), *davlat dumasi* (gosudarstvennaya duma), *dunyo ilmi* (svetskiye nauki), *erkinlik* (svoboda), *jadidchi* (novator), *spirtlik ichkuliklar* (spirtniye napitki) shular jumlasidandir (Usmonov 1981). Bunga o'xshash ancha erta yasalgan terminlarning aksariyati til qonuniyatlariga bo'ysungan holda hozirgi o'zbek tilida faol qo'llanishda davom etmoqda.

Xullas, hozirgi zamon o'zbek tili terminologiyasi ruscha-baynalmilal elementlarni struktur (so'z yasovchi) hamda semantik kalkalash orqali sezilarli tarzda boyib bormoqda.

Struktur kalkalash yasama so'zlar, qo'shma so'zlar va so'z birikmalari chegarasida sodir bo'ladi.

Yasama terminlarni kalkalash. Chet (rus) tili yasama terminlarini kalkalash jarayonida o'zbek tilida bor bo'lgan mutanosib asos hamda so'z yasovchi affiks tanlanadi. Buning natijasida o'zbek tilida mutlaqo yangi termin hosil bo'ladi, bunday terminlar ayniqsa ilm-fan va texnika terminologiyasi tizimida keng ko'lamda aks etgan: *to'g'rilagich* (vipryamitel), *taqsimlagich* (raspredelitel), *ko'targich* (podyomnik), *itargich* (tolkatel), *tebranish* (amplituda), *oziqlagich* (pitatel), *iqlimlashish*, *iqlimlashtirish* (akklimatizatsiya), *o'rmonshunos* (lesovod), *issiqxona* (teplitsa), *davlatshunos* (gosudarstvoved), *hissador* (dolshik), *vasiyatchi* (zaveshatel), *buyurtmachi* (zakazchik), *tamg'alash* (kleymeniye), *moydon* (maslyonka), *portlatgich* (vzrivatel) va h.k.

Qo'shma terminlarni kalkalash. Qo'shma terminlarni kalkalab tarjima qilish jarayonida ularning har ikki komponentiga mutanosib tushadigan o'zbekcha so'z tanlanadi. Xususan: *yarimo'tkazgich* (poluprovodnik), *shaltoqsepgich* (jijerazbrasivatel), *ariqkovlagich* (kanavakopatel), *suvo'lchagich* (vodommer), *gazo'lchagich* (gazomer), *tezotar* (skorostrelniy), *moyjuvoz* (masloboyka), *bug'tarqatgich* (paroraspredelitel), *tulkiqyruq* (lisoxyost), *yog'och kesuvchi* (lesorub), *muzyorar* (ledokol), *kamqonlik* (malokroviye), *arzonbaho* (malotsenniy), *junqanot* (zool.sherstokril), *asalxo'r* (zool. medoyed), *qisqa metrajli* (korotkometrajniy), *qiziltan* (krasnokojiy), *qizilqanot* (zool. krasnoperka), *kartoshkaekkich* (kartofelesajalka), *kartoshkaqazgich* (kartofelekopatel), *suvgul* (bot. vodokras), *suvqovoq* (bot.gorlyanka) singari katta miqdordagi terminlar ayni shunday yo'l bilan hosil qilingan.

Internet tarmoqlarida qo'llanayotgan katta miqdordagi ikki tarkibli termin-birikmalarning birinchi komponenti inglizcha, ikkinchi komponenti esa o'zbekcha so'z bilan berilmoqda. M.: *Banyan tarmog'i*, *Internet tarmog'i*, *Internet banki*, *Internet texnologiyasi*, *Internet provayderi* va h.k.

Ayrim hollarda ikki tarkibli o'zlashma terminlarning birinchi komponenti inglizcha leksemalarning qisqargan bosh harfi, ikkinchi komponenti esa o'zbekcha

elementdan tashkil topishi kuzatiladi: *DNS serveri, BGP bayonnomasi, NSFNET tarmog'i, CASE tizimi* va h.k.

Bugungi kunda internet terminlari tizimida faol ishlatilayotgan **www.mail.ru, www.hotmail.ru, www.mail.uz, www.inbox.uz** singari pochta qutilari orqali kiriladigan bepul elektron pochta xizmati hamda gipermatnli sahifalarga kirishni havola qiluvchi **www saytlar** termin-birikmalar qatorini yanada boyitishda xizmat qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zlashayotgan qo'shma terminlarning ikkinchi komponenti ma'no nuqtai nazardan unga mos tushuvchi o'zbekcha so'z bilan har vaqt ham almashtirilavermaydi:

*-xona: ko'chatxona* (lesopitomnik), *-zor: ko'chatzor* (lesopitomnik), *-dor: yerdor, zamindor* (zemlevladelets), *-chan; yonuvchan* (legkovosplamenyayushiysya), *-xo'r: qasamxo'r* (klyatvoprestupnik), *-soz: kemasoz* (korablestroitel), *-qich: yirtqich* (krovojadniy), *-ish: nurlanish* (lucheispushkaniye) va h.k.

O'zbek tili terminologiyasi tizimida ruscha-baynalmilal prefiksoidlar yoxud xalqaro terminelementlar (Madvaliyev 2017, 34-54) yordamida hosil qilingan kalkalar faol qo'llanadi (Begmatov 1985; 181; Doniyorov 1977; 145-146). Bunday usulda yasalgan terminlar sirasiga quyidagilarni kiritish o'rinli:

*avia-: aviaaloqa* (aviasvyaz), *aviaqism* (aviachast), *aviato'p* (aviapushka), *aviasanoat* (aviapromishlennost), *aviakorxona* (aviazavod) va h.k.;

*avto-: avtonozir* (avtokontrolyor), *avtoyo'l* (avtodoroga), *avtoyuklagich* (avtopogruzchik), *avtohavoskor* (avtolyubitel), *avtotirkama* (avtopritsep), *avtosug'orgich* (avtopolivshik), *avtomaktab* (avtoshkola), *avtopoyga* (avtogonki), *avtopoygachi* (avtogonshik), *avtoullov* (avtomashina) va h.k.;

*aero-: aeropurkagich* (aeroopriskivatel), *aerochanglagich* (aeroopilitel), *aerotadqiqot* (aeroissledovaniye), *aerosurat* (aerosnimok) va h.k.;

*agro: agrosanoat* (agropromishlennost), *agrokimyo* (agroxiimiya), *agromadaniyat* (agrokultura), *agroiqlim* (agroklimat), *agroo'rmon* (agroles) va h.k.;

*anti-: antizarra* (antichastitsi), *antimodda* (antiveshestvo), *antidunyo* (antimir), *antijismlar* (antitela) va h.k.;

*geo-: geosiyosat* (geopolitika), *geokimyo* (geoximiya), *geoiqlim* (geoklimat) va h.k.;

*gidro-: gidroinshoot* (gidrosoorujeniye), *gidroko'targich* (gidropodyomnik), *gidrokuchaytirgich* (gidrousilitel) va h.k.;

*giper-: gipertekislik* (giperploskost), *gipertovush* (giperzvuk), *giperchiziq* (giperliniya), *giperloyiha* (giperproyekt) va h.k.;

*izo-: izochiziqlar* (izolinii), *izomoy* (izomaslo) va h.k.;

*kvazi-: kvaziyulduz* (kvazizvezda), *kvaziquloq* (kvaziuxo), *kvaziqavariq* (kvazivipuklost), *kvazidavlat* (kvazigosudarstvo) va h.k.;

*infra-: infratovushlar* (infrazvuki), *infraqizil* (infrakrasniy), *infratizim* (infrastruktura) va h.k.;

*makro-: makroiqlim* (makroklimat), *makrosanoat* (makropromishlennost), *makrokoinot* (makrokosmos), *makrotuzilma* (makrostruktura), *makromaydon*

(makropole), *makroiqtisodiyot* (makroekonomika), *makromatn* (makrotekst) va h.k.;

*mikro-*: *mikroiqlim* (mikroklimat), *mikrofotonusxa* (mikrofotokopiya), *mikrotuzilma* (mikrostruktura), *mikromaydon* (mikropole), *mikrotuman* (mikrorayon), *mikromatn* (mikrotekst), mikrojarrohlik (mikroxirurgiya) va h.k.;

*moto-*: *motoaravacha* (mototelejka), *motopoyga* (motogonki), *motopoygachi* (motogonshik) va h.k.;

*pnevmo-*: *pnevmoboshqarish* (pnevmoupravleniye), *pnevmobolg'a* (pnevmomolotok), *pnevmoyuklagich* (pnevmogruzchik), *pnevmogishish* (pnevmodavleniye);

*tele-*: *teledastur* (teleprogramma), *teleminora* (telebashnya), *teleboshqaruv* (teleupravleniye), *telealoqa* (telesvyaz), *telequrilma* (teleustanovka), *teleloyiha* (teleproyekt), *teleusta* (telemaster) va h. k.

Ayni chog'da ba'zi prefiksoid-xalqaro terminelementlar ishtirokida yuzaga chiqqan terminlar donor tilda qanday shaklda bo'lsa o'zbek tiliga aynan o'zlashadi: *vidiokamera*, *vidiotelefon*, *vidioselektr*, *vidiokonferensiya*, *vidioseminar*, *ideogramma*, *kakografiya*, *avtoradio*, *avtopilot*, *avtoshturman*, *kibertexnologiya*, *neyrolingvistika*, *mikrobiologiya*, *mikrosemantika*, *anifashizm*, *antisionizm*, *sossyurologiya* va h.k.

Aksariyat monosemantik xarakterdagi *avto-*, *anti-*, *gemato-*, *inter-*, *makro-*, *mikro-*, *poli-*, *ultra-*, *mono-*, *bi-*, *tri-* singari propozitiv, ya'ni prefiksali, *-bus*, *-drom*, *-log-*, *-navt*, *-trop*; *-fob*, *-for*, *-skop* kabi postpozitiv, ya'ni postfiksali yoki *gen*, *gon*, *gramma* singari ham prepozitiv, ham postpozitiv terminelementlar o'zbek tilida tarjimasiz, aynan qo'llanadi: *avtopoyga*, *antiteza*, *gemotologiya*, *interferensiya*, *polisemiya*, *poliartrit*, *ultratovush*, *monogramma*, *monoteizm*, *bilingvizm*, *makromatn*, *mikrobiologiya*, *aerobus*, *svetafor*, *motodrom*, *teleskop*, *ixtiolog*, *seismolog*, *turkolog*, *astronavt*, *kosmonavt*, *monogramma*, *grammofon* va h.k.

*Arxi-*, *giper-*, *inter-*, *infra-*, *super-*, *ultra-*, *ekstra-* kabi prepozitiv terminelementlar sifat belgisining meyordan oshiqqligi yoxud o'zakdan anglashilgan ism ma'nosining oliy darajasini ifodalaydi: *arxisema*, *gipertovush*, *interfeys*, *intervent*, *interlingvistika*, *infraqizil*, *ultrabinafsha*, *ekstraktiv*, *superkubok* va h.k.

Xalqaro terminelementlar aniq ma'noni ifodalashga xoslangani bilan xarakterlanadi. Chunonchi, *-log* elementli terminlar biron fan sohasi mutaxassisini anglatishga xizmat qiladi: *fonolog*, *nevrolog*, *terminolog*, *leksikolog*, *seismolog*, *antropolog*, *formokolog*, *travmatolog*, *tekstolog*, *dialektolog* va h.k. *-log* elementli ayrim o'zlashmalar *-shunos* affiksli *matnshunos*, *shevashunos*, *terminshunos* singari terminlar bilan sinonimik uyani shakllantirishda qatnashadi.

*Antonim*, *antroponim*, *gidronim*, *kosmonim*, *astroponim*, *meronim*, *omonim*, *oronim*, *sinonim*, *toponim*, *xolonim* singari terminlarning *-onim* postfiksali terminelementi zaminida shakllangani va muayyan munosabatlarni ifodalashga yo'naltirilganiga shubha yo'q.

Xalqaro prepozitiv terminelementlarni maxsus tadqiq etgan A.Madvaliyev (2017, 40) ularni quyidagi uch guruhga bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi:

1) donor tillar, ya'ni lotin va yunon tillarida mustaqil ma'noli so'zlar sanalgan va terminologik sistemalarda ma'nosi tushunarli bo'lgan terminelementlar: *avto-, agro-, allo-, antropo-, astro-, biblio-, bio-, gastro-, geo-, getero-, gibro-, gomo-, zoo-, ixtio-, karbo-, kardio-, kosmo-, kripto-, lito-, makro-, mezo-, mikro-, nevro-, neo-, nitro-, poli-, radio-, sulfa-, tele-, tio-, elektro-, eritro-* va h.k.;

2) lotin va yunon tillarida sanoq va tartib sonlarni anglatuvchi terminelementlar: *bi-, geksa-, gepta-, detsi-, di-, milli-, nona-, penta-, proto-* va h.k.;

3) lotin va yunon tillariga xos yuklama hamda pristavka (old qo'shimcha yoxud old ko'makchi) xarakteridagi terminelementlar: *a-, an-, ana-, apo-, de-, dis-, in-, inter-, kontr-, meta-, para-, per-, pre-, pro-, re-, sin-, sim-, sub-, trans-, ultra-, eks-, en-, epi-* va h.k.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Arxaizmlar sirasiga qanday leksik birliklar kiradi?
2. Nima uchun hozirgi o'zbek tilida ilmiy kommunizm, demokratik sentralizm singari terminlar qo'llanmaydi?
3. Mustaqillik davrida qanday arxaizmlar qayta qo'llanishga kiritildi?
4. Kalkalashning til lug'at boyligining kengayishidagi o'rniga baho bering.
5. Qanday terminlarni kalkalashga hojat yo'q?
6. Ruscha motivlangan terminlarning o'zbek tiliga o'zlashishi xususida bahs yuring.
7. Ruscha murakkab qo'shma terminlarning o'zbek tiliga o'zlashishi jarayonida yuz beruvchi hodisalarni belgilang.
8. Internet sohasida qo'llanayotgan termin-birikmalarga faktik misollar keltiring.
9. O'zbek tilida qo'llanayotgan ruscha-baynalmilal prefiksoid-xalqaro terminelementli terminlar to'g'risida fikr yuring.
10. Xalqaro prepozitiv terminelementlar ishtirok etgan terminlarga manbalardan misollar keltiring.

### **Test:**

1. O'zlashmalar qanday terminlar tarkibida mavjud bo'ladi?

- A. motivlangan
- V. motivlanmagan
- S. sharxlangan
- D. izohlangan

2. Kalkalash qanday turlar orqali reallashadi?

- A. struktur, semantik
- V. struktur, geneologik
- S. struktur, diaxronik
- D. struktur, sinxronik

3. *liftchi, bashnyachi, importchi* terminlarida qoʻllangan *–chi* affiksi rus tilidagi qaysi suffiks oʻrnida kelgan?

- A. –ist
- V. –nik
- S. –yor
- D. –tor

4. Rus tilida–fikatsiya suffiksi qaysi soʻz turkumidan ismlar yasaydi?

- A. ot
- V. sifat
- S. ravish
- D. feʼl

5. Ruscha-baynalmilal terminlarning oʻzbek tiliga oʻzlashishi nechta usul bilan amalga oshadi?

- A. ikki
- V. uch
- S. toʻrt
- D. besh

6. Ruscha-baynalmilal qoʻshma terminning ikkinchi komponenti oʻzbekcha mutanosibi bilan aynan almashtirilgan qatorni aniqlang.

- A. elektrsim
- V. samolyotsoz
- S. elektrhisoblagich
- D. mashinashunos

7. Ruscha-baynalmilal terminning har ikki komponenti oʻzbek tilida tarjima qilingan qatorni belgilang.

- A. DNS-serveri
- V. havotozalagich
- S. avtoyoʻl
- D. telemarkaz

8. Ruscha-baynalmilal elementlarni oʻzbek tiliga tarjima qilishning nechta turini bilasiz?

- A. ikki
- V. uch
- S. toʻrt
- D. besh

9. arxi- prepozitiv terminelement qanday maʼnoni ifodalaydi?

- A. belgining meyordan kamligi
- V. belgining meyordaligi
- S. belgining meʼrdan ortiqqligi



### Adabiyotlar

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1985.
2. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opo't lingvisticheskogo opisaniya.- M.,: Nauka, 1977.
3. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.
4. Istoriya leksiki russkogo literaturnogo yazo'ka kontsa XVII-nachala XIX veka. –M.: Nauka,1981.
5. Madvaliev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari.T.:O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2017.
6. Tixonov A.N., Kim L.L., Tixonov S.A. Sovremenno'y ruskiy yazo'k. Leksikologiya. –Tashkent: O'qituvchi, 1991.
7. Usmonov O., Sh.Hamidov Sh. O'zbek tili leksikasi tarixidan materiallar (XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari).-Toshkent: Fan, 1981.
8. Shaaxmedov E. Voproso' kalkirovaniya s russkogo na uzbekskiy yazo'k. Avtoref. diss. kand. filol. nauk. - Tashkent, 1974.

**8.3. O'zbek elektron, internet, vikipediya lug'atlarini yaratish masalalari.** Istiqlol davri o'zbek leksikografiyasi nafaqat an'anaviy, balki zamonaviy lug'at tuzish printsiplarini ham o'zlashtirdi. Globallashuv hamda internet davrida har qanday axborotni sanoqli soniya yoki daqiqalarda qo'lga kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, o'zbek lug'atshunosligi o'tgan vaqtlar davomida kitobxonlar ommasi, mutaxassislar uchun mo'ljallangan turfa tipdagi lug'atlarni nashr qilish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Ayni paytda lug'atlar yaratish borasidagi ishlar jadallik bilan davom ettirilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, rivojlangan davlatlarda har qanday asarni hox u ommaviy hox ilmiy bo'lishidan qat'iy nazar ularga oid elektron lug'atlar tuzish, internet lug'atlari yaratish jadallik bilan taraqqiy etmoqda. Ko'plab kutubxona fondlarida saqlanayotgan turli asarlar qatori ilgari nashr qilingan lug'atlarning ham elektron nushalarini yaratish bugungi kun tartibidan o'rin olgan. Shunga o'xshash ishlar o'zbek lug'atshunosligida ham asta-sekinlik bilan bo'lsa-da kutubxonalardan o'rin olmoqda. Chunonchi, "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi", "Bolalar entsiklopediyasi", "Toshkent entsiklopediyasi", "Zahiriddin Muhammad Bobur entsiklopediyasi", "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tilining imlo lug'ati" va qator tarjima lug'atlar, terminologik lug'atlar va h.k.larning elektron shakllari nafaqat mutaxassislar, balki keng kitobxonlar ommasi hukmiga havola qilingan.

Ayni paytda jahon leksikografiyasi tajribasidan o'rin olgan vikipediya lug'atlarini yaratish bo'yicha respublikada dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Mazkur lug'atlar, o'zining tezkorligi, universalligi va ommabopligi nuqtai nazaridan boshqa lug'atlardan farqlanib, kitobxonning vaqtini tejashi, so'ralgan ma'lumotni qisqa va lo'nda ifodalashi bilan ahamiyatga molikdir.

### Nazorat savollari:

1. Soha terminologiyasi birikmasi nimani anglatadi?
2. O'zbek tilshunosligi terminlari qanday qatlamlardan iborat?
3. O'zbek tilshunosligi terminologiyasiga oid qanday lug'atlarni bilasiz?
4. Tibbiy terminlar izohli lug'ati kim tomonidan yaratilgan va u nechta tilda izohlangan?
5. Elektron lug'atlarning zamonaviy leksikografiyadagi o'rni qanday?
6. Mamlakatimizda Internet lug'atlarini yaratish darajasi sizni qoniqtiradimi?

**Foydalanilgan adabiyot:**

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1988.
2. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamallari. Toshkent: Fan, 2002.
3. Dadabaev X.A. Obshchestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazychnom pismennom pamyatnike XI-XII vv. - Tashkent: Yozuvchi, 1991.
4. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opo't lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.
5. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977

# AMALIY MASHG'ULOTLAR

## 1-MAVZU. VII-XX ASRNING YIGIRMANCHI YILLARIGACHA BO'LGAN DAVR O'ZBEK TERMINOLOGIYASI VA LEKSIKOGRAFIYASI.

**Ishdan maqsad:** Deyarli 13 asr davomida o'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi shakllanishi va rivojlanishi dinamikasi bo'yicha asosiy ko'nikmalarni takrorlash. Qo'hna terminlardan va lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini egallash.

**Masalaning qo'yilishi:** Ushbu amaliy ish davomida tinglovchi quyidagilarni bajarishi lozim:

- qadimgi turkiy til matnlaridan terminlarni topishi
- eski turkiy til obidalarida matnida qo'llangan sof turkiy terminlarni aniqlashi
- eski o'zbek adabiy tili manbalarida io'latilgan arabcha o'zlashma terminlarni ko'rsatishi
- "Devonu lug'otit turk"dagi terminlar talqinini izohlashi
- o'zbek tili terminologiyasi tizimigi forsha-tojikcha elementlarni bilishi
- "Qutadg'u bilig" pandnomasida qo'llangan harbiy terminlarni sharhlashi
- Navoiyning "Xamsa" asari matnidagi astroponimlarni topishi
- "Boburnoma"da qo'llangan mo'g'ulcha o'zlashma terminlarni izohlashi.

**Ishni bajarish uchun namuna.**

**Qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tili terminologiyasi va lug'atnavisligi.**

Turkiy yozma-adabiy tilning dastlabki namunalari sirasiga kirmish qadimgi run bitiklari, shubhasiz, turkiy xalqlar ajdodlariga xos yuqori darajada shakllangan lisoniy madaniyatidan darak beruvchi manba vazifasini o'taydi. Qadimgi turkiy til fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va sintaktik xususiyatlari O'rxun-Enisey(Enasoy) tosh bitiklari va epitafiyalarida o'z ifodasini topgan. Runik obidalar janr nuqtai nazaridan olti guruhga taqsimlanadi:

- 1) tarixiy–biografik bitiklar: Kul-tegin, Mo'g'ilon (Bilga qag'an), Kuli-Chur, To'nyuquq, O'ngin, Selenga, Sujun, Qorabalg'asun bitiktoshlari;
- 2) epitafik bitiklar: Enisey, Talas, Tuva, Xaqosiya qabr toshlari;
- 3) qoyalar, toshlar va qurilishlardagi (Xo'yto'-Temir) bitiklar;
- 4) diniy matnlar: folkitobi "Folnoma";
- 5) Turfondan topilgan yuridik huquqiy hujjatlar;
- 6) Maishiy narsa-buyumlardagi bitiklar.

Runik bitiklar leksikasi tarkibida bir qancha terminologik tizimlarning mavjudligini turkiyshunoslikda olib borilgan izlanish va maxsus tadqiqotlar tasdiqlagan. Xususan, qo'yidagi mavzui guruhlariga oid terminlar tizimlar bitiklar matnida faol qo'llangan:

1) Ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi – *qag'an*, *tegin*, *shad*, *yabg'u*, *qatun*, *tudun*, *tutuq*, *tarqan*, *beg*, *eltabar*, *sabchi* “elchi”, *yolchi* “boshliq” va h.k.

2) Harbiy terminlar – *korug* “ayg'oqchi, josus”, *ayg'uchi* “harbiy maslahatchi”, *subashi* “sarkarda, lashkarboshi”, *yerchi* “yo'l ko'rsatuvchi, qulavuz”, sungush “jang, urush”, *sungug* “nayza”, *su* “lashkar, qo'shin”, buyruq “farmonbardor”, *qishlaq* “qish mavsumi uchun mo'ljallangan lashkargoh, lager”, *qurg'an* “qo'rg'on, istehkom”, *barg'u* “o'lja”, *tegish* “jang”, *kedim* “sovut; yopinchiq”, *yelma* “g'oratgar askariy guruh”, *bulun* “asir, tutqun” va h.k.

3) Tijorat bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi istilohlar: *arqish* “savdo-sotiq karvoni”, *sat-* “sotmoq”, *satig'* “savdo-sotiq”, *satig'chi* “tojir, savdogar”, *berim alim* “qarz”, *alim berim* “qarz”, *otag'* “qarz”, *otag'chi* “qarzdor”, va h.k.

4) Soliq va boj terminlari tizimi – *berim* “to'lov”, *qabin* “tayyor mahsulot bilan to'lanadigan soliq turi”, *qubchir* “davlat tomonidan fuqarolardan undiriladigan jon solig'i” va h.k.

5) Zoonimlar – bug'ra “erkak tuya”, arslan “arslon, sher”, at “ot”, *ud* “qoramol (bug'qa yoki sigir)”, *qag'atir* “xo'kiz”, *bori* “bo'ri”, *bars* “yo'lbars”, *tishi bars* “urg'ochi yo'lbars”, va h.k.

6) Astroponimlar: *ay* “oy”, *kun* “quyosh”, *altun yultuz* “Cho'lpon, Venera”, *yetigan* “Katta Ayiq”, *ot yulduz* “Mars”, *suv yulduz* “Merkuriy”, *topraq yulduz* “Saturn”, *yig'ach yulduz* “Yupiter”, *yer* “er, zamin” va h.k.

7) Anatomik terminlar – yukrak “yurak”, qaraq “ko'z, ko'z gavhari”, qarin “qorin”, qol “qo'l”, bash “bosh”, bag'ir “jigar”, ovkaG'opka “o'pka” va h.k.

8) Tibbiy terminlar – *bug'an* “chipqon, kaka tau “yiringli yara, chipqon”, *ig* “dard, kasallik”, *ig ag'rig'* “kasallik, dard”, *ig kegan* “dard, kasallik”, *adaq ag'rig'* “oyoq og'rig'i”, *ag'iz ag'rig'* *ig* “og'iz kasalligi”, *burun ag'rig'* *ig* “burun kasalligi”, *bog'uz ag'rig'* *ig* “qilizo'ngach, halqum kasalligi”, *yurak ag'rig'* *ig* “yurak kasalligi”, *onguch ag'rig'* *ig* “tomog' og'rig'i kasalligi”, *qulg'aq ag'rig'* *ig* “quloq kasalligi”, *ag'rug'ichi* “kasal, bemor, dardmand” va h.k.

9) Ma'dan nomlarlarini anglatuvchi terminlar: *altun* “oltin, tilla”, kumush “kumush”, *temur* “temir”, *baqir* “mis” va h.k.

10) Dunyo (kurra)ning to'rt tomoni va vaqt (sutka) o'lchov birligini ifodalovchi terminlar tizimi – *kun ortu* 1) “peshin”; 2) “janub”, *tun ortu* 1) “yarim kecha”; 2) “shimol”, *tun sari* “shimol”, *tang sari* “sharq”, *kun tug'siq* “sharq, kuntug'ar”, *kun batsiq* “g'arb, kunbotar” va h.k.

Keltirilgan misollar qadimgi turkiy til terminologiyasining mavzu nuqtai nazaridan turfa, miqdor jihatdan ancha ko'pligi, istilohlarning asosini asl turkiycha so'zlar tashkil etganini tasdiqlaydi.

O'rta Osiyoning arablar tomonidan fath qilinishi oqibatida islom dini, arab tili va madaniyati, arab xati shu mintaqada azaldan istiqomat qiliuvchi xalqlar, millatlar, qabilalar, qavmlar intellektual hayotidan mustahkam o'rin oldi. Arablar hukmronligidan keyin eron madaniyati, ayniqsa, somonilar humronligi yillarida taraqqiy etdi va uning turkiy tillar tabiatiga, xarakteriga ma'lum darajada ta'siri ko'zga tashlandi. X asr oxirida Sharqiy Turkiston, Ettisuv va Koshg'arda qoraxoniylar saltanati tashkil topdi. Shu davrdan e'tiboran turkiy adabiy tillarning shakllanishida jiddiy jarayonlar sodir bo'ldi. Koraxoniylar vaqtida jonli tillar

adabiy tildan farqli o'laroq xorijiy tillar elementlariga nisbatan oz ta'sirda bo'lgan. Fors-tojik tili aksariyat hollarda rasmiy-idoralarda eski turkiy til bilan yonma-yon qo'llangan. Bu kezlarda eski turkiy til so'z boyligi, xususan, terminlar tizimi umum til leksikasi tarkibida shakllandi va taraqqiy etdi. Bunday ekstralingvistik omillar qatori intralingvistik faktorlarning roli katta bo'lgan edi. Matematika, geografiya, falakiyot, tibbiyot, minerologiya, zoologiya, geometriya kabi tabiiy fanlar singari falsafa, filologiya, lingvistika, tarixshunoslik, dinshunoslik kabi fan sohalarining jadal rivojlanishi asosida eski turkiy til terminologiyasining qadimgi turkiy til terminlar tizimidan qo'p jihatdan farqlanishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayni chog'da qadimgi turkiy til so'z boyligida mavjud bo'lgan asl turkiycha terminlarning salmoqli qismi bu davr terminologiyasida ham iste'molda qolavergan.

Qoraxoniylar davri terminologiyasi tizimi eski turkiy tilning o'z resurslari hamda arab va fors-tojik tillaridan o'zlashgan birliklar hisobga kengayib borgan.

Eski o'zbek tili terminologiyasi (XU-XIX asr oxiri) tizimi qadimgi turkiy til va eski turkiy til terminologiyasidek o'z ichki imkoniyatlari ham o'zlashmalar hisobiga shakllandi va rivojlandi. Eski o'zbekcha terminlar yasash jihatdan tub va derivatlardan tashkil topgan edi. Terminlar yasashida qatnashgan affikslarni leksik-grammatik xarakteriga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1) Ism-o'zaklardan ot-terminlar yasovchi affikslar: *yurtchi*, *yulduzchi*, *cherigchi*, *turaliq*, *jibalik*, *kejimlik* va h.k.;

2) Fe'l –o'zaklardan ot-terminlar hosil qiluvchi affikslar: *pusug'*, *bolak*, *yurush*, *chapqun*, *quvg'un//qavg'un*, *yasavul*, *tosqavul*, *tatavul*, *niakvul*, *yasal*, *qabal*, *yasaq*, *tolg'ama*, *yasav*, *bashlamaq* va h.k.;

3) Ot(ism)lardan fe'l-terminlar yasovchi affikslar: *yag'ila-*, *oqla-*, *cherikla-*, *jibalan-*, *qilichla-*, *atlan-* va h.k.;

4) Fe'l-o'zaklardan fe'l-termin hosil qiluvchi qo'shimchalar: *savash-*, *urush-*, *talat-*, *evril-*, *yig'il-* va h.k.;

Terminlarning sintaktik yo'l bilan yasashiga tubandagi faktik materiallar misol bo'ladi: *koktemur* "zirh, sovut", *yatish tavachisi* "askarlarni yotoq bilan ta'minlovchi harbiy mansab egasi", *ulug'* urush "dahshatli jang", *on begi*, *yuz bashi*, *ming begi*, *tuman begi* va h.k.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshida adabiy til alohida o'zga xos o'ringa ega bo'ldi. Bu davr adabiy tili va uslubida jiddiy va muhim o'zgarishlar yuzaga keldi. Bular o'zbek xalqi hayotida sodir bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi natijasida maydonga chiqdi. XIX asrning 2-yarmidan O'rta Osiyo Russiyaga qaram bo'lib qoldi, Mahalliy millat orasida rus madaniyati yoyila boshladi. Kapitalistik munosabatlar o'zbek xalqi hayotga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Ayni davrda keyinchalik progressiv-demokratik deb nom olgan adabiyot shakllandi. O'zbek tili leksikasi va terminologiyasi uch m anba asosida boyib bordi:

1) o'zbek tilining ichki imkoniyatlari va qonunlari zahirida yuzaga kelgan terminlar: *bosmaxona*, *nizomnoma* "ustav", *nishontosh* "yodgorlik", *yig'ilish* "majlis" va h.k.;

2) o'zbek tili terminologiyasining jonli xalq tili so'zlari hisobiga kengayishi: *bozchi, bezgak, iskaptopar, arava* va h.k;

3) ruscha-g'arbiy evropacha terminlar o'zbek tiliga o'zlashishi: a) ijtimoiy-siyosiy terminlar – *uezd, pristav, soldat, volost, дума* va h.k.; b) transport bilan bog'liq tushunchalarni anglatuvchi terminlar – *poezd, vagon, vokzal, stantsiya* va h.k;

4) sanoat, tijorat va moliya tizimida qo'llanuvchi terminlar – *zavod, fabrika, vsitavka, magazin, kredit* va h.k.;

5) madaniyat, fan, maorif sohasi terinlari – *gimnaziya, teatr, gazeta, muzey, universitet, kafedra* va h.k.;

6) tibbiy terminlar – *gospital, lazaret, feldsher* va h.k.;

7) hujjat va mukofotlar terminlari – *medal, pasport, orden* va h.k.;

8) sudlov terminlari – *sud, sudya, zakon* va h.k.;

9) o'lchov birliklari nomi – *pud, minuta, sajen* va h.k.;

10) harbiy terminlar – *general, korpus, konvoy, kapitan* va h.k.

Zikr etilgan o'zlashma terminlarning muayyan qismi keyinchalik ular anglatgan tushunchalarninga turmushdan chiqib ketgani bois iste'moldan qoldi, ba'zilar esa o'zbek tili so'zlari bilan almashtirildi.

### **Nazorat savollari**

1. O'rxun-Enisey bitiktoshlari janr jihatdan necha guruhga taqsimlanadi?
2. Bitiktoshlar matnida qanday mavzuiy guruhlariga oid terminlar qayd etilgan?
3. Arablar fathidan keyin turkiy tilda qanday jarayonlar sodir bo'lgan?
4. Somoniylar hukmronligi davrida turkiy terminologiyaning holatiga baho bering.
5. Eski turkiy til terminologiyasi tizimi qaysi manbalar asosida shakllandi?
6. Qoraxoniylar saltanatida turkiy tilning mavqei qay darajada edi?
7. Eski o'zbek tili terminologiyasi rivojiga sabab bo'lgan qanday omillarni bilasiz?
8. XIX asr 2-yarmidan o'zbek terminologiyasi tizimi qaysi manbalar hisobiga rivojlandi?
9. O'zbek tili terminologiyasining shakllanishida o'z qatlamning o'rni qanday?
10. Mo'g'ulcha o'zlashmalar eski o'zbek tilining qaysi fan sohasida miqdoran aksariyatni tashkil qiladi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1988.
2. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamallari. Toshkent: Fan, 2002.
3. Dadabaev X.A. Obshchestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazychnom pismennom pamyatnike XI-XIII vv. -Tashkent: Yozuvchi, 1991.

4. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opo't lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.

5. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.

## 2-MAVZU. QADIMGI TURKIY TIL, ESKI TURKIY TIL VA ESKI O'ZBEK ADABIY TILI TERMINOLOGIYASI VA LUG'ATNAVISLIGI. O'ZBEK TIL TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHIDA O'Z VA O'ZLASHGAN QATLAMNING O'RNI. QADIMGI TURKIY TILGA XOS TOSHBITIKLAR MATNI LEKSIKASIDAGI TERMINLAR.

Ishdan maqsad: Deyarli 13 asr davomida o'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi shakllanishi va rivojlanishi dinamikasi bo'yicha asosiy ko'nikmalarni takrorlash. Qo'hna terminlardan va lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini egallash.

Masalaning qo'yilishi: Ushbu amaliy ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- qadimgi turkiy til matnlaridan terminlarni topishi
- eski turkiy til obidalari matnida qo'llangan sof turkiy terminlarni aniqlashi
- eski o'zbek adabiy tili manbalarida io'latilgan arabcha o'zlashma terminlarni ko'rsatishi
- "Devonu lug'otit turk"dagi terminlar talqinini izohlashi
- o'zbek tili terminologiyasi tizimigi forsha-tojikcha elementlarni bilishi
- "Qutadg'u bilig" pandnomasida qo'llangan harbiy terminlarni sharhlashi
- Navoiyning "Xamsa" asari matnidano astroponimlarni topishi
- "Boburnoma"da qo'llangan mo'g'ulcha o'zlashma terminlarni izohlashi.

*Ishni bajarish uchun namuna.* Qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tili terminologiyasi va lug'atnavisligi. Turkiy yozma-adabiy tilning dastlabki namunalari sirasiga kirmish qadimgi run bitiklari, shubhasiz, turkiy xalqlar ajdodlariga xos yuqori darajada shakllangan lisoniy madaniyatidan darak beruvchi manba vazifasini o'taydi. Qadimgi turkiy til fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va sintaktik xususiyatlari O'rxun-Yenisey(Enasoy) tosh bitiklari va epitafiyalarida o'z ifodasini topgan. Runik obidalar janr nuqtai nazaridan olti guruhga taqsimlanadi:

- 1) tarixiy–biografik bitiklar: Kul-tegin, Mo'g'ilon (Bilga qag'an), Kuli-Chur, To'nyuquq, O'ngin, Selenga, Sujun, Qorabalg'asun bitiktoshlari;
- 2) epitafik bitiklar: Yenisey, Talas, Tuva, Xaqosiya qabr toshlari;
- 3) qoyalar, toshlar va qurilishlardagi (Xo'yto'-Temir) bitiklar;
- 4) diniy matnlar: folkitobi "Folnoma";
- 5) Turfondan topilgan yuridikG'huquqiy hujjatlar;
- 6) Maishiy narsa-buyumlardagi bitiklar.

Runik bitiklar leksikasi tarkibida bir qancha terminologik tizimlarning mavjudligini turkiyshunoslikda olib borilgan izlanish va maxsus tadqiqotlar

tasdiqlagan. Xususan, qo'yidagi mavzui guruhlarga oid terminlar tizimlar bitiklar matnida faol qo'llangan:

1) Ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi – qag'an, tegin, shad, yabg'u, qatun, tudun, tutuq, tarqan, beg, eltabar, sabchi "elchi", yolchi "boshliq" va h.k.

2) Harbiy terminlar – korug "ayg'oqchi, josus", ayg'uchi "harbiy maslahatchi", subashi "sarkarda, lashkarboshi", yerchi "yo'l ko'rsatuvchi, qulavuz", sungush "jang, urush", sungug "nayza", su "lashkar, qo'shin", buyruq "farmonbardor", qishlaq "qish mavsumi uchun mo'ljallangan lashkargoh, lager", qurg'an "qo'rg'on, istehkom", barg'u "o'lja", tegish "jang", kedim "sovut; yopinchiq", yelma "g'oratgar askariy guruh", bulun "asir, tutqun" va h.k.

3) Tijorat bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi istilohlar: arqish "savdo-sotiq karvoni", sat- "sotmoq", satig' "savdo-sotiq", satig'chi "tojir, savdogar", berim alim "qarz", alim berim "qarz", otag' "qarz", otag'chi "qarzdor", va h.k.

4) Soliq va boj terminlari tizimi – berim "to'lov", qabin "tayyor mahsulot bilan to'lanadigan soliq turi", qubchir "davlat tomonidan fuqarolardan undiriladigan jon solig'i" va h.k.

5) Zoonimlar – bug'ra "erkak tuya", arslan "arslon, sher", at "ot", ud "qoramol (bug'qa yoki sigir), qag'atir "xo'kiz", bori "bo'ri", bars "yo'lbars", tishi bars "urg'ochi yo'lbars", va h.k.

6) Astroponimlar: ay "oy", kun "quyosh", altun yultuz "Cho'lpon, Venera", yetigan "Katta Ayiq", ot yulduz "Mars", suv yulduz "Merkuriy", topraq yulduz "Saturn", yig'ach yulduz "Yupiter", yer "er, zamin" va h.k.

7) Anatomik terminlar – yukrak "yurak", qaraq "ko'z, ko'z gavhari", qarın "qorin", qol "qo'l", bash "bosh", bag'ir "jigar", ovkaG'opka "o'pka" va h.k.

8) Tibbiy terminlar – bug'an "chipqon, kaka tau "yiringli yara, chipqon", ig "dard, kasallik", ig ag'rig' "kasallik, dard", ig kegan "dard, kasallik", adaq ag'rig' "oyoq og'rig'i", ag'iz ag'rig' ig "og'iz kasalligi", burun ag'rig' ig "burun kasalligi", bog'uz ag'rig' ig "qilizo'ngach, halqum kasalligi", yurak ag'rig' ig "yurak kasalligi", onguch ag'rig' ig "tomog' og'rig'i kasalligi", qulg'aq ag'rig' ig "quloq kasalligi", ag'rug'ichi "kasal, bemor, dardmand" va h.k.

9) Ma'dan nomlarlarini anglatuvchi terminlar: altun "oltin, tilla", kumush "kumush", temur "temir", baqir "mis" va h.k.

10) Dunyo (kurra)ning to'rt tomoni va vaqt (sutka) o'lchov birligini ifodalovchi terminlar tizimi – kun ortu 1) "peshin"; 2) "janub", tun ortu 1) "yarim kecha"; 2) "shimol", "tun sari" shimol", tang sari "sharq", kun tug'siq "sharq, kuntug'ar", kun batsiq "g'arb, kunbotar" va h.k.

Keltirilgan misollar qadimgi turkiy til terminologiyasining mavzu nuqtai nazaridan turfa, miqdor jihatdan ancha ko'pligi, istilohlarning asosini asl turkiycha so'zlar tashkil etganini tasdiqlaydi. O'rta Osiyoning arablar tomonidan fath qilinishi oqibatida islom dini, arab tili va madaniyati, arab xati shu mintaqada azaldan istiqomat qiliuvchi xalqlar, millatlar, qabilalar, qavmlar intellektual hayotidan mustahkam o'rin oldi. Arablar hukmronligidan keyin eron madaniyati, ayniqsa, somonilar humronligi yillarida taraqqiy etdi va uning turkiy tillar tabiatiga, xarakteriga ma'lum darajada ta'siri ko'zga tashlandi. X asr oxirida



Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Koshg'arda qoraxoniylar saltanati tashkil topdi. Shu davrdan e'tiboran turkiy adabiy tillarning shakllanishida jiddiy jarayonlar sodir bo'ldi. Koraxoniylar vaqtida jonli tillar adabiy tildan farqli o'laroq xorijiy tillar elementlariga nisbatan oz ta'sirda bo'lgan. Fors-tojik tili aksariyat hollarda rasmiy-idoralarda eski turkiy til bilan yonma-yon qo'llangan. Bu kezlarda eski turkiy til so'z boyligi, xususan, terminlar tizimi umum til leksikasi tarkibida shakllandi va taraqqiy etdi. Bunday ekstralingvistik omillar qatori intralingvistik faktorlarning roli katta bo'lgan edi. Matematika, geografiya, falakiyot, tibbiyot, minerologiya, zoologiya, geometriya kabi tabiiy fanlar singari falsafa, filologiya, lingvistika, tarixshunoslik, dinshunoslik kabi fan sohalarining jadal rivojlanishi asosida eski turkiy til terminologiyasining qadimgi turkiy til terminlar tizimidan qo'p jihatdan farqlanishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayni chog'da qadimgi turkiy til so'z boyligida mavjud bo'lgan asl turkiycha terminlarning salmoqli qismi bu davr terminologiyasida ham iste'molda qolavergan.

Qoraxoniylar davri terminologiyasi tizimi eski turkiy tilning o'z resurslari hamda arab va fors-tojik tillaridan o'zlashgan birliklar hisobga kengayib borgan.

Eski o'zbek tili terminologiyasi (XV-XIX asr oxiri) tizimi qadimgi turkiy til va eski turkiy til terminologiyasidek o'z ichki imkoniyatlari ham o'zlashmalar hisobiga shakllandi va rivojlandi. Eski o'zbekcha terminlar yasash jihatdan tub va derivatlardan tashkil topgan edi. Terminlar yasashida qatnashgan affikslarni leksik-grammatik xarakteriga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1) Ism-o'zaklardan ot-terminlar yasovchi affikslar: yurtchi, yulduzchi, cherigchi, turaliq, jibalik, kejimlik va h.k;

2) Fe'l –o'zaklardan ot-terminlar hosil qiluvchi affikslar: pusug', bolak, yurush, chapqun, quvg'un//qavg'un, yasavul, tosqavul, tatavul, niakvul, yasal, qabal, yasaq, tolg'ama, yasav, bashlamaq va h.k.;

3) Ot(ism)lardan fe'l-terminlar yasovchi affikslar: yag'ila-, oqla-, cherikla-, jibalan-, qilichla-, atlan- va h.k.;

4) Fe'l-o'zaklardan fe'l-termin hosil qiluvchi qo'shimchalar: savash-, urush-, talat-, evril-, yig'il- va h.k.;

Terminlarning sintaktik yo'l bilan yasashiga tubandagi faktik materiallar misol bo'ladi: koktemur "zirh, sovut", yatish tavachisi "askarlarni yotoq bilan ta'minlovchi harbiy mansab egasi", ulug' urush "dahshatli jang", on begi, yuz bashi, ming begi, tuman begi va h.k.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshida adabiy til alohida o'zga xos o'ringa ega bo'ldi. Bu davr adabiy tili va uslubida jiddiy va muhim o'zgarishlar yuzaga keldi. Bular o'zbek xalqi hayotida sodir bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi natimjasida maydonga chiqdi. XIX asrning 2-yarmidan O'rta Osiyo Russiyaga qaram bo'lib qoldi, Mahalliy millat orasida rus madaniyati yoyila boshladi. Kapitalistik munosabatlar o'zbek xalqi hayotga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Ayni davrda keyinchalik progressiv-demokratik deb nom olgan adabiyot shakllandi.

O'zbek tili leksikasi va terminologiyasi uch manba asosida boyib bordi:

- 1) o'zbek tilining ichki imkoniyatlari va qonunlari zahirida yuzaga kelgan terminlar: bosmaxona, nizomnoma "ustav", nishontosh "yodgorlik", yig'ilish "majlis" va h.k.;
  - 2) o'zbek tili terminologiyasining jonli xalq tili so'zlari hisobiga kengayishi: bozchi, bezgak, iskaptopar, arava va h.k.;
  - 3) ruscha-g'arbiy yevropacha terminlar o'zbek tiliga o'zlashishi: a) ijtimoiy-siyosiy terminlar – uezd, pristav, soldat, volost`, дума va h.k.; b) transport bilan bog'liq tushunchalarni anglatuvchi terminlar – poezd, vagon, vokzal, stantsiya va h.k.;
  - 4) sanoat, tijorat va moliya tizimida qo'llanuvchi terminlar – zavod, fabrika, vsitavka, magazin, kredit va h.k.;
  - 5) madaniyat, fan, maorif sohasi terinlari – gimnaziya, teatr, gazeta, muzey, universitet, kafedra va h.k.;
  - 6) tibbiy terminlar – gospital`, lazaret, fel`dsher va h.k.;
  - 7) hujjat va mukofotlar terminlari – medal`, pasport, orden va h.k.;
  - 8) sudlov terminlari – sud, sud`ya, zakon va h.k.;
  - 9) o'lchov birliklari nomi – pud, minuta, sajen` va h.k.;
  - 10) harbiy terminlar – general, korpus, konvoy, kapitan va h.k.
- Zikr etilgan o'zlashma terminlarning muayyan qismi keyinchalik ular anglatgan tushunchalarninga turmushdan chiqib ketgani bois iste'moldan qoldi, ba'zilari esa o'zbek tili so'zlari bilan almashtirildi.

### **Nazorat savollari**

1. O'rxun-Yenisey bitiktoshlari janr jihatdan necha guruhga taqsimlanadi?
2. Bitiktoshlar matnida qanday mavzuiy guruhlariga oid terminlar qayd etilgan?
3. Arablar fathidan keyin turkiy tilda qanday jarayonlar sodir bo'lgan?
4. Somoniylar hukmronligi davrida turkiy terminologiyaning holatiga baho bering.
5. Eski turkiy til terminologiyasi tizimi qaysi manbalar asosida shakllandi?
6. Qoraxoniylar saltanatida turkiy tilning mavqei qay darajada edi?
7. Eski o'zbek tili terminologiyasi rivojiga sabab bo'lgan qanday omillarni bilasiz?
8. XIX asr 2-yarmidan o'zbek terminologiyasi tizimi qaysi manbalar hisobiga rivojlandi?
9. O'zbek tili terminologiyasining shakllanishida o'z qatlamning o'ri qanday?
10. Mo'g'ulcha o'zlashmalar eski o'zbek tilining qaysi fan sohasida miqdoran aksariyatni tashkil qiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1988.

2. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamallari. Toshkent: Fan, 2002.

3. Dadabaev X.A. Obshestvenno-politicheskaya i sotsial`no-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pis`mennix pamyatnikax XI-XIV vv. -Tashkent: Yozuvchi, 1991.

4. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opit lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.

5. Doniyorov R. O`zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.

### 3-MAVZU. “DEVONU LUG‘OTIT TURK”DAGI TERMINLARNING MAVZUIY GURUHLARI. ESKI TURKIY TIL TERMINOLOGIYASI.

*Masalaning qo`yilishi:* Ushbu seminar davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- qadimgi turkiy til matnlaridan terminlarni topishi
- eski turkiy til obidalari matnida qo`llangan sof turkiy terminlarni aniqlashi
- eski o`zbek adabiy tili manbalarida io`latilgan arabcha o`zlashma terminlarni ko`rsatishi

- “Devonu lug‘otit turk”dagi terminlar talqinini izohlashi
- o`zbek tili terminologiyasi tizimigi forsha-tojikcha elementlarni bilishi
- “Qutadg`u bilig” pandnomasida qo`llangan harbiy terminlarni sharhlashi
- Navoiyning “Xamsa” asari matnidano astroponimlarni topishi
- “Boburnoma”da qo`llangan mo`g`ulcha o`zlashma terminlarni izohlashi.

*Ishni bajarish uchun namuna.* Qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o`zbek adabiy tili terminologiyasi va lug`atnavisligi. Turkiy yozma-adabiy tilning dastlabki namunalari sirasiga kirmish qadimgi run bitiklari, shubhasiz, turkiy xalqlar ajdodlariga xos yuqori darajada shakllangan lisoniy madaniyatidan darak beruvchi manba vazifasini o`taydi. Qadimgi turkiy til fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va sintaktik xususiyatlari O`rxun-Yenisey(Enasoy) tosh bitiklari va epitafiyalarida o`z ifodasini topgan. Runik obidalar janr nuqtai nazaridan olti guruhga taqsimlanadi:

- 1) tarixiy–biografik bitiklar: Kul-tegin, Mo`g`ilon (Bilga qag`an), Kuli-Chur, To`nyuquq, O`ngin, Selenga, Sujun, Qorabalg`asun bitiktoshlari;
- 2) epitafik bitiklar: Yenisey, Talas, Tuva, Xaqosiya qabr toshlari;
- 3) qoyalar, toshlar va qurilishlardagi (Xo`yto`-Temir) bitiklar;
- 4) diniy matnlar: folkitobi “Folnoma”;
- 5) Turfondan topilgan yuridikG`huquqiy hujjatlar;
- 6) Maishiy narsa-buyumlardagi bitiklar.

Runik bitiklar leksikasi tarkibida bir qancha terminologik tizimlarning mavjudligini turkiyshunoslikda olib borilgan izlanish va maxsus tadqiqotlar tasdiqlagan. Xususan, qo`yidagi mavzui guruhlariga oid terminlar tizimlar bitiklar matnida faol qo`llangan:

- 1) Ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi – qag`an, tegin, shad, yabg`u, qatun, tudun, tutuq, tarqan, beg, eltabar, sabchi “elchi”, yolchi “boshliq” va h.k.

2) Harbiy terminlar – korug “ayg‘oqchi, josus”, ayg‘uchi “harbiy maslahatchi”, subashi “sarkarda, lashkarboshi”, yerchi “yo‘l ko‘rsatuvchi, qulavuz”, sungush “jang, urush”, sungug “nayza”, su “lashkar, qo‘shin”, buyruq “farmonbador”, qishlaq “qish mavsumi uchun mo‘ljallangan lashkargoh, lager”, qurg‘an “qo‘rg‘on, istehkom”, barg‘u “o‘lja”, tegish “jang”, kedim “sovut; yopinchiq”, yelma “g‘oratgar askariy guruh”, bulun “asir, tutqun” va h.k.

3) Tijorat bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi istilohlar: arqish “savdo-sotiq karvoni”, sat- “sotmoq”, satig‘ “savdo-sotiq”, satig‘chi “tojir, savdogar”, berim alim “qarz”, alim berim “qarz”, otag‘ “qarz”, otag‘chi “qarzdor”, va h.k.

4) Soliq va boj terminlari tizimi – berim “to‘lov”, qabin “tayyor mahsulot bilan to‘lanadigan soliq turi”, qubchir “davlat tomonidan fuqarolardan undiriladigan jon solig‘i” va h.k.

5) Zoonimlar – bug‘ra “erkak tuya”, arslan “arslon, sher”, at “ot”, ud “qoramol (bug‘qa yoki sigir), qag‘atir “xo‘kiz”, bori “bo‘ri”, bars “yo‘lbars”, tishi bars “urg‘ochi yo‘lbars”, va h.k.

6) Astroponimlar: ay “oy”, kun “quyosh”, altun yultuz “Cho‘lpon, Venera”, yetigan “Katta Ayiq”, ot yulduz “Mars”, suv yulduz “Merkuriy”, topraq yulduz “Saturn”, yig‘ach yulduz “Yupiter”, yer “er, zamin” va h.k.

7) Anatomik terminlar – yukrak “yurak”, qaraq “ko‘z, ko‘z gavhari”, qarın “qorin”, qol “qo‘l”, bash “bosh”, bag‘ir “jigar”, ovkaG‘opka “o‘pka” va h.k.

8) Tibbiy terminlar – bug‘an “chipqon, kaka tau “yiringli yara, chipqon”, ig “dard, kasallik”, ig ag‘rig‘ “kasallik, dard”, ig kegan “dard, kasallik”, adaq ag‘rig‘ “oyoq og‘rig‘i”, ag‘iz ag‘rig‘ ig “og‘iz kasalligi”, burun ag‘rig‘ ig “burun kasalligi”, bog‘uz ag‘rig‘ ig “qilizo‘ngach, halqum kasalligi”, yurak ag‘rig‘ ig “yurak kasalligi”, onguch ag‘rig‘ ig “tomog‘ og‘rig‘i kasalligi”, qulg‘aq ag‘rig‘ ig “quloq kasalligi”, ag‘rug‘ichi “kasal, bemor, dardmand” va h.k.

9) Ma‘dan nomlarlarini anglatuvchi terminlar: altun “oltin, tilla”, kumush “kumush”, temur “temir”, baqir “mis” va h.k.

10) Dunyo (kurra)ning to‘rt tomoni va vaqt (sutka) o‘lchov birligini ifodalovchi terminlar tizimi – kun ortu 1) “peshin”; 2) “janub”, tun ortu 1) “yarim kecha”; 2) “shimol”, “tun sari” shimol”, tang sari “sharq”, kun tug‘siq “sharq, kuntug‘ar”, kun batsiq “g‘arb, kunbotar” va h.k.

Eski o‘zbek tili terminologiyasi (XV-XIX asr oxiri) tizimi qadimgi tukiyl til va eski turkiyl til terminologiyasidek o‘z ichki imkoniyatlari ham o‘zlashmalar hisobiga shakllandi va rivojlandi. Eski o‘zbekcha terminlar yasaliş jihatdan tub va derivatlardan tashkil topgan edi. Terminlar yasalişida qatnashgan affikslarni leksik-grammatik xarakteriga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1) Ism-o‘zaklardan ot-terminlar yasovchi affikslar: yurtchi, yulduzchi, cherigchi, turaliq, jibalik, kejimlik va h.k;

2) Fe‘l –o‘zaklardan ot-terminlar hosil qiluvchi affikslar: pusug‘, bolak, yurush, chapqun, quvg‘un//qavg‘un, yasavul, tosqavul, tatavul, niakvul, yasal, qabal, yasaq, tolg‘ama, yasav, bashlamaq va h.k.;

3) Ot(ism)lardan fe‘l-terminlar yasovchi affikslar: yag‘ila-, oqla-, cherikla-, jibalan-, qilichla-, atlan- va h.k.;

4) Fe'l-o'zaklardan fe'l-termin hosil qiluvchi qo'shimchalar: savash-, urush-, talat-, evril-, yig'il- va h.k.;

Terminlarning sintaktik yo'l bilan yasashiga tubandagi faktik materiallar misol bo'ladi: koktemur "zirh, sovut", yatish tavachisi "askarlarni yotoq bilan ta'minlovchi harbiy mansab egasi", ulug' urush "dahshatli jang", on begi, yuz bashi, ming begi, tuman begi va h.k.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshida adabiy til alohida o'zga xos o'ringa ega bo'ldi. Bu davr adabiy tili va uslubida jiddiy va muhim o'zgarishlar yuzaga keldi. Bular o'zbek xalqi hayotida sodir bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi natimjasida maydonga chiqdi. XIX asrning 2-yarmidan O'rta Osiyo Russiyaga qaram bo'lib qoldi, Mahalliy millat orasida rus madaniyati yoyila boshladi. Kapitalistik munosabatlar o'zbek xalqi hayotga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Ayni davrda keyinchalik progressiv-demokratik deb nom olgan adabiyot shakllandi.

O'zbek tili leksikasi va terminologiyasi uch manba asosida boyib bordi:

1) o'zbek tilining ichki imkoniyatlari va qonunlari zahirida yuzaga kelgan terminlar: bosmaxona, nizomnoma "ustav", nishontosh "yodgorlik", yig'ilish "majlis" va h.k.;

2) o'zbek tili terminologiyasining jonli xalq tili so'zlari hisobiga kengayishi: bozchi, bezgak, iskaptopar, arava va h.k.;

3) ruscha-g'arbiy yevropacha terminlar o'zbek tiliga o'zlashishi: a) ijtimoiy-siyosiy terminlar – uezd, pristav, soldat, volost, дума va h.k.; b) transport bilan bog'liq tushunchalarni anglatuvchi terminlar – poezd, vagon, vokzal, stantsiya va h.k.;

4) sanoat, tijorat va moliya tizimida qo'llanuvchi terminlar – zavod, fabrika, vsitavka, magazin, kredit va h.k.;

5) madaniyat, fan, maorif sohasi terinlari – gimnaziya, teatr, gazeta, muzey, universitet, kafedra va h.k.;

6) tibbiy terminlar – gospital, lazaret, fel'dsher va h.k.;

7) hujjat va mukofotlar terminlari – medal, pasport, orden va h.k.;

8) sudlov terminlari – sud, sud'ya, zakon va h.k.;

9) o'lchov birliklari nomi – pud, minuta, sajen va h.k.;

10) harbiy terminlar – general, korpus, konvoy, kapitan va h.k.

Zikr etilgan o'zlashma terminlarning muayyan qismi keyinchalik ular anglatgan tushunchalarninga turmushdan chiqib ketgani bois iste'moldan qoldi, ba'zilari esa o'zbek tili so'zlari bilan almashtirildi.

Nazorat savollari

1. O'rxun-Yenisey bitiktoshlari janr jihatdan necha guruhga taqsimlanadi?

2. Bitiktoshlar matnida qanday mavzuiy guruhlariga oid terminlar qayd etilgan?

3. Arablar fathidan keyin turkiy tilda qanday jarayonlar sodir bo'lgan?

4. Somoniylar hukmronligi davrida turkiy terminologiyaning holatiga baho bering.

5. Eski turkiy til terminologiyasi tizimi qaysi manbalar asosida shakllandi?
6. Qoraxoniylar saltanatida turkiy tilning mavqei qay darajada edi?
7. Eski o‘zbek tili terminologiyasi rivojiga sabab bo‘lgan qanday omillarni bilasiz?
8. XIX asr 2-yarmidan o‘zbek terminologiyasi tizimi qaysi manbalar hisobiga rivojlandi?
9. O‘zbek tili terminologiyasining shakllanishida o‘z qatlamning o‘rni qanday?
10. Mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar eski o‘zbek tilining qaysi fan sohasida miqdoran aksariyatni tashkil qiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1988.
2. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamaları. Toshkent: Fan, 2002.
3. Dadabaev X.A. Obshestvenno-politicheskaya i sotsial`no-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pis`mennix pamyatnikax XI-XIV vv. -Tashkent: Yozuvchi, 1991.
4. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opit lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.
5. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.

**4-MAVZU. “QUTADG‘U BILIG”DA ESKI TURKIY TIL TERMINLARI TIZIMINING AKS ETISHI. ESKI TURKIY TIL TERMINOLOGIYASI TARKIBIDAGI TUB VA DERIVATIV TERMINLAR.**

*Ishdan maqsad:* O‘zbek tili terminologiyasi tizimidan o‘rin egallagan arxaizmlar bo‘yicha asosiy ko‘nikmalarni takrorlash. O‘zbek tili etimologik va entsiklopedik lug‘atlarining tuzilish tamoyillarini anglab yetish ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

*Masalaning qo‘yilishi:* Ushbu amaliy ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- o‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimidan qayta o‘rin olgan eski so‘zlarni lug‘atlardan topishi
- davlat qurilishiga doir arabcha o‘zlashmalarni talqin qilishi
- “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da turkiy so‘zlarning izohlanish tamoyillarini sharhlashi
- “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da arabcha so‘zlarning hosilalari xususida mulohaza yuritishi
- “Bobur entsiklopediyasi”ning tuzilish printsiplarini faktik misollar bilan yoritishi

- "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da keltirilgan maqolalar hajmining turfaligi sabablarini tushuntira olishi.

### **Lug'atlarning turi va ularning tavsifi**

O'z qamrovi, maqsadi, vazifasi va xarakteriga ko'ra, lug'atlar bir necha turli bo'ladi. Dastlab ularning ikki turi ajratiladi:

- 1) ensiklopedik lug'atlar;
- 2) lingvistik (yoki filologik) lug'atlar.

Ensiklopedik va lingvistik lug'atlar, eng avvalo, ob'ektiga ko'ra farq qiladi. Lingvistik lug'atlarning ob'ekti tilning lug'aviy va frazemalar tizimidir. Shuningdek, lingvistikaning so'z va frazemalardan boshqa birliklari ham, masalan, morfema, so'z birikmalari va b. ham lingvistik lug'atlarga ob'ekt bo'laveradi. Shuning uchun lingvistik lug'atlarning ob'ekti keng va tilning ma'lum bir sathi bilan cheklanmaydi.

Ensiklopedik lug'atlarda so'z yoki frazemalar emas, balki tushunchalar sharhlanadi. Shuning uchun bunday lug'atlarda so'z va iboralarning o'zi emas, balki ular orqali bildiriladigan voqea, shaxs, predmet va hodisalar izohlanadi. Narsa-hodisalar haqidagi tushunchalar so'z va so'z birikmalari orqali ifodalanadi. Ana shu narsa-hodisalar haqidagi tushunchalar ensiklopedik lug'atlarning asosiy birligi hisoblanadi. Bulardan tashqari, ensiklopedik lug'atlarda asosan ot turkumiga oid lug'aviy birliklar sharhlanadi. Ularning ichida atoqli otlar, masalan, tarixiy voqealar va ularning ishtirokchilari, joy nomlari bo'lishi mumkin. Shuningdek, ensiklopedik lug'atlarda son, olmosh va yordamchi so'zlar haqida ma'lumot berilmaydi.

*Ishni bajarish uchun namuna.*

O'zbek terminologiyasi tizimida arxaizmlarning o'rnini

Arxaizmlar ostida o'tmishda faol qo'llangan, biroq vaqt-zamon o'tishi bilan ishlatilish chastotasi o'ta susaygan yoxud o'rnini tub yoki o'zlashmalarga bo'shatib berishga majbur bo'lgan leksik birliklar nazarda tutiladi. Arxaizmlar o'zbek tili so'z boyligining shakllanish va rivojlanishining bizga ma'lum barcha davrlarida mavjud bo'lgan. Sobiq sho'rolar hukmronligi davrida o'zbek tili leksikasida qadimdan faol qo'llanib kelgan ko'pdan-ko'p so'zlar tub hamda arab va fors-tojik tilidan turli omillar oqibatida o'zlashgan so'z va iboralar ruscha yoki rus tili orqali G'arbiy Yevropa tillaridan kirib kelgan leksik birliklar bilan almashtirilgan edi.

Buning natijasida, eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tilida ishlatilgan minglab so'zlar, terminlar eskirgan, ya'ni arxaizmlar sirasiga kirib qolgan edi. O'zbek tilining 1980 yilda Moskvada nashr qilingan ikki tomдан iborat izohli lug'atida talaygina so'zlarga eskirgan belgisi qo'yilgani ma'lum.

O'zbekiston 1991 yilda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, respublika rahbariyati va hukumati oldida yuqoridagi nohaqlikka barham berish, moziyda ajdodlar tilida keng ko'lamda ishlatilgan so'z va terminlarga qayta jon ato etib, ularga til so'z boylidan munosib o'rin berish, ya'ni eskirgan tamg'asi bosilgan leksik birliklarni ruscha va u orqali tilimizga zo'rma-zo'raki olib kirilgan g'arbiy yevropacha so'z va istilohlar o'rnida qo'llash borasida jiddiy harakatlar amalga oshirildi. Buning natijasi o'laroq o'zbek tilining leksik tarkibi, xususan, terminlar

tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan ushbu hodisa oqibatida ko'pdan-ko'p eskirgan so'zlar qaytadan muomalaga olib kiritildi, va aksincha, totalitar tuzum va kommunizm qurish g'oyasi, mafkurasi bilan bog'liq tushunchalar insonlar turmush tarzidan chiqib ketgach, ularni ifodalovi ko'pgina so'z va terminlarni ishlatishga ortiqcha hojat qolmadi. Chunonchi, demokratik sentralizm, sotsializm, tarixiy materializm, ilmiy kommunizm kabi termin va birikmalar tarix sahifasidan o'rin oldi. Aksincha, tom ma'nodagi erkin va ozod davlat barpo etish mafkurasi ostida o'z yo'lini tanlab olgan o'zbek xalqi turmush tarzida paydo bo'lgan mutlaqo yangi tushunchalar va realiyalar eski so'zlar qatoriga kiritilgan leksemalar yordamida ifodalandi. Bunday holat ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar tizimida ravshan ko'zga tashlandi. Davlat boshqaruv strukturasining ijrochi, qonun chiqaruvchi va nazorat qiluvchi organlariga taqsimlanishi shu sohalarga oid terminlar tizimining sof o'zbekcha yoki arabcha va forscha-tojikcha so'zlar hisobiga kengayishiga olib keldi. O'zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimidan vazir, bosh vazir, vazirlik, viloyat, tuman, qo'rg'on, hokim, viloyat hokimi, tuman hokimi, hokimlik yoki hokimiyat, oqsaqol, qishloq oqsoqoli singari arxaizmlar mustahkam o'rin oldi. Jarayon, ma'ruza, mavzu, hujum, hamla, ilg'or, soqchi, malham, shifokor, bosh shifokor, saraton, qora son, hay'yat, bo'hron, muhr, yorliq, taftish singari turfa sohalarga oid terminlar bugungi kunda millat vakillari tilida faol ishlatilmoqda. Xullas, istiqloq tufayli anchagina eskirgan so'z va istilohlar o'zbek tili lug'at tarkibidan qayta o'rin egalladi va ular millat vakillarining kundalik muloqati uchun zarur vazifani bajarishga xizmat qilmoqda.

#### Nazorat savollari

1. Etimologik lug'atlar tuzish ishi qaerda va qachon boshlangan?
2. Qaysi qardosh turkiy tillarning etimologik lug'atlari tuzilgan?
3. "Turkiy tillarning etimologik lug'ati" kim tomondan tuzilgan?
4. "Turkiy tillar etimologik lug'ati"ning keyingi yillarda nashr qilingan jildlari xususida mulohaza yuritish.
5. Turk tilining etimologik lug'atini kim yaratgan?
6. Etimologik lug'atning tuzilish printsiplari qanday va boshqa lug'atlardan nimasi bilan farqlanadi?
7. O'zbek tilining etimologik lug'atini tuzishda qanday yo'l tanlangan?
8. Ensiklopedik lug'atlar tuzish ibtidosi qaysi davrga borib taqaladi?
9. O'zbek tilidagi dastlabki ensiklopedik lug'ati qachon tuzilgan?
10. Sobiq sho'rolar davrida tuzilgan "O'zbek sovet ensiklopediyasi" xususida baxs yuritish.
11. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" ning mamlakat ijtimoiy-madaniy hayotida tutgan o'rni qanday?
12. "Bobur ensiklopediyasi" ning Bobur hayoti va ijodini o'rganish, targ'ib qilish borasidagi ahamiyatini ochib berish.

#### *Foydalanilgan adabiyot*



1. Zahiriddin Muhammad Bobur entsiklopediyasi. Toshkent: Sharq. 2014.
2. Rahmatullaev SH. O'zbek tilining etimologik lug'ati. I-III. Toshkent: Universitet, 2000-2009.
3. Sevortyan E.V. Etimologicheskiy slovar` tyurkskix yazikov. I-VII. M., 1974-2014.
4. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. I-XII. Toshkent. 2000-2006.

## 5-MAVZU. O'ZBEK TERMINOLOGIYASI TIZIMI. TERMINLARNING STRUKTUR-GRAMMATIK TUZILISHI.

**Ishdan maqsad:** O'zbek tili ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy-texnikaviy va h.k terminlar tizimi bo'yicha asosiy ko'nikmalarni takrorlash. Tub terminlar, yasama terminlar (sodda yasama), qo'shma terminlar, termin-birikmalarni farqlash ko'nikmasiga ega bo'lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Ushbu amaliy ish davomida tinglovchi quyidagilarni bajarishi lozim:

- "Kul tegin bitiktoshi" da qo'llangan davlat quruliga oid terminlarni sharhlashi
- tarixiy-an'anaviy terminlar xususida mulohaza yuritishi
- o'zbek terminologiyasining boyishiga sabab bo'lgan nisbatan yangi terminlarni mahalliy m atbuot organlarida qo'llanishini kuzatishi
- o'zbek tili asosida voqelangan tilshunoslik terminlarini izohlashi
- o'zlashmalar ishtirokida paydo bo'lgan ilmiy terminlarni izohlashi
- lug'atlar yordamida qurol-yarog' nomlarini ifodalovchi terminlarga baho berishi
- tibbiy terminlar tizimida qo'llanuvchi yunoncha va lotincha terminlarni farqlashi
- terminologik lug'atlardagi termin-birikmalarning o'rnini belgilashi.

### **Ishni bajarish uchun namuna**

#### **Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy-texnikaviy va h.k.terminlar tizimi.**

O'zbek tilida hozirgi ilmiy-texnikaviy terminologiya o'z aksini keng qamrovda topgan.

O'zbek adabiy tilining ajralmas bo'lagi hisoblanmish terminologiya hozirgi o'zbek tilshunosligi fanining o'ta shahdam va dinamik tarzda taraqqiy etayotgan kategoriyalardan biri bo'lib, til lug'at boyligining muttasil o'sib hamda kengayib borishida tuganmas manba rolini bajaradi.

O'zbek tili ilmiy terminologiyasida terminlarning uch turi farqlanadi (Begmatov 1988; 140):

1) tarixiy-an'anaviy terminlar. Bu turga taalluqli so'zlar juda qadimdan termin vazifasida qo'llanib keladi va o'zbek terminologiyasining o'zagini tashkil qiladi. Masalan, *to'siq, yulduz, soliq, kirim, pul, oldi-sotti, so'roq, tomir, oqsillar, isitma* singari ko'pgina terminlar shular sirasidandir;

2) terminologik tizimning boyishiga bois bo'lgan nisbatan yangi termin-o'zlashmalar: *skaner, sayt, karate, Internet auktsion, tomografiya, spektr,*

*respirator, psixolingvistika, pragmatika, lingvokulturologiya, semema, parodontoz, bakteriya, videotelefon, katapult, radiolokator, tatami, pley-off* va h.k.;

3) o'zbek tili so'z yasovchi qoliplari negizida hosil qilingan terminlarni ikki guruhga taqsimlash mumkin :

a) ona tili materiallari negizida paydo bo'lgan terminlar: *bog'lovchi, to'ldiruvchi, kesim, tenglik, qayta saylov, to'lov, boshqaruv, bo'g'ilish, titrash, boshqarma, yasama, qo'nish, qurilma, ko'chish, ikkilamchi bozor, qo'shimcha qiymat solig'i, terma jamoa* va h.k.;

b) o'zlashmalar ishtirokida yuzaga kelgan terminlar: *raketaeltgich, avtomobilsozlik, eshelonlashtirish, shturmchi, shifrlash, fotohujjat, kompyutirlashtirish, kateterlash, bombaqidirgich, dzyudochi* va h.k.

Shubhasiz, o'zbek terminologiyasi ilmiy-texnikaviy inqilob davri deb nom olgan XX asrda ham miqdor, ham sifat tomondan jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Bunday o'zgarishlar intralingvistik va ekstralingvistik omillar ta'siri ostida umum o'zbek adabiy tilida sodir bo'lgan jarayonlar yordamida aniqlanadi.

Mubolag'asiz ta'kidlash lozimki, o'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi (1989) hamda O'zbekiston Respublikasining Istiqlolni qo'lga kiritishi (1991) ilm-fan tilining keng qamrovli taraqqiyotini ta'minladi.

O'zbek tili terminologik leksikasining faollashish jarayoni respublikaning davlat qurilishi, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyoti, shuningdek, ijtimoiy turmushning turfa jabhalariga doir talaygina yangi hodisa va tushunchalarni ifodalash zaruriyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli hozirgi paytda o'ta tezlik bilan to'lishib borayotgan qator terminologik tizimlarni yana ham takomillashtirish, yuqori bosqicha ko'tarish o'zbek terminologiyasi oldida turgan dolzarb, kechiktirib bo'lmas masalalardan hisoblanadi.

Sir emaski, har qanday tilning lug'at tarkibi uch nisbatan mustaqil, ya'ni noterminologik (mustaqil ma'noli so'zlar va yordamchi so'zlar), umumilmiy (ilmiy soha vakillariga xos maxsus leksemalar) hamda terminologik (aniq terminologik tizimlarga oid maxsus leksemalar) qatlamdan tashkil topadi (Mol 1973; 41; Danilenko 1977; 27-20).

Boshqa tillarda kuzatilgani kabi o'zbek tili terminologik leksikasi asl o'zbekcha (turkiycha), o'zlashma (sug'dcha, xitoycha, arabcha, forsha – tojikcha, mo'g'ulcha, ruscha-baynalmilal), sodda, oddiy, barcha tomonidan kunda ishlatiladigan va azaldan qo'llanishda bo'lgan umum adabiy til so'z yasash modellari hamda termin yasash qoliplari asosida shakllangan.

Shuni alohida urg'ulash kerakki, o'zbek tilining hozirgi soha terminologiyasi tizimida nisbatan ancha keyin yuzaga chiqqan terminlar safida qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tilida qayd etilgan leksik birliklarning mavjudligi muhim ahamiyatga molikdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial-siyosiy jabhalarga doir hodisa va tushunchalarni ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiya xalq kundalik hayotida sodir bo'luvchi turfa voqealar bilan yaqindan bog'langan.

Davlatning siyosiy-ma'muriy qurilishi, tashqi siyosiy faoliyati, ijtimoiy tuzilishi va sinfiy tabaqalanishi, jamiyat a'zolariaro savdo-moliyaviy munosabatlar bilin mustahkam aloqaga ega ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiya

tizimidagi leksik-semantik guruhlarga kiruvchi termin hamda termin-birikmalar o'zbek tili lug'at tarkibini to'ldirgan va boyitgan.

XI-XP asrlarga xos qoraxoniylar davri qo'lyozma manbalari qarindosh turkiy tillar, chunonchi, o'zbek, uyg'ur, turkman, qozoq, qirg'iz va h.k. tillar tarixi bilan bevosita bog'liq.

XSh-XIU asrlarda Markaziy Osiyo va O'rta Osiyo, Dashti Qipchoq, Volgabo'yi, Qirim hamda mamlyuklar hukmronlik qilgan Misrning keng mintaqalarida turfa mazmundagi, rang-barang janrdagi dunyoviy va diniy turkiy yozma yodgorliklar yaratilgan va shuhrat topgan. Mazkur nodir yozma obidalarining tili ulkan hududa istiqomat qiluvchi turkiy xalq (o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz, tatar, turk, ozarbayjon va h.k.)lar adabiy tillarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etganligi turkologiyada isbotini topgan.

Qoraxoniylar davlati, Jo'ji ulusining sharqiy qismi, ya'ni Xorazm va Chig'atoy ulusi adabiy tillari zaminida shakllangan, hozirgi o'zbek adabiy tilining o'tmishdoshi hisoblanmish eski o'zbek adabiy tili lisoniy xususiyatlari nuqtai nazaridan XI-XIU asr turkiy yozma manbalari tiliga juda yaqinligi bilan xarakterlanadi. Kezi kelganda buyuk Alisher Navoiy, uning salafarlari, Bobur kabi zamondoshlari shakllantirgan va rivojlantirgan eski o'zbek adabiy tilining ba'zi turkologlar tomonidan chig'atoy tili bilan ayni bir xil, ikkinchi guruh olimlar tomonidan chig'atoy adabiy tilidan farqlanuvchi jonli xalq tili, uchinchi mutaxassislar tomonidan esa chig'atoy adabiy tilining varianti, deb qaralishini takroran ta'kidlamogchimiz.

Biz tomondan o'z vaqtida eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tilida qo'llanishda bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlarni qiyosiy-statistik tahlili amalga oshirilgan edi. Tahlil XI-XIU asr turkiy obidalar tilida qayd etilgan 700 ta ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlardan 645 tasi o'zbek adabiyoti klassiklari asarlari tilida deyarli fonetik va semantik o'zgarishlarsiz qo'llanishda davom etganini ko'rsatgan edi.

Eski turkiy til hamda eski o'zbek adabiy tiliga xos ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlarning salmoqli miqdori hozirgi qarindosh turkiy tillarning terminologik leksikasiga mutanosib tushadi.

Turkiy leksik (terminologik) materialning umumiyliqi haqida aniq-ravshan tasavvurga ega bo'lish maqsadida biz tomondan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlardan 503tasi ajratib olingan va ular ba'zi qarindosh turkiy tillarning muvofiq leksik (terminologik) birliklari bilan qiyoslangan edi. Taqqoslash natijasida XI –XIU asr yozma manbalari tilida ishlatilgan 503 termindan 348 tasi uyg'ur tilida, 230 tasi qozoq tilida, 244 tasi qirg'iz tilida, 370 tasi turk tilida, 390 tasi o'zbek tilida qo'lanishda qolayotgani aniqlandi.

Hatto ushbu taxminiy tahlil ham eski turkiy til davri qo'lyozma manbalari o'zbek tili qatori boshqa turkiy tillar terminologiyasining shakllanishi va qaror topishida asos vazifasini o'taganligidan dalolat beradi.

Muayyan ashyoviy materiallarga murojaat etamiz.

Harbiy leksika o'zbek tilining qadimiy qatlamlaridan biri bo'lib, uning hamma rivojlanish bosqichlarida kuzatiladi. Umumadabiy leksikaning qatlamlaridan biri sanalmish harbiy terminlar tizimida ichki va tashqi omillar

ta'siri ostida shartlangan o'zbek tilining shakllanish xususiyatlari o'z ifodasini topgan.

O'zbek tilining ko'p asrlik taraqqiyoti davomida harbiy terminlarning ba'zilar eskirgan va tilning leksik xazinasidan tushib qolgan. Ularning o'rniga o'zbek tilini boyitgan o'z hamda o'zlashma istilohlar qo'llangan. Harbiy terminologiyaning tarixiy-etimologik tahlili uning shakllanishi va rivojlanishida asl o'zbek(turkiy)cha leksik birliklar qatori arab, fors-tojik, mo'g'ul va rus tillaridan o'zlashgan so'zlarining ham salmoqli o'rnini borligidan guvohlik beradi.

Hozirgi o'zbek harbiy terminologiyasi qadimiyligi UP-XIX asrlarga borib taqaluvchi ko'pgina so'zlarni o'z tizimida saqlab qolishga erishgan. Bunday terminlar sirasiga: 1) askariy qism va qo'shilmalar, jangchilar, asosiy harbiy harakat va amaliyotlar nomlarini ifodalovchi *qamal*, *yurish*, *kechuv*, *ko'rik*, *pistirma*, *qo'shin*, *ilg'or*, *soqchi*, *qorovul*, *ayg'oqchi*, *to'pchi*, *dengizchi*, *chopar*, *mergan*, *qochoq* va h.k.; 2) qurol-yarog' va anjomlar nomini anglatuvchi *to'p*, *qurol-yarog'*, *kema*, *o'q*, *qo'ndoq*, *qalqon*, *sol*, *kiyim*, *quloqchin* va h.k.; 3) *urush*, *tinchlik*, *g'alaba*, *mag'lubiyat* kabi mavhum ma'noni ifodalovchi leksik birliklar oiddir.

Tarixiy qadimiyligi bir necha yuz yillar bilan o'lchanuvchi zoologik terminologiya ham hozirgi kunlarga qadar ma'lum sondagi so'zlarni tizimida asrab qolishga muvaffaq bo'lgan. Sinchkovlik bilan qilingan tahlilga muvofiq XI-XIU asr eski turkiy til yozma obidalari tilida qo'llangan 432 ta zoonimning 365 tasi asl turkiycha, 33 tasi forsha-tojikcha, 26 tasi arabcha, 5 tasi mo'g'ulcha, 3 tasi esa hind-evropacha ekanligi aniqlangan. Sof turkiycha 365 zoonimlar tub (158) hamda yasamalarga (207) taqsimlanadi. Yasama zoonimlarning 132 tasi morfologik, 59 tasi sintaktik, 5 tasi esa semantik yo'l bilan hosil qilingan. Chunonchi, *to'ng'iz*, *bo'rsiq*, *biya*, *kiyik*, *quyon*, *shunqor*, *g'oz*, *o'rdak*, *burga*, *qo'ng'iz* singari talay leksik birliklar hozirgi o'zbek zoologik terminologiyasi tarkibida faol qo'llanmoqda (Abdushukurov 1998; 1).

Ilk marta UP-XIU asrlar yozma yodgorliklari matlarida qayd etilgan *elchi*, *elchilik*, *elchixon*a, *yorliq*, *sulh*, *sulhnoma*, *xabar*, *jusus*, *tashrif*, *ijozat*, *qabul*, *noma*, *muhr*, *dushmanlik*, *nishon* va boshqa asl o'zbekcha (turkiycha) hamda boshqa tillardan o'zlashgan so'z va so'z birikmalari zamonaviy o'zbek diplomatik terminologiyasi tizimida keng ishlatilmoqda (Dadabaev 1994; 4-13.).

Ayni chog'da, hozirgi o'zbek diplomatik terminologiyasi taraqqiyotini uning tarkibiga kirib kelayotgan, bugungi jahon dimlomatiyasi sohasida mavjud tushuncha va mazmunlarni ifodalovchi leksemalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hozirgi o'zbek dimlomatik terminologiyasi genetik jihatdan turli-tumandir. Uning safida azaldan qolib kelgan, umumturkiy terminlar qatori, sharq va Evropa (rus, ingliz, nemis) tillaridan turli zamonlarda kirib kelgan o'zlashmalar ham o'z aksini topgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" materiallari asosida qilingan statistik tahlil diplomatik terminlarning umum o'zbek adabiy tilida qo'llanish darajasi chastotasining pastligini ko'rsatdi. Xususan, nomi tilga olingan izohli lug'atdan o'rin olgan 60.000 so'zlarning bor-yo'g'i 410 tasini, yani 0,7%ini diplomatik terminlar tashkil qiladi, xolos (Abdullaeva 2003;160).

Ma'lumki, juda qadim zamonlardan insonlarning vaqtni aniqlash, bir makondan boshqa joyga harakat qilish, sayohatlarga borish ehtiyoji natijasida osmon va undagi jismlar, yoritqichlar harakatini o'rganuvchi maxsus fan, ya'ni astronomiya shakllangan. Astronomiya fanining asrlar mobaynidagi taraqqiyoti natijasida ushbu sohaga tegishli leksemalar mikrotizimi shakllandi.

Hozirgi o'zbek tili astronomik terminologiyasi tizimi X-XIU asrlardan e'tiboran muomalaga kirgan *nujum ilmi, munajjim, yulduz, sayyora, usturlob, Hulkar, Arslon, burj, Qovg'a, Etagan, Cho'lpon, Mushtariy* singari qadimiy astroponim (kosmonim)larni saqlab qolishga erishgan (Dadabaev 1994; 32-43).

Astronomiya va kosmonavtika fanlarining so'nggi vaqtlarda jadal rivojlanishi, tabiiy, o'z ifodasini hozirgi o'zbek adabiy tili so'z boyligida ham topdi.

*Uran, Neptun, Pluton, asteroid, Ulug'bek asteroidi, Osiyo asteroidi, Galley kometasi, Neuymn kometasi, selenonim, Kirill krateri* kabi astroponimlar ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda faol ishlatilmoqda, darslik, qo'llanma hamda turli xarakterdagi lug'atlarda qayd etilmoqda (Primov 2009).

Xullas, genetik ko'rinishi nuqtai nazaridan o'zbek tilida qo'llanuvchi terminlar: a) terminologiya tizimiga tayyor til birligi sifatida qabul qilingan so'zlar; b) maxsus nom tarzida yasalgan so'zlarga taqsimlanadi. Bunday ko'rinishni muayyan lisoniy hodisa va vaziyatlarning mahsuli, deb baholash kerak bo'ladi.

## **2-vazifa**

**Tub terminlar, yasama terminlar (sodda yasama), qo'shma terminlar, termin-birikmalar.**

O'zbek terminologiyasi tizimida tub terminlar qatori derivativlarning ham roli salmoqli lidir. Tub terminlar o'zbek terminologiyasi tizimining barcha shakllanish va rivojlanish bosqichlarida ko'zga tashlanadi. Xususan: *el, yurt, yoq, o'q, to'ra, tamg'a, qin, boy, kung, qul, yov, qorin, jag', o'pka* kabi tub terminlar deyarli barcha terminologik tizimlar uchun xosdir. Yasama terminlar, shubhasiz, o'zbek terminlogiyasining ulkan qismini tashkil etadi. Yasama terminlar morfologik va sintaktik yo'l bilan hosil qilinishi jihatidan umumleksikadan farqlanmaydi.

Affiksatsiya termin yasashning eng mahsuldor usuli bo'lib, bu usul o'zbek terminlogiyasi qaror topishining biz bilan yuqoridagi bosqichlarida etakchilik qilgan. Fikrimizni quyidagi faktik misollar bilan tasdiqlaymiz. Affiksatsiya usuli bilan yasalgan sifat – terminlar.

Ma'lumki, ot so'z turukumiga xos leksik birliklarning termin tarzida qo'llanishi bo'yicha so'z turkumlari qatorida etakchilikka egaligi hech kim uchun yangilik emas. Shu bilan birga, ilm-fan tilida (ya'ni mavjud ilmiy adabiyotda qo'llangan) maxsus tushunchalarni ifodalaydigan hamda terminologik nomlarga doir barcha talablarga jabob beradigan terminlar o'rnida ham fe'l (fe'ldan yasalgan bir o'zakli ismlar), ham sifat, ham ravishlarning erkin ishlatilishi mumkinligini ta'kidlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Morfologik usul bilan hosil qilingan sifat – terminlar quyidagi ikki guruhga taqsimlanadi: 1) ismlardan yasalgan sifat-terminlar; 2) fe'llardan yasalgan sifat-terminlar.

## 1. Ismlardan sifat-terminlarning yasalishi

-li affiksli soʻz yasovchi model

Sof oʻzbek (turkiy)cha -li affiksli soʻz yasovchi model tubandagi maʼnoli terminlarni yuzaga chiqaradi:

a) boshlangʻich asosda nomlangan egalik, majudlik, borlikni ifodalaydi : *zaharli* (*zahar*), *misli*(*mis*), *sharikli*( *sharik*), *kislotali* (*kislota*), *tuzli* (*tuz* ), *yaroqli* (*yaroq* ), *fosforli* (fosfor)), *dukkakli* (*dukkak* ) va h.k.;

b) dastlabki asosning predmetlik nomini bildiradi: *zararli* (*zarar*), *muddatli* (*muddat*), *maqsadli* (*maqsad*), *qimmatli* (*qimmat*), *nuqsonli* (*nuqson*), *foydali* (*foйда*) va h.k.;

v) nimagadur yaroqlilikni bildiradi : *yaroqli*(*yaroq* ), *eyimli* (*eyim*), *eyishli* (*eyish*), *xavfli* (*xavf* ), *ichimli* (*ichim* ) va h.k.

– *siz affiksli soʻz yasovchi model*

-*siz* affiksli sifat-terminlar –*li* affiksli sifat-terminlarning antonimi, yaʼni ziddi (*gilzali-gilzasiz*, *stvolli-stvolsiz*, *moʻynali* – *moʻynasiz* , *gazli* – *gazzsiz*, *temirli-temirsiz* va h.k.) boʻlib, quyidagi maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladi:

a) boshlangʻich asos orqali ifodalangan narsaning mavjud emasligi: *ishsiz* ( *ish*), *aybsiz* (*ayb* ), *gunohsiz* (*gunoh* ), *nikohsiz* (*nikoq* ), *xavfsiz* (*xavf*), *dalilsiz* (*dalil* ), *jarangsiz*( *jarang* ), *qurolsiz* (*qurol*) va h.k.;

b) dastlabki asosning oz miqdordaligini koʻrsatadi: *jirsiz* (*jir* ), *tuzsiz* (*tuz*), *suvsiz* (*suv* ) va h.k.

- *chan* affiksli soʻz yasovchi model

–*chan* qoʻshimchali ushbu kammahsul model tub hamda feʼllardan yasalgan ot turkumli soʻzlardan “qatʼiy ravishda namoyon boʻluvchi fazilat, xarakter belgisi va moyillik”ni ifodalaydagan terminlarni hosil qiladi : *yashovchan* (*yashov* ), *oʻzgaruvchan* (*oʻzgaruv* ), *sezuvchan* (*sezuv*), *uchuvchan* ( *kimyo.uchuv*), *eruvchan* (*eruv* ), *koʻrinuvchan* (*harb.koʻrinuv*), *tovlanuvchan* (*tovlanuv*), *sochiluvchan* (*fiz.sochiluv* ), *egiluvchan* (*egiluv* ) va h.k.

– *chil* affiksli soʻz yasovchi model

-*chan* qoʻshimchasining fonetik turi boʻlmish kammahsul –*chil* affiksli soʻz yasovchi bu model biror narsaga boʻlgan “moyillik, berilganlik” maʼnosini anglatuvchi chegaralangan miqdordagi terminlarni yasashda qatnashadi: *dardchil* (*dard*), *izchil* (*iz*), *xalqchil* (*xalq* ), *epchil* (*ep* ) va h.k.

– *simon* affiksli soʻz yasovchi model

Mazkur model hozirgi oʻzbek tili zoologiya hamda biologiya terminlari tizimida oʻxshashlik, bir xillik maʼnosini ifodalovchi nisbatan salmoqli miqdordagi leksemalarni hosil qilishda oʻz ifodasini topgan. –*simon* affiksli sifat-terminlar maʼno jihatidan rus tilidagi ikkinchi komponenti «...podobnoʻy», «...obraznoʻy», «vidnoʻy» elementlaridan tashkil topgan qoʻshma sifatlarga muvofiq kelib, boshqa terminologik tizmlarda ham faol ishlatilishi bilan ajralib turadi: *ivasasimon* (*kit*) («kit) *ivasevoʻy*»; «seyval»), *odamsimon* (*odam*), *tumshuqsimon* (*tumshuq*), *zanjirsimon* ( *biol.zanjir* ), *qisqichbaqasimon* ( *qisqichbaqa*), *kitsimon* (*kit*), *krotsimon* (*koʻrsichqonlar*) (*krot*), *oʻrgimchaksimon* (*oʻrgimchak*), *maymunsimon* (*maymun* ), *ishkomsimon* (*maxs..* ( *ishkom*), *bargsimon* (*med. barg*), *gazzsimon* (*gazz*), *qalqonsimon* ( *anat.qalqon* ) va h.k.

– aro so‘z - affiksli so‘z yasovchi model

Asl turkiycha –aro (“promejutok”) so‘z - affiksli ushbu sermahsul model ilmiy va texnikaviy sohaga xos terminlarni yasashda faol ishtirok etadi: : *xalqaro* (*xalq*), *qit’alararo* (*harb. qit’a*), *planetalararo* (*planeta*), *fanlararo* (*fan*), *millatlararo* (*millat*), *xo’jaliklararo* (*xo’jalik*), *hujayralararo* (*biol. hujayra*), *qobirg’alararo* (*tib.qobirg’a*), *turlararo* (*biol.tur*), *zonalararo* (*zona*), *banklararo* (*bank*) va h.k.

*be-* prefiksli so‘z yasovchi model

Kelib chiqishi jihatidan fors - tojik tiliga xos be- prefiksli ushbu kammahsul model asosdan anglashilgan sifat, fazilatning mavjud emasligi, yo‘qligini ifodalaydi: *betaraf*( *taraf* «storona»), *bevosita* (*harb. vosita*), *begunoh* (*gunoh*), *bexatar*(*xatar*) va h.k.

*no-* prefiksli so‘z yasovchi model

Fors-tojik tilidan ancha barvaqt o‘zbek adabiy tilga kirib kelgan *be-* old qo‘shimchali mazkur kammahsul model ishtirokida inkor ma’nosini bildiruvchi sifat-terminlar yasaladi: *nomamahfiy* (*mahfiy*), *noqonuniy* («nezakonno’y», (*qonun*), *noma’lum* (*harb. ma’lum*), *nodavlat* (*davlat*), *notijorat* (*tijorat*), *noaniq* (*lingv.aniq*), *nochiziqli* (*chiziqli*), *norasmiy* (*rasmiy*), *nostandart* (*standart*), *nokontakt* (*kontakt*), *nobiologik* (*biologik*), *nokristallilik* (*kristallilik*) va h.k.

*ser-* prefiksli so‘z yasovchi model

Forscha – tojikcha *ser* – prefiksli bu mahsuldor model ot so‘z turkumli so‘zlardan asosda voqelangan mo‘l-ko‘llik ma’nosini ifodalovchi sifat-terminlarni yuzaga chiqaradi: *sersuv* (*suv*), *sergo’sht* (*go’sht*), *seryomg’ir* (*yomg’ir*), *serdaromad* (*daromad*), *serildiz* (*ildiz*), *serkepak* (*kepak*), *sersut* (*sut*), *sertola* (*tola*), *serchiqit* (*chiqit*), *sermahsul* (*mahsul*), *serunum* (*unum*) va h.k.

*Ser* – prefiksli modelning nafaqat sof o‘zbekcha (turkiycha) shuningdek, forscha-tojikcha, arabcha va ruscha-baynalmilal leksik birliklardan ham sifat-terminlar yasashini alohida ta’kidlash kerak bo‘ladi.

*kam* - prefiksoidli so‘z yasovchi model

*Kam-* o‘zbek tili grammatikasiga tegishli ba’zi bir asarlarda qo‘shma sifatlarning birinchi komponenti tarzida baholansa, boshqa birlarida esa prefiksoid sifatida belgilanadi.

Ilmiy terminologiyada ancha mahsuldor hamda faol hisoblanuvchi *kam*-prefiksoidi qatnashgan model boshlang‘ich asosdan anglashilgan miqdorning ozligi ma’nosini ifodalovchi sifat-terminlarni yasaydi: *kamqon* (*qon*), *kamsut* (*sut*), *kamsuv*(*suv*), *kamhosil* (*hosil*), *kamdaromad* (*daromad*), *kamxarj*, *kamxarajat* (*xarj*, *xarajat*), *kamquvvat* (*quvvat*), *kamchiqim* (*chiqim*), *kammahsul* (*mahsul*) va h.k.

– (v) iy affiksli so‘z yasovchi model

Arab tilidan o‘zlashgan - (v) iy affiksli model ot turkumidan sifat-terminlarni yasash uchun xizmat qiladi.

-(v) iy affiksli model unli fonemelar bilan tugagan otlardan tubandagi terminlarni hosil qiladi: *konstitutsiyaviy* (*konstitutsiya*), *yadroviy* (*yadro*), *kimyoviy* (*kimyo*), *fizikaviy* (*fizika*), *ma’noviy* (*ma’no*), *fuqaroviy* (*fuqaro*), *samoviy* (*samo*), *kolliziyaviy* (*kolliziya*) va h.k.

Undosh fonema bilan tugagan otlardan nisbiy sifat-terminlar yasaydi: *miqdoriy* (*miqdor*), *ma'muriy* (*ma'mur*), *harbiy* (*harb*), *tibbiy* (*tib(b)*), *qonuniy* (*qonun*), *intizomiy* (*intizom*), *iqtisodiy* (*iqtisod*) va h.k.

-(v)iy affiksi qo'shilishi natijasida *-a*, *-at* bilan tugaydigan arabcha otlar ushbu qo'shimchalarini tushirib qoldiradi: *milliy* (*millat*), *siyosiy* (*siyosat*), *ijtimoiy* (*ijtimoiyot*), *moddiy* (*modda*), *ma'naviy* (*ma'naviyat*), *intizomiy* (*intizom*), *ma'rifiy* (*ma'rifat*) va h.k.

Yuqorida keltirilgan ashyoviy misollar o'tgan asrning 60-yillarida kammahsul deb topilgan *-(v)iy* affiksining (Kononov 1960;152) hozirgi vaqtga kelib nisbatan unumli affiksga aylanganligidan dalolat beradi.

### **Nazorat savollari**

1. O'zbek tili ilmiy terminlarining nechta turi mavjud?
2. O'zbek tili materiallari asosida paydo bo'lgan terminlar nechta guruhga oid?
3. Istiqloldan keyin ilm-fan tilining taraqqiyotida "Davlat tili haqida"gi Qonunning roli bormi?
4. Tilning lug'at tarkibi qancha mustaqil qatlamdan tashkil topadi?
5. X1-X1U asrlarda ishlatilgan IS terminlarning hozirgi qardosh turkiy tillarda qo'llanish darajasi qanday?
6. Hozirgi o'zbek tili harbiy terminologiyasi tizimida UP-X1X asrlarga oid istilohlar saqlanib qolganmi?
7. O'zbek tili diplomatik terminologiyasi tizimida ko'hna so'zlarning ulushi qay darajada?
8. Ismlardan sifat-terminlar yasovchi mahsuldor qo'shimchalar xususida mulohaza yuring.
9. Sifat-termin yasashda o'zlashma qo'shimchalarning o'rni qay darajada?
10. *-(v)iy* qo'shimchasining hozirgi paytda termin yasashdagi ishtirokiga to'xtaling.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. - Toshkent: Fan, 1988.
2. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamallari. Toshkent: Fan, 2002.
3. Dadabaev X.A. Obshchestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazychno'x pismenno'x pamyatnikax X1-X1U vv. -Tashkent: Yozuvchi, 1991.
4. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opo't lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.
5. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.

6-MAVZU. IJTIMOIIY-SIIYOSIIY, IQTISODIIY, HARBIIY, ILMIIY-TEXNIKAVIIY VA H.K. TERMINLAR TIZIMI. TERMINLARNING YASALISHI. TUB TERMINLAR, YASAMA TERMINLAR (SODDA YASAMA), QO'SHMA TERMINLAR, TERMIN-BIRIKMALAR. TUB



## TERMINLAR, YASAMA TERMINLAR (SODDA YASAMA), QO'SHMA TERMINLAR, TERMIN-BIRIKMALAR.

*Ishdan maqsad:* O'zbek tili ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy-texnikaviy va h.k terminlar tizimi bo'yicha asosiy ko'nikmalarni takrorlash. Tub terminlar, yasama terminlar (sodda yasama), qo'shma terminlar, termin-birikmalarni farqlash ko'nikmasiga ega bo'lish.

*Masalaning qo'yilishi:* Ushbu amaliy ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

-“Kul tegin bitiktoshi”da qo'llangan davlat quruliga oid terminlarni sharhlashi

- tarixiy-an'anaviy terminlar xususida mulohaza yuritishi

-o'zbek terminologiyasining boyishiga sabab bo'lgan nisbatan yangi terminlarni mahalliy m atbuot organlarida qo'llanishini kuzatishi

-o'zbek tili asosida voqelangan tilshunoslik terminlarini izohlashi

-o'zlashmalar ishtirokida paydo bo'lgan ilmiy terminlarni izohlashi

- lug'atlar yordamida qurol-yarog' nomlarini ifodalovchi terminlarga baho berishi

- tibbiy terminlar tizimida qo'llanuvchi yunoncha va lotincha terminlarni farqlashi

-terminologik lug'atlardagi termin-birikmalarning o'rnini belgilashi.

### *Ishni bajarish uchun namuna*

Tub terminlar, yasama terminlar (sodda yasama), qo'shma terminlar, termin-birikmalar. O'zbek terminologiyasi tizimida tub terminlar qatori derivativlarning ham roli salmoqli lidir. Tub terminlar o'zbek terminologiyasi tizimining barcha shakllanish va rivojlanish bosqichlarida ko'zga tashlanadi. Xususan: el, yurt, yoq, o'q, to'ra, tamg'a, qin, boy, kung, qul, yov, qorin, jag', o'pka kabi tub terminlar deyarli barcha terminologik tizimlar uchun xosdir. Yasama terminlar, shubhasiz, o'zbek terminlogiyasining ulkan qismini tashkil etadi. Yasama terminlar morfologik va sintaktik yo'l bilan hosil qilinishi jihatidan umumleksikadan farqlanmaydi. Affiksatsiya termin yasashning eng mahsuldor usuli bo'lib, bu usul o'zbek terminlogiyasi qaror topishining biz bilan yuqoridagi bosqichlarida yetakchilik qilgan. Fikrimizni quyidagi faktik misollar bilan tasdiqlaymiz. Affiksatsiya usuli bilan yasalgan sifat – terminlar. Ma'lumki, ot so'z turukumiga xos leksik birliklarning termin tarzida qo'llanishi bo'yicha so'z turkumlari qatorida yetakchilikka egaligi hech kim uchun yangilik emas. Shu bilan birga, ilm-fan tilida (ya'ni mavjud ilmiy adabiyotda qo'llangan) maxsus tushunchalarni ifodalaydigan hamda terminologik nomlarga doir barcha talablarga jabob beradigan terminlar o'rnida ham fe'l (fe'ldan yasalgan bir o'zakli ismlar), ham sifat, ham ravishlarning erkin ishlatilishi mumkinligini ta'kidlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Morfologik usul bilan hosil qilingan sifat – terminlar quyidagi ikki guruhga taqsimlanadi: 1) ismlardan yasalgan sifat-terminlar; 2) fe'llardan yasalgan sifat-terminlar. 1. Ismlardan sifat-terminlarning yasalishi -li affiksli

soʻz yasovchi model` Sof oʻzbek (turkiy)cha -li affiksli soʻz yasovchi model` tubandagi ma'noli terminlarni yuzaga chiqaradi:

a) boshlangʻich asosda nomlangan egalik, majudlik, borlikni ifodalaydi : zaharli (zahar), misli(mis), sharikli( sharik), kislotali (kislota), tuzli (tuz), yaroqli (yaroq ), fosforli (fosfor), dukkakli (dukkak ) va h.k.;

b) dastlabki asosning predmetlik nomini bildiradi: zararli (zarar), muddatli (muddat), maqsadli (maqsad), qimmatli (qimmat), nuqsonli (nuqson), foydali (foyda) va h.k.;

v) nimagadur yaroqlilikni bildiradi : yaroqli(yaroq ), yeyimli (yeyim), yeyishli (yeyish), xavfli (xavf ), ichimli (ichim ) va h.k.

– siz affiksli soʻz yasovchi model`

–siz affiksli sifat-terminlar –li affiksli sifat-terminlarning antonimi, ya'ni ziddi (gil`zali-gil`zasiz, stvolli-stvolsiz, mo`ynali – mo`ynasiz , gazli – gazsiz, temirli-temirsiz va h.k.) bo`lib, quyidagi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi:

a) boshlangʻich asos orqali ifodalangan narsaning mavjud emasligi: ishsiz (ish), aybsiz (ayb ), gunohsiz (gunoh ), nikohsiz (nikoq ), xavfsiz (xavf), dalilsiz (dalil ), jarangsiz( jarang ), qurolsiz (qurol) va h.k.; b) dastlabki asosning oz miqdordaligini ko`rsatadi: jirsiz (jir ), tuzsiz (tuz), suvsiz (suv ) va h.k.

– chan affiksli soʻz yasovchi model`

–chan qoʻshimchali ushbu kammahsul model` tub hamda fe'llardan yasalgan ot turkumli soʻzlardan “qat'iy ravishda namoyon boʻluvchi fazilat, xarakter belgisi va moyillik”ni ifodalaydagan terminlarni hosil qiladi : yashovchan (yashov ), oʻzgaruvchan (oʻzgaruv ), sezuvchan (sezuv), uchuvchan ( kimyo.uchuv), eruvchan (eruv ), koʻrinuvchan (harb.koʻrinuv), tovlanuvchan (tovlanuv), sochiluvchan (fiz.sochiluv ), egiluvchan (egiluv ) va h.k.

– chil affiksli soʻz yasovchi model`

–chan qoʻshimchasining fonetik turi boʻlmish kammahsul –chil affiksli soʻz yasovchi bu model` biror narsaga boʻlgan “moyillik, berilganlik” ma'nosini anglatuvchi chegaralangan miqdordagi terminlarni yasashda qatnashadi: dardchil (dard), izchil (iz), xalqchil (xalq ), epchil (ep ) va h.k.

– simon affiksli soʻz yasovchi model`

Mazkur model` hozirgi oʻzbek tili zoologiya hamda biologiya terminlari tizimida oʻxshashlik, bir xillik ma'nosini ifodalovchi nisbatan salmoqli miqdordagi leksemalarni hosil qilishda oʻz ifodasini topgan. –simon affiksli sifat-terminlar ma'no jihatidan rus tilidagi ikkinchi komponenti «...podobniy», «...obrazniy», «vidniy» elementlaridan tashkil topgan qoʻshma sifatlarga muvofiq kelib, boshqa terminologik tizmlarda ham faol ishlatilishi bilan ajralib turadi: ivasasimon (kit), (kit) ivaseviy; seyval), odamsimon (odam), tumshuqsimon (tumshuq), zanjirsimon ( biol.zanjir ), qisqichbaqasimon ( qisqichbaqa), kitsimon (kit), krotsimon (koʻrsichqonlar) (krot), oʻrgimchaksimon (oʻrgimchak), maymunsimon (maymun ), ishkomsimon (maxs.. ( ishkom), bargsimon (med. barg), gazsimon (gaz), qalqonsimon ( anat.qalqon ) va h.k.

– aro soʻz - affiksli soʻz yasovchi model`

Asl turkiycha –aro (“promejutok”) soʻz - affiksli ushbu sermahsul model` ilmiy va texnikaviy sohaga xos terminlarni yasashda faol ishtirok etadi: : xalqaro

(xalq ), qit'alararo (harb. qit'a ), planetalararo (planeta), fanlararo (fan), millatlararo (millat), xo'jaliklararo (xo'jalik), hujayralararo (biol. hujayra ), qobirg'alararo (tib.qobirg'a), turlararo (biol.tur ), zonalararo (zona), banklararo (bank) va h.k.

be- prefiksli so'z yasovchi model`

Kelib chiqishi jihatidan fors - tojik tiliga xos be- prefiksli ushbu kammahsul model` asosdan anglashilgan sifat, fazilatning mavjud emasligi, yo'qligini ifodalaydi: betaraf (taraf «storona»), bevosita (harb. vosita ), begunoh (gunoh), bexatar(xatar ) va h.k.

no- prefiksli so'z yasovchi model`

Fors-tojik tilidan ancha barvaqt o'zbek adabiy tilga kirib kelgan be- old qo'shimchali mazkur kammahsul model` ishtirokida inkor ma'nosini bildiruvchi sifat-terminlar yasaladi: nomamahfiy (mahfiy), noqonuniy («nezakonniy», (qonun), noma'lum (harb. ma'lum), nodavlat (davlat), notijorat (tijorat ), noaniq (lingv.aniq ), nochiziqli (chiziqli ), norasmiy (rasmiy ), nostandart (standart), nokontakt (kontakt), nobiologik ( biologik ), nokristallilik (kristallilik ) va h.k.

ser- prefiksli so'z yasovchi model`

Forscha – tojikcha ser – prefiksli bu mahsuldor model` ot so'z turkumli so'zlardan asosda voqelangan mo'l-ko'llik ma'nosini ifodalovchi sifat-terminlarni yuzaga chiqaradi: sersuv (suv ), sergo'sht (go'sht), seryomg'ir (yomg'ir), serdaromad (daromad), serildiz (ildiz), serkepak (kepak), sersut (sut), sertola (tola), serchiqit (chiqit), sermahsul (mahsul ), serunum (unum ) va h.k.

Ser – prefiksli modelning nafaqat sof o'zbekcha (turkiycha) shuningdek, forscha-tojikcha, arabcha va Ruscha-baynalminal leksik birliklardan ham sifat-terminlar yasashini alohida ta'kidlash kerak bo'ladi.

kam - prefiksoidli so'z yasovchi model`

Kam- o'zbek tili grammatikasiga tegishli ba'zi bir asarlarda qo'shma sifatlarning birinchi komponenti tarzida baholansa, boshqa birlarida esa prefiksoid sifatida belgilanadi.

Ilmiy terminologiyada ancha mahsuldor hamda faol hisoblanuvchi kam-prefiksoidi qatnashgan model` boshlang'ich asosdan anglashilgan miqdorning ozligi ma'nosini ifodalovchi sifat-terminlarni yasaydi: kamqon (qon), kamsut (sut), kamsuv(suv), kamhosil (hosil), kamdaromad (daromad), kamxarj, kamxarajat (xarj, xarajat), kamquvvat (quvvat), kamchiqim (chiqim), kammahsul (mahsul ) va h.k.

– (v) iy affiksli so'z yasovchi model`

Arab tilidan o'zlashgan - (v) iy affiksli model` ot turkumidan sifat-terminlarni yasash uchun xizmat qiladi.

-(v) iy affiksli model` unli fonemelar bilan tugagan otlardan tubandagi terminlarni hosil qiladi: konstitutsiyaviy (konstitutsiya), yadroviy (yadro), kimyoviy (kimyo), fizikaviy (fizika), ma'noviy (ma'no ), fuqaroviy (fuqaro), samoviy (samo ), kolliziyaviy (kolliziya) va h.k.

Undosh fonema bilan tugagan otlardan nisbiy sifat-terminlar yasaydi: miqdoriy (miqdor), ma'muriy (ma'mur), harbiy (harb), tibbiy (tib(b), qonuniy (qonun), intizomiy (intizom), iqtisodiy (iqtisod ) va h.k.

-(v)iy affiksi qo'shilishi natijasida -a, -at bilan tugaydigan arabcha otlar ushbu qo'shimchlarini tushirib qoldiradi: milliy (millat), siyosiy (siyosat), ijtimoiy (ijtimoiyot), moddiy (modda), ma'naviy (ma'naviyat), intizomiy (intizom), ma'rifiy ((ma'rifat) va h.k.

Yuqorida keltirilgan ashyoviy misollar o'tgan asrning 60-yillarida kammahsul deb topilgan -(v)iy affiksining (Kononov 1960;152) hozirgi vaqtga kelib nisbatan unumli affiksga aylanganligidan dalolat beradi.

### ***Nazorat savollari***

1. O'zbek tili ilmiy terminlarining nechta turi mavjud?
2. O'zbek tili materiallari asosida paydo bo'lgan terminlar nechta guruhga oid?
3. Istiqloldan keyin ilm-fan tilining taraqqiyotida "Davlat tili haqida"gi Qonunning roli bormi?
4. Tilning lug'at tarkibi qancha mustaqil qatlamdan tashkil topadi?
5. XI-XIV asrlarda ishlatilgan IS terminlarning hozirgi qardosh turkiy tillarda qo'llanish darajasi qanday?
6. Hozirgi o'zbek tili harbiy terminologiyasi tizimida VII-XIX asrlarga oid istilohlar saqlanib qolganmi?
7. O'zbek tili diplomatik terminologiyasi tizimida ko'hna so'zlarning ulushi qay darajada?
8. Ismlardan sifat-terminlar yasovchi mahsuldor qo'shimchalar xususida mulohaza yuriting.
9. Sifat-termin yasashda o'zlashma qo'shimchalarning o'rni qay darajada?
10. -(v)iy qo'shimchasining hozirgi paytda termin yasashdagi ishtirokiga to'xtaling.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1988.
2. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamaları. Toshkent: Fan, 2002.
3. Dadabaev X.A. Obshestvenno-politicheskaya i sotsial'no-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pis'mennix pamyatnikax XI-XIV vv. -Tashkent: Yozuvchi, 1991.
4. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opit lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.
5. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.

7-MAVZU. TERMINLARNING MORFOLOGIK, SINTAKTIK, SEMANTIK USULLAR BILAN YASALISHI. TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI. TERMINLARNING YASALISHI. TERMINOLOGIK LUG'ATLAR.

**Ishdan maqsad:** O'zbek tili terminologik tizimining morfologik, sintaktik va semantik usullar hisobiga boyishi va kengayishi bo'yicha asosiy ko'nikmalarni takrorlash. Umumadabiy so'zlarning terminologik leksika tizimiga ko'chishi, umumadabiy leksikaning ma'noviy o'zgarishlar bois terminlar safiga o'tishi, so'zot va termin-otning turli denotatlarni ifodalashi bilan farqlanishi borasida ko'nikmaga ega bo'lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Ushbu amaliy ish davomida tinglovchi quyidagilarni bajarishi lozim:

- umumiste'molga xos leksikaning terminlashuviga misollar keltirishi
- terminologiya tizimiga ko'chgan umumadabiy so'zlarni terminologik lug'atlar yordamida talqin qilishi
- birlamchi ma'nosini yo'qotib, yakka ma'noli ilmiy terminga aylangan so'zlarni izohlashi
- o'tgan asrning ikkinchi yarmida tuzilgan terminologik lug'atlarda keltirilgan siyosiy terminlarni bugunchi kun nuqtai nazaridan talqin qilishi
- muayyan lug'atning tuzilish printsiplariga baho berishi
- lug'atlarda sininig terminlarning berilishiga munosabat bildirishi
- terminologik lug'atlarda berilgan terminlarning etimologiyasini izohlashi
- istiqlol davri soha terminologik lug'atlardan xabardor bo'lishi.

**Ishni bajarish uchun namuna.**

#### **1-vazifa.**

**Terminlarning morfologik , sintaktik, semantik usullar bilan yasalishi.**

Terminologiyaning shakllanish va taraqqiy etish jarayoni tilga xos so'z yasalishi qonuniyatlari hamda tilning leksikasi asosida sodir bo'ladi. Umumiste'molga oid leksikaning terminlashuvi voqeasi tarixiy hisoblanadi. Bu hodisa til va terminologiya orasidagi ikki tomonlama munosabatni ko'rsatadi. Mazkur jarayon shuningdek, umumadabiy leksika va terminologik leksika o'rtasidagi jips aloqalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Umumadabiy so'zlar so'zlashuv tili, dialektlar, lahjalar va sotsial jargonlarning leksik boyligi va me'yorini tashkil qiladi. Ayni zamonda, umumxalq so'zlari har qanday milliy til terminologiyasini hamisha to'ldirib, kengaytirib boruvchi manbalardan biri tarzida e'tirof etiladi.

Umumadabiy so'zlarning terminologik leksika tizimiga ko'chishi (transterminlashuv)ning ikki turi mavjudligi aniqlangan .

1. Terminologiyaga ko'chgan umumadabiy leksik birliklarning ma'lum qismi o'z ma'nosini saqlab qolgan holda ishlatiladi: *ildiz* («koren»), *suv* («voda»), *shamol* («veter»), *dengiz* («more»), *daryo* («reka»), *oy* («luna»), *quyosh* («solntse»), *bug'doy* («pshenitsa»), *tol* («iva»), *uzum* («vinograd»), *shimol* («sever»), *janub* («yug»), *er* («zemlya»), *ayg'ir* («jerebets»), *baliq* («ro'ba») va h.k. Bu o'ta keng qamrovli leksika qatlami bo'lib, mavzu jihatdan jamiyat, inson, tabiat, hayvonot va o'simlik dunyosi bilan mustahkam aloqaga kirgan. Qayd etilgan so'zlar keng umumadabiy hamda o'z navbatida, tor maxsus sohaga taalluqlidir. Mazkur so'zlarning ifodalanuvchisi va ifodalovchisi turli sohalarda

mos tushadi, ammo ular ma'no ob'ekti, axborot ko'lami, mazmun-ma'no turi bilan farqlanadi.

2. Umumadabiy leksikaning boshqa bo'lagi yuz bergan ma'noviy o'zgarish oqibatida terminlar safiga o'tadi. Qoidaga ko'ra umumadabiy tildan terminologik tizimga olingan so'zlar muayyan ilmiy tushunchani ifodalash uchun xoslanadi, ilmiy termin maqomiga ega bo'ladi.

Masalan, o'zbek tili texnik terminologiyasi tizimida detallar, mexanizmlar, mashina qismlari hamda turli buyum-asboblarni anglatish uchun xoslangan *ko'z, oyoq, qadam, barmoq, qo'litiq, to'siq, qobirg'a, og'iz, tirnoq, quloq, pichoq, quti, taroq, qozon, qoshiq, barmoq, panja, musht* singari so'zlar talay miqdorni tashkil qiladi. Ilmiy matnlarda bu so'zlar o'zlarining birlamchi (denotativ) ma'nosini yo'qotib, yakka ma'noli ilmiy terminga aylanadi.

Ushbu maxsus tushunchalarni atash usuli an'anaviy, ob'ektiv hamda juda sermahsul hisoblanadi.

Yangi terminlarni hosil qilish hisobiga mavjud ehtiyojlarni qondirish mushkul kechgan hollarda majburiy chora sifatida til lug'at fondidagi so'zlarga murojaat etiladi. Mazkur guruhga tegishli so'z-ot va termin-otlar har xil denotatlarni ifodalashi bilan o'zaro farq qiladi. Ba'zi bir leksik birliklar misolida maxsus ma'noning shakllanish jarayonini kuzatish mumkin.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida *chanoq* so'zi 1) o'yib yasalgan kichik hajmdagi yog'och idish; 2) kosa, tovoq, lagancha ma'nolarida qo'llanangan. Bu leksema eski o'zbek adabiy tilida "hayvonlar suv ichadigan idish" ma'nosini anglatgan. Fanning keyingi rivoji bosqichlari davrida kuzatilayotgan so'z tibbiyot terminologiyasi tizimiga maxsus ma'noni ifodalovchi termin sifatida kirgan hamda "tos suyagi, dumg'aza suyagi" va "kosasimon o'yiqli suyak" ma'nolarini ifodalashga yo'naltirilgan.

Yuqorida qayd etilgan vaziyatda hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zining dastlabki ma'nosini yo'qotgan umumiste'mol so'z ma'nosidan metaforik ko'chim asosida maxsus terminning yasaliish jarayoni yaqqol namoyon bo'ladi. Chunonchi, *chanoq* tibbiy termini quyidagi sintagmatik birikmalar tarkibida faol qo'llanishi bilan diqqatni tortadi: *katta chanoq* («taz bolshoy»), *bolalar chanog'i* («taz detskiy»), *infantil chanoq* («taz infantilno'y»), *kichik chanoq* («taz malo'y»), *karlik chanoq* («taz karlikovo'y»), *yassi chanoq* («taz ploskiy»), *yorilgan chanoq* («taz razheplenno'y»), *keng chanoq* («taz shirokiy»), *tor chanoq* («taz uzkiy») va h.k.

Qoraxoniylar davri eski turkiy tilga sof turkiycha *kuch* leksemasining sinonimi sifatida arab tilidan o'zlashgan *quvvat* so'zi mavhum "kuch, qudrat, mador" ma'nosini ifodalash uchun kirib kelgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ushbu o'zlashma umum tomonidan qo'llanuvchi so'z sifatida nafaqat o'z o'rnini mustahkam saqlab qolishga erishgan, balki fizika fani sohasida "energiya, quvvat" ma'nosini anglatuvchi termin tarzida ham keng ishlatiladi. Asl turkiycha *kuch* so'ziga kelsak, u ko'lam chegarari keng ko'pma'noli so'z sifatida "kuch-qudrat, quvvat" ma'nosida umumadabiy tilda hamon qo'llanib kelmoqda.

Umumilmiy leksika tarzida *kuch* fizika, texnika, harbiy ish, iqtisodiyot, huquqshunoslik sohalarida "qudrat", "kuchlar, qo'shinlar", "quvvat, qonuniy

huquqqa egalik” kabi ma’nolarni ifodalashga xizmat qilmoqda - *iroda kuchi* («sila voli»); *Erning tortish kuchi* («sila prityajeniya Zemli»); *ish//ishchi kuchi* («rabochaya sila»); *mamlakatning harbiy kuchlari* («voorujenno’e silo gosudarstva»); *yangi qonun kuchga kirdi* («novo’y zakon vstupil v silu») va h.k.

Umumadabiy leksik birlikning terminlashuvi jarayoni natijasida omonimlashish sodir bo‘ladi, ya’ni yangi ifodalanmish uchun ilgaridan ma’lum bo‘lgan qobiqdan foydalaniladi. Mana shunday usulda, masalan, *burun* («mo’s»), *qo‘ltiq* («zaliv») va h.k. geografik terminlar shakllangan.

Terminologik lug‘atlarning salmoqli ulushini tashkil qiluvchi transterminlar o‘z ifodasini shuningdek izohli, entsiklopedik hamda tarjima (umumiy va xususiy) lug‘atlarda ham topadi.

Terminologik leksika va umumadabiy leksika o‘rtasidagi munosabat ikki yoqlama kechadi. Terminlarning umumadabiy leksika doirasiga o‘tishi ham ikki belgiga ega: a) bir qism terminlar umumiy kundalik hayotga o‘zlarining denotativ ma’nosida kiradi – *kompyuter, Internet, kosmos, kosmik kema, SMS, bayonnoma, mavze, viloyat, tuman, fermer, birja, deputat, fakultet* va h.k.; b) boshqa guruh terminlar tub ma’noviy o‘zgarishlar bilan o‘zlashtiriladi. Masalan, botanikada qo‘llanuvchi *bo‘tako‘z* («vasilek priplyusnuto’y, vasilek siniy») termini umumadabiy tilda ham “ulkan chiroyli ko‘zlar” ko‘chma ma’noni, ham katta chiroyli ko‘zli erkak yoki ayol kishini anglatadi.

Azaldan *bez* anatomik termini umumiy adabiy tilda “o‘jar, qaysar” insonga nisbatan qo‘llanib keladi. *Bo‘ta* zoologik termini umumiy adabiy tilda “o‘g‘il, bola, o‘g‘lon” majoziy ma’nosini ifodalaydi va h.k.

Bu xildagi terminologik leksikaning umumiy qo‘llanuvchi til tomonidan o‘zlashtirilishi sub’ektiv omil hisoblanib, u nutqda ekspressivlikka bo‘lgan muayyan ehtiyojni qondirishga qaratilgan bo‘ladi. Terminologiyada faqat fan tili leksikasi tarkibida o‘zining asl, nominativ-denotativ vazifasida istifoda etilishi aniqlangan. Ba’zi bir terminlarning umumadabiy leksikaga suqilib kirishi (va umumadabiy til lug‘atlarida qayd etilishi), turli adabiyotlarda ommabopligi, yoyilganligi, qo‘llanuvchanligi ularning adabiy til tomonidan o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

### **Nazorat savollari**

1. Terminologiya qanday manbalar hisobiga shakllanadi?
2. Terminlogiyaning voqelanishida qanday jihatlar harakatga keladi?
3. Terminlarning qaror topishida umummilliy qatlamning roli qay darajada?
4. Ilmiy terminlar tizimida qadimgi sof turkiy qatlamning o‘rni bormi?
5. Terminologik leksika va umumadabiy leksika o‘rtasidagi munosabatga baho bering.
6. Terminlarning ma’no-mazmunini anglab etishda terminologik lug‘atlarning qanday roli bor?
7. O‘tgan asrda o‘zbek tilida qanday fan sohalari bo‘yicha terminologik lug‘atlar yaratildi?

8. Istiqlol davri terminologik lugʻatlar yaratish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?

9. Tarix terminlari lugʻatlari nima uchun zarur?

10. Tilshunoslik terminlari lugʻatlari yaratish boʻyicha qilinayotgan saʼy haraktlardan xabardormiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ahmedov, Bektemirov H. Ruscha-oʻzbekcha yuridik atamalar lugʻati. Toshkent, Adolat, 2002.

2. Bekmuhamedov X.Yu. Tarix terminlari izohli lugʻati. Toshkent: Oʻqituvchi, 1978.

3. Dadaboev H. Tarixiy haryuiy terminlar lugʻati. Toshkent, 2007.

4. Ismoilov M., Sharopov A. Tarix atamaları lugʻati. Toshkent, Akademnashr, 2013.

5. Muqimov Z., Tursunova O. Oʻzbek davlatchiligida qoʻllangan tarixiy-huquqiy atamalar. Samarqand 2007.

6. Usmon O., Doniyorov. Ruscha-internatsional soʻzlar izohli lugʻati. Toshkent: oʻzbekiston, 1972.

7. Xudayberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lugʻati. Toshkent, 2015.

8. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. Toshkent: Fan, 2012.

### **Terminlarning yasalihi.**

*Ishdan maqsad:* Oʻzbek tili terminologik tizimining morfologik, sintaktik va semantik usullar hisobiga boyishi va kengayishi boʻyicha asosiy koʻnikmalarni takrorlash. Umumadabiy soʻzlarning terminologik leksika tizimiga koʻchishi, umumadabiy leksikaning maʼnoviy oʻzgarishlar bois terminlar safiga oʻtishi, soʻz-ot va termin-otning turli denotatlarni ifodalashi bilan farqlanishi borasida koʻnikmaga ega boʻlish.

*Masalaning qoʻyilishi:* Ushbu amaliy ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- umumiste'molga xos leksikaning terminlashuviga misollar keltirishi
- terminologiya tizimiga koʻchgan umumadabiy soʻzlarni terminologik lugʻatlar yordamida talqin qilishi
- birlamchi ma'nosini yoʻqotib, yakka ma'noli ilmiy terminga aylangan soʻzlarni izohlashi
- oʻtgan asrning ikkinchi yarmida tuzilgan terminologik lugʻatlarda keltirilgan siyosiy terminlarni bugunchi kun nuqtai nazaridan talqin qilishi
- muayyan lugʻatning tuzilish printsiplariga baho berishi
- lugʻatlarda sininim terminlarning berilishiga munosabat bildirishi
- terminlogik lugʻatlarda berilgan terminlarning etimologiyasini izohlashi
- istiqol davri soha terminologik lugʻatlardan xabardor boʻlishi.



*Ishni bajarish uchun namuna.*

### **1-vazifa.**

Terminlarning morfologik, sintaktik, semantik usullar bilan yasalishi.

Terminologiyaning shakllanish va taraqqiy etish jarayoni tilga xos soʻz yasalishi qonuniyatlari hamda tilning leksikasi asosida sodir boʻladi. Umumiste'molga oid leksikaning terminlashuvi voqeasi tarixiy hisoblanadi. Bu hodisa til va terminologiya orasidagi ikki tomonlama munosabatni koʻrsatadi. Mazkur jarayon shuningdek, umumadabiy leksika va terminologik leksika oʻrtasidagi jips aloqalarda yaqqol namoyon boʻladi.

Umumadabiy soʻzlar soʻzlashuv tili, dialektlar, lahjalar va sotsial jargonlarning leksik boyligi va me'yorini tashkil qiladi. Ayni zamonda, umumxalq soʻzlari har qanday milliy til terminologiyasini hamisha toʻldirib, kengaytirib boruvchi manbalardan biri tarzida e'tirof etiladi.

Umumadabiy soʻzlarning terminologik leksika tizimiga koʻchishi (transterminlashuv)ning ikki turi mavjudligi aniqlangan .

1. Terminologiyaga koʻchgan umumadabiy leksik birliklarning ma'lum qismi oʻz ma'nosini saqlab qolgan holda ishlatiladi: ildiz («koren»), suv («voda»), shamol («veter»), dengiz («more»), daryo («reka»), oy («luna»), quyosh («solntse»), bugʻdoy («pshenitsa»), tol («iva»), uzum («vinograd»), shimol («sever»), janub («yug»), yer («zemlya»), aygʻir («jerebets»), baliq («riba») va h.k. Bu oʻta keng qamrovli leksika qatlami boʻlib, mavzu jihatdan jamiyat, inson, tabiat, hayvonot va oʻsimlik dunyosi bilan mustahkam aloqaga kirgan. Qayd etilgan soʻzlar keng umumadabiy hamda oʻz navbatida, tor maxsus sohaga taalluqlidir. Mazkur soʻzlarning ifodalanuvchisi va ifodalovchisi turli sohalarda mos tushadi, ammo ular ma'no ob'ekti, axborot koʻlami, mazmun-ma'no turi bilan farqlanadi.

2. Umumadabiy leksikaning boshqa boʻlagi yuz bergan ma'noviy oʻzgarish oqibatida terminlar safiga oʻtadi. Qoidaga koʻra umumadabiy tildan terminologik tizimga olingan soʻzlar muayyan ilmiy tushunchani ifodalash uchun xoslanadi, ilmiy termin maqomiga ega boʻladi. Masalan, oʻzbek tili texnik terminologiyasi tizimida detallar, mexanizmlar, mashina qismlari hamda turli buyum-asboblarni anglatish uchun xoslangan koʻz, oyoq, qadam, barmoq, qoʻltiq, toʻsiq, qobirgʻa, ogʻiz, tirnoq, quloq, pichoq, quti, taroq, qozon, qoshiq, barmoq, panja, musht singari soʻzlar talay miqdorni tashkil qiladi. Ilmiy matnlarda bu soʻzlar oʻzlarining birlamchi (denotativ) ma'nosini yoʻqotib, yakka ma'noli ilmiy terminga aylanadi. Ushbu maxsus tushunchalarni atash usuli an'anaviy, ob'ektiv hamda juda sermahsul hisoblanadi.

Yangi terminlarni hosil qilish hisobiga mavjud ehtiyojlarni qondirish mushkul kechgan hollarda majburiy chora sifatida til lugʻat fondidagi soʻzlarga murojaat etiladi. Mazkur guruhga tegishli soʻz-ot va termin-otlar har xil denotatlarni ifodalashi bilan oʻzaro farq qiladi. Ba'zi bir leksik birliklar misolida maxsus ma'noning shakllanish jarayonini kuzatish mumkin.

Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida chanaq soʻzi 1) oʻyib yasalgan kichik hajmdagi yogʻoch idish; 2) kosa, tovoq, lagancha ma'nolarida qoʻllanagan. Bu leksema eski oʻzbek adabiy tilida “ hayvonlar suv

ichadigan idish” ma’nosini anglatgan. Fanning keyingi rivoji bosqichlari davrida kuzatilayotgan soʻz tibbiyot terminologiyasi tizimiga maxsus ma’noni ifodalovchi termin sifatida kirgan hamda “tos suyagi, dumgʻaza suyagi” va “kosasimon oʻyikli suyak” ma’nolarini ifodalashga yoʻnaltirilgan. Yuqorida qayd etilgan vaziyatda hozirgi oʻzbek adabiy tilida oʻzining dastlabki ma’nosini yoʻqotgan umumiste’mol soʻz ma’nosidan metaforik koʻchim asosida maxsus terminning yasaliş jarayoni yaqqol namoyon boʻladi. Chunonchi, chanoq tibbiy termini quyidagi sintagmatik birikmalar tarkibida faol qoʻllanishi bilan diqqatni tortadi: katta chanoq («taz bolʻshoy»), bolalar chanogʻi («taz detskiy»), infantil chanoq («taz infantilʻniy»), kichik chanoq («taz maliy»), karlik chanoq («taz karlikoviy»), yassi chanoq («taz ploskiy»), yorilgan chanoq («taz razsheplenniy»), keng chanoq («taz shirokiy»), tor chanoq («taz uzkiy») va h.k.

Qoraxoniylar davri eski turkiy tilga sof turkiycha kuch leksemasining sinonimi sifatida arab tilidan oʻzlashgan quvvat soʻzi mavhum “kuch, qudrat, mador” ma’nosini ifodalash uchun kirib kelgan. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida ushbu oʻzlashma umum tomonidan qoʻllanuvchi soʻz sifatida nafaqat oʻz oʻrnini mustahkam saqlab qolishga erishgan, balki fizika fani sohasida “energiya, quvvat” ma’nosini anglatuvchi termin tarzida ham keng ishlatiladi. Asl turkiycha kuch soʻziga kelsak, u koʻlam chegarari keng koʻpma’noli soʻz sifatida “kuch-qudrat, quvvat” ma’nosida umumadabiy tilda hamon qoʻllanib kelmoqda.

Umumilmiy leksika tarzida kuch fizika, texnika, harbiy ish, iqtisodiyot, huquqshunoslik sohalarida “qudrat”, “kuchlar, qoʻshinlar”, “quvvat, qonuniy huquqqa egalik” kabi ma’nolarni ifodalashga xizmat qilmoqda - iroda kuchi («sila voli»); Yerning tortish kuchi («sila prityajeniya Zemli»); ish//ishchi kuchi («rabochaya sila»); mamlakatning harbiy kuchlari («voorujennie sili gosudarstva»); yangi qonun kuchga kirdi («noviy zakon vstupil v silu») va h.k.

Umumadabiy leksik birlikning terminlashuvi jarayoni natijasida omonimlashish sodir boʻladi, ya’ni yangi ifodalanmish uchun ilgaridan ma’lum boʻlgan qobiqdan foydalaniladi. Mana shunday usulda, masalan, burun («mis»), qoʻltiq («zaliv») va h.k. geografik terminlar shakllangan.

Terminologik lugʻatlarning salmoqli ulushini tashkil qiluvchi transterminlar oʻz ifodasini shuningdek izohli, entsiklopedik hamda tarjima (umumiy va xususiy) lugʻatlarda ham topadi.

Terminologik leksika va umumadabiy leksika oʻrtasidagi munosabat ikki yoqlama kechadi. Terminlarning umumadabiy leksika doirasiga oʻtishi ham ikki belgiga ega: a) bir qism terminlar umumiy kundalik hayotga oʻzlarining denotativ ma’nosida kiradi – komp`yuter, Internet, kosmos, kosmik kema, SMS, bayonnoma, mavze, viloyat, tuman, fermer, birja, deputat, fakul`tet va h.k.; b) boshqa guruh terminlar tub ma’noviy oʻzgarishlar bilan oʻzlashtiriladi. Masalan, botanikada qoʻllanuvchi boʻtakoʻz («vasilek priplyusnutiy, vasilek siniy») termini umumadabiy tilda ham “ulkan chiroyli koʻzlar” koʻchma ma’noni, ham katta chiroyli koʻzli erkak yoki ayol kishini anglatadi.

Azaldan bez anatomik termini umumiy adabiy tilda “oʻjar, qaysar” insonga nisbatan qoʻllanib keladi. Boʻta zoologik termini umumiy adabiy tilda “oʻgʻil, bola, oʻgʻlon” majoziy ma’nosini ifodalaydi va h.k.

Bu xildagi terminologik leksikaning umumiy qo'llanuvchi til tomonidan o'zlashtirilishi sub'ektiv omil hisoblanib, u nutqda ekspressivlikka bo'lgan muayyan ehtiyojni qondirishga qaratilgan bo'ladi. Terminologiyada faqat fan tili leksikasi tarkibida o'zining asl, nominativ-denotativ vazifasida istifoda etilishi aniqlangan. Ba'zi bir terminlarning umumadabiy leksikaga suqilib kirishi ( va umumadabiy til lug'atlarida qayd etilishi), turli adabiyotlarda ommabopligi, yoyilganligi, qo'llanuvchanligi ularning adabiy til tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

#### Nazorat savollari

1. Terminologiya qanday manbalar hisobiga shakllanadi?
2. Terminlogiyaning voqelanishida qanday jihatlar harakatga keladi?
3. Terminlarning qaror topishida umummilliy qatlamning roli qay darajada?
4. Ilmiy terminlar tizimida qadimgi sof turkiy qatlamning o'rni bormi?
5. Terminologik leksika va umumadabiy leksika o'rtasidagi munosabatga baho bering.
6. Terminlarning ma'no-mazmunini anglab yetishda terminologik lug'atlarning qanday roli bor?
7. O'tgan asrda o'zbek tilida qanday fan sohalari bo'yicha terminologik lug'atlar yaratildi?
8. Istiqlol davri terminologik lug'atlar yaratish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
9. Tarix terminlari lug'atlari nima uchun zarur?
10. Tilshunoslik terminlari lug'atlari yaratish bo'yicha qilinayotgan sa'y harakatlardan xabardormiz?

#### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Ahmedov, Bektemirov H. Ruscha-o'zbekcha yuridik atamalar lug'ati. Toshkent,: Adolat, 2002.
2. Bekmuhamedov X.YU. Tarix terminlari izohli lug'ati.Toshkent: O'qituvchi, 1978.
3. Dadaboev H. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati. Toshkent, 2007.
4. Ismoilov M., Sharopov A. Tarix atamalari lug'ati.Toshkent, Akademnashr, 2013.
5. Muqimov Z., Tursunova O. O'zbek davlatchiligida qo'llangan tarixiy-huquqiy atamalar. Samarqand 2007.
6. Usmon O., Doniyorov. Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati. Toshkent: o'zbekiston, 1972.
7. Xudayberganova D. Lingvokul'turologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent, 2015.
8. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: Fan, 2012.

## 8-MAVZU. TERMINOLOGIK LUG‘ATLAR, ULARNING MAZMUNI VA SIFATI. TERMINOLOGIK LUG‘ATLAR.

**Ishdan maqsad:** O‘zbek tili terminologik tizimining morfologik, sintaktik va semantik usullar hisobiga boyishi va kengayishi bo‘yicha asosiy ko‘nikmalarni takrorlash. Umumadabiy so‘zlarning terminologik leksika tizimiga ko‘chishi, umumadabiy leksikaning ma‘noviy o‘zgarishlar bois terminlar safiga o‘tishi, so‘zot va terminotning turli denotatlarni ifodalashi bilan farqlanishi borasida ko‘nikmaga ega bo‘lish.

**Masalaning qo‘yilishi:** Ushbu amaliy ish davomida tinglovchi quyidagilarni bajarishi lozim:

- umumiste‘molga xos leksikaning terminlashuviga misollar keltirishi
- terminologiya tizimiga ko‘chgan umumadabiy so‘zlarni terminologik lug‘atlar yordamida talqin qilishi
- birlamchi ma‘nosini yo‘qotib, yakka ma‘noli ilmiy terminga aylangan so‘zlarni izohlashi
- o‘tgan asrning ikkinchi yarmida tuzilgan terminologik lug‘atlarda keltirilgan siyosiy terminlarni bugunchi kun nuqtai nazaridan talqin qilishi
- muayyan lug‘atning tuzilish printsiplariga baho berishi
- lug‘atlarda sininig terminlarning berilishiga munosabat bildirishi
- terminologik lug‘atlarda berilgan terminlarning etimologiyasini izohlashi
- istiqlool davri soha terminologik lug‘atlardan xabardor bo‘lishi.

**Ishni bajarish uchun namuna.**

**2-vazifa. Terminologik lug‘atlar, ularning mazmuni va sifatini aniqlash.**

O‘zbek terminologik lug‘atlari, ta’bir joiz bo‘lsa, fan sohalarining deyarli barchasini qamrab olgan deyish mumkin. Aniq fan sohalari kabi ijtimoiy-gumanitar fan sohalari doirasida qo‘llanuvchi terminlarning ma‘no-mohiyatni ifodalashga yo‘naltirilgan lug‘atnavislik ishlari respublika ilmiy-tadqiqot institutlari etakchi olimlari, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari tomonidan tuzilgan. Terminologik lug‘atlarning aksariyatida rus tilidan o‘zlashgan terminlarning o‘zbek tilida ifodalanishiga bag‘ishlangan. Albatta, mavzuga ajratilgan vaqtning chegaralanganini hisobga olib, gumanitar fan sohalari, chunonchi, huquqshunoslik, tarix, tilshunoslik doirasida yaratilgan ayrim terminologik lug‘atlarga to‘xtalamiz. O.Usmonov va R.Doniyorov tomonidan 1979 yili “O‘zbekiston” nashriyotida 15000 adadda tuzatilgan va to‘ldirilgan holda ikkinchi marta nashr qilingan “Ruscha internatsional so‘zlar izohli lug‘ati” mualliflar ta’kidlaganidek, o‘zbek tili ning keng ma‘nodagi izohli lug‘ati bo‘lmay, uning vazifasiga faqat rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlarni, shuningdek, o‘zbekcha gazeta va jurnallarda, ilmiy-ommabop va ijtimoiy-siyosiy asarlarda uchraydigan ruscha-baynalmilal va ilmiy-publitsistik terminlarnigina o‘z ichiga olgan va ularga o‘zbek tilida o‘zlashtirilishi asosida izoh berilgan, izohlanayotgan so‘zlarning et

imologiyasi (kelib chiqishi) haqida ham ba’zi ma’lumotlar keltirilgan. Lug‘atdan joy olgan so‘z va terminlar rus tilidan va rus tili orqali qadimgi yunon,

lotin hamda Evropa va qisman Sharq xalqlari tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar va terminlar hisoblanadi. Bu so'z va terminlarning bir qismi sof ruscha o'zlashmalar bo'lib, qolgan qismi esa xalqaro, baynalmilal yoki internatsional xarakterga ega bo'lgan. Mazkur lug'at mutaxassislariga emas, balki balki keng o'quvchilar ommasiga, xususan, ziyolilar va talabalarga mo'ljallangan edi. Lug'atning tuzilish tartibi tubandagicha ko'rinishni hosil qilgan:

1. Bosh so'zlarning barcha so'z va terminlar alifbe tartibida berilgan va ular yirik qora harflar bilan terilib, har qaysisi abzatsdan boshlangan.

2. So'z yoki termin ko'p ma'noli bo'lsa, u holda ma'nolarning har biri arab raqamlari bilan ko'rsatilgan va ular o'zaro nuqta bilan ajratilgan.

3. Bosh so'z yoki termin boshqa so'z bilan qo'shilib ishlatilganda, u holda bosh so'zdan keyin ikki nuqta qo'yilib, ketidan tarkibida o'sha so'z yoxud termin kelgan so'z birikmasi berilgan.

4. Tarkibida bosh so'shz ishlatilgan turg'un so'z bi rikmalari, tarkibli terminlar ham misol tarzida berilgan. Lug'atda ular romba ishorasi bilan ajratilib, qora kursiv bilan berilgan: **absolyut... absolyut namlik** va h.k.

5. Biologik jinsni anglatuvchi so'zlarning har ikki shakli ham lug'atga kiritilgan: *laborant – laborantka, stenografist – stenografistka* va h.k.

6. Mexanizatsiya, dezinfektsiya, koordinatsiya kabi so'zlarning mexanizatsiyalash, dezinfektsiyalash, koordinatsiyalash singari o'zbekcha shakllari bilan yonma-yon berilgan.

7. Vuz, zags, dot, dzot, nep, radar singari qisqartmalar o'zbek tilida mustaqil, yaxlit so'z yoki termin sifatida lug'atdan o'rin olgan.

8. Omonimlar lug'atda alohida-alohida berilgan, bir-biridan rim raqami bilan ajratilgan.

9. Omoformlar ham rim raqamlari bilan ajratilib, alohida-alohida talqin qilingan.

10. Sinonimlar mutlaq ma'noniga ega bo'lsa, u holda izoh eng faol qo'llanadigan sinonimga berilib, kam ishlatiladigan yoki eskirgan ma'nodoshi *so'z.ayn. o'zi.* ishorasi orqali unga havola qilingan: **Lokator. Radiolokator** *so'z.ayn.o'zi* va h.k.

11. Antonim so'z yoki terminlar mustaqil tarzda berilgan bo'lsa-da, lekin ular bir-biriga havola qilinmaydi. Mabodo bunday xavola antonim so'zlardan birining yoki har ikkisining ma'nosini ochishga, izohlashga yordam bersa, unday holatda ular bir-biriga havola qilingan: **mikroskopik...; aksi –makroskopik** va b.

12. O'zbek ilmiy terminlogiyasiga mansub bo'lgan qo'shma va murakkab qmsqartma so'zlarning tarkibiy qismlari lug'atda bosh so'z tariqasida berilgan: **avia-, avto-, agro-, geo-, gidro-, mikro-, moto-, radio-, tele-, ultra-, foto-** va shu kabi.

13. Lug'atda keltirilgan so'zlarga o'rni bilan *fiz., tex., mat., geol., astr., med., farm.* singari belgilar qo'yilgan.

Ta'kidlash joizki, m azkur lug'atdan o'rin olgan va izohlangan baynalmilal so'z yoki terminlarning muayyan adadi Mustaqillikdan so'ng jamiyatda yuz bergan tub o'zgarishlar oqibatida o'zbek tili so'z boyligidan chiqib ketdi yoki ular moziyda ajdodlar tomonidan qo'llangan leksik birliklar bilan almashtirildi.

Tarixda qoʻllangan terminlar izohiga bagʻishlab mamlakatimizda nisbatan katta yoki kichik hajmdagi lugʻatlar nashr qilindi. Shunday lugʻatlar sirasiga X.Yu.Bekmuhamedovning “Tarix terminlari izohli lugʻati” (Pedagogika oliy oʻquv yurtlarining studentlari va oʻrta maktab tarix oʻqituvchilari uchun. Toshkent: Oʻqituvchi, 1978), M.Ismoilov, A.Sharopovlarning “Tarix atamaları lugʻati”.Toshkent: Akademnashr.2013, H.Dadaboevning “Tarixiy harbiy terminlar lugʻati” (Toshkent. 2007) singari asarlarni kiritish oʻzini oqlaydi. Huquqshunoslik doirasida ham lugʻatlar tuzish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilganini taʼkidlaymiz. Shu oʻrinda Gʻ.Ahmedov va H.Bektemirov tomonidan tuzilgan “Ruscha –oʻzbekcha yuridik atamalar lugʻati”ning “Adolat” nashriyotida A.Saidov maʼsul muharrirligi ostida 2002 yili eʼlon qilingani eʼtirof etish maqsadga molik. Binobarin, bu lugʻat tuzilishi va unda materiallarning berilishi jihatidan avvalgi lugʻatlardan farq qiladi. Lugʻatga qonunlar, huquqshunoslik, xalqaro huquq sohasida, huquqqa oid darsliklarda hamda ish yuritishda ishlatiladigan terminlar kiritilgan. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga oʻtishda ham iqtisodiy, ham huquqiy terminlar bir-biri bilan bogʻlanib ketganligi bois iqtisod va huquqqa oid chegaradosh atamalar ham lugʻatdan oʻrin olgan. Lugʻatning afzalliklaridan biri – unda terminlarning kirill yozuvidan tashqari lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosida ham berilishidir. Ushbu lugʻatni yaratishda F.Bakirovning “Yuridik terminlar lugʻati” (Toshkent, 1959), “Yuridik atamalar va iboralar lugʻati” (Toshkent, 1993)dan foydalanilgan. Bu yoʻnalishda soʻnggi paytlarda eʼlon qilingan ishlardan biri sifatida Z.Muqimov va O.Tursunovalar tomonidan tuzilgan va Samarqandda 2007 yilda chop etilgan “Oʻzbek davlatchiligida qoʻllangan tarixiy-huquqiy atamalar”ni keltirish mumkin. Lugʻat oʻzbek davlatchiligi tarixining turli davrlarida, turli tillarda qoʻllangan terminlar, ularning etimologiyasi (qaysi tilga xosligi), til va huquqqa oid maʼnolari izohlarini qamrab olgan.

Oʻzbek lugʻatshunosligida tilshunoslikka oid terminologik lugʻatlar yaratish borasida ayrim ishlar qilindi. Chunonchi, A.Hojievning “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati”da bugungi kunda til sohasida faol qoʻllanayotgan terminlarning izohi berilgan. D.Xudayberganovanning “Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lugʻati” (Toshkent, Tukron zamin ziyo, 2015)da tilshunoslikning yangi sohalaridan hisoblanmish lingvokulturologiyaga oid 100 ga yaqin terminlar izohini topgan va h.k.

### **Nazorat savollari**

1. Terminologiya qanday manbalar hisobiga shakllanadi?
2. Terminlogiyaning voqelanishida qanday jihatlar harakatga keladi?
3. Terminlarning qaror topishida umummilliy qatlamning roli qay darajada?
4. Ilmiy terminlar tizimida qadimgi sof turkiy qatlamning oʻrni bormi?
5. Terminologik leksika va umumadabiy leksika oʻrtasidagi munosabatga baho bering.
6. Terminlarning maʼno-mazmunini anglab etishda terminologik lugʻatlarning qanday roli bor?

7. O'tgan asrda o'zbek tilida qanday fan sohalari bo'yicha terminologik lug'atlar yaratildi?
8. Istiqloq davri terminologik lug'atlar yaratish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
9. Tarix terminlari lug'atlari nima uchun zarur?
10. Tilshunoslik terminlari lug'atlari yaratish bo'yicha qilinayotgan sa'y harakatlardan xabardormiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ahmedov, Bektemirov H. Ruscha-o'zbekcha yuridik atamalar lug'ati. Toshkent, : Adolat, 2002.
2. Bekmuhamedov X.Yu. Tarix terminlari izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1978.
3. Dadaboev H. Tarixiy haryuiy terminlar lug'ati. Toshkent, 2007.
4. Ismoilov M., Sharopov A. Tarix atamaları lug'ati. Toshkent, Akademyashr, 2013.
5. Muqimov Z., Tursunova O. O'zbek davlatchiligida qo'llangan tarixiy-huquqiy atamalar. Samarqand 2007.
6. Usmon O., Doniyorov. Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati. Toshkent: o'zbekiston, 1972.
7. Xudayberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent, 2015.
8. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: Fan, 2012.

### **TERMINOLOGIK LUG'ATLAR, ULARNING MAZMUNI VA SIFATINI ANIQLASH.**

*Ishdan maqsad:* O'zbek tili terminologik tizimining morfologik, sintaktik va semantik usullar hisobiga boyishi va kengayishi bo'yicha asosiy ko'nikmalarni takrorlash. Umumadabiy so'zlarning terminologik leksika tizimiga ko'chishi, umumadabiy leksikaning ma'noviy o'zgarishlar bois terminlar safiga o'tishi, so'z-ot va termin-otning turli denotatlarni ifodalashi bilan farqlanishi borasida ko'nikmaga ega bo'lish.

*Masalaning qo'yilishi:* Ushbu amaliy ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- umumiste'molga xos leksikaning terminlashuviga misollar keltirishi
- terminologiya tizimiga ko'chgan umumadabiy so'zlarni terminologik lug'atlar yordamida talqin qilishi
- birlamchi ma'nosini yo'qotib, yakka ma'noli ilmiy terminga aylangan so'zlarni izohlashi
- o'tgan asrning ikkinchi yarmida tuzilgan terminologik lug'atlarda keltirilgan siyosiy terminlarni bugunchi kun nuqtai nazaridan talqin qilishi
- muayyan lug'atning tuzilish printsiplariga baho berishi
- lug'atlarda sininim terminlarning berilishiga munosabat bildirishi

- terminologik lugʻatlarda berilgan terminlarning etimologiyasini izohlashi
- istiqlol davri soha terminologik lugʻatlardan xabardor boʻlishi.

*Ishni bajarish uchun namuna.*

Terminologik lugʻatlar, ularning mazmuni va sifatini aniqlash.

Oʻzbek terminologik lugʻatlari, taʼbir joiz boʻlsa, fan sohalarining deyarli barchasini qamrab olgan deyish mumkin. Aniq fan sohalari kabi ijtimoiy-gumanitar fan sohalari doirasida qoʻllanuvchi terminlarning maʼno-mohiyatni ifodalashga yoʻnaltirilgan lugʻatnavislik ishlari respublika ilmiy-tadqiqot institutlari yetakchi olimlari, oliy oʻquv yurtlari professor-oʻqituvchilari tomonidan tuzilgan. Terminologik lugʻatlarning aksariyatida rus tilidan oʻzlashgan terminlarning oʻzbek tilida ifodalanishiga bagʻishlangan. Albatta, mavzuga ajratilgan vaqtning chegaralanganini hisobga olib, gumanitar fan sohalari, chunonchi, huquqshunoslik, tarix, tilshunoslik doirasida yaratilgan ayrim terminologik lugʻatlarga toʻxtalamiz. O.Usmonov va R.Doniyorov tomonidan 1979 yili “Oʻzbekiston” nashriyotida 15000 adadda tuzatilgan va toʻldirilgan holda ikkinchi marta nashr qilingan “Ruscha internatsional soʻzlar izohli lugʻati” mualliflar taʼkidlaganidek, oʻzbek tili ning keng maʼnodagi izohli lugʻati boʻlmay, uning vazifasiga faqat rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlarni, shuningdek, oʻzbekcha gazeta va jurnallarda, ilmiy-ommabop va ijtimoiy-siyosiy asarlarda uchraydigan Ruscha-baynalminal va ilmiy-publitsistik terminlarnigina oʻz ichiga olgan va ularga oʻzbek tilida oʻzlashtirilishi asosida izoh berilgan, izohlanayotgan soʻzlarning etimologiyasi (kelib chiqishi) haqida ham baʼzi maʼlumotlar keltirilgan. Lugʻatdan joy olgan soʻz va terminlar rus tilidan va rus tili orqali qadimgi yunon, lotin hamda Yevropa va qisman Sharq xalqlari tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlar va terminlar hisoblanadi. Bu soʻz va terminlarning bir qismi sof ruscha oʻzlashmalar boʻlib, qolgan qismi esa xalqaro, baynalminal yoki internatsional xarakterga ega boʻlgan. Mazkur lugʻat mutaxassislariga emas, balki balki keng oʻquvchilar ommasiga, xususan, ziyolilar va talabalarga moʻljallangan edi. Lugʻatning tuzilish tartibi tubandagicha koʻrinishni hosil qilgan:

1. Bosh soʻzlarning barcha soʻz va terminlar alifbe tartibida berilgan va ular yirik qora harflar bilan terilib, har qaysisi abzatsdan boshlangan.
2. Soʻz yoki termin koʻp maʼnoli boʻlsa, u holda maʼnolarning har biri arab raqamlari bilan koʻrsatilgan va ular oʻzaro nuqta bilan ajratilgan.
3. Bosh soʻz yoki termin boshqa soʻz bilan qoʻshilib ishlatilganda, u holda bosh soʻzdan keyin ikki nuqta qoʻyilib, ketidan tarkibida oʻsha soʻz yoxud termin kelgan soʻz birikmasi berilgan.
4. Tarkibida bosh soʻz ishlatilgan turgʻun soʻz birikmalari, tarkibli terminlar ham misol tarzida berilgan. Lugʻatda ular romba ishorasi bilan ajratilib, qora kursiv bilan berilgan: absolyut... absolyut namlik va h.k.
5. Biologik jinsni anglatuvchi soʻzlarning har ikki shakli ham lugʻatga kiritilgan: laborant – laborantka, stenografist – stenografistka va h.k.
6. Mexanizatsiya, dezinfektsiya, koordinatsiya kabi soʻzlarning mexanizatsiyalash, dezinfektsiyalash, koordinatsiyalash singari oʻzbekcha shakllari bilan yonma-yon berilgan.



7. Vuz, zags, dot, dzot, nep, radar singari qisqartmalar o'zbek tilida mustaqil, yaxlit so'z yoki termin sifatida lug'atdan o'rin olgan.

8. Omonimlar lug'atda alohida-alohida berilgan, bir-biridan rim raqami bilan ajratilgan.

9. Omoformlar ham rim raqamlari bilan ajratilib, alohida-alohida talqin qilingan.

10. Sinonimlar mutlaq ma'noniga ega bo'lsa, u holda izoh eng faol qo'llanadigan sinonimga berilib, kam ishlatiladigan yoki eskirgan ma'nodoshi so'z.ayn. o'zi. ishorasi orqali unga havola qilingan: Lokator. Radiolokator so'z.ayn.o'zi va h.k.

11. Antonim so'z yoki terminlar mustaqil tarzda berilgan bo'lsa-da, lekin ular bir-biriga havola qilinmaydi. Mabodo bunday xavola antonim so'zlardan birining yoki har ikkisinin ma'nosini ochishga, izohlashga yordam bersa, unday holatda ular bir-biriga havola qilingan: mikroskopik...; aksi –makroskopik va b.

12. O'zbek ilmiy terminlogiyasiga mansub bo'lgan qo'shma va murakkab qisqartma so'zlarning tarkibiy qismlari lug'atda bosh so'z tariqasida berilgan: avia-, avto-, agro-, geo-, gidro-, mikro-, moto-, radio-, tele-, ul'tra-, foto- va shu kabi.

13. Lug'atda keltirilgan so'zlarga o'rni bilan fiz., tex., mat., geol., astr., med., farm. singari belgilar qo'yilgan.

Ta'kidlash joizki, m azkur lug'atdan o'rin olgan va izohlangan baynalminal so'z yoki terminlarning muayyan adadi Mustaqillikdan so'ng jamiyatda yuz bergan tub o'zgarishlar oqibatida o'zbek tili so'z boyligidan chiqib ketdi yoki ular moziyda ajdodlar tomonidan qo'llangan leksik birliklar bilan almashtirildi.

Tarixda qo'llangan terminlar izohiga bag'ishlab mamlakatimizda nisbatan katta yoki kichik hajmdagi lug'atlar nashr qilindi. Shunday lug'atlar sirasiga X.YU.Bekmuhamedovning "Tarix terminlari izohli lug'ati" (Pedagogika oliy o'quv yurtlarining studentlari va o'rta maktab tarix o'qituvchilari uchun. Toshkent: O'qituvchi, 1978), M.Ismoilov, A.Sharopovlarnig "Tarix atamaları lug'ati".Toshkent: Akademnashr.2013, H.Dadaboevning "Tarixiy harbiy terminlar lug'ati" (Toshkent. 2007) singari asarlarni kiritish o'zini oqlaydi. Huquqshunoslik doirasida ham lug'atlar tuzish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilganini ta'kidlaymiz. Shu o'rinda G'.Ahmedov va H.Bektemirov tomonidan tuzilgan "Ruscha –o'zbekcha yuridik atamalar lug'ati"ning "Adolat" nashriyotida A.Saidov ma'sul muharrirligi ostida 2002 yili e'lon qilingani e'tirof etish maqsadga molik. Binobarin, bu lug'at tuzilishi va unda materiallarning berilishi jihatidan avvalgi lug'atlardan farq qiladi. Lug'atga qonunlar, huquqshunoslik, xalqaro huquq sohasida, huquqqa oid darsliklarda hamda ish yuritishda ishlatiladigan terminlar kiritilgan. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishda ham iqtisodiy, ham huquqiy terminlar bir-biri bilan bog'lanib ketganligi bois iqtisod va huquqqa oid chegaradosh atamalar ham lug'atdan o'rin olgan. Lug'atning afzalliklaridan biri – unda termsinlarning kirill yozuvidan tashqari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida ham berilishidir. Ushbu lug'atni yaratishda F.Bakirovning "Yuridik terminlar lug'ati" (Toshkent, 1959), "Yuridik atamalar va iboralar lug'ati" (Toshkent, 1993)dan foydalanilgan. Bu yo'nalishda so'nggi paytlarda e'lon

qilingan ishlardan biri sifatida Z.Muqimov va O.Tursunovalar tomonidan tuzilgan va Samarqandda 2007 yilda chop etilgan “O‘zbek davlatchiligida qo‘llangan tarixiy-huquqiy atamalar”ni keltirish mumkin. Lug‘at o‘zbek davlatchiligi tarixining turli davrlarida, turli tillarda qo‘llangan terminlar, ularning etimologiyasi (qaysi tilga xosligi), til va huquqqa oid ma'nolari izohlarini qamrab olgan.

O‘zbek lug‘atshunosligida tilshunoslikka oid terminologik lug‘atlar yaratish borasida ayrim ishlar qilindi. Chunonchi, A.Hojievning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da bugungi kunda til sohasida faol qo‘llanayotgan terminlarning izohi berilgan. D.Xudayberganovanning “Lingvokul’turologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati” (Toshkent, Tukron zamin ziyo, 2015)da tilshunoslikning yangi sohalaridan hisoblanmish lingvokul’turologiyaga oid 100 ga yaqin terminlar izohini topgan va h.k.

#### Nazorat savollari

1. Terminologiya qanday manbalar hisobiga shakllanadi?
2. Terminlogiyaning voqelanishida qanday jihatlar harakatga keladi?
3. Terminlarning qaror topishida umummilliy qatlamning roli qay darajada?
4. Ilmiy terminlar tizimida qadimgi sof turkiy qatlamning o‘rni bormi?
5. Terminologik leksika va umumadabiy leksika o‘rtasidagi munosabatga baho bering.
6. Terminlarning ma'no-mazmunini anglab yetishda terminologik lug‘atlarning qanday roli bor?
7. O‘tgan asrda o‘zbek tilida qanday fan sohaları bo‘yicha terminologik lug‘atlar yaratildi?
8. Istiqlool davri terminologik lug‘atlar yaratish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
9. Tarix terminlari lug‘atlari nima uchun zarur?
10. Tilshunoslik terminlari lug‘atlari yaratish bo‘yicha qilinayotgan sa'y harakatlardan xabardormiz?

#### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Ahmedov, Bektemirov H. Ruscha-o‘zbekcha yuridik atamalar lug‘ati. Toshkent,: Adolat, 2002.
2. Bekmuhamedov X.YU. Tarix terminlari izohli lug‘ati.Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
3. Dadaboev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati. Toshkent, 2007.
4. Ismoilov M., Sharopov A. Tarix atamaları lug‘ati.Toshkent, Akademnashr, 2013.
5. Muqimov Z., Tursunova O. O‘zbek davlatchiligida qo‘llangan tarixiy-huquqiy atamalar. Samarqand 2007.
6. Usmon O., Doniyorov. Ruscha-internatsional so‘zlar izohli lug‘ati. Toshkent: o‘zbekiston, 1972.

7. Xudayberganova D. Lingvokul'turologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent, 2015.

8. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: Fan, 2012.

## 9-MAVZU. ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK TERMINOLOGIYASI VA LEKSIKOGRAFIYASIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARNING AKS ETISHI. O'ZBEK TERMINOLOGIYASI TIZIMIDA ARXAIZMLARNING ROLI.

**Ishdan maqsad:** Mustaqillikdan keyin o'zbek tili terminologiyasi tizimidan o'rin egallagan arxaizmlar bo'yicha asosiy ko'nikmalarni takrorlash. O'zbek tili etimologik va entsiklopedik lug'atlarining tuzilish tamoyillarini anglab etish ko'nikmasiga ega bo'lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Ushbu amaliy ish davomida tinglovchi quyidagilarni bajarishi lozim:

- Mustaqillikdan so'ng o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimidan qayta o'rin olgan eski so'zlarni lug'atlardan topishi
- davlat qurilishiga doir arabcha o'zlashmalarni talqin qilishi
- totalitar tuzum mafkurasi bilan bog'liq ruscha, g'arbiy evropacha terminlarning iste'moldan chiqib ketish sabablarini izohlashi
- "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da turkiy so'zlarning izohlanish tamoyillarini sharhlashi
- "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da arabcha so'zlarning hosilalari xususida mulohaza yuritishi
- "Bobur entsiklopediyasi"ning tuzilish printsiplarini faktik misollar bilan yoritishi
- "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi"da keltirilgan maqolalar hajmining turfaligi sabablarini tushuntira olishi.

### **Ishni bajarish uchun namuna.**

#### **1-vazifa. O'zbek terminologiyasi tizimida arxaizmlarning o'рни**

Arxaizmlar ostida o'tmishda faol qo'llangan, biroq vaqt-zamon o'tishi bilan ishlatilish chastotasi o'ta susaygan yoxud o'rnini tub yoki o'zlashmalarga bo'shatib berishga majbur bo'lgan leksik birliklar nazarda tutiladi. Arxaizmlar o'zbek tili so'z boyligining shakllanish va rivojlanishining bizga ma'lum barcha davrlarida mavjud bo'lgan. Sobiq sho'rolar hukmronligi davrida o'zbek tili leksikasida qadimdan faol qo'llanib kelgan ko'pdan-ko'p so'zlar tub hamda arab va fors-tojik tilidan turli omillar oqibatida o'zlashgan so'z va iboralar ruscha yoki rus tili orqali G'arbiy Evropa tillaridan kirib kelgan leksik birliklar bilan almashtirilgan edi. Buning natijasida, eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tilida ishlatilgan minglab so'zlar, terminlar eskirgan, ya'ni arxaizmlar sirasiga kirib qolgan edi. O'zbek tilining 1980 yilda Moskvada nashr qilingan ikki tomdan iborat izohli lug'atida talaygina so'zlarga eskirgan belgisi qo'yilgani ma'lum.

O'zbekiston 1991 yilda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, respublika rahbariyati va hukumati oldida yuqoridagi nohaqlikka barham berish, moziyda ajdodlar tilida keng ko'lamda ishlatilgan so'z va terminlarga qayta jon ato etib, ularga til so'z boylikdan munosib o'rin berish, ya'ni eskirgan tamg'asi bosilgan leksik birliklarni ruscha va u orqali tilimizga zo'rma-zo'raki olib kirilgan g'arbiy evropacha so'z va istilohlar o'rnida qo'llash borasida jiddiy harakatlar amalga oshirildi. Buning natijasi o'laroq o'zbek tilining leksik tarkibi, xususan, terminlar tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan ushbu hodisa oqibatida ko'pdan-ko'p eskirgan so'zlar qaytadan muomalaga olib kirildi, va aksincha, totalitar tuzum va kommunizm qurish g'oyasi, mafkurasi bilan bog'liq tushunchalar insonlar turmush tarzidan chiqib ketgach, ularni ifodalovi ko'pgina so'z va terminlarni ishlatishga ortiqcha hojat qolmadi. Chunonchi, *demokratik tseentralizm, sotsializm, tarixiy materializm, ilmiy kommunizm* kabi termin va birikmalar tarix sahifasidan o'rin oldi. Aksincha, tom ma'nodagi erkin va ozod davlat barpo etish mafkurasi ostida o'z yo'lini tanlab olgan o'zbek xalqi turmush tarzida paydo bo'lgan mutlaqo yangi tushunchalar va realiyalar eski so'zlar qatoriga kiritilgan leksemalar yordamida ifodalandi. Bunday holat ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar tizimida ravshan ko'zga tashlandi. Davlat boshqaruv strukturasining ijrochi, qonun chiqaruvchi va nazorat qiluvchi organlariga taqsimlanishi shu sohalarga oid terminlar tizimining sof o'zbekcha yoki arabcha va forscha-tojikcha so'zlar hisobiga kengayishiga olib keldi. O'zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimidan *vazir, bosh vazir, vazirlik, viloyat, tuman, qo'rg'on, hokim, viloyat hokimi, tuman hokimi, hokimlik yoki hokimiyat, oqsaqol, qishloq oqsoqoli* singari arxaizmlar mustahkam o'rin oldi. *Jarayon, ma'ruza, mavzu, hujum, hamla, ilg'or, soqchi, malham, shifokor, bosh shifokor, saraton, qora son, hay'yat, bo'hron, muhr, yorliq, taftish* singari turfa sohalarga oid terminlar bugungi kunda millat vakillari tilida faol ishlatilmoqda. Xullas, istiqlool tufayli anchagina eskirgan so'z va istilohlar o'zbek tili lug'at tarkibidan qayta o'rin egalladi va ular millat vakillarining kundalik muloqati uchun zarur vazifani bajarishga xi zmat qilmoqda.

*Ishdan maqsad:* O'zbek tili ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy-texnikaviy va h.k terminlar tizimi bo'yicha asosiy ko'nikmalarni takrorlash. Tub terminlar, yasama terminlar (sodda yasama), qo'shma terminlar, termin-birikmalarni farqlash ko'nikmasiga ega bo'lish.

*Masalaning qo'yilishi:* Ushbu amaliy ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- tarixiy-an'anaviy terminlar xususida mulohaza yuritishi
- o'zbek terminologiyasining boyishiga sabab bo'lgan nisbatan yangi terminlarni mahalliy m atbuot organlarida qo'llanishini kuzatishi
- o'zbek tili asosida voqelangan tilshunoslik terminlarini izohlashi
- o'zlashmalar ishtirokida paydo bo'lgan ilmiy terminlarni izohlashi
- lug'atlar yordamida qurol-yarog' nomlarini ifodalovchi terminlarga baho berishi

- tibbiy terminlar tizimida qo'llanuvchi yunoncha va lotincha terminlarni farqlashi

-terminologik lug'atlardagi termin-birikmalarning o'rnini belgilashi.

### *Ishni bajarish uchun namuna*

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy-texnikaviy va h.k.terminlar tizimi.

O'zbek tilida hozirgi ilmiy-texnikaviy terminologiya o'z aksini keng qamrovda topgan.

O'zbek adabiy tilining ajralmas bo'lagi hisoblanmish terminologiya hozirgi o'zbek tilshunosligi fanining o'ta shahdam va dinamik tarzda taraqqiy etayotgan kategoriyalardan biri bo'lib, til lug'at boyligining muttasil o'sib hamda kengayib borishida tuganmas manba rolini bajaradi.

O'zbek tili ilmiy terminologiyasida terminlarning uch turi farqlanadi (Begmatov 1988; 140):

1) tarixiy-an'anaviy terminlar. Bu turga taalluqli so'zlar juda qadimdan termin vazifasida qo'llanib keladi va o'zbek terminologiyasining o'zagini tashkil qiladi. Masalan, to'siq, yulduz, soliq, kirim, pul, oldi-sotti, so'roq, tomir, oqsillar, isitma singari ko'pgina terminlar shular sirasidandir;

2) terminologik tizimning boyishiga bois bo'lgan nisbatan yangi termin-o'zlashmalar: skaner, sayt, karate, Internet auktsion, tomografiya, spektr, respirator, psixolingvistika, pragmatika, lingvokul'turologiya, semema, parodontoz, bakteriya, videotelefon, katapul'ta, radiolokator, tatami, pley-off va h.k.;

3) o'zbek tili so'z yasovchi qoliplari negizida hosil qilingan terminlarni ikki guruhga taqsimlash mumkin : a) ona tili materiallari negizida paydo bo'lgan terminlar: bog'lovchi, to'ldiruvchi, kesim, tenglik, qayta saylov, to'lov, boshqaruv, bo'g'ilish, titrash, boshqarma , yasama, qo'nish, qurilma, ko'chish, ikkilamchi bozor, qo'shimcha qiymat solig'i), terma jamoa va h.k.; b) o'zlashmalar ishtirokida yuzaga kelgan terminlar: raketaeltgich, avtomobil`sozlik, eshelonlashtirish, shturmchi, shifrlash, fotohujjat, komp'yutirlashtirish, kateterlash, bombaqidirgich, dzyudochi va h.k. Shubhasiz, o'zbek terminologiyasi ilmiy-texnikaviy inqilob davri deb nom olgan XX asrda ham miqdor, ham sifat tomondan jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Bunday o'zgarishlar intralingvistik va ekstralingvistik omillar ta'siri ostida umum o'zbek adabiy tilida sodir bo'lgan jarayonlar yordamida aniqlanadi. Mubolag'asiz ta'kidlash lozimki, o'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi (1989) hamda O'zbekiston Respublikasining Istiqlolni qo'lga kiritishi (1991) ilm-fan tilining keng qamrovli taraqqiyotini ta'minladi.O'zbek tili terminologik leksikasining faollashish jarayoni respublikaning davlat qurilishi, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyoti, shuningdek, ijtimoiy turmushning turfa jabhalariga doir talaygina yangi hodisa va tushunchalarni ifodalash zaruriyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli hozirgi paytda o'ta tezlik bilan to'lishib borayotgan qator terminologik tizimlarni yana ham takomillashtirish, yuqori bosqicha ko'tarish o'zbek terminologiyasi oldida turgan dolzarb, kechiktirib bo'lmaz masalalardan hisoblanadi.

Sir emaski, har qanday tilning lugʻat tarkibi uch nisbatan mustaqil, ya'ni noterminologik (mustaqil ma'noli soʻzlar va yordamchi soʻzlar), umumilmiy (ilmiy soha vakillariga xos maxsus leksemalar) hamda terminologik (aniq terminologik tizimlarga oid maxsus leksemalar) qatlamdan tashkil topadi (Mol` 1973; 41; Danilenko 1977; 27-20). Boshqa tillarda kuzatilgani kabi oʻzbek tili terminologik leksikasi asl oʻzbekcha (turkiycha), oʻzlashma (sugʻdcha, xitoycha, arabcha, forsha – tojikcha, moʻgʻulcha, Ruscha-baynalminal ), sodda, oddiy, barcha tomonidan kunda ishlatiladigan va azaldan qoʻllanishda boʻlgan umum adabiy til soʻz yasash modellari hamda termin yasash qoliplari asosida shakllangan.

Shuni alohida urgʻulash kerakki, oʻzbek tilining hozirgi soha terminologiyasi tizimida nisbatan ancha keyin yuzaga chiqqan terminlar safida qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski oʻzbek adabiy tilida qayd etilgan leksik birliklarning mavjudligi muhim ahamiyatga molikdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial-siyosiy jabhalarga doir hodisa va tushunchalarni ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiya xalq kundalik hayotida sodir boʻluvchi turfa voqealar bilan yaqindan bogʻlangan.

Davlatning siyosiy-ma'muriy qurilishi, tashqi siyosiy faoliyati, ijtimoiy tuzilishi va sinfiy tabaqalanishi, jamiyat a'zolariaro savdo-moliyaviy munosabatlar bilin mustahkam aloqaga ega ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiya tizimidagi leksik-semantik guruhlariga kiruvchi termin hamda termin-birikmalar oʻzbek tili lugʻat tarkibini toʻldirgan va boyitgan. XI-XII asrlarga xos qoraxoniylar davri qoʻlyozma manbalari qarindosh turkiy tillar, chunonchi, oʻzbek, uygʻur, turkman, qozoq, qirgʻiz va h.k. tillar tarixi bilan bevosita bogʻliq. XIII-XIV asrlarda Markaziy Osiyo va Oʻrta Osiyo, Dashti Qipchoq, Volgaboʻyi, Qirim hamda mamlyuklar hukmronlik qilgan Misrning keng mintaqalarida turfa mazmundagi, rang-barang janrdagi dunyoviy va diniy turkiy yozma yodgorliklar yaratilgan va shuhrat topgan. Mazkur nodir yozma obidalarining tili ulkan hududa istiqomat qiluvchi turkiy xalq (oʻzbek, turkman, qozoq, qirgʻiz, tatar, turk, ozarbayjon va h.k.)lar adabiy tillarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etganligi turkologiyada isbotini topgan. Qoraxoniylar davlati, Joʻji ulusining sharqiy qismi, ya'ni Xorazm va Chigʻatoy ulusi adabiy tillari zaminida shakllangan, hozirgi oʻzbek adabiy tilining oʻtmishdoshi hisoblanmish eski oʻzbek adabiy tili lisoniy xususiyatlari nuqtai nazaridan XI-XIV asr turkiy yozma manbalari tiliga juda yaqinligi bilan xarakterlanadi. Kezi kelganda buyuk Alisher Navoiy, uning salafarlari, Bobur kabi zamondoshlari shakllantirgan va rivojlantirgan eski oʻzbek adabiy tilining ba'zi turkologlar tomonidan chigʻatoy tili bilan ayni bir xil, ikkinchi guruh olimlar tomonidan chigʻatoy adabiy tilidan farqlanuvchi jonli xalq tili, uchinchi mutaxassislar tomonidan esa chigʻatoy adabiy tilining varianti, deb qaralishini takroran ta'kidlamoqchimiz. Biz tomondan oʻz vaqtida eski turkiy til va eski oʻzbek adabiy tilida qoʻllanishda boʻlgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlarni qiyosiy-statistik tahlili amalga oshirilgan edi. Tahlil XI-XIV asr turkiy obidalar tilida qayd etilgan 700 ta ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlardan 645 tasi oʻzbek adabiyoti klassiklari asarlari tilida deyarli fonetik va semantik oʻzgarishlarsiz qoʻllanishda davom etganini koʻrsatgan edi.

Eski turkiy til hamda eski o'zbek adabiy tiliga xos ijtimoiyo-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlarning salmoqli miqdori hozirgi qarindosh turkiy tillarning terminologik leksikasiga mutanosib tushadi. Turkiy leksik (terminologik) materialning umumiyliigi haqida aniq-ravshan tasavvurga ega bo'lish maqsadida biz tomondan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlardan 503tasi ajratib olingan va ular ba'zi qarindosh turkiy tillarning muvofiq leksik (terminologik) birliklari bilan qiyoslangan edi. Taqqoslash natijasida XI –XIV asr yozma manbalari tilida ishlatilgan 503 termindan 348 tasi uyg'ur tilida, 230 tasi qozoq tilida, 244 tasi qirg'iz tilida, 370 tasi turk tilida, 390 tasi o'zbek tilida qo'lanishda qolayotgani aniqlandi. Hatto ushbu taxminiy tahlil ham eski turkiy til davri qo'lyozma manbalari o'zbek tili qatori boshqa turkiy tillar terminologiyasining shakllanishi va qaror topishida asos vazifasini o'taganligidan dalolat beradi. Muayyan ashyoviy materiallarga murojaat etamiz.

Harbiy leksika o'zbek tilining qadimiy qatlamlaridan biri bo'lib, uning hamma rivojlanish bosqichlarida kuzatiladi. Umumadabiy leksikaning qatlamlaridan biri sanalmish harbiy terminlar tizimida ichki va tashqi omillar ta'siri ostida shartlangan o'zbek tilining shakllanish xususiyatlari o'z ifodasini topgan.

O'zbek tilining ko'p asrlik taraqqiyoti davomida harbiy terminlarning ba'zilari eskirgan va tilning leksik xazinasidan tushib qolgan. Ularning o'rniga o'zbek tilini boyitgan o'z hamda o'zlashma istilohlar qo'llangan. Harbiy terminologiyaning tarixiy-etimologik tahlili uning shakllanishi va rivojlanishida asl o'zbek(turkiy)cha leksik birliklar qatori arab, fors-tojik, mo'g'ul va rus tillaridan o'zlashgan so'zlarining ham salmoqli o'zni borligidan guvohlik beradi. Hozirgi o'zbek harbiy terminologiyasi qadimiyligi VII-XIX asrlarga borib taqaluvchi ko'pgina so'zlarni o'z tizimida saqlab qolishga erishgan. Bunday terminlar sirasiga: 1) askariy qism va qo'shilmalar, jangchilar, asosiy harbiy harakat va amaliyotlar nomlarini ifodalovchi qamal, yurish, kechuv, ko'rik, pistirma, qo'shin, ilg'or, soqchi, qorovul, ayg'oqchi, to'pchi, dengizchi, chopar, mergan, qochoq va h.k.; 2) qurol-yarog' va anjomlar nomini anglatuvchi to'p, qurol-yarog', kema, o'q, qo'ndoq, qalqon, sol, kiyim, quloqchin va h.k.; 3) urush, tinchlik, g'alaba, mag'lubiyat kabi mavhum ma'noni ifodalovchi leksik birliklar oiddir. Tarixiy qadimiyligi bir necha yuz yillar bilan o'lchanuvchi zoologik terminologiya ham hozirgi kunlarga qadar ma'lum sondagi so'zlarni tizimida asrab qolishga muvaffaq bo'lgan. Sinchkovlik bilan qilingan tahlilga muvofiq XI-XIV asr eski turkiy til yozma obidalari tilida qo'llangan 432 ta zoonimning 365 tasi asl turkiycha, 33 tasi forsha-tojikcha, 26 tasi arabcha, 5 tasi mo'g'ulcha, 3 tasi esa hind-yevropacha ekanligi aniqlangan. Sof turkiycha 365 zoonimlar tub (158) hamda yasamalarga (207) taqsimlanadi. Yasama zoonimlarning 132 tasi morfologik, 59 tasi sintaktik, 5 tasi esa semantik yo'l bilan hosil qilingan. Chunonchi, to'ng'iz, bo'rsiq, biya, kiyik, quyon, shunqor, g'oz, o'rdak, burga, qo'ng'iz singari talay leksik birliklar hozirgi o'zbek zoologik terminologiyasi tarkibida faol qo'llanmoqda (Abdushukurov 1998; 1).

Ilk marta VII-XIV asrlar yozma yodgorliklari matlarida qayd etilgan elchi, elchilik, elchixona, yorliq, sulh, sulhnoma, xabar, josus, tashrif, ijozat, qabul, noma, muhr, dushmanlik, nishon va boshqa asl o'zbekcha (turkiycha) hamda

boshqa tillardan o‘zlashgan so‘z va so‘z birikmalari zamonaviy o‘zbek diplomatik terminologiyasi tizimida keng ishlatilmoqda ( Dadabaev 1994 ;4-13.).

Ayni chog‘da, hozirgi o‘zbek diplomatik terminologiyasi taraqqiyotini uning tarkibiga kirib kelayotgan, bugungi jahon dimlomatiyasi sohasida mavjud tushuncha va mazmunlarni ifodalovchi leksemalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hozirgi o‘zbek dimlomatik terminologiyasi genetik jihatdan turli-tumandir. Uning safida azaldan qolib kelgan, umumturkiy terminlar qatori, sharq va Yevropa (rus, ingliz, nemis) tillaridan turli zamonlarda kirib kelgan o‘zlashmalar ham o‘z aksini topgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” materiallari asosida qilingan statistik tahlil diplomatik terminlarning umum o‘zbek adabiy tilida qo‘llanish darajasi chastotasining pastligini ko‘rsatdi. Xususan, nomi tilga olingan izohli lug‘atdan o‘rin olgan 60.000 so‘zlarning bor-yo‘g‘i 410 tasini, yani 0,7%ini diplomatik terminlar tashkil qiladi, xolos (Abdullaeva 2003;160).

Ma'lumki, juda qadim zamonlardan insonlarning vaqtni aniqlash, bir makondan boshqa joyga harakat qilish, sayohatlarga borish ehtiyoji natijasida osmon va undagi jismlar, yoritqichlar harakatini o‘rganuvchi maxsus fan, ya'ni astronomiya shakllangan. Astronomiya fanining asrlar mobaynidagi taraqqiyoti natijasida ushbu sohaga tegishli leksemalar mikrotizimi shakllandi.

Hozirgi o‘zbek tili astronomik terminologiyasi tizimi X-XIV asrlardan e'tiboran muomalaga kirgan nujum ilmi, munajjim, yulduz, sayyora, usturlob, Hulkar, Arslon, burj, Qovg‘a, Yetagan, Cho‘lpon, Mushtariy singari qadimiy astroponim (kosmonim)larni saqlab qolishga erishgan ( Dadabaev 1994; 32-43).

Astronomiya va kosmonavtika fanlarining so‘nggi vaqtlarda jadal rivojlanishi,tabiiy, o‘z ifodasini hozirgi o‘zbek adabiy tili so‘z boyligida ham topdi. Uran, Neptun, Pluton, asteroid, Ulug‘bek asteroidi, Osiyo asteroidi, Galley kometasi, Neuymin kometasi, selenonim, Kirill krateri kabi astroponimlar ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda faol ishlatilmoqda, darslik, qo‘llanma hamda turli xarakterdagi lug‘atlarda qayd etilmoqda ( Primov 2009).

Xullas, genetik ko‘rinishi nuqtai nazaridan o‘zbek tilida qo‘llanuvchi terminlar: a) terminologiya tizimiga tayyor til birligi sifatida qabul qilingan so‘zlar; b) maxsus nom tarzida yasalgan so‘zlarga taqsimlanadi. Bunday ko‘rinishni muayyan lisoniy hodisa va vaziyatlarning mahsuli, deb baholash kerak bo‘ladi.

### ***Nazorat savollari***

1. O‘zbek tili ilmiy terminlarining nechta turi mavjud?
2. O‘zbek tili materiallari asosida paydo bo‘lgan terminlar nechta guruhga oid?
3. Istiqloldan keyin ilm-fan tilining taraqqiyotida “Davlat tili haqida”gi Qonunning roli bormi?
4. Tilning lug‘at tarkibi qancha mustaqil qatlamdan tashkil topadi?
5. XI-XIV asrlarda ishlatilgan IS terminlarning hozirgi qardosh turkiy tillarda qo‘llanish darajasi qanday?



6. Hozirgi o'zbek tili harbiy terminologiyasi tizimida VII-XIX asrlarga oid istilohlar saqlanib qolganmi?
7. O'zbek tili diplomatik terminologiyasi tizimida ko'hna so'zlarning ulushi qay darajada?
8. Ismlardan sifat-terminlar yasovchi mahsuldor qo'shimchalar xususida mulohaza yuritish.
9. Sifat-termin yasashda o'zlashma qo'shimchalarning o'rnini qay darajada?
10. -(v)iy qo'shimchasining hozirgi paytda termin yasashdagi ishtirokiga to'xtalish.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1988.
2. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamaları. Toshkent: Fan, 2002.
3. Dadabaev X.A. Obshestvenno-politicheskaya i sotsial'no-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pis'mennix pamyatnikax XI-XIV vv. -Tashkent: Yozuvchi, 1991.
4. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opit lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.
5. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.

### **10-MAVZU. O'ZBEK TILI ETIMOLOGIK VA ENTSIKLOPEDIK LUG'ATLARINING TUZILISH PRINTSIPLARI.**

**Ishdan maqsad:** Mustaqillikdan keyin o'zbek tili terminologiyasi tizimidan o'rin egallagan arxaizmlar bo'yicha asosiy ko'nikmalarni takrorlash. O'zbek tili etimologik va ensiklopedik lug'atlarining tuzilish tamoyillarini anglab etish ko'nikmasiga ega bo'lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Ushbu amaliy ish davomida tinglovchi quyidagilarni bajarishi lozim:

- Mustaqillikdan so'ng o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimidan qayta o'rin olgan eski so'zlarni lug'atlardan topishi
- davlat qurilishiga doir arabcha o'zlashmalarni talqin qilishi
- totalitar tuzum mafkurasi bilan bog'liq ruscha, g'arbiy evropacha terminlarning iste'moldan chiqib ketish sabablarini izohlashi
- "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da turkiy so'zlarning izohlanish tamoyillarini sharhlashi
- "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da arabcha so'zlarning hosilalari xususida mulohaza yuritishi
- "Bobur ensiklopediyasi"ning tuzilish printsiplarini faktik misollar bilan yoritishi

- “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da keltirilgan maqolalar hajmining turfaligi sabablarini tushuntira olishi.

### 1-vazifa.O‘zbek tili etimologik va ensiklopedik lug‘atlarining tuzilish printsiplari

Avvalgi mavzulardan birida etimologik va ensiklopedik lug‘atlar tuzish borasida o‘zbek leksikografiyasi qo‘lga kiritgan yutuqlarni tilga olgan edik. Ensiklopedik lug‘atlar tuzish bo‘yicha qilingan ishlar o‘zbek tilining etimologik lug‘atini yaratishga nisbatan ancha ilgarilab ketganligi ayni haqiqat. Bu borada shubhaga o‘rin yo‘q. Bunday holatning o‘ziga xos ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablari mavjud. Madomiki, o‘zbek tili etimologik lug‘atlarining tuzilish printsiplari xususida fikr yuritilar ekan, biz albatta hozircha o‘zbek tilida yaratilgan yagona etimologik lug‘at, ya’ni Sh.Rahmatullaev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”ga murojaat qilamiz.

Lug‘at maqolalari talqin qilinayotgan so‘z ilan yoki havola so‘z bilan boshlanadi va ular qat’iy alifbo tartibida joylanib, bosh harflar bilan terilgan.

Talqin qilinayotgan so‘z va havola so‘z amaldagi o‘zbek kirill alifbosida yozilgan, e, yo, yu, ya harflari o‘rniga ikki tovushni ifodalashiga ko‘ra ikki harf yozilgan; aksincha, bir tovushni ifodalashiga ko‘ra ng harf tizmasi o‘rniga n harfi berilgan: **oyoq, uyal-; an, jan, son** kabi.

Lug‘at maqolasida talqin qilinayotgan so‘zlarni va ularning qismlarini yozishda kirill alifbosidan turkiy lug‘atshunoslik an‘analariga ko‘ra quyidagicha foydalanilgan:

1) A harfi bilan qadimgi turkiy tildagi biroz keng unli tovush ifodalangan: bayraq va h.k;

2) Y harfi bilan oldingi qator unli tovush ifodalangan: **bayram** va h.k;

3) O harfi bilan ortqi qator o‘rta keng unli tovush ifodalangan: **boyin** va h.k.

Bosh so‘z fe‘l bo‘lgan taqdirda, turkiy tillar lug‘atlarida mavjud an‘anaga binoan ketiga chiziq (-) qo‘yilgan: **bela-, bura-** va h.k. Agar talqin qilinayotgan so‘z ko‘p ma’noli bo‘lsa, asosan bosh ma’nosi, zarur o‘rinlarda ikki ma’nosi berilgan. Ma’no tariflari O‘zbek tilining izohli lug‘atiga suyanan holda keltirilgan. Ma’no ta’rifidan keyin ayni shu ma’noni tasdiqlovchi jumla keltiriladi. Bu jumla kursiv bilan yozilib, uning tarkibidagi so‘z-misol yoyib terilgan. Shunday keyin etimologik talqin boshlanadi. Talqin qilinayotgan so‘z hozirgi o‘zbek tilida ham, qadimgi turkiy tilda ham tub bo‘lsa, bunday so‘z birinchi navbatda tovush tarkibi jihatidan yuz bergan o‘zgarishlar ko‘rsatilgan. Bknday tovush o‘zgarishlari tarkibili so‘zlarda ham ta’kidlangan.

Etimologik talqini berilayotgan so‘z ma’no jihatidan o‘zgargan bo‘lsa, bunday ma’no taraqqiyoti qanday ma’no asosida ro‘y bergani izohlangan. Yasama so‘zlar talqin qilingan maqolalarda yasash qanday ma’nodan amalga oshirilgani ko‘rsatilgan.

Etimologik talqin berilayotgan so‘zlar doirasidagi omonimlar rim raqalari qo‘yib farqlangan: **o‘t -1, o‘t-P, o‘ta-1, o‘ta-P** singari.

Qo‘shimcha yordamida yasalgan so‘zdan keyin “yasalgan”, grammatik shakl yuzaga kelsa “hosil qilingan” so‘zlari ishlatilgan. Asos bila qo‘shimcha orasiga

barobar(q) alomati qo'yilgan. So'z qismlari orasidagi munosabatni ko'rsatishda qavslardan istifoda etilgan. Tovush jihatidan o'zgargan so'zlarning oldingi va keyingi shakllari o'tish belgisi (>) yordamida berilgan. Izohlanayotgan so'z, asos va qo'shimchalar qora kichik harflarda keltirilgan. Etimologik lug'at xususidagi fikrlarni undan keltirilgan quyidagi namuna bilan yakunlaymiz : ARIQ "kichik oqin suv yo'li". **Bahorda bu ariqlarga suv sig'may ketadi.** Bu ot asl qadimgi turkiy tildagi "oq-" ma'nosini anglatgan **a:r-** fe'lidan **-(o')q** qo'shimchasi bilan yasalgan (ESTYa,1,188); keyinroq **a:** unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan (Devon,1,96); o'zbek tilida **a** unlisi **a** unlisiga almashgan, **o'** unlisining qattiqlik belgisi yo'qolgan: **a:rQo'qqa:ro'q>ariq** (1,32).

Entsiklopedik lug'atlarning tuzilishi xususida so'z borgan kezda birinchi galda "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", "Bolalar ensiklopediyasi". "Toshkent ensiklopediyasi" kabi qomusiy asarlarni nazarda tutamiz. O'zbek lug'atshunoslari erishgan so'nggi yutuqlardan biri, shubhasiz, 2014 yilda Sharq nashriyotida chop etilgan "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi" asaridir. Sal kam 64 bosma taboqdan iborat bu asar Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi tomonidan tayyorlangan bo'lib, Bobur merosini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish, tizimga solish, izohlar bilan ta'minlash va targ'ib etish maqsadida nashr qilindi. Bobur ensiklopediyasi (BE) maqolalarini tayyorlashda umuman ilmiy ensiklopediyalar uchun qabul qilingan yondashuv va bayon uslubiga rioya etilgan. So'zlarni berishda ularni asliga yaqinlashtirishga e'tibor qaratilgan. Arabcha izofalarni berishda o'zbekcha talaffuzga mos variant sifatida *Xazoyinul-ma'oniyy* kabi shakl qabul qilingan. Lug'atda shaxslar haqidagi maqolalarni nomlashda quyidagi qoidalarga asoslanilgan: 1) shaxsni identifikatsiyalash – nom "BE"ning qae'rida tilga olingan bo'lmasin, tegishli shaxs kim ekanligini bir qiymatli tarzda aniqlash mumkin bo'lishi: Jahongir – Amir Temurning o'g'li, Jahongir mirzo Boburning ukasi, Jahongirshoh – Boburning 4-avlodi va h.k.; 2) birinchi printsipga amal qilingan holda shaxsning ismi imkon qadar ixcham bo'lishi (Amir Temur, Alisher Navoiy, Ibrohim Soru va h.k.; 3) *mir, mirzo, sayyid, xoja* kabi so'zlar ismlarning sifati yoki xitob(titul) bo'lganda ajratilib, ismning tarkibiy qismi bo'lsa, qo'shib yozish; 4) nom identifikatsiyasini yanada aniqlashtirish maqsadida unga nisba, laqab kabi qo'shimchalar maqola nomidan so'ng, to'liqroq ismi sharif va boshqa ma'lumotlar qavs ichida keltirilgan. Amaldagi qoidalardan farqli ravishda ( lekin ingliz tilida qabul qilinganidek) xito, laqab kabi qo'shimchalar ismning tarkibiy qismi sifatida bosh harflar bilan berilgan. Bu qoida sulolalar nomiga nisbatan ham qo'llangan. M.: **SAYYIDQOSIM ESHIKOG'A** (412), **DO'ST MUHRDOR** (231) va h.k. Bibliografik material o'zbek o'quvchisiga mo'ljallangan bo'lib, mavzuga tegishli adabiyotni qamrab olishni maqsad qilmagan. U asosan, maqolaga qo'shimcha vazifani o'tash uchun yo'naltirilgan. Biografik maqolalarga ilova qilingan asarlar ro'yxati asosan, Boburga bag'ishlangan yoki boburshunoslikka aloqador. Nazariy ahamiyatga molik, maxsus tadqiqot talab qilgan maqolalarda ayrim bibliografik ma'lumotlar matn ichida ko'rsatilgan. So'z va iboralarning asl variantlari va boshqa ba'zi ma'lumotlar "So'zlik" deb nomlangan ilova tarzida berilgan. BE imkon darajasida illyustratsiya va xaritalar bilan ta'minlangan. BE Zahiriddin Muhammad Bobur ismining kirill va lotin alifbosidagi nashrlarda

yoʻzilishi, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati mavzusida yoʻqlangan dissertatsiyalar, “Boburnoma” xronologiyasi, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida arabcha ibora va jumlarlar, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining Oʻzbekistonda nashr etilishi va “Bobur entsiklopediyasi soʻzligi” kabi ilovalar, Ismlar koʻrsatkichi, “BE”ga maqola, xarita, bibliografik maʼlumot va illyustratsiya tayyorlaganlar hamda rus va ingliz tilidagi Rezyume bilan yakunlangan.

Istiqlol yillarida Amir Temur tarixi bayon etilgan koʻpgina manbalar dunyo yuzini koʻrdi. Chunonchi, Nizomuddin Shomiy, Gʻiyosuddin Ali, Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Hofizi Abroʻ, Muinuddin Natanziy, Fasih Xavofiy, Abrurazzoq Samarqandiy, Ulugʻbek mirzo, Xondamir, Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriy, Zahiruddin Muhammad Bobur, Muhammad Haydar mirzo kabi muarrixlarning bebaho asarlari xalqimizga taqdim etildi.

Nomlari qayd etilgan muarrixlarning asarlarida Amir Temur hayoti va faoliyatiga qaysidir darajada aloqador boʻlgan koʻpdan-koʻp insonlar, xususan, mashhur shaxslar bilan bir qatorda oddiy xalq vakillari, tasodifiy uchragan kishilar ismlari, nasabi, mansabu lavozimi, kasbi kori, jamiyatda tutgan oʻrni, feʼl – atvori, hulqi va h.k. xususida qimmatli maʼlumotlar keltirilgan. Ushbu maʼlumotlarga suyangan holda Temurbek davrdoshlari portretini chizish, ularning insoniy fazilatlari, ichki va tashqi dunyosi haqida tasavvurga ega boʻlish mumkin boʻladi. Shularni hisobga olib biz tomondan “Amir Temur zamondoshlarining moʻʼjaz entsiklopediyasi”ni yaratildi.

Ilmiy entsiklopediyalar talablariga rioya qilingan holda tuzilgan mazkur lugʻatdan oʻrin olgan maqolalar hajman, tabiiy, bir biridan farq qiladi. Zotan, muayyan shaxs toʻgʻrisidagi maqolaning katta yoki kichikligi shu shaxsga doir maʼlumotning tarixiy manbalarda nisbatan keng yoxud oʻta qisqa berilgani bilan izohlanadi.

Lugʻat alifbo tartibida tuzilgan boʻlib, ichki alifbo tartibiga ham rioya qilindi. Shu oʻrinda oʻquvchi diqqatini bir jihatga qaratishni maqsadga muvofiq deb bildik. Lugʻat materiallarini tegishli manbalardan toʻplash, tartibga solish jarayonida biron bir shaxsning ismi, sharifi, qaysi qavmga mansubligini ifodalovchi maʼlumotlarning rang- barangligi, baʼzan ular oʻrtasida tafovutlarning borligi koʻzga tashlandi. Shunday oʻrinlarda antroponimning varianti qavs ichida keltirildi: *Ali(Alibek)*, *Boysungʻur(Boysunqur)*, *Mironshoh(Amiranshoh)* va h.k.

Lugʻatdan oʻrin olgan shaxslarning sulolasi: *Shohrux mirzo*, *Iskandar oʻgʻlon*, *Saroy Mulk xonim*, *Sulton Baxt begim*, mansabi, lavozimi, rutbasi: *Abbos bahodur*, *Kalon tavachi*, *Lolam qurchi*, kasbi: *Mavlono Badruddin munajjim*, *Toʻkal bavurchi*, qavmi, urugʻi: *Yodgor arlot*, *Bahrom jaloyir*, *Bayon qavchin*, *Qizil Mir Ali oʻyrat*, *Zindachashm apardi*, *Idiku mangʻit*, *Elchiboʻgʻa oʻzbek*, laqabi: *Apachi kalta* va h.k. kichik harflar bilan yozildi.

Lugʻatdagi *Xudaydodi Husayniy*, *Shamsuddin Abbos*, *Sayyidxojai Shayx Ali bahodur* singari birikmalarni *Husaynning oʻgʻli Xudaydod*, *Abbosning oʻgʻli Shamsuddin*, *Shayx Ali bahodurning oʻgʻli Sayyidxoja* tarzida tushunmoq lozim.

#### **Nazorat savollari**

1. Etimologik lugʻatlar tuzish ishi qaerda va qachon boshlangan?
2. Qaysi qardosh turkiy tillarning etimologik lugʻatlari tuzilgan?

3. “Turkiy tillarning etimologik lug‘ati” kim tomondan tuzilgan?
4. “Turkiy tillar etimologik lug‘ati”ning keyingi yillarda nashr qilingan jildlari xususida mulohaza yuriting.
5. Turk tilining etimologik lug‘atini kim yaratgan?
6. Etimologik lug‘atning tuzilish printsipi qanday va boshqa lug‘atlardan nimasi bilan farqlanadi?
7. O‘zbek tilining etimologik lug‘atini tuzishda qanday yo‘l tanlangan?
8. Entsiklopedik lug‘atlar tuzish ibtidosi qaysi davrga borib taqaladi?
9. O‘zbek tilidagi dastlabki entsiklopedik lug‘ati qachon tuzilgan?
10. Sobiq sho‘rolar davrida tuzilgan “O‘zbek sovet entsiklopediyasi” xususida baxs yuriting.
11. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” ning mamlakat ijtimoiy-madaniy hayotida tutgan o‘rni qanday?
12. “Bobur entsiklopediyasi” ning Bobur hayoti va ijodini o‘rganish, targ‘ib qilish borasidagi ahamiyatini ochib bering.

### **Foydalanilgan adabiyot**

- Zahiriddin Muhammad Bobur entsiklopediyasi. Toshkent: Sharq. 2014.
- Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 1-Sh. Toshkent: Universitet, 2000-2009.
- Sevortyan E.V. Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazo‘kov. 1-UP. M., 1974-2014.
- O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi. 1-XP. Toshkent. 2000-2006.

*Ishdan maqsad:* Mustaqillikdan keyin o‘zbek tili terminologiyasi tizimidan o‘rin egallagan arxaizmlar bo‘yicha asosiy ko‘nikmalarni takrorlash. O‘zbek tili etimologik va entsiklopedik lug‘atlarining tuzilish tamoyillarini anglab yetish ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

*Masalaning qo‘yilishi:* Ushbu amaliy ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimidan qayta o‘rin olgan eski so‘zlarni lug‘atlardan topishi
- davlat qurilishiga doir arabcha o‘zlashmalarni talqin qilishi
- totalitar tuzum mafkurasi bilan bog‘liq ruscha, g‘arbiy yevropacha terminlarning iste‘moldan chiqib ketish sabablarini izohlashi
- “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da turkiy so‘zlarning izohlanish tamoyillarini sharhlashi
- “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da arabcha so‘zlarning hosilalari xususida mulohaza yuritishi
- “Bobur entsiklopediyasi”ning tuzilish printsiplarini faktik misollar bilan yoritishi
- “O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi”da keltirilgan maqolalar hajmining turfaligi sabablarini tushuntira olishi.

*Ishni bajarish uchun namuna.*

O'zbek tili etimologik va ensiklopedik lug'atlarining tuzilish printsiplari

Avvalgi mavzulardan birida etimologik va ensiklopedik lug'atlar tuzish borasida o'zbek leksikografiyasi qo'lga kiritgan yutuqlarni tilga olgan edik. Ensiklopedik lug'atlar tuzish bo'yicha qilingan ishlar o'zbek tilining etimologik lug'atini yaratishga nisbatan ancha ilgarilab ketganligi ayni haqiqat. Bu borada shubhaga o'rin yo'q. Bunday holatning o'ziga xos ob'ektiv va sub'ektiv sabablari mavjud. Madomiki, o'zbek tili etimologik lug'atlarining tuzilish printsiplari xususida fikr yuritilar ekan, biz albatta hozircha o'zbek tilida yaratilgan yagona etimologik lug'at, ya'ni SH.Rahmatullaev tomonidan tuzilgan "O'zbek tilining etimologik lug'ati"ga murojaat qilamiz. Lug'at maqolalari talqin qilinayotgan so'z bilan yoki havola so'z bilan boshlanadi va ular qat'iy alifbo tartibida joylanib, bosh harflar bilan terilgan. Talqin qilinayotgan so'z va havola so'z amaldagi o'zbek kirill alifbosida yozilgan, ye, yo, yu, ya harflari o'rniga ikki tovushni ifodalashiga ko'ra ikki harf yozilgan; aksincha, bir tovushni ifodalashiga ko'ra ng harf tizmasi o'rniga n harfi berilgan: oyoq, uyal-; an, jan, son kabi. Lug'at maqolasida talqin qilinayotgan so'zlarni va ularning qismlarini yozishda kirill alifbosidan turkiy lug'atshunoslik an'analariga ko'ra quyidagicha foydalanilgan:

- 1) A harfi bilan qadimgi turkiy tildagi biroz keng unli tovush ifodalangan: bayraq va h.k;
- 2) Y harfi bilan oldingi qator unli tovush ifodalangan: bayram va h.k;
- 3) O harfi bilan ortqi qator o'rta keng unli tovush ifodalangan: boyin va h.k.

Bosh so'z fe'l bo'lgan taqdirda, turkiy tillar lug'atlarida mavjud an'anaga binoan ketiga chiziq (-) qo'yilgan: bela-, bura- va h.k. Agar talqin qilinayotgan so'z ko'p ma'noli bo'lsa, asosan bosh ma'nosi, zarur o'rinlarda ikki ma'nosi berilgan. Ma'no tariflari O'zbek tilining izohli lug'atiga suyangen holda keltirilgan. Ma'no ta'rifidan keyin ayni shu ma'noni tasdiqlovchi jumla keltiriladi. Bu jumla kursiv bilan yozilib, uning tarkibidagi so'z-misol yoyib terilgan.

Shunday keyin etimologik talqin boshlanadi. Talqin qilinayotgan so'z hozirgi o'zbek tilida ham, qadimgi turkiy tilda ham tub bo'lsa, bunday so'z birinchi navbatda tovush tarkibi jihatidan yuz bergan o'zgarishlar ko'rsatilgan. Bunday tovush o'zgarishlari tarkibili so'zlarda ham ta'kidlangan.

Etimologik talqini berilayotgan so'z ma'no jihatidan o'zgargan bo'lsa, bunday ma'no taraqqiyoti qanday ma'no asosida ro'y bergani izohlangan. Yasama so'zlar talqin qilingan maqolalarda yasash qanday ma'nodan amalga oshirilgani ko'rsatilgan.

Etimologik talqin berilayotgan so'zlar doirasidagi omonimlar rim raqalari qo'yib farqlangan: o't -1, o't-P, o'ta-1, o'ta-P singari.

Qo'shimcha yordamida yasalgan so'zdan keyin "yasalgan", grammatik shakl yuzaga kelsa "hosil qilingan" so'zlari ishlatilgan. Asos bila qo'shimcha orasiga barobar(q) alomati qo'yilgan. So'z qismlari orasidagi munosabatni ko'rsatishda qavslardan istifoda etilgan. Tovush jihatidan o'zgargan so'zlarning oldingi va keyingi shakllari o'tish belgisi (>) yordamida berilgan. Izohlanayotgan so'z, asos va qo'shimchalar qora kichik harflarda keltirilgan. Etimologik lug'at xususidagi

fikrlarni undan keltirilgan quyidagi namuna bilan yakunlaymiz : ARIQ “kichik oqin suv yo‘li”. Bahorda bu ariqlarga suv sig‘may ketadi. Bu ot asl qadimgi turkiy tildagi “oq-“ ma‘nosini anglatgan a:r- fe‘lidan –(i)q qo‘shimchasi bilan yasalgan (ESTYA,1,188); keyinroq a: unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan (Devon,1,96); o‘zbek tilida a unlisi a unlisiga almashgan, i unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: a:rQiqqa:riq>ariq (1,32).

Entsiklopedik lug‘atlarning tuzilishi xususida so‘z borgan kezda birinchi galda “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, “Bolalar ensiklopediyasi”. “Toshkent ensiklopediyasi” kabi qomusiy asarlarni nazarda tutamiz. O‘zbek lug‘atshunoslari erishgan so‘nggi yutuqlardan biri, shubhasiz, 2014 yilda Sharq nashriyotida chop etilgan “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi” asaridir.

Sal kam 64 bosma taboqdan iborat bu asar Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi tomonidan tayyorlangan bo‘lib, Bobur merosini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish, tizimga solish, izohlar bilan ta‘minlash va targ‘ib etish maqsadida nashr qilindi. Bobur ensiklopediyasi (BE) maqolalarini tayyorlashda umuman ilmiy ensiklopediyalar uchun qabul qilingan yondashuv va bayon uslubiga rioya etilgan. So‘zlarni berishda ularni asliga yaqinlashtirishga e‘tibor qaratilgan.

Arabcha izofalarni berishda o‘zbekcha talaffuzga mos variant sifatida Xazoyinul-ma‘oniy kabi shakl qabul qilingan. Lug‘atda shaxslar haqidagi maqolalarni nomlashda quyidagi qoidalarga asoslanilgan:

1) shaxsni identifikatsiyalash – nom “BE”ning qayerida tilga olingan bo‘lmasin, tegishli shaxs kim ekanligini bir qiymatli tarzda aniqlash mumkin bo‘lishi: Jahongir – Amir Temurning o‘g‘li, Jahongir mirzo Boburning ukasi, Jahongirshoh – Boburning 4-avlodi va h.k.;

2) birinchi printsipga amal qilingan holda shaxsning ismi imkon qadar ixcham bo‘lishi (Amir Temur, Alisher Navoiy, Ibrohim Soru va h.k.;

3) mir, mirzo, sayyid, xoja kabi so‘zlar ismlarning sifati yoki xitob(titul) bo‘lganda ajratilib, ismning tarkibiy qismi bo‘lsa, qo‘shib yozish;

4) nom identifikatsiyasini yanada aniqlashtirish maqsadida unga nisba, laqab kabi qo‘shimchalar maqola nomidan so‘ng, to‘liqroq ismi sharif va boshqa ma‘lumotlar qavs ichida keltirilgan. Amaldagi qoidalardan farqli ravishda ( lekin ingliz tilida qabul qilinganidek) xito, laqab kabi qo‘shimchalar ismning tarkibiy qismi sifatida bosh harflar bilan berilgan. Bu qoida sulolalar nomiga nisbatan ham qo‘llangan. M.: SAYYIDQOSIM ESHIKOG‘A (412), DO‘ST MUHRDOR (231) va h.k. Bibliografik material o‘zbek o‘quvchisiga mo‘ljallangan bo‘lib, mavzuga tegishli adabiyotni qamrab olishni maqsad qilmagan. U asosan, maqolaga qo‘shimcha vazifani o‘tash uchun yo‘naltirilgan. Biografik maqolalarga ilova qilingan asarlar ro‘yxati asosan, Boburga bag‘ishlangan yoki boburshunoslikka aloqador. Nazariy ahamiyatga molik, maxsus tadqiqot talab qilgan maqolalarda ayrim bibliografik ma‘lumotlar matn ichida ko‘rsatilgan. So‘z va iboralarning asl variantlari va boshqa ba‘zi ma‘lumotlar “So‘zlik” deb nomlangan Ilova tarzida berilgan. BE imkon darajasida illyustratsiya va xaritalar bilan ta‘minlangan. BE Zahiriddin Muhammad Bobur ismining kirill va lotin alifbosidagi nashrlarda yozilishi, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati mavzusida yoqlangan dissertatsiyalar, “Boburnoma” xranologiyasi, Zahiriddin Muhammad Bobur

asarlarida arabcha ibora va jumlarlar, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining O'zbekistonda nashr etilishi va "Bobur entsiklopediyasi so'zligi" kabi ilovalar, Ismlar ko'rsatkichi, "BE"ga maqola, xarita, bibliografik ma'lumot va illyustratsiya tayyorlaganlar hamda rus va ingliz tilidagi Rezyume bilan yakunlangan.

Istiqlol yillarida Amir Temur tarixi bayon etilgan ko'pgina manbalar dunyo yuzini ko'rdi. Chunonchi, Nizomuddin Shomiy, G'iyosuddin Ali, Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Hofizi Abro', Muinuddin Natanziy, Fasih Xavofiy, Abrurazzoq Samarqandiy, Ulug'bek mirzo, Xondamir, Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriy, Zahiruddin Muhammad Bobur, Muhammad Haydar mirzo kabi muarrixlarning bebaho asarlari xalqimizga taqdim etildi. Nomlari qayd etilgan muarrixlarning asarlarida Amir Temur hayoti va faoliyatiga qaysidir darajada aloqador bo'lgan ko'pdan-ko'p insonlar, xususan, mashhur shaxslar bilan bir qatorda oddiy xalq vakillari, tasodifiy uchragan kishilar ismlari, nasabi, mansabu lavozimi, kasbi kori, jamiyatda tutgan o'rni, fe'l – atvori, hulqi va h.k. xususida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlarga suyangan holda Temurbek davrdoshlari portretini chizish, ularning insoniy fazilatlarini, ichki va tashqi dunyosi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin bo'ladi. Shularni hisobga olib biz tomondan "Amir Temur zamondoshlarining mo'jaz entsiklopediyasi"ni yaratildi.

Ilmiy entsiklopediyalar talablariga rioya qilingan holda tuzilgan mazkur lug'atdan o'rin olgan maqolalar hajman, tabiiy, bir biridan farq qiladi. Zotan, muayyan shaxs to'g'risidagi maqolaning katta yoki kichikligi shu shaxsga doir ma'lumotning tarixiy manbalarda nisbatan keng yoxud o'ta qisqa berilgani bilan izohlanadi. Lug'at alifbo tartibida tuzilgan bo'lib, ichki alifbo tartibiga ham rioya qilindi. Shu o'rinda o'quvchi diqqatini bir jihatga qaratishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Lug'at materiallarini tegishli manbalardan to'plash, tartibga solish jarayonida biron bir shaxsning ismi, sharifi, qaysi qavmga mansubligini ifodalovchi ma'lumotlarning rang- barangligi, ba'zan ular o'rtasida tafovutlarning borligi ko'zga tashlandi. Shunday o'rinlarda antroponimning varianti qavs ichida keltirildi: Ali(Alibek), Boysung'ur(Boysunqur), Mironshoh(Amiranshoh) va h.k.

Lug'atdan o'rin olgan shaxslarning sulolasi: Shohrux mirzo, Iskandar o'g'lon, Saroy Mulk xonim, Sulton Baxt begim, mansabi, lavozimi, rutbasi: Abbos bahodur, Kalon tavachi, Lolam qurchi, kasbi: Mavlono Badruddin munajjim, To'kal bavurchi, qavmi, urug'i: Yodgor arlot, Bahrom jaloyir, Bayon qavchin, Qizil Mir Ali o'yrat, Zindachashm apardi, Idiku mang'it, Elchibo'g'a o'zbek, laqabi: Apachi kalta va h.k. kichik harflar bilan yozildi.

Lug'atdagi Xudaydodi Husayniy, Shamsuddin Abbos, Sayyidxojai Shayx Ali bahodur singari birikmalarni Husaynning o'g'li Xudaydod, Abbosning o'g'li Shamsuddin, Shayx Ali bahodurning o'g'li Sayyidxoja tarzida tushunmoq lozim.

#### Nazorat savollari

1. Etimologik lug'atlar tuzish ishi qaerda va qachon boshlangan?
2. Qaysi qardosh turkiy tillarning etimologik lug'atlari tuzilgan?
3. "Turkiy tillarning etimologik lug'ati" kim tomondan tuzilgan?



4. “Turkiy tillar etimologik lug‘ati”ning keyingi yillarda nashr qilingan jildlari xususida mulohaza yuriting.
5. Turk tilining etimologik lug‘atini kim yaratgan?
6. Etimologik lug‘atning tuzilish printsipli qanday va boshqa lug‘atlardan nimasi bilan farqlanadi?
7. O‘zbek tilining etimologik lug‘atini tuzishda qanday yo‘l tanlangan?
8. Ensiklopedik lug‘atlar tuzish ibtidosi qaysi davrga borib taqaladi?
9. O‘zbek tilidagi dastlabki ensiklopedik lug‘ati qachon tuzilgan?
10. Sobiq sho‘rolar davrida tuzilgan “O‘zbek sovet ensiklopediyasi” xususida baxs yuriting.
11. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” ning mamlakat ijtimoiy-madaniy hayotida tutgan o‘rni qanday?
12. “Bobur ensiklopediyasi” ning Bobur hayoti va ijodini o‘rganish, targ‘ib qilish borasidagi ahamiyatini ochib bering.

### ***Foydalanilgan adabiyot***

1. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. Toshkent: Sharq. 2014.
2. Rahmatullaev SH. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. I-III. Toshkent: Universitet, 2000-2009.
3. Sevortyan E.V. Etimologicheskiy slovar` tyurkskix yazikov. I-VII. M., 1974-2014.
4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. I-XII. Toshkent. 2000-2006.

**11-MAVZU. O‘ZBEK TERMINOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR. SOHA TERMINOLOGIYASIDA RO‘Y BERAYOTGAN O‘ZGARISHLAR. TERMINLARNI UNIFIKATSIYALASH VA TARTIBGA SOLISH. SOHA IZOHLI LUG‘ATLARI.**

**Ishdan maqsad:** Mustaqillikdan keyin o‘zbek tili terminologiyasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha egallangan asosiy ko‘nikmalarni takrorlash. Soha terminologiyasida kechayotgan sezilarli o‘zgarishlar, chunonchi, terminlarni tartibga solish, bir xillikka keltirish xususida kerakli ko‘nikmaga ega bo‘lish.

**Masalaning qo‘yilishi:** Ushbu amaliy ish davomida tinglovchi quyidagilarni bajarishi lozim:

- lug‘atlarda berilgan motivlanmagan terminlarni izohlashi
- lug‘atlar yordamida motivlangan terminlarni talqin qilishi
- terminologik lug‘atlardan rus tilidan o‘zlashgan suffiksli terminlarni topishi
- rus tilida so‘z yasovchi affikslar bilan yasalgan terminlarning o‘zbekcha –*chi* affiksi bilan almashtirilishiga misollar keltirishi

- ruscha-baynanlmilan qo'shma termnlarning o'zbek tiliga o'zlashish printsiplarini izohlashi
- chet tili yasama terminlarining o'zbek tiliga kalkalash orqali o'zlashishi yo'llarini bilishi
- o'zbek tili terminologiyasida ruscha prefiksoidlar yordamida yasalgan termin-kalkalarni sharhlashi
- "O'zbek tili izohli lug'ati" tuzilish tartibidan xabardor bo'lishi
- izohli lug'atlarda omonimlarning berilishini talqin qilishi.

### **Ishni bajarish uchun namuna.**

#### **1-vazifa. Soha terminologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar. Terminlarni unifikatsiyalash va tartibga solish.**

Terminologiyaga doir adabiyotlarda ta'kidlanishicha, motivlanmagan, ya'ni belgili terminlar o'z tarkibiga tilda mavjud tub leksik birliklar, boshqa tillardan kirgan o'zlashmalar, kalkalar, shuningdek o'z so'zlardan semantik (metonimik) ko'chim orqali hosil bo'lgan terminlarni qamrab oladi.

O'zlashmalarning har qanday til taraqqiyoti va boyishi qonuniyatining manbalaridan biri ekanligi sir emas. O'zlashtirish jarayoni murakkab hodisa bo'lib, lingvistik hamda ekstralingvistik omillar bilan chambarchas bog'langan. Ijtimoiy – siyosiy, tijoriy-iqtisodiy, diniy munosabatlar, madaniy aloqalar, bir tildan boshqa tilga qilinadigan adabiy tarjimalar va h.k. natijasida u yoki bu til lug'at tarkibida o'zlashmalar paydo bo'ladi. Tabiiy, ushbu hodisa boshqa qarindosh bo'lmagan tillardan kirgan katta miqdordagi o'zlashmalarga ega o'zbek adabiy tili uchun ham taalluqlidir.

Uzoq muddatli tarixiy taraqqiyot davomida o'zbek xalqi o'zga xalq va millatlar bilan mustahkam siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va lisoniy munosabatlarda bo'lgan. Bunday aloqlar natijasida o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibi yangi tushunchalar hamda realiyalar hisobiga yana-da boyidi va boyib bormoqda. O'zbek adabiy tiliga kelib chiqishi nuqtai nazaridan turfa va rang-bararang so'zlar o'zlashgan.

Kalkalash so'z o'zlashtirishning oliy shakli bo'lib, uning tilning bugungi kundagi lug'at tarkibi kengayishi va boyishida juda faolligi allaqachon aniqlangan.

Kalkalash jarayoni o'zbek tilining barcha terminologik tizimlariga xos bo'lib (Shoahmedov 1974), asosan ikki ma'lum, ya'ni: a) struktur (so'z yasash), b) semantik kalka turi orqali reallashadi. Bu tizimda, shubhasiz, struktur kalkalar etakchilik qiladi. Struktur (so'z yasash) kalkalar sirasiga o'zbek adabiy tili vositalari yordamida boshqa tillarga oid modellardan, ularning morfologik qismlarini tarjima qilish bilan yasalgan terminlar kiradi. Muayyan tilning leksik – so'z yasash materiallari negizida hosil qilingan struktur kalkalar tom ma'nodagi o'zlashma hisoblanmaydi (Tixonov 1991; 136).

Hozirgi o'zbek terminologiyasi tizimida chet tillarga xos elementlarning alohida miqdori mavjud bo'lib, ularni kalkalashga hech qanday hojat yo'q. Masalan, *telefon, telegraf, traktor, tank, izotop, indikator, orden, bolt, arfa, ring,*

*xokkey, departament, parlament, mina, import, eksport, antenna, armatura, prokuror, aerobus, avtobus, metro, ampermetr, motor, dizel, astronavt, mexanik, radiotexnik, proton, neytron, elektron* kabi ruscha-baynalmilal xarakterdagi ko'pgina terminlar tarkiban o'ta rang –barang bo'lib, texnika, ilm-fan, madaniyat, san'atning hamma sohalarini qamrab olgan. Bunday yuzaga kelishni ifodalovchi hamda muttasil rivojlanuvchi terminlar qatlami o'zbek tilining mulkiga aylangan. Hozirgi paytda ham tayyor terminlarni o'zlashtirish jarayoni o'z faolligini saqlab qolmoqda.

Ayni chog'da, o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va h.k. sohaları terminologiyasi tizimida o'zbek tili qonunlariga bo'ysungan holda muayyan qismi o'zbek tilining so'z yasovchi elementlari bilan almashtirilgan ulkan miqdordagi ruscha-baynalmilal terminlar qo'llanmoqda.

So'z yasovchi suffiksi o'zbek tili affiksi bilan almashtirilgan o'zlashma - terminlar

Rus tili terminologiyasi tarkibining salmoqli ulushini so'z yasovchi suffikslar bilan yasalgan, motivlangan terminlar tashkil qiladi (Istoriya leksiki russkogo literaturnogo yazo'ka 1981; 152-166).

So'z o'zlashtirish jarayonida kam miqdordagi terminlar so'z yasovchi suffikslari bilan birga o'zlashtiriladi (*metallist, militarist, motorist, nigilist, sotsialist* va h.k.). Biroq aksariyat hollarda terminlar yasashda qatnashgan suffikslar o'zbek tilining aynan bir xildagi, o'xshash affikslari bilan almashtiriladi.

So'z yasovchi suffikslari –chi affiksi bilan almashtirilgan terminlar

a) - ist: *tank-chi (tankist), traktor-chi (taktorist) shtanga –chi (shtangist) , parashyut-chi (parashyutist), roman-chi (romanist), torpeda-chi (torpedist), radiometr-chi (radiometrist), monarxiya-chi (monarxist), futbol-chi (futbolist)* va h. k.;

b) - nik: *transport-chi (transportnik), montaj-chi (montajnik), neft-chi (neftyanik), desant-chi (desantnik)* va h. k.;

v) - hik: *armatura –chi (armaturhik), tunnel-chi (tunnelhik), tramvay-chi (tramvayhik), faltsovka–chi (faltsovhik; faltsovhitsa), postanovka-chi (postanovhik), signal-chi (signalhik), armatura-chi (armaturhik)* va h. k.;

g) - chik: – *proxod-chi (proxodchik), raketa-chi (raketichik), razvedka-chi (razvedchik), prokat-chi (prokatchik), parketchi (parketchik)* va h. k.;

d) - ovhik// -lhik: *kran-chi (kranovhik), seyalka-chi (seyalhik), nivelirovka-chi (nivelirovhik), shtamp-lovchi, shtampovka-chi (shtampovhik)* va h.k.;

e) – yor: *lift-chi (liftyor), bashnya-chi (bashnyor), eksport-chi (eksportyor), import-chi (importyor), boks-chi (boksyor)* va h. k.;

yo) – tor: *aviatsiya-chi (aviator), eksperiment-chi (eksperimentator), ekspropriatsiya-chi (ekspropriator), evakuatsiya-chi (evakuator), dekoratsiyachi (dekorator)* va h.k.;

j) - sk (iy): *gvardiya-chi (gvardeyskiy; gvardeets), politsiya-chi (politseyskiy)* va h.k.;

z) - smen: *rekord-chi (rekordsmen), sport-chi (sportsmen), politsiya-chi (polismen), yaxta-chi (yaxtsmen)* va h. k.

i) - ant: *diversiya-chi (diversant)* va h. k.

Shunday qilib, shaxs oti, muayyan kasb-hunar egasi nomi hamda shaxsning holati, ahvoli, vaziyatini ifodalovchi ruscha suffikslarni o'zbekcha (turkiy)cha –*chi* affiksi bilan almashtirish natijasida quyidagi jihatlar voqelanadi: a) ruscha-baynalmilal soʻzning asosi oʻzgarmagan holda yangi termin yasaladi( *respublika-chi – respublikanets, dozimetr-chi - dozimetrist*); b) oʻzlashma asos shakli toʻla tiklangandan soʻng yangi termin yuzaga keladi( *selektsiya - chi – seleksioner,seyalka - chi – seyalhik*) va h.k.

### **Oʻzbek tiliga oʻzlashgan feʼldan yasalgan ot - terminlar**

Maʼlumki, rus tilida feʼldan yasalgan ismlar – *ni(e), -k(a), -atsi(ya), -izatsi(ya), -fikatsiya* singari suffikslar koʻmagida hosil qilinadi. Mazkur suffiksli terminlar oʻzbek tili terminologiyasi tizimiga oʻzlari ifodalovchi realiyalar va tushunchalar bilan birgalikda tayyor til birliklari sifatida kirib keladi. Masalan, *amortizatsiya, anneksiya, assimilyatsiya, artikulyatsiya, alliteratsiya, aeronavigatsiya, kooperativ, kniminalistika, kriminologiya* va h.k.

Shu bilan bir qatorda, feʼldan yasalgan ot – terminlar oʻzlashtirish jarayonida oʻzbek tili taʼsiriga uchraydi va feʼldan ot yasovchi suffikslar hech bir qiyinchiliksiz oʻzbekcha –*lash, lashtirish* kabi faol affikslar bilan almashtiriladi. Baʼzi bir ashyoviy materiallarga murojaat qilamiz:

a) - *ni (e): akkredit-lash (akkreditovanie), kod-lash (kodiroyanie), asfalt-lash (asfaltirovanie), avtomat-lashtirish (avtomatizatsiya)* va h.k. *Tormojenie, kooperirovanie, izoliroyanie* singari oʻzlashma terminlarning asosi oʻzbek tilida mustaqil maʼno ifodalamaydi. Bunday vaziyatlarda oʻzbek tilida oʻzlashmaning asosi qayta tiklanadi va unga oʻzbekcha affiks qoʻshiladi. Masalan, *tormiz-lash* ot (*tormojenie*), *abstrakt-lash* ot (*abstragirovanie*) va h.k.;

b) – *atsi(ya), -izatsiya, -fikatsiya, -k(a): tsian-lash (tsianizatsiya), ion-lash (ionizatsiya), menanika-lash (mexanizatsiya), gaz-lashtirish (gazifikatsiya), germet-lash (germetizatsiya), kondens-lash (kondensatsiya), tabul-lash (tabulyatsiya), valts-lash (valtsovka), frez-lash (frezerovka), legal-lashtirish (legalizatsiya), pasport-lashtirish (pasportizatsiya)* va h.k.

### **Oʻzbek tiliga oʻzlashgan ruscha-baynalmilal terminlar**

*Ruscha soʻz Q ruscha soʻz* yoki *baynalmilal soʻz Q ruscha soʻz* strukturali qoʻshma terminlar oʻzlashish jarayonida oʻzbek tili qonuniyatlariga boʻysunadi.

Ruscha-baynalmilal qoʻshma terminlarning oʻzbek tilida oʻzlashishi tubandagi usullar bilan amalga oshadi:

1. Ruscha-baynalmilal terminlarning rus tiliga xos ikkinchi komponenti oʻzbek tilidagi mos soʻz bilan emas, balki soʻz yasovchi affiks bilan almashtiriladi. Oqibatda, ruscha-baynalmilal qoʻshma termin oʻzbek tilida yasama terminga aylanadi:

- *soz: mashina-soz (mashinostroitel), vagon-soz (vagonostroitel), samolyot-soz (samolyotostroitel), raketa-soz (raketostroitel), shahar-soz (gradostroitel)* va h.k.;

- *sozlik: mashina-sozlik (mashinostroenie), vagon-sozlik (vagonostroenie), pribor-sozlik (priborostroenie), raketa-sozlik (raketostroenie)* va h. k.;

- *shunos: material-shunos (materialoved), mashina-shunos (mashinoved)* va h.k.;

-shunoslik: *material-shunoslik* (*materialovedenie*), *mashina-shunoslik* (*mashinovedenie*) va h. k.

2. Ruscha-baynalmilal qo'shma terminlarning ikkinchi komponenti o'zbekcha ayni mutanosibi bilan almashtiriladi yoxud kalka usuli bilan tarjima qilinadi: *bomba - qidirgich* (*bomboiskatel*), *bomba -pana* (*bomboubejihe*), *giper – tovush* (*giperzvuk*), *kino – qurilma* (*kinoustanovka*), *elektr - hisoblagich* (*elektroschetchik*), *elektr–sim* (*elektroprovod*), *radio-niqoblash* (*radiomaskirovka*) va h.k.

Ushbu metod ruscha-baynalmilal xarakterdagi qisqartma qo'shma terminlarni o'zlashtirish jarayonida ham qo'l keladi: *aero-chana* (*aerosani*), *tele-markaz* (*teletsentr*), *termo–qarshilik* (*termosoprotivlenie*), *gelio-qurilma* (*gelioustanovka*), *tele-sharhlovchi* (*telekommentator*), *avia– soz* (*aviastroenie*), *avto–yo'l* (*avtodoroga*) va h.k.

3. Ruscha – baynalmilal terminning har ikki komponenti o'zbekcha mutanosibi bilan almashtiriladi (yoki kalka qilinadi): *havoisitgich* (*vozduxonagrevatel*) *haqosovutgich* (*vozduxoxladitel*), *havotozalagich* (*vozduxoochistitel*) va h.k.

### **Ruscha-baynalmilal murakkab qo'shma terminlarning o'zlashishi**

Hozirgi o'zbek terminologiyasi tizimida haddan ziyod miqdordagi ruscha-baynalmilal murakkab qo'shma terminlar qo'llanmoqda. Ushbu murakkab qo'shma terminlarning ma'lum qismi o'zbek tili tomonidan tayyor, asl holda o'zlashtiriladi: *general–mayor*, *unter – ofitser*, *shtab – kvartira*, *samolyot – snaryad*, *pistolet–pulemyot*, *marsh–parad*, *radiometr–rengenometr*, *shtab-kvartira* va h.k. Bunday o'zlashmalar o'zbek terminologiyasining salmoqli ulushini tashkil etadi.

Boshqa bir guruh murakkab qo'shma terminlarning so'z tartibi o'zbek tiliga o'zlashish asnosida o'zgaradi: *uchuvchi –inspektor* (*lyotchik-inspektor*), *kosmonavt- uchuvchi* (*lyotchik – kosmonavt*), *mexanik - injener* (*injener – mexanik*), *amfibiya - tank* (*tank –amfibiya*), *buldozer – tank* (*tank-buldozer*), *urolog- vrach* (*shifokor*) (*vrach –urolog*) va h.k .

Ruscha-baynalmilal murakkab qo'shma terminlarning uchinchi bo'lagi o'zlashish jarayonida qisman yoki to'la o'zbekcha leksik birliklar bilan almashtiriladi:

1) Murakkab qo'shma terminning komponentlaridan biri o'zbekcha so'z bilan almashtiriladi ( yoxud kalkalanadi): *shlem-niqob* (*shlem-kaska*), *samolyot – nishon* (*samolyot –mishen*), *havo desanti* (*vozdušno-desantno'y*), *o'qchi –radist* (*strelok –radist*), *mina – tuzoq* (*mina-lovushka*), *odam-amfibiya* (*chelovek-amfibiya*), *kilovatt-soat* (*kilovatt-chas*), *maktab-internat* (*shkola – internat*), *alfa-nurlar* (*alfa-luchi*), *alfa-emirilish* (*alfa –raspad*), *gamma-nurlar* (*gamma – luchi*) va h.k. Bunga o'xshash terminlar o'zbek tiliga o'zlashish chog'ida so'z tartibini saqlanib qoladi.

2) Murakkab qo'shma terminlarning komponentlaridan biri o'zbek tilidagi mutanosib so'z bilan almashtiriladi ( yoki kalka yo'li bilan tarjima qilinadi). Bunday holatda murakkab qo'shma terminlarning so'z tartibi o'zbek tilida o'zgaradi: *tutuvchi – samolyot* (*samolyot-perexvatchik*), *buzg'unchi –*

*samolyot(samolyot-narushitel),raketaeltar-samolyot* (samolyot-raketanosets), *demokrat-shoir (poet-demokrat)* va h.k.

3) Murakkab qo'shma terminlarning har ikki komponenti o'zbekcha ekvivalenti bilan almashtiriladi (yoxud kalkalanadi). Bunday vaziyatda o'zlashma terminning so'z tartibi o'zgarishga uchramaydi: *o'ra-tuzoq (yama-lovushka)*, *uchish – qo'nish (vzlyotno-posadochno'y)*, *harbiy-havo (voenno-vozdushno'y)*, *harbiy-dengiz (voenno-morskoy)*, *harbiy-dala (voenno-polevoy)*, *ijtimoiy-iqtisodiy (obhestvenno-ekonomicheskoy)* va h.k

4) O'zlashma murakkab qo'shma terminlarning har ikki komponenti o'zbekcha mutanosibi bilan almashtiriladi (yoxud kalkalanadi), bunda murakkab qo'shma terminlarning so'z tartibi o'zgaradi: *mutaxassis – askar (soldat-spetsialist)*, *mo'ljalchi-o'qchi (strelok-navodchik)*, *qiruvchi-uchuvchi (lyotchik-istrebitel)*, *kuzatuvchi–uchuvchi (lyotchik-nablyudatel)*, *sinovchi – uchuvchi (lyotchik-ispo'tatel)* va h.k

Hozirgi o'zbek tili terminologiyasida kalkalash yo'li bilan yangi termin yasash masalasiga alohida diqqat qaratiladi. Ruscha-baynalmilal terminlarni to'la yoki qisman tarjima qilish usuli bilan hosil qilingan o'zbek tili terminlari mavjud terminologiya tizimining yana ham kengayishi va boyishida muhim ahamiyat kasb etadi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshida ruscha-baynalmilal leksikaning o'zbek tili so'z boyligi tarkibiga shiddat bilan kirishi kuzatiladi. O'zbek adabiy tili xorijiy so'z va terminlarni o'zlashtirish jarayonida ularni nafaqat tayyor, asl holda qabul qildi, balki kalkalash usuliga tayangan tarzda to'laligicha yoxud qisman tarjima qilish yo'lidan bordi. XX asrning boshlarida ko'pgina ruscha-baynalmilal terminlar o'zbek tiliga o'girilgan edi. Chunonchi: *uchuvchi* (aviator), *tintuv (obo'sk)*, *ot quvvati, ot kuchi* (loshadiynaya sila), *otashxona* (parovoz), *otash kema* (paroxod, korabl), *davlat dumasi* (gosudarstvennaya duma), *dunyo ilmi* (svetskie nauki), *erkinlik* (svoboda), *jadidchi* (novator), *spirtlik ichkuliklar* (spirtno'e napitki) shular jumlasidandir (Usmonov 1981). Bunga o'xshash ancha erta yasalgan terminlarning aksariyati bugungi til qonuniyatlariga bo'ysungan holda hozirgi o'zbek tilida faol qo'llanishda davom etmoqda.

Xullas, hozirgi zamon o'zbek tili terminologiyasi ruscha-baynalmilal elementlarni struktur (so'z yasovchi) hamda semantik kalkalash orqali sezilarli tarzda boyib bormoqda.

Struktur kalkalash yasama so'zlar, qo'shma so'zlar va so'z birikmalari chegarasida sodir bo'ladi.

### **Yasama terminlarni kalkalash**

Chet tili (rus tili) yasama terminlarini kalkalash jarayonida o'zbek tilida bor bo'lgan mutanosib asos hamda so'z yasovchi affiks tanlanadi. Buning natijasida o'zbek tilida mutlaqo yangi termin hosil bo'ladi, bunday terminlar ayniqsa ilm-fan va texnika terminologiyasi tizimida keng ko'lamda aks etgan: *to'g'rilagich (vo'pryamitel)*, *taqsimlagich (raspredelitel)*, *ko'targich (pod'yomnik)*, *itargich (tolkatel)*, *tebranish (amplituda)*, *oziqlagich (pitatel)*, *iqlimlashish, iqlimlashtirish (akklimatizatsiya)*, *o'rmonshunos (lesovod)*, *issiqxona (teplitsa)*,

*davlatshunos* (*gosudarstvoved*), *hissador* (*dolhik*), *vasiyatchi* (*zavehatel*), *buyurtmachi* (*zakazchik*), *tamg'alash* (*kleymenie*), *moydon* (*maslyonka*), *portlatgich* (*vzro'vatel*) va h.k.

### **Qo'shma terminlarni kalkalash**

Qo'shma terminlarni kalkalab tarjima qilish jarayonida ularning har ikki komponentiga mutanosib tushadigan o'zbekcha so'z tanlanadi. Xususan: *yarimo'tkazgich* (*poluprovodnik*), *shaltoqsepgich* (*jijerazbraso'vatel*), *ariqkovlagich* (*kanavakopatel*), *suvo'lchagich* (*vodomer*), *gazo'lchagich* (*gazomer*), *tezotar* (*skorostrelnoy*), *moyjuvoz* (*masloboyka*), *bug'tarqatgich* (*paroraspredelitel*), *tulkiquyruq* (*lisoxvost*), *yog'och kesuvchi* (*lesorub*), *muzyorar* (*ledokol*), *kamqonlik* (*malokrovie*), *arzonbaho* (*malotsenno'y*), *junqanot* (*zool.sherstokro'l*), *asalxo'r* (*zool.medoed*), *qisqa metrajli* (*korotkometrajno'y*), *qiziltan* (*krasnokojoy*), *qizilqanot* (*zool.krasnoperka*), *kartoshkaekkich* (*kartofelesajalka*), *kartoshkaqazgich* (*kartofelekopatel*), *suvgul* (*bot.vodokras*), *suvqovoq* (*bot.gorlyanka*) singari katta miqdordagi terminlar ayni shunday hosil qilingan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zlashayotgan qo'shma terminlarning ikkinchi komponenti ma'no nuqtai nazardan unga mos tushuvchi o'zbekcha so'z bilan har vaqt ham almashtirilavermaydi:

-xona: *ko'chatxona* (*lesopitomnik*), -zor: *ko'chatzor* (*lesopitomnik*), -dor: *erdor*, *zamindor* (*zemlevladelets*), -chan: *yonuvchan* (*legkovosplamenyayuhiysya*), -xo'r: *qasamxo'r* (*klyatvoprestupnik*), -soz: *kemasoz* (*korablestroitel*), -qich: *yirtqich* (*krovojadno'y*), -ish: *nurlanish* (*lucheispushkanie*) va h.k.

O'zbek tili terminologiyasi tizimida ruscha-baynalmilal prefiksoidlar yordamida hosil qilingan kalkalar tez-tez qo'llanadi (Begmatov 1985; 181; Doniyorov 1977; 145-146). Bunday usulda yasalgan terminlar sirasiga quyidagilarni kiritish o'rinli:

*avia-*: *aviaaloqa* (*aviasvyaz*), *aviaqism* (*aviachast*), *aviato'p* (*aviapushka*), *aviakorxona* (*aviazavod*), *aviasanoat* (*aviapromo'shlennost*), *aviakorxona* (*aviazavod*) va h.k.;

*avto-*: *avtonozir* (*avtokontrolyor*), *avtoyo'l* (*avtodoroga*), *avtoyuklagich* (*avtopogruzchik*), *avtohavoskor* (*avtolyubitel*), *avtotirkama* (*avtopritsep*), *avtosug'orgich* (*avtopolivhik*), *avtomaktab* (*avtoshkola*), *avtopoyga* (*avtogonki*), *avtopoygachi* (*avtogonhik*) va h.k.;

*aero-*: *aeropurkagich* (*aeroopro'skivatel*), *aerochanglagich* (*aeroopo'litel*), *aerotadqiqot* (*aeroissledovanie*) va h.k.;

*agro-*: *agrosanoat* (*agropromo'shlennost*), *agrokimyo* (*agroximiya*), *agromadaniyat* (*agrokultura*), *agroiqlim* (*agroklimat*), *agroo'rmon* (*agroles*) va h.k.;

*anti-*: *antizarra* (*antichastitso'*), *antimodda* (*antivehestvo*), *antidunyo* (*antimir*), *antijismlar* (*antitela*) va h.k.;

*geo-*: *geosiyosat* (*geopolitika*), *geokimyo* (*geoximiya*) va h.k.;

*gidro-*: *gidroinshoot* (*gidrosoorujenie*), *gidroko'targich* (*gidropodyomnik*), *gidrokuchaytirgich* (*gidrousilitel*) va h.k.;

*giper-*: *gipertekislik* (*giperploskost*), *gipertovush* (*giperzvuk*), *giperchiziq* (*giperliniya*), *giperloyiha* (*giperproekt*) va h.k.;

*izo-* : *izochiziqlar (izolinii), izomoy (izomaslo) va h.k.;*  
*kvazi-*: *kvaziyulduz(kvazizvezda),kvaziquloq (kvaziuxo), kvaziqavariq (kvazivo 'puklost) va h.k.;*  
*infra-*: *infratovushlar (infrazvuki), infraqizil (infrakrasno 'y), infratizim (infrastruktura) va h.k.;*  
*makro-*: *makroiqlim (makroklimat), makrosanoat (makropromo 'shlennost), makrokoinot (makrokosmos), makrotuzilma (makrostruktura), makromaydon (makropole), makroiqtisodiyot (makroekonomika) va h.k.;*  
*mikro-*: *mikroiqlim (mikroklimat), mikrofotonusxa (mikrofotokopiya), mikrotuzilma (mikrostruktura), mikromaydon (mikropole), mikrotuman (mikrorayon) va h.k.;*  
*moto-* : *motoaravacha (mototelejka), motopoyga (motogonki), motopoygachi (motogonhik) va h.k.;*  
*pnevmo-* : *pnevmoboshqarish (pnevmoupravlenie), pnevmobolg'a (pnevmomolotok), pnevmoyuklagich (pnevmogruzchik), pnevmoqisish (pnevmodavlenie) .;*  
*tele-*: *teledastur (teleprogramma), teleminora (teleshnya), teleboshqarish (teleupravlenie), telealoqa (telesvyaz) , telequrilma (teleustanovka), teleloyiha (teleproekt), teleusta (telemaster) va h.k.*

## **2-vazifa. Soha izohli lug'atlari tadqiqi**

O'zbek leksikografiyasi fan-texnika sohalari bo'yicha izohli lug'atlar yaratish borasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritgani ko'pchilikka ma'lum. O'zbek tili izohli lug'atlari tuzish an'analari Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asariga borib taqaladi Izohli lug'atlar tuzishning bosh printsiplaridan biri, ma'lumki, bosh so'zning ma'no-mazmuni, mohiyatini ochib berishda faktik misol alohida ahamiyat kasb etadi. Mahmud Koshg'ariy lug'atida muayyan so'zning izoni keltirishda eskui turkiy tilda qo'llangan gaplar, iboralar, maqol, matal, jonli so'zlashuv tili materiallari, xalq og'zagi ijodi namunalari tasdiqlovchi manba fazifasini o'tagan. Ayni shunday usul va holatni "Badoe ul-lug'at", "Abushqa", "Sanglox", "Kelurnoma", "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoni" kabi lug'atlarida izohlagan so'zlar misolida ham kuzatish mumkin. Hozirgi o'zbek terminologiyasi soha terminlari izohli lug'atlarini tuzishga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Ushbu yo'nalishda nafaqat tabiiy fanlar, balki falsafa, tarix, adabiyotshunoslik, lingvistika singari ijtimoiy-gumanitar fan sohalari doirasida ham talaygina izohli lug'atlar nashr qilingan va ular mutaxassislar, qolaversa, keng kitobxonlar hukmga xavola qilingan.

Mumtoz adabiyot namoyandalari asarlariga izohli lug'atlar tuzish o'tgan asrning ikkinchi yarmidan kun tartibiga dolzarb masala tarzida qo'yilgan edi. Zero, bundan bir necha asrlar muqaddam yaratilgan bebaho manbalarda qo'llangan bir qancha istorizmlar va arxivlarning ma'nosini bugungi kunda to'la tushunish amri mahol hisoblanadi. Shu sababli moziyda bitilgan obidalar mohiyati, ularda ilgari surilgan g'oyalarni anglab etishda, albatta, g'ozirgi kitoxon lug'atlarga murojaat qilishi tabiiy hol. Mana shunday kezlarda izohli lug'atlar o'quvchiga yaqindan



ko'makka keladi. Yuqorida nomlari zikr qilingan lug'atlar asosan Alisher Navoiy va eski adabiy tilida ijod qilgan ko'pdan-ko'p shoirlar asarlarida ishlatilgan so'zlarning ma'nosini ochib berishda muhim rol o'ynaganini avval ham ta'kidlagan edi. Biroq bugungi kun kitoxoni bu lug'atlardan to'raligicha foydalanish imkoniyatiga ega emas. Chunki, bu lug'atlarning ommaviy nashrlari hanuz amalga oshirilmagan. Mana shu jihatlarning hisobga olinishi oqibatida 1983-1985 yillarda O'zR FA "Fan" nashriyotida E.Fozilov tahriri ostida to'rt jildidan iborat "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" chop etildi. Keng kitobxonlar, mutaxassislarga etkazib berilgan ushbu asar izohli lug'atlarga qo'yilgan talab va printsiplarga binoan yaratilgan edi. Lug'at So'z boshi, Izohli lug'atning tuzilishi va undan foydalanish tartibi, manbalar va ularning qisqartmalari hamda bosh so'z-maqolalardan iborat tarzda shakllantirilgan.

So'z boshida lug'at tuzuvchilari, kartoteka fondi va materiallarni to'plovchilar, qo'lyozmani nashrga tayyorlashdagi texnik ishlarni amalga oshirganlar va h.k xususida ma'lumot keltirilgan.

Lug'atning tuzilishi va undan foydalanish tartibida lug'at tarkibi, lug'at maqolasining tuzilishi, so'z maqolasining izohi, lug'atdagi frazeologik birliklarning berilishi va talqini, illyustrativ materiallarning berilishi xususida mulohaza yuritilgan. Manbalar va ularning qisqartmalaridan esa Alisher Navoiy nazmiy va nasriy asarlarining qo'yozma nusxalari hamda nashrlari haqida aniq ma'lumotlar o'rin olgan.

Izohli lug'atga ulug' shoir asarlarida iste'molda bo'lgan so'z, frazeologik iboralar, turg'un birikmalar kiritilgan. Har bir so'z (mustaqil, yordamchi so'z, yuklama, undov) lug'atda alohida bosh so'z-maqola sifatida talqin qilingan. Bosh so'zlar alifbo tartibida joylashtirilgan. So'zning grammatik shakllari bir so'z sifatida qaralgan. Bir so'zning turli fonetik variantlari bir lug'at maqolasida berilgan. Qo'shma so'zlar bosh so'z sifati berilmay, o'z tarkibidagi komponentlaridan biri maqolasi ichida, birinchi komponent maqolasida keltirilgan: *Avd* "qaytish"; *-et-//qil-* "qaytmoq, qaytib kelmoq" va h.k.

Omonim so'zlarning har biri alohida maqolalarda bosh so'z tarzida berilgan, rim raqamlari bilan bir-biridan farqlangan: *Azm* 1 "niyat, maqsad, mayl, qat'iy qaror; jazm, iroda"; *Azm* P "suyak, ustuxon" va h.k. Bosh so'z yolg'iz ishlatilmasdan, birikma tarkibidagina qo'llangan bo'lsa, bosh so'zdan keyin o'sha so'zning birikmadagi holati izohlangan, ayrim o'rinlarda bosh so'z izohlanib, so'ngra birikma yoritilgan: *Avr* – *avr o'l-* "yalang'och bo'lmoq" va h.k. Sinonimlar alifbo tartibida o'z o'rnida bosh so'z sifatida talqin qilingan. Lug'at maqolasi quyidagi elementlardan iborat:

- bosh so'z transliteratsiya asosida berilgan;

- nodir qo'lyozmalardagi so'zlarning arabcha tipik yozuv shakli Ilovada berilgan;

- bosh so'zning ma'nosi yoki ma'nolari izohi;

- bosh so'z ma'nolarini tasdiqlovchi qo'lyozma yoki nashrlardan olingan misollar;

- qo'lyozmaning sahifa va qatorlari, nashr qilingan manbaning varaqlari;

-izofa, idiomatik, frazeologik, turg'un birikmalar, qo'shma ot va fe'llar sharhi va illyustrativ material;

-bosh so'zning fonetik varianti parallel chiziqdan so'ng berilgan. Lug'atda izohlangan so'z alohida qo'llanmagan taqdirda o'sha so'z bilan kelgan birikma keltirilib, sharhlangan.

So'zlarning mustaqil ma'nolari bir-biridan arab raqamlari bilan ajratilgan, har bir ma'noga tegishli ma'no nozikliklari ba'zi o'rinlarda ajratilmay, misollar berish bilan kifoyalangan.

So'zlaning ma'nosini ochishda quyidagi usullardan foydalanilgan:

-qisqacha tushuntirish yo'li bilan izohlash;

-keng tushuntirish yo'li bilan izohlash;

-sinonimlar yordamida izohlash;

-antonimlar orqari izohlash;

-qisqacha entsiklopedik ma'lumotlar keltirish orqali izohlash;

-realiyaning kengroq izohlash.

So'z ma'nolarini joylashtirishda ularning o'zaro yaqinligi, ichki munosabati inobatga olingan. Polisemantik so'zlarni izohlashda avval ularning bosh(birlamchi), so'ngra hosila ma'nolari berilgan. Alisher Navoiy asarlari tili izohli lug'atini tuzish jarayonida so'zlar ma'nosini izohlashda matn, so'zning hozirgi o'zbek tilidagi leksik-semantik, grammatik ekvivalenti nazardan qochirilmagan.

Adib asarlarida qayd etilgan atoqli otlar, asarlar nomlari, geografik ob'ektlar nomlari va h.k. lug'atning "Ilova"sida keltirilgan va izohlangan.

So'zlarning ma'nosini ochib berishda mualliflar moziyda Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlar, tadqiqotlarga o'rni bilan murojaat qilishgan.

### **Nazorat savollari**

1. Soha terminologiyasiga doir izohli lug'atlar sizni qoniqtiradimi?
2. Izohli lug'atlarning boshqa tip lug'atlardan farqi nimada?
3. Izohli lug'at tuzishda qanday printsiplarga amal qilinadi?
4. "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" xususida qanday fikrdasiz?
5. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"ga baho bering.
6. Mustaqillik davrida tuzilgan izohli lug'atlardan foydalanasizmi?
7. Izohli lug'atdagi so'zning bosh va hosila ma'nolarini izohlashda qanday printsiplarga yondashish lozim?
8. Siz faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasasida qanday fan sohalariga doir izohli lug'atlar tuzilgan?

### **Foydalanilgan adabiyot**

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1-1U. Toshkent: Fan, 1983-1985.
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1988.

3. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamalari. Toshkent: Fan, 2002.

4. Dadabaev X.A. Obhestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazo'chno'x pismenno'x pamyatnikax XI-XIUV vv. -Tashkent: Yozuvchi, 1991.

5. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opo't lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.

6. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.

7. Ruscha-lotinja-o'zbekcha tibbiy terminlar izohli lug'ati. Toshkent: Kamalak-Hamshira, 1999.

8. Xudayberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent, Turon zamin ziyo, 2015.

9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-P. M., Ruskiy yazo'k. 1981.

10. O'zbek tilining izohli lug'ati 1-U. Toshkent: Fan, 2000-2006 .

10. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, Fan 2002.

## O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN RUSCHA-BAYNALMINAL TERMINLAR

**Ishdan maqsad:** O'zbek tili terminologiyasi tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bo'yicha egallangan asosiy ko'nikmalarni takrorlash. Soha terminologiyasida kechayotgan sezilarli o'zgarishlar, chunonchi, terminlarni tartibga solish, bir xillikka keltirish xususida kerakli ko'nikmaga ega bo'lish.

**Masalaning qo'yilishi:** Ushbu amaliy ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- lug'atlarda berilgan motivlanmagan terminlarni izohlashi
- lug'atlar yordamida motivlangan terminlarni talqin qilishi
- terminologik lug'atlardan rus tilidan o'zlashgan suffiksli terminlarni topishi
- rus tilida so'z yasovchi affikslar bilan yasalgan terminlarning o'zbekcha – chi affiksi bilan almashtirilishiga misollar keltirishi
- ruscha-baynanlmilan qo'shma termnlarning o'zbek tiliga o'zlashish printsiplarini izohlashi
- chet tili yasama terminlarining o'zbek tiliga kal'kalash orqali o'zlashishi yo'llarini bilishi
- o'zbek tili terminologiyasida ruscha prefiksoidlar yordamida yasalgan termin-kal'kalarni sharhlashi
- "O'zbek tili izohli lug'ati" tuzilish tartibidan xabardor bo'lishi
- izohli lug'atlarda omonimlarning berilishini talqin qilishi.

*Ishni bajarish uchun namuna.*

O'zbek tiliga o'zlashgan Ruscha-baynalminimal terminlar

Ruscha so'z Q ruscha so'z yoki baynalminimal so'z Q ruscha so'z strukturali qo'shma terminlar o'zlashish jarayonida o'zbek tili qonuniyatlariga bo'ysunadi.

Ruscha-baynalminal qo'shma terminlarning o'zbek tilida o'zlashishi tubandagi usullar bilan amalga oshadi:

1. Ruscha-baynalminal terminlarning rus tiliga xos ikkinchi komponenti o'zbek tilidagi mos so'z bilan emas, balki so'z yasovchi affiks bilan almashtiriladi. Oqibatda, Ruscha-baynalminal qo'shma termin o'zbek tilida yasama terminga aylanadi:

- soz: mashina-soz (mashinostroitel'), vagon-soz (vagonostroitel'), samolyot-soz (samolyotostroitel'), raketa-soz (raketostroitel'), shahar-soz (gradostroitel') va h.k.;

-sozlik: mashina-sozlik (mashinostroenie), vagon-sozlik (vagonostroenie), pribor-sozlik (priborostroenie), raketa-sozlik (raketostroenie) va h. k.;

-shunos: material-shunos (materialoved), mashina-shunos (mashinoved) va h.k.;

-shunoslik: material-shunoslik (materialovedenie), mashinashunoslik (mashinovedenie) va h. k.

2. Ruscha-baynalminal qo'shma terminlarning ikkinchi komponenti o'zbekcha ayni mutanosibi bilan almashtiriladi yoxud kal'ka usuli bilan tarjima qilinadi: bomba - qidirgich (bomboiskatel'), bomba -pana (bomboubejishe), giper – tovush (giperzvuk), kino – qurilma (kinoustanovka), elektr - hisoblagich (elektroschetchik), elektr–sim (elektroprovod), radio-niqoblash (radiomaskirovka) va h.k.

Ushbu metod Ruscha-baynalminal xarakterdagi qisqartma qo'shma terminlarni o'zlashtirish jarayonida ham qo'l keladi: aero-chana (aerosani), tele-markaz (teletsentr), termo–qarshilik (termosoprotivlenie), gelio-qurilma (gelioustanovka), tele-sharhlovchi (telekommentator, avia– soz (aviastroenie), avto–yo'l (avtodoroga) va h.k.

3. Ruscha – baynalminal terminning har ikki komponenti o'zbekcha mutanosibi bilan almashtiriladi (yoki kal'ka qilinadi): havoisitgich (vozduxonagrevatel') haqosovutgich (vozduxooxladitel'), havotozalagich (vozduxoochistitel') va h.k. Ruscha-baynalminal murakkab qo'shma terminlarning o'zlashishi

Hozirgi o'zbek terminologiyasi tizimida haddan ziyod miqdordagi Ruscha-baynalminal murakkab qo'shma terminlar qo'llanmoqda. Ushbu murakkab qo'shma terminlarning ma'lum qismi o'zbek tili tomonidan tayyor, asl holda o'zlashtiriladi: general–mayor, unter – ofitser, shtab – kvartira, samolyot – snaryad, pistolet–pulemyot, marsh–parad, radiometr–rengenometr, shtab-kvartira va h.k. Bunday o'zlashmalar o'zbek terminologiyasining salmoqli ulushini tashkil etadi.

Boshqa bir guruh murakkab qo'shma terminlarning so'z tartibi o'zbek tiliga o'zlashish asnosida o'zgaradi: uchuvchi –inspektor (lyotchik-inspektor), kosmonavt- uchuvchi (lyotchik – kosmonavt), mexanik - injener (injener – mexanik), amfibiya - tank (tank –amfibiya), bul'dozer – tank (tank-bul'dozer), urolog- vrach (shifokor) (vrach –urolog) va h.k .

Ruscha-baynalminal murakkab qo'shma terminlarning uchinchi bo'lagi o'zlashish jarayonida qisman yoki to'la o'zbekcha leksik birliklar bilan almashtiriladi:

1) Murakkab qo'shma terminning komponentlaridan biri o'zbekcha so'z bilan almashtiriladi (yoxud kal'kalanadi): shlem-niqob (shlem-kaska), samolyot – nishon (samolyot –mishen'), havo desanti (vozdushno-desantniy), o'qchi –radist (strellok –radist), mina – tuzoq (mina-lovushka), odam-amfibiya (chelovek-amfibiya), kilovatt-soat (kilovatt-chas), maktab-internat (shkola – internat), al'fa-nurlar (al'fa-luchi), al'fa-yemirilish (al'fa –raspad), gamma-nurlar (gamma – luchi) va h.k. Bunga o'xshash terminlar o'zbek tiliga o'zlashish chog'ida so'z tartibini saqlanib qoladi.

2) Murakkab qo'shma terminlarning komponentlaridan biri o'zbek tilidagi mutanosib so'z bilan almashtiriladi (yoki kal'ka yo'li bilan tarjima qilinadi). Bunday holatda murakkab qo'shma terminlarning so'z tartibi o'zbek tilida o'zgaradi: tutuvchi – samolyot (samolyot-perexvatchik), buzg'unchi – samolyot(samolyot-narushitel'),raketaeltar-samolyot (samolyot-raketanosets), demokrat-shoir (poet-demokrat) va h.k.

3) Murakkab qo'shma terminlarning har ikki komponenti o'zbekcha ekvivalenti bilan almashtiriladi (yoxud kal'kalanadi). Bunday vaziyatda o'zlashma terminning so'z tartibi o'zgarishga uchramaydi: o'ra-tuzoq (yama-lovushka), uchish – qo'nish (vzlyotno-posadochniy), harbiy-havo (voenno-vozdushniy), harbiy-dengiz (voenno-morskoy), harbiy-dala (voenno-polevoy), ijtimoiy-iqtisodiy (obshestvenno-ekonomicheskiy) va h.k

4) O'zlashma murakkab qo'shma terminlarning har ikki komponenti o'zbekcha mutanosibi bilan almashtiriladi (yoxud kal'kalanadi), bunda murakkab qo'shma terminlarning so'z tartibi o'zgaradi:

mutaxassis – askar (soldat-spetsialist), mo'ljalchi-o'qchi (strellok-navodchik), qiruvchi-uchuvchi (lyotchik-istrebitel'), kuzatuvchi–uchuvchi (lyotchik-nablyudatel'), sinovchi – uchuvchi (lyotchik-ispitatel') va h.k

Hozirgi o'zbek tili terminologiyasida kal'kalash yo'li bilan yangi termin yasash masalasiga alohida diqqat qaratiladi. Ruscha-baynalminal terminlarni to'la yoki qisman tarjima qilish usuli bilan hosil qilingan o'zbek tili terminlari mavjud terminologiya tizimining yana ham kengayishi va boyishida muhim ahamiyat kasb etadi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshida Ruscha-baynalminal leksikaning o'zbek tili so'z boyligi tarkibiga shiddat bilan kirishi kuzatiladi. O'zbek adabiy tili xorijiy so'z va terminlarni o'zlashtirish jarayonida ularni nafaqat tayyor, asl holda qabul qildi, balki kal'kalash usuliga tayangan tarzda to'laligicha yoxud qisman tarjima qilish yo'lidan bordi. XX asrning boshlarida ko'pgina Ruscha-baynalminal terminlar o'zbek tiliga o'girilgan edi. Chunonchi: uchuvchi (aviator), tintuv (obisk), ot quvvati, ot kuchi (loshadiynaya sila), otashxona (parovoz), otash kema (paroxod, korabl'), davlat dumasi (gosudarstvennaya duma), dunyo ilmi (svetskie nauki), erkinlik (svoboda), jadidchi (novator), spirtlik ichkuliklar (spirtnie

napitki) shular jumlasidandir (Usmonov 1981). Bunga o'xshash ancha erta yasalgan terminlarning aksariyati bugungi til qonuniyatlariga bo'ysungan holda hozirgi o'zbek tilida faol qo'llanishda davom etmoqda. Xullas, hozirgi zamon o'zbek tili terminologiyasi Ruscha-baynalminal elementlarni struktur (so'z yasovchi) hamda semantik kal'kalash orqali sezilarli tarzda boyib bormoqda. Struktur kal'kalash yasama so'zlar, qo'shma so'zlar va so'z birikmalari chegarasida sodir bo'ladi.

### Yasama terminlarni kal'kalash

Chet tili (rus tili) yasama terminlarini kal'kalash jarayonida o'zbek tilida bor bo'lgan mutanosib asos hamda so'z yasovchi affiks tanlanadi. Buning natijasida o'zbek tilida mutlaqo yangi termin hosil bo'ladi, bunday terminlar ayniqsa ilm-fan va texnika terminologiyasi tizimida keng ko'lamda aks etgan: to'g'rilagich (vipryamitel'), taqsimlagich (raspredelitel'), ko'targich (pod'yomnik), itargich (tolkatel'), tebranish (amplituda), oziqlagich (pitatel'), iqlimlashish, iqlimlashtirish (akklimatizatsiya), o'rmonshunos (lesovod), issiqxona (teplitsa), davlatshunos (gosudarstvoved), hissador (dol'shik), vasiyatchi (zaveshatel'), buyurtmachi (zakazchik), tamg'alash (kleymenie), moydon (maslyonka), portlatgich (vzrivatel') va h.k.

### ***Qo'shma terminlarni kal'kalash***

Qo'shma terminlarni kal'kalab tarjima qilish jarayonida ularning har ikki komponentiga mutanosib tushadigan o'zbekcha so'z tanlanadi. Xususan: yarimo'tkazgich (poluprovodnik), shaltoqsepgich (jijerazbrasivatel'), ariqkovlagich (kanavakopatel'), suvo'lchagich (vodomer), gazo'lchagich (gazomer), tezotar (skorostrel'niy), moyjuvoz (masloboyka), bug'tarqatgich (paroraspredelitel'), tulkiqyuruq (lisoxvost), yog'och kesuvchi (lesorub), muzyorar (ledokol), kamqonlik (malokrovie), arzonbaho (malotsenniy), junqanot (zool. sherstokril), asalxo'r (zool. medoed), qisqa metrajli (korotkometrajniy), qiziltan (krasnokojiy), qizilqanot (zool. krasnoperka), kartoshkaekkich (kartofelesajalka), kartoshkaqazgich (kartofelekopatel'), suvgul (bot.vodokras), suvqovoq (bot.gorlyanka) singari katta miqdordagi terminlar ayni shunday hosil qilingan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zlashayotgan qo'shma terminlarning ikkinchi komponenti ma'no nuqtai nazardan unga mos tushuvchi o'zbekcha so'z bilan har vaqt ham almashtirilavermaydi: -xona: ko'chatxona (lesopitomnik), -zor: ko'chatzor (lesopitomnik), -dor: yerdor, zamindor (zemlevladelets), -chan: yonuvchan (legkovosplamenyayushiysya), -xo'r: qasamxo'r (klyatvoprestupnik), -soz: kemasoz (korablestroitel'), -qich: yirtqich (krovojadniy), -ish: nurlanish (lucheispuskanie) va h.k.

O'zbek tili terminologiyasi tizimida ruscha-baynalminal prefiksoidlar yordamida hosil qilingan kal'kalar tez-tez qo'llanadi (Begmatov 1985; 181; Doniyorov 1977; 145-146). Bunday usulda yasalgan terminlar sirasiga quyidagilarni kiritish o'rinli:

avia-: aviaaloqa (aviasvyaz), aviaqism (aviachast`), aviato`p (aviapushka), aviakorxona(aviazavod), aviasanoat (aviapromishlennost`), aviakorxona (aviazavod) va h.k.;

avto-: avtonozir (avtokontrolyor), avtoyo`l (avtodoroga), avtoyuklagich (avtopogruzchik), avtohavoskor (avtolyubitel`), avtotirkama (avtopritsep), avtosug`orgich (avtopolivshik), avtomaktab (avtoshkola), avtopoyga (avtogonki), avtopoygachi (avtogonshik) va h.k.;

aero-: aeropurkagich (aeroopriskivatel`), aerochanglagich (aeroopilitel`), aerotadqiqot (aeroissledovanie) va h.k.;

agro-: agrosanoat (agropromishlennost`), agrokimyo (agroxiimiya), agromadaniyat (agrokul`tura), agroiqlim (agroklimat), agroo`rmon (agroles) va h.k.;

anti-: antizarra (antichastitsi), antimodda (antiveshestvo), antidunyo (antimir), antijismlar (antitela) va h.k.;

geo-: geosiyosat (geopolitika), geokimyo (geoximiya) va h.k.;

gidro-: gidroinshoot (gidrosoorujenie), gidroko`targich (gidropodyomnik), gidrokuchaytirgich (gidrousilitel`)va h.k.;

giper- : gipertekislik (giperploskost`), gipertovush (giperzvuk), giperchiziq (giperliniya), giperloyiha (giperproekt) va h.k.;

izo- : izochiziqlar (izolinii), izomoy (izomaslo) va h.k.;

kvazi-: kvaziyulduz(kvazizvezda),kvaziquloq (kvaziuxo), kvaziqavariq (kvazivipuklost`) va h.k.;

infra-: infratovushlar (infrazvuki), infraqizil (infrakrasniy), infratizim (infrastruktura) va h.k.;

makro-: makroiqlim (makroklimat), makrosanoat (makropromishlennost`), makrokoinot (makrokosmos), makrotuzilma (makrostruktura), makromaydon (makropole), makroiqtisodiyot (makroekonomika) va h.k.;

mikro-: mikroiqlim (mikroklimat), mikrofonusxa (mikrofotokopiya), mikrotuzilma (mikrostruktura), mikromaydon (mikropole), mikrotuman (mikrorayon) va h.k.;

moto- : motoaravacha (mototelejka), motopoyga (motogonki), motopoygachi (motogonshik) va h.k.;

pnevmo- : pnevmoboshqarish (pnevmoupravlenie), pnevmobolg`a (pnevmomolotok), pnevmoyuklagich (pnevmogruzchik), pnevmoqisish (pnevmodavlenie) .;

tele-: teledastur (teleprogramma), teleminora (teleshnya), teleboshqarish (teleupravlenie), telealoqa (telesvyaz`), telequrilma (teleustanovka), teleloyiha (teleproekt), teleusta (telemaster) va h.k.

#### Nazorat savollari

1. Soha terminologiyasiga doir izohli lug`atlar sizni qoniqtiradimi?
2. Izohli lug`atlarning boshqa tip lug`atlardan farqi nimada?
3. Izohli lug`at tuzishda qanday printsiplarga amal qilinadi?
4. "Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati" xususida qanday fikrdasiz?
5. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati"ga baho bering.

6. Mustaqillik davrida tuzilgan izohli lugʻatlardan foydalanasizmi?
7. Izohli lugʻatdagi soʻzning bosh va hosila maʼnolarini izohlashda qanday printsipga yondashish lozim?
8. Siz faoliyat yuritayotgan oliy taʼlim muassasasida qanday fan sohalariga doir izohli lugʻatlar tuzilgan?

### ***Foydalanilgan adabiyot***

1. Alisher Navoiy asarlari tilning izohli lugʻati. I-IV. Toshkent: Fan, 1983-1985.
2. Begmatov E. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1988.
3. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamaları. Toshkent: Fan, 2002.
4. Dadabaev X.A. Obshestvenno-politicheskaya i sotsialʼno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pisʼmennix pamyatnikax XI-XIV vv. -Tashkent: Yozuvchi, 1991.
5. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opit lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.
6. Doniyorov R. Oʻzbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.
7. Ruscha-lotinja-oʻzbekcha tibbiy terminlar izohli lugʻati. Toshkent: Kamalak-Hamshira, 1999.
8. Xudayberganova D. Lingvokulʼturologiya terminlarining qisqacha izohli lugʻati. Toshkent, Turon zamin ziyo, 2015.
9. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. I-II. M., Ruskiy yazik. 1981.
10. Oʻzbek tilining izohli lugʻati I-V. Toshkent: Fan, 2000-2006 .
11. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. Toshkent, Fan 2002.
- 12-MAVZU. SOHAVIY TERMINLAR TARAQQIYOTI. OʻZBEK TERMINOLOGIYASI SOHA IZOHLI LUGʻATLARI TADQIQI

***Ishdan maqsad:*** Mustaqillikdan keyin oʻzbek tili terminologiyasi tizimini takomillashtirish boʻyicha amalga oshirilgan ishlar boʻyicha egallangan asosiy koʻnikmalarni takrorlash. Soha terminologiyasida kechayotgan sezilarli oʻzgarishlar, chunonchi, terminlarni tartibga solish, bir xillikka keltirish xususida kerakli koʻnikmaga ega boʻlish.

***Masalaning qoʻyilishi:*** Ushbu amaliy ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- lugʻatlarda berilgan motivlanmagan terminlarni izohlashi
- lugʻatlar yordamida motivlangan terminlarni talqin qilishi
- terminologik lugʻatlardan rus tilidan oʻzlashgan suffiksli terminlarni topishi
- rus tilida soʻz yasovchi affikslar bilan yasalgan terminlarning oʻzbekcha – chi affiksi bilan almashtirilishiga misollar keltirishi



- ruscha-baynanlmilan qo'shma termnlarning o'zbek tiliga o'zlashish printsiplarini izohlashi
- chet tili yasama terminlarining o'zbek tiliga kal'kalash orqali o'zlashishi yo'llarini bilishi
- o'zbek tili terminologiyasida ruscha prefiksoidlar yordamida yasalgan termin-kal'kalarni sharhlashi
- "O'zbek tili izohli lug'ati" tuzilish tartibidan xabardor bo'lishi
- izohli lug'atlarda omonimlarning berilishini talqin qilishi.

*Ishni bajarish uchun namuna.*

O'zbek leksikografiyasi fan-texnika sohalari bo'yicha izohli lug'atlar yaratish borasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritgani ko'pchilikka ma'lum. O'zbek tili izohli lug'atlari tuzish an'analari Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asariga borib taqaladi. Izohli lug'atlar tuzishning bosh printsiplaridan biri, ma'lumki, bosh so'zning ma'no-mazmuni, mohiyatini ochib berishda faktik misol alohida ahamiyat kasb etadi. Mahmud Koshg'ariy lug'atida muayyan so'zning izoni

keltirishda eskui turkiy tilda qo'llangan gaplar, iboralar, maqol, matal, jonli so'zlashuv tili materiallari, xalq og'zagi ijodi namunalari tasdiqlovchi manba fazifasini o'tagan. Ayni shunday usul va holatni "Badoe ul-lug'at", "Abushqa", "Sanglox", "Kelurnoma", "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoni" kabi lug'atlarida izohlagan so'zlar misolida ham kuzatish mumkin. Hozirgi o'zbek terminologiyasi soha terminlari izohli lug'atlarini tuzishga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Ushbu yo'nalishda nafaqat tabiiy fanlar, balki falsafa, tarix, adabiyotshunoslik, lingvistika singari ijtimoiy-gumanitar fan sohalari doirasida ham talaygina izohli lug'atlar nashr qilingan va ular mutaxassislar, qolaversa, keng kitobxonlar hukmga xavola qilingan.

Mumtoz adabiyot namoyandalari asarlariga izohli lug'atlar tuzish o'tgan asrning ikkinchi yarmidan kun tartibiga dolzarb masala tarzida qo'yilgan edi. Zero, bundan bir necha asrlar muqaddam yaratilgan bebaho manbalarda qo'llangan bir qancha istorizmlar va arxizmlarning ma'nosini bugungi kunda to'la tushunish amri mahol hisoblanadi. Shu sababli moziyda bitilgan obidalar mohiyati, ularda ilgari surilgan g'oyalarni anglab yetishda, albatta, g'ozirgi kitoxon lug'atlarga murojaat qilishi tabiiy hol. Mana shunday kezlarda izohli lug'atlar o'quvchiga yaqindan ko'makka keladi. Yuqorida nomlari zikr qilingan lug'atlar asosan Alisher Navoiy va eski adabiy tilida ijod qilgan ko'pdan-ko'p shoirlar asarlarida ishlatilgan so'zlarning ma'nosini ochib berishda muhim rol o'ynaganini avval ham ta'kidlagan edi. Biroq bugungi kun kitoxoni bu lug'atlardan to'laligicha foydalanish imkoniyatiga ega emas. Chunki, bu lug'atlarning ommaviy nashrlari hanuz amalga oshirilmagan. Mana shu jihatlarning hisobga olinishi oqibatida 1983-1985 yillarda O'zR FA "Fan" nashriyotida E.Fozilov tahriri ostida to'rt jildidan iborat "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" chop etildi. Keng kitobxonlar, mutaxassislarga yetkazib berilgan ushbu asar izohli lug'atlarga qo'yilgan talab va printsiplarga binoan yaratilgan edi. Lug'at So'z boshi, Izohli

lugʻatning tuzilishi va undan foydalanish tartibi, manbalar va ularning qisqartmalari hamda bosh soʻz-maqolalardan iborat tarzda shakllantirilgan.

Soʻz boshida lugʻat tuzuvchilari, kartoteka fondi va materiallarni toʻplovchilar, qoʻlyozmani nashrga tayyorlashdagi texnik ishlarni amalga oshirganlar va h.k xususida ma'lumot keltirilgan.

Lugʻatning tuzilishi va undan foydalanish tartibida lugʻat tarkibi, lugʻat maqolasining tuzilishi, soʻz maqolasining izohi, lugʻatdagi frazeologik birliklarning berilishi va talqini, illyustrativ materiallarning berilishi xususida mulohaza yuritilgan. Manbalar va ularning qisqartmalaridan esa Alisher Navoiy nazmiy va nasriy asarlarining qoʻyozma nusxalari hamda nashrlari haqida aniq ma'lumotlar oʻrin olgan. Izohli lugʻatga ulugʻ shoir asarlarida iste'molda boʻlgan soʻz, frazeologik iboralar, turgʻun birikmalar kiritilgan. Har bir soʻz (mustaqil, yordamchi soʻz, yuklama, undov) lugʻatda alohida bosh soʻz-maqola sifatida talqin qilingan. Bosh soʻzlar alifbo tartibida joylashtirilgan. Soʻzning grammatik shakllari bir soʻz sifatida qaralgan. Bir soʻzning turli fonetik variantlari bir lugʻat maqolasida berilgan. Qoʻshma soʻzlar bosh soʻz sifati berilmay, oʻz tarkibidagi komponentlaridan biri maqolasi ichida, birinchi komponent maqolasida keltirilgan: Avd “qaytish”; -et-//qil- “qaytmoq, qaytib kelmoq” va h.k.

Omonim soʻzlarning har biri alohida maqolalarda bosh soʻz tarzida berilgan, rim raqamlari bilan bir-biridan farqlangan: Azm 1 “niyat, maqsad, mayl, qatʼiy qaror; jazm, iroda”; Azm P “suyak, ustuxon” va h.k. Bosh soʻz yolgʻiz ishlatilmasdan, birikma tarkibidagina qoʻllangan boʻlsa, bosh soʻzdan keyin oʻsha soʻzning birikmadagi holati izohlangan, ayrim oʻrinlarda bosh soʻz izohlanib, soʻngra birikma yoritilgan: Avr – avr oʻl- “yalangʻoch boʻlmoq” va h.k. Sinonimlar alifbo tartibida oʻz oʻrnida bosh soʻz sifatida talqin qilingan. Lugʻat maqolasi quyidagi elementlardan iborat:

- bosh soʻz transliteratsiya asosida berilgan;
- nodir qoʻlyozmalardagi soʻzlarning arabcha tipik yozuv shakli Ilovada berilgan;
- bosh soʻzning ma'nosi yoki ma'nolari izohi;
- bosh soʻz ma'nolarini tasdiqlovchi qoʻlyozma yoki nashrlardan olingan misollar;
- qoʻlyozmaning sahifa va qatorlari, nashr qilingan manbaning varaqlari;
- izofa, idiomatik, frazeologik, turgʻun birikmalar, qoʻshma ot va fe'llar sharhi va illyustrativ material;
- bosh soʻzning fonetik varianti parallel chiziqdan soʻng berilgan. Lugʻatda izohlangan soʻz alohida qoʻllanmagan taqdirda oʻsha soʻz bilan kelgan birikma keltirilib, sharhlangan.

Soʻzlarning mustaqil ma'nolari bir-biridan arab raqamlari bilan ajratilgan, har bir ma'noga tegishli ma'no nozikliklari ba'zi oʻrinlarda ajratilmay, misollar berish bilan kifoyalangan. Soʻzlaning ma'nosini ochishda quyidagi usullardan foydalanilgan:

- qisqacha tushuntirish yoʻli bilan izohlash;
- keng tushuntirish yoʻli bilan izohlash;
- sinonimlar yordamida izohlash;

- antonimlar orqari izohlash;
- qisqacha entsiklopedik ma'lumotlar keltirish orqali izohlash;
- realiyani kengroq izohlash.

Soʻz ma'nolarini joylashtirishda ularning oʻzaro yaqinligi, ichki munosabati inobatga olingan. Polisemantik soʻzlarni izohlashda avval ularning bosh(birlamchi), soʻngra hosila ma'nolari berilgan. Alisher Navoiy asarlari tili izohli lugʻatini tuzish jarayonida soʻzlar ma'nosini izohlashda matn, soʻzning hozirgi oʻzbek tilidagi leksik-semantik, grammatik ekvivalenti nazardan qochirilmagan. Adib asarlarida qayd etilgan atoqli otlar, asarlar nomlari, geografik ob'ektlar nomlari va h.k. lugʻatning "Ilova"sida keltirilgan va izohlangan.

Soʻzlarning ma'nosini ochib berishda mualliflar moziyda Navoiy asarlariga tuzilgan lugʻatlar, tadqiqotlarga oʻrni bilan murojaat qilishgan.

#### Nazorat savollari

1. Soha terminologiyasiga doir izohli lugʻatlar sizni qoniqtiradimi?
2. Izohli lugʻatlarning boshqa tip lugʻatlardan farqi nimada?
3. Izohli lugʻat tuzishda qanday printsiplarga amal qilinadi?
4. "Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati" xususida qanday fikrdasiz?
5. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati"ga baho bering.
6. Mustaqillik davrida tuzilgan izohli lugʻatlardan foydalanasizmi?
7. Izohli lugʻatdagi soʻzning bosh va hosila ma'nolarini izohlashda qanday printsipga yondashish lozim?
8. Siz faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasasida qanday fan sohalariga doir izohli lugʻatlar tuzilgan?

#### *Foydalanilgan adabiyot*

1. Alisher Navoiy asarlari tilning izohli lugʻati. I-IV. Toshkent: Fan, 1983-1985.
2. Begmatov E. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1988.
3. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamallari. Toshkent: Fan, 2002.
4. Dadabaev X.A. Obshestvenno-politicheskaya i sotsial`no-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pis`mennix pamyatnikax XI-XIV vv. -Tashkent: Yozuvchi, 1991.
5. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opit lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.
6. Doniyorov R. Oʻzbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.
7. Ruscha-lotinja-oʻzbekcha tibbiy terminlar izohli lugʻati. Toshkent: Kamalak-Hamshira, 1999.
8. Xudayberganova D. Lingvokul`turologiya terminlarining qisqacha izohli lugʻati. Toshkent, Turon zamin ziyo, 2015.
9. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. I-II. M., Ruskiy yazik. 1981.

10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati I-V. Toshkent: Fan, 2000-2006 .
11. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, Fan 2002.

### 13-MAVZU. TERMINOLOGIK LEKSIKOGRAFIYA.

Leksikografiya atamasi grekcha “leksikos” va “grapho” unsurlaridan tarkib topgan, “so‘z yozmoq” ma’nosini bildirgan.

Leksikografiya tilshunoslikning lug‘at va lug‘atchilik haqida so‘z yurituvchi sohasidir. Bu lingvistik tarmoqning asosiy birligi *lug‘at*dir. “Lug‘at” atamasi arab tilidan olingan. U ko‘p ma’noli bo‘lib, til, lahja, sheva: so‘z, ibora ma’nolarini bildiradi. Hozirgi vaktida bu so‘z lingvistik atama sifatida ikki ma’noda ishlatiladi: 1) muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo‘lgan, shuningdek, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so‘zlar yig‘indisi, ya’ni leksika; 2) so‘zlar (yoki morfemalar, frazemalar, so‘z birikmalari va sh.k.) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma’nolari yozilishi (imlosi), talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimai haqida ma’lumotlar jamlangan kitob.

Leksikografiyaning ish ko‘rish doirasi lug‘aviy birliklar doirasidan ancha tashqariga chiqqan bo‘lishiga qaramay, leksikologiyaning bo‘limlaridan biri sifatida qarab kelinadi.

Xullas, leksikografiya *lug‘atchilik* demakdir. Bu atama ham, tilshunoslikning boshqa sohalarida bo‘lganidek, keng doirada qaraladi: 1) lug‘at va uning turlari ma’nosini bildiradi; 2) lug‘at va ularning turlarini ilmiy o‘rganuvchi soha ma’nosida ishlatiladi.

Tilning ijtimoiy mavqeini belgilashda shu tilda yaratilgan lug‘atlarning ahamiyati cheksiz katta. Lug‘atlarga nisbatan “millatning, xalqning alfavit tartibida qayd etilgan bilimi” deb bejiz aytilmagan (R.A.Budagov). Lug‘atlarda til jamoasining dunyoqarashi aks etadi, ma’naviy olami, madaniy boyligi o‘z ifodasini topadi.

Turkiy tilshunoslik, shu jumladan, o‘zbek tilshunosligining poydevori lug‘atchilikdan boshlangan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, ya’ni “Turkiy so‘zlar devoni” (XI asr), Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimatul-adab”, ya’ni “Adab ilmi muqaddimasi” (XII asr) asarlari buning yorqin guvohidir. Lug‘atlar orqali ijtimoiy hayotning turli sohalar bo‘yicha ma’lumotlar to‘planadi, ular avloddan avlodga ma’naviy boylik sifatida meros bo‘lib o‘tadi.

O‘zbek tilshunosligi lug‘atchilik sohasida juda boy tarixga ega ekanligi quvonarli holdir. O‘rta asr leksikografiyasida asosiy e’tibor ko‘proq izohli va tarjima lug‘atlariga qaratilgan bo‘lsa-da, keyinchalik, ayniqsa, o‘tgan asrning 40 – yillaridan boshlab o‘zbek tilshunosligining leksikografik yo‘nalishi ancha kengaydi. Lug‘atning ensiklopedik, imlo, orfoepik, morfem, chastotali, ters, dialektal, etimologik va h.k. turlariga poydevor qo‘yildi va bu sohada ibratli ishlar amalga oshirildi.

#### **Lug‘atlarning turi va ularning tavsifi**

O‘z qamrovi, maqsadi, vazifasi va xarakteriga ko‘ra, lug‘atlar bir necha turli bo‘ladi. Dastlab ularning ikki turi ajratiladi:

- 1) ensiklopedik lugʻatlar;
- 2) lingvistik (yoki filologik) lugʻatlar.

Ensiklopedik va lingvistik lugʻatlar, eng avvalo, obʻektiga koʻra farq qiladi. Lingvistik lugʻatlarning obʻekti tilning lugʻaviy va frazemalar tizimidir. Shuningdek, lingvistikaning soʻz va frazemalardan boshqa birliklari ham, masalan, morfema, soʻz birikmalari va b. ham lingvistik lugʻatlarga obʻekt boʻlaveradi. Shuning uchun lingvistik lugʻatlarning obʻekti keng va tilning maʼlum bir sathi bilan cheklanmaydi.

Ensiklopedik lugʻatlarda soʻz yoki frazemalar emas, balki tushunchalar sharhlanadi. Shuning uchun bunday lugʻatlarda soʻz va iboralarning oʻzi emas, balki ular orqali bildiriladigan voqea, shaxs, predmet va hodisalar izohlanadi. Narsa-hodisalar haqidagi tushunchalar soʻz va soʻz birikmalari orqali ifodalanadi. Ana shu narsa-hodisalar haqidagi tushunchalar ensiklopedik lugʻatlarning asosiy birligi hisoblanadi. Bulardan tashqari, ensiklopedik lugʻatlarda asosan ot turkumiga oid lugʻaviy birliklar sharhlanadi. Ularning ichida atoqli otlar, masalan, tarixiy voqealar va ularning ishtirokchilari, joy nomlari boʻlishi mumkin. Shuningdek, ensiklopedik lugʻatlarda son, olmosh va yordamchi soʻzlar haqida maʼlumot berilmaydi.

### **Lingvistik (filologik) lugʻat va uning turlari**

Lingvistik lugʻatlarning asosiy maqsadi tilning barcha sath birliklarining lisoniy xususiyatlarini sharhlashga qaratilgan boʻladi. Ular lisoniy hodisalarning qaysi jihati sharhlanishiga koʻra, bir necha xil boʻladi. Lingvistik lugʻatlar, eng avvalo, *oʻz til lugʻatlari* va *tarjima lugʻatlari* kabi ikki guruhga ajraladi.

*Tarjima lugʻatlari* bir tilga xos lisoniy birliklarni ikkinchi tilga oʻgiradi: unda bir tilning lugʻaviy birliklariga boshqa tilning ularga maʼno va vazifada mushtarak variantlari beriladi. Bunday lugʻatlar ham ikki xil boʻladi: a) *oʻz tilga tarjima lugʻatlari*; b) *oʻzga tilga tarjima lugʻatlari*.

Oʻz tilga tarjima lugʻatlarining namunalari sifatida “Nemischa-oʻzbekcha lugʻat” (Ya.R.Benyaminov, T.Z.Mirsoatov, Toshkent, 1964), “Inglizcha-oʻzbekcha lugʻat” (J.B.Boʻronov, X.R.Rahmonberdiev, S.X.Barnoxoʻjaeva, E.A.Anisimov, Toshkent, 1968), “Arabcha-oʻzbekcha lugʻat” (1986), “Frantsuzcha-oʻzbekcha lugʻat” (T.Aliqulov, D.Bozorova, Toshkent, 1973), “Ispancha-oʻzbekcha lugʻat” (1977), “Hindcha-oʻzbekcha lugʻat” (1987), “Oʻzbekcha-forscha oʻquv lugʻati” (1975), “Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻat” (A.Zohiriy, 1927), bir jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (1954), besh jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (1951-1955), ikki jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (1983-1984) kabilarni koʻrsatish mumkin.

Oʻzbek tilida oʻz tilga tarjima lugʻatlarining turkiy tillararo turi ham mavjud. Bu A.Mashrabov, B.Nishonov va R.Abdullaevlar hammuallifligida tuzilib, 2002 yili Bishkekda nashr etilgan “Qirgʻizcha-oʻzbekcha lugʻat” (“Koʻrgoʻzcha – ozbekche sozduk”)dir. Lugʻat hajman uncha katta boʻlmay, umumtaʼlim maktablari oʻquvchilari hamda oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun moʻljallangan.

Oʻzga tilga tarjima lugʻatlari ham anchagina. Ularga Xoksorning “Muntaxabul-lugʻat”i (forscha-oʻzbekcha, XVIII asr, Xiva); Mirzo Mahdiyxonning “Sangloh” (oʻzbekcha-forscha, XVIII asr, Eron); “Oʻzbekcha-nemischa lugʻat”

(1967); “Uzbeksko-russkiy slovar” (V.V.Reshetov, Toshkent, 1957), “O‘zbekcha-inglizcha lug‘at” (1969); “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha lug‘at” (K.Yudaxin, 1927); bir jildli “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” (1959, 1988) kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Tarjima lug‘atlari, ob‘ektiga ko‘ra, ham ikki guruhga ajraladi: a) *ikki tilli tarjima lug‘atlari*; b) *ko‘p tilli tarjima lug‘atlari*. Yuqorida siz bunday lug‘atlarning ikki tilli turlariga keltirilgan namunalar bilan tanishdingiz.

Ko‘p tilli tarjima lug‘atlarida bir tilning lug‘aviy birliklari ikki va undan ortiq boshqa tillarning unga mos muqobilari bilan sharhlanadi. Bulardan tashqari, tarjima lug‘atlarining frazemalar sathiga xos turlari ham mavjud.

Masalan, M.Sodiqovning “Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1972)da rus tilining frazeologik iboralari o‘zbek tiliga ularning ma‘nodosh muqobillari bilan o‘girilgan.

O‘z til lug‘atlari ham o‘z navbatida: a) *umumiy o‘z lug‘atlari* va b) *maxsus o‘z til lug‘atlari* kabi ikki guruhga bo‘linadi.

### Umumiy o‘z til lug‘atlari

Bunday lug‘atlar til leksikasining barcha qatlam so‘zlarini qamrab oladi. Umumiy lug‘atlar ham bir necha xildir. Ularga quyidagilar kiradi:

1. *Izohli lug‘atlar*. Lug‘atning bunday turlarida so‘zlarning ma‘nolari, qo‘llanish sohasi va darajasi, fonetik va grammatik xususiyatlari ko‘rsatib beriladi.

O‘zbek tilshunosligida izohli lug‘atning dastlabki namunasi sifatida 1981 yili Moskvada nashr etilgan ikki jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni ko‘rsatish mumkin. Bu lug‘atda o‘zbek adabiy tilidagi 60 mingdan ortiq lug‘aviy birliklar sharhlangan. Keyinchalik bu lug‘at “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”) besh jildda Toshkentda nashr etildi (2006 – 2008 yillar). Unga hozirgi o‘zbek adabiy tili iste‘molida bo‘lgan 80 mingdan ortiq lug‘aviy birliklar kiritilgan.

2. *Xorijiy so‘zlar lug‘ati*. Bu tip lug‘atda boshqa tildan o‘zlashgan so‘z va terminlar beriladi. Rus tilshunosligida xorijiy tillar lug‘ati katta hajmda nashr etilgan. Ularga 2004 yili Moskvada nashr ettirilgan “Bolshoy illyustrativno‘y slovar inostranno‘x slov”; 2003 yili Minskda nashr qilingan “Noveyshiy slovar inostranno‘x slov i vo‘rajeniy” kabi lug‘atlar misol bo‘ladi. Xorijiy so‘zlar lug‘ati o‘zbek tilshunosligida O.Usmon va R.Doniyorovlar tomonidan “Ruscha internatsional so‘zlar izohli lug‘ati” nomi bilan 1965 (birinchi nashri) va 1975 (ikkinchi nashri) yillarda nashr etilgan. Shu lug‘atning “V” harfidan olingan ayrim misollarga e‘tibor bering:

**Vagon.** *Temir yo‘llarda odam va yuk tashish uchun ishlatiladigan berk arava.* rus. ingl. – arava

**Vagonetka.** *Katta qurilishlarda, ishlab chiqarish korxonalarida, konlarda yuk tashiydigan usti ochiq vagoncha.* rus.: q. vagon.

**Vagonovojat.** *Tramvay haydovchi.* rus. Vagonovojato‘y: q. vagonQvojato‘y vodit – yurgizish.

**Vagonsozlik.** *Transport mashinasozligining vagonlar yasaydigan tarmog‘i, mas., vagonsozlik zavodi.* rus., vagonostroenie; q. vagon.

**Vagranka.** *tex. Cho‘yan eritadigan shaxtasimon pech.* Rus.

**Vagranchi.** *Vagranchi* ishlovchi ishchi, mutaxassis. rus. *vagranhik* va boshqalar.

3. *Imlo lug'ati*. Imlo lug'atida so'z va atamalarning adabiy til me'yoriga muvofiq to'g'ri yozilishi beriladi. O'zbek tilshunosligida lug'atning bu turini yaratishga o'tgan asrning qirqinchi yillaridan kirishilgan.

O'zbek tili imlo lug'atlarining yaratilishida O.Usmon, S.Ibrohimov, M.Rahmonov kabi tilshunoslarning xizmati katta. Masalan, O.Usmon 1940 yili "O'zbek tilining orfografik lug'ati" (178 sahifa)ni nashr ettirgan bo'lsa, 1941 yilga kelib bunday lug'at ("O'zbek adabiy tilining orfografik lug'ati") 360 sahifa hajmida S.Ibrohimov va M.Rahmonovlar tomonidan yaratildi.

1949 yili esa O.Usmonning "O'zbek tilining orfografik lug'ati" kengaytirilib (320 sahifa), qaytadan nashr qilindi. 1972 yilga kelib "O'zbek tilining imlo lug'ati" S.Ibrohimov, E.Begmatov va A.Ahmedovlar tomonidan yana mukammallashtirilgan holda nashr ettirildi.

4. *Orfoepik lug'at*. Orfoepik lug'atda til lug'aviy birliklarining adabiy tilga muvofiq talaffuzi beriladi. O'zbek tilshunosligida bunday lug'atning ikki namunasi mavjud. Ularning biri M.Sodiqova va O'.Usmonovlar tomonidan 1977 yili "O'zbek tilining orfoepik lug'ati" nomi bilan nashr ettirilgan. Ikkinchisi esa, 1984 yili professor E.Begmatov tomonidan "O'zbek adabiy talaffuzi lug'ati" nomi bilan chop ettirilgan.

5. *Morfem lug'at*. Bunday lug'atda tildagi so'zlarning morfem tizilishi beriladi. O'zbek tilshunosligida bunday lug'at ("O'zbek tilining morfem lug'ati") A.G'ulomov, A.N.Tixonov va R.Qo'ng'urovlar tomonidan 1977 yili nashr ettirilgan. Lug'atning bu turi, tuzilishi va xarakteriga ko'ra, o'z til lug'atlarining boshqa turlaridan farq qilganligi uchun, e'tiboringizga ayrim namunalar havola qilamiz:

Yirik / la / moq	yir / il / moq
Yirik / la / sh / moq	yiri / ng
Yirik / la / sh / tir / ish	yiri / ng / la / moq
Yirik / la / sh / tir / moq	yiri / ng / la / sh

6. *Chastotali lug'at*. Chastotali lug'atlar so'zlarning qo'llanishi va foizi haqida ma'lumot beradi. O'zbek tilshunosligida bu tip lug'atlarga quyidagilar kiradi: I.A.Kissen. "Slovar naibolee upotrebitelno'x slov sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazo'ka". Tashkent, 1972; S.Rizaev. "O'zbek bolalar adabiyoti tili leksikasining chastotali lug'ati". Toshkent, 1980; S.Rizaev, N.Bo'ronov. "Sinchalak" povesti tili leksikasining chastotali lug'ati", Toshkent, 1980 yil va b.

7. *Ters lug'at*. Lug'atning bu turida so'zlar teskari (orqa) tomondan o'qilishi bo'yicha alfavit tartibida beriladi. Shuning uchun bunday lug'atni chappa lug'at deb ham ataladi. O'zbek tilshunosligida ters (chappa) lug'at R.Qo'ng'urov va A.Tixonovlar tomonidan tuzilib, 1969 yili Samarqandda nashr ettirilgan. U "O'zbek tilining chappa lug'ati" deb ataladi. Bu lug'atdan olingan namunaga e'tibor bering:

muddat	toat-ibodat	serxarajat
bemuddat	valodat	hujjat

kandidat	shahodat	xat-hujjat
soldat	vahdat	behujjat
mandat	laureat	munojat
odat	jat	hojat
ibodat	xarajat	muhofazat
riyozat	belazzat	ijozat
lazzat	boizzat	beijozat

### Maxsus o‘z til lug‘atlari

Lug‘atning bunday turlarida leksikaning barcha qatlam lug‘aviy birliklari emas, balki uning (leksikaning) ayrim qatlamlari yoki sathlariga oid lisoniy hodisa va birliklar alfavit tartibida beriladi. Bunday lug‘atlar ham, unga kiritilayotgan lisoniy hodisalarning turi va xarakteriga ko‘ra, bir necha xil bo‘ladi. Chunonchi:

1. **Sinonimlar lug‘ati.** O‘zbek tilshunosligida sinonim so‘zlar lug‘ati akademik A.Hojiev tomonidan tuzilgan va u 1974 yili “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” nomi bilan nashr qilingan.

2. **Antonimlar lug‘ati:** Sh.Rahmatullaev, R.Shukurov “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”, Toshkent, 1980.

3. **Omonimlar lug‘ati:** Sh.Rahmatullaev. “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”, Toshkent, 1984.

4. **Paronimlar lug‘ati:** “Paronimlar lug‘ati” A.Ma‘rufov tomonidan tuzilgan va u 1974 yili Toshkentda nashr etilgan. Unda ohangdosh so‘zlar alfavit tartibida sharhi bilan berilgan, 234 qatorni tashkil etuvchi paronimlar izohlangan. Undan ayrim namunalar keltiramiz:

#### **Borlik – Borliq**

*B o r l i k – bor bo‘lish, mavjudlik.*

*Otabek Zaynabning shu qadar yurak dardi borligini birinchi bilar edi (A.Qodiriy).*

*B o r l i q – olam, dunyo.*

*Borliq uzra tushganda oqshom,*

*Zaynab qo‘ydi dalaga qadam (H.Olimjon).*

#### **Milk – Mulk**

*M i l k – tishni tutib turadigan qism, tish o‘rni.*

*Doktorning ...kaftlarida xuddi yigirma yashar yigitning og‘zidan milklari bilan ko‘chirib olinganday bir tekis sadaf tishlar xalqasi yaltirab yotar edi (gazetadan).*

*M u l k – boylik, er-suv, ko‘p miqdordagi mablag‘.*

*Bosmachilik yo‘qolsa, boylar mol-mulkidan judo bo‘lishdan qo‘rqadi (A.Qahhor) va boshqalar.*

5. **Frazeologik lug‘at.** O‘zbek tilshunosligida frazeologik lug‘atning bir necha turlari yaratilgan. Masalan, Sh.Rahmatullaevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” (1978; 1992 yillar) o‘zbek tili frazemalari qomusiga bag‘ishangan o‘z til lug‘ati xarakterida bo‘lsa, M.Sodiqovanning “Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1972), M.Abdurahimovning “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1980); M.Umarxo‘jaev va N.Nazarovlarning “Nemischa-ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘ati” (Toshkent,



1994) ikki va ko‘p tilli frazeologik tarjima lug‘atlarining namunasidir. E.Umarov tomonidan 1971 yili nashr ettirilgan “Frazeologicheskiy slovar “Xazoyinul-maoniy” Alishera Navoi” lug‘ati o‘zbek lug‘atchiligining ayrim ijodkorlar tili frazemalari tizimiga bag‘ishlangan namunasiga kiradi.

6. **Tasviriy ifodalar lug‘ati.** Bunday lug‘atning ilk namunasi R.Rasulov va I.Umirovlar tomonidan tayyorlanib, 2005 yili Toshkentda nashr etilgan. U “O‘zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug‘ati” deb ataladi. Bu lug‘atda badiylik va emotsional-ekspressivlikni ro‘yobga chiqaradigan lisoniy vositalar alfavit tartibida berilgan.

7. **Evfemik lug‘at.** Lug‘atning bu turi lingvistik lug‘atlar sirasidagi eng yangilaridan biri bo‘lib, unda tabu ostiga olingan narsa-hodisalarning parafrastik ekvivalentlari alfavit tartibida beriladi. O‘zbek tilshunosligida evfemistik lug‘atning ilk namunasi sifatida A.Omonturdiyev tomonidan tayyorlanib, 2006 yili nashr ettirilgan “O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati”ni ko‘rsatish mumkin.

8. **Dialektal lug‘at.** Lug‘atning bu turida adabiy tilda uchramaydigan va o‘zbek tilining turli lahja va shevalari uchungina xos bo‘lgan mahalliy so‘zlar transkriptsiya shaklida, alfavit tartibida beriladi. Dialektal lug‘atlarning namunalari sifatida F.Abdullaevning “Xorazm shevalari. 1-qism. Lug‘at” (Toshkent, 1971); mualliflar hamkorligida 1971 yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” kabilarni ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, S.Ibrohimov tomonidan 1956 va 1959 yillarda ikki kitob shaklida tayyorlanib, nashr etilgan “Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi” asari ham dialektal lug‘atning bir ko‘rinishidir.

9. **Etimologik lug‘at.** Etimologik lug‘atlar so‘zlarning kelib chiqishi, ularning anglatgan dastlabki ma‘nolari xususida ma‘lumot beruvchi ilmiy manbadir.

O‘tgan asrning yigirmanchi yillari boshlarida professor E.D.Polivanov tomonidan o‘zbek tilining ilk etimologik lug‘ati yaratilgan edi. Keyinchalik turkiy tilshunoslikda lug‘atning bu turiga E.V.Sevortyan tomonidan qo‘l urildi. U 1974 – 1984 yillar orasida to‘rt jildli “Turkiy tillarning etimologik lug‘ati” (“Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazo‘kov”)ni Moskvada chop ettirdi. 2000 – 2003 yillar orasida professor Sh.Raxmatullaev tomonidan “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” ikki kitob shaklida Toshkentda nashr ettirildi. Kitobning birinchisida o‘zbekcha so‘zlar, ikkinchisida esa, arabcha so‘zlarning kelib chiqishi haqida ma‘lumot berilgan.

10. **Toponimik lug‘at.** Bunday lug‘atda joy nomlari va ularning lisoniy va nolisoniy asoslari yoritiladi. O‘zbek leksikografiyasi ham bunday lug‘atlarga ega. S.Qoraev qalamiga mansub “Geografik nomlar ma‘nosini bilasizmi?” (Toshkent, 1970); Z.Do‘simov va X.Egamovlar tomonidan nashr qilingan “Joy nomlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, 1977); T.Nafasov tomonidan “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati” joy nomlari lug‘atining ibratli namunalaridir. B.O‘rinboev tomonidan tuzilgan “Asrlardek barhayot nomlar” (Toshkent, 2003) lug‘ati ham joy nomlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Samarqand viloyati toponimlari izohlangan.

11. **Antroponimik lug‘atlar.** Kishi ismlari, familiyalari, laqab va taxalluslari jamlangan va sharhlangan lug‘atlar antroponimik lug‘atlardir. Antroponimik

lugʻatlar oʻzbek leksikografiyasida birinchi marta professor E.Begmatov tomonidan tuzilgan va nashr ettirilgan. Uning 14600 nomni oʻz ichiga olgan va 1998 hamda 2006 yillari eʼlon qilingan “Oʻzbek ismlari maʼnosi” lugʻati buning dalilidir. Shu muallifning 1994 yil “Fan” nashriyoti tomonidan chop qilingan “Ismlar chiroyi” kitobining asosiy qismida ham oʻzbek ismlari izohlangan va antroponimik lugʻat xarakterini kasb etgan.

12. **Paremiologik lugʻat.** Maʼlumki, xalq ogʻzaki ijodining maqol, matal va aforizm xarakteridagi hodisalari ham koʻchma maʼnoli sintaktik qurilmalar ekanligi bilan frazemalarga oʻxshaydi. Bunday lisoniy-nutqiy hodisalarning toʻplanib, alfavit tartibida izohlanishi ham lugʻatlar xarakterini kasb etadi va ular paremiologik lugʻat deyiladi. H.Berdiyev va R.Rasulovlar hammuallifligida 1984 yili “Oʻqituvchi” nashriyoti tomonidan chop qilingan “Oʻzbek tilining paremiologik lugʻati” buning yorqin namunasidir. Bu lugʻatdan namuna sifatida “A” harfiga oid quyidagi parchani keltirish mumkin:

*Avval oʻyla, keyin soʻyla.*

*Avval oʻrgan, keyin oʻrgat.*

*Avval oʻsgan quloqdan keyin chiqqan moʻgʻiz oʻzib ketar.*

*Avob tabib – ofati jon.*

*Adashgan aqldan ozar.*

*Adashgan yoʻlini topsa, ayb emas.*

*Adashganni barcha kechirar.*

*Adashganni yoʻlga sol va boshqalar.*

13. **Atamalar (terminologik) lugʻati.** Bunday lugʻatda maʼlum bir fan va texnika, uning sohaları hamda xalq xoʻjaligining turli tarmoqlariga oid soʻz va atamalar izohlanadi. Oʻzbek leksikografiyasida bunday lugʻatlar nihoyatda koʻp. Oʻtgan asrning 20–yillaridan 70–yillariga qadar 130 ga yaqin terminologik lugʻatlar chop qilingan. Ularning ilk namunaları sifatida N.Toʻraqulov tomonidan 1922 yili nashr ettirilgan “Rus-oʻzbek tillarining ijtimoiy-siyosiy atamaları lugʻati”, M.Mirboboev va boshqalar tomonidan 1941 yili nashr etilgan “Qisqacha geologiya-razvedka terminlari soʻzligi”, N.V.Kimberg va M.Bahodirovlar tomonidan 1940 yili chop etilgan “Ruscha-oʻzbekcha agrotuproqshunoslik terminlari soʻzligi”, B.Mashrabov va Sh.Qosimovlar tomonidan 1970 yili nashr ettirilgan “Qurilish terminlari lugʻati” kabi va boshqa yana bir qator ishlarni keltirish mumkin.

Hozirga qadar oʻzbek tilshunosligida fan va texnikaning turli sohalariga bagʻishlangan atamalar lugʻatining miqdori uch yuzga yaqinlashadi. Ular ilm-fanning turli sohalarini oʻz ichiga olgan. Xususan, “Ruscha – oʻzbekcha matematik terminlar lugʻati” (M.Sobirov, 1952), “Ruscha – oʻzbekcha fizik terminlar lugʻati” (M.D.Yagudaev, R.Mallin, 1952), “Qisqacha ruscha – oʻzbekcha geografiya terminlari lugʻati” (N.Dolimov va b., 1953), “Ximiyadan ruscha – oʻzbekcha izohli lugʻat” (Z.Saidnosirova, T.V.Derkunskaya, 1954), “Qisqacha ruscha – oʻzbekcha botanika terminlari lugʻati” (S.Sahobiddinov, 1954), “Qisqacha ruscha – oʻzbekcha tuproqshunoslik terminlari lugʻati” (M.Bahodirov va b., 1956), “Ruscha – oʻzbekcha meteorologik lugʻat” (M.Orifxonova, 1956), “Qisqacha izohli zoologiya terminlari lugʻati” (T.Zohidov, 1938), “Geologiyadan ruscha – oʻzbekcha

terminologik lug‘at” (O.Sodiqov, 1958), “Yuridik terminlar lug‘ati” (F.Bakirov, 1959), “Ruscha – o‘zbekcha meditsina lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1962, 1971), “Ruscha – o‘zbekcha fizikultura va sport terminlarining izohli lug‘ati” (R.Ismoilov, M.Norkin, 1961), “Ruscha-o‘zbekcha pedagogika terminlari lug‘ati” (Sh.Bayburov, N.Takanaev, 1963), “Ruscha – o‘zbekcha yarim o‘tkazgich terminlarining izohli lug‘ati” (M.Azizov, 1966), “Ruscha-o‘zbekcha gidrotexnika terminlari lug‘ati” (Z.Husanxo‘jaev, 1969), “Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha – o‘zbekcha terminologik lug‘at” (N.Hatamov, 1969), “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati” (A.Homidiy va b., 1967, 1971), “Ruscha – o‘zbekcha muzika terminlari lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1970), “Paxtachilik terminlarining qisqacha izohli lug‘ati” (N.Mamatov, 1964), “Elektr mashinalari va avtomatlashtirilgan elektrik yuritma terminlarining izohli lug‘ati” (S.Majidov, 1971) va boshqa nashr etilgan bir qator lug‘atlar shular jumlasidandir.

Bunday lug‘atlar safi mustaqillik yillari va uning arafasida yana kengaydi. Masalan, akademik A.Hojievning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, 2002), A.H.Yunusovning “Fiziologik terminlarning izohli lug‘ati” (Toshkent, 1984), H.Yu.Bekmuhammedovning “Tarix terminlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, 1990), J.Umarov tomonidan tuzilib, Qo‘qonda nashr etilgan “Atamalar lug‘ati”, H.Bektemirov va E.Begmatovlar hammuallifligida nashrdan chiqqan “Mustaqillik davri atamaları” (Toshkent: Fan, 2002) kitobchasiga ilova qilingan lug‘at ana shu davrda yaratilgan.

Shuni alohida e‘tirof etish zarurki, J.Umarov tomonidan tuzilgan “Atamalar lug‘ati”da umumxalq tiliga singishmaydigan tavsiya variantlari ham ko‘p uchraydi. Masalan, *bosma tugma (knopka)*, *ochmaxat // oynaxat (otkro‘tka)*, *qirg‘inbaroq (terrorizm)*, *oshig‘ich (ekstern)*, *xobdori (tabletki)*, *voqeot (syujet)*, *ustxat (grif)*, *tosxona (vanna)*, *qarshidosh (antonim)*, *mungsado // xushsado (melodiya)* va boshqalar shunday tavsifda.

Shunisi muhimki, terminologik lug‘atlarning aksariyati ikki va ko‘p tilli tarjima lug‘atlari xarakterida bo‘lgan. Masalan, “Qurilish terminlarining qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminlari lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1970), “Atmosfera fizikasidan ruscha-o‘zbekcha lug‘ati” (A.A‘zamov, E.Nazirov, 1972), “Ruscha – o‘zbekcha muzika terminlari lug‘ati” (Mualliflar jamoasi, 1970), “Astronomiyadan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologik lug‘at” (1974), “Mashinasozlik texnologiyasi bo‘yicha ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘at” (1973), “Ish yuritish atamalarining ruscha-o‘zbekcha qisqacha lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1994), “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha-inglizcha ish yuritish lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1995) va boshqalar o‘zbek leksikografiyasiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘ldi.

O‘zbek leksikografiyasida spravochnik xarakteridagi izohli lug‘atlar bo‘yicha ham ancha ishlar qilingan. Masalan, “Mexanizatsiyalashga oid spravochnik-lug‘at” (Hamidov A., Toshkent, 1970), “Chizmachilikdan terminologik lug‘at-spravochnik” (1977), “Tarixdan qisqacha izohli lug‘at” (1977), “Qishloq xo‘jalik texnikasiga oid lug‘at-spravochnik” (1981), “Ishlab chiqarish texnologiyasiga doir qisqacha izohli lug‘at” (1981), “Madaniy oqartuv xodimlari uchun qisqacha izohli lug‘at” (1983) va sh.k. buning yorqin dalilidir.

**14. Badiiy asar tilida qo‘llangan so‘zlar izohiga bag‘ishlangan lug‘atlar.**  
Bunday lug‘atlar tuzish o‘zbek tilshunoslida XVI asrdan boshlangan.

Xususan, Alisher Navoiy asarlari tilini o‘rganishga bag‘ishlangan lug‘atlarning o‘zi o‘ntadan ortadi. 1972 yili mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan o‘n besh jilddan iborat “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”, 1983-1984 yillari nashr etilgan to‘rt jilddan iborat “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” ularning eng yiriklari sanaladi.

Bundan tashqari, “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”ning o‘n besh jildligiga ilova qilingan lug‘at ham mavjud. Professor P.Shamsiev va professor S.Ibrohimovlar tomonidan tuzilgan bu lug‘at ham “Navoiy asarlari lug‘ati” deb ataladi. U 1972 yili Toshkentda G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyotida chop etilgan.

Badiiy asarlar tili bo‘yicha lug‘atlar tuzishda professor A.K.Borovkovning xizmatlari beqiyos katta. Uning xizmatlari o‘zbek lug‘atshunosligi tarixida alohida qadrlanadi. Olim O‘rta Osiyo lug‘atchiligi tarixini “*Abushqa*”, “*Sangloh*”, “*Xulosa-i-Abbosiyy*”, “*Badoeul-lug‘at*”, “*Kelurnoma*” singari asarlar tahlilida ko‘rsatishga erishdi.

A.K.Borovkov Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan “Badoeul-lug‘at” asarini chuqur o‘rgandi, uni nashr etilgan shu tipdagi boshqa bir qator lug‘atlar bilan qiyosladi.

Lingvistik lug‘atlarning turi bu aytilganlar bilan cheklanmaydi. Lug‘atlar ichida hali to‘la shakllantirilib, amalga oshirilmagan yana boshqa turlar ham borki, ularga *qisqartma so‘zlar lug‘ati*, *tarixiy va arxaiik so‘zlar lug‘ati*, *badiiy asar nomlari lug‘ati*, *laqab va taxalluslar lug‘ati* va h.k. kabilar mansubdir.

### **Ensiklopedik lug‘atlar**

O‘tgan asrning 70 – yillarida o‘zbek ensiklopediyasi (“O‘zbek sovet ensiklopediyasi”)ning yaratilishi o‘zbek tilshunosligining lug‘atchilik sohasidagi katta yutuqlaridan biri edi. Bu lug‘at o‘zbek leksikografiyasida ilk qomusiy lug‘at ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, unda sobiq sovet voqeligi, sho‘rolar siyosati, mafkurasi aks ettirilgan bo‘lib, o‘z tariximiz, milliy an‘analarimiz, ma‘naviy merosimiz parda ostida ko‘rsatilgan edi. Shuning uchun mustaqillik davrida milliy ensiklopediyani yaratish ehtiyoji kun tartibidagi eng dolzarb vazifaga aylangandi. Ana shu ehtiyoj mustaqillik davri o‘zbek milliy ensiklopediyasining 1-jildi yaratilishi bilan, ma‘lum darajada qondirilgandek bo‘ldi. Ensiklopedik lug‘atlar ikki asosiy guruhga bo‘linadi: 1) universal, ya‘ni umumiy ensiklopedik lug‘atlar; 2) sohaviy, ya‘ni xususiy ensiklopedik lug‘atlar.

O‘zbek leksikografiyasida universal ensiklopedik lug‘at, yuqorida aytilganidek, o‘tgan asrning 70–yillarida paydo bo‘ldi (“O‘zbek sovet ensiklopediyasi”). Sohaviy ensiklopedik lug‘atlar nashr etilishi ancha avval boshlangan (bu haqda yuqorida, darslikning “*Atamalar lug‘ati*” sarlavhasi ostida ma‘lumot berildi).

### **Ideografik (mavzuiy) lug‘atlar**

Lug‘atshunoslikda ideografik, ya‘ni mavzuiy lug‘atlarning ahamiyati ham nazariy, ham amaliy jihatlardan cheksiz kattadir. Bunday lug‘atlar vositasida

ob'ektiv borliq narsa-hodisalari va ularning o'zaro munosabatlari o'ziga xos alohida-alohida mikrotizimlar tarzida izohlanadi. Ideografik lug'atlar tuzilishining o'ziga xos tamoyili bor. Bu tamoyil "borliqQborliqning ongda aks etishiQnom" tartibida amal qiladi. Bu tamoyil "tushuncha"dan "so'z"ga, "kontsept"dan "belgi, ya'ni ramz"ga o'tish jarayonini o'z ichiga oladi.

Ideografik lug'atlarning ilk namunalari sifatida Boburning "Voqeanoma", Muhammad Chingiyning "Kelurnoma" lug'atlarini keltirish mumkin. Seziladiki, ideografik lug'atchilikda o'zbek tilshunosligi o'rnak bo'larli tarixiy tajribaga ega. Muhammad Chingiy lug'ati 15 bob, 332 fasldan iborat bo'lib, uning oxirgi – o'n beshinchi bobi ideografik xarakterga ega. 1300 so'z va 6000 dan ortiq so'z shakllarini o'z ichiga olgan bu bob 9 mavzuga bo'linadi: 1) osmon va u bilan bog'liq tushunchalar; 2) er va u bilan bogliq tushunchalar; 3) ot va egarlanadigan hayvonlar; 4) burgutlar va yovvoyi qushlar; 5) odam jismi a'zolari nomlari; 6) qarindoshlik nomlari; 7) qurol-yarog' nomlari; 8) sanoq nomlari; 9) olmosh, ravish va qo'shimchalar. Masalan, mazkur bobning 1 – faslida *ko'k, ay, aydun, yulduz, hulkar, yaruq, yaruqluq, bulut, yag'mur, qar, muz, chapqun (sovuq shamol), yel, suv, o't, chang, shudring, tong, kun, kunduz, kecha, erta, kech, axsham, qarang'u, alav, qo'sh, yaz, savuq* va boshqa bir qancha so'zlar ularning tojikcha-forscha tarjimasi bilan berilgan.

Professor B.Vafoev tomonidan nashr etilgan "Ko'hna so'zlar tarixi" (Toshkent: Fan, 1991) ham ideografik lug'at xarakteriga ega. Bu kitobda eski o'zbek tili yozma manbalarida qo'llangan ko'pgina qadimgi turkiy (o'zbekcha), forscha-tojikcha va arabcha so'zlar tarixiy-etimologik jihatdan tekshirilgan. Mazkur kitobning ideografik lug'at xarakterini kasb etishi shundaki, unda o'rganilayotgan so'zlar uch yirik guruhga ajratilgan: 1) o'simliklarga mansub so'zlar; 2) hayvonot dunyosiga mansub so'zlar; 3) uy-ro'zg'or va xo'jalik buyumlarini bildiruvchi so'zlar. Har bir guruh o'z ichida yana boshqa mayda-mayda tagguruhlarga bo'lingan. Masalan, "o'simliklar olamiga mansub so'zlar" guruhi *meva nomlari, sabzavot nomlari, don nomlari, o'simliklar nomlari, dehqonchilikka doir so'zlar* singari ichki to'dalarga ajratilgan. "Hayvonot dunyosiga mansub so'zlar" nomi bilan ajratilgan guruhda *chorva mollari nomlari, vahshiy hayvonlar nomlari, sudralib yuruvchi hayvonlar nomlari, qushlar nomlari* haqida ma'lumot berilgan. Uchinchi yirik guruh esa *kiyim, bezak, xo'jalikka doir nomlar; ovqat va suyuqliklar nomlari; hajm, o'lchov, sathga aloqador nomlar; rang nomlari; idish-tovoqlar nomlari* kabi tagguruxlarga bo'lingan.

Ideografik lug'atning tarjima turi ham mavjud. Ideografik lug'atning bu turiga A.N.Tixonov, N.T.Xatamov, S.A.Emelyanova va M.Yu.Tixonovalar hammuallifligida nashr etilgan "Russko-uzbekskiy tematicheskiy slovar" (Toshkent: O'qituvchi, 1979 yil) misol bo'la oladi. Bundan tashqari, V.I.Krasno'x va S.I.Gayupovlar hammuallifligida 1989 yili Moskvaning "Russkiy yazo'k" nashriyotida chop qilingan "O'zbekcha-ruscha va ruscha-o'zbekcha so'zlashuv kitobi" ("Uzbeksko-russkiy i russko-uzbekskiy razgovornik") ham lug'atning ana shu turiga mansubdir. A.N.Tixonov va boshqalar hammuallifligidagi lug'at "Tabiat" ("Priroda"), "Inson hayoti va faoliyati" ("Jizn i deyatelnost cheloveka"), "Fazo. Vaqt. Miqdor. Hisob" ("Prostranstvo, Vremya, Kolichestvo, Schyot") kabi

bo‘limlardan iborat. Har bir bo‘lim bir necha ichki mavzuiy guruhlarga ajratiladi. Sizga aniq va tushunarli bo‘lishi uchun shu lug‘atning “*Hayvon*” (“*Jivotno ‘e*”) mavzusiga bag‘ishlangan qismidan namuna keltiramiz:

***Jivotnoe – hayvon***

*domashno ‘e jivotno ‘e – uy hayvonlari*  
*dikie jivotno ‘e – yovvoyi hayvonlar*  
*xihno ‘e jivotno ‘e – yirtqich hayvonlar*  
*morskie jivotno ‘e – dengiz hayvonlari*  
*razno ‘e jivotno ‘e – har xil hayvonlar*  
*vrednoe jivotnoe – zararli hayvon*  
*strashnoe jivotnoe – qo‘rqinchli hayvon*  
*bolnoe jivotnoe – kasal hayvon*  
*zdorovoe jivotnoe – sog‘lom hayvon*  
*golodnoe jivotnoe – och hayvon*  
*znakomoe jivotnoe – tanish hayvon*  
*mirolyubimoe jivotnoe – yuvosh hayvon*  
*zloe jivotnoe – yovuz hayvon*  
*ogromnoe jivotnoe – g‘oyat katta hayvon*  
*melkoe jivotnoe – mayda hayvon*  
*opasnoe jivotnoe – xavfli hayvon*  
*poleznoe jivotnoe – foydali hayvon ... va boshqalar (47- bet).*

V.I.Krasnix va S.I.Gayupovlar lug‘atida o‘n etti mavzuiy guruh lug‘aviy birliklari haqida so‘z yuritiladi, ularning o‘zbekcha shakliga ruscha ma‘nodosh ekvivalentlari berilgan. Masalan, yirik mavzuning birinchisi “*Kundalik muomala*” deb atalgan. Bu mavzu o‘z ichiga *biografiya, til, murojaat, diqqatni jalb qilish, uchrashuv, xayrlashuv, tanishuv, iltimos, maslahat, ogoh qilish, istak // xohish // niyat, taklif, rozilik, ma‘qullash, uzr // kechirim so‘rash, afsuslanish, achinish, minnatdorchilik, tabriklar, tilaklar, hayrat, ajablanish, norozilik, g‘azablanish* singari tobe mavzuiy tagguruhlarga ajratilgan. Kitobning boshqa yirik mavzulari ham ularga tobe bir qator ichki tagguruhlarga bo‘lingan. Masalan, *ism // ot – imya, otasining ismi – otchestvo, ota-onalar – roditeli, bolalar // farzandlar – deti, qarindosh – rodstvennik (rodstvennitsa), ota – otets, ona – mat, aka –brat (starshiy), uka – brat (mladshiy), opa – sestra (starshaya), singil – sestra (mladshaya)* va boshqalar.

# SEMINAR MASHG'ULOTLARI

## 1-MAVZU. LUG'AT TUZISH VA SO'ZLARNI JOYLASHTIRISH TAMOIYILLARI.

### Lug'at maqolasi

Har bir lug'at maqolasi bosh so'z sifatida lingvistik terminni keltirish bilan boshlanadi:

**BITISHUV** . . . .

**BOG'LAMA** . . . .

Agar termin o'zbek tiliga boshqa tildan o'zlashgan bo'lsa, qavs ichida qaysi tildan, qanday so'z yoki til unsurlari asosida o'zlashganligi ko'rsatiladi:

**AFFIKS** (lot. affixus - birlashtirilgan, biriktirilgan).

**LEKSIKOGRAFIYA** (yun. lexikos – lug'at; grapho – yozaman).

Lug'at maqolasining tarkibiy qismlaridan biri terminga beriladigan izohdir. Har bir termin ma'lum lingvistik tushunchani bildiradi, ma'lum bir ma'noga (ayrimlari birdan ortiq ma'noga) ega. Lug'at maqolasida terminning ana shu ma'nosi, ko'p ma'noli bo'lsa, barcha ma'nolari izohlanadi. N a m u n a:

**MURAKKAB GAP.** 1. Turli bog'lovchi vositalar yordami bilan o'zaro bog'langan uch va undan ortiq gaplarning bir butunligi.

2. Uyushiq bo'lak, ajratilgan bo'lak, undalma va kiritmalar ishtiroki bilan murakkablashgan sodda gap.

Ayni bir til hodisasi uchun ba'zan birdan ortiq termin qo'llanadi. Bunday terminlarning har biri lug'atda berildi. Lekin izoh shulardan qaysi biri asosiy deb hisoblansa, ana shu terminga berildi. Mas., *ish oti, infinitiv, harakat nomi* terminlaridan faqat *harakat nomi* terminiga izoh berilib, qolganlari *q. (qarang), ayn. (aynan)* kabi belgilar bilan *harakat nomi* terminiga havola etildi.

Lug'at maqolasida tarkibiy qismlaridan yana biri terminga berilgan izohni tasdiqlovchi misollardir. Lekin izohni isbotlovchi misol barcha lug'at maqolalarida bo'lavermaydi, balki ma'lum terminlar uchun tuziladigan lug'at maqolalarigina misol talab etadi. Mas., *tilshunoslik, lingvistika* terminlarining izohi hech qanday misol talab etmaydi. *Tushum kelishigi, ergash gapli qo'shma gap* terminlarining izohidan so'ng esa tasdiqlovchi misol berilishi shart. Shunga ko'ra, lug'atda faqat zarur hollardagina tasdiqlovchi misollar berildi.

Ba'zi terminlarning ma'no hajmi keng bo'lib, jins tushunchasini ifodalaydi; ayrimlarning ma'no hajmi tor bo'lib, tur tushunchasini ifodalaydi. *Jins* tushunchasini ifodalovchi termin uchun tuzilgan lug'at maqolasi ichida *tur* tushunchasini ifodalovchi teminlar ham keltiriladi. Lekin ular bu lug'at maqolasida izohlanmadi. Ularning har biri alfibo tartibiga ko'ra o'z o'rnida berildi va har biri uchun alohida lug'at maqolasi tuzildi.

N a m u n a:

**FE'L NISBATLARI.** Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari. Nisbat shakllari fe'lning asos

qismidan keyin qo'shiladi. Fe'l 5 ta nisbat shakliga ega: 1) *aniq nisbat (q.)*; 2) *o'zlik nisbati (q.)*; 3) *orttirma nisbat (q.)*; 4) *majhul nisbat (q.)*; 5) *birgalik nisbat (q.)*.

Ayrim terminlar mazmuni yoki qandaydir bir xususiyati bilan boshqa termin yoki terminlarga aloqador bo'lishi mumkin. Bunday aloqadorlikni ko'rsatish shu terminlar bildirgan lingvistik tushunchalarning mohiyatini aniq va oson tushunishga yordam beradi. Lug'atda terminlarning ana shunday aloqadorligi maxsus belgilar bilan ko'rsatildi. Bular quyidagilar: *ayn.* (aynan), *q.* (qarang), *qiyos.* (qiyoslang), *zid.* (ziddi).

*Ayn.* belgisi terminning havola qilinyotgan (*ayn.* belgisidan so'ng kelayotgan) termin bilan aynan bir xil ma'noli ekanini bildiradi va shu terminning asosiy varianti emasligini, asosiysi *ayn.* belgisidan keyingi termin ekanligini ko'rsatadi.

**ABSTRAKT OT-** *ayn.* Mavhum ot.

*q.* belgisi shu terminga aloqasi bo'lgan terminlar uchun tuzilgan lug'at maqolasiga qarashga undaydi. Bu terminlar uchun tuzilgan lug'at maqolasiga qarash bilan izohlanayotgan terminning mazmunini, u bildiradigan lingvistik tushunchaning mohiyatini oson, aniq va to'la tushunish imkoni tug'iladi. Mas., *ajratilgan bo'lak* terminiga tuzilgan lug'at maqolasi bilan shu maqolada *q.* belgisi bilan ko'rsatilgan ajratilgan izohlovchi termini uchun tuzilgan lug'at maqolasini qiyoslab ko'ring.

**AJRATILGAN BO'LAK.** Gapning mazmun va ohang jihatdan ajratilgan bo'lagi: *Boyagi yigitning, A v a z n i n g, qo'li gul ekan. Shu kuni kechqurun, d a l a d a n q a y t i s h d a, Qori Siddiqjonga hamroh bo'lib qoldi.*

Ajratilgan bo'laklar gapdagi qaysi bo'lakka oid ekanligiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi: 1) *ajratilgan hollar (q.)*; 2) *ajratilgan aniqlovchilar (q.)*; 3) *ajratilgan izohlovchilar (q.)*; 4) *ajratilgan to'ldiruvchilar (q.)*.

**AJRATILGAN IZOHLOVCHI.** Izohlanmishdan keyin kelib, asosan, egaga taalluqli bo'lgan ajratilgan bo'lak: Birozdan so'ng Hasan aka, *f i z i k a o'q i t u v c h i s i*, kirib keldi.

Demak, *q.* belgisi ishorasida ajratilgan bo'lak termini lug'at maqolasiga qarab, avvalo, bog'lama va uning turlari haqida tasavvur hosil qilinadi. Natijada ajratilgan izohlovchining mohiyatini tushunish osonlashadi.

O'zaro antonim bo'lgan terminlar ma'nosini bir-biriga qiyoslab ko'rish ham har bir termin ifodalaydigan til hodisasining mohiyatini to'g'ri va aniq tushunishga yordam beradi. Shu sababli o'zaro antonim bo'lgan terminlarning har biri uchun tuzilgan lug'at maqolasida *zid.* belgisi bilan uning antonimi keltirildi.

**BO'LISHLI FE'L.** Bajarilgan, bajarilayotgan, bajariladigan ish-harakatni bildirgan fe'llar: *yozdi, o'qidi, uxladi* va b. *zid.* **Bo'lishsiz fe'l.**

Ba'zi lingvistik terminlar o'zaro farqlansa-da, lekin ma'lum umumiylikka ega bo'lgan lingvistik tushunchalarning atamasi bo'ladi. Bunday terminlarni lug'atda berish, izohlash bilan birga, ularni bir-biriga qiyoslashni tavsiya etish har birining ma'no va mohiyatini to'g'ri va oson tushunishga yordam beradi. Xuddi shu maqsadda, qiyoslashga undash uchun lug'atda *qiyos.* belgisi ishlatildi. Mas.,



shu lugʻatda vazifadosh modal soʻzlar va sof modal soʻzlar terminlariga tuzilgan lugʻat maqolalariga qarang.

**VAZIFADOSH MODAL SOʻZLAR.** Modal maʼnoda ham qoʻllanadigan *aftidan, chamasi, balki, umuman, ehtimol, taxminan, shubhasiz* kabi soʻzlar. Mas., *B a l k i*, siz haqdirsiz. *qiyos.* **Sof modal soʻzlar.**

**SOF MODAL SOʻZLAR.** Faqat modal maʼno uchun xoslangan soʻzlar: *haqiqatdan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, avvalambor, masalan, xullas, koshki.* Mas., *M a s a l a n*, men buni bilmasdim. *qiyos.* **Vazifadosh modal soʻzlar.**

2-MAVZU. “MUQADDIMATUL-ADAB”DA ARAB, FORS, MOʻGʻUL TILLARIGA OID SOʻZLARNING QOʻLLANISHI. “TARJIMON” ASARIDA TURKIY TILLAR LEKSIKASI VA GRAMMATIKASIGA DOIR MAʼLUMOTLARNING AKS ETISHI.

Qadimgi turkiy til terminologik tizimidagi sanskritcha, soʻgʻdcha, xitoycha oʻzlashmalar. Eski turkiy til terminologik tizimidagi arabcha, forsha-tojikcha oʻzlashmalar. Eski oʻzbek tili terminologiyasida moʻgʻulcha oʻzlashmalarning qoʻllanishi. Qadimgi turkiy tildagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar tizimi. Qadimgi turkiy til harbiy terminologiyasi.

*Ishdan maqsad:* Qadimgi turkiy til terminologik tizimidagi sanskritcha, soʻgʻdcha, xitoycha oʻzlashmalar. Eski turkiy til terminologik tizimidagi arabcha, forsha-tojikcha oʻzlashmalar. Eski oʻzbek tili terminologiyasida moʻgʻulcha oʻzlashmalarning qoʻllanishi. Qadimgi turkiy tildagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar tizimi. Qadimgi turkiy til harbiy terminologiyasi Umumadabiy soʻzlarning terminologik leksika tizimiga koʻchishi, umumadabiy leksikaning maʼnoviy oʻzgarishlar bois terminlar safiga oʻtishi, soʻz-ot va termin-otning turli denotatlarni ifodalashi bilan farqlanishi borasida koʻnikmaga ega boʻlish.

*Masalaning qoʻyilishi:* Ushbu seminar ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- umumisteʼmolga xos leksikaning terminlashuviga misollar keltirishi
- terminologiya tizimiga koʻchgan umumadabiy soʻzlarni terminologik lugʻatlar yordamida talqin qilishi
- birlamchi maʼnosini yoʻqotib, yakka maʼnoli ilmiy terminga aylangan soʻzlarni izohlashi
- oʻtgan asrning ikkinchi yarmida tuzilgan terminologik lugʻatlarda keltirilgan siyosiy terminlarni bugunchi kun nuqtai nazaridan talqin qilishi
- muayyan lugʻatning tuzilish printsiplariga baho berishi
- lugʻatlarda sininim terminlarning berilishiga munosabat bildirishi
- terminlogik lugʻatlarda berilgan terminlarning etimologiyasini izohlashi
- istiqlool davri soha terminologik lugʻatlardan xabardor boʻlishi.

*Ishni bajarish uchun namuna.*

tarixiy–biografik bitiklar: Kultegin, Moʻgʻilon (Bilga qagʻan), Kulichur, Toʻnyuquq, Oʻngin, Selenga, Sujun, Qorabalʼasun bitiktoshlari;

epitafik bitiklar: Yenisey, Talas, Tuva, Xaqosiya qabr toshlari;  
qoyalar, toshlar va qurilishlardagi (Xo‘yto‘-Temir) bitiklar;  
diniy matnlar: folkitobi “Folnoma”;  
Turfondan topilgan yuridikG‘huquqiy hujjatlar;  
Maishiy narsa-buyumlardagi bitiklar.

**Ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi** – *qaran* “Oliy hukmdor, xoqon”, *tegin* “taxt vorisi, xonzoda”, *bad* “Turk va Uyg‘ur xoqonligida oliy harbiy-ma‘muriy unvon”, *yabru* “G‘arbiy turk xoqonligi hukmdori”, *qatun* “malika”, *tudun* “nazoratchi”, *tutuq* “viloyatning harbiy hukmdori”, *tarqan* “hokim”, *beg* “bek, boshliq”, *eltdbdr* “azlarning sarkardasi”, *sabip* “elchi”, *yolip* “boshliq”, *bara* (sug‘d) “unvon, lavozim”, *p̣̌bara* (sanskrit) “unvon, mansab” va h.k.

**Harbiy terminlar** – *kxro‘g* “ayg‘oqchi, josus”, *ayruip* “harbiy maslahatchi”, *so‘baʼp* “sarkarda, lashkarboshi”, *yerii* “yo‘l ko‘rsatuvchi, qulavuz”, *so‘ho‘ʼ* “jang, urush”, *so‘ho‘g* “nayza”, *so‘* “lashkar, qo‘shin”, *buyruqG‘buyuruq* “farmonbardor”, *q̣̌blaq* “qish mavsumi uchun mo‘ljallangan lashkargoh, lager”, *qurran* “qo‘rg‘on, istehkom”, *barru* “o‘lja”, *tegiʼ* “jang”, *kedim* “sovut; yopinchiq”, *yelmd* “g‘oratgar askariy guruh”, *bulun* “bandi, tutqun”, *asir* (ar.) “tutqun, asir” va h.k.

**Savdo-sotiq, moliya bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi istilohlar:** *arq̣̌p̣̌* “savdo-sotiq karvoni”, *sat-* “sotmoq”, *satpr* “savdo-sotiq”, *satprip* “tojir, savdogar”, *berim alpm* “qarz”, *alpm berim* “qarz”, *otar* “qarz”, *otarip* “qarzdor”, *ribat* “rabot, karvonsaroy”, *bergo‘ii* “sudxo‘r, qarz beruvchi”, *baqpr* “pul birligi; mis tanga”, *dinar* “dinor (oltin tanga) va h.k.

**Soliq va boj terminlari tizimi** – *berim* “to‘lov”, *qabpn* “tayyor mahsulot bilan to‘lanadigan soliq turi”, *qubipr* “davlat tomonidan fuqarolardan undiriladigan jon solig‘i”, *rabjat* “qullardan undiriladigan soliq” va h.k.

**Zoonimlar** – *burra* “erkak tuya”, *arslan* “arslon, sher”, *at* “ot”, *ud* “qoramol (buqa yoki sigir), *qaratpr* “xo‘kiz”, *bxri* “bo‘ri”, *bars* “yo‘lbars”, *tiʼi bars* “urg‘ochi yo‘lbars”, va h.k.

**Astroponimlar:** *ay* “oy”, *ko‘n* “quyosh”, *altun yultuz* “Cho‘lpon, Venera”, *Baqpr soqpm* “Mars”, *Iadan//Iazan// Iayan* “Chayon yulduzlar turkumi”, *Yetigdn* “Katta Ayiq”, *nujum* “astronomiya”, *Ot yulduz* “Mars”, *Suv yulduz* “Merkuriy”, *Topraq yulduz* “Saturn”, *Yprai yulduz* “Yupiter”, *yer* “yer, zamin” va h.k.

**Anatomik terminlar** – *yo‘rdk* “yurak”, *qaraq* “ko‘z, ko‘z gavhari”, *qarpn* “qorin”, *qol* “qo‘l”, *baʼ* “bosh”, *barpr* “jigar”, *xvkdG‘xpkd* “o‘pka” va h.k.

**Tibbiy terminlar** – *buran* “chipqon”, *kaka tau* “yiringli yara, chipqon”, *ig* “dard, kasallik”, *ig arrpr* “kasallik, dard”, *ig kegdn* “dard, kasallik”, *adaq arrpr* “oyoq og‘rig‘i”, *arpz arrpr ig* “og‘iz kasalligi”, *burun arrpr ig* “burun kasalligi”, *boruz arrpr ig* “qilizo‘ngach, halqum kasalligi”, *yo‘rdk arrpr ig* “yurak kasalligi”, *onuni arrpr ig* “tomog‘ og‘rig‘i kasalligi”, *qulraq arrr ig* “quloq kasalligi”, *arrprip* “kasal, bemor, dardmand”, *tib* “tibbiyot”, *iurnp* (sanskrit) “surgi dori” va h.k.

**Ma‘dan nomlarini anglatuvchi terminlar:** *altun* “oltin, tilla, zar”, *ko‘mo‘ʼ* “kumush”, *temo‘r* “temir”, *baqpr* “mis” va h.k.

**Dunyo (kurra)ning to‘rt tomoni va vaqt (sutka) o‘lchov birligini ifodalovchi terminlar tizimi** – *ko‘n ortu* 1) “peshin”; 2) “janub”, *to‘n ortu* 1) “yarim kecha”; 2) “shimol”, *to‘n sarp* “shimol”, *tan sarp* “sharq”, *ko‘n turspq* “sharq, kuntug‘ar”, *ko‘n bataspq* “g‘arb, kunbotar”, *batar* “G‘arb”, *turar* “Sharq” va h.k.

**Ilm-fanga oid tushunchalarni ifodalovchi terminlar:** *bilig, bilim* “ilm, bilim”, *baqʼil* (xit.) “ustoz, muallim”, *darb, tadif* (ar.) “ko‘paytirish”, *qismat, tansif* “bo‘lish”, *adad* (ar.) “raqam, miqdor, son”, *kuzur, jazr* (ar.) “ildiz”, *misahat* (ar.) “chegara, ildiz chiqarish”, *handasa* “geometriya”, *saqʼb* “arifmetika”, *davat* (ar.) “siyohdon”, *karid* (ar.) “qog‘oz”, *xat* (ar.) “alifbo, xat” va h.k.

**Diniy tushunchalar nomlari (teonimlar):** *bayat* “Tangri, Xudo”, *baiaq//baiar* “ro‘za”, *burxan* (xit.) “budda; payg‘ambar, but”, *yalabai //yalavai //yalafar* “payg‘ambar”, *savip* “payg‘ambar” va h.k.

**Ekologik terminlar:** *so‘zo‘k suv* “tiniq, ko‘m-ko‘k suv”, *tdrkin suv* “balchiqli suv”, *et yer* “yumshoq yer; yumshoq tuproq”, *tatprlpr yer* “qattiq yer”, *qarqar* “o‘tsiz va suvsiz joy, qaqroq”, *sarran yer* “sho‘rxok yer”, *sarpz topraq* “sog‘ tuproq”, *aiuq kxk* “ochiq havo” va h.k.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Bitiktoshlar matnida qanday mavzuiy guruhlariga oid terminlar qayd etilgan?
2. Eski turkiy til terminologiyasining shakllanish manbalarini belgilang.
3. Eski o‘zbek tili terminologiyasi rivojiga bois bo‘lgan qanday omillarni bilasiz?
4. XIX asrning ikkinchi yarmidan o‘zbek terminologiyasi tizimi qanday manbalar hisobiga rivojlandi?
5. O‘zbek tili terminologiyasining shakllanishida o‘z qatlamning o‘rni xususida bahs yuriting.
6. Eski o‘zbek adabiy tili terminologiyasining yasallish yo‘llariga e‘tibor qarating.
7. Mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar eski o‘zbek tilining qaysi fan sohasida miqdoran aksariyatni tashkil qiladi?

### **3-MAVZU. TARIXIY LUG‘ATLAR. “KELURNOMA” – IDEOGRAFIK LUG‘ATNING ILK NAMUNASI SIFATIDA.**

Eski turkiy tilidagi falakiyot terminlari tizimi. Eski turkiy til terminologiyasi tarkibidagi mub va derivativ terminlar. Eski turkiy til terminologiyasida harbiy terminlarning o‘rni. Eski o‘zbek tili terminologiyasining shakllanish omillari.

*Ishdan maqsad:* Eski turkiy tilidagi falakiyot terminlari tizimi. Eski turkiy til terminologiyasi tarkibidagi mub va derivative terminlar. Eski turkiy til terminologiyasida harbiy terminlarning o‘rni. Eski o‘zbek tili terminologiyasining

shakllanish omillari. Qadimgi turkiy tildagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar tizimi. Eski turkiy til harbiy terminologiyasi Umumadabiy soʻzlarning terminologik leksika tizimiga koʻchishi, umumadabiy leksikaning maʼnoviy oʻzgarishlar bois terminlar safiga oʻtishi, soʻz-ot va termin-otning turli denotatlarni ifodalashi bilan farqlanishi borasida koʻnikmaga ega boʻlish.

*Masalaning qoʻyilishi:* Ushbu seminar ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- umumisteʼmolga xos leksikaning terminlashuviga misollar keltirishi
- terminologiya tizimiga koʻchgan umumadabiy soʻzlarni terminologik lugʻatlar yordamida talqin qilishi
- birlamchi maʼnosini yoʻqotib, yakka maʼnoli ilmiy terminga aylangan soʻzlarni izohlashi
- oʻtgan asrning ikkinchi yarmida tuzilgan terminologik lugʻatlarda keltirilgan siyosiy terminlarni bugunchi kun nuqtai nazaridan talqin qilishi
- muayyan lugʻatning tuzilish printsiplariga baho berishi
- lugʻatlarda sininim terminlarning berilishiga munosabat bildirishi
- terminologik lugʻatlarda berilgan terminlarning etimologiyasini izohlashi
- istiqlool davri soha terminologik lugʻatlardan xabardor boʻlishi.

*Ishni bajarish uchun namuna.*

Keltirilgan misollar qadimgi turkiy til terminologiyasining mavzu nuqtai nazaridan turfa, miqdor jihatdan ancha koʻpligi, istilohlarning asosini asl turkiy soʻzlar tashkil etganini tasdiqlaydi. Ayni paytda **sanskrit, xitoy, soʻgʻd, arab, fors-tojik tillariga** xos oʻzlashmalarning ham oʻrni bilan qoʻllangani kuzatiladi

Oʻrta Osiyoning arablar tomonidan fath qilinishi oqibatida islom dini, arab tili va madaniyati, arab xati shu mintaqada azaldan istiqomat qiluvchi xalqlar, millatlar, qabilalar, qavmlar, urugʻlar intellektual hayotidan mustahkam oʻrin oldi. Arablar hukmronligidan keyin eron madaniyati, ayniqsa, Somoniylar humronligi yillarida taraqqiy etdi va uning turkiy tillar tabiati, xarakteriga maʼlum darajada taʼsiri koʻzga tashlandi.

X asr oxiriga kelib Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Koshgʻarda Qoraxoniylar saltanati tashkil topdi. Shu davrdan eʼtiboran turkiy adabiy tillarning shakllanishida jiddiy ijodiy jarayonlar sodir boʻldi. Qoraxoniylar vaqtida jonli tillar adabiy tildan farqli oʻlaroq chet tillar elementlariga nisbatan oz taʼsirda boʻlgan. Fors-tojik tili aksariyat hollarda rasmiy-idoralarda eski turkiy til bilan yonma-yon qoʻllangan u bilan raqobatga kirishgan. Bu kezlarda eski turkiy til soʻz boyligi, xususan, terminlar tizimi umumtil leksikasi tarkibida shakllandi va taraqqiy etdi. Bunda ekstralingvistik omillar qatori intralingvistik faktorlarning ham roli katta boʻlgan edi. Matematika, geografiya, falakiyot, tibbiyot, minerologiya, zoologiya, geometriya kabi aniq fanlar singari falsafa, filologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik, dinshunoslik kabi gumanitar fan sohalarining jadal rivojlanishi asosida eski turkiy til terminologiyasining qadimgi turkiy til terminlar tizimidan koʻp jihatdan farqlanishi yaqqol koʻzga tashlanadi. Ayni chogʻda, qadimgi turkiy til soʻz boyligida mavjud boʻlgan asl turkiy terminlarning salmoqli qismi bu davr terminologiyasida ham isteʼmolda qolavergan.

Qoraxoniylar davri terminologiyasi tizimi eski turkiy tilning o'z resurslari hamda arab va fors-tojik tillaridan o'zlashgan birliklar hisobga kengayib borgan.

Eski o'zbek tili terminologiyasi (XV-XIX asr oxiri) sistemasi qadimgi turkiy til va eski turkiy til terminologiyasidek o'z ichki imkoniyatlari hamda o'zlashmalar hisobiga shakllandi va rivojlandi. Eski o'zbekcha terminlar yasaliish jihatdan tub va derivatlardan tashkil topgan edi. Terminlar yasaliishida qatnashgan affikslarni leksik-grammatik xarakteriga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

**Ism-o'zaklardan ot-terminlar yasovchi affikslar:** *yurt-* ip, *yulduz-* ip, *ierig-* ii, *tura-lpq*, *jibd-lik*, *kejim-lik* va h.k;

**Fe'l –o'zaklardan ot-terminlar hosil qiluvchi affikslar:** *pus-ur*, *bxl-dk//bxl-* o'k, *yur-ur*, *iap-qun*, *quv-run//qav-run*, *yasa-vul*, *tosqa-vul*, *tata-vul*, *nikd-vo'l*, *yasa-l*, *qaba-l*, *tunqa-l*, *suyurra-l*, *yasa-q*, *tolra-ma*, *yasa-v*, *ba'la-maq* va h.k.;

**Ot(ism)lardan fe'l-terminlar yasovchi affikslar:** *yarp -la-*, *oq-la*, *ierik-ld -*, *jibd-ldn-*, *qplpi-lan-*, *at-lan-*, *ya-la-//yay-la-* va h.k.;

**Fe'l-o'zaklardan fe'l-termin hosil qiluvchi qo'shimchalar:** *sava-ur*, *ur-ur* -, *tala-t-*, *evr-il-*, *ypr-pl-*, *bas- pl-*, *qpr- pl-*, *ypr-platur-*, *bas-tur-*, *qai-ur*, *to'ur-o'r-*, *tut-ul-* va h.k.

Terminlarning sintaktik (kompozitsiya) yo'l bilan yasaliishiga tubandagi faktik materiallar misol bo'ladi: *kxktemo'r* "zirh, sovut", *kuiaband* "to'siq, g'ov, barrikada", *yatpura tavaipsp* "askarlarni yotoq bilan ta'minlovchi harbiy mansab egasi", *ulur urur* "dahshatli jang", *divanbegi* "devonbegi", *onbegi* "o'nbegi", *yuzbaur* "yuzbashi", *minbegi* "ming askardan iborat harbiy qism sarkardasi", *to'mdnbegi* "o'n ming kishidan tashkil topgan qism, diviziya qo'mondoni", *qolunbegi* "kichik harbiy bo'linma boshlig'i" va h.k.

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshida o'zbek adabiy tili xalq turmush tarzida alohida, o'zga xos o'rinni egalladi. Bu davr adabiy tili va uslubida jiddiy va muhim jarayonlar yuzaga keldi. Ushbu jarayonlar o'zbek xalqi hayotida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning o'zgarishi natijasida maydonga chiqdi. XIX asrning 70-yillaridan e'tiboran O'rta Osiyo Rossiyaga qaram bo'lib qoldi. Natijada mahalliy millat vakillari, xususan, ziyolilar orasida rus madaniyati ommalasha boshladi. Kapitalistik munosabatlar o'zbek xalqi hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ayni davrda keyinchalik progressiv-demokratik, deb nom olgan o'zbek adabiyoti shakllandi.

**O'zbek tili leksikasi va terminologiyasi uch manba asosida boyib bordi:**

o'zbek tilining ichki imkoniyatlari va qonunlari zahirida yuzaga kelgan terminlar: *bosmaxona*, *nizomnoma* "ustav", *nishontosh* "yodgorlik", *yig'ilish* "majlis" va h.k.;

o'zbek tili terminologiyasining jonli xalq tili so'zlari hisobiga kengayishi yaqqol namoyon bo'ldi: *bo'zchi*, *bezgak*, *iskaptopar*, *arava* va h.k.;

ruscha-baynalmilal terminlarning o'zbek tilida o'zlashishi:

a) ijtimoiy-siyosiy terminlar – *uyezd*, *pristav*, *soldat*, *volost*, *duma* va h.k.;

b) transport bilan bog'liq tushunchalarni anglatuvchi terminlar – *poyezd*, *vagon*, *vokzal*, *stansiya*, *depo* va h.k.;

v) sanoat, tijorat va moliya tizimida qo‘llanuvchi terminlar – *zavod, fabrika, vistavka, magazin, kredit* va h.k.;

g) madaniyat, fan, maorif sohasi terinlari – *gimnaziya, teatr, gazeta, muzey, universitet, kafedra* va h.k.;

d) tibbiy terminlar – *gospital, lazaret, feldsher, doktor* va h.k.;

e) hujjat va mukofotlar nomlari – *medal, pasport, orden, attestat, diplom* va h.k.;

y) sudlov terminlari – *sud, sudya, zakon* va h.k.;

j) o‘lchov birliklari nomi – *pud, minuta, sajen* va h.k.;

z) harbiy terminlar – *general, korpus, konvoy, kapitan, leytenant, polkovnik, mayor* va h.k.

Zikr etilgan o‘zlashma terminlarning muayyan qismi keyinchalik ular anglatgan tushunchalarning turmushdan chiqib ketgani bois iste’moldan qoldi, ba’zilari esa o‘zbek tili so‘z xazinasida mavjud muqobillari bilan almashtirildi, salmoqli qismi esa o‘zbek tili terminologiyasi tizimida faol qo‘llanishda davom etdi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Bitiktoshlar matnida qanday mavzuiy guruhlariga oid terminlar qayd etilgan?

2. Eski turkiy til terminologiyasining shakllanish manbalarini belgilang.

3. Eski o‘zbek tili terminologiyasi rivojiga bois bo‘lgan qanday omillarni bilasiz?

4. XIX asrning ikkinchi yarmidan o‘zbek terminologiyasi tizimi qanday manbalar hisobiga rivojlandi?

5. O‘zbek tili terminologiyasining shakllanishida o‘z qatlamning o‘rni xususida bahs yuriting.

6. Eski o‘zbek adabiy tili terminologiyasining yasaliş yo‘llariga e’tibor qarating.

7. Mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar eski o‘zbek tilining qaysi fan sohasida miqdoran aksariyatni tashkil qiladi?

## **4-MAVZU. TERMINOLOGIK VA ENTSIKLOPEDIK LUG‘ATLAR.**

O‘zbek terminologik tizimida o‘zbek tilining o‘ziga xos qatlami. o‘z qatlamnihg terminologik tizimning barcha doirasida qo‘llanishi.

*Masalaning qo‘yilishi:* Ushbu seminar davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- qadimgi turkiy til matnlaridan terminlarni topishi
- eski turkiy til obidalarida matnida qo‘llangan sof turkiy terminlarni aniqlashi
- eski o‘zbek adabiy tili manbalarida io‘latilgan arabcha o‘zlashma terminlarni ko‘rsatishi
- “Devonu lug‘otit turk”dagi terminlar talqinini izohlashi
- o‘zbek tili terminologiyasi tizimigi forsha-tojikcha elementlarni bilishi

- “Qutadg‘u bilig” pandnomasida qo‘llangan harbiy terminlarni sharhlashi
- Navoiyning “Xamsa” asari matnidan astroponimlarni topishi
- “Boburnoma”da qo‘llangan mo‘g‘ulcha o‘zlashma terminlarni izohlashi.

**Atamalar (terminologik) lug‘ati.** Bunday lug‘atda ma‘lum bir fan va texnika, uning sohalari hamda xalq xo‘jaligining turli tarmoqlariga oid so‘z va atamalar izohlanadi. O‘zbek leksikografiyasida bunday lug‘atlar nihoyatda ko‘p. O‘tgan asrning 20–yillaridan 70–yillariga qadar 130 ga yaqin terminologik lug‘atlar chop qilingan. Ularning ilk namunalari sifatida N.To‘raqulov tomonidan 1922 yili nashr ettirilgan “Rus-o‘zbek tillarining ijtimoiy-siyosiy atamalari lug‘ati”, M.Mirboboev va boshqalar tomonidan 1941 yili nashr etilgan “Qisqacha geologiya-razvedka terminlari so‘zligi”, N.V.Kimberg va M.Bahodirovlar tomonidan 1940 yili chop etilgan “Ruscha-o‘zbekcha agrotuproqshunoslik terminlari so‘zligi”, B.Mashrabov va Sh.Qosimovlar tomonidan 1970 yili nashr ettirilgan “Qurilish terminlari lug‘ati” kabi va boshqa yana bir qator ishlarni keltirish mumkin.

Hozirga qadar o‘zbek tilshunosligida fan va texnikaning turli sohalariga bag‘ishlangan atamalar lug‘atining miqdori uch yuzga yaqinlashadi. Ular ilm-fanning turli sohalarini o‘z ichiga olgan. Xususan, “Ruscha – o‘zbekcha matematik terminlar lug‘ati” (M.Sobirov, 1952), “Ruscha – o‘zbekcha fizik terminlar lug‘ati” (M.D.Yagudaev, R.Mallin, 1952), “Qisqacha ruscha – o‘zbekcha geografiya terminlari lug‘ati” (N.Dolimov va b., 1953), “Ximiyadan ruscha – o‘zbekcha izohli lug‘at” (Z.Saidnosirova, T.V.Derkunskaya, 1954), “Qisqacha ruscha – o‘zbekcha botanika terminlari lug‘ati” (S.Sahobiddinov, 1954), “Qisqacha ruscha – o‘zbekcha tuproqshunoslik terminlari lug‘ati” (M.Bahodirov va b., 1956), “Ruscha – o‘zbekcha meteorologik lug‘at” (M.Orifxonova, 1956), “Qisqacha izohli zoologiya terminlari lug‘ati” (T.Zohidov, 1938), “Geologiyadan ruscha – o‘zbekcha terminologik lug‘at” (O.Sodiqov, 1958), “Yuridik terminlar lug‘ati” (F.Bakirov, 1959), “Ruscha – o‘zbekcha meditsina lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1962, 1971), “Ruscha – o‘zbekcha fizkultura va sport terminlarining izohli lug‘ati” (R.Ismoilov, M.Norkin, 1961), “Ruscha-o‘zbekcha pedagogika terminlari lug‘ati” (Sh.Bayburov, N.Takanaev, 1963), “Ruscha – o‘zbekcha yarim o‘tkazgich terminlarining izohli lug‘ati” (M.Azizov, 1966), “Ruscha-o‘zbekcha gidrotexnika terminlari lug‘ati” (Z.Husanxo‘jaev, 1969), “Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha – o‘zbekcha terminologik lug‘at” (N.Hatamov, 1969), “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati” (A.Homidiy va b., 1967, 1971), “Ruscha – o‘zbekcha muzika terminlari lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1970), “Paxtachilik terminlarining qisqacha izohli lug‘ati” (N.Mamatov, 1964), “Elektr mashinalari va avtomatlashtirilgan elektrik yuritma terminlarining izohli lug‘ati” (S.Majidov, 1971) va boshqa nashr etilgan bir qator lug‘atlar shular jumlasidandir.

Bunday lug‘atlar safi mustaqillik yillari va uning arafasida yana kengaydi. Masalan, akademik A.Hojievning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, 2002), A.H.Yunusovning “Fiziologik terminlarning izohli lug‘ati” (Toshkent, 1984), H.Yu.Bekmuhammedovning “Tarix terminlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, 1990), J.Umarov tomonidan tuzilib, Qo‘qonda nashr etilgan

“Atamalar lug‘ati”, H.Bektemirov va E.Begmatovlar hammuallifligida nashrdan chiqqan “Mustaqillik davri atamaları” (Toshkent: Fan, 2002) kitobchasiga ilova qilingan lug‘at ana shu davrda yaratilgan.

Shuni alohida e’tirof etish zarurki, J.Umarov tomonidan tuzilgan “Atamalar lug‘ati”da umumxalq tiliga singishmaydigan tavsiya variantlari ham ko‘p uchraydi. Masalan, *bosma tugma (knopka)*, *ochmaxat // oynaxat (otkro‘tka)*, *qirg‘inbaroq (terrorizm)*, *oshig‘ich (ekstern)*, *xobdori (tabletki)*, *voqeot (syujet)*, *ustxat (grif)*, *tosxona (vanna)*, *qarshidosh (antonim)*, *mungsado // xushsado (melodiya)* va boshqalar shunday tavsifda.

Shunisi muhimki, terminologik lug‘atlarning aksariyati ikki va ko‘p tilli tarjima lug‘atlari xarakterida bo‘lgan. Masalan, “Qurilish terminlarining qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminlari lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1970), “Atmosfera fizikasidan ruscha-o‘zbekcha lug‘ati” (A.A‘zamov, E.Nazirov, 1972), “Ruscha – o‘zbekcha muzika terminlari lug‘ati” (Mualliflar jamoasi, 1970), “Astronomiyadan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologik lug‘at” (1974), “Mashinasozlik texnologiyasi bo‘yicha ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘at” (1973), “Ish yuritish atamalarining ruscha-o‘zbekcha qisqacha lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1994), “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha-inglizcha ish yuritish lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1995) va boshqalar o‘zbek leksikografiyasiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘ldi.

O‘zbek leksikografiyasida spravochnik xarakteridagi izohli lug‘atlar bo‘yicha ham ancha ishlar qilingan. Masalan, “Mexanizatsiyalashga oid spravochnik-lug‘at” (Hamidov A., Toshkent, 1970), “Chizmachilikdan terminologik lug‘at-spravochnik” (1977), “Tarixdan qisqacha izohli lug‘at” (1977), “Qishloq xo‘jalik texnikasiga oid lug‘at-spravochnik” (1981), “Ishlab chiqarish texnologiyasiga doir qisqacha izohli lug‘at” (1981), “Madaniy oqartuv xodimlari uchun qisqacha izohli lug‘at” (1983) va sh.k. buning yorqin dalilidir.

**14. Badiiy asar tilida qo‘llangan so‘zlar izohiga bag‘ishlangan lug‘atlar.** Bunday lug‘atlar tuzish o‘zbek tilshunoslida XVI asrdan boshlangan.

Xususan, Alisher Navoiy asarlari tilini o‘rganishga bag‘ishlangan lug‘atlarning o‘zi o‘ntadan ortadi. 1972 yili mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan o‘n besh jilddan iborat “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”, 1983-1984 yillari nashr etilgan to‘rt jilddan iborat “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” ularning eng yiriklari sanaladi.

Bundan tashqari, “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”ning o‘n besh jildligiga ilova qilingan lug‘at ham mavjud. Professor P.Shamsiev va professor S.Ibrohimovlar tomonidan tuzilgan bu lug‘at ham “Navoiy asarlari lug‘ati” deb ataladi. U 1972 yili Toshkentda G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyotida chop etilgan.

Badiiy asarlar tili bo‘yicha lug‘atlar tuzishda professor A.K.Borovkovning xizmatlari beqiyos katta. Uning xizmatlari o‘zbek lug‘atshunosligi tarixida alohida qadrlanadi. Olim O‘rta Osiyo lug‘atchiligi tarixini “*Abushqa*”, “*Sangloh*”, “*Xulosa-i-Abbosiyy*”, “*Badoeul-lug‘at*”, “*Kelurnoma*” singari asarlar tahlilida ko‘rsatishga erishdi.



A.K.Borovkov Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan “Badoeul-lug‘at” asarini chuqur o‘rgandi, uni nashr etilgan shu tipdagi boshqa bir qator lug‘atlar bilan qiyosladi.

Lingvistik lug‘atlarning turi bu aytilganlar bilan cheklanmaydi. Lug‘atlar ichida hali to‘la shakllantirilib, amalga oshirilmagan yana boshqa turlar ham borki, ularga *qisqartma so‘zlar lug‘ati*, *tarixiy va arxaiik so‘zlar lug‘ati*, *badiiy asar nomlari lug‘ati*, *laqab va taxalluslar lug‘ati* va h.k. kabilar mansubdir.

### **Ensiklopedik lug‘atlar**

O‘tgan asrning 70 – yillarida o‘zbek ensiklopediyasi (“O‘zbek sovet ensiklopediyasi”)ning yaratilishi o‘zbek tilshunosligining lug‘atchilik sohasidagi katta yutuqlaridan biri edi. Bu lug‘at o‘zbek leksikografiyasida ilk qomusiy lug‘at ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, unda sobiq sovet voqeligi, sho‘rolar siyosati, mafkurasi aks ettirilgan bo‘lib, o‘z tariximiz, milliy an‘analarimiz, ma‘naviy merosimiz parda ostida ko‘rsatilgan edi. Shuning uchun mustaqillik davrida milliy ensiklopediyani yaratish ehtiyoji kun tartibidagi eng dolzarb vazifaga aylangandi. Ana shu ehtiyoj mustaqillik davri o‘zbek milliy ensiklopediyasining 1-jildi yaratilishi bilan, ma‘lum darajada qondirilgandek bo‘ldi. Ensiklopedik lug‘atlar ikki asosiy guruhga bo‘linadi: 1) universal, ya‘ni umumiy ensiklopedik lug‘atlar; 2) sohaviy, ya‘ni xususiy ensiklopedik lug‘atlar.

O‘zbek leksikografiyasida universal ensiklopedik lug‘at, yuqorida aytilganidek, o‘tgan asrning 70–yillarida paydo bo‘ldi (“O‘zbek sovet ensiklopediyasi”). Sohaviy ensiklopedik lug‘atlar nashr etilishi ancha avval boshlangan (bu haqda yuqorida, darslikning “*Atamalar lug‘ati*” sarlavhasi ostida ma‘lumot berildi.

*Ishni bajarish uchun namuna.* Qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o‘zbek adabiy tili terminologiyasi va lug‘atnavisligi. Turkiy yozma-adabiy tilning dastlabki namunalari sirasiga kirmish qadimgi run bitiklari, shubhasiz, turkiy xalqlar ajdodlariga xos yuqori darajada shakllangan lisoniy madaniyatidan darak beruvchi manba vazifasini o‘taydi. Qadimgi turkiy til fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va sintaktik xususiyatlari O‘rxun-Yenisey(Enasoy) tosh bitiklari va epitafiyalarida o‘z ifodasini topgan. Runik obidalar janr nuqtai nazaridan olti guruhga taqsimlanadi:

- 1) tarixiy–biografik bitiklar: Kul-tegin, Mo‘g‘ilon (Bilga qag‘an), Kuli-Chur, To‘nyuquq, O‘ngin, Selenga, Sujun, Qorabalg‘asun bitiktoshlari;
- 2) epitafik bitiklar: Yenisey, Talas, Tuva, Xaqosiya qabr toshlari;
- 3) qoyalar, toshlar va qurilishlardagi (Xo‘yto‘-Temir) bitiklar;
- 4) diniy matnlar: folkitobi “Folnoma”;
- 5) Turfondan topilgan yuridik G‘huquqiy hujjatlar;
- 6) Maishiy narsa-buyumlardagi bitiklar.

Runik bitiklar leksikasi tarkibida bir qancha terminologik tizimlarning mavjudligini turkiyshunoslikda olib borilgan izlanish va maxsus tadqiqotlar tasdiqlagan. Xususan, qo‘yidagi mavzui guruhlariga oid terminlar tizimlar bitiklar matnida faol qo‘llangan:

1) Ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi – qagʻan, tegin, shad, yabgʻu, qatun, tudun, tutuq, tarqan, beg, eltabar, sabchi “elchi”, yolchi “boshliq” va h.k.

2) Harbiy terminlar – korug “aygʻoqchi, josus”, aygʻuchi “harbiy maslahatchi”, subashi “sarkarda, lashkarboshi”, yerchi “yoʻl koʻrsatuvchi, qulavuz”, sungush “jang, urush”, sungug “nayza”, su “lashkar, qoʻshin”, buyruq “farmonbador”, qishlaq “qish mavsumi uchun moʻljallangan lashkargoh, lager”, qurgʻan “qoʻrgʻon, istehkom”, bargʻu “oʻlja”, tegish “jang”, kedim “sovut; yopinchiq”, yelma “gʻoratgar askariy guruh”, bulun “asir, tutqun” va h.k.

3) Tijorat bilan bogʻliq tushunchalarni ifodalovchi istilohlar: arqish “savdo-sotiq karvoni”, sat- “sotmoq”, satigʻ “savdo-sotiq”, satigʻchi “toʻjir, savdogar”, berim alim “qarz”, alim berim “qarz”, otagʻ “qarz”, otagʻchi “qarzdor”, va h.k.

4) Soliq va boj terminlari tizimi – berim “toʻlov”, qabin “tayyor mahsulot bilan toʻlanadigan soliq turi”, qubchir “davlat tomonidan fuqarolardan undiriladigan jon soligʻi” va h.k.

5) Zoonimlar – bugʻra “erkak tuya”, arslan “arslon, sher”, at “ot”, ud “qoramol (bugʻqa yoki sigir), qagʻatir “xoʻkiz”, bori “boʻri”, bars “yoʻlbars”, tishi bars “urgʻochi yoʻlbars”, va h.k.

6) Astroponimlar: ay “oy”, kun “quyosh”, altun yultuz “Choʻlpon, Venera”, yetigan “Katta Ayiq”, ot yulduz “Mars”, suv yulduz “Merkuriy”, topraq yulduz “Saturn”, yigʻach yulduz “Yupiter”, yer “er, zamin” va h.k.

7) Anatomik terminlar – yukrak “yurak”, qaraq “koʻz, koʻz gavhari”, qarin “qorin”, qol “qoʻl”, bash “bosh”, bagʻir “jigar”, ovkaGʻopka “oʻpka” va h.k.

8) Tibbiy terminlar – bugʻan “chipqon, kaka tau “yiringli yara, chipqon”, ig “dard, kasallik”, ig agʻrigʻ “kasallik, dard”, ig kegan “dard, kasallik”, adaq agʻrigʻ “oyoq ogʻrigʻi”, agʻiz agʻrigʻ ig “ogʻiz kasalligi”, burun agʻrigʻ ig “burun kasalligi”, bogʻuz agʻrigʻ ig “qilizoʻngach, halqum kasalligi”, yurak agʻrigʻ ig “yurak kasalligi”, onguch agʻrigʻ ig “tomogʻ ogʻrigʻi kasalligi”, qulgʻaq agʻrigʻ ig “quloq kasalligi”, agʻrugʻichi “kasal, bemor, dardmand” va h.k.

9) Maʼdan nomlarlarini anglatuvchi terminlar: altun “oltin, tilla”, kumush “kumush”, temur “temir”, baqir “mis” va h.k.

10) Dunyo (kurra)ning toʻrt tomoni va vaqt (sutka) oʻlchov birligini ifodalovchi terminlar tizimi – kun ortu 1) “peshin”; 2) “janub”, tun ortu 1) “yarim kecha”; 2) “shimol”, “tun sari” shimol”, tang sari “sharq”, kun tugʻsiq “sharq, kuntugʻar”, kun batsiq “gʻarb, kunbotar” va h.k.

Eski oʻzbek tili terminologiyasi (XV-XIX asr oxiri) tizimi qadimgi tukiylar til va eski turkiylar til terminologiyasidek oʻz ichki imkoniyatlari ham oʻzlashmalar hisobiga shakllandi va rivojlandi. Eski oʻzbekcha terminlar yasash jihatdan tub va derivatlardan tashkil topgan edi. Terminlar yasashida qatnashgan affikslarni leksik-grammatik xarakteriga koʻra quyidagicha tasniflash mumkin:

1) Ism-oʻzaklardan ot-terminlar yasovchi affikslar: yurtchi, yulduzchi, cherigchi, turaliq, jibalik, kejimlik va h.k;

2) Feʼl –oʻzaklardan ot-terminlar hosil qiluvchi affikslar: pusugʻ, bolak, yurush, chapqun, quvgʻun//qavgʻun, yasavul, tosqaqul, tatavul, niakvul, yasal, qabal, yasaq, tolgʻama, yasav, bashlamaq va h.k.;

3) Ot(ism)lardan fe'l-terminlar yasovchi affikslar: yag'ila-, oqla-, cherikla-, jibalan-, qilichla-, atlan- va h.k.;

4) Fe'l-o'zaklardan fe'l-termin hosil qiluvchi qo'shimchalar: savash-, urush-, talat-, evril-, yig'il- va h.k.;

Terminlarning sintaktik yo'l bilan yasalishiga tubandagi faktik materiallar misol bo'ladi: koktemur "zirh, sovut", yatish tavachisi "askarlarni yotoq bilan ta'minlovchi harbiy mansab egasi", ulug' urush "dahshatli jang", on begi, yuz bashi, ming begi, tuman begi va h.k.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshida adabiy til alohida o'zga xos o'ringa ega bo'ldi. Bu davr adabiy tili va uslubida jiddiy va muhim o'zgarishlar yuzaga keldi. Bular o'zbek xalqi hayotida sodir bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi natimjasida maydonga chiqdi. XIX asrning 2-yarmidan O'rta Osiyo Russeyaga qaram bo'lib qoldi, Mahalliy millat orasida rus madaniyati yoyila boshladi. Kapitalistik munosabatlar o'zbek xalqi hayotga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Ayni davrda keyinchalik progressiv-demokratik deb nom olgan adabiyot shakllandi.

O'zbek tili leksikasi va terminologiyasi uch manba asosida boyib bordi:

1) o'zbek tilining ichki imkoniyatlari va qonunlari zamirida yuzaga kelgan terminlar: bosmaxona, nizomnoma "ustav", nishontosh "yodgorlik", yig'ilish "majlis" va h.k.;

2) o'zbek tili terminologiyasining jonli xalq tili so'zlari hisobiga kengayishi: bozchi, bezgak, iskaptopar, arava va h.k.;

3) ruscha-g'arbiy yevropacha terminlar o'zbek tiliga o'zlashishi: a) ijtimoiy-siyosiy terminlar – uezd, pristav, soldat, volost`, дума va h.k.; b) transtport bilan bog'liq tushunchalarni anglatuvchi terminlar – poezd, vagon, vokzal, stantsiya va h.k.;

4) sanoat, tijorat va moliya tizimida qo'llanuvchi terminlar – zavod, fabrika, vsitavka, magazin, kredit va h.k.;

5) madaniyat, fan, maorif sohasi terinlari – gimnaziya, teatr, gazeta, muzey, universitet, kafedra va h.k.;

6) tibbiy terminlar – gospital`, lazaret, fel`dsher va h.k.;

7) hujjat va mukofotlar terminlari – medal`, pasport, orden va h.k.;

8) sudlov terminlari – sud, sud`ya, zakon va h.k.;

9) o'lchov birliklari nomi – pud, minuta, sajen` va h.k.;

10) harbiy terminlar – general, korpus, konvoy, kapitan va h.k.

Zikr etilgan o'zlashma terminlarning muayyan qismi keyinchalik ular anglatgan tushunchalarninga turmushdan chiqib ketgani bois iste'moldan qoldi, ba'zilari esa o'zbek tili so'zlari bilan almashtirildi.

Nazorat savollari

1. O'rxun-Yenisey bitiktoshlari janr jihatdan necha guruhga taqsimlanadi?

2. Bitiktoshlar matnida qanday mavzuiy guruhlarga oid terminlar qayd etilgan?

3. Arablar fathidan keyin turkiy tilda qanday jarayonlar sodir bo'lgan?

4. Somoniylar hukmronligi davrida turkiy terminologiyaning holatiga baho bering.
5. Eski turkiy til terminologiyasi tizimi qaysi manbalar asosida shakllandi?
6. Qoraxoniylar saltanatida turkiy tilning mavqei qay darajada edi?
7. Eski o'zbek tili terminologiyasi rivojiga sabab bo'lgan qanday omillarni bilasiz?
8. XIX asr 2-yarmidan o'zbek terminologiyasi tizimi qaysi manbalar hisobiga rivojlandi?
9. O'zbek tili terminologiyasining shakllanishida o'z qatlamning o'ri qanday?
10. Mo'g'ulcha o'zlashmalar eski o'zbek tilining qaysi fan sohasida miqdoran aksariyatni tashkil qiladi?

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1988.
2. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamaları. Toshkent: Fan, 2002.
3. Dadabaev X.A. Obshestvenno-politicheskaya i sotsial'no-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pis'mennix pamyatnikax XI-XIV vv. -Tashkent: Yozuvchi, 1991.
4. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opit lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.
5. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.

#### 5-MAVZU. FRAZEOLGIK, TOPONIMIK, ORFOGRAFIK LUG'ATLAR. LUG'ATLARNING TURI VA ULARNING TAVSIFI

O'z qamrovi, maqsadi, vazifasi va xarakteriga ko'ra, lug'atlar bir necha turli bo'ladi. Dastlab ularning ikki turi ajratiladi:

- 1) ensiklopedik lug'atlar;
- 2) lingvistik (yoki filologik) lug'atlar.

Ensiklopedik va lingvistik lug'atlar, eng avvalo, ob'ektiga ko'ra farq qiladi. Lingvistik lug'atlarning ob'ekti tilning lug'aviy va frazemalar tizimidir. Shuningdek, lingvistikaning so'z va frazemalardan boshqa birliklari ham, masalan, morfema, so'z birikmalari va b. ham lingvistik lug'atlarga ob'ekt bo'laveradi. Shuning uchun lingvistik lug'atlarning ob'ekti keng va tilning ma'lum bir sathi bilan cheklanmaydi.

Ensiklopedik lug'atlarda so'z yoki frazemalar emas, balki tushunchalar sharhlanadi. Shuning uchun bunday lug'atlarda so'z va iboralarning o'zi emas, balki ular orqali bildiriladigan voqea, shaxs, predmet va hodisalar izohlanadi. Narsa-hodisalar haqidagi tushunchalar so'z va so'z birikmalari orqali ifodalanadi. Ana shu narsa-hodisalar haqidagi tushunchalar ensiklopedik lug'atlarning asosiy

birligi hisoblanadi. Bulardan tashqari, ensiklopedik lugʻatlarda asosan ot turkumiga oid lugʻaviy birliklar sharhlanadi. Ularning ichida atoqli otlar, masalan, tarixiy voqealar va ularning ishtirokchilari, joy nomlari boʻlishi mumkin. Shuningdek, ensiklopedik lugʻatlarda son, olmosh va yordamchi soʻzlar haqida maʼlumot berilmaydi.

### **Lingvistik (filologik) lugʻat va uning turlari**

Lingvistik lugʻatlarning asosiy maqsadi tilning barcha sath birliklarining lisoniy xususiyatlarini sharhlashga qaratilgan boʻladi. Ular lisoniy hodisalarning qaysi jihati sharhlanishiga koʻra, bir necha xil boʻladi. Lingvistik lugʻatlar, eng avvalo, *oʻz til lugʻatlari* va *tarjima lugʻatlari* kabi ikki guruhga ajraladi.

*Tarjima lugʻatlari* bir tilga xos lisoniy birliklarni ikkinchi tilga oʻgiradi: unda bir tilning lugʻaviy birliklariga boshqa tilning ularga maʼno va vazifada mushtarak variantlari beriladi. Bunday lugʻatlar ham ikki xil boʻladi: a) *oʻz tilga tarjima lugʻatlari*; b) *oʻzga tilga tarjima lugʻatlari*.

Oʻz tilga tarjima lugʻatlarining namunalari sifatida “Nemischa-oʻzbekcha lugʻat” (Ya.R.Benjaminov, T.Z.Mirsoatov, Toshkent, 1964), “Inglizcha-oʻzbekcha lugʻat” (J.B.Boʻronov, X.R.Rahmonberdiev, S.X.Barnoxoʻjaeva, E.A.Anisimov, Toshkent, 1968), “Arabcha-oʻzbekcha lugʻat” (1986), “Frantsuzcha-oʻzbekcha lugʻat” (T.Aliqulov, D.Bozorova, Toshkent, 1973), “Ispancha-oʻzbekcha lugʻat” (1977), “Hindcha-oʻzbekcha lugʻat” (1987), “Oʻzbekcha-forscha oʻquv lugʻati” (1975), “Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻat” (A.Zohiriy, 1927), bir jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (1954), besh jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (1951-1955), ikki jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (1983-1984) kabilarni koʻrsatish mumkin.

Oʻzbek tilida oʻz tilga tarjima lugʻatlarining turkiy tillararo turi ham mavjud. Bu A.Mashrabov, B.Nishonov va R.Abdullaevlar hammuallifligida tuzilib, 2002 yili Bishkekda nashr etilgan “Qirgʻizcha-oʻzbekcha lugʻat” (“Koʻrgoʻzcha – ozbekche sozduk”)dir. Lugʻat hajman uncha katta boʻlmay, umumtaʼlim maktablari oʻquvchilari hamda oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun moʻljallangan.

Oʻzga tilga tarjima lugʻatlari ham anchagina. Ularga Xoksoning “Muntaxabul-lugʻat”i (forscha-oʻzbekcha, XVIII asr, Xiva); Mirzo Mahdiyxonning “Sangloh” (oʻzbekcha-forscha, XVIII asr, Eron); “Oʻzbekcha-nemischa lugʻat” (1967); “Uzbeksko-russkiy slovar” (V.V.Reshetov, Toshkent, 1957), “Oʻzbekcha-inglizcha lugʻat” (1969); “Qisqacha oʻzbekcha-ruscha lugʻat” (K.Yudaxin, 1927); bir jildli “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat” (1959, 1988) kabilarni koʻrsatish mumkin.

Tarjima lugʻatlari, obʻektiga koʻra, ham ikki guruhga ajraladi: a) *ikki tilli tarjima lugʻatlari*; b) *koʻp tilli tarjima lugʻatlari*. Yuqorida siz bunday lugʻatlarning ikki tilli turlariga keltirilgan namunalar bilan tanishdingiz.

Koʻp tilli tarjima lugʻatlarida bir tilning lugʻaviy birliklari ikki va undan ortiq boshqa tillarning unga mos muqobilari bilan sharhlanadi. Bulardan tashqari, tarjima lugʻatlarining frazemalar sathiga xos turlari ham mavjud.

Masalan, M.Sodiqovanning “Ruscha-oʻzbekcha frazeologik lugʻati” (Toshkent, 1972)da rus tilining frazeologik iboralari oʻzbek tiliga ularning maʼnodosh muqobillari bilan oʻgirilgan.

O‘z til lug‘atlari ham o‘z navbatida: a) *umumiy o‘z lug‘atlari* va b) *maxsus o‘z til lug‘atlari* kabi ikki guruhga bo‘linadi.

### **Maxsus o‘z til lug‘atlari**

Lug‘atning bunday turlarida leksikaning barcha qatlam lug‘aviy birliklari emas, balki uning (leksikaning) ayrim qatlamlari yoki sathlariga oid lisoniy hodisa va birliklar alfavit tartibida beriladi. Bunday lug‘atlar ham, unga kiritilayotgan lisoniy hodisalarning turi va xarakteriga ko‘ra, bir necha xil bo‘ladi. Chunonchi:

1. ***Sinonimlar lug‘ati***. O‘zbek tilshunosligida sinonim so‘zlar lug‘ati akademik A.Hojiev tomonidan tuzilgan va u 1974 yili “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” nomi bilan nashr qilingan.

2. ***Antonimlar lug‘ati***: Sh.Rahmatullaev, R.Shukurov “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”, Toshkent, 1980.

3. ***Omonimlar lug‘ati***: Sh.Rahmatullaev. “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”, Toshkent, 1984.

4. ***Paronimlar lug‘ati***: “Paronimlar lug‘ati” A.Ma’rufov tomonidan tuzilgan va u 1974 yili Toshkentda nashr etilgan. Unda ohangdosh so‘zlar alfavit tartibida sharhi bilan berilgan, 234 qatorni tashkil etuvchi paronimlar izohlangan. Undan ayrim namunalar keltiramiz:

#### **Borlik – Borliq**

*B o r l i k – bor bo‘lish, mavjudlik.*

*Otabek Zaynabning shu qadar yurak dardi borligini birinchi bilar edi (A.Qodiriy).*

*B o r l i q – olam, dunyo.*

*Borliq uzra tushganda oqshom,*

*Zaynab qo‘ydi dalaga qadam (H.Olimjon).*

#### **Milk – Mulk**

*M i l k – tishni tutib turadigan qism, tish o‘rni.*

*Doktorning ...kaftlarida xuddi yigirma yashar yigitning og‘zidan milklari bilan ko‘chirib olinganday bir tekis sadaf tishlar xalqasi yaltirab yotar edi (gazetadan).*

*M u l k – boylik, er-suv, ko‘p miqdordagi mablag‘.*

*Bosmachilik yo‘qolsa, boylar mol-mulkidan judo bo‘lishdan qo‘rqadi (A.Qahhor) va boshqalar.*

5. ***Frazeologik lug‘at***. O‘zbek tilshunosligida frazeologik lug‘atning bir necha turlari yaratilgan. Masalan, Sh.Rahmatullaevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” (1978; 1992 yillar) o‘zbek tili frazemalari qomusiga bag‘ishangan o‘z til lug‘ati xarakterida bo‘lsa, M.Sodiqovanning “Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1972), M.Abdurahimovning “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1980); M.Umarxo‘jaev va N.Nazarovlarning “Nemischa-ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1994) ikki va ko‘p tilli frazeologik tarjima lug‘atlarining namunasi. E.Umarov tomonidan 1971 yili nashr ettirilgan “Frazeologicheskiy slovar “Xazoyinul-maoniy” Alishera Navoi” lug‘ati o‘zbek lug‘atchiligining ayrim ijodkorlar tili frazemalari tizimiga bag‘ishlangan namunasi kiradi.

6. **Tasviriy ifodalar lug‘ati.** Bunday lug‘atning ilk namunasi R.Rasulov va I.Umirovlar tomonidan tayyorlanib, 2005 yili Toshkentda nashr etilgan. U “O‘zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug‘ati” deb ataladi. Bu lug‘atda badiylik va emotsional-ekspressivlikni ro‘yobga chiqaradigan lisoniy vositalar alfavit tartibida berilgan.

7. **Evfemik lug‘at.** Lug‘atning bu turi lingvistik lug‘atlar sirasidagi eng yangilaridan biri bo‘lib, unda tabu ostiga olingan narsa-hodisalarning parafrastik ekvivalentlari alfavit tartibida beriladi. O‘zbek tilshunosligida evfemistik lug‘atning ilk namunasi sifatida A.Omonturdiyev tomonidan tayyorlanib, 2006 yili nashr ettirilgan “O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati”ni ko‘rsatish mumkin.

8. **Dialektal lug‘at.** Lug‘atning bu turida adabiy tilda uchramaydigan va o‘zbek tilining turli lahja va shevalari uchungina xos bo‘lgan mahalliy so‘zlar transkripsiya shaklida, alfavit tartibida beriladi. Dialektal lug‘atlarning namunalari sifatida F.Abdullaevning “Xorazm shevalari. 1-qism. Lug‘at” (Toshkent, 1971); mualliflar hamkorligida 1971 yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” kabilarni ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, S.Ibrohimov tomonidan 1956 va 1959 yillarda ikki kitob shaklida tayyorlanib, nashr etilgan “Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi” asari ham dialektal lug‘atning bir ko‘rinishidir.

9. **Etimologik lug‘at.** Etimologik lug‘atlar so‘zlarning kelib chiqishi, ularning anglatgan dastlabki ma’nolari xususida ma’lumot beruvchi ilmiy manbadir.

O‘tgan asrning yigirmanchi yillari boshlarida professor E.D.Polivanov tomonidan o‘zbek tilining ilk etimologik lug‘ati yaratilgan edi. Keyinchalik turkiy tilshunoslikda lug‘atning bu turiga E.V.Sevortyan tomonidan qo‘l urildi. U 1974 – 1984 yillar orasida to‘rt jildli “Turkiy tillarning etimologik lug‘ati” (“Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazo‘kov”)ni Moskvada chop ettirdi. 2000 – 2003 yillar orasida professor Sh.Raxmatullaev tomonidan “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” ikki kitob shaklida Toshkentda nashr ettirildi. Kitobning birinchisida o‘zbekcha so‘zlar, ikkinchisida esa, arabcha so‘zlarning kelib chiqishi haqida ma’lumot berilgan.

10. **Toponimik lug‘at.** Bunday lug‘atda joy nomlari va ularning lisoniy va nolisoniy asoslari yoritiladi. O‘zbek leksikografiyasi ham bunday lug‘atlarga ega. S.Qoraev qalamiga mansub “Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi?” (Toshkent, 1970); Z.Do‘simov va X.Egamovlar tomonidan nashr qilingan “Joy nomlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, 1977); T.Nafasov tomonidan “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati” joy nomlari lug‘atining ibratli namunalaridir. B.O‘rinboev tomonidan tuzilgan “Asrlardek barhayot nomlar” (Toshkent, 2003) lug‘ati ham joy nomlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Samarqand viloyati toponimlari izohlangan.

11. **Antroponimik lug‘atlar.** Kishi ismlari, familiyalari, laqab va taxalluslari jamlangan va sharhlangan lug‘atlar antroponimik lug‘atlardir. Antroponimik lug‘atlar o‘zbek leksikografiyasida birinchi marta professor E.Begmatov tomonidan tuzilgan va nashr ettirilgan. Uning 14600 nomni o‘z ichiga olgan va 1998 hamda 2006 yillari e’lon qilingan “O‘zbek ismlari ma’nosi” lug‘ati buning dalilidir. Shu muallifning 1994 yil “Fan” nashriyoti tomonidan chop qilingan

“Ismlar chiroyi” kitobining asosiy qismida ham o‘zbek ismlari izohlangan va antroponimik lug‘at xarakterini kasb etgan.

12. **Paremiologik lug‘at.** Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodining maqol, matal va aforizm xarakteridagi hodisalari ham ko‘chma ma’noli sintaktik qurilmalar ekanligi bilan frazemalarga o‘xshaydi. Bunday lisoniy-nutqiy hodisalarning to‘planib, alfavit tartibida izohlanishi ham lug‘atlar xarakterini kasb etadi va ular paremiologik lug‘at deyiladi. H.Berdiyev va R.Rasulovlar hammuallifligida 1984 yili “O‘qituvchi” nashriyoti tomonidan chop qilingan “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati” buning yorqin namunasidir. Bu lug‘atdan namuna sifatida “A” harfiga oid quyidagi parchani keltirish mumkin:

*Avval o‘yla, keyin so‘yla.*

*Avval o‘rgan, keyin o‘rgat.*

*Avval o‘sgan quloqdan keyin chiqqan mo‘g‘iz o‘zib ketar.*

*Avob tabib – ofati jon.*

*Adashgan aqldan ozar.*

*Adashgan yo‘lini topsa, ayb emas.*

*Adashganni barcha kechirar.*

*Adashganni yo‘lga sol va boshqalar.*

13. **Atamalar (terminologik) lug‘ati.** Bunday lug‘atda ma’lum bir fan va texnika, uning sohalari hamda xalq xo‘jaligining turli tarmoqlariga oid so‘z va atamalar izohlanadi. O‘zbek leksikografiyasida bunday lug‘atlar nihoyatda ko‘p. O‘tgan asrning 20–yillaridan 70–yillariga qadar 130 ga yaqin terminologik lug‘atlar chop qilingan. Ularning ilk namunalari sifatida N.To‘raqulov tomonidan 1922 yili nashr ettirilgan “Rus-o‘zbek tillarining ijtimoiy-siyosiy atamaları lug‘ati”, M.Mirboboev va boshqalar tomonidan 1941 yili nashr etilgan “Qisqacha geologiya-razvedka terminlari so‘zligi”, N.V.Kimberg va M.Bahodirovlar tomonidan 1940 yili chop etilgan “Ruscha-o‘zbekcha agrotuproqshunoslik terminlari so‘zligi”, B.Mashrabov va Sh.Qosimovlar tomonidan 1970 yili nashr ettirilgan “Qurilish terminlari lug‘ati” kabi va boshqa yana bir qator ishlarni keltirish mumkin.

Hozirga qadar o‘zbek tilshunosligida fan va texnikaning turli sohalariga bag‘ishlangan atamalar lug‘atining miqdori uch yuzga yaqinlashadi. Ular ilmfanning turli sohalarini o‘z ichiga olgan. Xususan, “Ruscha – o‘zbekcha matematik terminlar lug‘ati” (M.Sobirov, 1952), “Ruscha – o‘zbekcha fizik terminlar lug‘ati” (M.D.Yagudaev, R.Mallin, 1952), “Qisqacha ruscha – o‘zbekcha geografiya terminlari lug‘ati” (N.Dolimov va b., 1953), “Ximiyadan ruscha – o‘zbekcha izohli lug‘at” (Z.Saidnosirova, T.V.Derkunskaya, 1954), “Qisqacha ruscha – o‘zbekcha botanika terminlari lug‘ati” (S.Sahobiddinov, 1954), “Qisqacha ruscha – o‘zbekcha tuproqshunoslik terminlari lug‘ati” (M.Bahodirov va b., 1956), “Ruscha – o‘zbekcha meteorologik lug‘at” (M.Orifxonova, 1956), “Qisqacha izohli zoologiya terminlari lug‘ati” (T.Zohidov, 1938), “Geologiyadan ruscha – o‘zbekcha terminologik lug‘at” (O.Sodiqov, 1958), “Yuridik terminlar lug‘ati” (F.Bakirov, 1959), “Ruscha – o‘zbekcha meditsina lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1962, 1971), “Ruscha – o‘zbekcha fizkultura va sport terminlarining izohli lug‘ati” (R.Ismoilov, M.Norkin, 1961), “Ruscha-o‘zbekcha pedagogika terminlari lug‘ati”



(Sh.Bayburov, N.Takanaev, 1963), “Ruscha – o‘zbekcha yarim o‘tkazgich terminlarining izohli lug‘ati” (M.Azizov, 1966), “Ruscha-o‘zbekcha gidrotexnika terminlari lug‘ati” (Z.Husanxo‘jaev, 1969), “Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha – o‘zbekcha terminologik lug‘at” (N.Hatamov, 1969), “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati” (A.Homidiy va b., 1967, 1971), “Ruscha – o‘zbekcha muzika terminlari lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1970), “Paxtachilik terminlarining qisqacha izohli lug‘ati” (N.Mamatov, 1964), “Elektr mashinalari va avtomatlashtirilgan elektrik yuritma terminlarining izohli lug‘ati” (S.Majidov, 1971) va boshqa nashr etilgan bir qator lug‘atlar shular jumlasidandir.

Bunday lug‘atlar safi mustaqillik yillari va uning arafasida yana kengaydi. Masalan, akademik A.Hojievning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, 2002), A.H.Yunusovning “Fiziologik terminlarning izohli lug‘ati” (Toshkent, 1984), H.Yu.Bekmuhammedovning “Tarix terminlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, 1990), J.Umarov tomonidan tuzilib, Qo‘qonda nashr etilgan “Atamalar lug‘ati”, H.Bektemirov va E.Begmatovlar hammuallifligida nashrdan chiqqan “Mustaqillik davri atamalari” (Toshkent: Fan, 2002) kitobchasiga ilova qilingan lug‘at ana shu davrda yaratilgan.

Shuni alohida e’tirof etish zarurki, J.Umarov tomonidan tuzilgan “Atamalar lug‘ati”da umumxalq tiliga singishmaydigan tavsiya variantlari ham ko‘p uchraydi. Masalan, *bosma tugma (knopka)*, *ochmaxat // oynaxat (otkro‘tk)*, *qirg‘inbaroq (terrorizm)*, *oshig‘ich (ekstern)*, *xobdori (tabletk)*, *voqeot (syujet)*, *ustxat (grif)*, *tosxona (vanna)*, *qarshidosh (antonim)*, *mungsado // xushsado (melodiya)* va boshqalar shunday tavsifda.

Shunisi muhimki, terminologik lug‘atlarning aksariyati ikki va ko‘p tili tarjima lug‘atlari xarakterida bo‘lgan. Masalan, “Qurilish terminlarining qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminlari lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1970), “Atmosfera fizikasidan ruscha-o‘zbekcha lug‘ati” (A.A’zamov, E.Nazirov, 1972), “Ruscha – o‘zbekcha muzika terminlari lug‘ati” (Mualliflar jamoasi, 1970), “Astronomiyadan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologik lug‘at” (1974), “Mashinasozlik texnologiyasi bo‘yicha ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘at” (1973), “Ish yuritish atamalarining ruscha-o‘zbekcha qisqacha lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1994), “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha-inglizcha ish yuritish lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1995) va boshqalar o‘zbek leksikografiyasiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘ldi.

O‘zbek leksikografiyasida spravochnik xarakteridagi izohli lug‘atlar bo‘yicha ham ancha ishlar qilingan. Masalan, “Mexanizatsiyalashga oid spravochnik-lug‘at” (Hamidov A., Toshkent, 1970), “Chizmachilikdan terminologik lug‘at-spravochnik” (1977), “Tarixdan qisqacha izohli lug‘at” (1977), “Qishloq xo‘jalik texnikasiga oid lug‘at-spravochnik” (1981), “Ishlab chiqarish texnologiyasiga doir qisqacha izohli lug‘at” (1981), “Madaniy oqartuv xodimlari uchun qisqacha izohli lug‘at” (1983) va sh.k. buning yorqin dalilidir.

**14. Badiiy asar tilida qo‘llangan so‘zlar izohiga bag‘ishlangan lug‘atlar.** Bunday lug‘atlar tuzish o‘zbek tilshunoslida XVI asrdan boshlangan.

Xususan, Alisher Navoiy asarlari tilini o‘rganishga bag‘ishlangan lug‘atlarning o‘zi o‘ntadan ortadi. 1972 yili mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan o‘n besh jildidan iborat “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”, 1983-1984

yillari nashr etilgan to‘rt jildidan iborat “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” ularning eng yiriklari sanaladi.

Bundan tashqari, “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”ning o‘n besh jildligiga ilova qilingan lug‘at ham mavjud. Professor P.Shamsiev va professor S.Ibrohimovlar tomonidan tuzilgan bu lug‘at ham “Navoiy asarlari lug‘ati” deb ataladi. U 1972 yili Toshkentda G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyotida chop etilgan.

Badiiy asarlar tili bo‘yicha lug‘atlar tuzishda professor A.K.Borovkovning xizmatlari beqiyos katta. Uning xizmatlari o‘zbek lug‘atshunosligi tarixida alohida qadrlanadi. Olim O‘rta Osiyo lug‘atchiligi tarixini “*Abushqa*”, “*Sangloh*”, “*Xulosa-i-Abbosiy*”, “*Badoeul-lug‘at*”, “*Kelurnoma*” singari asarlar tahlilida ko‘rsatishga erishdi.

A.K.Borovkov Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan “Badoeul-lug‘at” asarini chuqur o‘rgandi, uni nashr etilgan shu tipdagi boshqa bir qator lug‘atlar bilan qiyosladi.

Lingvistik lug‘atlarning turi bu aytilganlar bilan cheklanmaydi. Lug‘atlar ichida hali to‘la shakllantirilib, amalga oshirilmagan yana boshqa turlar ham borki, ularga *qisqartma so‘zlar lug‘ati*, *tarixiy va arxaiik so‘zlar lug‘ati*, *badiiy asar nomlari lug‘ati*, *laqab va taxalluslar lug‘ati* va h.k. kabilar mansubdir.

## 6-MAVZU. OMONIMLAR, SINONIMLAR, ANTONIMLAR LUG‘ATLARI.

### Maxsus o‘z til lug‘atlari

Lug‘atning bunday turlarida leksikaning barcha qatlam lug‘aviy birliklari emas, balki uning (leksikaning) ayrim qatlamlari yoki sathlariga oid lisoniy hodisa va birliklar alfavit tartibida beriladi. Bunday lug‘atlar ham, unga kiritilayotgan lisoniy hodisalarning turi va xarakteriga ko‘ra, bir necha xil bo‘ladi. Chunonchi:

1. ***Sinonimlar lug‘ati***. O‘zbek tilshunosligida sinonim so‘zlar lug‘ati akademik A.Hojiev tomonidan tuzilgan va u 1974 yili “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” nomi bilan nashr qilingan.

2. ***Antonimlar lug‘ati***: Sh.Rahmatullaev, R.Shukurov “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”, Toshkent, 1980.

3. ***Omonimlar lug‘ati***: Sh.Rahmatullaev. “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”, Toshkent, 1984.

4. ***Paronimlar lug‘ati***: “Paronimlar lug‘ati” A.Ma‘rufov tomonidan tuzilgan va u 1974 yili Toshkentda nashr etilgan. Unda ohangdosh so‘zlar alfavit tartibida sharhi bilan berilgan, 234 qatorni tashkil etuvchi paronimlar izohlangan. Undan ayrim namunalar keltiramiz:

#### **Borlik – Borliq**

*B o r l i k – bor bo‘lish, mavjudlik.*

*Otabek Zaynabning shu qadar yurak dardi borligini birinchi bilar edi (A.Qodiriy).*

*B o r l i q – olam, dunyo.*

*Borliq uzra tushganda oqshom,*

*Zaynab qo'ydi dalaga qadam (H.Olimjon).*

**Milk – Mulk**

*M i l k – tishni tutib turadigan qism, tish o'rni.*

*Doktorning ...kaftlarida xuddi yigirma yashar yigitning og'zidan milklari bilan ko'chirib olinganday bir tekis sadaf tishlar xalqasi yaltirab yotar edi (gazetadan).*

*M u l k – boylik, er-suv, ko'p miqdordagi mablag'.*

*Bosmachilik yo'qolsa, boylar mol-mulkidan judo bo'lishdan qo'rqadi (A.Qahhor) va boshqalar.*

5. **Frazeologik lug'at.** O'zbek tilshunosligida frazeologik lug'atning bir necha turlari yaratilgan. Masalan, Sh.Rahmatullaevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" (1978; 1992 yillar) o'zbek tili frazemalari qomusiga bag'ishangan o'z til lug'ati xarakterida bo'lsa, M.Sodiqovanning "Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'ati" (Toshkent, 1972), M.Abdurahimovning "Qisqacha o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'ati" (Toshkent, 1980); M.Umarxo'jaev va N.Nazarovlarning "Nemischa-ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'ati" (Toshkent, 1994) ikki va ko'p tilli frazeologik tarjima lug'atlarining namunasidir. E.Umarov tomonidan 1971 yili nashr ettirilgan "Frazeologicheskiy slovar "Xazoyinul-maoniy" Alishera Navoi" lug'ati o'zbek lug'atchiligining ayrim ijodkorlar tili frazemalari tizimiga bag'ishlangan namunasiga kiradi.

6. **Tasviriy ifodalar lug'ati.** Bunday lug'atning ilk namunasi R.Rasulov va I.Umirovlar tomonidan tayyorlanib, 2005 yili Toshkentda nashr etilgan. U "O'zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug'ati" deb ataladi. Bu lug'atda badiylik va emotsional-ekspressivlikni ro'yobga chiqaradigan lisoniy vositalar alfavit tartibida berilgan.

7. **Evfemik lug'at.** Lug'atning bu turi lingvistik lug'atlar sirasidagi eng yangilaridan biri bo'lib, unda tabu ostiga olingan narsa-hodisalarning parafrastik ekvivalentlari alfavit tartibida beriladi. O'zbek tilshunosligida evfemistik lug'atning ilk namunasi sifatida A.Omonturdiev tomonidan tayyorlanib, 2006 yili nashr ettirilgan "O'zbek tilining qisqacha evfemik lug'ati"ni ko'rsatish mumkin.

8. **Dialektal lug'at.** Lug'atning bu turida adabiy tilda uchramaydigan va o'zbek tilining turli lahja va shevalari uchungina xos bo'lgan mahalliy so'zlar transkripsiya shaklida, alfavit tartibida beriladi. Dialektal lug'atlarning namunalari sifatida F.Abdullaevning "Xorazm shevalari. 1-qism. Lug'at" (Toshkent, 1971); mualliflar hamkorligida 1971 yilda nashr etilgan "O'zbek xalq shevalari lug'ati" kabilarni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, S.Ibrohimov tomonidan 1956 va 1959 yillarda ikki kitob shaklida tayyorlanib, nashr etilgan "Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi" asari ham dialektal lug'atning bir ko'rinishidir.

9. **Etimologik lug'at.** Etimologik lug'atlar so'zlarning kelib chiqishi, ularning anglatgan dastlabki ma'nolari xususida ma'lumot beruvchi ilmiy manbadir.

O'tgan asrning yigirmanchi yillari boshlarida professor E.D.Polivanov tomonidan o'zbek tilining ilk etimologik lug'ati yaratilgan edi. Keyinchalik turkiy tilshunoslikda lug'atning bu turiga E.V.Sevortyan tomonidan qo'l urildi. U 1974 – 1984 yillar orasida to'rt jildli "Turkiy tillarning etimologik lug'ati"

(“Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazo‘kov”)ni Moskvada chop ettirdi. 2000 – 2003 yillar orasida professor Sh.Raxmatullaev tomonidan “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” ikki kitob shaklida Toshkentda nashr ettirildi. Kitobning birinchisida o‘zbekcha so‘zlar, ikkinchisida esa, arabcha so‘zlarning kelib chiqishi haqida ma’lumot berilgan.

10. **Toponimik lug‘at.** Bunday lug‘atda joy nomlari va ularning lisoniy va nolisoniy asoslari yoritiladi. O‘zbek leksikografiyasi ham bunday lug‘atlarga ega. S.Qoraev qalamiga mansub “Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi?” (Toshkent, 1970); Z.Do‘simov va X.Egamovlar tomonidan nashr qilingan “Joy nomlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, 1977); T.Nafasov tomonidan “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati” joy nomlari lug‘atining ibratli namunalari. B.O‘rinboev tomonidan tuzilgan “Asrlardek barhayot nomlar” (Toshkent, 2003) lug‘ati ham joy nomlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Samarqand viloyati toponimlari izohlangan.

11. **Antroponimik lug‘atlar.** Kishi ismlari, familiyalari, laqab va taxalluslari jamlangan va sharhlangan lug‘atlar antroponimik lug‘atlardir. Antroponimik lug‘atlar o‘zbek leksikografiyasida birinchi marta professor E.Begmatov tomonidan tuzilgan va nashr ettirilgan. Uning 14600 nomni o‘z ichiga olgan va 1998 hamda 2006 yillari e’lon qilingan “O‘zbek ismlari ma’nosi” lug‘ati buning dalilidir. Shu muallifning 1994 yil “Fan” nashriyoti tomonidan chop qilingan “Ismlar chiroyi” kitobining asosiy qismida ham o‘zbek ismlari izohlangan va antroponimik lug‘at xarakterini kasb etgan.

12. **Paremiologik lug‘at.** Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodining maqol, matal va aforizm xarakteridagi hodisalari ham ko‘chma ma’noli sintaktik qurilmalar ekanligi bilan frazemalarga o‘xshaydi. Bunday lisoniy-nutqiy hodisalarning to‘planib, alfavit tartibida izohlanishi ham lug‘atlar xarakterini kasb etadi va ular paremiologik lug‘at deyiladi. H.Berdiyev va R.Rasulovlar hammuallifligida 1984 yili “O‘qituvchi” nashriyoti tomonidan chop qilingan “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati” buning yorqin namunasidir. Bu lug‘atdan namuna sifatida “A” harfiga oid quyidagi parchani keltirish mumkin:

*Avval o‘yla, keyin so‘yla.*

*Avval o‘rgan, keyin o‘rgat.*

*Avval o‘sgan quloqdan keyin chiqqan mo‘g‘iz o‘zib ketar.*

*Avob tabib – ofati jon.*

*Adashgan aqldan ozar.*

*Adashgan yo‘lini topsa, ayb emas.*

*Adashganni barcha kechirar.*

*Adashganni yo‘lga sol va boshqalar.*

13. **Atamalar (terminologik) lug‘ati.** Bunday lug‘atda ma’lum bir fan va texnika, uning sohalari hamda xalq xo‘jaligining turli tarmoqlariga oid so‘z va atamalar izohlanadi. O‘zbek leksikografiyasida bunday lug‘atlar nihoyatda ko‘p. O‘tgan asrning 20–yillaridan 70–yillariga qadar 130 ga yaqin terminologik lug‘atlar chop qilingan. Ularning ilk namunalari sifatida N.To‘raqulov tomonidan 1922 yili nashr ettirilgan “Rus-o‘zbek tillarining ijtimoiy-siyosiy atamalari lug‘ati”, M.Mirboboev va boshqalar tomonidan 1941 yili nashr etilgan “Qisqacha

geologiya-razvedka terminlari soʻzligi”, N.V.Kimberg va M.Bahodirovlar tomonidan 1940 yili chop etilgan “Ruscha-oʻzbekcha agrotuproqshunoslik terminlari soʻzligi”, B.Mashrabov va Sh.Qosimovlar tomonidan 1970 yili nashr ettirilgan “Qurilish terminlari lugʻati” kabi va boshqa yana bir qator ishlarni keltirish mumkin.

Hozirga qadar oʻzbek tilshunosligida fan va texnikaning turli sohalariga bagʻishlangan atamalar lugʻatining miqdori uch yuzga yaqinlashadi. Ular ilm-fanning turli sohalarini oʻz ichiga olgan. Xususan, “Ruscha – oʻzbekcha matematik terminlar lugʻati” (M.Sobirov, 1952), “Ruscha – oʻzbekcha fizik terminlar lugʻati” (M.D.Yagudaev, R.Mallin, 1952), “Qisqacha ruscha – oʻzbekcha geografiya terminlari lugʻati” (N.Dolimov va b., 1953), “Ximiyadan ruscha – oʻzbekcha izohli lugʻat” (Z.Saidnosirova, T.V.Derkunskaya, 1954), “Qisqacha ruscha – oʻzbekcha botanika terminlari lugʻati” (S.Sahobiddinov, 1954), “Qisqacha ruscha – oʻzbekcha tuproqshunoslik terminlari lugʻati” (M.Bahodirov va b., 1956), “Ruscha – oʻzbekcha meteorologik lugʻat” (M.Orifxonova, 1956), “Qisqacha izohli zoologiya terminlari lugʻati” (T.Zohidov, 1938), “Geologiyadan ruscha – oʻzbekcha terminologik lugʻat” (O.Sodiqov, 1958), “Yuridik terminlar lugʻati” (F.Bakirov, 1959), “Ruscha – oʻzbekcha meditsina lugʻati” (mualliflar jamoasi, 1962, 1971), “Ruscha – oʻzbekcha fizkultura va sport terminlarining izohli lugʻati” (R.Ismoilov, M.Norkin, 1961), “Ruscha-oʻzbekcha pedagogika terminlari lugʻati” (Sh.Bayburov, N.Takanaev, 1963), “Ruscha – oʻzbekcha yarim oʻtkazgich terminlarining izohli lugʻati” (M.Azizov, 1966), “Ruscha-oʻzbekcha gidrotexnika terminlari lugʻati” (Z.Husanxoʻjaev, 1969), “Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha – oʻzbekcha terminologik lugʻat” (N.Hatamov, 1969), “Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati” (A.Homidiy va b., 1967, 1971), “Ruscha – oʻzbekcha muzika terminlari lugʻati” (mualliflar jamoasi, 1970), “Paxtachilik terminlarining qisqacha izohli lugʻati” (N.Mamatov, 1964), “Elektr mashinalari va avtomatlashtirilgan elektrik yuritma terminlarining izohli lugʻati” (S.Majidov, 1971) va boshqa nashr etilgan bir qator lugʻatlar shular jumlasidandir.

Bunday lugʻatlar safi mustaqillik yillari va uning arafasida yana kengaydi. Masalan, akademik A.Hojievning “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati” (Toshkent, 2002), A.H.Yunusovning “Fiziologik terminlarning izohli lugʻati” (Toshkent, 1984), H.Yu.Bekmuhammedovning “Tarix terminlarining izohli lugʻati” (Toshkent, 1990), J.Umarov tomonidan tuzilib, Qoʻqonda nashr etilgan “Atamalar lugʻati”, H.Bektemirov va E.Begmatovlar hammuallifligida nashrdan chiqqan “Mustaqillik davri atamalari” (Toshkent: Fan, 2002) kitobchasiga ilova qilingan lugʻat ana shu davrda yaratilgan.

Shuni alohida eʼtirof etish zarurki, J.Umarov tomonidan tuzilgan “Atamalar lugʻati”da umumxalq tiliga singishmaydigan tavsiya variantlari ham koʻp uchraydi. Masalan, *bosma tugma (knopka)*, *ochmaxat // oynaxat (otkroʻtka)*, *qirgʻinbaroq (terrorizm)*, *oshigʻich (ekstern)*, *xobdori (tabletki)*, *voqeot (syujet)*, *ustxat (grif)*, *tosxona (vanna)*, *qarshidosh (antonim)*, *mungsado // xushsado (melodiya)* va boshqalar shunday tavsifda.

Shunisi muhimki, terminologik lugʻatlarning aksariyati ikki va koʻp tilli tarjima lugʻatlari xarakterida boʻlgan. Masalan, “Qurilish terminlarining qisqacha

ruscha-o'zbekcha terminlari lug'ati" (mualliflar jamoasi, 1970), "Atmosfera fizikasidan ruscha-o'zbekcha lug'ati" (A.A'zamov, E.Nazirov, 1972), "Ruscha – o'zbekcha muzika terminlari lug'ati" (Mualliflar jamoasi, 1970), "Astronomiyadan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologik lug'at" (1974), "Mashinasozlik texnologiyasi bo'yicha ruscha-o'zbekcha izohli lug'at" (1973), "Ish yuritish atamalarining ruscha-o'zbekcha qisqacha lug'ati" (mualliflar jamoasi, 1994), "Qisqacha o'zbekcha-ruscha-inglizcha ish yuritish lug'ati" (mualliflar jamoasi, 1995) va boshqalar o'zbek leksikografiyasiga qo'shilgan munosib hissa bo'ldi.

O'zbek leksikografiyasida spravochnik xarakteridagi izohli lug'atlar bo'yicha ham ancha ishlar qilingan. Masalan, "Mexanizatsiyalashga oid spravochnik-lug'at" (Hamidov A., Toshkent, 1970), "Chizmachilikdan terminologik lug'at-spravochnik" (1977), "Tarixdan qisqacha izohli lug'at" (1977), "Qishloq xo'jalik texnikasiga oid lug'at-spravochnik" (1981), "Ishlab chiqarish texnologiyasiga doir qisqacha izohli lug'at" (1981), "Madaniy oqartuv xodimlari uchun qisqacha izohli lug'at" (1983) va sh.k. buning yorqin dalilidir.

**14. Badiiy asar tilida qo'llangan so'zlar izohiga bag'ishlangan lug'atlar.** Bunday lug'atlar tuzish o'zbek tilshunoslida XVI asrdan boshlangan.

Xususan, Alisher Navoiy asarlari tilini o'rganishga bag'ishlangan lug'atlarning o'zi o'ntadan ortadi. 1972 yili mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan o'n besh jildidan iborat "Alisher Navoiy asarlari lug'ati", 1983-1984 yillari nashr etilgan to'rt jildidan iborat "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" ularning eng yiriklari sanaladi.

Bundan tashqari, "Alisher Navoiy asarlari lug'ati"ning o'n besh jildligiga ilova qilingan lug'at ham mavjud. Professor P.Shamsiev va professor S.Ibrohimovlar tomonidan tuzilgan bu lug'at ham "Navoiy asarlari lug'ati" deb ataladi. U 1972 yili Toshkentda G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida chop etilgan.

Badiiy asarlar tili bo'yicha lug'atlar tuzishda professor A.K.Borovkovning xizmatlari beqiyos katta. Uning xizmatlari o'zbek lug'atshunosligi tarixida alohida qadrlanadi. Olim O'rta Osiyo lug'atchiligi tarixini "*Abushqa*", "*Sangloh*", "*Xulosa-i-Abbosiyy*", "*Badoeul-lug'at*", "*Kelurnoma*" singari asarlar tahlilida ko'rsatishga erishdi.

A.K.Borovkov Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan "Badoeul-lug'at" asarini chuqur o'rgandi, uni nashr etilgan shu tipdagi boshqa bir qator lug'atlar bilan qiyosladi.

Lingvistik lug'atlarning turi bu aytilganlar bilan cheklanmaydi. Lug'atlar ichida hali to'la shakllantirilib, amalga oshirilmagan yana boshqa turlar ham borki, ularga *qisqartma so'zlar lug'ati*, *tarixiy va arxaik so'zlar lug'ati*, *badiiy asar nomlari lug'ati*, *laqab va taxalluslar lug'ati* va h.k. kabilar mansubdir.

**7-MAVZU. INTERNATSIONAL SO'ZLAR LUG'ATI. ETIMOLOGIK VA IZOHLI LUG'ATLAR. RUS-G'ARBIY YEVROPACHA (BAYNALMILAL) TERMINLARNING O'ZBEK TILI TERMINOLOGIYASI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI.**

***Ishdan maqsad:*** Mustaqillikdan keyin o'zbek tili terminologiyasi tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bo'yicha egallangan asosiy ko'nikmalarni takrorlash. Soha terminologiyasida kechayotgan sezilarli o'zgarishlar, chunonchi, terminlarni tartibga solish, bir xillikka keltirish xususida kerakli ko'nikmaga ega bo'lish.

***Masalaning qo'yilishi:*** Ushbu seminar ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- lug'atlarda berilgan motivlanmagan terminlarni izohlashi
- lug'atlar yordamida motivlangan terminlarni talqin qilishi
- terminologik lug'atlardan rus tilidan o'zlashgan suffiksli terminlarni topishi
- rus tilida so'z yasovchi affikslar bilan yasalgan terminlarning o'zbekcha – chi affiksi bilan almashtirilishiga misollar keltirishi
- ruscha-baynanlmilan qo'shma termnlarning o'zbek tiliga o'zlashish printsiplarini izohlashi
- chet tili yasama terminlarining o'zbek tiliga kal'kalash orqali o'zlashishi yo'llarini bilishi
- o'zbek tili terminologiyasida ruscha prefiksoidlar yordamida yasalgan termin-kal'kalarni sharhlashi
- "O'zbek tili izohli lug'ati" tuzilish tartibidan xabardor bo'lishi
- izohli lug'atlarda omonimlarning berilishini talqin qilishi.

***Ishni bajarish uchun namuna.***

Soha terminologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar. Terminlarni unifikatsiyalash va tartibga solish.

Kal'kalash so'z o'zlashtirishning oliy shakli bo'lib, uning tilning bugungi kundagi lug'at tarkibi kengayishi va boyishida juda faolligi allaqachon aniqlangan.

Kal'kalash jarayoni o'zbek tilining barcha terminologik tizimlariga xos bo'lib

(Shoahmedov 1974), asosan ikki ma'lum, ya'ni: a) struktur (so'z yasash), b) semantik kal'ka turi orqali reallashadi. Bu tizimda, shubhasiz, struktur kal'kalar yetakchilik qiladi. Struktur (so'z yasash) kal'kalar sirasiga o'zbek adabiy tili vositalari yordamida boshqa tillarga oid modellardan, ularning morfologik qismlarini tarjima qilish bilan yasalgan terminlar kiradi. Muayyan tilning leksik – so'z yasash materiallari negizida hosil qilingan struktur kal'kalar tom ma'nodagi o'zlashma hisoblanmaydi (Tixonov 1991; 136).

Hozirgi o'zbek terminologiyasi tizimida chet tillarga xos elementlarning alohida miqdori mavjud bo'lib, ularni kal'kalashga hech qanday hojat yo'q. Masalan, telefon, telegraf, traktor, tank, izotop, indikator, orden, bolt, arfa, ring, xokkey, departament, parlament, mina, import, eksport, antenna, armatura, prokuror, aerobus, avtobus, metro, ampermetr, motor, dizel, astronavi, mexanik, radiotexnika, proton, neytron, elektron kabi Ruscha-baynalminal xarakterdagi ko'pgina terminlar tarkiban o'ta rang –barang bo'lib, texnika, ilm-fan, madaniyat, san'atning hamma sohalarini qamrab olgan. Bunday yuzaga kelishni ifodalovchi hamda muttasil rivojlanuvchi terminlar qatlami o'zbek tilining mulkiga aylangan.

Hozirgi paytda ham tayyor terminlarni o'zlashtirish jarayoni o'z faolligini saqlab qolmoqda.

Ayni chog'da, o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va h.k. sohalari terminologiyasi tizimida o'zbek tili qonunlariga bo'ysungan holda muayyan qismi o'zbek tilining so'z yasovchi elementlari bilan almashtirilgan ulkan miqdordagi Ruscha-baynalminal terminlar qo'llanmoqda.

So'z yasovchi suffiksi o'zbek tili affiksi bilan almashtirilgan o'zlashma - terminlar Rus tili terminologiyasi tarkibining salmoqli ulushini so'z yasovchi suffikslar bilan yasalgan, motivlangan terminlar tashkil qiladi (Istoriya leksiki russkogo literaturnogo yazika 1981; 152-166).

So'z o'zlashtirish jarayonida kam miqdordagi terminlar so'z yasovchi suffikslari bilan birga o'zlashtiriladi (metallist, militarist, motorist, nigilist, sotsialist va h.k.). Biroq aksariyat hollarda terminlar yasashda qatnashgan suffikslar o'zbek tilining aynan bir xildagi, o'xshash affikslari bilan almashtiriladi.

So'z yasovchi suffikslari –chi affiksi bilan almashtirilgan terminlar

a) - ist: tank-chi (tankist), traktor-chi (taktorist) shtanga –chi (shtangist) , parashyut-chi (parashyutist), roman-chi (romanist), torpeda-chi (torpedist), radiometr-chi (radiometrist), monarxiya-chi (monarxist), futbol-chi (futbolist) va h. k.;

b) - nik: transport-chi (transportnik), montaj-chi (montajnik), neft-chi (neftyanik), desant-chi (desantnik) va h. k.;

v) - shik: armatura –chi (armaturshik), tunnel-chi (tunnel`shik), tramvay-chi (tramvayshik), fal'tsovka–chi (fal'tsovshik; fal'tsovshitsa), postanovka-chi (postanovshik), signal-chi (signal`shik), armatura-chi (armaturshik) va h. k.;

g) - chik: – proxod-chi (proxodchik), raketa-chi (raketichik), razvedka-chi (razvedchik), prokat-chi (prokatchik), parketchi (parketchik) va h. k.;

d) - ovshik// -l`shik: kran-chi (kranovshik), seyal`ka-chi (seyal`shik), nivelirovka-chi (nivelirovshik), shtamp-lovchi, shtampovka-chi (shtampovshik) va h.k.;

ye) – yor: lift-chi (liftyor), bashnya-chi (bashnyor), eksport-chi (eksportyor), import-chi (importyor), boks-chi (boksyor) va h. k.;

yo) – tor: aviatsiya-chi (aviator), eksperiment-chi (eksperimentator), ekspropriatsiya-chi (ekspropriator), evakuatsiya-chi (evakuator), dekoratsiyachi (dekorator) va h.k.;

j) - sk (iy): gvardiya-chi (gvardeyskiy; gvardeets), politsiya-chi (politseyskiy) va h.k.;

z) - smen: rekord-chi (rekordsmen), sport-chi (sportsmen), politsiya-chi (polismen), yaxta-chi (yaxtsmen) va h. k.

i) - ant: diversiya-chi (diversant) va h. k.

Shunday qilib, shaxs oti, muayyan kasb-hunar egasi nomi hamda shaxsning holati, ahvoli, vaziyatini ifodalovchi ruscha suffikslarni o'zbekcha (turkiy)cha –chi affiksi bilan almashtirish natijasida quyidagi jihatlar voqelanadi:

a) ruscha-baylalmial so'zning asosi o'zgarmagan holda yangi termin yasaladi( respublika-chi – respublikanets, dozimetr-chi -dozimetrists);



b) o'zlashma asos shakli to'la tiklangandan so'ng yangi termin yuzaga keladi(

selektsiya - chi – seleksioner, seyal`ka - chi – seyal`shik) va h.k.

O'zbek tiliga o'zlashgan fe'ldan yasalgan ot – terminlar

Ma'lumki, rus tilida fe'ldan yasalgan ismlar – ni(ye), -k(a), -atsi(ya), -izatsi(ya), -fikatsiya singari suffikslar ko'magida hosil qilinadi. Mazkur suffiksli terminlar o'zbek tili terminologiyasi tizimiga o'zlari ifodalovchi realiyalar va tushunchalar bilan birgalikda tayyor til birliklari sifatida kirib keladi. Masalan, amortizatsiya, anneksiya, assimilyatsiya, artikulyatsiya, alliteratsiya, aeronavigatsiya, kooperativ, kniminalistika, kriminologiya va h.k.

Shu bilan bir qatorda, fe'ldan yasalgan ot – terminlar o'zlashtirish jarayonida o'zbek tili ta'siriga uchraydi va fe'ldan ot yasovchi suffikslar hech bir qiyinchiliksiz o'zbekcha –lash, lashtirish kabi faol affikslar bilan almashtiriladi. Ba'zi bir ashyoviy materiallarga murojaat qilamiz:

a) - ni (ye): akkredit-lash (akkreditovanie), kod-lash (kodirowanie), asfal`t-lash (asfal`tirowanie), avtomat-lashtirish (avtomatizatsiya) va h.k. Tormojenie, kooperirovanie, izolirowanie singari o'zlashma terminlarning asosi o'zbek tilida mustaqil ma'no ifodalamaydi. Bunday vaziyatlarda o'zbek tilida o'zlashmaning asosi qayta tiklanadi va unga o'zbekcha affiks qo'shiladi. Masalan, tormiz-lash ot (tormojenie), abstrakt-lash ot (abstragirovanie) va h.k.;

b) – atsi(ya), -izatsiya, -fikatsiya, -k(a): sian-lash (sianizatsiya), ion-lash (ionizatsiya), menanika-lash (mexanizatsiya), gaz-lashtirish (gazifikatsiya), germet-lash (germetizatsiya), kondens-lash (kondensatsiya), tabul-lash (tabulyatsiya), val`ts-lash (val`tsovka), frez-lash (frezerovka), legal-lashtirish (legalizatsiya), pasport-lashtirish (pasportizatsiya) va h.k.

#### Nazorat savollari

1. Soha terminologiyasiga doir izohli lug'atlar sizni qoniqtiradimi?
2. Izohli lug'atlarning boshqa tip lug'atlardan farqi nimada?
3. Izohli lug'at tuzishda qanday printsiplarga amal qilinadi?
4. "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" xususida qanday fikrdasiz?
5. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"ga baho bering.
6. Mustaqillik davrida tuzilgan izohli lug'atlardan foydalanasizmi?
7. Izohli lug'atdagi so'zning bosh va hosila ma'nolarini izohlashda qanday printsipga yondashish lozim?
8. Siz faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasasida qanday fan sohalariga doir izohli lug'atlar tuzilgan?

#### *Foydalanilgan adabiyot*

1. Alisher Navoiy asarlari tilning izohli lug'ati. I-IV. Toshkent: Fan, 1983-1985.
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1988.
3. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamallari. Toshkent: Fan, 2002.

4. Dadabaev X.A. Obshestvenno-politicheskaya i sotsial`no-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pis`mennix pamyatnikax XI-XIV vv. -Tashkent: Yozuvchi, 1991.

5. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opit lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.

6. Doniyorov R. O`zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.

7. Ruscha-lotinja-o`zbekcha tibbiy terminlar izohli lug`ati. Toshkent: Kamalak-Hamshira, 1999.

8. Xudayberganova D. Lingvokul`turologiya terminlarining qisqacha izohli lug`ati. Toshkent, Turon zamin ziyo, 2015.

9. O`zbek tilining izohli lug`ati. I-II. M., Ruskiy yazik. 1981.

10. O`zbek tilining izohli lug`ati I-V. Toshkent: Fan, 2000-2006 .

11. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati. Toshkent, Fan 2002.

#### 8-MAVZU. O`ZBEK TERMINOLOGIYASINING MUSTAQILLIK DAVRIDAGI RIVOJI. MUSTAQILLIK DAVRI O`ZBEK TERMINOLOGIYASI.

*Ishdan maqsad:* O`zbek tili ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy-texnikaviy va h.k terminlar tizimi bo'yicha asosiy ko'nikmalarni takrorlash. Tub terminlar, yasama terminlar (sodda yasama), qo'shma terminlar, termin-birikmalarni farqlash ko'nikmasiga ega bo'lish.

*Masalaning qo'yilishi:* Ushbu seminar ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- tarixiy-an'anaviy terminlar xususida mulohaza yuritishi
- o`zbek terminologiyasining boyishiga sabab bo'lgan nisbatan yangi terminlarni mahalliy m atbuot organlarida qo'llanishini kuzatishi
- o`zbek tili asosida voqelangan tilshunoslik terminlarini izohlashi
- o'zlashmalar ishtirokida paydo bo'lgan ilmiy terminlarni izohlashi
- lug'atlar yordamida qurol-yarog' nomlarini ifodalovchi terminlarga baho berishi
- tibbiy terminlar tizimida qo'llanuvchi yunoncha va lotinja terminlarni farqlashi
- terminologik lug'atlardagi termin-birikmalarning o'rnini belgilashi.

#### *Ishni bajarish uchun namuna*

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy-texnikaviy va h.k.terminlar tizimi.

O`zbek tilida hozirgi ilmiy-texnikaviy terminologiya o'z aksini keng qamrovda topgan.

O`zbek adabiy tilining ajralmas bo'lagi hisoblanmish terminologiya hozirgi o`zbek tilshunosligi fanining o'ta shahdam va dinamik tarzda taraqqiy etayotgan

kategoriyalardan biri bo'lib, til lug'at boyligining muttasil o'sib hamda kengayib borishida tuganmas manba rolini bajaradi.

O'zbek tili ilmiy terminologiyasida terminlarning uch turi farqlanadi (Begmatov 1988; 140):

1) tarixiy-an'anaviy terminlar. Bu turga taalluqli so'zlar juda qadimdan termin vazifasida qo'llanib keladi va o'zbek terminologiyasining o'zagini tashkil qiladi. Masalan, to'siq, yulduz, soliq, kirim, pul, oldi-sotti, so'roq, tomir, oqsillar, isitma singari ko'pgina terminlar shular sirasidandir;

2) terminologik tizimning boyishiga bois bo'lgan nisbatan yangi termin-o'zlashmalar: skaner, sayt, karate, Internet auktsion, tomografiya, spektr, respirator, psixolingvistika, pragmatika, lingvokul'turologiya, semema, parodontoz, bakteriya, videotelefon, katapul'ta, radiolokator, tatami, pley-off va h.k.;

3) o'zbek tili so'z yasovchi qoliplari negizida hosil qilingan terminlarni ikki guruhga taqsimlash mumkin : a) ona tili materiallari negizida paydo bo'lgan terminlar: bog'lovchi, to'ldiruvchi, kesim, tenglik, qayta saylov, to'lov, boshqaruv, bo'g'ilish, titrash, boshqarma, yasama, qo'nish, qurilma, ko'chish, ikkilamchi bozor, qo'shimcha qiymat solig'i), terma jamoa va h.k.; b) o'zlashmalar ishtirokida yuzaga kelgan terminlar: raketaeltgich, avtomobil'sozlik, eshelonlashtirish, shturmchi, shifrlash, fotohujjat, komp'yutirlashtirish, kateterlash, bombaqidirgich, dzyudochi va h.k. Shubhasiz, o'zbek terminologiyasi ilmiy-texnikaviy inqilob davri deb nom olgan XX asrda ham miqdor, ham sifat tomondan jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Bunday o'zgarishlar intralingvistik va ekstralingvistik omillar ta'siri ostida umum o'zbek adabiy tilida sodir bo'lgan jarayonlar yordamida aniqlanadi. Mubolag'asiz ta'kidlash lozimki, o'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi (1989) hamda O'zbekiston Respublikasining Istiqlolni qo'lga kiritishi (1991) ilm-fan tilining keng qamrovli taraqqiyotini ta'minladi. O'zbek tili terminologik leksikasining faollashish jarayoni respublikaning davlat qurilishi, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyoti, shuningdek, ijtimoiy

turmushning turfa jabhalariga doir talaygina yangi hodisa va tushunchalarni ifodalash zaruriyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli hozirgi paytda o'ta tezlik bilan to'lishib borayotgan qator terminologik tizimlarni yana ham takomillashtirish, yuqori bosqicha ko'tarish o'zbek terminologiyasi oldida turgan dolzarb, kechiktirib bo'lmaz masalalardan hisoblanadi.

Sir emaski, har qanday tilning lug'at tarkibi uch nisbatan mustaqil, ya'ni noterminologik (mustaqil ma'noli so'zlar va yordamchi so'zlar), umumilmiy (ilmiy soha vakillariga xos maxsus leksemalar) hamda terminologik (aniq terminologik tizimlarga oid maxsus leksemalar) qatlamdan tashkil topadi (Mol' 1973; 41; Danilenko 1977; 27-20). Boshqa tillarda kuzatilgani kabi o'zbek tili terminologik leksikasi asl o'zbekcha (turkiycha), o'zlashma (sug'dcha, xitoycha, arabcha, forsha – tojikcha, mo'g'ulcha, Ruscha-baynalminal), sodda, oddiy, barcha tomonidan kunda ishlatiladigan va azaldan qo'llanishda bo'lgan umum adabiy til so'z yasash modellari hamda termin yasash qoliplari asosida shakllangan.

Shuni alohida urg‘ulash kerakki, o‘zbek tilining hozirgi soha terminologiyasi tizimida nisbatan ancha keyin yuzaga chiqqan terminlar safida qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o‘zbek adabiy tilida qayd etilgan leksik birliklarning mavjudligi muhim ahamiyatga molikdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial-siyosiy jabhalarga doir hodisa va tushunchalarni ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiya xalq kundalik hayotida sodir bo‘luvchi turfa voqealar bilan yaqindan bog‘langan.

Ilk marta VII-XIV asrlar yozma yodgorliklari matlarida qayd etilgan elchi, elchilik, elchixon, yorliq, sulh, sulhnoma, xabar, josus, tashrif, ijozat, qabul, noma, muhr, dushmanlik, nishon va boshqa asl o‘zbekcha (turkiycha) hamda boshqa tillardan o‘zlashgan so‘z va so‘z birikmalari zamonaviy o‘zbek diplomatik terminologiyasi tizimida keng ishlatilmoqda (Dadabaev 1994 ;4-13.).

Ma'lumki, juda qadim zamonlardan insonlarning vaqtni aniqlash, bir makondan boshqa joyga harakat qilish, sayohatlarga borish ehtiyoji natijasida osmon va undagi jismlar, yoritqichlar harakatini o‘rganuvchi maxsus fan, ya'ni astronomiya shakllangan. Astronomiya fanining asrlar mobaynidagi taraqqiyoti natijasida ushbu sohaga tegishli leksemalar mikrotizimi shakllandi.

Hozirgi o‘zbek tili astronomik terminologiyasi tizimi X-XIV asrlardan e'tiboran muomalaga kirgan nujum ilmi, munajjim, yulduz, sayyora, usturlub, Hulkar, Arslon, burj, Qovg‘a, Yetagan, Cho‘lpon, Mushtariy singari qadimiy astroponim (kosmonim)larni saqlab qolishga erishgan (Dadabaev 1994; 32-43).

Astronomiya va kosmonavtika fanlarining so‘nggi vaqtlarda jadal rivojlanishi, tabiiy, o‘z ifodasini hozirgi o‘zbek adabiy tili so‘z boyligida ham topdi. Uran, Neptun, Pluton, asteroid, Ulug‘bek asteroidi, Osiyo asteroidi, Galley kometasi, Neuymin kometasi, selenonim, Kirill krateri kabi astroponimlar ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda faol ishlatilmoqda, darslik, qo‘llanma hamda turli xarakterdagi lug‘atlarda qayd etilmoqda (Primov 2009).

Xulllas, genetik ko‘rinishi nuqtai nazaridan o‘zbek tilida qo‘llanuvchi terminlar: a) terminologiya tizimiga tayyor til birligi sifatida qabul qilingan so‘zlar; b) maxsus nom tarzida yasalgan so‘zlarga taqsimlanadi. Bunday ko‘rinishni muayyan lisoniy hodisa va vaziyatlarning mahsuli, deb baholash kerak bo‘ladi.

### ***Nazorat savollari***

1. O‘zbek tili ilmiy terminlarining nechta turi mavjud?
2. O‘zbek tili materiallari asosida paydo bo‘lgan terminlar nechta guruhga oid?
3. Istiqloldan keyin ilm-fan tilining taraqqiyotida “Davlat tili haqida”gi Qonunning roli bormi?
4. Tilning lug‘at tarkibi qancha mustaqil qatlamdan tashkil topadi?
5. XI-XIV asrlarda ishlatilgan IS terminlarning hozirgi qardosh turkiy tillarda qo‘llanish darajasi qanday?
6. Hozirgi o‘zbek tili harbiy terminologiyasi tizimida VII-XIX asrlarga oid istilohlar saqlanib qolganmi?

7. O'zbek tili diplomatik terminologiyasi tizimida ko'hna so'zlarning ulushi qay darajada?
8. Ismlardan sifat-terminlar yasovchi mahsuldor qo'shimchalar xususida mulohaza yuriting.
9. Sifat-termin yasashda o'zlashma qo'shimchalarning o'rni qay darajada?
10. -(v)iy qo'shimchasining hozirgi paytda termin yasashdagi ishtirokiga to'xtaling.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1988.
2. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamaları. Toshkent: Fan, 2002.
3. Dadabaev X.A. Obshestvenno-politicheskaya i sotsial'no-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pis'mennix pamyatnikax XI-XIV vv. -Tashkent: Yozuvchi, 1991.
4. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opit lingvisticheskogo opisaniya.- M.: Nauka, 1977.
5. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977.

### **9-MAVZU. TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI BILAN BOG'LIQ TERMINOLOGIYA. XALQARO TERMINELEMENTLAR.**

#### **Lug'atlarning turi va ularning tavsifi**

O'z qamrovi, maqsadi, vazifasi va xarakteriga ko'ra, lug'atlar bir necha turli bo'ladi. Dastlab ularning ikki turi ajratiladi:

- 1) ensiklopedik lug'atlar;
- 2) lingvistik (yoki filologik) lug'atlar.

Ensiklopedik va lingvistik lug'atlar, eng avvalo, ob'ektiga ko'ra farq qiladi. Lingvistik lug'atlarning ob'ekti tilning lug'aviy va frazemalar tizimidir. Shuningdek, lingvistikaning so'z va frazemalardan boshqa birliklari ham, masalan, morfema, so'z birikmalari va b. ham lingvistik lug'atlarga ob'ekt bo'laveradi. Shuning uchun lingvistik lug'atlarning ob'ekti keng va tilning ma'lum bir sathi bilan cheklanmaydi.

Ensiklopedik lug'atlarda so'z yoki frazemalar emas, balki tushunchalar sharhlanadi. Shuning uchun bunday lug'atlarda so'z va iboralarning o'zi emas, balki ular orqali bildiriladigan voqea, shaxs, predmet va hodisalar izohlanadi. Narsa-hodisalar haqidagi tushunchalar so'z va so'z birikmalari orqali ifodalanadi. Ana shu narsa-hodisalar haqidagi tushunchalar ensiklopedik lug'atlarning asosiy birligi hisoblanadi. Bulardan tashqari, ensiklopedik lug'atlarda asosan ot turkumiga oid lug'aviy birliklar sharhlanadi. Ularning ichida atoqli otlar, masalan, tarixiy voqealar va ularning ishtirokchilari, joy nomlari bo'lishi mumkin. Shuningdek,

ensiklopedik lugʻatlarda son, olmosh va yordamchi soʻzlar haqida maʼlumot berilmaydi.

### **Lingvistik (filologik) lugʻat va uning turlari**

Lingvistik lugʻatlarning asosiy maqsadi tilning barcha sath birliklarining lisoniy xususiyatlarini sharhlashga qaratilgan boʻladi. Ular lisoniy hodisalarning qaysi jihati sharhlanishiga koʻra, bir necha xil boʻladi. Lingvistik lugʻatlar, eng avvalo, *oʻz til lugʻatlari* va *tarjima lugʻatlari* kabi ikki guruhga ajraladi.

*Tarjima lugʻatlari* bir tilga xos lisoniy birliklarni ikkinchi tilga oʻgiradi: unda bir tilning lugʻaviy birliklariga boshqa tilning ularga maʼno va vazifada mushtarak variantlari beriladi. Bunday lugʻatlar ham ikki xil boʻladi: a) *oʻz tilga tarjima lugʻatlari*; b) *oʻzga tilga tarjima lugʻatlari*.

Oʻz tilga tarjima lugʻatlarining namunalari sifatida “Nemischa-oʻzbekcha lugʻat” (Ya.R.Benyaminov, T.Z.Mirsoatov, Toshkent, 1964), “Inglizcha-oʻzbekcha lugʻat” (J.B.Boʻronov, X.R.Rahmonberdiev, S.X.Barnoxoʻjaeva, E.A.Anisimov, Toshkent, 1968), “Arabcha-oʻzbekcha lugʻat” (1986), “Frantsuzcha-oʻzbekcha lugʻat” (T.Aliqulov, D.Bozorova, Toshkent, 1973), “Ispancha-oʻzbekcha lugʻat” (1977), “Hindcha-oʻzbekcha lugʻat” (1987), “Oʻzbekcha-forscha oʻquv lugʻati” (1975), “Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻat” (A.Zohiriy, 1927), bir jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (1954), besh jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (1951-1955), ikki jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (1983-1984) kabilarni koʻrsatish mumkin.

Oʻzbek tilida oʻz tilga tarjima lugʻatlarining turkiy tillararo turi ham mavjud. Bu A.Mashrabov, B.Nishonov va R.Abdullaevlar hammuallifligida tuzilib, 2002 yili Bishkekda nashr etilgan “Qirgʻizcha-oʻzbekcha lugʻat” (“Koʻrgoʻzcha – ozbekche sozduk”)dir. Lugʻat hajman uncha katta boʻlmay, umumtaʼlim maktablari oʻquvchilari hamda oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun moʻljallangan.

Oʻzga tilga tarjima lugʻatlari ham anchagina. Ularga Xoksoning “Muntaxabul-lugʻat”i (forscha-oʻzbekcha, XVIII asr, Xiva); Mirzo Mahdiyxonning “Sangloh” (oʻzbekcha-forscha, XVIII asr, Eron); “Oʻzbekcha-nemischa lugʻat” (1967); “Uzbeksko-russkiy slovar” (V.V.Reshetov, Toshkent, 1957), “Oʻzbekcha-inglizcha lugʻat” (1969); “Qisqacha oʻzbekcha-ruscha lugʻat” (K.Yudaxin, 1927); bir jildli “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat” (1959, 1988) kabilarni koʻrsatish mumkin.

Tarjima lugʻatlari, obʼektiga koʻra, ham ikki guruhga ajraladi: a) *ikki tilli tarjima lugʻatlari*; b) *koʻp tilli tarjima lugʻatlari*. Yuqorida siz bunday lugʻatlarning ikki tilli turlariga keltirilgan namunalar bilan tanishdingiz.

Koʻp tilli tarjima lugʻatlarida bir tilning lugʻaviy birliklari ikki va undan ortiq boshqa tillarning unga mos muqobilari bilan sharhlanadi. Bulardan tashqari, tarjima lugʻatlarining frazemalar sathiga xos turlari ham mavjud.

Masalan, M.Sodiqovanning “Ruscha-oʻzbekcha frazeologik lugʻati” (Toshkent, 1972)da rus tilining frazeologik iboralari oʻzbek tiliga ularning maʼnodosh muqobillari bilan oʻgirilgan.

Oʻz til lugʻatlari ham oʻz navbatida: a) *umumiy oʻz lugʻatlari* va b) *maxsus oʻz til lugʻatlari* kabi ikki guruhga boʻlinadi.

### **Umumiy oʻz til lugʻatlari**

Bunday lugʻatlar til leksikasining barcha qatlam soʻzlarini qamrab oladi. Umumiy lugʻatlar ham bir necha xildir. Ularga quyidagilar kiradi:

1. *Izohli lugʻatlar*. Lugʻatning bunday turlarida soʻzlarning maʼnolari, qoʻllanish sohasi va darajasi, fonetik va grammatik xususiyatlari koʻrsatib beriladi.

Oʻzbek tilshunosligida izohli lugʻatning dastlabki namunasi sifatida 1981 yili Moskvada nashr etilgan ikki jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ni koʻrsatish mumkin. Bu lugʻatda oʻzbek adabiy tilidagi 60 mingdan ortiq lugʻaviy birliklar sharhlangan. Keyinchalik bu lugʻat “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”) besh jildda Toshkentda nashr etildi (2006 – 2008 yillar). Unga hozirgi oʻzbek adabiy tili isteʼmolida boʻlgan 80 mingdan ortiq lugʻaviy birliklar kiritilgan.

2. *Xorijiy soʻzlar lugʻati*. Bu tip lugʻatda boshqa tildan oʻzlashgan soʻz va terminlar beriladi. Rus tilshunosligida xorijiy tillar lugʻati katta hajmda nashr etilgan. Ularga 2004 yili Moskvada nashr ettirilgan “Bolshoy illyustrativnoʻy slovar inostrannoʻx slov”; 2003 yili Minskda nashr qilingan “Noveyshiy slovar inostrannoʻx slov i voʻrajeniy” kabi lugʻatlar misol boʻladi. Xorijiy soʻzlar lugʻati oʻzbek tilshunosligida O.Usmon va R.Doniyorovlar tomonidan “Ruscha internatsional soʻzlar izohli lugʻati” nomi bilan 1965 (birinchi nashri) va 1975 (ikkinchi nashri) yillarda nashr etilgan. Shu lugʻatning “V” harfidan olingan ayrim misollarga eʼtibor bering:

**Vagon.** *Temir yoʻllarda odam va yuk tashish uchun ishlatiladigan berk arava.* rus. ingl. – arava

**Vagonetka.** *Katta qurilishlarda, ishlab chiqarish korxonalarida, konlarda yuk tashiydigan usti ochiq vagoncha.* rus.: q. vagon.

**Vagonovojat.** *Tramvay haydovchi.* rus. Vagonovojatoʻy: q. vagonovojatoʻy vodit – yurgizish.

**Vagonsozlik.** *Transport mashinasozligining vagonlar yasaydigan tarmogʻi, mas., vagonsozlik zavodi.* rus., vagonostroenie; q. vagon.

**Vagranka.** *tex. Choʻyan eritadigan shaxtasimon pech.* Rus.

**Vagrankachi.** *Vagrankada ishlovchi ishchi, mutaxassis.* rus. vagranhik va boshqalar.

3. *Imlo lugʻati*. Imlo lugʻatida soʻz va atamalarning adabiy til meʼyoriga muvofiq toʻgʻri yozilishi beriladi. Oʻzbek tilshunosligida lugʻatning bu turini yaratishga oʻtgan asrning qirqinchi yillaridan kirishilgan.

Oʻzbek tili imlo lugʻatlarining yaratilishida O.Usmon, S.Ibrohimov, M.Rahmonov kabi tilshunoslarning xizmati katta. Masalan, O.Usmon 1940 yili “Oʻzbek tilining orfografik lugʻati” (178 sahifa)ni nashr ettirgan boʻlsa, 1941 yilga kelib bunday lugʻat (“Oʻzbek adabiy tilining orfografik lugʻati”) 360 sahifa hajmida S.Ibrohimov va M.Rahmonovlar tomonidan yaratildi.

1949 yili esa O.Usmonning “Oʻzbek tilining orfografik lugʻati” kengaytirilib (320 sahifa), qaytadan nashr qilindi. 1972 yilga kelib “Oʻzbek tilining imlo lugʻati” S.Ibrohimov, E.Begmatov va A.Ahmedovlar tomonidan yana mukammallashtirilgan holda nashr ettirildi.

4. *Orfoepik lugʻat*. Orfoepik lugʻatda til lugʻaviy birliklarining adabiy tilga muvofiq talaffuzi beriladi. Oʻzbek tilshunosligida bunday lugʻatning ikki namunasi mavjud. Ularning biri M.Sodiqova va Oʻ.Usmonovlar tomonidan 1977 yili

“O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati” nomi bilan nashr ettirilgan. Ikkinchisi esa, 1984 yili professor E.Begmatov tomonidan “O‘zbek adabiy talaffuzi lug‘ati” nomi bilan chop ettirilgan.

5. *Morfem lug‘at*. Bunday lug‘atda tildagi so‘zlarning morfem tizilishi beriladi. O‘zbek tilshunosligida bunday lug‘at (“O‘zbek tilining morfem lug‘ati”) A.G‘ulomov, A.N.Tixonov va R.Qo‘ng‘urovlar tomonidan 1977 yili nashr ettirilgan. Lug‘atning bu turi, tuzilishi va xarakteriga ko‘ra, o‘z til lug‘atlarining boshqa turlaridan farq qilganligi uchun, e‘tiboringizga ayrim namunalar havola qilamiz:

Yirik / la / moq	yir / il / moq
Yirik / la / sh / moq	yiri / ng
Yirik / la / sh / tir / ish	yiri / ng / la / moq
Yirik / la / sh / tir / moq	yiri / ng / la / sh

6. *Chastotali lug‘at*. Chastotali lug‘atlar so‘zlarning qo‘llanishi va foizi haqida ma‘lumot beradi. O‘zbek tilshunosligida bu tip lug‘atlarga quyidagilar kiradi: I.A.Kissen. “Slovar naibolee upotrebitelno‘x slov sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazo‘ka”. Tashkent, 1972; S.Rizaev. “O‘zbek bolalar adabiyoti tili leksikasining chastotali lug‘ati”. Toshkent, 1980; S.Rizaev, N.Bo‘ronov. “Sinchalak” povesti tili leksikasining chastotali lug‘ati”, Toshkent, 1980 yil va b.

7. *Ters lug‘at*. Lug‘atning bu turida so‘zlar teskari (orqa) tomondan o‘qilishi bo‘yicha alfavit tartibida beriladi. Shuning uchun bunday lug‘atni chappa lug‘at deb ham ataladi. O‘zbek tilshunosligida ters (chappa) lug‘at R.Qo‘ng‘urov va A.Tixonovlar tomonidan tuzilib, 1969 yili Samarqandda nashr ettirilgan. U “O‘zbek tilining chappa lug‘ati” deb ataladi. Bu lug‘atdan olingan namunaga e‘tibor bering:

muddat	toat-ibodat	serxarajat
bemuddat	valodat	hujjat
kandidat	shahodat	xat-hujjat
soldat	vahdat	behujjat
mandat	laureat	munojat
odat	jat	hojat
ibodat	xarajat	muhofazat
riyozat	belazzat	ijozat
lazzat	boizzat	beijozat

#### Maxsus o‘z til lug‘atlari

Lug‘atning bunday turlarida leksikaning barcha qatlam lug‘aviy birliklari emas, balki uning (leksikaning) ayrim qatlamlari yoki sathlariga oid lisoniy hodisa va birliklar alfavit tartibida beriladi. Bunday lug‘atlar ham, unga kiritilayotgan lisoniy hodisalarning turi va xarakteriga ko‘ra, bir necha xil bo‘ladi. Chunonchi:

1. ***Sinonimlar lug‘ati***. O‘zbek tilshunosligida sinonim so‘zlar lug‘ati akademik A.Hojiev tomonidan tuzilgan va u 1974 yili “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” nomi bilan nashr qilingan.

2. ***Antonimlar lug‘ati***. Sh.Rahmatullaev, R.Shukurov “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”, Toshkent, 1980.



3. **Omonimlar lug‘ati:** Sh.Rahmatullaev. “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”, Toshkent, 1984.

4. **Paronimlar lug‘ati:** “Paronimlar lug‘ati” A.Ma’rufov tomonidan tuzilgan va u 1974 yili Toshkentda nashr etilgan. Unda ohangdosh so‘zlar alfavit tartibida sharhi bilan berilgan, 234 qatorni tashkil etuvchi paronimlar izohlangan. Undan ayrim namunalar keltiramiz:

**Borlik – Borliq**

*B o r l i k – bor bo‘lish, mavjudlik.*

*Otabek Zaynabning shu qadar yurak dardi borligini birinchi bilar edi (A.Qodiriy).*

*B o r l i q – olam, dunyo.*

*Borliq uzra tushganda oqshom,*

*Zaynab qo‘ydi dalaga qadam (H.Olimjon).*

**Milk – Mulk**

*M i l k – tishni tutib turadigan qism, tish o‘rni.*

*Doktorning ...kaftlarida xuddi yigirma yashar yigitning og‘zidan milklari bilan ko‘chirib olinganday bir tekis sadaf tishlar xalqasi yaltirab yotar edi (gazetadan).*

*M u l k – boylik, er-suv, ko‘p miqdordagi mablag‘.*

*Bosmachilik yo‘qolsa, boylar mol-mulkidan judo bo‘lishdan qo‘rqadi (A.Qahhor) va boshqalar.*

5. **Frazeologik lug‘at.** O‘zbek tilshunosligida frazeologik lug‘atning bir necha turlari yaratilgan. Masalan, Sh.Rahmatullaevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” (1978; 1992 yillar) o‘zbek tili frazemalari qomusiga bag‘ishangan o‘z til lug‘ati xarakterida bo‘lsa, M.Sodiqovanning “Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1972), M.Abdurahimovning “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1980); M.Umarxo‘jaev va N.Nazarovlarning “Nemischa-ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1994) ikki va ko‘p tilli frazeologik tarjima lug‘atlarining namunasi. E.Umarov tomonidan 1971 yili nashr ettirilgan “Frazeologicheskiy slovar “Xazoyinul-maoniy” Alishera Navoi” lug‘ati o‘zbek lug‘atchiligining ayrim ijodkorlar tili frazemalari tizimiga bag‘ishlangan namunasi kiradi.

6. **Tasviriy ifodalar lug‘ati.** Bunday lug‘atning ilk namunasi R.Rasulov va I.Umirovlar tomonidan tayyorlanib, 2005 yili Toshkentda nashr etilgan. U “O‘zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug‘ati” deb ataladi. Bu lug‘atda badiylik va emotsional-ekspressivlikni ro‘yobga chiqaradigan lisoniy vositalar alfavit tartibida berilgan.

7. **Evfemik lug‘at.** Lug‘atning bu turi lingvistik lug‘atlar sirasidagi eng yangilaridan biri bo‘lib, unda tabu ostiga olingan narsa-hodisalarning parafrastik ekvivalentlari alfavit tartibida beriladi. O‘zbek tilshunosligida evfemistik lug‘atning ilk namunasi sifatida A.Omonturdiev tomonidan tayyorlanib, 2006 yili nashr ettirilgan “O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati”ni ko‘rsatish mumkin.

8. **Dialektal lug‘at.** Lug‘atning bu turida adabiy tilda uchramaydigan va o‘zbek tilining turli lahja va shevalari uchungina xos bo‘lgan mahalliy so‘zlar transkripsiya shaklida, alfavit tartibida beriladi. Dialektal lug‘atlarning namunalari

sifatida F.Abdullaevning “Xorazm shevalari. 1-qism. Lug‘at” (Toshkent, 1971); mualliflar hamkorligida 1971 yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” kabilarni ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, S.Ibrohimov tomonidan 1956 va 1959 yillarda ikki kitob shaklida tayyorlanib, nashr etilgan “Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi” asari ham dialektal lug‘atning bir ko‘rinishidir.

9. **Etimologik lug‘at.** Etimologik lug‘atlar so‘zlarning kelib chiqishi, ularning anglatgan dastlabki ma’nolari xususida ma’lumot beruvchi ilmiy manbadir.

O‘tgan asrning yigirmanchi yillari boshlarida professor E.D.Polivanov tomonidan o‘zbek tilining ilk etimologik lug‘ati yaratilgan edi. Keyinchalik turkiy tilshunoslikda lug‘atning bu turiga E.V.Sevortyan tomonidan qo‘l urildi. U 1974 – 1984 yillar orasida to‘rt jildli “Turkiy tillarning etimologik lug‘ati” (“Etimologicheskii slovar tyurkskix yazo‘kov”)ni Moskvada chop ettirdi. 2000 – 2003 yillar orasida professor Sh.Raxmatullaev tomonidan “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” ikki kitob shaklida Toshkentda nashr ettirildi. Kitobning birinchisida o‘zbekcha so‘zlar, ikkinchisida esa, arabcha so‘zlarning kelib chiqishi haqida ma’lumot berilgan.

10. **Toponimik lug‘at.** Bunday lug‘atda joy nomlari va ularning lisoniy va nolisoniy asoslari yoritiladi. O‘zbek leksikografiyasi ham bunday lug‘atlarga ega. S.Qoraev qalamiga mansub “Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi?” (Toshkent, 1970); Z.Do‘simov va X.Egamovlar tomonidan nashr qilingan “Joy nomlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, 1977); T.Nafasov tomonidan “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati” joy nomlari lug‘atining ibratli namunalari. B.O‘rinboev tomonidan tuzilgan “Asrlardek barhayot nomlar” (Toshkent, 2003) lug‘ati ham joy nomlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Samarqand viloyati toponimlari izohlangan.

11. **Antroponimik lug‘atlar.** Kishi ismlari, familiyalari, laqab va taxalluslari jamlangan va sharhlangan lug‘atlar antroponimik lug‘atlardir. Antroponimik lug‘atlar o‘zbek leksikografiyasida birinchi marta professor E.Begmatov tomonidan tuzilgan va nashr ettirilgan. Uning 14600 nomni o‘z ichiga olgan va 1998 hamda 2006 yillari e’lon qilingan “O‘zbek ismlari ma’nosi” lug‘ati buning dalilidir. Shu muallifning 1994 yil “Fan” nashriyoti tomonidan chop qilingan “Ismlar chiroyi” kitobining asosiy qismida ham o‘zbek ismlari izohlangan va antroponimik lug‘at xarakterini kasb etgan.

12. **Paremiologik lug‘at.** Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodining maqol, matal va aforizm xarakteridagi hodisalari ham ko‘chma ma’noli sintaktik qurilmalar ekanligi bilan frazemalarga o‘xshaydi. Bunday lisoniy-nutqiy hodisalarning to‘planib, alfavit tartibida izohlanishi ham lug‘atlar xarakterini kasb etadi va ular paremiologik lug‘at deyiladi. H.Berdiyev va R.Rasulovlar hammuallifligida 1984 yili “O‘qituvchi” nashriyoti tomonidan chop qilingan “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati” buning yorqin namunasidir. Bu lug‘atdan namuna sifatida “A” harfiga oid quyidagi parchani keltirish mumkin:

*Avval o‘yla, keyin so‘yla.*

*Avval o‘rgan, keyin o‘rgat.*

*Avval o‘sgan quloqdan keyin chiqqan mo‘g‘iz o‘zib ketar.*

*Avob tabib – ofati jon.*  
*Adashgan aqldan ozar.*  
*Adashgan yo'lini topsa, ayb emas.*  
*Adashganni barcha kechirar.*  
*Adashganni yo'lga sol va boshqalar.*

13. **Atamalar (terminologik) lug'ati.** Bunday lug'atda ma'lum bir fan va texnika, uning sohaları hamda xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga oid so'z va atamalar izohlanadi. O'zbek leksikografiyasida bunday lug'atlar nihoyatda ko'p. O'tgan asrning 20–yillaridan 70–yillariga qadar 130 ga yaqin terminologik lug'atlar chop qilingan. Ularning ilk namunaları sifatida N.To'raqulov tomonidan 1922 yili nashr ettirilgan “Rus-o'zbek tillarining ijtimoiy-siyosiy atamaları lug'ati”, M.Mirboboev va boshqalar tomonidan 1941 yili nashr etilgan “Qisqacha geologiya-razvedka terminlari so'zligi”, N.V.Kimberg va M.Bahodirovlar tomonidan 1940 yili chop etilgan “Ruscha-o'zbekcha agrotuproqshunoslik terminlari so'zligi”, B.Mashrabov va Sh.Qosimovlar tomonidan 1970 yili nashr ettirilgan “Qurilish terminlari lug'ati” kabi va boshqa yana bir qator ishlarni keltirish mumkin.

Hozirga qadar o'zbek tilshunosligida fan va texnikaning turli sohalariga bag'ishlangan atamalar lug'atining miqdori uch yuzga yaqinlashadi. Ular ilm-fanning turli sohalarini o'z ichiga olgan. Xususan, “Ruscha – o'zbekcha matematik terminlar lug'ati” (M.Sobirov, 1952), “Ruscha – o'zbekcha fizik terminlar lug'ati” (M.D.Yagudaev, R.Mallin, 1952), “Qisqacha ruscha – o'zbekcha geografiya terminlari lug'ati” (N.Dolimov va b., 1953), “Ximiyadan ruscha – o'zbekcha izohli lug'at” (Z.Saidnosirova, T.V.Derkunskaya, 1954), “Qisqacha ruscha – o'zbekcha botanika terminlari lug'ati” (S.Sahobiddinov, 1954), “Qisqacha ruscha – o'zbekcha tuproqshunoslik terminlari lug'ati” (M.Bahodirov va b., 1956), “Ruscha – o'zbekcha meteorologik lug'at” (M.Orifxonova, 1956), “Qisqacha izohli zoologiya terminlari lug'ati” (T.Zohidov, 1938), “Geologiyadan ruscha – o'zbekcha terminologik lug'at” (O.Sodiqov, 1958), “Yuridik terminlar lug'ati” (F.Bakirov, 1959), “Ruscha – o'zbekcha meditsina lug'ati” (mualliflar jamoasi, 1962, 1971), “Ruscha – o'zbekcha fizkultura va sport terminlarining izohli lug'ati” (R.Ismoilov, M.Norkin, 1961), “Ruscha-o'zbekcha pedagogika terminlari lug'ati” (Sh.Bayburov, N.Takanaev, 1963), “Ruscha – o'zbekcha yarim o'tkazgich terminlarining izohli lug'ati” (M.Azizov, 1966), “Ruscha-o'zbekcha gidrotexnika terminlari lug'ati” (Z.Husanxo'jaev, 1969), “Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha – o'zbekcha terminologik lug'at” (N.Hatamov, 1969), “Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati” (A.Homidiy va b., 1967, 1971), “Ruscha – o'zbekcha muzika terminlari lug'ati” (mualliflar jamoasi, 1970), “Paxtachilik terminlarining qisqacha izohli lug'ati” (N.Mamatov, 1964), “Elektr mashinalari va avtomatlashtirilgan elektrik yuritma terminlarining izohli lug'ati” (S.Majidov, 1971) va boshqa nashr etilgan bir qator lug'atlar shular jumlasidandir.

Bunday lug'atlar safi mustaqillik yillari va uning arafasida yana kengaydi. Masalan, akademik A.Hojievning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati” (Toshkent, 2002), A.H.Yunusovning “Fiziologik terminlarning izohli lug'ati” (Toshkent, 1984), H.Yu.Bekmuhammedovning “Tarix terminlarining izohli

lug‘ati” (Toshkent, 1990), J.Umarov tomonidan tuzilib, Qo‘qonda nashr etilgan “Atamalar lug‘ati”, H.Bektemirov va E.Begmatovlar hammuallifligida nashrdan chiqqan “Mustaqillik davri atamalari” (Toshkent: Fan, 2002) kitobchasiga ilova qilingan lug‘at ana shu davrda yaratilgan.

Shuni alohida e‘tirof etish zarurki, J.Umarov tomonidan tuzilgan “Atamalar lug‘ati”da umumxalq tiliga singishmaydigan tavsiiya variantlari ham ko‘p uchraydi. Masalan, *bosma tugma (knopka)*, *ochmaxat // oynaxat (otkro‘tk)*, *qirg‘inbaroq (terrorizm)*, *oshig‘ich (ekstern)*, *xobdori (tabletk)*, *voqeot (syujet)*, *ustxat (grif)*, *tosxona (vanna)*, *qarshidosh (antonim)*, *mungsado // xushsado (melodiya)* va boshqalar shunday tavsifda.

Shunisi muhimki, terminologik lug‘atlarning aksariyati ikki va ko‘p tilli tarjima lug‘atlari xarakterida bo‘lgan. Masalan, “Qurilish terminlarining qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminlari lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1970), “Atmosfera fizikasidan ruscha-o‘zbekcha lug‘ati” (A.A‘zamov, E.Nazirov, 1972), “Ruscha – o‘zbekcha muzika terminlari lug‘ati” (Mualliflar jamoasi, 1970), “Astronomiyadan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologik lug‘at” (1974), “Mashinasozlik texnologiyasi bo‘yicha ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘at” (1973), “Ish yuritish atamalarining ruscha-o‘zbekcha qisqacha lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1994), “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha-inglizcha ish yuritish lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1995) va boshqalar o‘zbek leksikografiyasiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘ldi.

O‘zbek leksikografiyasida spravochnik xarakteridagi izohli lug‘atlar bo‘yicha ham ancha ishlar qilingan. Masalan, “Mexanizatsiyalashga oid spravochnik-lug‘at” (Hamidov A., Toshkent, 1970), “Chizmachilikdan terminologik lug‘at-spravochnik” (1977), “Tarixdan qisqacha izohli lug‘at” (1977), “Qishloq xo‘jalik texnikasiga oid lug‘at-spravochnik” (1981), “Ishlab chiqarish texnologiyasiga doir qisqacha izohli lug‘at” (1981), “Madaniy oqartuv xodimlari uchun qisqacha izohli lug‘at” (1983) va sh.k. buning yorqin dalilidir.

**14. Badiiy asar tilida qo‘llangan so‘zlar izohiga bag‘ishlangan lug‘atlar.** Bunday lug‘atlar tuzish o‘zbek tilshunoslida XVI asrdan boshlangan.

Xususan, Alisher Navoiy asarlari tilini o‘rganishga bag‘ishlangan lug‘atlarning o‘zi o‘ntadan ortadi. 1972 yili mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan o‘n besh jilddan iborat “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”, 1983-1984 yillari nashr etilgan to‘rt jilddan iborat “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” ularning eng yiriklari sanaladi.

Bundan tashqari, “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”ning o‘n besh jildligiga ilova qilingan lug‘at ham mavjud. Professor P.Shamsiev va professor S.Ibrohimovlar tomonidan tuzilgan bu lug‘at ham “Navoiy asarlari lug‘ati” deb ataladi. U 1972 yili Toshkentda G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyotida chop etilgan.

Badiiy asarlar tili bo‘yicha lug‘atlar tuzishda professor A.K.Borovkovning xizmatlari beqiyos katta. Uning xizmatlari o‘zbek lug‘atshunosligi tarixida alohida qadrlanadi. Olim O‘rta Osiyo lug‘atchiligi tarixini “*Abushqa*”, “*Sangloh*”, “*Xulosa-i-Abbosiyy*”, “*Badoeul-lug‘at*”, “*Kelurnoma*” singari asarlar tahlilida ko‘rsatishga erishdi.

A.K.Borovkov Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan “Badoeul-lug‘at” asarini chuqur o‘rgandi, uni nashr etilgan shu tipdagi boshqa bir qator lug‘atlar bilan qiyosladi.

Lingvistik lug‘atlarning turi bu aytilganlar bilan cheklanmaydi. Lug‘atlar ichida hali to‘la shakllantirilib, amalga oshirilmagan yana boshqa turlar ham borki, ularga *qisqartma so‘zlar lug‘ati, tarixiy va arxaik so‘zlar lug‘ati, badiiy asar nomlari lug‘ati, laqab va taxalluslar lug‘ati* va h.k. kabilar mansubdir.

#### 10-MAVZU. TERMINLARNING SHAKLLANISHI. ESKI TURKIY TERMINOLOGIK TIZIMDAGI ARABCHA, FORS-TOJIKCHA O‘ZLASHMALAR.

Qadimgi turkiy til terminologik tizimidagi sanskritcha, so‘g‘dcha, xitoycha o‘zlashmalar. Eski turkiy til terminologik tizimidagi arabcha, forsha-tojikcha o‘zlashmalar. Eski o‘zbek tili terminologiyasida mo‘g‘ulcha o‘zlashmalarning qo‘llanishi. Qadimgi turkiy tildagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar tizimi. Qadimgi turkiy til harbiy terminologiyasi.

*Ishdan maqsad:* Qadimgi turkiy til terminologik tizimidagi sanskritcha, so‘g‘dcha, xitoycha o‘zlashmalar. Eski turkiy til terminologik tizimidagi arabcha, forsha-tojikcha o‘zlashmalar. Eski o‘zbek tili terminologiyasida mo‘g‘ulcha o‘zlashmalarning qo‘llanishi. Qadimgi turkiy tildagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar tizimi. Qadimgi turkiy til harbiy terminologiyasi Umumadabiy so‘zlarning terminologik leksika tizimiga ko‘chishi, umumadabiy leksikaning ma‘noviy o‘zgarishlar bois terminlar safiga o‘tishi, so‘z-ot va termin-otning turli denotatlarni ifodalashi bilan farqlanishi borasida ko‘nikmaga ega bo‘lish.

*Masalaning qo‘yilishi:* Ushbu seminar ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- umumiste‘molga xos leksikaning terminlashuviga misollar keltirishi
- terminologiya tizimiga ko‘chgan umumadabiy so‘zlarni terminologik lug‘atlar yordamida talqin qilishi
- birlamchi ma‘nosini yo‘qotib, yakka ma‘noli ilmiy terminga aylangan so‘zlarni izohlashi
- o‘tgan asrning ikkinchi yarmida tuzilgan terminologik lug‘atlarda keltirilgan siyosiy terminlarni bugunchi kun nuqtai nazaridan talqin qilishi
- muayyan lug‘atning tuzilish printsiplariga baho berishi
- lug‘atlarda sininim terminlarning berilishiga munosabat bildirishi
- terminlogik lug‘atlarda berilgan terminlarning etimologiyasini izohlashi
- istiqlool davri soha terminologik lug‘atlardan xabardor bo‘lishi.

*Ishni bajarish uchun namuna.*

tarixiy–biografik bitiklar: Kultegin, Mo‘g‘ilon (Bilga qag‘an), Kulichur, To‘nyuquq, O‘ngin, Selenga, Sujun, Qorabalg‘asun bitiktoshlari;  
epitafik bitiklar: Yenisey, Talas, Tuva, Xaqosiya qabr toshlari;  
qoyalar, toshlar va qurilishlardagi (Xo‘yto‘-Temir) bitiklar;  
diniy matnlar: folkitobi “Folnoma”;

Turfondan topilgan yuridikG‘huquqiy hujjatlar;  
Maishiy narsa-buyumlardagi bitiklar.

**Ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi** – *qaran* “Oliy hukmdor, xoqon”, *tegin* “taxt vorisi, xonzoda”, *ʼad* “Turk va Uyg‘ur xoqonligida oliy harbiy-ma‘muriy unvon”, *yabru* “G‘arbiy turk xoqonligi hukmdori”, *qatun* “malika”, *tudun* “nazoratchi”, *tutuq* “viloyatning harbiy hukmdori”, *tarqan* “hokim”, *beg* “bek, boshliq”, *eltdbdr* “azlarning sarkardasi”, *sabip* “elchi”, *yolip* “boshliq”, *bara* (sug‘d) “unvon, lavozim”, *pʼbara* (sanskrit) “unvon, mansab” va h.k.

**Harbiy terminlar** – *kxro‘g* “ayg‘oqchi, josus”, *ayruip* “harbiy maslahatchi”, *so‘baʼp* “sarkarda, lashkarboshi”, *yerii* “yo‘l ko‘rsatuvchi, qulavuz”, *so‘ho‘ʼ* “jang, urush”, *so‘ho‘g* “nayza”, *so‘* “lashkar, qo‘shin”, *buyruqG‘buyuruq* “farmonbardor”, *qʼpʼlaq* “qish mavsumi uchun mo‘ljallangan lashkargoh, lager”, *qurran* “qo‘rg‘on, istehkom”, *barru* “o‘lja”, *tegiʼ* “jang”, *kedim* “sovut; yopinchiq”, *yelmd* “g‘oratgar askariy guruh”, *bulun* “bandi, tutqun”, *asir* (ar.) “tutqun, asir” va h.k.

**Savdo-sotiq, moliya bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi istilohlar:** *arqʼpʼ* “savdo-sotiq karvoni”, *sat-* “sotmoq”, *satpr* “savdo-sotiq”, *satprip* “tojir, savdogar”, *berim alpm* “qarz”, *alpm berim* “qarz”, *otar* “qarz”, *otarip* “qarzdor”, *ribat* “rabot, karvonsaroy”, *bergo‘ii* “sudxo‘r, qarz beruvchi”, *baqpr* “pul birligi; mis tanga”, *dinar* “dinor (oltin tanga) va h.k.

**Soliq va boj terminlari tizimi** – *berim* “to‘lov”, *qabpn* “tayyor mahsulot bilan to‘lanadigan soliq turi”, *qubipr* “davlat tomonidan fuqarolardan undiriladigan jon solig‘i”, *rabjat* “qullardan undiriladigan soliq” va h.k.

**Zoonimlar** – *burra* “erkak tuya”, *arslan* “arslon, sher”, *at* “ot”, *ud* “qoramol (buqa yoki sigir), *qaratpr* “xo‘kiz”, *bxri* “bo‘ri”, *bars* “yo‘lbars”, *tiʼi bars* “urg‘ochi yo‘lbars”, va h.k.

**Astroponimlar:** *ay* “oy”, *ko‘n* “quyosh”, *altun yultuz* “Cho‘lpon, Venera”, *Baqpr soqpm* “Mars”, *Iadan//Iazan// Iayan* “Chayon yulduzlar turkumi”, *Yetigdn* “Katta Ayiq”, *nujum* “astronomiya”, *Ot yulduz* “Mars”, *Suv yulduz* “Merkuriy”, *Topraq yulduz* “Saturn”, *Yprai yulduz* “Yupiter”, *yer* “yer, zamin” va h.k.

**Anatomik terminlar** – *yo‘rdk* “yurak”, *qaraq* “ko‘z, ko‘z gavhari”, *qarpn* “qorin”, *qol* “qo‘l”, *baʼ* “bosh”, *barpr* “jigar”, *xvkdG‘xpkd* “o‘pka” va h.k.

**Tibbiy terminlar** – *buran* “chipqon”, *kaka tau* “yiringli yara, chipqon”, *ig* “dard, kasallik”, *ig arrpr* “kasallik, dard”, *ig kegdn* “dard, kasallik”, *adaq arrpr* “oyoq og‘rig‘i”, *arpz arrpr ig* “og‘iz kasalligi”, *burun arrpr ig* “burun kasalligi”, *boruz arrpr ig* “qilizo‘ngach, halqum kasalligi”, *yo‘rdk arrpr ig* “yurak kasalligi”, *onuni arrpr ig* “tomog‘ og‘rig‘i kasalligi”, *qulraq arrr ig* “quloq kasalligi”, *arrprip* “kasal, bemor, dardmand”, *tib* “tibbiyot”, *iurnp* (sanskrit) “surgi dori” va h.k.

**Ma‘dan nomlarini anglatuvchi terminlar:** *altun* “oltin, tilla, zar”, *ko‘mo‘ʼ* “kumush”, *temo‘r* “temir”, *baqpr* “mis” va h.k.

**Dunyo (kurra)ning to‘rt tomoni va vaqt (sutka) o‘lchov birligini ifodalovchi terminlar tizimi** – *ko‘n ortu* 1) “peshin”; 2) “janub”, *to‘n ortu* 1) “yarim kecha”; 2) “shimol”, *to‘n sarp* “shimol”, *tañ sarp* “sharq”, *ko‘n turspq*

“sharq, kuntug‘ar”, *ko‘n bataspq* “g‘arb, kunbotar”, *batar* “G‘arb”, *turar* “Sharq” va h.k.

**Ilm-fanga oid tushunchalarni ifodalovchi terminlar:** *bilig, bilim* “ilm, bilim”, *baqʼil* (xit.) “ustoz, muallim”, *darb, tadif* (ar.) “ko‘paytirish”, *qismat, tansif* “bo‘lish”, *adad* (ar.) “raqam, miqdor, son”, *kuzur, jazr* (ar.) “ildiz”, *misahat* (ar.) “chegara, ildiz chiqarish”, *handasa* “geometriya”, *saqʼb* “arifmetika”, *davat* (ar.) “siyohdon”, *karid* (ar.) “qog‘oz”, *xat* (ar.) “alifbo, xat” va h.k.

**Diniy tushunchalar nomlari (teonimlar):** *bayat* “Tangri, Xudo”, *baiaq//baiar* “ro‘za”, *burxan* (xit.) “budda; payg‘ambar, but”, *yalabai //yalavai //yalafar* “payg‘ambar”, *savip* “payg‘ambar” va h.k.

**Ekologik terminlar:** *so‘zo‘k suv* “tiniq, ko‘m-ko‘k suv”, *tdrkin suv* “balchiqli suv”, *et yer* “yumshoq yer; yumshoq tuproq”, *tatprlpr yer* “qattiq yer”, *qarqar* “o‘tsiz va suvsiz joy, qaqroq”, *sarran yer* “sho‘rxok yer”, *sarpz topraq* “sog‘ tuproq”, *aiuq kxk* “ochiq havo” va h.k.

### Savol va topshiriqlar:

1. Bitiktoshlar matnida qanday mavzuiy guruhlariga oid terminlar qayd etilgan?
2. Eski turkiy til terminologiyasining shakllanish manbalarini belgilang.
3. Eski o‘zbek tili terminologiyasi rivojiga bois bo‘lgan qanday omillarni bilasiz?
4. XIX asrning ikkinchi yarmidan o‘zbek terminologiyasi tizimi qanday manbalar hisobiga rivojlandi?
5. O‘zbek tili terminologiyasining shakllanishida o‘z qatlamning o‘rni xususida bahs yuriting.
6. Eski o‘zbek adabiy tili terminologiyasining yasallish yo‘llariga e‘tibor qarating.
7. Mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar eski o‘zbek tilining qaysi fan sohasida miqdoran aksariyatni tashkil qiladi?

**11-MAVZU. TERMINLAR TARAQQIYOTINING ICHKI OMILLARI. TERMIN O‘ZLASHTIRISH. XORIJIY TILLARDAN O‘ZLASHGAN SO‘Z YASOVCHI VOSITALAR YORDAMIDA YUZAGA KELGAN TERMINLAR. O‘ZBEK TERMINOLOGIK TIZIMADA O‘ZLASHGAN QATLIAM.**

*Ishdan maqsad:* O‘zbek tili terminologik tizimining morfologik, sintaktik va semantik usullar hisobiga boyishi va kengayishi bo‘yicha asosiy ko‘nikmalarni takrorlash. Umumadabiy so‘zlarning terminologik leksika tizimiga ko‘chishi, umumadabiy leksikaning ma‘naviy o‘zgarishlar bois terminlar safiga o‘tishi, so‘z-ot va termin-otning turli denotatlarni ifodalashi bilan farqlanishi borasida ko‘nikmaga ega bo‘lish.

*Masalaning qo‘yilishi:* Ushbu seminar ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- umumiste'molga xos leksikaning terminlashuviga misollar keltirishi
- terminologiya tizimiga ko'chgan umumadabiy so'zlarni terminologik lug'atlar yordamida talqin qilishi
- birlamchi ma'nosini yo'qotib, yakka ma'noli ilmiy terminga aylangan so'zlarni izohlashi
- o'tgan asrning ikkinchi yarmida tuzilgan terminologik lug'atlarda keltirilgan siyosiy terminlarni bugunchi kun nuqtai nazaridan talqin qilishi
- muayyan lug'atning tuzilish printsiplariga baho berishi
- lug'atlarda sininim terminlarning berilishiga munosabat bildirishi
- terminologik lug'atlarda berilgan terminlarning etimologiyasini izohlashi
- istiqlol davri soha terminologik lug'atlardan xabardor bo'lishi.

*Ishni bajarish uchun namuna.*

Terminlarning morfologik, sintaktik, semantik usullar bilan yasalishi.

Terminologiyaning shakllanish va taraqqiy etish jarayoni tilga xos so'z yasalishi qonuniyatlari hamda tilning leksikasi asosida sodir bo'ladi. Umumiste'molga oid leksikaning terminlashuvi voqeasi tarixiy hisoblanadi. Bu hodisa til va terminologiya orasidagi ikki tomonlama munosabatni ko'rsatadi. Mazkur jarayon shuningdek, umumadabiy leksika va terminologik leksika o'rtasidagi jips aloqalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkiy til (VII-X) terminologiyasi, eski turkiy til (XI-XIV) terminologiyasi, eski o'zbek adabiy tili (XV-XX asr boshi) terminologiyasi, sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi va istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi tarzida davrlashtirish salkam o'n to'rt asrlik vaqt mobaynida terminologik leksika tizimida intralingvistik va ekstralingvistik omillar negizida sodir bo'lgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi.

Qadimgi turkiy til manbalarida qayd etilgan turfa soha terminologiyasi asosan sof turkiy tub va yasamalar hamda buddizm va moniyizm ta'sirida so'g'd, sanskrit, xitoy tillaridan kirib kelgan o'zlashmalardan tashkil topgan edi. Jumladan, *barru* "o'lja", *qarru* "soqchi, dozor", *tamra* "mug'ro", *kxro* "g" "ayg'oqchi", *elii* "elchi; hukmdor, yurtboshi", *yolip* "sardor", *ipray* "yo'qsil, kambag'al", *qpalar(q)* "qo'shinning qishki qarorgohi", *ayruip* "davlat maslahatchisi" singari asl turkcha, *ierigG'ierik* "qo'shin, armiya", *sart* "tojir, savdogar" kabi sanskritcha, *xatunG'qatun* "malika", *kent* "qishloq; shahar" singari sug'dcha, *qaran* "hukmdor", *xan* "hokim", *tegin* "xonzoda, shahzoda", *yabru* "xoqondan keyingi oliy lavozim egasi", *sepo'n* "xitoy generali", *tarqan* "tarxon", *tutur* "tuman hokimi" kabi xitoycha, *bad* "Turk xoqonligida oliy lavozim", *badappt* singari eroncha terminlar faol qo'llanishda bo'lganligini manbalar so'z boyligi yaqqol ko'rsatadi.

Ayni chog'da e'tirof etish joizki, sanskrit, eron, xitoy tillarida bitilgan asarlarning turkiy tilga qilingan tarjimalarida qayd etilgan ijtimoiy-siyosiy, harbiy, iqtisodiy, sotsial, hayvonot dunyosi-fauna, o'simlik dunyosi-flora, ilmi nujum-astronimiya va h.k. sohalarga xos terminlar keyinchalik deyarli qo'llanmadi, turkiy tillar, chunonchi, o'zbek tili ularni qabul qilmadi.



Sakkizinchi asrdan e'tiboran arab tili, arab xati va islom mafkurasining Turonzaminda qaror topishi, bir qator mahalliy sulolalar (Qorxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar)ning birin-ketin siyosat sahnasiga chiqishi singari obyektiv jarayonlar ostida o'zligini yo'qotmagan eski turkiy til (XI-XIV)da terminologik leksika ko'lamining bir qadar kengayganini kuzatish mumkin. Eski turkiy til terminologiyasi mavjud lisoniy qonun-qoidalar doirasida shakllandi va rivojlandi. Uning qadimgi turkiy til davriga nisbatan yanada taraqqiy etishida jonli so'zlashuv tili, turfa sheva materiallari qatori so'z yasash andozalari – modellari asosida yuzaga chiqqan istilohlar muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi turkiy tildan farqli o'laroq eski turkiy tilda sanskrit, so'g'd, xitoy tiliga oid o'zlashmalarning ishlatilish sur'ati pasaydi, aksincha, arabcha va forscha-tojikcha o'zlashmalarning qo'llanish chastotasi va ko'lamini ancha kengaydi. Biroq eski turkiy til terminologiyasining o'zagini asl turkiy qatlam tashkil qilishda davom edi. *Alpm* “qarz, kredit”, *berim* “to'lov, qarzni qaytarish”, *beglig* “beklik”, *bitigii* “mirza, munshiy, kotib”, *yatraq* “tungi soqchi”, *yarpʻba* “ko'rshapalak”, *yarru* “ajrim”, *yarruip* “qozi, sudya”, *qalpʻq* “havo”, *obuz* “qattiq yer”, *tirgʻdʻ* “ko'lmak suv” kabi turkcha, *rabat* “karvonsaroy”, *malik* “hukmdor”, *siyasat* “siyosat”, *amil* “ish yurituvchi”, *tib* “meditsina, tibbiyot”, *nujum* “astrologiya”, *handasa* “geometriya” singari arabcha, *laʻlkar* “qo'shin”, *mayfurulʻ* “may ichuvchi; may sotuvchi” singari forscha-tojikcha, *darura* “qal'a, qo'rg'on komendanti”, *mo'ran* “daryo”, *no'kdrG'ndvkdr* “navkar, askar” kabi mo'g'ulcha terminlar bu davr terminologik tizimida nisbatan keng ko'lamda ishlatilgan.

Xususan, harbiy qurol-yarogʻ, texnika bilan bogʻliq *top* zambarak”, *qazan* “ogʻir to'p”, *to'fdʻ* “miltiq” kabi asl o'zbekcha terminlar bilan yonma-yon arabcha *ra'd* “yonib turgan neftni dushman tomon irg'ituvchi to'p”, *arrada* “paloqmon”, *manjaniq* “katapult”, forscha-tojikcha *zarbzʻan* “zambarak turi”, *farangiy* “Yevropa, Kichik Osiyoda quyilgan to'p”, *zanburak* “zambarak” kabi istilohlar jamiyat a'zolarining ma'lum qatlami tilidan o'rin oldi.

Ijtimoiy-siyosiy terminologiyada ham muayan o'zgarishlar yuz berdi. Chunonchi, davlat boshqaruvida yangidan-yangi rutba, lavozim va mansablarning joriy qilinishi natijasi o'laroq *yasavulbaʻlp*, *tabibbaʻlp*, *qoʻlbegi*, *naqib*, *pnaq*, *biy*, *divanbegi*, *toqsaba*, *parvanaip*, *muassil*, *mirab* singari istilohlar keng qo'llanishga kirib keldi.

Har qanday tilning so'z boyligi u tarixiy yoki zamonaviy tusda bo'lmasin, insonlar tomonidan tuziladigan rang-barang lug'atlarda ma'lum darajada aksini topadi. *Lugʻat til soʻz boyligini oʻzida saqlovchi akkumulyator vazifasini bajaradi*. Bugun muayyan tilshunoslikning qay darajada rivojlangani, takomil topgani ayni tilda yaratilgan lug'atlarning turi, miqdori va sifati bilan o'lchanmoqda.

O'zbek lug'atchiligi tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Hozirga qadar yetib kelgan lug'atlar ichida 1074-1075 yili atoqli lug'atnavis Mahmud Koshg'ariy tomonidan tuzilgan “Turkiy so'zlar devoni”, ya'ni “Devonu lug'otit turk” ulkan ahamiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. Zotan, arab millati vakillari uchun juda katta hududda istiqomat qiluvchi turkiy xalqlar til xususiyatlari, chunonchi, alifbosi, tovush qurilishi, lug'at boyligi, so'z turkumlari va gap qurilishi haqida ma'lumot berish uchun mo'ljallangan mazkur asarning ilmiy ahamiyati shu kunga

qadar dunyo olimlari qalamiga mansub 1800 atrofidagi ilmiy izlanishlarda e'tirof etilgan. Arab lug'atchiligi an'analari va qoidalari asosida tuzilgan bu lug'atdan taxminan sakkiz minga yaqin so'zlar, birikmalar, iboralar, maqol va matallar, xalq og'zaki ijodi namunalari joy olgan. "Devonu lug'otit turk", garchi, lug'at deb nomlansa-da, biroq unda Qoraxoniylar davri eski turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlari juda yuqori tahlil qilingan (Dadaboyev, 2017).

O'zbek terminologiyasining qaror topishida XIV asrga oid arab tilida yozilgan grammatik (filologik) risolalarning sezilarli o'rni borligi turkologiyada allaqachon e'tirof etilgan. Turkiy tilning grammatikasi haqida bahs yurishishga yo'naltirilgan Abu Hayyon (vafoti 1344 yil)ning "Kitob ul-idrok li-lison ul-atrok", M.T. Xoutsmaning fikricha, 1245 yilda Mamluklar davlati (1250-1517)da Halil bin Muhammad bin Yusuf al-Ko'nyaviy tomonidan yaratilgan "Kitobi majmuai tarjumoni turki va ajami va mug'ali", muallifi noma'lum "Kitobi at-tuhfat uz-zakiya fi-l-lug'atit turkiya", Jamoluddin Turkiyning "Kitob bulg'at al-mushtoq fi-l-lug'atat- turk va-l-qifchaq", XVI asr boshida Qohirada ta'lif etilgan "Al-qavoninu-l kulliya li-zabtil-lug'atit-turkiya" singari asarlarda turkiy tilning so'z boyligi, alalxusus, istilohlar tizimi ma'lum darajada ifodasini topgan. Mazkur davr asarlarida qayd etilgan turkiy til leksikasi, chunonchi, istilohlar sistemasini "Tarjumoni turki va ajami va mo'g'aliy"da keltirilgan quyidagi mavzuiy guruhlarining ajratilganini qayd etish bilan cheklanamiz:

kishi nomlari – *Alaquʻ, Aqtay, Altuntaʻ, Baybars, Sonqur* va h.k.;

astroponimlar : *O'lkdr*;

geografik nomlar: *Jʻam, Misr*;

uy hayvonlari: *at, xko'z, qatpr, bora, ayrpr* va h.k.;

yirtqich hayvonlar: *aslan, sprtlan, bxri, to'lko'* va h.k.;

qush va hashoratlar: *qartal* "burgut", *saria* "chumchuq", *qaz* "g'oz", *qarlarai* "qaldirg'och", *qarra* va h.k.;

ekoterminalar: *topraq* "tuproq", *qaypr* "shag'al", *yaban* "cho'l, yobon", *oy* "chuqurlik", *qol* "vodiy" va h.k.;

harbiy asbob-anjomlar: *ya* "yoy, kamon", *kiriʻ* "yoy ipi", *so'no'* "nayza", *qalqan, ioqmar* va h.k.;

tibbiy terminlar: *yigG'ig* "kasallik, illat", *arrp* "og'riq", *sxkdl* "bemor, kasal", *isitm* "harorat, isitma", *xto'rm* "yo'tal" va h.k.;

musiqiy terminlar: *duduk* "musiqqa asbobi", *txmro'* "do'mbira", *yaqlpq* "rubob", *spbpzru* "sivizg'a" va h.k.

O'n to'qqizinchi asrning 70-yillaridan e'tiboran o'zbek terminologiyasi rus tili orqali G'arbiy Yevropa tillaridan o'zlashgan terminlar asosida rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. Bu davrda rus tilining o'zbek tili leksikasi, xususan, terminologiyasi rivojiga ta'siri masalasi hozirgacha har tomonlama chuqur ilmiy tadqiqot obyektiga aylanmagan.

Vaholanki, manbalarda qayd qilingan faktik materiallar o'zbek terminologiyasining zikr etilgan paytdagi taraqqiyotini bevosita ifodalagani bois muammoni ijobiy hal etishda o'ta qo'l kelishi aniq. O.Usmonov, Sh.Hamidovlar tomonidan 1981 yilda "Fan" nashriyotida e'lon qilingan "O'zbek tili leksikasi tarixidan materiallar (XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari)" nomli asarda

*atishma*, *atishuv* “otishma”, *axtarish* “tintuv”, *ariq* “kanal”, *ashula oyuni* “konsert”, *basma* “bosma, nashr etilgan”, *bash vazir* “bosh vazir” kabi asl o‘zbekcha istilohlar qatori *barja* “yuk kema”, *prizident* “prezident”, *pratakol* “bayonnoma”, *sayuz* “ittifoq”, *iliktir* “elektr”, *ikiskursiya* “sayohat”, *fonograf*, *samavar*, *sod//sud* “sud” singari o‘zlashmalar aksini topgan. Ashyoviy misollar o‘zlashmalarning o‘zlashtiruvchi o‘zbek tili tovush tizimiga moslashtirilganidan dalolat beradi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Qadimgi turkiy til terminologiyasi qanday qatlamlardan tashkil topgan?
2. “Devonu lug‘otit turk”da eski turkiy til terminologiyasi ifodasini topganmi?
3. “Kitobi at-tuhfat uz-zakiya fi-l-lug‘atit turkiya”da qayd etilgan terminlarni izohlang.
4. “Tarjumoni turki va ajami va mo‘g‘aliy”da keltirilgan fitonimlarni guruhlashtiring.
5. Qadimgi turkiy til va eskiy turkiy tillarga xos terminlar tizimi xususida mulohaza yuriting.
6. Eski o‘zbek adabiy tili terminologiyasi manbalarini aniqlang.
7. O‘n to‘qqizinchi asrning 70-yillaridan e’tiboran o‘zbek terminologiyasida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar xususida mulohaza yuriting.
8. Hozirgi o‘zbek terminologiyasining holati borasida fikr bering.
9. Internet terminologiyasi haqida bahs yuriting.

**12-MAVZU. O‘ZBEK TERMINOLOGIYASINING TARAQQIYOT OMILLARI. ASL O‘ZBEKCHA SO‘ZLARDAN AYNI TILGA OID AFFIKSLAR YORDAMIDA YASALGAN TERMINLAR. O‘ZLASHMALARDAN O‘ZBEK TILI SO‘Z YASASH VOSITALARI ISHTIROKIDA HOSIL QILINGAN TERMINLAR.**

*Ishdan maqsad:* O‘zbek tili terminologik tizimining morfologik, sintaktik va semantik usullar hisobiga boyishi va kengayishi bo‘yicha asosiy ko‘nikmalarni takrorlash. Umumadabiy so‘zlarning terminologik leksika tizimiga ko‘chishi, umumadabiy leksikaning ma’noviy o‘zgarishlar bois terminlar safiga o‘tishi, so‘z-ot va termin-otning turli denotatlarni ifodalashi bilan farqlanishi borasida ko‘nikmaga ega bo‘lish.

*Masalaning qo‘yilishi:* Ushbu seminar ish davomida talaba quyidagilarni bajarishi lozim:

- umumiste'molga xos leksikaning terminlashuviga misollar keltirishi
- terminologiya tizimiga ko‘chgan umumadabiy so‘zlarni terminologik lug‘atlar yordamida talqin qilishi
- birlamchi ma’nosini yo‘qotib, yakka ma’noli ilmiy terminga aylangan so‘zlarni izohlashi
- o‘tgan asrning ikkinchi yarmida tuzilgan terminologik lug‘atlarda keltirilgan siyosiy terminlarni bugunchi kun nuqtai nazaridan talqin qilishi
- muayyan lug‘atning tuzilish printsiplariga baho berishi

- lugʻatlarda sininim terminlarning berilishiga munosabat bildirishi
- terminologik lugʻatlarda berilgan terminlarning etimologiyasini izohlashi
- istiqlol davri soha terminologik lugʻatlardan xabardor boʻlishi.

*Ishni bajarish uchun namuna.*

Terminlarning morfologik, sintaktik, semantik usullar bilan yasaliishi.

Terminologiyaning shakllanish va taraqqiy etish jarayoni tilga xos soʻz yasaliishi qonuniyatlari hamda tilning leksikasi asosida sodir boʻladi. Umumiste'molga oid leksikaning terminlashuvi voqeasi tarixiy hisoblanadi. Bu hodisa til va terminologiya orasidagi ikki tomonlama munosabatni koʻrsatadi. Mazkur jarayon shuningdek, umumadabiy leksika va terminologik leksika oʻrtasidagi jips aloqalarda yaqqol namoyon boʻladi.

Umumadabiy soʻzlar soʻzlashuv tili, dialektlar, lahjalar va sotsial jargonlarning leksik boyligi va me'yorini tashkil qiladi. Ayni zamonda, umumxalq soʻzlari har qanday milliy til terminologiyasini hamisha toʻldirib, kengaytirib boruvchi manbalardan biri tarzida e'tirof etiladi.

Umumadabiy soʻzlarning terminologik leksika tizimiga koʻchishi (transterminlashuv)ning ikki turi mavjudligi aniqlangan .

Yangi terminlarni hosil qilish hisobiga mavjud ehtiyojlarni qondirish mushkul kechgan hollarda majburiy chora sifatida til lugʻat fondidagi soʻzlarga murojaat etiladi. Mazkur guruhga tegishli soʻz-ot va termin-otlar har xil denotatlarni ifodalashi bilan oʻzaro farq qiladi. Ba'zi bir leksik birliklar misolida maxsus ma'noning shakllanish jarayonini kuzatish mumkin.

Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida chanoq soʻzi 1) oʻyib yasalgan kichik hajmdagi yogʻoch idish; 2) kosa, tovoq, lagancha ma'nolarida qoʻllanangan. Bu leksema eski oʻzbek adabiy tilida “ hayvonlar suv ichadigan idish” ma'nosini anglatgan. Fanning keyingi rivoji bosqichlari davrida kuzatilayotgan soʻz tibbiyot terminologiyasi tizimiga maxsus ma'noni ifodalovchi termin sifatida kirgan hamda “tos suyagi, dumgʻaza suyagi” va “kosasimon oʻyikli suyak” ma'nolarini ifodalashga yoʻnaltirilgan. Yuqorida qayd etilgan vaziyatda hozirgi oʻzbek adabiy tilida oʻzining dastlabki ma'nosini yoʻqotgan umumiste'mol soʻz ma'nosidan metaforik koʻchim asosida maxsus terminning yasaliish jarayoni yaqqol namoyon boʻladi. Chunonchi, chanoq tibbiy termini quyidagi sintagmatik birikmalar tarkibida faol qoʻllanishi bilan diqqatni tortadi: katta chanoq («taz bolʻshoy»), bolalar chanogʻi («taz detskiy»), infantil chanoq («taz infantilʻniy»), kichik chanoq («taz maliy»), karlik chanoq («taz karlikoviy»), yassi chanoq («taz ploskiy»), yorilgan chanoq («taz razsheplenniy»), keng chanoq («taz shirokiy»), tor chanoq («taz uzkiy») va h.k.

Qoraxoniylar davri eski turkiy tilga sof turkiycha kuch leksemasining sinonimi sifatida arab tilidan oʻzlashgan quvvat soʻzi mavhum “kuch, qudrat, mador” ma'nosini ifodalash uchun kirib kelgan. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida ushbu oʻzlashma umum tomonidan qoʻllanuvchi soʻz sifatida nafaqat oʻz oʻrnini mustahkam saqlab qolishga erishgan, balki fizika fani sohasida “energiya, quvvat” ma'nosini anglatuvchi termin tarzida ham keng ishlatiladi. Asl turkiycha kuch soʻziga kelsak, u koʻlam chegalari keng koʻpma'noli soʻz sifatida “kuch-qudrat, quvvat”ma'nosida umumadabiy tilda hamon qoʻllanib kelmoqda.

Umumilmiy leksika tarzida kuch fizika, texnika, harbiy ish, iqtisodiyot, huquqshunoslik sohalarida “qudrat”, “kuchlar, qo‘shinlar”, “quvvat, qonuniy huquqqa egalik” kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qilmoqda - iroda kuchi («sila voli»); Yerning tortish kuchi («sila prityajeniya Zemli»); ish//ishchi kuchi («rabochaya sila»); mamlakatning harbiy kuchlari («voorujennie sili gosudarstva»); yangi qonun kuchga kirdi («noviy zakon vstupil v silu») va h.k.

Terminologik lug‘atlarning salmoqli ulushini tashkil qiluvchi transterminlar o‘z ifodasini shuningdek izohli, entsiklopedik hamda tarjima (umumiy va xususiy) lug‘atlarda ham topadi.

Azaldan bez anatomik termini umumiy adabiy tilda “o‘jar, qaysar” insonga nisbatan qo‘llanib keladi. Bo‘ta zoologik termini umumiy adabiy tilda “o‘g‘il, bola, o‘g‘lon” majoziy ma'nosini ifodalaydi va h.k.

Bu xildagi terminologik leksikaning umumiy qo‘llanuvchi til tomonidan o‘zlashtirilishi sub'ektiv omil hisoblanib, u nutqda ekspressivlikka bo‘lgan muayyan ehtiyojni qondirishga qaratilgan bo‘ladi. Terminologiyada faqat fan tili leksikasi tarkibida o‘zining asl, nominativ-denotativ vazifasida istifoda etilishi aniqlangan. Ba'zi bir terminlarning umumadabiy leksikaga suqilib kirishi (va umumadabiy til lug‘atlarida qayd etilishi), turli adabiyotlarda ommabopligi, yoyilganligi, qo‘llanuvchanligi ularning adabiy til tomonidan o‘zlashtirilishini ta'minlaydi.

#### Nazorat savollari

1. Terminologiya qanday manbalar hisobiga shakllanadi?
2. Terminlogiyaning voqelanishida qanday jihatlar harakatga keladi?
3. Terminlarning qaror topishida umummilliy qatlamning roli qay darajada?
4. Ilmiy terminlar tizimida qadimgi sof turkiy qatlamning o‘rni bormi?
5. Terminologik leksika va umumadabiy leksika o‘rtasidagi munosabatga baho bering.
6. Terminlarning ma'no-mazmunini anglab yetishda terminologik lug‘atlarning qanday roli bor?
7. O‘tgan asrda o‘zbek tilida qanday fan sohalari bo‘yicha terminologik lug‘atlar yaratildi?
8. Istiqlol davri terminologik lug‘atlar yaratish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
9. Tarix terminlari lug‘atlari nima uchun zarur?
10. Tilshunoslik terminlari lug‘atlari yaratish bo‘yicha qilinayotgan sa'y harakatlardan xabardormiz?

#### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Ahmedov, Bektemirov H. Ruscha-o‘zbekcha yuridik atamalar lug‘ati. Toshkent,: Adolat, 2002.
2. Bekmuhamedov X.YU. Tarix terminlari izohli lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi, 1978.

3. Dadaboev H. Tarixiy harbiy terminlar lugʻati. Toshkent, 2007.
4. Ismoilov M., Sharopov A. Tarix atamaları lugʻati. Toshkent, Akademnashr, 2013.
5. Muqimov Z., Tursunova O. Oʻzbek davlatchiligida qoʻllangan tarixiy-huquqiy atamalar. Samarqand 2007.
6. Usmon O., Doniyorov. Ruscha-internatsional soʻzlar izohli lugʻati. Toshkent: oʻzbekiston, 1972.
7. Xudayberganova D. Lingvokulʼturologiya terminlarining qisqacha izohli lugʻati. Toshkent, 2015.
8. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. Toshkent: Fan, 2012.

### 13-MAVZU. TILSHUNOSLIK TERMINLARI LUGʻATI.

#### Lugʻat maqolasi

Har bir lugʻat maqolasi bosh soʻz sifatida lingvistik terminni keltirish bilan boshlanadi:

**BITISHUV** . . . .

**BOGʻLAMA** . . . .

Agar termin oʻzbek tiliga boshqa tildan oʻzlashgan boʻlsa, qavs ichida qaysi tildan, qanday soʻz yoki til unsurlari asosida oʻzlashganligi koʻrsatiladi:

**AFFIKS** (lot. affixus - birlashtirilgan, biriktirilgan).

**LEKSIKOGRAFIYA** (*yun.* lexikos – lugʻat; grapho – yozaman).

Lugʻat maqolasining tarkibiy qismlaridan biri terminga beriladigan izohdir. Har bir termin maʼlum lingvistik tushunchani bildiradi, maʼlum bir maʼnoga (ayrimlari birdan ortiq maʼnoga) ega. Lugʻat maqolasida terminning ana shu maʼnosi, koʻp maʼnoli boʻlsa, barcha maʼnolari izohlanadi. N a m u n a:

**MURAKKAB GAP.** 1. Turli bogʻlovchi vositalar yordami bilan oʻzaro bogʻlangan uch va undan ortiq gaplarning bir butunligi.

2. Uyushiq boʻlak, ajratilgan boʻlak, undalma va kiritmalar ishtiroki bilan murakkablashgan sodda gap.

Ayni bir til hodisasi uchun baʼzan birdan ortiq termin qoʻllanadi. Bunday terminlarning har biri lugʻatda berildi. Lekin izoh shulardan qaysi biri asosiy deb hisoblansa, ana shu terminga berildi. Mas., *ish oti*, *infinitiv*, *harakat nomi* terminlaridan faqat *harakat nomi* terminiga izoh berilib, qolganlari *q. (qarang)*, *ayn. (aynan)* kabi belgilar bilan *harakat nomi* terminiga havola etildi.

Lugʻat maqolasida tarkibiy qismlaridan yana biri terminga berilgan izohni tasdiqlovchi misollardir. Lekin izohni isbotlovchi misol barcha lugʻat maqolalarida boʻlavermaydi, balki maʼlum terminlar uchun tuziladigan lugʻat maqolalarigina misol talab etadi. Mas., *tilshunoslik*, *lingvistika* terminlarining izohi hech qanday misol talab etmaydi. *Tushum kelishigi*, *ergash gapli qoʻshma gap* terminlarining izohidan soʻng esa tasdiqlovchi misol berilishi shart. Shunga koʻra, lugʻatda faqat zarur hollardagina tasdiqlovchi misollar berildi.

Ba'zi terminlarning ma'no hajmi keng bo'lib, jins tushunchasini ifodalaydi; ayrimlarning ma'no hajmi tor bo'lib, tur tushunchasini ifodalaydi. *Jins* tushunchasini ifodalovchi termin uchun tuzilgan lug'at maqolasi ichida *tur* tushunchasini ifodalovchi teminlar ham keltiriladi. Lekin ular bu lug'at maqolasida izohlanmadi. Ularning har biri alfibo tartibiga ko'ra o'z o'rnida berildi va har biri uchun alohida lug'at maqolasi tuzildi.

N a m u n a:

**FE'L NISBATLARI.** Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari. Nisbat shakllari fe'lning asos qismidan keyin qo'shiladi. Fe'l 5 ta nisbat shakliga ega: 1) a n i q n i s b a t (q.); 2) o' z l i k n i s b a t i (q.); 3) o r t t i r m a n i s b a t (q.); 4) m a j h u l n i s b a t (q.); 5) b i r g a l i k n i s b a t (q.).

Ayrim terminlar mazmuni yoki qandaydir bir xususiyati bilan boshqa termin yoki terminlarga aloqador bo'lishi mumkin. Bunday aloqadorlikni ko'rsatish shu terminlar bildirgan lingvistik tushunchalarning mohiyatini aniq va oson tushunishga yordam beradi. Lug'atda terminlarning ana shunday aloqadorligi maxsus belgilar bilan ko'rsatildi. Bular quyidagilar: *ayn.* (aynan), *q.* (qarang), *qiyos.* (qiyoslang), *zid.* (ziddi).

*Ayn.* belgisi terminning havola qilinyotgan (*ayn.* belgisidan so'ng kelayotgan) termin bilan aynan bir xil ma'noli ekanini bildiradi va shu terminning asosiy varianti emasligini, asosiysi *ayn.* belgisidan keyingi termin ekanligini ko'rsatadi.

**ABSTRAKT OT-** *ayn.* Mavhum ot.

*q.* belgisi shu terminga aloqasi bo'lgan terminlar uchun tuzilgan lug'at maqolasiga qarashga undaydi. Bu terminlar uchun tuzilgan lug'at maqolasiga qarash bilan izohlanayotgan terminning mazmunini, u bildiradigan lingvistik tushunchaning mohiyatini oson, aniq va to'la tushunish imkoni tug'iladi. Mas., *ajratilgan bo'lak* terminiga tuzilgan lug'at maqolasi bilan shu maqolada *q.* belgisi bilan ko'rsatilgan ajratilgan izohlovchi termini uchun tuzilgan lug'at maqolasini qiyoslab ko'ring.

**AJRATILGAN BO'LAK.** Gapning mazmun va ohang jihatdan ajratilgan bo'lagi: *Boyagi yigitning, A v a z n i n g, qo'li gul ekan. Shu kuni kechqurun, d a l a d a n q a y t i s h d a, Qori Siddiqjonga hamroh bo'lib qoldi.*

Ajratilgan bo'laklar gapdagi qaysi bo'lakka oid ekanligiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi: 1) a j r a t i l g a n h o l l a r (q.); 2) a j r a t i l g a n a n i q - l o v c h i l a r (q.); 3) a j r a t i l g a n i z o h l o v c h i l a r (q.); 4) a j r a t i l g a n t o' l d i r u v c h i l a r (q.).

**AJRATILGAN IZOHLOVCHI.** Izohlanmishdan keyin kelib, asosan, egaga taalluqli bo'lgan ajratilgan bo'lak: Birozdan so'ng Hasan aka, f i z i k a o'q i t u v c h i s i, kirib keldi.

Demak, *q.* belgisi ishorasida ajratilgan bo'lak termini lug'at maqolasiga qarab, avvalo, bog'lama va uning turlari haqida tasavvur hosil qilinadi. Natijada ajratilgan izohlovchining mohiyatini tushunish osonlashadi.

O'zaro antonim bo'lgan terminlar ma'nosini bir-biriga qiyoslab ko'rish ham har bir termin ifodalaydigan til hodisasining mohiyatini to'g'ri va aniq tushunishga

yordam beradi. Shu sababli o‘zaro antonim bo‘lgan terminlarning har biri uchun tuzilgan lug‘at maqolasida *zid.* belgisi bilan uning antonimi keltirildi.

**BO‘LISHLI FE’L.** Bajarilgan, bajarilayotgan, bajariladigan ish-harakatni bildirgan fe’llar: *yozdi, o‘qidi, uxladi* va b. *zid.* **Bo‘lishsiz fe’l.**

Ba’zi lingvistik terminlar o‘zaro farqlansa-da, lekin ma’lum umumiylikka ega bo‘lgan lingvistik tushunchalarning atamasi bo‘ladi. Bunday terminlarni lug‘atda berish, izohlash bilan birga, ularni bir-biriga qiyoslashni tavsiya etish har birining ma’no va mohiyatini to‘g‘ri va oson tushunishga yordam beradi. Xuddi shu maqsadda, qiyoslashga undash uchun lug‘atda *qiyos.* belgisi ishlatildi. Mas., shu lug‘atda vazifadosh modal so‘zlar va sof modal so‘zlar terminlariga tuzilgan lug‘at maqolalariga qarang.

**VAZIFADOSH MODAL SO‘ZLAR.** Modal ma’noda ham qo‘llanadigan *aftidan, chamasi, balki, umuman, ehtimol, taxminan, shubhasiz* kabi so‘zlar. Mas., **B a l k i,** siz haqdirsiz. *qiyos.* **Sof modal so‘zlar.**

**SOF MODAL SO‘ZLAR.** Faqat modal ma’no uchun xoslangan so‘zlar: *haqiqatdan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, avvalambor, masalan, xullas, koshki.* Mas., **M a s a l a n,** men buni bilmasdim. *qiyos.* **Vazifadosh modal so‘zlar.**

## V. KEYSLAR BANKI

**1-keys.** Qadimgi turkiy bitiktoshlari tilida qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy terminlarni aniqlang.

**2-keys.** Eski turkiy tilda ishlatilgan harbiy terminlarni aniqlang (“Qutadg‘u bilig” pandnomasi misolida).

**3-keys.** Eski o‘zbek tili terminologiyasida qo‘llanishda bo‘lgan mo‘g‘ulcha o‘zlashmalarni izohlang.

**4-keys.** O‘tgan asr o‘zbek ilmiy-texnik terminologiyasi nafaqat tub balki ruscha-baynalmilal o‘zlashmalar hisobiga boyidi. *Fikringizni ashyoviy materiallar bilan tasdiqlang.*

**5-keys.** Istiqlool davrida ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimida arxaizmlarning qayta jonlanishi ko‘zga tashlanadi. *Fikringizni dalillar bilan asoslang.*

**6-keys.** Hozirgi o‘zbek terminologiyasida termin yasash modellarining rang-barangligi. *Fikringizni ashyoviy materiallar bilan isbotlang.*

**7-keys.** Hozirgi o‘zbek terminologiyasi umumadabiy leksikaning terminlar tizimiga ko‘chishi hisobiga kengaymoqda. *Fikringizni lingvistika terminlari misolida tasdiqlang*

**8-keys.** O‘zbek tilining etimologik lug‘ati o‘zbek tili leksik fondida qo‘llanayotgan tub, arabcha va forsha-tojikcha o‘zlashmalar va ularning hosilalariga yo‘naltirilgan. *Fikringizni Sh.Rahmatullaevning 2000-2008 yillarda e’lon qilingan lug‘atiga asoslangan holda sharhlang.*

**9-keys.** “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (5 jildlik) da totalitar tuzum mafkurasi bilan bog‘liq so‘zlar ifodasini topgan emas. *Fikringizni 5 jildlik lug‘at va 1981 yilda Moskvada chop etilgan 2 jilddan iborat “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” bilan muqoyasa qilgan holda isbotlang.*



**10-keys.** “O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi” tomlarida sobiq sho‘rolar davrida nomi ta’qiqlangan buyuk ajdodlarimiz haqida kerakli ma’lumotlar berilgan. *Fikringizni “O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi”(12 tom) va “O‘zbek sovet entsiklopediyasi”(14 tom) bilan qiyoslagan holda bayon eting.*

## **VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat. 2008.
2. Karimov I. O‘zbekististon mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
3. Karimov I. O‘rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy tsivilizatsiya rivojidadagi o‘rni va ahamiyati. -Toshkent, 2014.

### **Asosiy adabiyotlar:**

4. Dadabaev X. Obshchestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazychnom pismennom pamyatnike XI-XII vv. Tashkent: Yozuvchi.1991.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

5. Abdushukurov B. Eski turkiy til leksikasi. Toshkent, 2015.
6. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 1-1U. Toshkent: Fan, 1983-1985.
7. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamalari. Toshkent, 2002.
8. Dadabaev X. Voennaya leksika v starouzbekskom yazykeG‘Dadabaev X., Nasorov I., Xusanov N. Problema leksiki starouzbekskogo yazyka. Tashkent: Fan, 1990. –S.3-83.
9. Dadabaev X. Staroturkskaya diplomaticheskaya terminologiya v XI-XII vv. Istoriko-lingvisticheskiy analiz leksiki staropismennom pamyatnike. Tashkent: Fan, 1994. -S.4-13.
10. Dadabaev X. Astronomicheskaya naimenovaniya v staroturkskix pismennom pamyatnike XI-XII vv. Istoriko-lingvisticheskiy analiz leksiki staropismennom pamyatnike. Tashkent: Fan, 1994.
11. Dadaboev H., Hamidov Z., Xolmanova Z. O‘zbek adabiy tili leksikasi tarixi. Toshkent: Fan, 2007.
12. Dadabaev X. Obshchestvenno-politicheskaya terminologiya v istoriko-xronologicheskix proizvedeniyax Agaxi. Kazaxskaya terminologiya v godo‘ nezavisimosti. Almaty, 2014. –S.97-103.
13. Dadabaev X. Leksiko-geneticheskie osobennosti uzbekskoy terminologii. Lingvist. Ilmiy maqolalar to‘plami U1. Toshkent,2015.-S.4-10.

14. Dadaboev H. O‘zbek tilida affiksatsiya usuli bilan yasalgan sifat-terminlar, “O‘zbek tilshunosligi: taraqqiyoti va istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Toshkent, 2016. –B.193-199.
15. Dadaboev H.O‘zbek tilida morfologik usul bilan termin yasash. Lingvist. Ilmiy maqolalar to‘plami UP. Toshkent, 2016.-B.4-10.
16. Dadaboev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati. Toshkent, 2007.
17. Danilenko V.P. Russkaya terminologiya. Opo‘t lingvisticheskogo opisaniya. M.,: Nauka, 1977.
18. Ismoilov M., Sharapov A. Tarix atamallari lug‘ati.Toshkent: «Akademnashr», 2013.
19. Xolmanova Z. “Boburnoma” leksikasi. Toshkent, Fan, 2007.
20. Choriev Z. Tarix atamalarining izohli lug‘ati. Toshkent: Sharq, 1999.
21. O‘zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari. 1 respublika terminologiya konferentsiyasi materiallari. Toshkent: Fan, 1986.
22. O‘razboev A. Ogahiyning tarixiy asarlari leksikasi.Toshkent: Muharrir nashriyot, 2013.
- 23.Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: Fan, 2002.
24. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: Fan, 2013. – 144 b.

#### **Internet resurslari (saytlari)**

25. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
26. [www.genhis.philol.ru](http://www.genhis.philol.ru)
27. [www.library.ziyonet.uz](http://www.library.ziyonet.uz)
28. [www.lingvo-online.ru](http://www.lingvo-online.ru)
29. [www.globalterminology.com](http://www.globalterminology.com)
30. [www.basiccomputerterminology.com](http://www.basiccomputerterminology.com)
31. [www.tilde.com](http://www.tilde.com)
32. [www.oxfordhandbooks.com](http://www.oxfordhandbooks.com)